AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA

II RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA

II RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Farg‘ona – 2023

Mazkur to‘plamda 2023-yil 4-aprel kuni Farg‘ona davlat universitetida o‘tkazilgan “Amir Temur jahon tarixida” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari o‘rin olgan. To‘plamda O‘zbekiston tarixining siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotiga oid yangi tadqiqotlarning natijalari bayon qilingan.

Maqolalarda keltirilgan dalillar va ko‘rsatilgan manbalarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldir. Maqola mualliflarining fikr mulohazalari tahrir hay’atining nuqtai nazarini bildirmaydi.

Mutaxassislar, o‘qituvchilar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

В данном сборнике публикуются материалы республиканской научно-теоретической конференции на тему «Амир Темур в мировой истории», проведенной в Ферганском государственном университете 4 апреля 2023 года. В сборнике изложены результаты новых исследований по политической, экономической и культурной жизни истории государства Амира Темура и темуридов.

Авторы ответственны за правдивость сведений и источников, приведенных в публикациях. Мнения авторов публикаций не отражают точку зрения редакционной коллегии.

Сборник рассчитан на специалистов, преподавателей и студентов.

This collection publishes materials of the republican scientific-theoretical conference on the topic "Amir Temur in world history", held at Fergana State University on April 4, 2023. The collection presents the results of new research on the political, economic and cultural life of the history of the state of Amir Temur and the Temurids.

The authors are responsible for the truthfulness of the information and sources given in the publications. The opinions of the authors of publications do not reflect the point of view of the editorial board.

The collection is intended for specialists, teachers and students.

Tashkiliy qo‘mita / Организационный комитет / Organizing committee

b.f.d. I.Zokirov, X.Jo‘rayev, t.f.f.d. N.Alimova, t.f.d. B.Usmonov

Ma’sul muharrir / Ответственный редактор / Executive editor

t.f.d. B.Usmonov

Tahrir hay’ati / Редакционная коллегия / Editorial board

p.f.d. T.Egamberdiyeva, t.f.n. A.Sharafiddinov, t.f.f.d. S.Yo‘ldoshev, t.f.f.d. N.Alimova, t.f.f.d. M.Shamsiyeva, t.f.f.d. L.Begimqulova, t.f.f.d. A.Nishonov

Texnik muharrirlar / Технические редакторы / Technical editors

A.Musayev, O.Abdunosirova, D.Mo‘ydinov

To‘plam Farg‘ona davlat universiteti Kengashining 2023-yil 14-aprel 4-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO‘ZI

B.Sh.Shermuhammadov

Farg‘ona davlat universiteti rektori,
pedagogika fanlari doktori, professor

Jahon sivilizatsiyasi tarixida O‘zbekiston munosib o‘rin egallagan davlatlardan biridir. Zaminimizning uch ming yillik davlatchilik tarixi, hududdagi iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy jarayonlar mahalliy tarixchilar bilan bir qatorda xorijlik tadqiqotchilarning ham qiziqishlariga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi”. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Ayniqsa, “Temuriylar davri renessansi”ning poydevorini qo‘ygan buyuk sarkarda, davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi bo‘lgan Amir Temur shaxsini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sohibqiron Amir Temur jahon tarixida kam uchraydigan uzoqni ko‘ra biluvchi hukmdor edi. Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligimiz tarixda alohida o‘ringa egadir. Bu davr madaniyati kuchli davlatchilik asosida shakllanib, Markaziy Osiyo va jahonning ijtimoiy-madaniy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘z davrida mamlakatning madaniyati, ilm-fani, san’ati, shu bilan bir qatorda butunjahon sivilizatsiyasi rivojida ulkan hissa qo‘shgan bu Ulug‘ zot nomi asrlar o‘sha avlodlarning faxr-iftixori bo‘lib kelmoqda.

Amir Temur va temuriylar davri siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti, davlat boshqaruvi, diplomatik munosabatlari, elchilik aloqalari, qo‘shin va uning tuzilishi boshqa masalalarga doir O‘zbekiston va jahonda minglab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan arab, fors va uyg‘ur tillaridagi manbalar tarjima qilinib, yangi ilmiy xulosalar berilmoqda. Bugungi kungacha Amir Temurning siyosiy, harbiy va ilmiy qarashlari, pand-nasihatlari va uning olimlar, shoirlar, shayxlar, san’at vakillari va

o‘z davrining bilimli, iste’dodli kishilariga bo‘lgan munosabati barchani hayratga solib kelmoqda. Uning yaratuvchanlik va ilm-fanga homiylik faoliyati Shohrux mirzo, Xalil Sulton, Iskandar mirzo, Mirzo Ulug‘bek, Boysung‘ur mirzo, Ibrohim Sulton, Sulton Abu Said mirzo, Sulton Husayn mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sulolaning keyingi vakillari uchun ayni yo‘nalishda dastak vazifasini bajargan. Amir Temur davlat boshqaruvida qonuniylik, adolat, saxovatpeshalik, ilm-ma’rifatga rag‘bat, g‘amxo‘rlik kabi tamoyillarda amal qilgan. Amir Temur Turonzaminda tichlik o‘rnatib, uning har jihatdan rivoji va osoyishta hayot kechirishi, davlatning qudratli bo‘lishi uchun barcha chora-tadbirlar ko‘rgani diqqatga sazovordir.

Bugun universitetimizda o‘tkazilayotgan “Amir Temur jahon tarixida” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiyasining o‘tkazilayotganligi ham Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishga, ham yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan e’tiborning namunasidir. Mazkur anjumanni tashkil qilinishidan maqsad o‘tmishimizning yangi qirralarini yoritish uchun izlanayotgan barcha tadqiqotchilarning ishlarini tahlil etish, ularga o‘z ilmiy ishlarini takomillashtirishda amaliy yordam berish, ularning oldida turgan yangi marralarni belgilab berishdir. O‘ylaymanki, bugungi anjumanda ham eng dolzarb masalalar va ularning yechimi bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Barchangizga kuch-quvvat, sog‘liq-salomatlik, konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman.

I SHO‘BA

Temuriylar davrining manbashunoslik va tarixshunoslik talqini

AMIR TEMUR YEVROPALIK ZAMONDOSHLAR NIGOHIDA: SOHIBQIRON TARIXIGA OID YEVROPA TILLARIDAGI MANBALAR

Arslonzoda Rahmatjon Arslonboyevich,
FarDU Jahon tarixi kafedrasi professori v.b., tarix fanlari nomzodi
e-mail: arslonzoda-1954@mail.ru

Annotatsiya:*Maqolada Amir Temur haqida Yevropada yaratilgan yozma manbalarning umumiy tavsifi berilgan, ularning vujudga kelish sabablari va tarixiy shart-sharoitlari bayon etilgan. Narrativ yodgorliklarning mualliflari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Yevropa tillaridagi yozma manbalar Sharqning buyuk sarkardasi va davlat arbobi – Amir Temurning tarixdagi o’rnini anglashda o‘ziga xos o’ringa ega ekanligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘z va iboralar:*Amir Temur, Ioann Galinofontibus, Paole Zanye, Beltramus de Mignanelli, Emmanuil Piloti, Xuan Eskamilyo, de Klavixo, Shiltberger, Foma Metsopskiy, “Oqsoq Temur qissasi”, epistolyar manbalar.*

Аннотация: *В статье дается общий обзор европейских письменных источников о жизни и деятельности Амира Тимура, раскрываются исторические условия и причины их возникновения. Приведены сведения об их авторах, показано своеобразие этих нарративов и их место в изучении истории Тамерлана – выдающегося государственного и военного деятеля Востока.*

Ключевые слова и фразы: *Амир Тимур, Иоанн Галинофонтибус, Паоле Зане, Белтрамус де Мигнанелли, Эммануил Пилоти, Хуан Эскамильо, де Клавихо, Шильтбергер, Фома Мецопский, “Повесть о Темире-Аксаке”, эпистолярные источники.*

Annotation:*The article provides a general overview of European written sources about the life and work of Amir Timur. The historical conditions for emergence of these sources are revealed. Information about their authors is given, the originality of these narratives and their place in the study of the history of Tamerlane, an outstanding statesman and military leader of the East, are shown.*

Key words and phrases: *Amir Timur, John Galinofontibus, Paole Zane, Beltramus de Mignanelli, Emmanuel Piloty, Juan Escamillo, de Clavijo, Schiltberger, Thomas Metzopsky, "The Tale of Temir Aksak", epistolary sources.*

XV asrning boshlarida Yevropaning usmoniy turklar asoratiga tushib qolish xavfi yuzaga keldi. Rim papasi va G‘arbiy Yevropa qirollari Usmoniylar saltanatining tajovuziga munosib javob bera olmadilar. Aynan shu davrda sharqda ham, g‘arbda ham Amir Temur, uning harbiy qudrati va g‘olibona yurishlari to‘g‘risida turli ovozalar tarqaldi. Mushkil ahvolga tushib qolgan Yevropa hukmron doiralarida umid uchquni paydo bo‘ldi: turklar sultoni Boyazid Yildirimga qarshi kurashda ishonchli ittifoqchi topish ilinjida Yevropa o‘z nigohini Amir Temurga qaratdi. Shu munosabat bilan yevropaliklarda Sohibqiron shaxsiga nisbatan qiziqish uyg‘ondi. Natijada Temur bilan uchrashgan, uning harbiy yurishlari guvohi bo‘lgan yevropalik elchi, savdogar va sayyohlar u haqda talay asarlar yaratdilar. Shu tariqa, yevropa mamlakatlarida Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan yozma manbalar vujudga keldi. Ular Sohibqiron to‘g‘risidagi sharq manbalarida keltirilgan ma’lumotlarni to‘ldirib, bu atoqli shaxs hayotining ayrim qirralariga oydinlik kiritadi.

Birinchilar qatorida Amir Temur va u tuzgan davlat haqida batafsil hikoya qilgan yevropalik muallif Rim papasining vakili, rohib Ioann Galinofontibus (Jan Grinlo) hisoblanadi. U Naxichevanda cherkov ruhoniysi bo‘lib xizmat qilgan, keyinchalik Rim papasi Bonifatsiy IX ning farmoyishi bilan 1398-yilning avgust oyida shu viloyatning arxiyepiskopi etib tayinlandi. Arxiyepiskopining qarorgohi Sultoniya shahrida joylashagn edi. Ioann bir necha marotaba Amir Temur bilan (1401-yil, avgust) uchrashib, u bilan suhbatlar qilgan. Keyinchalik u Sohibqironning elchisi sifatida Fransiya va Angliya girollari huzuriga borgan.

Arxiyepiskop Ioann *“Temur va uning saroyi haqida xotiralar”* nomli kitob yozib qoldirgan. Asar dastlab fransuz tilida yozilib, so‘ngra lotin tiliga o‘girilgan. Asarning original nusxasi Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanmoqda. “Xotiralar” 23 bobdan iborat. Muallif imkon qadar Amir Temur haqida ko‘proq ma’lumot berishga harakat qilgan. Asarda Temurning tarjimayi holi, uning shaxsiy xislatlari,

hokimiyat tepasiga kelishi, harbiy yurishlari o‘z aksini topgan. Real tarixiy faktlar bilan bir qatorda, “Xotiralar”da o‘sha davrda Temur haqida aholi o‘rtasida tarqalgan turli rivoyatlarga hamohang syujetlar ham uchraydi. Sultoniya arxiyepiskopi Ioannning asari B.Ermatov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, “Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar” nomi bilan 2007-yilda Toshkentda nashr etildi ***[7:169-196].***

Amir Temur to‘g‘risidagi ma’lumotlar italiyalik savdogarlar Paole Zanye, Beltramus de Mignanelli va Emmanuil Piloti, ispan elchilari Xuan Eskamilyo va Rui Gonsales de Klavixo, shuningdek, Temur askarlari tomonidan asirga olingan nemis jangchisi Yoxannes Shiltberger va boshqalarning esdaliklarida ham ucnraydi. Barcha mualliflar Temurning zamondoshlari bo‘lib, ularning ba’zilari u bilan uchrashib, muloqot ham qilishgan.

Emmanuil Piloti arab tilini mukammal bilgan, u 27 yil davomida Misrda mamluklar orasida yashagan va Misr sultoni Farajning yaqin odamlaridan biri bo‘lgan. U Temurning Damashqqa qilgan yurishi haqida ma’lumotlar to‘plagan. Ushbu materiallar hozirgi kunda Venetsiya arxivida saqlanmoqda. Paole Zanye esa Venetsiyaning Damashqdagi konsuli edi. U ham Venetsiya senatining topshirig‘iga ko‘ra Amir Temur haqida ma’lumotlar yiqqan. Uning yozuvlari ham Venetsiya arxivida saqlanmoqda ***[2]***.

Ta’kidlab o‘tish joizki, yevropalik elchi va savdogarlarning Temur haqida to‘plagan materiallari konfidensial (maxfiy) xarakterga ega bo‘lib, Rim papasi va Yevropa qirollari uchun mo‘ljallangan edi. Shuning uchun ushbu materiallar uzoq yillar davomida nashr etilmagan.

Ammo Beltramus de Mignanelli qalamiga mansub *“Temurlang hayoti”* nomli asarning taqdiri boshqacha kechdi. Amir Temur Damashqni zabt etgan paytda, Mignanelli shu yerda yashardi. U Ankara jangi va Temur qo‘shini tomonidan Izmir shahrining olinishiga guvoh bo‘lgan. Beltramus o‘z kitobini 1416-yilda lotin tilida yozgan. Venadagi Milliy kutubxonada saqlangan qo‘lyozma nusxa asosida Stefan Bazilkus 1764-yilda asarni nashr ettirdi. “*Temurlang hayoti va Damashq*

xarobalari” (asarning to‘liq nomi shunday) Amir Temur yurishidan aziyat chekkan savdogar tomonidan yozilgan bo‘lsa-da, bundan qat’i nazar, muallif o‘zi guvoh bo‘lgan voqealar va Temur shaxsini xolisona tasvirlashga harakat qilgan ***[2]***.

Ispaniyalik elchilar Xuan Eskamilyo va Rui Gonsales de Klavixo esdaliklari ham Amir Temur va uning davlati tarixiga doir muhim manbalar sirasiga kiradi. Amir Temur qarorgohiga tashrifi to‘g‘risida yo‘l xotiralarini yozib qoldirgan birinchi ispan elchisi Xuan Eskamilyo edi. Uning yozuvlari hozirgi kunda Madriddagi Qirollik muzeyida saqlanmoqda.

Temurning saltanatining poytaxti – Samarqandga elchilik missiyasi bilan kelgan va bu haqda o‘z taassurotlarini yozib qoldirgan yana bir ispaniyalik elchi Rui Gonsales de Klavixo edi. U Leon va Kastiliya qiroli Genrix III ning topshirig‘i bilan 1404-yilda Amir Temur Samarqandga tashrif buyurdi. Uning asari *“Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaligi. 1402–1404-yillar”* deb ataladi. "Kundalik" ikki qismdan iborat. Birinchi qismda elchilarning Samarqandgacha bosib o‘tgan yo‘li, ular yo‘l-yo‘lakay ko‘rgan mamlakatlar va shaharlar tavsifi beriladi. Ikkinchi qismda de Klavixo Temur davlatini tasvirlaydi, Sohibqiron bilan Kesh va Samarqanddagi uchrashuvlari haqida hikoya qiladi. Elchi mamlakat, uning aholisi, xo‘jaligi, Temur qo‘shini to‘g‘risida muhim ma’lumotlar beradi. Klavixoning mamlakatning iqtisodiy ahvoli, Samarqand bozorlarida turli noz-ne’matlarning mo’l-ko‘lligi, narxlarning arzonligi, bu yerga xorijdan olib kelingan mahsulotlar to‘g‘risida keltirgan ma’lumotlari ham e’tiborga loyiqdir.

Elchining yozishicha, Temurning saroyida ayollar yuqori mavqega ega bo‘lishgan. Ular saroyda o‘tkazilgan turli tadbirlar, hatto chet eldan kelgan elchilarni qabul qilish marosimlarida ham ishtirok etganlar. Klavixoning guvohlik berishicha, shunday qabullardan birida Temurning yonida uning katta xotini Saroy Mulkxonim, kichik xotini Cho‘lpon Malik va katta kelini Xonzoda begoyim qatnashganlar.

Hozirgi kunda Madrid shahridagi Milliy kutubxonada de Klavixo “Kundalik”ining ikkita nusxasi saqlanmoqda. Ulardan biri XIV asrning birinchi

yarmida, muallif tiriklik paytida ko‘chirilgan va noyob nusxa hisoblanadi. Ammo uning ayrim sahifalari juda eskirib qolgan, bundan tashqari matnning boshi va oxiri yo‘q. Ikkinchi nusxa XV asrning oxiriga mansub bo‘lib, uning holati nisbatan yaxshi. Shuning uchun asarning ko‘p nashrlariga ikkinchi nusxa asos qilib olingan.

Klavixoning kundaliklari ilk marotaba 1582-yilda Sevilya shahrida Argote de Molina tomonidan nashr etildi. Keyinchalik bu asar ingliz, fransuz, rus, turk va fors tillariga tarjima qilindi va nashr etildi. Klavixoning asari o‘zbek tiliga U.Jo‘raev tomonidan o‘girilib, Toshkentda 2007-yilda chop etildi ***[4; 6, 11-168]***.

Asirga olingan nemis askari Yoxannes Shiltberger ham Amir Temur va uning davlati to‘g‘risida esdalikdar yozib qoldirgan. Shiltberger asli Myunxen shahridan bo‘lib, Nikopol yaqinidagi jangda (1395) qatnashgan nemis ritsarlaridan birining qurolbardori bo‘lgan. Bu jangda turk sultoni Boyazid Yildirim venger qiroli Sigizmund boshchilik qilgan yevropa ritsarlarining birlashgan qo‘shinini tor-mor qildi. Jangda ko‘p ritsarlar asirga olindi. Ular orasida Shiltberger ham bor edi. Asirlarning katta qismi turklar tomonidan qatl etildi, ammo Shiltbergerning juda yosh bo‘lganligi uni qutqardi. U turk sultonining shaxsiy soqchilari safiga qabul qilindi. Shiltberger sulton bilan birga Ankara jangida (1402) qatnashdi va ikkinchi marotaba, bu gal Temur askarlari tomonidan asirga olindi. Yoxannes Shiltberger olti yil davomida avval Temurning o‘zi, uning vafotidan keyin esa o‘g‘illari Shohrux va Mironshoh qo‘lida tutqunlikda hayot kechirdi. Keyinchalik u boshqa musulmon hukmdorlarning xizmatida bo‘ldi va 22 yillik sargardonlikda so‘ng o‘z yurtiga qaytib ketishga muvaffaq bo‘ldi.

Shiltberger *“Temurlang huzurida”* nomli esdaliklar yozib qoldirdi. Unda u Sohibqiron va uning o‘g‘illariga xizmat qilgan chog‘ida ko‘rgan-kechirganlarini bayon etdi. Ammo Shiltberger esdaliklariga o‘zi guvoh va ishtirokchi bo‘lgan voqealardan tashqari, Temur haqida turli xalqlar orasida tarqalgan rivoyatlarni ham kiritdi. Shuning uchun asarda Temurning “qonli kirdukorlari” to‘g‘risida talay epizodlar mavjud. Bundan tashqari, muallif Amir Temurning u yoki bu jangda qatnashgan askarlarining soni haqida ham mubolag‘ali raqamlar keltiradi. Masalan,

uning yozishicha, Ankara jangida Temur Boyazidga qarshi 1 million 600 ming askar bilan jang qilgan, Halabga qilingan yurishda esa uning askarlarining soni 1 million 200 ming nafarni tashkil etgan. Haqiqatdan g‘oyat yiroq bo‘lgan bu raqamlar shundan dalolat beradiki, Shiltberger garchi tasvirlangan voqealarning zamondoshi bo‘lsa-da, ammo haqiqiy vaziyat to‘g‘risida to‘liq va to‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lmagan ***[11].***

Amir Temurning zamondoshi tomonidan yozilgan yana bir tarixiy manba – bu arman muarrixi Foma Metsopskiy qalamiga mansub *“Temurlang va uning vorislari tarixi”* nomli asardir. Foma Metsopskiy Amir Temurning Yaqin Sharq mamlakatlariga qilgan yurishiga guvoh bo‘lgan edi. Asarda u nafaqat o‘zi ko‘rgan voqealarni tasvirlaydi, balki boshqa shaxslarning hikoyalari hamda Amir Temur to‘g‘risidagi turli rivoyat va mish-mishlarni ham bayon etadi. Temur yurishlaridan aziyat chekkan mamlakat vakili sifatida, muallif Sohibqironnig shaxsi va faoliyatiga salbiy baho beradi. Shu bilan birga, u ko‘p hollarda Amir Temurning sarkardalik iste’dodi va xristian dini vakillariga nisbatan bag‘rikengligini e’tirof etadi ***[10]***. Foma Metsopskiy asari rus va ozarbayjon tillariga tarjima qilinib, T.I.Ter-Grigoryan va U.Bakixanovalar tomonidan Bokuda 1957-yilda nashr etilgan.

Rus adabiyotining ilk namunalaridan biri XIV asrning oxiri – XV asrning boshlarida yaratilgan *“Temur Oqsoq qissasi”* ("Повесть о Тимуре Аксаке") hisoblanadi. Ushbu asar Sohibqiron zamonida vujudga kelgan bo‘lsa-da, Temur to‘g‘risida ruslar va Volga tatarlari orasida keng tarqalgan rivoyat va ovozalarga asoslangan. Ushbu qissaning asosiy g‘oyasi – bu Vladimir shahridan Moskvaga olib kelingan mo’jizakor Bibi Maryam ikonasi (tasviri) tufayli Moskva va butun Rus diyori Amir Temur istilosidan xalos bo‘lganligi to‘g‘risidagi hikoyadir. Asardagi aksariyat ma’lumotlar haqiqatdan yiroqdir. “Temur Oqsoq qissasi” aslida tarixiy manbadan ko‘ra, ko‘proq diniy janrda yozilgan mistik asar hisoblanadi ***[5]***.

Amir Temurning tashqi siyosiy strategiyasini o‘rganishda uning Yevropa davlatlari hukmdorlari, jumladan, Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi noibi Ioann Paleolog, Fransiya qiroli Karl VI va Angliya qiroli Genrix IV bilan olib

borgan yozishmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud adabiyotlarda ushbu masala yetarli darajada yoritilganligi bois biz bu muammoga alohida to‘xtalib o‘tishni lozim topmadik ***[1; 3; 9]***.

Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag’ishlangan yevropa manbalarining qisqacha tavsifi shuni ko‘rsatadiki, ularning XV asr boshlarida paydo bo‘lishi tasodifiy hodisa emas edi. Sohibqironning Sharqda qozongan harbiy zafarlari tufayli usmoniy turklarga qarshi kurashda ishonchli hamkor topish ilinjida bo‘lgan Yevropa hukmron elitasida Temur shaxsiga nisbatan qiziqish paydo bo‘ldi. Shu boisdan Amir Temurni ko‘rgan va u bilan zamondosh bo‘lgan qator yevropalik elchi, tujjor va sayyohlar u haqida o‘z esdaliklarini yozib qoldirdilar. Ularning asarlari Sohibqironning hayoti va faoliyatiga bagishlangan sharq manbalarini ma’lum darajada to‘ldiradi. Usbu manbalarning ijobiy jihati shundan idoratki, ba’zi yevropalik mualliflar Amir Temur bilan uchrashgan, u bilan muloqot qilishgan. Bu hol keltirilgan ma’lumotlarning ishonchlilik darajasini oshiradi. Shu bilan birga, ularning Temur bilan uchrashuvlari qisqa lahza davom etganligi bois, mualliflar Sohibqironning hayoti va faoliyatiga doir mufassal ma’lumotlarga ega emas edilar. Natijada ular o‘z asarlaridagi bu kemtiklikni og‘zaki rivoyatlar bilan to‘ldirganlar, bu rivoyatlarning to‘g‘riligi esa sharq yozma manbalarida o‘z tasdig’ini topmaydi. Bu hol yevropalik mualliflar asarlarining manbaviy ahamiyatini jiddiy ravishda pasaytiradi. Shuning uchun ulardan foydalanish chog’ida mazkur jihatni e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Амир Темурнинг Европа қироллари билан ёзишмаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1993. 28 май.

2. Исматуллаев Х. Амир Темур ва ташқи дунё // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1994. 17, 24 июн.

3. Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция. – Тошкент, 1996.

4. Клавихо Руи Гонсалес. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). – Москва, 1990.

5. Повесть о Темир Аксаке // Памятники литературы Древней Руси XIV - XV века. – Москва, 1981.

6. Руи Гонсалес де Клавихо. Буюк Амир Темур тарихи (1403-1406) / Испан тилидан У.Жўраев тарж. // Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. – Тошкент, 2007. – Б.11-168.

7. Султония архиепископи Иоанн. Амир Темур ва унинг саройи ҳақида хотиралар / Француз тилидан Б.Эрматов тарж. // Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. – Тошкент, 2007. – Б.169-196.

8. Тамерлан: Эпоха, личность, деяния / Сост., обр. и подг. текста Р.Рахманалиева. – Москва, 1992.

9. Умняков И.И. Из истории международных отношений Средней Азии с Западной Европой в начале XV в. – Москва, 1960.

10. Фома Мецопский. История Тимур-Ланка и его преемников / Перевод с древнеармянского языка. – Баку, 1957.

11. Шильтбергер И. Путешествие Иоганна Шильтбергера по Европе, Азии и Африке (с 1394 по 1427 г.) / Перевел с немецкого и снабдил примечаниями Ф.Брук. – Ташкент, 1997.

ЎЗБЕК ДАВЛАТЧИЛИГИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА «ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ»НИНГ ЎРНИ

Ғаффоров Шокир Сафарович

Самарқанд давлат университети
тарих фанлари доктори, профессор
sh.s.gofforov.samgu@gmail.com

Аннотация: *Ушбу мақолада Амир Темурнинг давлатчилик ва дипломатия, ҳарбий маҳорат, бунёдкорлик салоҳияти, илму фан, санъат ва меъморчиликка оид қарашлари, ҳаётнинг маъно-мазмуни, инсонни улуғлайдиган эзгу ишлар ҳақида билдирган фикрлари, дину диёнат ва адолатни жойига қўйиш, салтанат ишларини кенгаш ва тадбир асосида амалга ошириш, ҳар бир масалада узоқни кўзлаб, эл манфаатини ўйлаб иш тутиш билан боғлиқ ибратли фазилатларини ёритилган "Темур тузуклари" асарида давлатчиликни ривожланиши масалалари ёритилган.*

Калит сўз ва иборалар: *аждод, китоб, тарих, тузуклар, давлат, бошқарув, қўшин, ҳалқ, тизим, шариат, қонун-қоидалар, қонун, истеъдод, гуманизм, арбоб, мамлакат*

Аннотация: *В данной статье рассмотренны взгляды Амира Темура на государственность и дипломатию, военное мастерство, творческий потенциал, взгляды на науку, искусство и архитектуру, смысл жизни, благородные дела, прославляющие человека, постановку религии и справедливости, совет и события, вопросы развития государственности освещаются в произведении "Тузуклари Темур", в котором выделяются образцовые качества, связанные с осуществлением на основе принципа будущего, думая о заинтересованности народа в каждом вопросе.*

Ключевые слова и фразы: *предок, книга, история, правила, государство, управление, армия, народ, строй, шариат, законы, право, талант, гуманизм, страна.*

Annotation: *In this article, Amir Temur's views on statesmanship and diplomacy, military skills, creative potential, views on science, art and architecture, the meaning of life, noble deeds that glorify man, putting religion and justice in place, council and events The issues of the development of statehood are highlighted in the work "Tuzuklari Temur", which highlights the exemplary qualities related to'the implementation based on the principle of the future, thinking about the people's interest in every issue.*

Key words phrases: *ancestor, book, history, rules, state, administration, army, people, system, Sharia, laws, law, talent, humanism, figure, country*

Маълумки, ўзбек халқи қадимий халқлар қаторида минг йиллар аввал тараққиёт эшикларини очиб, довруғи дунёга танилган йирик давлат тузилмаларини бунёд этди. Бу давлат тузилмаларида миллий давлатчилик асослари мавжуд. Улуғ аждодларимизнинг қадимий тажрибаларини ўрганиш миллий давлатчилик анъаналари тикланаётган бугунги даврда муҳим аҳамият касб этади. Қадимда аждодларимиз Бақтрия, Хоразм, Сўғдиёна, Довон, Қанғ, Қушон каби жуда кўплаб юксак тараққиётга эришган жаҳонда, ўз даврида кучли саналган давлатлар туздилар. «Қатъий қонунлар» деган маънони англатувчи «Авесто» китоби миллий тарихимизга оид энг қадимий сиёсий-иқтисодий, ҳуқуқий ва маънавий таълимотлар мажмуидир. Муғ тоғидан топилган қадимги Сўғдиёна давлати тарихига тегишли манбалар ҳам азалдан бизда кучли ва мукаммал давлатчилик асослари яратилганидан далолат беради.

Миллий тарихимизда залворли, миллий давлатчилигимиз ҳар тарафлама тараққий этган даврларидан бири - Амир Темур ва темурийлар давридир. Биринчи Президентимиз И.А.Каримов Амир Темурнинг давлатчилик тажрибасига юксак баҳо бериб, жумладан: «Буюк стратегик, моҳир сиёсатчи, эскирган ижтимоий муносабатларнинг қатъий ислоҳотчиси,

савдо-сотиқ, ҳунармандчилик ва маданиятнинг ҳомийси бўлган Амир Темур қонунлар ва урф-одатларга асосланган давлатни барпо этди», ***[1]***-деб унинг мустаҳкам давлат тузганлигини алоҳида таъкидлади.

«Темур тузуклари» илмий жамоатчиликни деярли 500-600 йил мобайнида қизиқтириб келмоқда. Шу боис, Биринчи Президентимиз И.Каримов ўз асарлари ва чиқишларида «Соҳибқирон тузуклари» ва «ўгитлари» га тез-тез мурожат қилади, зеро келажаги буюк давлат қураётган эканмиз, ўтмишнинг маънавий тамойиллари бизни адолатли йўллардан юксак тараққиётга олиб бориши, шубҳасиз. Худди шу маънода Биринчи Президентимиз И.А.Каримов ёзувчилар билан бўлган суҳбатида бу ҳақда зўр мамнуният билан қуйидагиларни таъкидлади: «Амир Темур тузукларини ўқисам, худи бугунги замоннинг катта-катта муоммоларига жавоб топгандек бўламан, шунинг учун стратегияни жуда пухта ўйлаш керак. Балки ота-боболаримиз қолдирган меросдан фойдаланиб ўзимизга хос, ўзимизга мос стратегияни ишлаб чиқиш керак бўлади» ***[2]***.

«Темур тузуклари» да Амир Темурнинг таржимаи ҳолидан ташқари, давлат ва қўшинлар тузилиши, уларни бошқариш, шунингдек, Чиғотой улусининг 50 йилдан ортиқ давр (1342-1405) даги тарихига доир қиммматли маълумотлар келтирилган. Амир Темурнинг ўз фарзандлари ва набираларига, уларнинг ижтимоий-сиёсий фаолиятларига насиҳат сифатида баён этилган. Бу асар тарбиявий характерга эга бўлиб, дастлаб эски ўзбек тилида ёзилган. «Темур тузуклари»да асар халқаро миқёсида кенг жамоатчилик эътиборига тушганлиги туфайли, 1783 йил инглиз, 1785 ва 1791 йилларда ҳинд, 1868 йилда форс, 1787 йилда француз, 1830 йилда яна инглиз, 1845 йилда урду, 1894, 1934 йилларда рус ва 1835, 1857 йилларда (аммо тўлиқ эмас) эски ўзбек тилида, 1991, 2011 йилларда ўзбек тилида нашр этилган.

«Темур тузуклари» икки қисмдан иборат бўлиб, биринчи қисми Амир Темурнинг давлат бошқарувини ташкил этиш, уни мустаҳкамлаш ҳамда мукаммал қуролланган қудратли қўшин тузиш борасидаги режалари ва

қарорларидан иборатдир. Асарнинг 13 кенгаш (қисм) дан иборат иккинчи қисмида эса Соҳибқироннинг давлат ва қўшин қудратини ошириш, душманларни бартараф этиш юзасидан ўтказган кенгашлари ва амалга оширган ишлари ўз ифодасини топган.

«Тузукларда» баён этилишича, Амир Темур давлатининг асосини 12 та ижтимоий тоифа ташкил этган бўлиб, бу тоифалар қуйидагилардан иборатдир; 1. Сайидлар, уламо, шайхлар; 2. Билимдон, фозил кишилар, 3. Дуогўй, тақводорлар, 4. Амирлар, қўшин бошлиқлари; 5. Сипоҳ ва раият (қора халқ); Салтанат ишлари бўйича кенгашишга лойиқ кишилар; 7. Вазирлар, саркотиблар ва девон битикчилари; 8. Хакимлар, табиблар, мунажжимлар ва муҳандислар; 9. Муҳаддислар (ҳадис олимлари) ва ровийлар (тарихшунослар); 10. Сўфийлар ва орифлар; 11. Ҳунар ва санъат аҳли; 12. савдогар ва сайёҳлар ***[3]***.

«Тузуклар» да таъкидланишича, давлатни идора қилишда вазирлар, олимларнинг роли катта бўлган. Шунинг учун ҳам Амир Темур уларни танлашга алоҳида эътибор берган. Улар садоқатли, ахлоқий пок, адолатпеша, тинчликсевар ва ташаббускор бўлиши лозим эди. «Тузук» га кўра, вазирлар тўрт сифатга эга бўлиши шарт эди: 1. Тоза насллик ва улуғворлик; 2. Ақлу фаросатлилик; 3. Сипоҳ ва раият аҳолини, улардан хабордор бўлиш ва ғамхўрлик қилиш; 4.Сабру бардошли, хушмуомалали бўлиш ***[4]***.

«Тузуклар» да таъкидланишича, Амир Темур бир чети Чину Мочинга ***[5]*** иккинчи чети Шомга бориб тақалган улкан мамлакатни қуйида вазифалари кўрсатилган 7 нафар вазири ёрдамида бошқарган. 1. Мамлакат ва раият вазири; 2. Сипоҳ вазири; 3. Даромад ва харажатлар вазири; 4. Салтанат ишларини юритувчи вазир; 5. Қози калон; 6. Жалол ул-ислом-фавқулодда ҳуқуқларга эга бўлган вазир; 7. Вазири девони иншо – бошқа мамлакатлар билан ёзишмалар девони бошлиғи ***[6]***. Эл-юрт ободлиги, халқнинг фаровонлиги, салтанатнинг устиворлиги кўп жиҳатдан шу вазирларнинг ишбилармонлиги ва раҳбарлик қобилятларига боғлиқ бўлган.

«Тузуклар» да кўрсатилишича, Амир Темур солиқ тизими ва ободончилик ишларига ҳам алоҳида эътибор берган. «Амир қилдимки, -деб ёзади соҳибқирон, - ҳосил пишиб етилмасдан бурун раиятдан молу жиҳот олинмасин. Ҳосил етилгач, ҳосилни учга бўлиб олсинлар. Агар раият солиқ тўпловчи юбормасдан, солиқни ўзи келтириб берса, у ҳолда у ерга солиқ тўпловчи юбормасинлар. Агарда олиқ-солиқ олишга юборишга мажбур бўлсалар, улар солиқларни буйруқ бериш ва яхши сўз билан олсинлар; калтак арқон ишлатиб, ишни уриш, сўкишгача олиб бормасинлар. Амр этдимки кимда-ким бирон саҳрони обод қилса ёки кориз (ер ости сувларини тортиб чиқарадиган иншоат) қурса, ёки бирон боғ кўкартирса, ёхуд бирон хароба бўлиб ётган ерни обод қилса, биринчи йили ундан ҳеч нарса олмасинлар, иккинчи йили ўз розилиги билан берган нарсаларни олсинлар, учинчи йили қонун-қоидага мувофиқ хирож олсинлар» ***[7]***. Амир Темур солиқ солиш тартиби, миқдори ва уни ундириш ишларини ҳам кузатиб борган. Солиқ ва ўлпон йиғувчиларнинг фаолияти устидан доимий назорат ўрнатган.

Амир Темур қўшинлари яхши қуролланган, ташкилий жиҳатдан мукаммал, жанг пайтида тактика ва стратегия усулларидан яхши хабардор бўлган. У ташкил қилган қўшинлар тизими Ўғизхон ва Чингизхон қўшинлариникига ўхшасада, давр талабига кўра анча такомиллашган эди. Қўшинлар отлиқ ва пиёда аскарлардан иборат бўлиб, ҳарбий сафарбарликка чақирилган пиёда сипоҳ ўзи билан қалқон, қилич, болта, найза камон, 30 дона ўқ ва бир ойга етарли озуқа билан келиши лозим бўлган. Отлиқ суворийлар ҳарбий сафарбарлик даврида ўзлари билан бирга иккитадан от, соябон, бел, ўроқ, арра, болта, жуволдиз, 100 дона игна, арқон, чарм меш, қозон олишган. Ҳар 10 кишига битта чодир олинган.

Амир Темурнинг олижаноб хислатларидан бири бошқаларнинг гуноҳларини кечира билиши эди. «Менга ёмонликлар қилиб - дейилади «Тузуклар» да, - бошим узра шамшир кўратиб, ишимда кўп зиён-зарар етказганларни ҳам илтижо билан тавба-тазарру қилиб, келгач ҳурматлаб,

ёмон қилмишларини хотиримдан ўчирдим. Мартабаларини оширдим, улар билан муомалада шундай йўл тутдимки, агар хотираларида менга нисбатан шубҳаю қўрқув бўлса, бутунлай унут бўларди ***[8]***. Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, Амир Темур гуноҳ қилган кишиларни фақат уч маротабагача кечирган.

Амир Темур хиёнаткор, очкўз, нафси бузуқ, зиқна ва хушомадгўй кишилардан нафратланган. «Қайси бир сипоҳий туз ҳақи ва вафодорликни унутиб, - дейилади «Тузукларда – хизмат вақтида ўз соҳибидан юз ўгириб, минг олдинга келган бўлса, ундай одамни ўзимга энг ёмон душман деб билдим» ***[9]***. «Тузукларда» дўстлик, вафодорлик, иймон ва эътиқод, инсонпарварлик ва бошқа инсоний фазилатларга риоя қилиш, фуқороларнинг шариат қонун-қоидаларига бўйсуниши уқтириб ўтилади. Қозиларнинг қонунларга тўла амал қилиши, тартиб бузарларни жазолаш, сипоҳлар ва аскарларни сақлаш, уларни озиқ-овқат ва маош билан таъминлаш масаласи, вазирлар ва уларнинг вазифалари, амирлар, сипоҳлар ва бошқаларнинг хизматларини тақдирлаш тартиблари каби турли масалалар бўйича муфассал маълумотлар берилади. Хулоса қилиб айтганда, «Темур тузуклари» Амир Темурнинг оғир ва мураккаб ҳаёти, ўзининг хукумронлиги даврида халқ ва жамият манфаати учун жон куйдириши, қудратли давлати ва қўшинларини бошқариш ҳақида маълумотлар билан бир қаторда жамиятни идора қилиш ҳақида зарур сабоқлар беради.

Шуни ҳам таъкидлаш лозимки, халқига мурувватли бўлган соҳибқирон бемаврид, бўлар-бўлмасга мол-хирож каби солиқлар солинишига қарши бўлган ва имконият даражасида халқни солиқлар тўлашдан озод қилиб турган. Бу ҳақда «Тузуклар»да шундай дейилади: «Амир этдимки раиятдан мол-хирож йиғишда уларни оғир аҳволга солишдан ёки мамлакатни қашшоқликка тушириб қўйишдан сақланиш керак. Негаки, раиятни хонавайрон қилиш (давлат) хазинани камбағалланишга олиб келади. Хазинанинг камайиб қолиши эса, сипоҳнинг тарқалиб кетишига сабаб

бўлади. Сипоҳнинг тарқоқлиги, ўз навбатида, салтанатнинг кучсизланишига олиб боради» ***[10]***.

Темурийлар даврида Мовароуннахр ва Хуросон савдогарлари Осиё мамлакатлари, айни замонда Буюк ипак йўли орқали Европа мамлакатлари билан ҳам савдо алоқалар ўрнатишган. Савдо-сотиқ алоқаларида Темур ва темурийлар томонидан забт этилган кумуш, мис тангалар катта аҳамиятга эга бўлган. Улар Мовароуннахрда савдо-сотиқ муомаласини тартибга солишга ижобий таъсир кўрсатган.

Темурийлар даврида цивилизация янги босқичга кўтарилди. Аввало давлатчилик қонун-қоидалар пухта шаклланди. Соҳибқирон фан, маданият, санъат, маъморчиликнинг ибратли ҳомийси бўлди. Самарқанд, Бухоро, Туркистон, Хирот ва бошқа шаҳарларда расадхоналар, масжиду мадрасалар қурилди, мактаблар очилди. Санъат ва адабиётга эътибор кучайди. Айниқса, кутубхоначиликни ривожлантиришга, нодир қўлёзмаларни сақлашга доир ишлар эътиборга лойиқдир. Темурий шаҳзодаларидан Мирзо Улуғбек, Мирзо Шохруҳ, Мирзо Бойсунғур ва Ҳусайн Бойқароларнинг кутубхоналари ҳам ноёб турли адабий-бадиий, илмий китобларга бойлиги билан Амир Темурнинг Самарқанддаги кутубхонасидан қолишмаган. Биргина Улуғбек расадхонаси қошидаги кутубхонада қарийиб 15 минг китоб сақланган.

Мирзо Улуғбек ва унинг атрофида жипслашган олимлар – Қозизода Румий, Жамшид ал-Коший, Муҳаммад Ҳавофий, Али Қушчи каби олимлар астрономия, математика ва бошқа аниқ фанлар соҳасида муҳим кашфиётлар қилдилар. Улуғбек илмий мактабининг энг катта ютуғи, аввало, астрономия, математика, геометрия каби фанлар соҳасида муҳим кашфиётлар қилади. Улуғбек расадхонасида 1018 та юлдузнинг каталоги тузилиб, уларнинг харакати ўрганилди. Улуғбекнинг юлдузлар жадвали жахон астраномлари учун муҳим манба сифатида кўп маданий марказларда, хусусан Лондон, Париж, Данчигда, 1917 йили Вашингтонда ва бошқа шаҳарларда илмий изоҳлар билан чоп этилди.

Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий, Саккокий, Лутфий, Кошифий, Беҳзод каби ноёб истеъдод эгалари буюк гуманистик асарлар яратган бўлсалар, Низомиддин Шомий, Шарофиддин Али Йаздий, Ҳафизу Абру, Мирхонд, Хондамир ва бошқалар ватанимиз тарихига оид муҳим маълумотлар қолдирдилар.

Улуғ донишманд, давлат арбоби сифатида шуҳрат қозонган Алишер Навоий ўзининг бутун ижодий фаолиятини ўзбек адабий тилини такомиллаштириш билан бир қаторда, жамият фаровонлиги, инсон бахт-саодати, юрт ободлиги, билимли, ақлли ва заковатли кишиларни етиштиришга бағишлади, кўплаб шогирдлар етиштирди. Унинг асарларида салтанатни ҳалокатга олиб келувчи сабаблар кўрсатилган. Алишер Навоий хукмдорлар ва амалдорларнинг мамлакат ободонлиги ва фаровонлигини таъминлашга ундаган.

Амир Темур ва Темурийлар давридаги моддий, маданий ва маънавий тараққиётнинг ўлка халқлари бирлигини таъминлаш ва халқимиз ҳаётида тутган ўрнини инобатга олиб, бу даврни асосли равишда мамлакатимиздаги иккинчи ренессанс (уйғониш) даври деб ҳисоблаш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз лозимки, Амир Темур томонидан ёзилган «Тузуклар» Амир Темур ва темурийлар даврида давлатчиликни ривожланишида муҳим аҳамият касб этган ва бу муҳим асар бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмасдир.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар.

1. Каримов И.А. Амир Темур ҳақида сўз. Тошкент: «Ўзбекистон», 1996.

2. Каримов И.А. Амир Темур давридаги бунёдкорлик ва ҳамкорлик руҳи бизга намуна бўлаверсин. ЮНЕСКО қароргоҳидаги «Темурийлар даврида илм-фан, маданият ва маорифнинг гуллаб яшнаши» кўргазмасининг очилиши маросимида сўзлаган нутқ. 1996 йил, 24 апрель, Париж // Амир Темур фахримиз, ғуруримиз. Тошкент: «Ўзбекистон», 1998.

3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент: «Шарқ», 1996.

4. Ахмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари (Қадимги ва ўрта асрлар). Т., «Ўқитувчи», 1991.

5. Амриддин Бердимуродов. Гўри Амир мақбараси. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент, 1996.

6. Ҳамид Зиёев. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири., Тошкент, 2010.

7. Зиядулла Муқимов, Худойёр Маматов. Амир Темур тузукларида давлат ва ҳуқуқ масалалари. Тошкент, «Янги аср авлоди», Т.2001.

8. Зиёдулла Муқимов. Амир Темур тузуклари (Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Самарқанд, 2008.

9. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари), Тошкент, «Меҳнат», 1992 йил.

10. Темур тузуклари. Форсчадан Алихонтўра Соғуний ва Хабибулло Кароматов таржимаси, Б.Ахмедов тахрири остида. Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.

11. Темур тузуклари. Тошкент, Ўзбекистон НМИУ, 2011.

12. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмад. Ҳайдарбек Бобобеков. Масъул муҳаррир: Барнобек Эшпўлатов. «Шарқ» нашриёт-матбаа бош таҳририяти, Тошкент, 1997.

TEMURIYLAR DAVRI TARIXINI O‘RGANISHDA AKADEMIK BO‘RIBOY AHMEDOVNING O‘RNI

Rahmonberdiyev Feruz

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotasiya: *Maqolada Amir Temur va temuriylar davlati tarixini o‘rganishda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi,*

tarixchi va sharqshunos, tarix fanlari doktori Bo‘riboy Ahmedov (1924-2002) tadqiqotlarining o‘rnini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘z va iboralar: *Amir Temur, temuriylar, tarix, Bo‘riboy Ahmedov, tadqiqotlar, asarlar, tarixiy romanlar.*

Аннотация: *В статье в изучении истории Амира Темура и государства Тимуридов делается попытка выявить место исследований Борибоя Ахмедова (1924-2002), академика Академии наук Узбекистана, видного ученого, историк и востоковед, доктор исторических наук.*

Ключевые слова и фразы: *Амир Темур, Тимуриды, история, Борибой Ахмедов, исследования, произведения, исторические романы.*

Annotation: *The article tried to reveal the place of research of Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan, honored scientist, historian and Orientalist, doctor of historical sciences Bo'riboy Ahmedov (1924-2002) in the study of the history of Amir Temur and the Timurid state.*

Key words and phrases: *Amir Temur, timurians, history, Bo'riboy Ahmedov, studies, works, historical novels.*

Shu kunlarda nafaqat yurtimiz, balki Sharqu – G‘arbda o‘z davri tarixini o‘zgartira olgan, Ikkinchi Sharq Renessansini boshlab bergan buyuk davlat arbobi, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 687-yilligi keng nishonlanmoqda.

Amir Temur markazlashgan davlatga asos solib, uning kuch-qudratini har tomonlama mustahkamlab, rivojlantirib, shon-shuhratini butun jahonga yoydi, buyuk saltanatning hukmdori sifatida millatlar va xalqlarni birlashtirdi. Uning davrida iqtisodiyot va savdo, madaniyat va ilm-fan, me’morchilik va tasviriy san’at, musiqa va she’riyat yuqori cho‘qqilarga ko‘tarildi. Bir so‘z bilan aytganda, Temuriylar davri Renessansiga asos solindi.

Amir Temurning ibratli hayoti hamda davlatdorlik iqtidori va faoliyati, saltanati tarixi, undagi ilm-fan va madaniyatni o‘rganish tarixshunoslikning yirik ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida doimo jahon olimlari, davlat rahbarlari, siyosatchilar diqqat-e’tiborida bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, Temuriylar tarixiga oid manbalar jahon miqyosida turli tillarga tarjima qilingan hamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Dunyo‘tarixshunosligida Amir Temur davrini o‘rganishga oid nashrlar kun sayin ortib bormoqda. Pirovardida, jahon jamiyatshunosligida “Temurshunoslik” mustaqil ilmiy yo‘nalishi shakllandi.

Bugungi kunga qadar, buyuk sarkarda Amir Temur faoliyati va u tomonidan asos solingan Temuriylar davlati tarixini tadqiq etish borasida respublika hamda xalqaro miqyosida ko‘plab ilmiy izlanishlari olib borilgan.

Yurtimizda Amir Temur va temuriylar davlati tarixini o‘rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlar sovet davrida boshlagan. Ammo, ayni davrdagi o‘z davrining xos mafkuraviy yondashuviga qaramay, temuriylar davlat tarixi tarixshunosligida ma’lum ishlar amalga oshirilgan. Shu o‘rinda temurshunoslik yo‘nalishiga tamal toshini qo‘ygan G.A.Pugachenkova, I.Mo‘minov, R.Muqiminova, B.V.Lunin, E.V.Rtveladze, P.Zohidov, L.I.Rempel, A.O‘rinboyev, B.Ahmedov, D. Yusupova, O‘.Alimov, T.Fayziyev, O.Bo‘riyev kabi qator fidoiy olimlarning tadqiqotlari Amir Temur saltanati tarixini yoritishga xizmat qildi.

Ta’kidlash joiz, ayni masala yuzasidan dastlabki bibliografik ko‘rsatkich rus tarixshunosi B.V.Lunin tomonidan tuzilib, adabiyotlar sohalar bo‘yicha o‘n ikki qismga ajratib tasniflangan edi ***[1]***. Shu bilan birga, ushbu bibliografik ko‘rsatkichda sovet davridagi mafkuraviy tazyiq ta’sirida Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid adabiyotlar “Umumiy tarix” qismiga kiritilgan. Ammo bu holat tadqiqotning ilmiy ahamiyatini pasaytirmaydi, aksincha, olimning falsafiy mushohadasining nechog‘lik teran ekanligidan dalolat beradi. Ushbu bibliografik ko‘rsatkich tasnifi mustaqillik yillarida B.V.Lunin tomonidan ancha rivojlantirilib bir necha fundamental nashrlarda nafaqat keltirildi, balki olim tomonidan Amir Temur davri asosiy manbalari hamda ilmiy adabiyotlarining tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlili ham amalga oshirildi ***[2]***. Shuningdek, xorij tarixshunoslari, rus sharqshunos olimlari hamda sovet davrida tadqiqot olib borgan tarixchilarning ilmiy ishlari tadrijiy ravishda o‘rganilib, ilk bor mavzuga oid tarixiy adabiyotlar tarixshunoslikning yangicha talqinida o‘z bahosini oldi. Ushbu tayyorlangan bibliografiya to‘plam hozirga qadar tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Hozirga qadar respublikada mazkur mavzuga oid bir necha bibliografik nashrlar amalga oshirilgan. Chunonchi, 1996 yilda O‘zbekiston Respublikasining

Misrdagi elchixonasi xodimlari tomonidan Amir Temur va temuriylar haqida Misr kutubxonalarida saqlanayotgan manba va qo‘llanmalar fihristi yaratildi ***[3]***. 1999-yilda esa akademik E.V.Rtveladze va A.X.Saidovlar tomonidan tayyorlangan “Amir Temur dunyo fani ko‘zgusida” nomli bibliografik ***[4]*** nashrda xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlar tizimga solindi. Mualliflar jahon tarixshunosligida mustaqil “temurshunoslik” ilmiy yo‘nalishi shakllanganini e’tirof etishdi. Shuningdek, “Amir Temur jahon tarixida” nomli nashrining “Amir Temur davri tarixnavisligi” bobidagi “Ilmiy izlanishlar” qismida O‘zbekiston va xorij tadqiqotchilarining ishlari tahlil qilindi ***[5]***. Nashrda “Amir Temur shaxsini biryoqlama, tor va bir xil tarzda talqin etishdan iborat dastlabki ko‘nikmalardan uni chuqur, keng va har yoqlama idrok etishga asta-sekin o‘tish tadriji sodir bo‘ldi”, degan xulosaga kelinishi tarixshunoslikdagi ilmiy burilishdir ***[5: 214-216]***.

Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi bo‘yicha O‘zbekistonda bir muncha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Aksariyat tadqiqotchilarning yakdillik bilan ta’kidlashicha, boshqa tarixiy davrni o‘rganishda adabiyotlar taqchilligi qiynasa, bu davr tadqiqotchisiga esa adabiyotlarning ko‘pligi va turli munosabat qiyinchilik tug‘diradi. Aynan shu jihat ham bibliografik tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Keyingi yillarda Amir Temur shaxsi va davriga oid birmuncha manbalar tarjimasi, ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy adabiyotlar yaratildiki, ularni aniqlash, tizimlashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida bajarilgan “Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob” mavzuidagi maqsadli amaliy grant doirasida bajarilgan loyihada O‘zbekiston va jahon miqyosida Amir Temurning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab nashr qilingan turli adabiyotlar jamlanib izohlar bilan ta’minlandi ***[6]***. Shuningdek, aynan temuriylar davri tarixi tarixshunosligi sohasida Sh.O‘ljayeva ***[7]***, D.Abidjanova ***[8]***, B.A.Usmonov ***[9]*** hamda A.R.Rahmatullayevalarning ***[10]*** dissertatsiyalarida ham mavzuga doir Angliya, Rossiya va O‘zbekistonda XX asrning 50 yillarida to XXI asrning boshlariga qadar yaratilgan tadqiqotlar tahlil etilgan.

Sanab o‘tilganlardan tashqari, so‘nggi yillarda himoya qiligan B.A.Usmonovning “Farg‘ona vodiysi amir temur va temuriylar davrida: siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot” ***[11]***, M.S.Hamidovaning “O‘zbekiston hududidagi Amir Temur va temuriylar davri me’moriy yodgorliklari tarixi” ***[12]*** mavzusidagi fan doktori dissertatsiyaning tarixshunoslik qismida ham Amir Temur va temuriylar saltanati tarixini o‘rganilishiga doir qator muhim ilmiy mulohazalar ilgari surildi.

Yuqoridagilar Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi bo‘yicha O‘zbekistonda bir muncha salmoqli ishlar amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Aksariyat tadqiqotchilarning yakdillik bilan ta’kidlashicha, boshqa tarixiy davrni o‘rganishda adabiyotlar taqchilligi qiynasa, bu davr tadqiqotchisiga esa adabiyotlarning ko‘pligi va ulardagi munosabatlarning xilma-xil, turlicha ekanligi qiyinchilik tug‘diradi. Aynan shu jihat ham ularni chuqurroq o‘rganish, tahlil etish va tizimlashtirish borasidagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi.

Fikr yuritilayotgan masala yuzasidan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, tarixchi va sharqshunos, tarix fanlari doktori Bo‘riboy Ahmedovning (1924-2002) xizmatlari alohida o‘rin tutadi.

Olimni 1995-2002 yillar davomida Xalqaro Amir Temur jamg‘armasiga raisilik qilganligi ham uni Temuriylar saltanati tarixini o‘rganish borasidagi xizmatlari nechog‘lik katta bo‘lganligidan dalolat beradi. Bu o‘rinda qayd etish kerakki B.Ahmedovning ilmiy faoliyati o‘zbek xalqining etnik tarixi va shakllanishi, manbashunoslik, O‘rta Osiyo xalqlarining X – XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi, Temur va temuriylar davri tarixi hamda madaniyati kabi muhim yo‘nalishlarga qaratilgan edi. Olim 1996 yilda Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan katta tashkiliy, ilmiy ishlar olib bordi. Amir Temurga bag‘ishlanib Parij va Samarqandda tashkil etilgan xalqaro anjumanlarda qatnashib ma’ruzalar qildi.

Olimni temuriylar tarixiga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlaridan biri “Ulug‘bek” tarixiy essesi bo‘lib, olim unda badiiy yondashuv asosida tarixiy manbalardagi Mirzo Ulug‘bekning hayoti, siyosiy va ilmiy faoliyatiga oid ma’lumotlarni bayon qiladi ***[13]***.

1992-1993-yillarda chop qilingan “O‘zbek ulusi” ***[14]*** va “Tarixdan saboqlar” ***[15]*** nomli asarlarida ham Amir Temur shaxsiyati, o‘zbek davlatchiligida tutan o‘rni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy va harbiy sohada amalga oshirgan islohotlari, shuningdek, temuriylar davridagi ijtimoiy hayotga oid masalalar manbalar asosida tahlil etilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, 1996 yilda Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan olim tomonidan bir qator ilmiy ishlar e’lon qilindi. Bu borada, “Amir Temurni yod etib” ***[16]*** va “Sohibqiron Temur” ***[17]*** nomli kitoblar muhim ahamiyatga egadir.

Temuriylar davri tarixini o‘rganish masalasida akademik B.Ahmedov bir qancha yirik to‘plamlarning tayyorlanish ishlarida ham bevosita ishtirok etib, temurshunoslik rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Bunday ishlar ichida yirik sharqshunoslar jamoasi tomonidan yaratilgan “Temur va Ulug‘bek davri tarixi” ***[18]***, “Amir Temur jahon tarixida” ***[19]*** kabi kitoblar alohida ajralib turadi.

Olimning temuriylar davri tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlar bibliografiyasini yaratish borasidagi ishlari ham e’tibor loyiq bo‘lib, ulardan eng so‘nggi olimning vafotida so‘ng, ya’ni 2003-yilda nashr qilingan “Amir Temur bibliografiyasi” bo‘ldi. B.Qosimov, I.Niyazov, B.Bannopov, M.Zikrullayev, Ya.Muhammedov kabi olimlar jamoasi bilan birga tayyorlangan ushbu bibliografiya o‘zida o‘rganilayotgan masala bo‘yicha eng yirik va muhim ilmiy ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar jamlagan ***[20]***.

B.Ahmedov faoliyatida tarixiy romanchilik ham alohida o‘rin tutadi. Muhim jihati, adib o‘zining eng yirik tarixiy romanlarini aynan Amir Temur va temuriylar tarixiga bag‘ishlagan. 1995-yilda nashr qilingan “Amir Temur” nomli 640 betda iborat yirik tarixiy roman buning yaqqol dalilidir.

Umuman olib qaralganda akademik B.Ahmedovning Amir Temur va temuriy davri tarixini yoritishga bag‘ishlangan ilmiy ishlari, maqola va to‘plamlari, shuningdek bir qancha tarixiy romanlari nafaqat mahalliy, balki xorijiy temurshunoslikda yuqori baholanadi. Olimni 1997-yilda “Amir Temur”, 1999-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlanganligi ham buning yaqqol misolidir.

Xulosa qilib aytganda Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o‘rganish borasida B.Ahmedov tadqiqotlari alohida o‘ringa ega bo‘lib, ularni tarixshunoslik nuqtai-nazaridan yangi qarash va uslublarda tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Лунин Б.В. История, культура и искусство времени тимуридов в советской литературе (библиографический указатель) // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1969. № 8-9. – С. 100–145.

2. Лунин Б.В. Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996. – Б. 28–42.

3. Амир Темур ва темурийлар ҳақида Миср кутубхоналарида сақланаётган манба ва қўлланмалар Фиҳристи. / Муқаддима муаллифи Ш.Бобохонов, тайёрловчи: Насрулло Мубашшир ат-Тарозий. Қоҳира: Ўзбекистон элчихонаси, 1996. Ўзбек тилида – Б. 1–37, араб тилида – Б. 1–422.

4. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой науки. – Ташкент: Издательский дом Мирэкономики и права, 1999. – 112 с.; Ўша муаллифлар. Амир Темур в зеркале мировой истории. Библиография. / Отв. за выпуск Д.Нурматова. – Париж, 1996. – 28.

5. Амир Темур жаҳон тарихида. / Масъул муҳаррир Ҳ.Кароматов. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. – Тошкент: Шарқ, 2001.

6. Шарипов А. Ўзбекистон ва хорижда Амир Темур тарихининг ўрганилишига доир тадқиқотлар // https://oyina.uz/kiril/article/151

7. Ўлжаева Ш. XX асрнинг 50 − 60 йилларида Амир Темур ва темурийлар даври тарихшунослиги (шўро адабиётлари мисолида).: Тарих фан. ном. … дисс. – Тошкент: ЎзР ФА Тарих институти, 1999.

8. Абиджанова Д. Мавераннахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60 – 90-х годов XX в.: Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент: Институт истории АН РУз, 2000. 160 с.

9. Усмонов Б. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVII − XX асрлар).: Тарих фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ, 2004. 165 б.

10. Раҳматуллаева А.Р. Ўзбекистонда Амир Темур ҳаёти ва фаолияти тарихшунослиги (1991–2009).: Тарих фан. ном. ... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА Тарих институти, 2010. – 175 б.

11. Усмонов Б.А. Фарғона водийси амир темур ва темурийлар даврида: сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёт.: Тарих фан. доктор. (DSc) дисс. автореферати. – Тошкент: Ўз ТИ, 2021.

12. Ҳамидова М.С. Ўзбекистон ҳудудидаги Амир Темур ва темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи.: Тарих фан. доктор. (DSc) дисс. автореферати. – Тошкент: ЎзМУ, 2022.

13. Аҳмедов Б. Улуғбек – Т.: Ёш гвардия, 1989.

14. Аҳмедов Б. Ўзбек улуси – Т: А.Қодирий, 1992.

15. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар – Т.: Ўқитувчи, 1993.

16. Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб – Т.: Ўзбекистон, 1996.

17. .; Аҳмедов Б. Соҳибқирон Темур – Т.: А. Қодирий, 1996.

18. Темур ва Улуғбек даври тарихи. / Бош муҳаррир академик А. Асқаров – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996.

19. Амир Темур жаҳон тарихида. / Масъул муҳаррир Ҳ. Кароматов. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри – Т.ошкент: Шарқ, 2001.

20. Амир Темур библиографияси. / Б.Аҳмедов, Б.Қосимов, И.Ниязов, Б.Баннопов, М.Зикруллаев, Я.Муҳаммедов. – Тошкент: Марказий Осиёни тадқиқ қилиш Француз Институти. 2003.

АСОМИДДИН ЎРИНБОЕВ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ТЕМУРШУНОС ОЛИМЛАР ТОМОНИДАН ЎРГАНИЛИШИ

Бурхонов Илёсхон Мухиддинович

ФарДУ докторанти

Аннотация: *Асомиддин Ўринбоев тарихчи олим сифатида Амир Темур ва темурийлар даври тарихига оид бўлган қўлёзма асарларни араб тилидан ўзбек, рус, инглиз тилларига таржима қилган ва уларни илмий муомалага киритилишида катта ҳисса қўшган. Айни мақолада ушбу тадқиқотлардан эса бугунги кунгача темуршунос олимларимиз кенг фойдаланиб, самарали илмий тадқиқот олиб бораётганлари ҳақида мулоҳаза юритилган.*

Калит сўз ва иборалар: *манба, араб тили, темуршунос, олим, илмий мерос, илм-фан.*

Аннотация: *Как историк и ученый Асомиддин Оринбоев перевел с арабского на узбекский, русский и английский языки рукописи по истории Амира Темура и тимуридского периода и внес большой вклад во введение их в научный оборот. В данной статье речь идет о том, что наши темурологи широко используют эти исследования и проводят эффективные научные исследования.*

Ключевые слова и фразы: *источник, арабский язык, темуролог, ученый, научное наследие, наука.*

Annotation: *As a historian and scientist, Asomiddin Orinboev translated manuscripts on the history of Amir Temur and the Timurid period from Arabic into Uzbek, Russian and English and made a great contribution to introducing them into scientific circulation. In this article, we are talking about the fact that our temurologists widely use these studies and conduct effective scientific research.*

Key words and phrases: *source, Arabic language, temurologist, scientist, scientific heritage, science .*

Ўзбек тарихчи олими Асомиддин Ўринбоевнинг илмий меросини ўрганиш турли нуқтаи назардан қизиқишни пайдо қилишига турли сабаблар мавжуд. Биринчидан, совет даврида катта тўсиқларга учраган мавзу -Амир Темур ва темурийлар даврини ёритиб берувчи қўлёзма манбалар билан ишлаб, мустабид тузумнинг машаққатли синовларига дош берган бўлса, унинг илмий тадқиқот натижалари ўз вақтидаёқ кейинги темуршунос олимлар учун бой ва беқиёс манба бўлиб хизмат қилди. Иккинчидан,

Абдурахмон Жомийнинг Навоийга ёзган мактубларини ўзбек тилига таржима қилиниши бўйича “Мажмуа-и муросалат”нинг яратилиши тадқиқотнинг мазмунидан келиб чиққан холда Ўзбекистон тарихи фани доирасидан ташқари фалсафа, сиёсатшунослик, жамиятшунослик, ўзбек адабиёти каби фанлар учун ҳам соф манба вазифасини бажаради.

Асомиддин Ўринбоев илмий меросига нисбатан ўзбекистонлик темуршунос олимлар томонидан берилган эътирофлар ҳам ижобий мазмунда акс этган бўлиб, улардан баъзиларига тўхталиб ўтилди:

О.Бўриев Асомиддин Ўринбоевга бағишлаб ёзган илмий мақоласида ёзма манбаларга кўра тарихни ўрганиш ниҳоятда катта билим талаб қилинишини таъкидлайди. Масалан, Асомиддин Ўринбоев шарқ тилларидан араб, қадимги эрон, форс-тожик тилларида ёзилган махаллий тарихчиларнинг қўлёзма асарларини ўқиш, ўрганиш бўйича етук мутахассис бўлганлиги, шарқшунос сифатида Амир Темур ва темурийлар даври тарихини кенг ёритиб берувчи асл манбаларни таржима қилганлиги хақида ҳам маълумот беришга харакат қилган ***[1: 169-180]***.

Амир Темур ва темурийлар даври тарихи бўйича салмоқли илмий изланишлар олиб борган олим А.Аҳмедов 2013 йилда “Тафаккур” журналига берган интервюсида Ўзбекистонда тарих фанини ривожланиши хақида фикр юритар экан, Асомиддин Ўринбоев хақида қимматли маълумотларни келтиради. “Темирчи-ми ёки Темурчи?” дея мунозарали саволни таҳлил этиш мобайнида, Асомиддин Ўринбоевни *чинаккам темуршунос* деб атайди. Бундан ташқари, Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома”сининг танқидий матни Асомиддин Ўринбоевнинг сай-харакатлари билан нашр этилганлигига алоҳида тўҳталиб, қўлёзма матн саҳифасидаги сукунлар ва ҳарфларга тегишли камчиликларни, гуручни курмакдан тозалагандек, биттама-битта тузатиб чиқишларини алоҳида эслаб ўтади ***[2: 1]***. Бизнингча ҳам, Асомиддин Ўринбоев меҳнатига бундай эътироф А.Аҳмедов томонидан *ўринли берилган,*

*чунки Амир Темур ва темурийлар давр*и тарихига оид бир нечта йирик қўлёзма манбалар таржимаси юқоридаги фикрларга далил бўла олади.

А.Ҳасановнинг илмий мақоласида Амир Темур ва темурийлар даври тарихи билан шуғилланган тарихчи олимлар ва улар танлаган тадқиқот мавзусига нисбатан "Энди ўша даврда танланган бу мавзу ҳақида ортиқча гапириб ўтиришнинг ҳожати йўқ. Иброхим Мўминов, Сабоҳат Азимжонова, Асомиддин Ўринбоевдек йирик олимлар "калтак ейишган", қолаверса, маълумки, улар "ажалларидан беш кун бурун " оламдан ўтишди",- дейди ***[3: 25]***. Асомиддин Ўринбоевнинг тадқиқотлари хронологиясидан маълум бўлдики, олим 1960 йилда "Матлаи садъайн ва мажмаи баҳраъйн" асарини 2-жилдини ўзбек тилига тўлиқ таржимасини тамомлаган ***[4: 7]***. 1972 йилда Шарофиддин Али Яздийнинг "Зафарнома" асарини бир минг беш юз нусҳада нашрдан чиқарган эди. Бу меҳнатларининг эвазига таниқли тарихичи олим И.Мўминов билан бирга қамоққа олинган. А.Ҳасанов шу воқеаларга ишора қилган ҳолда мақоласидаги фикрларини далиллаган.

Дунё тарихшунослигида Амир Темур ва темурийлар даври тарихини ўрганиш етакчи соҳалардан биридир. Асомиддин Ўринбоев илмий меросидан фойдаланиб тадқиқот олиб борган олимлар мавзуларидан келиб чиқиб, янги илмий йўналишларга йўл оча олди. Шу нуқтаи назардан, Асомиддин Ўринбоев илмий меросининг темуршунос олимлар томонидан ўрганилиши 4 гуруҳга бўлиб таҳлил этилди:

Биринчи гуруҳни Асомиддин Ўринбоев илмий меросига таяниб Амир Темур ва темурийлар давлатининг умумий тарихига оид амалга оширилган тадқиқотлар ташкил этди. Уларга Б.Аҳмедов, Т.Файзиев, Р.Муртазаева, Х.Файзиев, С.Хидиров каби олимларнинг ишларини мисол қилиш мумкин.

Б.Аҳмедов ***[5:213]***нинг тадқиқотида Асомиддин Ўринбоев хақида шундай фикр келтирилган "Абдураззоқ Самарқандий ва унинг асарига рус, совет ва хорижий мамлакатлар олимларидан Б.А.Дорн, В.В.Бартольд, В.Ф.Минорский, А.Ю.Якубовский, И.П.Петрушовский, А.Ў.Ўринбоев,

М.Е.Катрмер, М.Шармуа, А.Галлан, Муҳаммад Шафеъ ва бошқалар томонидан биринчи даражали тарихий манба сифатида юксак баҳоланган” ***[6.5.2:153].*** Бу ерда А.Ўринбоев ўз даврининг етук олимлари қаторида санаб ўтилганлиги ҳам олимнинг илмий меросини аҳамиятини кўрсатади.

Б.Аҳмедов Ўзбекистон тарихини ўрганишда муҳим бўлган манбаларни таҳлил этиш жараёнида Абдураззоқ Самарқандий Хиндистонга ташриф буюргани тўғрисидаги маълумотлар Асомиддин Ўринбоев меҳнатлари натижасида ўзбек тилига ўгирилгани ҳамда 1960, 1969 йилларда нашр қилингани таъкидлаган.

Т.Файзиевнинг тадқиқотидаги Амир Темур шажарасига оид қимматли маълумотлар ҳам Асомиддин Ўринбоев томонидан таржима қилинган Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи Садъайн” асарига таянилган ҳолда берилганлиги муаллиф томонидан таъкидлаб ўтилган ***[7.6.1:3]***.

Р.Муртазаеванинг тадқиқотида Асомиддин Ўринбоев томонидан илмий муомалага киритилган манбалар асосида темурийзода подшо Мирзо Улуғбек ҳукмдорлиги даврида сиёсий бошқарув ҳамда илм-фан равнақи ёритиб берилган ***[8.7.1:67-71]***.

Х.Файзиев темурийзода Шоҳрух мирзонинг сиёсий мавқеи, давлат бошқарув қобилияти ҳақида сўз юритганида Асомиддин Ўринбоев томонидан таржима қилинган манбаларга таянган ҳамда буни ўз тадқиқотига киритиб ўтган ***[9.8.1:23]***.

С.Хидиров Амир Темур давлатининг ташкил топиши, ҳуқуқий тартиб қоидалари ҳамда бошқарув тузумини тадқиқ этиш мобайнида Асомиддин Ўринбоевнинг илмий меросига мурожат қилган ***[10.9.1:23]***.

Асомиддин Ўринбоев илмий меросининг темуршунос олимлар томонидан ўрганилишининг иккинчи гуруҳини “ Амир Темур ва темурийлар давлати иқтисодий ҳаётини ёритишда А.Ўринбоев тадқиқотларидан фойдаланиб амалга оширилган илмий ишлар” деб номланди. Бу тадқиқотларга Н.Махмудов, И.Тўхаев, Л.Шпенева, А.Камышев, Г.Агзамова,

Р.Сулоймонов каби олимлар томонидан олиб борилган изланишлар киритилди ва чуқур ўрганиб чиқилди.

Н.Махмудовнинг тадқиқотидаги маълумотлар Асомиддин Ўринбоев томонидан таржима қилинган манбалар асосида келтирилган бўлиб, уларда Амир Темур ва темурийлар давлат бошқаруви ҳамда солиқ ва йиғимлар масаласи ҳақида сўз боради ***[11.10.1:231-270].***

И.Тўхаев ўз тадқиқотларида Амир Тумур ва унинг авлодлари томонидан амалга оширилган пул ислоҳотлари, бу давр тангалари тарихини ёритишда Асомиддин Ўринбоев тадқиқотларига мурожат қилган. Бундан ташқари, Амир Тумур ва темурийлар даври молия сиёсатини чуқур таҳлил этган ***[12.11.1:109; 105]***.

Л.Шпенева XV-XVI асрларга оид мис тангалар тарихини ўрганишда Асомиддин Ўринбоев томонидан таржима қилинган Амир Темур ва темурийлар даври тарихига оид манбалардан фойдаланган. Айниқса, тадқиқотларида Фарғона ва Тошкент ҳудудларининг Амир Темур ҳукмронлиги даврига оид мис тангаларига кенг тўхталган ***[13.12.1: 13]***.

А. Камышев ўз тадқиқотида Мирза Муҳаммад Хайдарнинг “Тарихий Рашидий” асаридан кенг фойдаланган ***[14.13.1:7]***. Бу асар эса Асомиддин Ўринбоев томонидан таржима қилинган ва илмий муомалага киритилган. Ундан Амир Темур даври тарихига оид иқтисодий маълумотларни изчил ўрганишда фойдаланилган.

Г.Агзамованинг илмий мақоласида келтирилган XV-XVI асрларга оид савдо йўлларининг георгафик харитасига кўра шаҳар, туманлардаги савдо ва ҳунармандчилик соҳаларига оид маълумотлар учрайди. Бу даврда Мавороуннаҳрни чет мамлакатлар билан боғланиш омилларини таҳлил этишда олима Асомиддин Ўринбоев тадқиқотларига ҳам мурожат этган ***[15.14.1: 101]***.

Р.Сулаймонов илмий мақоласида келтирилаётган далилларининг манбавий асосида Асомиддин Ўринбоев томонидан таржима қилинган Амир

Темур ва темурийлар даври қўлёзма асарларига ишора қилган ***[16.15.1:125-145]***.

Мақола учун асос қилиб олинган масаланинг учинчи гуруҳини, Амир Темур ва темурийлар давлати тарихини ҳудудий-географик жиҳатдан ўрганилиши ташкил этиб, унда А.Ўринбоев таржима қилиб илмий муомалага киритган асарлардан фойдаланилган тадқиқотлар ўрганиб, таҳлил этилди. Жумладан, У.Уватов, О.Бўриев, Д.Юсупова, А.Рахматуллаева, У.Абдуллаев, Б.Усмонов, Л.Бегимқулова, С.Улашева, Т.Махмудов каби олимларнинг ишларини ушбу гуруҳга киритиш мумкин. Уларда манбавий таҳлилни амалга оширишда ва мавзу хронологияси қиёсида ҳамда таҳлили ва бошқа масалаларда Асомиддин Ўринбоев илмий тадқиқотидан кенг фойдаланилган. Масалан, У.Уватовнинг тадқиқотида Ибн Арабшоҳнинг “Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур” асарига батафсил тўхталинади. Ушбу асар таржимасини нашрга тайёрлаш ва таҳрир қилиш масаласи Асомиддин Ўринбоев томонидан бажарилган ***[17.16.1:3-4]***.

О.Бўриевнинг тадқиқотлари Асомиддин Ўринбоев илмий меросида муҳим бўлган Темурийлар даврига оид ёзма манбалар ҳусусида амалга оширилган бўлиб, уларда Марказий Осиёнинг географик маълумотлари таҳлил этилган ***[18.17.1:74].***

Д.Юсупованинг тадқиқотларида олимнинг илмий меросига таянилган бўлсада, алоҳида хусусияти шундан иборатки, бу тадқиқотлар Асомиддин Ўринбоевнинг бош муҳаррирлиги остида нашр этилган ***[19.18.1:4-7].***

А.Рахматуллаева Ўзбекистонда 1991 йилдан 2009 йилгача Амир Темур ва темурийлар даври тарихини ўрганиш масаласини тадқиқ этган бўлиб, Асомиддин Ўринбоев таржима қилган асарлар, муҳаррирлик ишлари ва каталогларга ҳам таяниб хулосаларни келтиради ***[20.19.1:11].***

У.Абдуллаев Амир Темурнинг Яқин Шарқдаги сиёсати масаласини ўрганишда Асомиддин Ўринбоев тадқиқотларига кенг тўхталган ***[21.20.1: 5].***

Б.Усмоновнинг тадқиқотлари ҳам ўзига ҳос бўлиб, уларда манбалар таҳлили қисмида Асомиддин Ўринбоев илмий меросининг аҳамияти ёритиб берилади ***[22.21.1: 82]***. Россия тарихшунослигида Амир Темур давлатчилиги асосларини ёритилишини Асомиддин Ўринбоев томонидан араб, форс тилларидан ўзбек, рус тилларига таржима қилинган маҳаллий манбалар билан қиёсий таҳлил этилиши, мавзу доирасида Фарғона водийсидаги сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаётни чуқур ўрганишда А.Ўринбоев тадқиқотларини аҳамиятини кўрсатиб беради.

Л.Бегимқулова ҳам ўз илмий мақола ва тадқиқотларининг манбалар таҳлилида Асомиддин Ўринбоев томонидан амалга оширилган таржималар, муҳаррирлик ишларига таяниб ўз фикрларини далиллашга харакат қилган ***[23.22.1: 15]***.

С.Улашеванинг тадқиқотларида Асомиддин Ўринбоев томонидан ёзилган илмий мақолалар, таржима қилинган қўлёзмалардан кенг фойдаланилган бўлиб, асосан, XIII-XV асрларда форсий манбаларда Мавороуннаҳр ҳудудларидаги этник жараёнларни қиёсий таҳлил этишда мурожат этган ***[24.23.1: 7;13]***.

Т.Махмудовнинг тадқиқотида ҳам Асомиддин Ўринбоев илмий меросига манбалар таҳлили, тадқиқот мавзуси юзисидан давр сиёсий жараёнлари таҳлилида кенг тўхталиб ўтилган ***[25.24.1:7-10]***.

Амир Темур ва темурийлар даврида маданий хаёт, санъат, ҳунармандчилик каби соҳаларни ўрганишда Асомиддин Ўринбоев илмий меросидан фойдаланганлик тўртинчи гуруҳни ташкил этди. Ушбу жиҳатлар У.Халмуминов, М.Юсупова, С. Ильясова, Ж.Ибодов ва Г. Матвиевская каби олимларнинг тадқиқотларида кўзга ташланади. Улар ўз тадқиқотлари доирасидаги турли масалаларда олим таржималаридан самарали фойдаланган.

У.Халмуминовнинг тадқиқотида Амир Темур ва Темурийлар даври тарихининг жуда қизиқ ва кам ўрганилган соҳаси ўрганилган. Унда

Асомиддин Ўринбоев илий меросидан фойдаланган ҳолда бу даврдаги тоғ-кончилиги ва металл ҳунармандчилиги масалаларини тадқиқ этилади ***[26.25.1:146-153].***

М.Юсупова Ўрта Осиёда Амир Темур ва темурийлар даврида барпо этилган меъморий обидалар тарихини тадқиқ этган бўлиб, манбалар таҳлилини ёритишда Асомиддин Ўринбоев илмий меросига ишора қилади ***[27.26.1:214-231]***.

С. Ильясованинг тадқиқотида ҳам Асомиддин Ўринбоев томонидан таржима қилинган, нашрга тайёрланган адабиётларга таянган ҳолда Тошкент ва Фарғона худудларида XV асрлардаги сопол ҳунармандчилиги намуналари ўрганилган ***[28.27.1:301-308]***.

Ж.Ибодов ва Г.Матвиевскаяларнинг тадқиқотида ҳам Асомиддин Ўринбоевнинг илмий меросига алоҳида фикрлар билдирилган ***[29.28.1:34]***. “1972 йилда тарих фанлари доктори А.Ўринбоев томонидан муҳим маълумотларни ўз ичига олган мақола чоп этилди. А.Ўринбоев Абдураҳмон Жомийнинг 1470-1471 йилларда ёзилган мактубларининг учтасида Али Қушчи хақида маълумотлар борлигини билдирган.Уларда Абдурахмон Жомий Ҳирот хокимига мурожаат қилиб, Али Қушчи ва унинг оиласига Темурийлар давлати чегарасидан чиқиб кетишга асос бўлувчи хужжат берилишини илтимос қилади. Бу ерда Асомиддин Ўринбоевнинг “Новые данные о жизни Али Кушчи” деб номланган мақоласи хақида сўз борган бўлиб, Ж.Ибодов ва Г. Матвиевскаялар ўз тадқиқотида бу мақолага ҳавола бермаган. Шундай бўлсада, Асомиддин Ўринбоев мактубларни изоҳида илмий янги маълумотларни келтирганлиги қайд этиб ўтилган: “Бошқа икки мактубга кўра, Али Қушчи йўл ёрлиғини олган ва ўз оиласи билан Ҳиротни тарк этганлиги ҳамда Али Қушчи Румга кетмоқчилигини билдирганида Абдурахмон Жомий қари инсон сафарда чарчаб қолишини айтиб қаршилик қилганлиги, 70 ёшли Али Қушчи Ҳиротдан кетиб Румга борганлиги ва у ерда

узоқ яшамасдан вафот этганлигини А.Ўринбоев Абдурахмон Жомийнинг шогирди Абулвосе Низомийнинг маълумотларига таяниб баён қилган”.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, Асомиддин Ўринбоевнинг Амир Темур ва темурийлар даври тарихига оид қўлёзмаларни араб тилидан ўзбек ва рус тилларига ўгирилиши натижасида манбалар илмий муомалага киритилиши билан бирга янги тадқиқот мавзу доираси очилишига хизмат қилиб келмоқда. Олимнинг темуршунос сифатида дунё миқёсида тан олинишига ҳам айнан шу қўлёзмалар устида олиб борган тадқиқотлари ва самарали меҳнатлари сабабчи бўлган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1.Бўриев О. Ёзма меросимизнинг йирик тадқиқотчиси. // Шарқшунослик. – № 10. – Тошкент: ”Минҳож” саҳоват нашриёти, 2000. – Б. 169-180.

2.Тиёншонга тенгдош тарих бу...” Тарихчи олим Ашраф Аҳмедов билан суҳбат. // Хуршид даврон кутубхонаси. Манба: **«Тафаккур» журнали, 2013. Ижтимоий тармоққа қўйилган санаси** 2015 йил 21-апрел.. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/amir-temur-ashraf-ahmedov.html

3.Хасанов А. Убайдулла Уватовнинг табаррук ёши муносабати билан шингил сўз // Илму маърифатга бахшида умр. – Тошкент, 2020. – Б.25.

4.Юсупова Д. Асомиддин Урунбаев. – С. 7.

5.Аҳмедов Б. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – 213 б.

6.Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Тошкент, 1995. – Б. 3.

7.Муртазаева Р.Ҳ., Эшов Б.Ж. Мирзо Улуғбек даврида ўзбек давлатчилиги. // Мирзо Улуғбекнинг жаҳон илм-фани ривожига қўшган ҳиссаси. Халқаро илмий конференция маърузалари. – Самарқанд, 2009. – Б. 67-71.

8.Файзиев Х. Темурийлар салтанатида Шоҳрух мирзонинг ўрни ва унинг ташқи сиёсати. Тарих фан. номз... дисс.– Тошкент, ТДШИ, 2011; Ўша муаллиф. Шоҳрух мирзо ва унинг ташқи сиёсати. – Тошкент: Наврўз, 2016;

9.Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми. Юридик фан. номз... дисс.– Тошкент: ТДЮИ, 2012.

10.Махмудов Н. Феодальная рента и налоги при Тимуре и Тимуридах. // Труды Таджикского государственного университета. – Тошкент, Наук, Вып. 2. – Душанбе, 1967. – С. 231-270

11.Тўхтаев И. Темур ва Темурийлар сулоласининг тангалари. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 109.; Ўша муаллиф. Амир Темур ва темурийларнинг молия пул сиёсати. – Тошкент, 2006. – Б.105.

12. Шпенева Л.Ю. Денежное обращение Ферганы и Шаша в эпоху Темуридов (медные монеты XV – нач. XVI в.). Автореф. дис. канд. ист. наук. Ташкент: ИА АН РУз, 1997.

13. Камышев А.М. Клады медных монет Тимуридов и Шейбанидов. – Самарканд: МИЦАИ, 2013. – Б. 7.

14. Агзамова Г.А. Амир Темур ва Темурийлар даврида Мовароуннаҳрни хориж билан боғлаган карвон йўллари. // Амир Темур даврида Мовароуннаҳр: археология, тарих, маданият. / Э.В. Ртвеладзе, А.М. Атаходжаев, М.И. Филанович таҳрири остида. – Тошкент: Адабиёт учқунлари. 2018. – Б. 101.

15.Сулаймонов Р.Х. По поводу двух кладов медный монет государства Тимура XV в. // Амир Темур даврида Мовароуннаҳр. – Б. 125-145;

16.Уватов У. Соҳибқирон араб муаррихлари нигоҳида. – Тошкент: “Шарқ”, 1997. – Б. 158.

17. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё (Тарихий-географик лавҳалар) – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 99.; Ўша муаллиф. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Тошкент:“MUMTOZ SO‘Z”, 2017. – Б. 350.

18. Юсупова Д.Ю. Творческое наследие Хондамира как источник по истории культуры Центральной Азии XVI в.: Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Тошкент, ИВ АН РУз, 2001; Ўша муаллиф: Жизнь и труды Хондамира. – Тошкент: Фан, 2006

19. Рахматуллева А.Р. Историография жизни и деятельности Амира Темура в Узбекистане (1991 – 2009). Автореф. дис. канд. ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУз, 2010.

20. Абдуллаев У.А. Амир Темурнинг Яқин Шарқдаги сиёсати. Тарих фан. номз... дисс.– Тошкент, ТДШИ, 2012.

21. Усмонов Б. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVIII-XXасрлар): Тарих фан. номз...дисс. – Тошкент:ЎзРФА ШИ, 2004. – 166 б; Ўша муаллиф. Россия тарихшунослигида Амир Темур сиймоси. – Тошкент: Фан, 2011. – 128 б.; Ўша муаллиф. Амир Темур ва темурийлар даврида Фарғона водийсининг сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фан. докт. .. (DSc) дисс. Автореферат. – Фарғона, 2020. – 82 б.

22. Бегимқулова Л. XV аср бошларида Мовароуннаҳрда ҳокимият учун кураш.(кучлар нисбати ва натижалар таҳлили). Тарих ф.б. PhD дисс... автореферати . –Андижон, 2021 - Б.52.

23. Улашева С. XIII-XV асрларда форсий манбаларда Мавороуннаҳрдаги этник жараёнлар. Тарих ф. б. (PhD) дисс. Автореферати. – Тошкент, 2022. – Б.53.

24. Махмудов Т. Темурийлар даври таълим тизими тарихи. Тарих ф. б. (PhD) дисс. Автореферати. – Самарқанд, 2022. – Б.49.

25.Халмуминов У.Р. Амир Темур ва Темурийлар даври тоғ-кончилиги ва металл ҳунармандчилиги. // Амир Темур даврида Мовароуннаҳр. – Б. 146-153.

26. Юсупова М. А. Мемориально-культовое зодчество Центральной Азии эпохи Амира Темура: эволюция, типология, особенности. // Амир Темур даврида Мовароуннаҳр. – Б. 214-231.

27. Ильясова С.Р. К изучению кашинной керамики Ташкента и Ферганы XV в. // Амир Темур даврида Мовароуннаҳр. – Б. 301-308.

28. Ибодов Ж., Матвиевская Г. Улуғбек шогирди- Али Қушчи. – Тошкент: Фан, 1994. – Б.34.

28.Xatamova, Z. (2020). Expenditure of state funds replenished by taxes in the history of the kokand khanate. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, *5*(3), 274-277.

29. Хатамова, З. Н. (2020). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА СОЛИҚЛАР ҲИСОБИГА ТЎЛДИРИЛГАН ХАЗИНАНИНГ САРФ ЭТИЛИШИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1№ 4).

30. Хатамова, З. Н. (2020). Особенности налоговой системы Кокандского ханства. *Молодой ученый*, (5), 254-256.

31. Хатамова, З. (2021). Expenditure of income from taxes and levies in the kokand khanate: https://doi. org/10.47100/conferences. v1i1. 1230. In *research support center conferences* (No. 18.05).

32.Nazirjonovna, K. Z. (2022). SH. VOKHIDOV'S CONTRIBUTION TO‘THE STUDY OF THE HISTORY OF THE KOKAND KHANATE. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects*, 139-141.

33.Xatamova, Z. (2021, June). EXPENDITURE OF INCOME FROM TAXES AND LEVIES IN THE KOKAND KHANATE. In *Конференции*.

34.Хатамова, З. (2023). Из истории денежной политики в финансовой системе Коканского ханства. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, *1*(1), 327–336. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/history-of-uzbekistan/article/view/16511

35.Nazirjonovna, K. Z. (2022). Political-Financial Analysis of the Issues of Science of the Kokand Khanate in the Work of Khudoyorkhonzade “Anjum At-Tavorikh”. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, *3*(10), 102-111. Retrieved from https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/463

36.Burkhonov, I. M. (2020). “ZAKAT” HAS ENSURED FAIRNESS AND BALANCE IN SOCIETY. *Theoretical & Applied Science*, (5), 201-204.

37.Muhiddinovich, B. I. (2020). Negative impact of the tax system on political life-on the example of the history of the Kokand Khanate (1850–1865). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, *10*(5), 790-795.

39.Burkhonov, I. (2021, June). The importance of the scientific heritage of asomiddin urinboyev in the study of the history of the Kokand khanat. In *Конференции*.

40.Бурхонов, И. М. (2019). ҚЎҚОН ХОНЛИГИ МАЪМУРИЙ БОШҚАРУВИДА СОЛИҚ ТИЗИМИНИНГ СИЁСИЙ ХАЁТГА САЛБИЙ ТАЪСИРИ (1850-1865). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (19).

41.Burkhonov, I. (2021). The importance of the scientific heritage of asomiddin urinboyev in the study of the history of the Kokand khanat: https://doi. org/10.47100/conferences. v1i1. 1242. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.05).

43.BURKHONOV, I. FROM THE HISTORY OF THE TRANSLATION OF THE WORK OF ABURAZZAK SAMARKAND" MATLA'I SA'DAYN AND MAJMA'I BAHRAIN. *ЭКОНОМИКА*, 138-144.

44.Muhiddinovich, B. I. (2022). The Importance of Asomiddin Urinboev's Scientific Research in the Study of the History of the Kokan Khanate. *Kresna Social Science and Humanities Research*, *3*, 175-179.

45.Бурхонов, И. М. (2020). «ЗАКОТ»-ХАЛҚИМИЗ ҲАЁТИДА АДОЛАТ ВА МУТАНОСИБЛИК ОМИЛИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, *3*(5).

46.Muhiddinovich, B. I. (2022). In the Study of the History of the Kokand Khanate. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, *6*, 68-71.

46.Burkhanov , I. . (2022). FROM THE HISTORY OF THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF KOKAND SCIENTISTS ASOMIDDIN URINBOEV. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, *2*(10), 63–67.

48.Бурханов, И. (2022). Шарафиддин Али Яздий илмий мероси Асомиддин Ўринбоев талқинида. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, *1*(1), 165-171.

47. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

48. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

49. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

50. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

СОБИҚ ИТТИФОҚ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА ХУСУСИЙ МУЛК: РИВОЖЛАНИШ ИЕРАРХИЯСИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР (“ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ” БИЛАН ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛ АСОСИДА)

Алишер Боротов

Тошкент давлат юридик университети
мустақил тадқиқотчиси

Аннотация: *мақолада ҳуқуқшунослик, хусусан, унинг алоҳида тармоғи ҳисобланган фуқаролик ҳуқуқининг асосий масалаларидан бири бўлган – мулк, хусусий мулк хусусида*

сўз боради. Бу борада тарихий манба – "Темур Тузуклари"даги қоидалар таҳлилга тортилади, собиқ Иттифоқ даврининг аччиқ тажрибаси тадқиқ этилади. Бу борада мамлакатимизда ўтган давлат мустақиллиги йилларида амалга оширилган ва оширилаётган ислоҳотлар, уларнинг ҳуқуқий асослари ўрганилади. Муайян хулосалар билдирилади.

Калит сўз ва иборалар: *мулк, мулкий ҳуқуқ, шахсий мулк, хусусий мулк, мулкдор, мулкдор ҳуқуқларининг устуворлиги, мукл дахлсизлиги.*

Аннотация: *в статье рассматривается юриспруденция, в частности, один из основных вопросов гражданского права, который считается особой его отраслью - собственность, частная собственность. В связи с этим анализируются положения исторического источника - «Законы Темура», а также изучается горький опыт постсоветского периода. В связи с этим изучаются реформы, осуществленные в нашей стране за прошедшие годы государственной независимости, и их правовые основы. Сообщаются конкретные выводы.*

Ключевые слова и фразы: *имущество, право собственности, личная собственность, частная собственность, собственник, приоритет прав собственника, абсолютный иммунитет.*

Annotation: *the article deals with jurisprudence, in particular, its special* ***Annotation:*** *the article deals with jurisprudence, in particular, its special branch, which is one of the main issues of civil law - property, private property. In this regard, the provisions of the historical source "Temur Laws" are analyzed, and the bitter experience of the former Soviet Union period is studied. In this regard, the reforms that have been implemented in our country in the past years of state independence, and their legal bases are studied. Specific conclusions are reported.*

Key words and phrases: *property, property right, personal property, private property, owner, priority of owner's rights, absolute immunity.*

"...Ўзбекистонда мулк ва инвестициянинг ҳимоячиси қайсидир ҳоким ёки вазир эмас, фақат Конституция, қонун ва суд бўлади"* ***[1].***

Мулк ва мулк ҳуқуқи шакллари барча макон ва замонларда узоқ баҳс-мунозараларга сабаб бўлиб келган. Кишилар (шахслар) ўз қўлларида тўплаган мол-мулк (бойлик)ларига қараб, айтиш мумкинки, уларнинг жамиятдаги ижтимоий мавқеи белгиланган. Маълумки, йирик ҳуқуқ соҳаларидан бири бўлган фуқаролик ҳуқуқи тизими халқимизнинг бой меросига асосланади ва уларни ўзида мужассамлаштиради. Улардан бири – "Темур Тузуклари"дир. Дарҳақиқат, улуғ жаҳонгирнинг ҳаёти ва ижтимоий-сиёсий фаолиятини ўрганишда "Тузуки Темурий" ("Темур Тузуклари") деб аталган асарнинг қиммати бениҳоя каттадир. "Тузуки Темурий" ўзига хос тарихий асар бўлиб, унда Амир Темурнинг таржимаи ҳоли ва унинг моҳир

саркарда сифатида шуҳрат топган бу шахснинг давлат…нинг тузилиши ҳамда уни бошқариш хусусидаги фикр-мулоҳаза ва қарашлари ўз ифодасини топган, - дейди академик, темуршунос тарихчи олим Б.Аҳмедов “Темур Тузуклари”нинг 1996 йил апрелда Тошкентда чоп этилган нашрдаги ёзган сўзбошисида ***[2].***

Тузукларни ўқир эканмиз, унда фуқаролик ҳуқуқининг айрим институтлари, масалан, мулк, унинг турлари, манбалари, давлат мулкини бошқариш, мулк дахлсизлиги, мерос ва ворислик, зарар етказишдан келиб чиқадиган мажбуриятлар, бедарак йўқолганлик билан боғлиқ масалалар ўзига хос тарзда ёритиб берилганлигига амин бўламиз.

Темур салтанатида ва ўша даврларда мулк деганда, асосан ерга эгалик тушунилган. Аниқроқ қилиб айтганда, фуқаронинг қанча ерга эгалик қилишига қараб, унинг мол-мулки миқдори аниқланган. Мулк деганда ҳам улар биринчи ўринда ерни тушунганлар. Ердан кейинги навбатда кундалик ҳаётда зарур бўлган бошқа маиший буюмлар, моддий қийматга эга бўлган бошқа бойликлар ва эквивалентлар мулк деб юритилган. Ер давлатга тегишли бўлиб, ортиқча ерлар аҳолига тенг тақсимланган, имтиёзли ерлар эса амалдор ва ҳарбийларга давлат олдида қилган буюк хизматлари учунгина “жогир”, “суюрғол” сифатида тақдим этилган. Тузукларда фуқарога тегишли барча мол-мулклар давлат томонидан бирдек ҳимоя қилинган. Юқорида қайд этилганидек, мулк эгаси бўлиш ёки бўлмаслигига қараб, кишиларнинг жамиятдаги мавқеи, аниқроғи, ижтимоий-иқтисодий мақоми вужудга келади. Дарҳақиқат, ўтмишда ижтимоий табақаланиш айнан мулк эгалиги, унинг миқдорига қараб белгиланган. Темур салтанати Буюк Ипак йўлининг марказий шаҳарларини ўз ичига оганлиги сабабли, кўплаб мол-мулклар олди-сотдиси асосан савдо йўллари орқали амалга оширилган. Шунинг учун ҳам Темур салтанати бозор иқтисодиёти муносабатларига кенг йўл очиб берилган давлат ҳисобланади. Амир Темур давлат бошқарувида Тузуклардан фойдаланар экан, ушбу тузуклар, ўз навбатида, савдогар ва уларнинг

манфаатларини ҳам ҳимоя қилган. Буни Тузуклардаги қуйидаги сўзлардан англаш мумкин: “…ва яна буюрдимки, йўл устига кузатувчилар, зобитлар тайинласинларки, йўлларни қўриқлаб, йўловчилар, савдогарлар, мусофирларни кузатиб, мол-мулки ва бошқа нарсаларни манзилдан-манзилга етказиб қўйсинлар” ***[3]***. “Темур Тузуклари” қадимги манбалардан бири бўлганлиги учун уни ўрганиш ва мазмун моҳиятини ёритишда турли манбаларга эътиборни қаратмоқ даркор. Тузуклардан келтирилган юқоридаги сўзлар бошқа бир адабиётларда бироз бошқача тарзда талқин этилади. Жумладан, И.Мўминов ўзининг “Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихда тутган ўрни ва роли” асарида Тузуклардан парча келтирилганлиги фикримизга далилдир. Унда “...йўловчиларнинг хавфсизлигини таъминлаш ва қўниб ўтишга манзилгоҳ қурдирдим; қулайлик яратиш учун катта йўлларга соқчилар қўйилди. Соқчилар йўловчиларнинг ҳар бир нарсаси учун жавобгар эдилар. Шу сабабдан сёҳатчилар ва савдогарлар улардан ўз мол-мулкларига соқчилик қилишни талаб эта оладилар” ***[4]***. Юқоридаги ҳар икки фикр мазмунан бир хил бўлса-да, уларни ифода этилиши ўзаро фарқлидир. Жумладан, И.Мўминов “катта йўлларга” қўноқлар қурилганлигини қайд этади. Шунингдек, унинг кўрсатишича, ҳуқуқдорлар (йўловчилар, савдогарлар, мусофирлар)нинг таркиби ҳам бир оз ўзгача бўлиб, у саёҳатчиларнинг мавжудлигини қайд этган. Шу билан бирга, ҳуқуқдорларнинг ўз мол-мулкларига соқчилик қилишни талаб эта олишини ҳам таъкидлайди. Ушбу фикрлар замирида жуда катта маъно ётади. Чунки, оддий фуқароларга давлат хизматчисидан ўз ҳуқуқларини талаб қилиш имконини беради. Бу ўша давр учун ҳам, ҳозирги кун учун ҳам катта аҳамиятга эгадир. Ушбу фикрларнинг замоний талқини Асосий қонунимизнинг 2-моддасида “...давлат органлари ва мансабдор шахслар жамият ва фуқаролар олдида масъулдирлар” деб қайд этилган нормага тўғри келади. Демак, Тузукларда нафақат давлат ёки раият мулки, балки ташқаридан кириб чиқиб кетувчи, бугунги кун тили билан айтганда, чет эл

фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар ҳамда бошқа бир шаҳарларга кетувчи мусофирлар мулки ҳам давлат томонидан баб-баравар ҳимоя этилган ва қонун билан кафолатланган. Бу мулклар қаторида нафақат савдо товарлари, балки хусусий мулклар ҳам тенг ҳимояланган.

Тузуклардаги мулк ҳимояси таъминланувчи шахслар гуруҳига эътибор қаратсак, улар ўша даврларда бир вақтнинг ўзида давлатнинг барча ҳуқуқида бўлиши мумкин бўлган турли тоифадаги шахслардир. Жумладан, йўловчи – у салтанатнинг фуқароси ҳам, чет эл фуқароси ҳам ва айни вақтда фуқаролиги бўлмаган шахс ҳам бўлиши мумкин. Лекин у мана шу йўлдан фойдаланувчи шахсдир. Шунинг учун ҳам унинг бехатар бўлиши ва, энг аввало, мулк дахлсизлиги таъминланмоқда. Ўз навбатида, йўловчи савдогар бўлмаслиги мумкин, лекин савдогар ҳам йўловчи бўлади. Шундай бўлса-да, Тузукларда савдогарларнинг манфаатлари алоҳида қайд этилган. Тузукларда савдогарлар мулки дахсизлигининг таъминланганлиги уларнинг мулк ҳуқуқини таъминлаш билан бир қаторда, мамлакат ҳудудида товарларнинг эркин ҳаракатда бўлишини ҳам таъминлайди. Бу каби нормаларни бугунги кунда миллий давлатчилигимиз қонунчилигида ҳам кўриш мумкин. Ушбу нормалар ҳатто фуқаролик қонунчилигимизга асосий тамойил сифатида жорий этилганлиги уларнинг бажарилишини янада кафолатлайди. Савдогарлар ва йўловчиларнинг мулкий эгалиги ва жамиятдаги мавқеига эътибор бериш лозим. Юқорида қайд этилган гуруҳ вакиллари ўша давр ижтимоий тузумининг юқори ва ўрта бўғин табақа вакиллари ҳисобланади. Шунинг учун ҳам Тузукларда жамиятнинг энг қуйи бўғин вакили бўлган мусофирлар ҳам алоҳида тартибда, яъни савдогарлар қаторида қайд этилган. Ушбу норма давлатимиз Асосий қонунини 18-моддасидаги “…ижтимоий мавқеидан қатъий назар …тенгдирлар” нормаси билан бир хил мазмунга эга, деб ҳисоблаш мумкин. Демак, конституциямизда Тузуклардаги нормалар қайсидир маънода замонавий ва шакллантирилган ҳолда ўз аксини топган...

Бироқ бизнинг манзил-маконларда ўтган 20 асрда 69 йил ҳаёт кечирган собиқ Иттифоқ давлати ва жамиятида узоқ йиллар мол-мулкка нисбатан “меники”, “ўзганики” эмас, “бизники”, “ҳамманики”, “давлатники”, аслида, “ҳеч кимники”, – деган қарашларнинг пайдо бўлиши мулкчилик муносабатларининг тубдан издан чиқишига олиб келди. Кишилар мулкдан сунъий равишда “бегоналаштирилди”.

Иқтисодий базиснинг ричаги ҳисобланган “шахсий мулк”нинг (ҳа, ҳа, шахсий мулкнинг, хусусий мулк эмас) ҳуқуқий режими шу қадар тор доирада олиндики, ўша давр иқтисодий мафкурасининг ҳуқуқий негизи ҳисобланган – Гражданлик кодексининг **120-моддаси** “Граждаднинг шахсий мулкида ***битта уй*** (ёки уйнинг бир қисми) бўлиши мумкинлиги, бирга истиқомат қилувчи эр-хотин билан уларнинг вояга етмаган болалари тасарруфида улардан бирининг шахсий мулки тарзида ёки уларнинг умумий мулки тарзида фақат битта уй бўлиши мумкинлигини, ушбу нормада кўрсатилган гражданларга тегишли уй жойнинг ёки унинг қисми (қисмлари) нинг максимум ҳажми, турар жой майдони тўқсон квадрат метр бўлган миқдордан ошмаслиги лозим”лигини белгилади.

Ушбу кодекснинг 121-моддаси эса, “агар граждаднинг шахсий мулкида ёки бирга турувчи эр ва хотин ҳамда уларнинг вояга етмаган болалари ихтиёрида қонун йўл қўйган асослар бўйича уй-жой биттадан ортиқ бўлиб қолса, уй эгаси ўз хоҳиши билан ана шу уй-жойлардан бирини ўз эгалигида қолдиришга *“ҳақли”* эканини, бошқа уй-жойи (уйлари) ни уй эгаси ана шу уй-жой (уйлар) га эгалик қилиш ҳуқуқи вужудга келган кундан бошлаб ***бир йил давомида*** сотиши, ҳадя қилиши ёки бошқа усул билан бировга ўтказиши лозимлигини, башарти ... уй жой эгаси белгиланган муддат ичида ортиқча уй жойини, қайси шаклда бўлмасин, ***бировга ўтказиш ҳуқуқидан фойдаланмаса***, бу уй жой ўша давр сиёсий тили билан айтганда, халқ депутатлари район, шаҳар, шаҳардаги район Совети ижроия комитетининг қарори билан, Ўзбекистон ССР Гражданлик-процессуал кодексида суд

қарорларини ижро этиш учун белгиланган тартибда мажбурий суратда сотилиши лозим”лигини нормалади ***[5]***.

Ўзбекистон собиқ Иттифоқ тузуми даврида бўлган йиллар тажрибаси шуни кўрсатдики, мулкни ҳаддан ташқари марказлаштириш ва жамиятнинг барча муаммоларини давлат зиммасига юклаш ҳамда давлатнинг нималарга қодирлигини четдан туриб кузатиш охир-оқибат иқтисодий таназзулга олиб келди. Зеро, “қайта қуриш”гача бўлган даврда **давлатнинг қўлида мавжуд моддий неъматларнинг 90 % дан кўпроғининг тўпланиб қолиши** иқтисодий муносабатларнинг турғунлашувига сабаб бўлганлиги аччиқ ҳақиқатдир. Бундан ташқари, мулкнинг давлат ихтиёрида марказлашуви хўжасизликка, унинг талон-тарож қилинишига, кўпайтириш ўрнига ўзлаштиришга учради.

Дарҳақиқат, барча макон ва замонларда **мулкчилик муаммоси,** хусусан, **ерга эгалик қилиш** масаласи алоҳида эътиборга сазовор бўлиб келган. Кўплаб манбаларда қайд этилганидек, бу масалани бир томонлама ҳал этиб бўлмайди. Бизнинг шароитларда сувсиз деҳқончилик қилиб бўлмаслиги сабабли ер муаммосини эмас, балки ер-сув муаммосини ҳал этиш керак.

Воқелар ривожи шундай тус олдики, Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги Қонун (1990 йил 31 октябрь) ўз даврида (ҳали Иттифоқ маҳалида) Ўзбекистон Республикасида мулк дахлсизлигини, ҳар бир шахс мулкдор бўлишга ҳақли эканини эътироф этди. Унга кўра:

биринчидан, Ўзбекистон Республикасида мулкий ҳуқуқ тан олинди ва қонун билан муҳофаза этиладиган бўлди;

иккинчидан, мулкдор ўзига тегишли мол-мулкка ўз ихтиёрига кўра эгалик қилади, ундан фойдаланади ва тасарруф этадиган бўлди;

учинчидан, мулкдор ўз мол-мулкига нисбатан қонунга зид бўлмаган ҳар қандай хатти-ҳаракатларни қилишга ҳақли бўлди;

тўртинчидан, мулкдор ўзига қарашли мол-мулкка эгалик қилиш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф қилиш ҳуқуқини бошқа шахсларга беришга фақат ўзи ҳақли экани мустаҳкамланди ***[6]***.

1992 йил 8 декабрда қабул қилинган мамлакат Асосий қонуни “ҳар бир шахс мулкдор бўлишга ҳақли” эканини, “бозор муносабатларини ривожлантиришга қаратилган Ўзбекистон иқтисодиётининг негизини хилма-хил шакллардаги мулк ташкил этиши, хусусий мулк бошқа мулк шакллари каби дахлсиз ва давлат ҳимоясида экани, мулкдор мулкига ўз хоҳишича эгалик қилиши, ундан фойдаланиши ва уни тасарруф этиши”ни Конституциявий даражада ифодалади ***[7]***. Фуқароларимиз, тадбиркорларимизда стеротип ўзгара бошлади – мулкка эгаменлик руҳи пайдо бўла бошлади.

Конституция нормалари – аниқловчи, жорий қонунлар нормалари – тўлдирувчи вазифасини бажарганидек, Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси ***[8]***, “Хусусий мулкни ҳимоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида” (24.09.2012 й.)ги Қонун ***[9]*** “хусусий мулк бўлган мол-мулкнинг миқдори ва қиймати чекланмайдиган” нормани ўрнатди. Яна ҳам муҳими, соҳавий қонунчилик “мулкдор ҳуқуқларининг устуворлиги”ни белгилади. Унга кўра, мулкдорнинг давлат органлари билан ўзаро муносабатларида мулкдор ҳуқуқларининг устуворлиги принципи амал қилади, унга мувофиқ қонун ҳужжатларидаги хусусий мулк ҳуқуқини амалга ошириш билан боғлиқ ҳолда юзага келадиган барча бартараф этиб бўлмайдиган зиддиятлар ва ноаниқликлар мулкдорнинг фойдасига талқин этилади.

Яна бир мулоҳаза. Давлат мулкини хусусийлаштириш жараёнида вужудга келган хусусий мулк дахлсиздир. Хусусийлаштириш натижалари қайта кўриб чиқилмайди ва бекор қилинмайди.

Амалга оширилган ислоҳотлар самараси ўлароқ, бугунги кунда фермер хўжаликлари (кластерлар) – қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг 90-92

фоизини ишлаб чиқармоқда; қишлоқ ҳаётининг тараққиётини ўз зиммасига олган ижтимоий-сиёсий ҳаракатга айланди; ЯИМнинг 56 фоизи кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларида ишлаб чиқарилмоқда; иш билан банд аҳолининг 75-77 фоизи шу соҳада меҳнат қилмоқда; иқтисодиётимизнинг турли тармоқларидаги давлат мулки ҳисобланган ўн минглаб корхона хусусий мулкдорлар ва акциядорлар ихтиёрига берилди ***[10]***.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, бу ҳали ҳаммаси эмас. Бозор муносабатларини шакллантириш шароитида хусусий-ҳуқуқий муносабатларда ўрин эгаллаган трансформация ва модернизация жараёнлари фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларни самарали ва мақбул тизимларини ишлаб чиқишни тақозо этмоқда. Бу борада фуқаролик қонунчилигини такомиллаштириш асосий восита бўлиб ҳисобланади. Чунки унинг сифатли ишлаб чиқилганлиги жамият ривожи, товарлар, хизматлар ва молиявий маблағларнинг мўл-кўллиги гаровидир. Зеро, истиқболдаги вазифалар Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” 2022 йил 28 январдаги ПФ–60-сон Фармонининг “Мулкий ҳуқуқларнинг дахлсизлигини ишончли ҳимоя қилиш ҳамда давлат органларининг мулкий муносабатларга ноқонуний аралашувини чеклаш”га бағишланган 13-мақсадига тўла мос келади. Яъни, хусусий мулк дахлсизлиги ва ҳимояси кафолатларини кучайтириш, мулкий, шу жумладан ер участкасига бўлган ҳуқуқларни сўзсиз таъминлаш; хусусий мулк устуворлигини асосий тамойил сифатида белгилаш, шу жумладан давлат идорасининг расмий маълумотига ишониб мол-мулк сотиб олган шахснинг ҳуқуқини ҳимоя қилиш тизимини жорий этиш ***[11]***. Фикримизча, бу масалалар ҳеч бир кечиктириб бўлмайдиган жараён бўлиб, хусусий мулкнинг дахлсизлиги ва барқарорлиги келгусида мамлакатимиз инвестициявий жозибадорлигини оширишга хизмат қилади. Бу борада, айниқса, янгиланаётган Конституциямизга “ҳар ким

давлат органларининг ёхуд улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари, ёки ҳаракатсизлиги туфайли етказилган зарарнинг ўрни давлат томонидан қопланиши ҳуқуқига эга” деган норманинг киритилиши ҳаётий заруратга айланганини қайд этмоқ лозим.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. https://president.uz/ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.

2. Темур Тузуклари. Institutes of Temur. Les instituts de Nemour. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. 3-б. (Б.Аҳмедовнинг фикри жузъий таҳрир билан берилди – *А.Б.*).

3. Темур тузуклари. –Тошкент: Шарқ, 2005. 122-б.

4. Мўминов И. Темур 35 б.

5. Ўзбекистон ССР Гражданлик кодексининг 1983 йил 28 феврал, 1988 йил 18 июл таҳрирларида // ЎзССР Олий Советининг Ведомостлари, 1983 йил, 7-сон, 114-модда; 1988 йил, 21-сон, 239-модда

6. Ўзбекистон Республикасининг Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисидаги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Советининг Ведомостлари, 1990 йил, №31-33, 371-модда

7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (36, 53-моддалар). –Тошкент: Ўзбекистон, 1992.

8. http:// www.stat.uz/

9. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси (207-модда). – Тошкент, 2015.

10. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 йил, 39-сон, 446-модда.

11. қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 йил, 06/22/60/0082-сон.

МУЪИНИДДИН ИСФИЗОРИЙНИНГ “РАВЗАТ АЛ-ЖАННОТ” АСАРИ ВА УНИНГ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МАДАНИЙ ҲАЁТИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЎРНИ

Абдуносирова Озодахон Ботиржон қизи

Фарғона давлат университети
Ўзбекистон тарихи кафедраси
таянч докторанти
abdunosirovaozodaxon@mail.com

Аннотация: *Ушбу мақолада темурийлар даври маданий, ижтимоий ҳаётини акс эттирувчи қимматли тарихий манбалардан бири Исфизорийнинг “Равзат ал-жаннот фи авсофи мадинат ал-Ҳирот” асари ҳақида сўз боради. Унда келтирилган маълумотлар айрим манбалар билан қиёсий таҳлил қилинган ва шаҳзодаларнинг ҳомийлик фаолиятига доир фикрлар билдириб ўтилган.*

Калит сўз ва иборалар: *манба, Исфизорий, маданий ҳаёт, Шоҳрух мирзо, Султон Абу Саъид, Султон Ҳусайн мирзо, ҳомийлик фаолияти.*

Аннотация: *В данной статье рассказывается о произведении Исфизари «Равзат ал-джанот фи авсафи мадинат ал-Хирот», одном из ценных исторических источников, отражающих культурную и общественную жизнь тимуридского периода. Представленные в нем сведения сопоставлены с некоторыми источниками и высказаны мнения о меценатской деятельности принцев.*

Ключевые слова и фразы: *Источники, Исфизари, культурная жизнь, Шахрух мирза, Султан Абу Саид, Султан Хусейн мирза, спонсорская деятельность.*

Annotation: *This article describes the work of Isfizari "Ravzat al-janot fi avsafi madinat al-Khirot", one of the valuable historical sources reflecting the cultural and social life of the Timurid period. The information presented in it is compared with some sources and opinions are expressed about the philanthropic activities of the princes.*

Key words and phrases: *source, Isfizari, cultural life, Shahrukh mirza, Sultan Abu Sa'id, Sultan Husain mirza, sponsorship activities.*

Амир Темур ва темурийлар даври ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётини акс эттирувчи тарихий манбалар талайгина. Лекин, айрим муаллифларнинг диққатга сазовор барча асарлари илмий муомалага киритилмаган ва баъзилари ҳанузгача ўзбек тилига таржима қилинмаган.

Муъиниддин аз-Замжий Исфизорийнинг “Равзат ал-жаннот фи авсофи мадинат ал-Ҳирот” (Ҳирот шаҳри тавсифида жаннат боғлари) номли асари ҳам шулар қаторига киради. Муаллиф Султон Ҳусайн мирзонинг девонида хизмат қилган. “Равзат ал-жаннот” (روظات الجنات فی او صاف مدینیته هرات) **[1]** 1493-1494 йилда ёзиб тугалланган ва Султон Ҳусайн мирзонинг вазирларидан

бири Қавомиддин Низомга бағишланган ***[2:62-63]***. Лекин, айрим илмий адабиётларда Султон Ҳусайн мирзога атаб ёзилганлиги айтилади. мақоламизда фойдаланилган Теҳрон нашрининг кириш қисмида ҳам унинг номи қайд этилган. Манбада Ҳирот, Марв шаҳарлари ва Хуросон ўлкасининг тарихи, топографияси, сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ҳаёти билан бир қаторда XV асрнинг иккинчи ярмида маданий ҳаёт, ободончилик ишлари, суғориш иншоотлари, боғлар, жамоат бинолари ҳамда табиий офатлар, касалликлар борасидаги қизиқарли маълумотлар учрайди.

Асар икки қисмдан иборат. Улар 1959-1960 йилларда Муҳаммад Казим Имом таҳрири билан Теҳронда нашр қилинган ***[3]***. Хондамирнинг “Ҳабиб ус-сияр”, “Макорим ул-аҳлоқ” асарларида муаллиф ва асарнинг номигина келтириб ўтилади. Фасиҳ Хавофийнинг “Мужмали Фасиҳий” асарида ҳам Исфизорий тўғрисида қисқача маълумот берилган ***[4:8]***. У Хавофийнинг шахсияти ва ижодига доир илиқ фикрларини билдириб ўтган. Бу эса уларнинг ўзаро илмий ва ижодий фаолияти билан яқиндан таниш бўлганидан далолат беради. Хориж тадқиқотчилардан бири Б.Ф.Манц ҳам “Power, Politics and Religion in Timurid Iran” асарида “Равзат ал-жаннот” ҳақида тўхталиб ўтган ***[2]***. В.Бартольд ҳам “Равзат ал-жаннот”да Хуросон ўлкаси аҳолининг кундалик турмуш тарзига, ижтимоий масалаларга доир турли фикрлар берилганини айтиб ўтади ***[5:112]***. Исфизорий Мовароуннаҳр ва Хуросондаги бир қатор шайхлар, олимлар, шоирлар ва ўз даврининг зиёлилари, улар билан суҳбатлари борасида қимматли маълумотларни қайд этади. Жумладан, муаллиф (4а) Зайниддин Абу Бакр Тайободий тўғрисида фикр юритиб, уни мавлоно Низомиддин Ҳиравийнинг шогирди эканлигини айтиб ўтади ***[1:216]***.

Асарда араб ва форс тилидаги шеърлар ҳам учрайди ва муаллиф воқеаларга ўзининг шахсий муносабатини билдиришга ҳаракат қилади.

“Равзат ал-жаннот”нинг кириш қисмида асарнинг ёзилиш сабаблари ва унинг ҳомийси тилга олинади. Унинг биринчи жилди 27 бобдан иборат

бўлган. Калкутта университети профессори Муҳаммад Ишоқ бу манбанинг Ҳиндистондаги “Осиё жамияти”да (бу ерда дўкон сўзи ишлатилган) сақланаётган қўлёзма нусҳасини ўрганади ва таҳлил қилади. У Исфизорий асарни ёзишда фойдаланган асарлар, кириш қисми борасида ўз фикрларини билдириб ўтади. Жумладан, асарда Султон Ҳусайн мирзо даврига алоҳида эътибор қаратилади ***[5]***.

“Равзат ал-жаннот” асарининг биринчи бобида Ҳирот шаҳрининг қурилиши, у билан боғлиқ турли ривоятлар келтириб ўтилади.

از آغاز فتح اسلامی تا کنون تحو لات تغییر ن ان و سو انح بسیاوی بر شهر هرات واردشده واین شهر چندین باز در اش حملات اعر اب قتل عام لشکریلن تاتار تخر یبات سپاهیان تیموروازبل زلز له قحط و غحلا و بیماریهای و باوطل عونزیر وزبر گردیده است.

Асарнинг саккизинчи бобида Ҳирот малики Ғиёсиддин, Амир Темурнинг Хуросонга юриши воқеалари, 9-бобида Хуросоннинг темурийлар салтанати таркибига кириши, 10-бобида Хуросон бошқарувининг Шоҳрух мирзога берилиши, 11-бобида эса Ҳирот шаҳрининг вайрон қилиниши, бузиб ташланган бинолар, тасвирланган. Ҳирот шаҳрининг қайта тикланиши ва олиб борилган ободончилик ишларига 12-қисмда тавсиф берилади. Исфизорий асарнинг 13-бобда Бойсунғур мирзонинг вафоти, Шоҳрух мирзонинг пичоқланиши, вабо эпидемиясининг тарқалиши (وباو طاعون асарда “вабо-тоун” номи билан келтирилган) ***[6]***, Шоҳрух мирзо даврида бунёд қилинган иншоотлар айтиб ўтади. У асарнинг 15-бобини “Ҳиротда Султон Шоҳрух мирзодан кейинги вақеалар” деб номлаб, 16-18-бобларида Мирзо Улуғбек, Абулқосим Бобур, Иброҳим мирзоларнинг ҳукмронлик даврларига тўхталади.

Асарнинг 19-26-бобларида эса Хуросонда Абу Саъид мирзо ҳукмронлигининг ўрнатилиши, Абу Саъид мирзонинг Қора Қуюнлиларга қарши кураши ва шаҳзода Бойсунғур мирзонинг туғилиши, Султон Ҳусайн мирзонинг ҳукмронлик даври, юришлар, Ёдгор Муҳаммадга қарши кураши

ва айрим шаҳзодалар борасида тўхталиб ўтилган. “Равзат ал-жаннот”нинг 27-бобнинг тавсифи берилмаган.

Муаллиф темурий шаҳзодалар ҳомийлиги билан қурилган баъзи маданий ва жамоат иншоотлари, барпо қилинган боғлар ҳамда илм-фан, санъат соҳасидаги шаҳсий иштироки борасида қизиқарли маълумотлар беради. Жумладан, у Ҳирот, Гулистон ва Аҳламад тўғонлари Шоҳрух мирзонинг ҳомийлиги билан қурилмагани, бироқ суғориш иншоотлари унинг ҳукмронлиги даврида мунтазам таъмирлаб турилганини айтади. Шунингдек, Гулистон тўғони Абу Саъид мирзо томонидан ҳам қайта таъмирланган.

Асарда “Гунбад-и Алика Кўкалдош, “Гунбад-и Чўпон”, “Гунбад- и Сафид” каби жамоат биноларининг номлари берилган. Бизнинг фикримизча, “гунбад” форсий сўз бўлиб, “гумбаз” маъносини билдиради ва мақбара атамаси билан бир ҳил бўлиши мумкин.

Темурийлар даврида Хуросоннинг Ҳирот, Марв, Машҳад каби шаҳарларида кенг қамровли ободончилик ва бунёдкорлик ишлари амалга оширилганини алоҳида таъкидлайди. Жумладан, Султон Ҳусайн мирзо Малик Ғиёсиддин томонидан барпо этилган Салама тўғонини қайта тиклаган. Шу билан бирга, ундан келадиган даромадни ҳайрия биноларини қуриш ва таъмирлаш учун сарфланган. Ундан ташқари, темурийлар даврида Ҳирот шаҳридаги бозорлар ҳақида ҳам асарда эслаб ўтилади. Шулардан бири “Чаҳор суқ” бўлиб, Алоуддавла мирзо, Малик дарвозаси ташқарисида “Шайҳ Човуш” бозори Султон Ҳусайн мирзонинг ҳомийлиги билан қурилган. Бироқ, темурийлар даврида Ҳирот бозорлари ҳақида Хондамирнинг “Ҳулосат ул-аҳбор”(خاندمیر خلاصه الا خیار فی بسان احوال الا خیار) ***[7]*** асарида батафсилроқ баён қилинган. Жафарийнинг “Тарихи Язд” эса (تریخ یزد) ***[8]*** асарида ҳам Хуросондаги мактаблар, мадрасалар, масжидлар, боғлар ва шифохоналар тўғрисида қизиқарли маълумотлар келтирилган. Ундан ташқари, Султон Ҳусайн мирзо томонидан Марв шаҳрида олиб борилган қурилиш ишлари,

суғориш иншоотлари қайта тиклангани, тошлоқ ва шўр жойларда боғ ва далалар бунёд қилинганини таъкидлайди.

Исфизорий Ҳиротдаги 1492-1493 йилда бузиб ташланган кўприкни Алишер Навоийнинг ҳомийлиги билан қайта тикланганини айтиб ўтади. Муаллиф кўприкни “Тавақули ёки Бобо Камол” номи билан қайд этади. Бироқ, Алишер Навоийнинг ташаббуси билан қурилган ёки қайта таъмирланган работлар санаб ўтилган “Макорим ул-аҳлоқ” асарида бу работнинг номини учратмадик. Навоий томонидан қайта тикланган иншоотлардан бири Работи Сангбаст бўлиб, Машҳад шаҳрида жойлашган. У “Арслон Жозиб”нинг мақбараси номи билан ҳам аталади ***[1:192]***.

Хулоса қилиб айтганда, “Равзат ал-жаннот” асари темурийлар даври маданий жараёнлари ва шаҳзодаларнинг ҳомийлик фаолиятини ёритишда қимматли аҳамиятга эга. Шоҳрух, Мирзо Улуғбек, Алоуддавла, Абу Саъид, Султон Ҳусайн мирзо каби ҳукмдорларнинг шахсий ташаббуси билан амалга оширилган ободончилик ишлари борасида қизиқарли маълумотлар беради. Шунингдек, манбани ўрганиш ва таҳлил қилиш орқали бизга бир қатор янги илмий хулосалар бериш имконини беради.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. روضات الجنات فی اوصاف مدینه هرات، معین الدین محمد الزمجی الاسفزاری، ج۱، ص-۳ ۶۲۲.

روضات الجنات فی اوصاف مدینه هرات، معین الدین محمد الزمجی الاسفزاری، ج۲، ص-۱ ۵۲۱.

2. Manz Beatrice Forbes. Power, Politics and Religion in Timurid Iran. – Cambridge. Cambridge University Press, New York, 2007. – P.313

3. https://fa.wikifeqh.ir//

4. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / пред. предис. примич. и указатели Д.Ю.Юсуповой. –Т.: Фан. 1980. – 346 с.

5. В.В.Бартольд. К истории орешения Туристана. – С. 112

6. https://fa.wikifeqh.ir//

7.۴ -روظات الجنات فی او صاف مدینیته هرات .

8.خاندمیر خلاصه الا خیار فی بسان احوال الا خیار

9. https://fa.wikifeqh.ir//

10. Д.Юсупова. Жизнь и труды Хондамира. – Т.: Фан, 2006.

11. Абдуносирова О. Бойсунғур мирзонинг ҳомийлик фаолиятига доир айрим мулоҳазалар. Ўтмишга назар. 5 жилд, 4-сон, 2022. – Б. 8-18

12. Абдуносирова О. Шоҳрух мирзо ҳукмронлиги даври маданий жараёнлари хусусида. ЎзМу хабарлари. 1-сон, 2023. – Б. 4-8

13. Абдуносирова О. Шоҳрух мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари. Халқаро илмий-назарий конференция материаллари. Фарғона, 2022. – Б. 172-179

14. Abdunosirova O.B. ON THE SPONSORSHIP ACTIVITIES OF THE TEMURIAN PRINCE. Asian Journal of Multidimensional Research 1(11), 2022.

AMIR TEMUR ARAB MUARRIXLARI TALQINIDA
(Ibn Tag‘riberdi asarlariga sharh)

Ulug‘bek Mirzaliyev

FarDU O‘zbekiston tarixi mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada arab muarrixlaridan biri Ibn Tag‘riberdining ikki asari orqali Amir Temurning harbiy yurishlari bayon qilinadi. Unda Amir Temurning Damashq va Bag‘dod shaharlarini fath etishi, shuningdek, Hindiston, Misr va Usmonli turk davlati bilan olib borgan harbiy, siyosiy o’yinlari keltirib o‘tiladi.*

Kalit so‘z va iboralar:*Ibn Tag‘riberdi, al-Maqriziy, Ibn Arabshoh, Ibn Xaldun, Sulton Ahmad, Misr, Bag’dod, Damashq, Nosir Faraj.*

Аннотация: *В данной статье описываются военные походы Амира Темура через два труда одного из арабских историков Ибн Тагриберди. В нем упоминается завоевание Амиром Темуром Дамаска и Багдада, а также его военно-политические игры с Индией, Египтом и Османским турецким государством.*

Ключевые слова и фразы: *Ибн Тагриберди, аль-Макризи, Ибн Арабшах, Ибн Халдун, Султан Ахмед, Египет, Багдад, Дамаск, Насир Фарадж.*

Annotation: *this articles describes the military campaigns of Amir Temur through two works of one of the Arab historians, Ibn Taghriberdi. It mentions Amir Temur’s conquest of Damascus and Baghdad, as well as his political games with India, Egept and Ottoman Turkish state.*

Key words and phrases: *Ibn Taghriberdi, al-Makrizi, Ibn Arabshoh, Ibn Xaldun, Sultan Ahmed, Egept, Damascus, Baghdad.*

To‘liq ismi Abul Mahosin Jamoliddin Yusuf ibn al-Amir Sayfiddin Tag‘riberdi 813-874-yillar (hij.), 1409-1410 - 1470 (mil.) yillarda yashagan. Ibn Tag‘riberdining ma'lumotlariga ko‘ra otasi Amir Sayfiddin Tag‘riberdi Onadoluda yashagan asl mamluk bo‘lganligi keltirilgan. Ammo millati ko‘rsatilmagan. Tag‘riberdining ismi Onadoluda yashagan turklar va boshqa qavmlarning ham birga yashaganliklarini hisobga olib ismining turkcha ekanligi va Turkiya tarixini juda yaxshi bilganligi uning asl turk ekanligini ko‘rsatmoqda. Onasi ham asli turkdir va u ham Misr sultoni Barquq tomonidan ozod qilinganlardandir. Barquq tomonidan ozod etilganidan so‘ng Ibn Tag‘riberdi sultonning mamluk askarlari safiga qo‘shiladi va qiska vaqt ichida yuksalib hukmdorning eng yaqin amirlari orasiga kiradi. Sulton Barquq uni Halab viloyatiga noib etib tayinlaydi va Malik-ul Mansur Muhammadning qizini nikohlab beradi. Barquqning o‘limidan so‘ng uning taxtiga o‘tirgan o‘g‘li Malik un-Nosir Faraj ham uni yuqori amirlar qatorida ko‘rib Damashq noibligiga qo‘yadi. Sulton Faraj Tag‘riberdining qizlaridan biriga uylanadi. Keyin Hanafiy olimlaridan Shamsiddin ar-Rumiy, Bahouddin Abu-l Beka va Badriddin Mahmud al-Aynilardan fiqh darslari oldi. Yana Taqiyuddin ash-Shumunniydan nahf, Quvomiddin Muhammad bin Muhammad va Shahobiddin Ahmad bin Umarshoh ad-Damashqiydan adabiyot, Muhiddin Kafiyejidan she'rlar va bayon o‘qidi. Ibn Xojar al-Asqaloni, Makka imomi Jamoliddin Abu-s-Saodat ibn Zohir va Ibn Arabshoh kabi olimlarning darslarida qatnashdi. Bu orada hadis olimlaridan ba'zi haqiqiy hadislarni tingladi. Shuningdek, tasavvuf, astronomiya, tibbiyot, matematika va musiqa bilan shug‘ullandi. Zamonining buyuk musiqashunos ustalari orasiga kira bildi. Keyinroq tarix ilmini xohladi va o‘sha davrning eng mashhur tarixchisi Maqriziyga shogird bo‘ldi. Tarix ilmida Ayniy, Ibn Xojar va Shahobuddin ibn Arabshohdan o‘tib ketdi.

Ibn Tag‘riberdi Maqriziy (o‘limi 845/1441) va Ayniy (855/1451) ning vafotlaridan so‘ng Misr tarixchilarining sardori bo‘lib qoldi. Misr tarixchilarining oltin asri (IX/XV) sanalgan davrda eng buyuk tarixchilardan biri sifatida juda

ko‘plab tarixga oid asarlar yozadi. Ibn Tag‘riberdining biografiyasini yozgan talabasi Alouddin ibn Turkman uni tarixchilarning umidi, bilimi, go‘zal axloqqa ega buyuk bir inson deya ta'riflaydi. Ibn Tag‘riberdi, ayni paytda arabcha va turkcha she'rlar yozgan bir shoir va zamonasining mashhur musiqashunoslaridan biri edi. Shunday shuhrati bo‘lishiga qaramay Ibn Tag‘riberdining safdoshlari Shamsiddin as-Sahoviy va Ali bin Dovud as-Sayrafiylar tomonidan qattiq tanqidga olinadi. Sahoviy uning asarlarida xatoliklar bo‘lganligini ta'kidlaydi. Ismlarning va so‘zlarning yozilishida juda ko‘plab xatolar qilganligini, hatto ko‘p o‘rinlarda mubolag‘aga qochganligini bildiradi. Lekin baribir Ibn Tag‘riberdi o‘z davrining yetuk tarixchisi va olimi edi. Ushbu maqolamiz orqali Ibn Tag‘riberdining “An-nujum az-Zohira fi mulki Misr va-l-Qohira” (النجوم الزاهرة فى ملوك مصر و القاهرة) (“Misr va Qohira davlatida porloq yulduzlar”) va “al-Manxal as-safi al-mustaufiba'd al-vafi” (المنحل الصافى المستوفى بعد الوافى) (“al-Vofiy” dan keyingi to‘liq va musaffo chashma”) asarlarini qisqacha tahlil qilamiz.

Sohibqiron Amir Temur umri davomida juda ko‘plab yurtlarga harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Bu yurishlarning qanday amalga oshirilganligi, nima sababdan u yerlarga bosqinchilik qilinganligi, bo‘ysunishni istamagan aholini yoppasiga qatliom qilinishlari haqida Amir Temur davrida va undan keyin yashagan Temuriylar saroyi tarixchilari to‘liq va mukammal yozib qoldirishgan. Biz bu ma’lumotlarni qaytadan sizga bayon qilishdan o‘zimizni tiygan holda Amir Temurning harbiy yurishlari haqida arab muarrixlaridan: Ibn Tag‘riberdining yozib qoldirgan ma’lumotlarini qisqacha sharh qilib o‘tamiz. Biz ushbu sharhimizda Amir Temur va temuriylar saroyi tarixchilarining asarlaridan foydalanib, arab muarrixlarining Amir Temur yurishlari haqida keltirib o‘tgan ma’lumotlarini solishtirgan holda o‘z xulosalarimizni xolisona bildiramiz.

Qaysi muarrixning asari to‘g‘ri-noto‘g‘riligini tekshirish emas ishimiz, balki ma’lumotlarni keltirib o‘tgan arab tarixchilarining shaxsiy qarashlari-yu, buyuk fotihga bergan baholarini o‘rganishdir. Demak ishimizni Amir Temurning qachon va qayerda tug‘ilganligidan boshlasak. Tadqiqotimiz davomida biz Ibn Xaldunning

“Tarixi ibn Xaldun”, Ibn Tag‘riberdining “An-nujum az-Zohira fi muluki Misr va-l-Qohira” (“Misr va Qohira saltanati haqida porloq yulduzlar”) va (المنحل الصافى المستوفى بعد الوافى) “al-Manxal as-safi al-mustaufiba'd al-vafi” kabi asarlarini o‘qib, tarjima qilgan holda ularda keltirilgan ma’lumotlarga o‘z xolisona fikrimizni berib o‘tamiz. Amir Temurning harbiy yurishlari haqida arab muarrixlari ham alohida to‘xtalib o‘tganlar. Masalan, Amir Temur tomonidan Suriya ustiga yurish qilinib, Halab shahrini egallanganligi, o‘sha paytda Suriya mamluklar tasarrufida ekanligi sababli Sulton Faraj uni himoya qilish uchun o‘z lashkari bilan Damashq tomon yurish qiladi va Ibn Xaldunni ham o‘zi bilan olib ketadi. Damashq qal’asi tashqarisiga kelib tushgan Sulton Faraj Amir Temur bilan urushga kirmay, uni kuzatishda davom etadi. O‘z navbatida Amir Temur ham ochiq jangga kirmay sultonning xatti-harakatlarini kuzatib turadi. Bir oy kuzatishlardan so‘ng Misrda beklar va saroy a’yonlarining fitna ko‘tarish ehtimoli paydo bo‘lganligi haqidagi xabar sulton qulog‘iga yetganida u bir kechada askarlarini qoldirib Misrga ravona bo‘ladi. Ibn Xaldun esa Damashq qal’asiga kirib o‘sha yerda qoladi. Ibn Xaldun Amir Temur tomonidan Damashq qal’asining olinishi va atrof hududlarni fath etilishini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, shuningdek, Amir Sohibqiron bilan o‘ttiz besh kun davomida hamsuhbat, yurishlarida hamroh bo‘lganligini inobatga olsak, muallif o‘z ko‘rgan kechirganlarini haqqoniy qalamga tushirgan.

Amir Temurning O‘rta va Yaqin Sharqqa yurishi, Rum va Misr sultonlari bilan olib borgan harbiy yurishlari haqida muarrix Ibn Tag’riberdi o‘zining asarida biroz batafsilroq ma’lumot bergan. Muarrix Amir Temur tomonidan Bag‘dod shahrining olinishini quyidagicha izohlaydi: Temurning Bag‘dodni olishiga esa sabab, yuqorida tilga olingan Sulton Ahmad ibn Uvays ***[1]***ning shahzodalarini o‘ldirishda isrofgar bo‘lgani, qo‘l ostidagilarning adolatsizligini bo‘rttirib ko‘rsatganligi, axloqsizlik va fasodga botganligi edi, - deydi. Bu voqea Bag‘dod ahlining noibi Sulton Ahmaddan sodir bo‘lganida, Temur Tabriz shahrini bosib olgandan so‘ng, uni ushbu voqealar Bag‘dodga yurishga undadi va o‘sha tomon yo‘l oldi ***[2].*** Bu paytda Bag‘dodda hokim Faraj ismli qo‘mondon edi. Uni Sulton

Ahmad ibn Uvays tayinlab o‘zi qochib ketgan edi. Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Sohibqironni Bag‘dodga borishini quyidagicha talqin etadi: Faraj bedavlat tafahhusi ahvol uchun birovni elchilik bahonasi bila tashqari yibardi, sohibqironning ich kuchidin sohibi vuquf bo'lg’ay. Elchi sohibqiron qoshiga keldi. Hazrat lutfu karamidin dedikim, “Borib Farajg‘a deginkim, qo‘rqmasun, shahardin chiqib bizni ko'rsun. Har nekim aning hotiri tilasa, o‘shandoq bo‘lg‘usi turur”. Va elchig‘a to‘n kiydurub yibardi. Elchi kelib nekim sohibqirondin eshitib erdi, Farajg‘a dedi. Faraj bildikim, ul so‘zlar chin turur. Ammo jahli va badbaxtlig’idin dedikim, «Bu so‘zlar yalg‘ondur. To‘tirikdurmen aning bila urushurmen». Qirq kungacha sohibqiron tahammul qildi va shahar ichida qahat bo‘ldi. Qirq kundin so‘ng yakshanba kuni zulqa'da oyining yigirmi yettisida (09.07.1401) shahar qo‘lga olindi. Faraji bedavlat qizi bila kemaga kirib, suvnung yuqori sori qochib borur erdi. Va cherik eli alarga o‘q otar erdi. O‘q zahmidin o‘z1arini suvg‘a solib, balig‘ ta’masi bo‘ldilar. Va mallohlar hukm bila suvg‘a kirib, Farajning jasadini chiqordilar. hukm bo‘ldikim, «Cherik eli har kishi bir bosh keltursun?». Cherik eli bu hukmni eshitib, bosh kelturmak uchun yuridilar. Va siyosat bozori andog‘ issiq bo‘ldikim, ahli jallodi sakson yoshliq pirni sakkiz yoshliq tifl bila teng ko‘rar erdi ***[3]***. Ma’lumki, Amir Temur dastavval biror shahar yoki qal’aga borib taslim bo‘lishni, moli omon to‘lash evaziga aholini tinchini buzmaslik shartini qo‘yadi. Lekin taslim bo‘lishni istamagan shahar yoki qal’ani yer bilan yakson qilib, aholisini umumiy qatliom qiladi. Sohibqironning bunday qahriga bir necha shaharlar guvoh bo‘lgan.

Ibn Tag‘riberdi o‘z asarida huddi shu voqeani mana bunday tasvirlaydi: Temur Bag‘dodni qo‘lga kiritganida, u bilan birga bo‘lganlarning hammasini unga Bag‘dod ahlidan ikki boshdan olib kelishga majbur qildi, shuning uchun o‘ldirishlar kuchaydi. Bag‘doddagi qal’a amirlari va aholi qirdilar, qon daryo bo‘lib oqdi, poytaxda bir yuz yigirma minora qurdirdi, shuning uchun o‘ldirilganlar soni bu kunda Bag‘dodda taxminan 100 000 kishi bor edi. Al-Maqriziy ***[4]*** aytdilar: To‘qson ming kishi, bu qamal kunlarida o‘ldirilganlar bilan

barobardir. Temur Bag‘dodga kirgan kuni halok bo‘lgan ham, Dajla daryosiga o‘zini tashlab cho‘kib ketgan ham, undan ham ko‘proqdir. U zot: “Ikki bosh olib kelishga amr qildi, agar erkakning boshini topa olmasa, ayolning boshini kesib, sochini olib, olib kelardi”, dedilar. Ularning ba’zilari ko‘cha-ko‘yda turib kimning yonidan o‘tsa, ovlab, boshini kesardi ***[5].***

Amir Temurning Damashq shahriga yurishi tavfisini Ibn Tag’riberdi quyidagicha keltiradi: Shom ahli Temurning tinchlik haqidagi so‘zlarini eshitgach, bosh qozi Taqiiddin Ibrohim ibn **[**Muhammad ibn**]** Muallif ***[6]***ni jo‘natishga qaror qildilar. Al-Hanbaliy, shuning uchun u Damashq devorini yerga bo‘shatib, Temurning oldiga borib, u bilan uchrashib, Shomga qaytib keldi va Temur uning so‘zlarini ziynatlab, uni aldadi va U zot unga so‘zlarida mehribon bo‘lib, unga aytdilar: “Bu shahar payg‘ambarlar va sahobalar shahridir, men uni Rasulullоh (s.a.v.) uchun ozod qildim va unga tinchlik berdim. Mening nomimdan va farzandlarim nomidan, agar Shom vakili Soudun elchimni o‘ldirganida g‘azabim bo‘lmaganida edi, men unga kelmasdim va yuqorida zikr etilgan Soudun mening qo‘limda bo‘lib qoldi. Va bu uning odati bo‘lgan edi, agar qarzdor birovni qabul qilsa, **[**uning odamlari**]** har xil ovqat, ichimlik, hayvon, kiyim-kechak va ashyolardan uning oldiga chiqishadi to‘qqiz; Buni taqzat deyishadi, turkiy tilda taqz esa to‘qqiz, bu tatar podshohlarining bugungi kungacha bo‘lgan odati ***[1:240].*** Bu xabarni eshitgan Misr sultoni Nosir Faraj Damashq qal’asiga borib, sakkizinchi shanbagacha shu yerda yashadi, so‘ng Damashq qal’asidan tushib, o‘z qo‘shinlari bilan Damashq chetidagi Yalbug'o o’rdusi yonidagi qarorgohiga chiqdi va Temurni o‘z qo‘shinlari bilan kutib olishga hozirlik ko'rdi, mamluklar esa nayzalarini kesib tashladi. Ular Temur askarlarini mensimaganliklari uchun birinchi bo‘lib piyoda qo‘shini mag’lubiyatga uchradi. Yuqoridagi kunning peshin vaqti bo‘lganda, Temur qo‘shini Qor tog‘i tomondan mingga yaqin otliq bilan yetib keldi. Sulton qo‘shini ularni bir zarba bilan urib, tarqatib yubordi va eng yomon yo‘l bilan sindirib, katta bir guruhini o‘ldirib, qaytib keldi. Shunda bir guruh askarlar sultonning itoatiga keldilar va ularga Temurning aziz Bekaga kelgani xabar qilindi,

ehtiyot bo‘ling, chunki Temur juda ayyor, shuning uchun odamlar undan ehtiyot bo'lishadi ***[8].*** Amir Temur va sulton Faraj askarlari o‘rtasida bir necha marta kichik janglar olib borildi, lekin katta jangga kirishmadi. Shunday janglardan birida sultonning yordamchisi mag’lub bo‘lganidan so‘ng sulton Asqar ibn al-Xattobni Temur huzuriga tinchlik istab elchi qilib yuboradi. Shu kunlarda Misrda boshlangan fitna otashining xabari sulton Faraj qulog‘iga yetgach, qo‘ylarni cho’ponsiz tashlagandek, askarlarini Damashqda qoldirib, o‘zi Misrga yo‘l oladi.

Amir Temurning Damashq (Shom) ga yurishini Ibn Xaldun deyarli o‘xshash, biroz farqi bilan davom ettiradi: Shaqhob[1]dan tushib Damashqqa bordik. Amir Temur esa Baalbekdan[2] Damashq tomonga qarab yo‘lga chiqqan edi. Sulton Faraj Qubbatu Yalbug‘a[3] gumbazi hovlisida chodirlarni tikib, qarorgoh qildi. Amir Temur mamlakatga hujum qilishga jur’at etmay, Yalbug'a gumbaziga qo'riqchi marqab[4] qo‘ydi va bizni kuzatib turdi va biz uni ko‘proq kuzatib turdik. Bir oy davomida bir-birlarimizni kuzatishda davom etdik. Shu davr mobaynida ikki tomon bir-biri bilan kichik hujumlar uyushtirib turdilar. Keyin sultonga uning katta shahzodalari, fitnaga botgan ba’zi amirlar isyon ko‘tarishga urinayotganligi haqida xabar keldi ***[13]***. Bundan qo‘rqib Sulton Farajning Misrga qaytishga qaror qildi. Juma’ kuniga o‘tar kechasi ular Solihiya[5] to’g’idan o‘tib, yo‘lga tushdilar va dengiz bo’ylab G‘azo‘tomon yurdilar. va askarlar sulton Misrga boradigan eng katta yo‘ldan yurganiga ishonib, tunda ot minib, yo‘lga chiqdilar. Va askarlar guruh-guruh, to‘p-to‘p bo‘lib Shaqhob tomon yurdilar va Misrga qarab ketdilar, Damashq ahli sarosimaga tushdi ***[15]***. Ibn Xaldun o‘zi qal’a devoridan oshib Amir Temur oldiga tinchlik sulhi istab boradi va bunga erishadi. Chunki Sohibqiron bunday ilm ahllariga doimo mehribon va rahmdil ekanligini bir necha bor ko‘rsatgan.

[1] Shaqhob – G‘azo va Damashq o‘rtasidagi joy.
[2] Baalbek – hozirgi kunda Livan hududidagi qadimiy va tarixiy shahar. Amir Temur u yerdan 1400-yil 30-dekabr kuni Damashq tomon yo‘lga chiqqan. Muallif shunga ishora qilmoqda
[3] Qubbatu Yalbug‘o – Damashq janubida, shahar devorlaridan taxminan ikki mil masofada joylashgan manzil. mil
[4] Marqab – kuzatish punkti
[5] Solihiya – Damashqning shimoli-g‘arbiy tomonidagi tog‘. Amir Temur u yerdan Damashq tomon yo‘lga chiqqan edi.

Amir Temurning Damashq masalasida Misr sultoni Nosir Faraj bilan olib borgan elchilik masalasini Xondamir quyidagicha keltiradi: Amir Temur Bo'ron Podshoni Malik Faraj oldiga elchilikka yuborib, xabar berdiki, «Bizning oliy himmatimiz maqsad va masalalariga erishishda eng yaqin kishilar va begona kishilar vujudiga juda ham aniq-ravshandir, sultonlarning asl niyati esa qo'shin tortishdan va zaruriy havf-xatarlarni bajarishdan ra'iyat nomusi va nomini himoya qilishdir, bo'lmasa yarimta non bir kunga yetadi. Bir necha marta chopar yuborib Atalmishni talab qildik, ammo uning hech foydasini ko'rmadik. Endi esa hamiyat qo'li bilan majburan tahdidkor qiyomatasar sipohning jilovini bu tomonga burdik, chunki ish murosayu madoradan o'tdi. Endi sizning ahvolingizda munosibi shuki, Atalmishni yuboring, nizo va janjal bisoti keng yoyilmasligi uchun xutba va tangalarni humoyun ismi va laqabi bilan bezang hamda kelishish va yarashish qoidalariga zamin hozirlasangiz bu ish amalga oshadi. Aks holda Damashq aholisining qoni va nomi huddi Shom mamlakatiga o'xshab, behuda talon-toroj bo'lib ketadi. Ilohiy qudrat bilan fath, va zafar eshiklari humoyunasar yuziga ochiladi». Bo'ron podsho Damashqqa kirib kelgach, Malik Faraj o'z o'tmishiga hilof ravishda uni izzat-ikrom va hurmat-ehtirom qilib, aslzoda va a'yonlar jamoasi bilan saodatli oshiyoniga yubordi. «Biz avvalgi qilmishimizdan afsusdamiz va pushaymondamiz. Besh kun ichida Atalmishni iltifot bilan jo'natamiz. Umid shuki, bizning xatomiz sahifalari afv va muruvvat xati bilan uchirilsa, men bundan keyin xizmatkorlik va ixlos yo'lida o'zimni ko'rsatsam», deb xabar jo'natdi ***[16]***.

Misr hokimi Ulug'beklari bila misli Navro'z Hofiziy va Yashbek va Shadun Toz va Shayhiy Hosakiy va bir jamoat muqarrib va hossalari bila kengashtikim, mundoq qattiq voqeada, nima ishlamoq kerak? Ba'zi dedilar, agarchi bizga ko'z tegib elimiz qirildi. Ammo shaharda el ko'b turur. Va qal'amiz berk turur. Ne g'am yegaybiz?» Va ba'zilar dedilarkim, «Biz andoq mahaldakim, alar ko'chub borur erdilar, muncha cherik va yarog'imiz bila hech ish qila olmaduk. Emdi hud alar bila ne ish qilg'aybiz? Maslahat bu tururkim, shahardin chiqib, Misrg'a ketib borgaybiz. Va shaharda el qalin turur, o'z jonlari uchun urush qilib shaharni

saqlarlar. Bari bizlar bu balodin qutulg'aybiz». Barchag'a bu so'z ma'qul tushub, Misr podshohi Faraj peshkashlar bila sohibqirong'a kishi yibardi. So'zi bukim, «Ul beadablig' kim tunu kun voqi' bo'ldi, shahardin bir jamoat avboshidin va g'avg'oyi ommdin voqi' bo'ldi.

Biz o'shul arz qilg'on ahd bilandurbiz. Agar cherik bukun urushni muvaffaq qilib, salomatlig' bilan yurtlarig'a tushsalar, tonglasi har nekim farmon bo'lsa o'shandoq qilurbiz». Elchi sohibqiron qoshig'a kelib so'zlarini arzadosht qildi. O'shul zamon farmon bo'ldikim, «Cherik yonib kelsun!» Mansur cheriki yonib, yurt va manzillarig'a kelib tushtilar. Misr shohi bo'lg'on beklari bila yarim kechada, juma kechasida shahardin chiqib qochtilar ***[17]***.

Arab muarrixlari va saroy tarixchilarining yozib qoldirgan voqealaridan shu narsa ayon bo'lyaptiki, Amir Temur va sulton Faraj o'rtasida Damashq uchun kichik janglar bo'lgan. Goh u tomon, goh bu tomonning qo'li baland kelib turgan. Ikki tomon bir-birini yengish uchun hatto josuslar ham yollashgan. Lekin sulton Faraj bu shahar uchun jonini xatarga qo'yib, jiddu-jahd bilan uni himoya qilishga oshiqmagan. Sababi Misr bu paytda notinch ahvolda edi. Podshohning yo'qligidan ba'zi fitnachilar foydalanib qolmoqchi bo'lganlarini eshitib, sulton Faraj Damashq shahrini tashlab o'z poytaxtini o'ylab Misrga ketishni ma'qul ko'radi. Amir Temur Damashq uchun Misr bilan kerak bo'lsa, urushishga ham tayyor edi. Lekin u Misr sultoniga elchi yuborib, bir sodiq xizmatkorini asirdan ozod qilib, uning yoniga yuborishlari va bundan so'ng shaharni tinch qo'yishini bildirgan. Lekin sulton Faraj bu masalada sustkashlikka yo'l qo'ygan. Va har safar va'da berib, buni ortga suravergan. Arab muarrixlari Sulton Farajni Misr taxti uchun Amir Temur bilan urushmay ortiga qaytgan deb talqin qilsalar, saroy tarixchilari Sulton Faraj Amir Temurdan mag'lubiyatga uchrab, keyin katta jangga kirib, sharmanda bo'lishni o'ylab Misrga bir kechada qochib ketganligini yozadilar.

Damashq shahrini vayron qilishga Amir Temurni nima majbur qilgan? Ochko'zlikmi yoki taqvodorlikmi? O'rta asr jangchilarining asosiy daromadi bosib olingan shaharni talash va aholisini asirga olish edi. Amir Temur askarlari ham

o‘rta asrchilik an’analaridan xoli emasdi. Lekin Amir Temurning o‘zi Damashqday musulmonlar xalifasining poytaxti bo‘lgan ulkan shaharni shunchaki askarlari hukmiga qo‘yib bermagandi. Amir Temur Damashq shahrini oxirgi paytlarda xristianlar uchun maishatbozlik va ichkilik ichish uchun bir hududga aylantirilganligi, unda islom diniga bo‘lgan hurmatni kamayib borayotganligi taqvodor musulmon sifatida qayg’ulantirar edi va shu sababli Temur ham boshqa taqvodor musulmonlar kabi haromlik o'chog’i bo‘lgan Damashqni talash kerak degan xulosaga kelgan.

Ibn Tag’riberdi o‘zining “An-nujum az-Zohira fi muluki Misr va-l-Qohira” (“Misr va Qohira saltanati haqida porloq yulduzlar”) asarida Amir Temurning Hindistonga qilgan yurishlari haqida quyidagicha to‘xtalib o‘tgan: Feruzshoh[6]ning vafotidan xabar topdi. Hindiston podshosi o‘g‘ilsiz va davlatdagi odamlarning ishi ixtilofga dalil bo‘lib, Mallu degan vazirning uning o‘rniga podshohning taxtiga o‘tirgani va turli nomaqbul ishlarni qilayotganligi haqidagi xabar yetib keldi. 262-bet.

Fayruzshohning ukasi Multan[7] shahri hukmdori bo‘lgan Sarnkxon Malluning boshqaruviga bo’ysunmay o‘zi mustaqil siyosat yuritayotgan edi. Temur bu xabarni eshitgach, fursatdan foydalanib, Samarqanddan yo‘lga chiqdi. Zulhijja 800-yilda Multanga kelib, uning shohi Sarankxonni 6 oy qamal qildi va Sarankxon qo‘shinida 800 ta fil bo‘lgan. Keyin Temur podshohning poytaxti bo‘lgan Dehli shahriga yo‘l oldi va qo‘lida askarlari yuqorida zikr etilgan Mallu[8] u bilan jang qilish uchun chiqdi va u har bir filning ustida bir necha jangchi bo‘lgan minora bor va bu fillar o‘q o‘tmas kiyimlar bilan kiyintirilgan va qo‘ng'iroqlar osilgan, ular shunchalik dahshatli edi. Uning ovozi chig‘atoy otlarini cho‘chitib yubordi va ular bir qancha nozik qilichlarni tanasiga tortdi va hind qo‘shinlari ularni qaytarish uchun fillarning orqasidan yurdi. Temur fillarni urush maydonidan

[6] Sulton Feruzshoh (Feruzshoh III) – Dehlida 1351-1388-yillarda hukmronlik qilgan hukmdor.
[7] Mo’lton – Pokistondagi yirik shahar.
[8] Malluxon – Dehlida Sulton Mahmudshoh hukmronligi davrida vazir bo’lib, hukumatni deyarli o’zi boshqargan. Sulton Mahmud (Sulton Nasiruddun Mahmudshoh II) – 1393-1413-yillarda hukmronlik qilgan Tug’luqiylar (1320-1414) sulolasiga mansub hukmdor.

chiqarish uchun uchli minglab temir tikanlar yasadi va ularni sochib tashladi. Shuningdek, yog‘ga botirilgan qamishlarni besh yuz tuya yuklatdi va hind lashkari paydo bo‘lgach, ularni yoqib qo‘yib yubordi. Shunday qilib, o‘sha tuyalar olovning kuchli isishi tufayli yugurib ketishdi, keyin ularning haydovchilari ularni orqa tomondan sanchdilar. Lekin fillar ortlariga o’girilib hind askarlarini yanchib tashladilar. Temur esa lashkariga pistirma tashladi ***[21]***.

Huddi shu voqea haqida Klavixo ham o‘z asarida ma’lumot beradi: Hindistonning bosh shahri Dehlida Temurbek bilan hid podshohi o‘rtasida jang bo‘ldi. Hind tarafdan ko‘p qo‘shin va ellikka yaqin jangovar fillar ishtirok etdi. Fillar ishtirok etganliklari sababli Temurbek birinchi jangda yengiladi. Ertasi kuni yana jang boshlandi. Temurbek ko‘p tuyalarni oldirib keltirib, “ustiga hashak ortib, fillarga qarshi qo‘yulsin”, - deb buyurdi. Jang boshlanganda tuyalar ustidagi hashaklar yoqib yuborildi. Yonayotgan tuyalarni ko‘rgan fillar tumtaraqay bo‘lib qochdi. Shunday qilib Hindiston podshosi mag’lubiyatga uchraydi ***[22]***.

Keyin tong otishi bilan lashkarlari bilan asta-sekin yurib bordi. Shunday qilib, odamlar jang qilish uchun ularga tashlandilar. Temur otini orqaga burib, odamlarni o‘zini ulardan mag'lub bo‘lgan deb o'ylashi uchun chekindi. Temur o‘zi bilan bo‘lganlarni yo‘q qildi, shuning uchun hindlar orqaga chekinib, o‘qlardan o‘q uzildi.

Ibn Arabshoh Amir sohibqironning Hindiston yurishidan tez qaytishining asosiy sabablaridan biri sifatida go'yo u Mironshohdan olgan xat bo‘lgan deb ko'rsatishga urinadi va Mironshoh nomidan, lekin o‘z iboralari bilan shaxsan o‘zi to‘qigan hamda amirzodaga butunlay bo'hton bo‘lgan bir maktubni keltiradi. Ajablanarlisi shuki, sohibqiron devonidagi hujjatlardan foydalangan biror muallif bu maktubni nafaqat keltirmaydi, balki eslamaydi ham ***[23].***

Ibn Tag’riberdi esa Misr hukmdori zohir podshoh Barquq va Sivas davlatidan bo‘lgan qozi Burhoniddin Ahmadning vafoti haqida Temurga xabar keldi, shundan so‘ng Temur tezlik bilan Hind yurishini tamomlab, shahzodalardan biriga topshirib sakkiz yuz ikkinchi yilning boshida (1399-yil) buzoq yilida undan

chiqib, Xurosonga tushdi **[**24**]**. Demak ikki arab tarixchisi Amir Temurning Hindistondan tezda qaytganligini turlicha talqin etmoqdalar. Ibn Tag'riberdi bu masalada haqiqatga yaqin bo'lgan. Chunki Amir Temur dushmanlarining vafotlarini eshitgan zahoti bu vaziyatdan foydalanib qolishni istagan bo'lsa kerak. Shuning uchun Hind diyoridan tezda qaytgan bo'lsa kerak. Lekin shu narsani ham aytib o'tishimiz kerakki, Sohibqiron Hind o'lkasida qiladigan ishlarini, egallab oladigan joylarini hammasini bajarib bo'lgan va qaytish payida turgan edi.

Endi Amir Temur va Boyazid o'rtasidagi voqealar haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Boyazid Yildirimning sustkashligi chuqurroq ko'rsatilgan va sohibqiron uning mulkn bo'lmish Malatiya va Sivosni musahhar qilib talaganida u avval shijoat ko'rsatib harhasha qilgan bo'lsa ham endi hech bir e'tiroz bildirmadi va urushga mayli borligini ko'rsatmadi. Shuning uchun sohibqiron Rum sarhadidan Shom va Misr tarafiga yuzlandi deyilgan.

Arab muarrixlari o'z asarlarida Amir Temurni bosqinchi, qonxo'r, buzg'unchi sifatida tasvirlashgan. Bag'dod, Shom va boshqa shaharlar, ularning qal'alarini egalashda insonlarga nisbatan o'ta shafqatsiz bosqinchi sifatida gavdalantirilgan. Lekin biz buni Misr davlatining siyosiy qarashlari ta'sirida yozilgan deb hisoblasak haqiqatga yaqin bo'lar edi. Muallif biryoqlama siyosatdan holi ham Amir Temur shaxsiyati haqida ko'plab ijobiy fikrlarni ham keltirib o'tgan. Bu haqida keyingi maqolalarimizda bayon qilamiz.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Ibn Tag'riberdi. "An-nujum az-Zohira fi mulki Misr va-l-Qohira" ("Misr va Qohira saltanati haqida porloq yulduzlar") النجوم الزاهرة فى ملوك مصر و القاهرة)

2. Ibn Tag'riberdi. "al-Manxal as-safi al-mustaufiba'd al-vafi" (المنحل الصافى المستوفى بعد الوافى) ("al-Vofiy" dan keyingi to'liq va musaffo chashma")

3. Ibn Arabshoh "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). U. Uvatov tarjimasi. "Меҳнат" – Ташкент – 1992. 192 б

4. Sharafuddin Ali Yazdiy va Muhammad Ali «Zafarnoma», Tanqidiy matn, 178 (b sahifa)

5. Natanziy,Muiniddin “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”. fors tilidan tarj., so‘z boshi va izohlar muallifi G‘. Karimiy; mas'ul muharrir A.O‘rinboyev. - T.: 0‘zbekiston, 2011.-264 6.

6. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”, - Toshkent - SHarq - 2002.

7. “Temur tuzuklari” forschadan Alixonto‘ra Sog‘uniy va Habibulla Karomatov tarjimasi, - T., 2003

8. U. Uvatov “Sohibqiron arab muarrixlari nigohida”; T:, 1997.

9. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida: B. Ahmedov, U. Uvatov, G‘. Karimov va boshq. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 312 b.

10. Абдуносирова О. Шоҳрух мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Б. Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари. Халқаро илмий-назарий конференция материаллари. Фарғона, 2022. – 172-179

11. Abdunosirova O.B. ON THE SPONSORSHIP ACTIVITIES OF THE TEMURIAN PRINCE. Asian Journal of Multidimensional Research 1(11), 2022.

12. Feruzakhon, K. (2022). Formation of Trade Relations in the Fergana Valley (1920-1925). Procedia of Social Sciences and Humanities, 4, 30-32.

13. Каюмова, Ф., & Тешабоева, Г. (2022). По источниковедению и историографии Кокандского ханства. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 277-286.

HUSAYN MIRJAFARIYNING “ERONNING TEMURIYLAR VA TURKMAN DAVRIDAGI SIYOSIY, IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY O‘ZGARISHLAR TARIXI” KITOBIDA AMIR TEMURNING HINDISTONGA YURISHI SABABINING YORITILISHI

Doniyor Anvarov

O‘zFA Tarix instituti
Tarixshunoslik va manbashunoslik markazi
tayanch doktoranti
danvarov1995@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda Amir Temurning Hindiston hududiga yurishining sababi haqida ma’lumot beriladi. Bu kitobdagi yurishning sababi Amir Temur haqida yozilgan manbalar asosida tahlil etildi va xulosalar bilan boyitildi.*

Kalit so‘z va iboralar: *Husayn Mirjafariy, Amir Temur, Hindiston, Sharafuddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, Ibn Arabshoh, Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur,*

Muiniddin Natanziy, Muntaxab ut-tavorixi Muiniy, Amir Temurning harbiy mahorati, G'iyosiddin Ali, Feruzshoh

Аннотации: *Этот тезис дает информацию о причинах визита Амира Тимура в Индию. Причина марша в этой книге анализируется на основе источников, написанных об Амире Тимуре и обогащенных выводами.*

Ключевые слова и фразы: *Хусейн Мирджафари, Амир Тимур, Индия, Шарафуддин Али Язди, Низамиддин Шами, Зафарнама, Ибн Арабшах, Ажаиб ал-макдур фи тарихи Таймура, Муниддина Натанзи, Мунтахаб ут-таворихи Муини, военное мастерство Амира Темура, Ферузшох*.

Annotation: *This thesis provides information about the reasons for Amir Temur's visit to India. The reason for the march in this book is analyzed on the basis of sources written about Amir Temur and enriched with conclusions.*

Key words and phrases: *Hussein Mirjafari, Amir Timur, India, Sharafuddin Ali Yazdi, Nizamiddin Shami, Zafarname, Ibn Arabshah, Ajaib al-maqdur fi tarikhi Taymur, Muiniddin Natanzi, Muntahab ut-tavarikhi Muini, Amir Timur's military skills, Giyasiddin Ali, Feruzshoh.*

Amir Temurning harbiy yurishlari va tashqi siyosati haqida fikr yuritishda avvalo, bu shaxsning XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr siyosiy maydoniga ilk qadamlarini qo`yganligini inobatga olish kerak. Amir Temurning harbiy sohadagi dastlabki faoliyatidagi muhim jarayon bu Movarounnahr o‘lkasida bir yarim asr hukmronlik qilgan mo‘g‘ullar hukmronligiga barham berganligi bilan belgilanadi. Shundan so‘ng o‘z davri uchun markazlashgan, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va harbiy jihatdan mustaqil davlat tuzishga kirishdi. Bu maqsadni amalga oshirish davomida u Xorazm, Dashti Qipchoq, Mo‘g‘uliston, Eron, Iroq, Shom (Suriya), Hindiston, Kavkaz, Kichik Osiyo kabi mamlakatlarga harbiy yurishlar qilgan. Shu tariqa sharq va g‘arb tillarida Amir Temur haqida bir qator ilmiy asarlar va badiiy kitoblar yozildi. Ushbu shaxs haqida yozilgan ilmiy asarlar o‘z o‘rnida eronlik olimlar tomonidan ham tadqiqiq qilingan. Biz ushbu ishimizda shu haqda so‘z yuritamiz.

Mavzuga o‘tishdan oldin kitob haqida biroz to‘xtalib o‘tish o‘rinlidir. Kitob Gumanitar kitoblarini o‘rganish va to‘plash tashkiloti, Gumanitar tadqiqotlar va rivojlantirish markazi bilan Isfahon universiteti hamkorligida nashr etilgan. Bundan maqsad darsliklarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va o‘quv dasturining sifatini yaxshilash, universitetlar bilan ilmiy tadqiqot muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish maqsad qilingan.

Yozilishi jihatdan kitobga sulolaviy jihatdan qaralganda ikki qismga bo‘linadi: Temuriylar hamda Oqquyunli va Qoraquyunli turkmanlar. Bunda Eron tarixining siyosiy voqealariga ko‘proq urg‘u berilganligi kitob mundarijasining tuzilishidan bilinib turiladi.

Biz ko‘rib chiqgan ushbu ilmiy tadqiqotda Husayn Mirjafariy tomonidan yozilgan “Eronning Temuriylar va turkman davridagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar tarixi” kitobida Amir Temurning Hindiston hududiga olib borgan yurishlari va buning sabablari hamda natijalari haqida tahlil olib boramiz.

Mavzuga e’tibor bersak, muallif ushbu kitobda Amir Temurning Hindistonga bostirib kirishiga asosiy sabab sifatida “Amir Temur har doim dunyoning eng boy davlatlaridan biri hisoblanmish Hindistonga bostirib kirib, boyligini talon-taroj qilmoqchi bo‘lgan…” deb aytib o`tgan. Bu jarayonning sabablari o‘sha davr tarixchilari hisoblanmish Sharafuddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh va Muiniddin Natanziylarning kitoblarida batafsil ma’lumot keltirilgan. Bularni bir chetdan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” (Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur) kitobida Hindistonga yurishning sababini “Keyin Temurga Hind Sultoni Feruzshohning (bu) dunyo zahmatidan xudo rahmatiga o‘tgani xabari (borib) yetdi. Uning (o‘rniga) xalifa bo‘ladigan o‘g‘li yo‘q edi. Uning vafoti hukmi (munosabati) natijasida bo‘sh qolgan ushbu vazifani egallash uchun Temur say ko‘rsatdi” deb ko‘satadi ***[1]***. Bu ma’lumotni bir tomondan to‘g‘ri. Chunki, Amir Temur Feruzshohning taxtini boshqaruvchi munosib nomzod yo‘ligini sabab qilgan bo‘lishi mumkin.

O‘z o‘rnida yuqoridagi Ibn Arabshohning yozganini Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sidagi ma`lumot orqali raddiya berish mumkin. Bu haqida “va Mo‘ltonning hokimi Sarangkim, Malluning ulug‘ ag‘osi erdi va Sulton Feruzshoh o‘lgondin so‘ng bu ikki ag‘o-ini mamolikni olib erdilar va Sulton Mahmudkim, Feruzshohning nabirasi erdi, ani podshoh ko‘tarib, Hinduston

hukumatini bu ikki ag‘o-ini qilur erdilar. Va Mallu Sulton Mahmud bila Dehlida erdi…” ***[2].***

Yuqoridagi ikki ma’lumotni bir-biriga solishtirib, fikr yuritadigan bo‘lsak Amir Temurning Hindistonga yurishiga taxt vorisligi masalasi sabab bo‘lmagan bo‘lib chiqadi. Bunday paytda yana qanday omillar bu yurishga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin degan o‘rinli savol kelishi tabiiy hol hisoblanadi.

Bu savolga Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” kitobidan ham javob topishga harakat qildik. Ushbu muallif o‘z asarida Amir Temurning Hind o‘lkasiga yurishining sababini biroz boshqacharoq tavsif etgan. “Shundan so‘ng Hind o‘lkasini fath etishga otlandi. Ushbu asnoda shu narsani ma’lum qilishdiki, “siyohpo‘shlar” (“qora kiyinganlar”) deb ataladigan majuslardan bir guruhi Panjob hududiga o‘rnashib olib, bu nohiyaning aholisiga jabr-zulm qilmoqda ekan. Sulton sohibqiron ularni daf etmoqni zarur ishlarning eng ahamiyatlisi hisoblab, amirzoda Rustam va Burhon o‘g‘lonni bir guruh amirlar bilan ularga qarshi yubordi. Ular ehtiyotkorlik shartlariga rioya qilishmagani uchun zarbaga duchor bo‘lishdi va mag‘lubiyatga uchrab qaytib kelishdi. Shundan so‘ng sulton sohibqiron o‘z muborak zoti bilan otlandi” ***[3]***.

Muiniddin Natanziyning yuqoridagi ma’lumotini Temuriylar davrining tarixchilaridan biri yana bir “Zafarnoma” asarining muallifi Nizomiddin Shomiy ham bir muncha batafsilroq to‘ldirib o‘tgan. Uning asarida Amir Temurning Hindistonga yurish rejasi oldindan rejalashtirilmaganini ko`rishimiz mumkin. Boisi, Sohibqiron butparastlarga butunlay zarba berish maqsadida Xitoy va Xo‘tan tomon lashkar tortmoqchi bo‘lgan. Lekin, bu yurishlarning kechiktirlishi va Hindistonga qo‘shin tortilishini muallif o‘z asarida quyidagicha eslatib o‘tadi.

“Ammo bundan ilgari sharafli quloqlarga yetkazgan edilarki: “Hindistonning Dehli, Kanboyit va bulardan boshqa ba’zi shaharlarida garchi Muhammad, <unga Xudoning rahmati bo‘lsin>, dinining tug‘lari ko‘tarilgan va u diyorning dirham va dinorlariga tavhid kalimasi zarb qilingan bo‘lsa ham, ammo, u mamlakatlarning aksar atroflari kofirlar vujudi habosati bilan bulg‘angandir va u yerlarning barchasi

butparastlar ommasi zalolatidan zaharlangandir. U tomonlarning (musulmon) podshohlari ulardan boj, xiroj olish bilangina qanoatlanadilar-da, ularni kufru zalolatda boqiy qoldirib, na u zalolatni daf qilishga himmatlari yuzini qaratadilar va na irodalarini ularning zararini qaytarishga sarf etadilar” ***[4]***.

Xaloyiq ishlari tizginini qudratli qo‘llarda ushlab turgan bir toifa (podshohlar) din muxoliflariga o‘z yonlaridan joy berib kelayotganliklari, u toifaning din uchun jonbozliklari saltanat shukuhi bilan qo`shilib, nega ularni harakatga keltirmayotganligi Sohibqiron hazratlariga hamisha yot tuyilib kelar edi. Shu paytda bu mulohazalarni xalifalik panohi (Sohibqiron) huzurida yangidan o‘rtaga soldilar. Sohibqiron hazratlarining oliy ra’yi baland himmat irodasini harakatga keltirib, u mamlakatlar yuzini gunohkor kofirlarning iflos vujudidan pok qilishga hamda (oyatda kelgan) <o‘z orzu-istaklarini o‘zlariga iloh deb qabul qilgan> (so‘zlari) ularning sifatini belgilovchi kofirlarning fitnasi gardini o‘t sochuvchi shamshir tig‘i bilan so‘ndirishga iltifot ko‘rgazdi. Shunga binoan ularga qarshi g‘azotga yuishni niyat qilib, …bir lashkar bilan u mamlakatga yuzlandi” ***[5]***.

Muiniddin Natanziy va Nizomiddin Shomiylarning ma’lumotlari deyarli bir-birini to‘ldirganligiga guvoh bo‘ldik. Bu ikki mualliflarning keltirib o‘tganlari ham o‘z o‘rnida asos bo‘la oladi. Bularga qo‘shimcha qilib, H.Dadaboyev “Amir Temurning harbiy mahorati” kitobidagi quyidagi sababni ham keltirsak bo‘ladi. “Majusiy qaroqchilarning yovuz niyatlariga chek qo‘yish, mo‘minlarni ular o‘tkazayotgan zulmdan ozod qilish, savdogar va sayyohlarning xavf-xatarsiz kelib-ketishini ta’minlash kabi maqsadlarda Temurbek Xitoy va Xo‘tanga qilinishi lozim bo‘lgan yutish o‘rniga Hindiston tomon qo‘shin tortadi” ***[6]***.

Husayn Mirjafariy kitobida bu yurishni oqlashning odatiy usuli, unga diniy urf-odatlarga ko‘ra nom berish bo‘lgan degan fikrni yozib o‘tgan. Bu muallifning o‘z qarashi bo‘lishi mumkin. Shu o‘ringa bunga javob tariqasida Amir Temurning harbiy yurishlariga sabablar faqat diniy masala bo‘lmagan deb aytish mumkin. Chunki, Sohibqiron o‘zga hududlarga bir qator sabablar yuzasidan qo‘shin tortgan. Bular:

din homiysi sifatida;

o‘sha hududlardagi mahalliy hukmdorlarning harbiy sohada yordam so‘rashiga binoan;

o‘sha hududlarda yashayotgan aholiga mahalliy hukmdorlar yoki hokimlar tomonidan jabr-zulmning ko‘payib ketishi natijasida;

asosiy savdo yo‘llarini Movarounnahr tomon yo‘naltirish maqsadida.

Yuqoridagilarga umumiy xulosa qilib shuni aytish mumkinki, keltirib o‘tilgan mualliflarning ma’lumotlari har jabhada o‘rinli va asosli bo‘lishi mumkin. Sababi, yuqorida tilga olingan barcha mualliflar Amir Temurning Hindistonga yurishi haqida dastlabki asarni yozgan G‘iyosiddin Alining “Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston” kitobidan foydanlangan bo‘lishi mumkin. Amir Temurning bu yurishi haqida ma’lumotlar yozgan tarixchilar o‘sha davrdagi saroy hujjatlari, elchilik maktublari va esdaliklar kabi tarixiy manbalardan ham foydalangan bo‘lishini inkor eta olmaymiz. Bundan tashqari ushbu yurish natijasida Hindiston hududida mahalliy hokimlar tomonidan olib borilayotgan urushlarga barham berilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Amir Temur nomiga xutba o`qitilib, uning odamlari Hindistonning turli o`lkalariga boshqaruvchi sifatida yuboriladi. Shu tariqa bu hududda ham Sohibqironning hokimiyati o`rnatilib, uning davlati tarkibiga kiritiladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. http://www.samt.ac.ir

2. ح.میر جعفری. تاریخ تخولات سیاسی، اجتماعی، اقتصادی و فرهنگی ایران در دوره تیموریان و ترکمنان.(ویراست 2) تهران 2009.

3. O‘sha joyda. 38-bet.

4. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. So‘z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni Ubaydulla Uvatov tayyorlagan. 1-kitob. T.: Mehnat, 1992. 171-bet.

5. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. T.: Sharq, 1997. 191-bet.

6. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy. T.: O‘zbekiston, 2011. 161-162 betlar.

7. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.: Fan, 2019. 219-202-betlar.

8. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. T.: Yozuvchi, 1996. 59-bet.

9. ح.میر جعفری. تاریخ تخولات سیاسی، اجتماعی، اقتصادی و فرهنگی ایران در دوره تیموریان و ترکمنان.(ویراست 2) تهران 2009. س 38.

10. Amir Temur jahon tarixida. T.: Sharq, 1996.

11. Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. Rui Gonsales de Klavixo. Buyuk Amir Temur tarixi. T.: G’afur G’ulom, 2007.

12. Amir Temur va uning tarixida tutgan o‘rni. T.: Fan, 1996.

13. Ziyoyev H. Buyuk Amir Temur saltanati va uning taqdiri. T.: Ma’naviyat, 2008.

14. Ahmedov B. Amir Temur. T.: Meros, 1995.

15. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

16. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – S. 886-891.

АМИР ТЕМУРНИНГ АРМАНИСТОНГА ЮРИШЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДА ЁРИТИЛИШИ

Турдалиев Муҳаммад Бахтиёр ўғли

ФарДУ магистранти

Аннотация: *Ушбу мақолада Амир Темурнинг Арманистонга юришларининг тарихий манбаларда ёритилиши, минтақанинг эгалланиши ҳамда муаррихлар томонидан билдирилган фикр-мулоҳазалар таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар ва иборалар: *манба, Арманистон, Тифлис, Евфрот дарёси, “Зафарнома”, Арзинжон шаҳри, Клавихо.*

Аннотация: *В данной статье анализируется освещение походов Амира Темура в Армению в исторических источниках, оккупация региона, а также мнения, высказанные историками.*

Ключевые слова и фразы: *исток, Армения, Тифлис, река Евфрат, "Зафарнома", город Арзинджон, Клавихо*

Annotation: *This article analyzes the coverage of Amir Temur's marches to Armenia in historical sources, the occupation of the region, and the opinions expressed by historians.*

Key words and phrases: *source, Armenia, Tiflis, Euphrates river, "Zafarnoma", Arzinjon city, Clavijo*

Маҳаллий ва хорижий тадқиқотчилар томонидан Амир Темур ва темурийлар даври тарихшунослиги, манбашунослигига доир кўплаб илмий изланишлар амалга оширилмоқда. Бироқ, Амир Темурнинг Арманистонга қилган юришлари кенг қамровли ва изчил тадқиқ этилмаган. Шу боисдан ҳам бу масаланинг тарихий манбаларда ёритилиши ва муаллифларнинг билдирган фикр-мулоҳазаларини ўрганиб, таҳлил қилишга ҳаракат қиллдик.

Амир Темурнинг Арманистон юришлари Соҳибқирон тарихига оид бўлган тарихий манбаларда кенг ёритилмаган. Бунинг асосий сабаби ўша вақтда Арманистон давлати мавжуд бўлмаган ва арман халқи туркий қабилаларнинг бир неча бекликларига бўйсунган ҳолда тарқоқ яшаган. Шунинг учун ҳам арманлар ҳудудларини забт этиш юришлари қора қуюнли туркманлар қўли остидаги ерларни эгаллашга қаратилган ҳарбий юришлар билан бир вақтда кечган. Арманлар эса уларга қарам бўлган ҳолда, ўз эътиқодларига сиғинишда давом этган. Арман жамоалари мусулмон мамлакатлари таркибида яшайверган.

Амир Темур тарихига бағишланган илк тарихий асар Ғиёсиддин Алининг “Рўзномаи ғазовоти Ҳиндистон” бўлиб, ушбу асарда Амир Темурнинг 1399 йилдаги Ҳиндистон юриши батафсил ёритилган. Лекин унда Амир Темурнинг Арманистон юриши ҳақида маълумотлар учрамайди.

Амир Темур тарихини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга манбалардан бири Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома” асари ҳисобланади. Низомиддин Шомий асарида ҳам Амир Темурнинг Арманистон юришлари ҳақида бир қатор қизиқарли манбалар бор: “Амир Соҳибқирон у ердан кўчиб, Оқ Буғро

мавзеига кўтарилди. Бу пайт қор ва ёмғир мавсуми бўлиб, ғоятда совуқ эди. Амир Соҳибқирон Киту йўли билан Тифлис мавзеига етди. Бу шаҳар гуржилар мамлакати таркибига киритилган эди. Замонанинг фитнаю фасоди ва ул мамлакат подшоларининг ғайратсизлиги туфайли уларнинг қўлига тушиб қолган эди ***[1:135-137].***

Муиниддин Натанзийнинг “Мунтахаб ут-таворихи Муиний” асари ҳам тадқиқотимизнинг энг қимматли манбаларидан биридир. Муиниддин Натанзийнинг ҳаёти ҳамда ушбу манбанинг Амир Темур даври тарихини ўрганишдаги ўрни ва аҳамиятига бағишланган тадқиқотларда таъкидланишича, асар Мирзо Искандар ҳомийлигида ёзилган. Асарда Амир Темурнинг Арманистон юришлапри тўғрисидаги маълумотлар жуда қисқа тарзда берилган: “Ҳазрат Султон соҳибқирон ўша ёзни Табриз вилоятида ўтказди. Кузда Нахчевон йўлидан Карс ва Сурмалу қалъаларига отланиб, уларни фатҳ қилди. Сўнгра Карс калъасига борди. У ернинг қутволи бўлган Ферузбахт, узоқ қаршилик кўрсатгандан кейин, ниҳоят, итоат изҳор қилиш учун ташқарига чиқди. Шундан сўнг Амир соҳибқирон Тифлисни муҳосара қилиб фатҳ этди ва Буқрот гуржини ислом динига киритди ***[2:140].***

Шарафуддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асарида Амир Темурнинг Арманистон юришларига оид энг кенг ва муҳим маълумотлар берилган: “Бу маҳалда арз қилдиларким, туркманлар зулм ва фасод эликларини узатиб, мусулмонларға ташвиш берурлар ва Ҳижоз карвониға мутаарриз бўлурлар ва ҳеч кишини ул йўлдин ўтгали қўймаслар ***[3:113].*** Асарда Арманистон шаҳарларининг жойлашуви, ижтимоий-иқтисодий ва хўжалик ҳаётига доир бир қанча маълумотлар учрайди.

Испан элчиси Клавихонинг кундаликларида ҳам арманлар ҳақидаги маълумотлар кўп учрайди: “Денгиз соҳилида жойлашган Тарабзун шаҳри деворлари қоядан-қояга туташиб, юқорига кўтарилиб кетавериб, тоғнинг энг тепа қисмида деворлар билан мустаҳкам ўралган қаср бўлиб, қасрнинг бир томонидан, қоялар орасидаги чуқурликдан кичик дарё оқиб чиқадики, бу

тарафдан шаҳар яхши иҳоталанган. Шаҳарнинг иккинчи тарафи ясси текислик, девори мустаҳкам. Бундан ташқари, шаҳар атрофи турар-жой бинолари ва боғ-роғлар билан ўралган. Аҳоли яшайдиган жойидан денгиз соҳилигача чиройли бир кўчада савдо-сотиқ ишлари олиб борилади. Денгиз соҳилида девори ва миноралари баланд, бири венецияликларга, иккинчиси генуяликларга қарашли ҳукмдор розилиги билан қурилган иккита қаср ва шаҳар ташқарисида кўплаб черков ва ибодатхоналар ҳам қад ростлаб турибди ***[4:63].***

Клавихо Арзинжон шаҳри ҳам аслида арманлар томонидан қурилганлигини таъкидлайди: “Арзинжон манзараси. Жаннатдан оқиб чиқаётган дарёлардан бири деб таърифланган Евфрот дарёси бўйидаги текисликда қад ростлаб турган Арзинжон шаҳри жуда баланд тоғлар билан ўралган. Тоғ чўққиларини оппоқ қор қоплаб, пастда умуман қор йўқ, тоғ ёнбағғрларида қишлоқлар боғлар ва узумзорлар, текислик ҳам токзор, экинзорлар билан гўзал. Шаҳарнинг ўзи кичик, лекин минорали тош деворлар билан ўралган. Арманлар томонидан қурилган бу шаҳар деворларининг ҳар жойида тошдан хоч ясаб ўрнатилган. Шаҳарда уйларнинг деярли барчасининг олдида айвонлар бўлиб, кишилар бу айвонларда кўчада юргандай бемалол юрадилар. Шаҳарнинг аҳолиси кўп, кўчаларда доимо савдо-сотиқ ишлари қизғин. Кўплаб насроний, арман ва грек миллатига мансуб кишилар яшайдиган ушбу шаҳарда масжидлар бисёр ***[5:71].***

Хондамирнинг “Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар” асари Амир Темур ва темурийлар даври тарихига оид энг йирик ва кўп мурожаат қилинадиган манбалардан биридир. “Ҳабиб ус-сийар”да Амир Темурнинг Арманистон юришлари Грузия юришлари билан қўшиб баён қилинган: “Алқиссаса, жаҳонгир Соҳибқирон ўша ёзни Табризда ўтказди, собит ва сайёр ҳолда Хусравшоҳдек мизон буржида манзилга қўнди ва бу вилоятни забт этишни Муҳаммад Султоншоҳ зиммасига юклади. Ўзи эса Нахичеван

томон равона булди. Маранд ва Дарадан ўтиб, Аракс сувидан Зиё ул-Мулк кўприги орқали ўтди ***[6:113-115].***

14. Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. 1–қисм. – Т.: “BOSPOLIGRAF”, 2004. – Б.79.

15. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. // Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. – Т.: “Юлдузча”, 1989. –Б.154.

16. Навойнинг шахсий кутубхонасидан бизгача етиб келган “Навоий альбоми” номи билан машҳур мазкур тўплам ҳозирги кунда ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фондида (инв. № 2178) сақланмоқда. Яна қаранг: Письма-автографы Абдаррахмана Джами из “Альбома Навои” // Введ., пер., примеч. и указатели А.Урунбаева. – Т.: “Фан”, 1982. – С.104.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Mahmudova Sumbula Abdumalikovna

Farg‘ona davlat universiteti tuzilmasidagi
Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi katta ilmiy xodimi
Sumbulam806@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temur davrida davlat va jamiyat hayotida ma’naviy qadriyatlarni, ilm-fan, me’morchilik, tasviriy san’at, musiqa va she’riyat yuksak cho‘qqiga chiqqanligi, bir so‘z bilan aytganda, temuriylar davri renessansiga asos solingan davrda yoshlar tarbiyasidagi milliy qadriyatlar o‘rni va mohiyati yoritib berilgan.*

Kalit so‘z va iboralar:*komil inson, buyuk, meros, turk, arab, fors, fan, arbob, ma’rifat.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются духовные ценности в жизни государства и общества в период правления Амира Темура, место и суть воспитания молодежи в эпоху, когда наука довела до высот архитектуру, изобразительное искусство, музыку и поэзию, когда, одним словом, начался ренессанс культуры. была основана эпоха Тимуридов.*

Ключевые слова и фразы: *совершенный человек, великий, наследие, тюрк, араб, перс, наука, личность, просвещение.*

Annotation: *This article highlights the spiritual values in the life of the state and society during the reign of Amur Temur, the rise of science, architecture, fine arts, music and poetry, in one word, the importance and essence of national values in youth’s education during the foundation of the renaissance of the Timurid era.*

Key words and phrases: *perfect person, great, heritage, Turkish, Arab, Persian, science, personality, enlightenment.*

O‘zining barkamol va qudratli siymosi bilan bashar eliga tarixiy ibrat bo‘lgan mohir sarkarda Sohibqiron Amir Temur hayoti va bosib o‘tgan yo‘lini o‘rganish bugun har bir o‘g‘il-qizlarimiz uchun sharaf va faxrdir.

Mamlakatni mo‘g‘ul istibdodidan ozod etib, mustaqil markazlashgan davlatga asos solgan, Xitoydan to O‘rta yer dengizi sohillarigacha bo‘lgan ulkan hududni birlashtirib, o‘zaro ichki nizo va urushlarga barham bergan, fan va madaniyatning taraqqiy etishiga homiylik qilgan bu yetuk siymo namunasida yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Buyuk insonlar hayoti talaba-yoshlarda hayotni chuqurroq anglashni va o‘z hayotida saboq olishga o‘rgatadi. Yoshlarga insoniyat taraqqiyoti tamaddunida iz qoldirgan tarixiy shaxslar haqida to‘liq ma’lumot berib borish ahamiyatlidir.

Yoshlarni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash jarayonida buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temurning hayot yo‘lini ibrat namunasi qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Parlamentga yo‘llagan murojaatnomasida “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak“, deb ta’kidlagan edi. Zero, xalqimiz, ayniqsa, millatning kelajagi bo‘lgan yoshlar buyuk ajdodlar tarixini qanchalar ko‘p o‘rgansa, ularning hayoti va faoliyatidan ibrat va saboq olib yashasa, qalbida milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari jo‘sh urib, el-yurtiga bo‘lgan muhabbati yanada ortadi. Bu ezgu ishlarni amalga oshirishda esa, xalqimiz tarixida o‘tgan ko‘plab buyuk siymolar qatorida, Sohibqiron Amir Temur qadriyatini o‘rganish ham muhim ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy ahamiyatga ega.

Tarixiy manba va ma’lumotlarga asosan talaba-yoshlar Amir Temur hayotiga oid hikoyalar, g‘azallar, maqol va matallar, doston va ertaklar, qissa va romanlar orqali tarixiy bilimlarga ega bo‘ladilar. Amir Temur hayoti, qaxramonlik yo‘li, asarlari bilan tanishish, tahlil qilish yoshlarning bilim doirasini kengaytiradi, his-tuyg‘usi va ma’naviy boyligini rivojlantiradi. Shuningdek, Amir Temur hayot yo‘li va uni o‘rganishga doir tarixiy mavzular yoshlarda jasurlik, mardlik, ajdodlar me’rosiga sadoqatlilik hamda sobit idrokni ta’minlaydi. Talaba-yoshlar buyuk bobokalonimizning olovli yo‘llardagi jasorati, vatan ozodligi yo‘lidagi qaxramonligi timsolida tarbiyalanishi vatanga bo‘lgan chuqur mehr-muhabbatni shakllantiradi. Amir Temur ulamoyu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va qiziqgan kishi bo‘lgan. Ayrim manbalarga qaraganda u yoshligidanoq ilm-ma’rifatga chanqoq bo‘lib, o‘z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakkiyot, me’morchilik va tarixga doir bilimlarni chuqur o‘rgangan. Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo‘lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun

Jahongirga ta’rif berar ekan, u turk, arab, fors xalqlari tarixini diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarini juda yaxshi o‘zlashtirganini ta’kidlaydi.

Amir Temur Movarounnahrni mug‘ullar istibdodidan ozod etishga bel bog‘laganida mug‘ullar tomonidan yirik madaniyat markazlari bo‘lgan shaharlar va qishloqlar vayronaga aylangan, kutubxonalar yoqib yuborilgan, masjid va madrasalar buzib tashlangan edi. Amir Temur 1360-yildan 1385-yilga qadar o‘z vatanini mog‘ullar zulmidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzdi, har qanday o‘zaro urushlarga barham berdi. 1386-1405 yillarda esa mayda feodal hukmronliklarni tugatish orqali, muhim halqaro karvon yo‘llarida ustunlik qilib turgan Oltin O‘rda, Eron, Turk Sultonligi kabi yirik mamlakatlarni yengib, Movorounnahrning ham siyosiy-iqtisodiy, ham madaniy-ma’rifiy kuch qudratini ta’minlay oladigan markazlashgan imperiyaga aylantiradi. Buyuk Temur dastlab mog‘ullar vayronaga aylantirgan davlat tizimini mustahkamladi, boshqarishda qat’iy tartib-intizom o‘rnatdi. Savdo-sotiq, hunarmandchilik va shaharsozlikni kengaytirdi, xalqdan asossiz soliqlar to‘plashni tartibga soldi. Mamlakatning mudofaa qudratini ham oshirdi. Shuning uchun milliy tariximizda va dunyo‘tarixchilari tasavvurida Temur O‘rta asrning atoqli davlat va harbiy arbobi sifatida qadrlanadi. Nemis olimi F.Shlosser o‘zining “Jahon tarixi” nomli asarida: “Baxtiyor janchi, jahongir, uzoq Sharqda qonunshunos bo‘lishi bilan birga o‘zida Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategig bilimlarni ifodaladi” deb ta’rif beradi. Yana bir nemis tarixshunosi M.Veber ta’rifiga ko‘ra “Temur o‘z dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk talantga ega edi”, deb ta’riflaydi. Amir Temur davlat va jamiyat hayotida bo‘lib o‘tadigan har bir muhim reja oldidan kengash o‘tkazib, mazkur yig‘inlarga nafaqat davlat arboblari, sarkardalarni, balki ilm-fan arboblarini ham taklif etar edi. Ali Yazdiyning yozishicha: “Bog‘dod shahrini bir yil mobaynida qayta tiklash haqida buyruq berildi, unda hunarmandchilik rivojlansin, tevarak atrofida dehqonchilik qilinsin, savdo-sotiq va madaniy hayot keng tarmoq yoysin, Islom bilimi ilgarigidek yoyilsin”, deb farmon beradi.

Hozirgi kunga qadar Temuriylar davridagi tomosha san’atlari, bayramlari to‘g‘risida ma’lumotlar va umumlashmalar ko‘plab saqlanib qolgan. Shu ma’noda Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye”, Xondamirning “Makorim ul-ahloq”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Xasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” kabi asarlari qimmatlidir. Ayniqsa, musiqa, an’anaviy teatr, raqs va sirk bo‘yicha ma’lumotlar umumlashma fikrlar va mo‘jaz tadqiqotlar Alisher Navoiyning butun ijodi bo‘ylab sochilgan. Shuningdek, Abu Nasr Farobiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy va boshqalarning musiqa sa’natiga oid risolalarida raqs ritmi va usullari haqida ma’lumotlar, ilmiy mushohadalar uchraydi.

Shuningdek, o‘tmishda musiqa, an’anaviy teatr, qo‘g‘irchoqbozlik, raqs, xalq sirki, qo‘shiqchilikning barcha shakllari, turlari “Tomosha” degan birgina istiloh bilan ifodalangan. Bu so‘z arabchadan olingan bo‘lib, “qarash, ko‘zdan kechirish” degan ma’nolarni anglatadi. Ammo Markaziy Osiyo mintaqasida uning ma’no doirasi juda keng bo‘lib, ko‘pchilikka mo‘ljallangan hamda ko‘ruvchi va tinglovchini quvontiradigan yoki qayg‘urtiradigan, ba’zan hatto jumbushga soladigan ijrolar, marosimlar bilan bog‘liq namoyishlar va o‘yinlar – barchasi “Tomosha” deb yuritilgan. Turkiychada “O‘yin” atamasi ham ishlatilgan. Biroq uning qo‘llash doirasi haddan tashqari juda keng bo‘lib, ermak mashg‘ulotlar, badantarbiya va sportga aloqador sohalarni ham o‘z ichiga olgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Movorounnahrda mog‘ullarning qariyb 140 yillik hukmronlik davrida birorta ham ko‘zga ko‘rinadigan qurilish yoki suv inshootlari vujudga kelmagan edi. Amir Temur tashabbusi bilan 1365-yilda Qarshi, 1370-yilda Samarqand, 1380-yilda Kesh shahrida katta-katta madaniy muassasalar - saroylar, masjidlar, madrasalar, suv omborlari, mudofaa devorlari, bog‘u rog‘lar, yangi yerlarni o‘zlashtirishga qaratilgan ishlar amalga oshirildi. Yangi bozorlar, hunarmandchilik ustaxonalari barpo etildi. Buyuk Temur tomonidan ilm-fan, san’at va madaniyatni tiklashga qaratilgan islohotlarini tarixchi Ibn Arabshoh ta’riflagandek, “Temur olimlarga mehribon, sayyidu shariflarni

o‘ziga yaqin tutar edi, ulamo va fuzaloga to‘la izzat hurmat ko‘rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko‘rardi. Ularni har birini o‘z martabasiga qo‘yib, izzatu ikromini unga izhor qilardi”. Tarixchilar qoldirgan ma’lumotlarga qaraganda, Temur saroyida o‘sha davrning ilm-ma’rifat allomalari bo‘lgan Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nu’moniddin Xorazmiy, Xoji Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Hokiylar yashab ijod etganlar. Amir Temur zamonasining musiqa, adabiyot, tarix kabi sohalari ravnaqi xususida fransuz olimi Lyangle shunday ta’rif beradi: “Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qator sofdilligini ko‘rgan kishilarga ishonch bildirar edi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste’dodli bo‘lgan kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi chunki Temur bu sohalarga g‘amxo‘rlik qilishga asosiy e’tiborini berardi”. Manbalarda yozilishicha sohibqiron Amir Temurning insoniy fazilatlari xususida so‘z yuritilib, u yorqin fazilatlarga ega bo‘lgan, o‘tkir xotirali, shijoatli, qat’iyatli, bir so‘zli, zo‘r ruhiy qudrat egasi, salobatli inson sifatida gavdalanadi. Amir Temur o‘z tuzuklarida: “O‘ninchi toifa xunar-san’at egalaridir”, deb ta’kidlagan.

Yuqorida qayd etilgan tarixiy misollar buyuk bobokalonimiz sohibqiron Amir Temurning naqadar kuchli shaxs bo‘lganligidan dalolatdir. Zotan, bugun yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shunday ota-bobolarimizning buyuk siymosi yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Azal azaldan ajdodlarimiz yoshlar tarbiyasi masalalariga jiddiy e’tibor berib kelishgan va bu an’ana avloddan avlodlarga ko‘chib, takomillashib, yangicha jilolar bilan boyib boravergan. Zotan, inson ma’naviyatining shakllanishida tarbiya muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Amir Temurdek ajdodlar namunasida yoshlarni tarbiyalash serqirra tariximizning tarbiya sohasidagi ma’naviy poydevorini mustahkamlaydi. Tarbiya sohasida ma’naviy poydevor bo‘lmas ekan, u mustahkam inshootga aylana olmaydi. Shu bois tarbiya jarayonida barcha davrlarda Amir Temurlar qiyofasidagi namunaviy

kuchlarga ehtiyoj sezilgan. Bugun erishayotgan har qanday yangi yutuqlar, albatta, moziydagi erishilgan tarixiy g‘alabalar bilan izchil bog‘lanmog‘i lozim. Shu jihatdan “Har qanday yangilikda unutilgan eskilik mavjuddir”, deb ta'kidlaydi donishmand xalqimiz. Yoshlar tarbiyasida yangi deb qabul qilinayotgan uslublar sinchkovlik bilan razm solinadigan bo‘lsa, olis tariximizning juda olis zamonlariga borib taqaladi. Shu jihatdan xalqimizning Ikkinchi Renescans davriga poydevor qo‘ygan Temur davri va u davrdagi yoshlar tarbiyasidagi vatanparvarlik tarbiyasida bugungi tarbiyaviy qoidalarni qamrab olib, nurlantirib turadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘tgan mustabid zamonlarda buyuk bobokalonimiz Amir Temur tomonidan qoldirilgan ma’naviy javohirlar xalqimizdan pinhon tutildi. Millatimizga begona bo‘lgan shahslar tarixini o‘rganish, asl negizimizdan uzoqlashtirishga sabab bo‘ldi. Oqibatda milliy tarbiyamiz asta-sekin unutila boshlandi. Shukrkim, tarixning bergan inoyati ila biz yana milliy tiklanish, o‘zlikni anglash va yangi Uchinchi Renescans poydevorini qurishdek buyuk baxtga musharraf bo‘ldik.

“Temur tuzuklari” asarida yozilganidek: “Raiyat ahvolidan ogoh bo‘ldim. Ulug‘larni ota qatorida, kichiklarni farzand o‘rnida ko‘rdim. Har yerning tabiati, har el yurt va shaharning rasmu odatlari va mezojidan vofiq bo‘lib turdim. Har bir yurt Shahar aholisining Ulug‘lari bilan do‘st tutindim. Ularning mijozlari va tabiatiga to‘g‘ri kelgan, o‘zlari tanigan odamlarni ularga hokim qilib tayinladim”. Yuqoridagi fikrlardan bilish mumkinki, buyuk bobomizda sahovatpeshalik, mehr-muruvvatlilik, fuqarolarning turmushi va hol-ahvolidan xabardor bo‘lish kabi fazilatlar bor edi va bu fazilat faqat buyuk davlat arboblariga xosdir.

Sohibqiron Amir Temur hazratlari milliy davlatchiligimiz tarixida nafaqat yetti iqlim sultoni sifatida, balki millat tarbiyasida yurt tinchligini asrashga va xalq farovonligini ta’minlashda butun umrini, kuch-g‘ayratini safarbar etgan buyuk davlat arbobi sifatida millatimiz tarixida qoladi. Buyuk bobomiz Amir Temur fan va ma’rifatning buyuk homiysi bo‘lgan. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek, “…tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan

bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma’naviyat rivojiga keng yo‘l ochdi”.

Buyuk bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temur shaxsini o‘rgangan ko‘plab tadqiqotchilar orasida frantsiyalik mashhur olim Lyus’en Keren nomi alohida ahamiyatga ega. O‘zining so‘nggi 40 yillik umrini temuriylar davrini o‘rganishga bag‘ishlagan bu inson ilmiy izlanishlari natijasida buyuk Amir Temur haqida ko‘plab yangi ma’lumotlarni topdi va ularni yevropaliklarga tanitishda katta hissa qo‘shdi. Shuningdek, keyingi yillarda Angliya, Frantsiya, Germaniya, Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi tadqiqotchilar uning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab kitoblar yozib, o‘z tillarida chop etdilar. Angliyalik sharqshunos olima Hil’da Hukhem, germaniyalik Gans Robert Ryomer, frantsuz Jan Pol Roks, amerikalik Jon Vuds va Beatrisa Mans shular jumlasidandir. Xorijlik dramaturg va artistlar o‘z teatrlarining sahnalarida Amir Temurning yorqin siymosini yaratdilar. Frantsiyalik haykaltaroshlar uning haykalini oltindan quyib, muzeylarda namoyish qildilar. Bunday yuksak e’tibor O‘zbekiston yoshlariga ulkan iftixor va g‘urur bag‘ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, beqiyos salohiyat sohibi bo‘lgan bu Ulug‘ zot adolatga asoslangan qudratli davlat barpo etdi va uni oqillik bilan boshqardi. Buni nafaqat bizning xalqimiz, balki dunyo hamjamiyati ham e’tirof etayotgani haqiqatdir. Amir Temurning yurt ravnaqi yo‘lidagi shijoati, yurtparvarligi, ma’rifatparvarligi, qoldirgan ma’naviy va madaniy merosi bugungi kun yoshlarining tarbiyasi, barkamol shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ta’kidlash joizki, “millatning dardiga darmon bo‘lmoq”ni buyuk sharaf deb bilgan buyuk bobokalonimiz adolat bayrog‘ini baland ko‘tarib, umuminsoniy qadriyatlar tarixida o‘zining salmoqli o‘rniga ega bo‘ldi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. “Oliy Majlisga qilgan Murojaatnoma” 2018-yil 28-dekabr.

2. Ahmedov Buriboy. Amir Temurni yod etib. – T.: O‘zbekiston, 1996.

3. Amir Temur faxrimiz, g‘ururimiz. – T.: O‘zbekiston, 1998.

4. Amir Temur saboqlari. – T.: Sharq, 1998.

5. Amir Temur solnomasi /Muhammad Ali/. – T., 2008.

6. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo‘tarixida tutgan o‘rni va roli (yozma manbalar va ma’lumotlar asosida). 2-nashr. –Toshkent: Fan, 1993.

7. Hakim Sattoriy. Amir Temur sevgan yurt. – T.: O‘zbekiston, 1996.

МИРЗО УЛУҒБЕК ИККИНЧИ РЕНЕССАНС ДАВРИНИНГ БУЮК СИЙМОСИ

А.Шарафиддинов

ФарДУ Ўзбекистон тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Аннотация: *Мазкур мақолада иккинчи ренессанс даврининг атоқли олими Мирзо Улуғбекнинг илм-фан соҳасидаги ва темурийлар даври маданиятига қўшган хиссаси тарихий манбалар асосида тахлил қилинган. Шунингдек, мадрасалар, масжидлар, мақбаралар қурилиши ва бу билан бунёдкорлик ишларига ҳам алоҳида эътибор берилганлиги ҳам кўрсатиб ўтилган.*

Калит сўз ва иборалар: *Мовараунахр, Хуросан, Уйғониш, Мадраса, Масжид, Мақбара, Бибихоним, Мударрис, Гумбаз, Расадхона, Хаттотлик, Миниатюра.*

Аннотация: *В данной статье на основе исторических источников анализируется вклад известного ученого эпохи Второго Ренессанса Мирзо Улугбека в науку и культуру периода Темуридов. Наряду с этим показано, что он уделял особое внимание строительству медресе, мечетей и мавзолеев.*

Ключевые слова и фразы: *Мавераннахр, Хорасан, Ренессанс, медресе, мечеть, гробница, Бибиханим, мударрис, купол, обсерватория, каллиграфия, миниатюра.*

Annotation: *This article analyzes the contribution of Mirzo Ulug‘bek, a famous scientist of the second renaissance period, to‘the field of science and to‘the culture of the Timurid period based on historical sources. It was also shown that special attention was paid to‘the construction of madrasahs, mosques, and mausoleums.*

Key words and phrases: *Movaraunahr, Khurasan, Revival, Madrasa, Mosque, Tomb, Bibikhanim, Mudarris, Dome, Observatory, Calligraphy, Miniature.*

XIII асрнинг 20-йилларида халқимиз – Ўзрта Осиё халқлари Шарқда – Мўғулистонда шаклланган Чингизхон давлатининг беаёв хуружига учради. 2-3 йил давомида Ўрта Осиё, Мовароунахр ва Хуросон босиб олинди, яна шаҳарлар вайрон, турли маданий бинолар, йўллар, боғ-роғлар барбод бўлди,

китоблар ёндирилди, халқ энди Чингизийлар қарамлигига тушди, лекин бу қарамлик, ҳуқуқсизлик узоққа чўзилмади. Яна мустақиллик учун кураш бошланди. Мовароунаҳр ва Хуросонда мўғул ҳукмронлиги борган сари кучлироқ зарбага учрай борди, Самарқандда мустақил сарбадорлар давлати вужудга келди.

XIV асрнинг 60-йилларидан бошлаб мўғуллар ҳукмронлигига қарши Амир Темур етакчилигидаги мустақиллик учун ҳаракат Мовароунаҳр ва Хуросонда кучли давлатнинг вужудга келиши билан якунланди. Бир асрдан кўпроқ давом этган бу мустақил давлат яна илм-фаннинг, адабиёт ва санъатнинг юксалишига имконият яратди. Мустақил бўлган халқ яна эркин нафас олиб ўз ичидаги истеъдодларга шижоат, янги куч илҳом бахш этди. ***[2:7]***

Бу X – XII асрдаги душман хуружи натижасида узиб қўйилган Уйғонишнинг тикланиши, маънавий равнақнинг иккинчи босқичи эди. Бўғиб қўйилган маданий қудрат, маънавий куч яна қўзғалди. Бошқача бир тарихий шароитда бу куч ўз даврига мос ҳолда ажойиб, ранг-баранг маданий ютуқлар, маънавий бойликлар билан XIV аср саҳифасини безатди, уни тарихда унитилмас жило, ранг, ютуқлар билан бойитди. Ўз даври маънавий ютуқларининг турли қирраларини фаолиятлари, ижодларида ёрқин ифодалаган Мирзо Улуғбек, Али Қушчи, Коший, Лутфий, Журжоний, Беҳзод, Жомий, Хўжа Аҳрор каби олим, фозил, ижодкорлар шу дарвнинг маҳсулидир. Алишер Навоий бу маданий-маънавий кўтаринкиликнинг чўққиси бўлди. У мутафаккир шоир, олим, маърифатчи эди. Унинг узоқ йиллар давомида темурий шоҳлардан Ҳусайн Бойқаро саройида доно маслаҳатчи вазирлик фаолияти ҳокимиятни маърифат йўлига йўллаб туришда, Уйғониш маданиятини таъминлашда ниҳоят муҳим аҳамият касб этди. Унинг бевосита таъбири, иштироки билан 200 дан ортиқ маданият муассасаси қурилгани маълум ***[2:8]***.

Илғор мутафаккирлар Жомий, Навоий ижодларида ҳам етук жамоа, комил инсон, юксак ахлоқий муносабатлар ҳақидаги социал утопия ўзига хос равишда яна тикланди, ривожлантирилди. Мустақиллик маданий Уйғонишни тиклади, янада юксалтирди.

Амир Темур асос солган қудратли, марказлашган давлат Мовароунаҳрда узоқ вақт мобайнида ҳукмронлик қилган Чингизхон авлодлари даврини тугатиб, янги ривожланиш босқичи бошланишига кенг йўл очиб берди. Амир Темур марказлашган феодал давлати ҳар томонлама юксалиши мустаҳкамланиши учун кўп иш қилди. Жумладан, давлатнинг ўзига хос бошқарув тизимини ишлаб чиқди, мунтазам ҳарбий кучларни тузди, қатор хорижий мамлакатлар билан савдо-сотиқ, дипломатия алоқаларини ўрнатди, дини исломни ривожлантирди. Мамлакатни обод қилди, илм-фан, маданиятни юксак поғонага кўтарди. Ундан авлодларига, халққа обод ўлка, иқтисодий етук давлат мерос бўлиб қолди. Амир Темур даврида маънавият, маданият, меъморликнинг янги йўналишда ривож топишига асос солиндики, бу темурийлар даврида, айниқса, Улуғбек даврида маданият, илм-фан янада юксакликка кўтарилишига асос бўлиб хизмат қилди.

Темур вафотидан кейин бир неча йил мобайнида темурий меросхўрлар ўртасида тахт учун кураш бошланиб кетди. Ниҳоят, Хуросон ҳукмдори Шоҳруҳ бу феодал урушларга барҳам бериб, Темур давлатини икки ҳукмдор қўлига ўтказди. Шоҳруҳ Хуросонда, унинг катта ўғли Улуғбек Мовароунаҳрда ҳокимиятни эгаллади. Улуғбек ҳукмронлик қилган даврда (1409-1449) давлатда қисман осойишталик ўрнатилиб, асосий эътиборни илм-фан ва маданиятни ривожлантиришга қаратиш имконияти юзага келди.

Улуғбек Самарқанд тахтига ўтирган вақтда шаҳар гўзал қиёфасини сақлаб қолган эди. Темур даврида юзага келган ва ривожланиш босқичига ўтган маданий, маънавий анъаналар ҳеч бузилмай Улуғбеккача етиб

келганди. Унинг ҳукмронлик даврида Мовароунаҳрда илм-фан, маданият юксак даражада ривожланди.

Улуғбек Мирзо замонида асосан темурий шаҳзодалар ўртасидаги низоларни биртараф қилиш учун ҳарбий юришлар қилинди. Умуман, бу даврда малакатга катта хавф солиб турадиган кучларнинг йўқлиги, олиб борилган урушлар қисқа муддатли ёки мудофаа мақсадида бўлганлиги учун ўлка анча тинч эди. Улуғбек замонида мамлакатда унинг бобоси томонидан бошланган бунёдкорлик ишлари тўхтамади, балки янада кенг кўламда давом эттирилди. 1417 йилдан бошлаб унинг фармойиши асосида Бухоро, Самарқанд, Ғиждувонда мадрасалар қурилиши бошлаб юборилди. Самарқандда ободончилик ишлари давом эттирилиб, Бибихоним масжиди, “Гўри мир” мақбараси қурилиши поёнига етказилди.

Мадрасалардан энг каттаси Самарқандда қурилган эди. Унинг пештоқидаги ёзувда мадраса 1417-1420 йилларда қурилганлиги кўрсатилган. Дастлабки бино икки қаватли бўлиб, бурчакдаги дарсхоналар тепасида тўртта гумбази ва тўртта минораси бўлган. “Ушбу мадраса шаҳар ўртасида тоғ шукуҳли ҳайъати устухонбанд мустаҳкамлигидин фалак биносидин тинчликни олғон, юксаклик жиҳати бўлмиш азаматнишон пештоқи оғирлигидан еру заминга зилзила солғон, анинг олий даражали кунгираларининг қудрат устаси фалак айвонининг муқарнаскорлиги билан бир хилда ясағон, ложувард кошинларини қазо наққош фалакнинг чароғон юлдузлари билан бир тартибда нақш қилиб, аларга дахлдор қилғон; қуёшдек жилваси, зар нигор нақшлари гўзал фалак гумбази билан ҳамвазн эди” ***[3:25]***.

Мадраса битгач, Улуғбек мударрисларни ўзи танлаб олади. Бу ҳақда В.В.Бартольд шундай деб ёзади: “Мадраса қурилиши тугай деб қолганда, бино қурилишида ҳозир бўлган кишилар Улуғбекдан ким мударрис этиб тайинланади, деб сўраганлар. Улуғбек ҳамма фанлардан етарли билимга эга бўлган киши топиб тайинналади, деб жавоб қилди. Бу пайт бир тўп ғишт орасида жомакор кийиб ўлтирган Мавлоно Муҳаммад Улуғбекнинг сўзини

эшитиб қолади ва шу заҳоти мана шу вазифага муносиб киши эканлигини айтади. Улуғбек мавлонони сўроққа тутиб кўргач, унинг билимидан қаноат ҳосил қилади, сўнгра уни ҳаммомга юборишни ва яхши сарпо кийдиришни буюради. Мадраса очиладиган куни Мавлоно Муҳаммад Ҳавофий мударрис сифатида биринчи маърузани ўқийди. Гарчи бу дарсда тўқсон нафар олим ҳозир бўлсада, маъруза моҳияти жуда мураккаб ва илмий бўлганлигидан уни Улуғбек ва Қозизода Румийдан ташқари ҳеч ким тушуниб етолмайди ***[4:126].***

Улуғбек мадрасининг кун юриш тарафига хонақоҳ ва гўзал бир масжид қурдиради. “Бобурнома”да бу бино ҳақида қимматли маълумотлар берилади: “Ҳонақоҳнинг гумбази бисёр улуғ гумбаздур, оламда онча улуғ гумбаз йўқдур, деб нишон борурлар. Яна бу мадрасанинг жанубида бир масжид солибдур, масжиди муқаттаъ дерлар. Бу жиҳатдин муқаттаъ дерларким, қитқи-қитқъа ёғочларни тарош қилиб, ислимий ва хитойи нақшлар солибтурлар, тамом деворлари ва сақфи ушбу йўсуқлуқтур” ***[5:105].***

Улуғбекни бутун дунёга танитган, унга жаҳоннинг буюк мунажжимлари қаторидан жой олиш ҳуқуқини берган нарсалар – Самарқанддаги расадхона ва илмий ишларни кенг кўламда олиб бориш учун замонасининг буюк олимларини бирлаштирган Самарқанд академиясидир. Самарқанд академияси ҳақида бундан 200 йил илгари француз файласуфи ва тарихчи олими Вольтер (1694-1778) шундай деб ёзган эди: “Трансоксанейда унинг (Амир Темурнинг) ўрнига тахтга чиққан машҳур Улуғбек Самарқандда биринчи академияга асос солди, ер куррасини ўлчашни буюрди ва астрономик жадвалларни тузишда иштирок этди” ***[5:112].***

Юқорида зикр қилинган академиянинг асосини Улуғбек расадхонаси ташкил қилган. Улуғбек Мирзо қурдирган бу расадхона цилиндр шаклида, уч ошёнали, айланаси 47 метр, баландлиги эса 31 метр бўлган муҳташам бинодан иборат эди.

Расадхонанинг атрофига олимлар ва хизматчилар учун катта-кичик ҳужралар қурилганди. Шунингдек, 150 минг китоб фондига эга бўлган

кутубхона биноси ҳам тикланган эди. Бу ерда ўз замонасининг етук олимлари Қозизода Румий, Ғиёсиддин Жамшид, Али Қушчи ва бошқалар илмий тадқиқотлар олиб бордилар. Улуғбек расадхонасида олиб борилган илмий ишлар ҳақида академик Т.Н.Қори-Ниёзийнинг “Улуғбек ва унинг мероси” (Тошкент, 1971) номли асарида, шунингдек, академик Б.Аҳмедовнинг “Улуғбек” номли рисоласида батафсил маълумот берилган.

Улуғбек расадхонасида фалакиёт илми саҳифасидаги изланишларнинг ажойиб ҳосиласи – “Зижжи Кўрагоний”, яъни Улуғбек бир умр орзу қилган асар ёзиб тугатилди. Маълумки, юлдузлар каталогини тузиш кўп машаққатли иш. “Бу каталог ҳаммаси бўлиб 1018 юлдуздан иборат, улар юлдузлар туркуми бўйича жойлаштирилган. Туркумнинг ҳар бир юлдузи учун рақамдан ташқари унинг туркумдаги ҳолати, узунлиги кенглиги ва координатлари ҳам берилган” ***[7:281].***

Академик Б.Аҳмедовнинг ёзишича, “Улуғбек зижжида учинчи даражали алгебраик тенгламага олиб келган тригонометрик жадваллар катта илмий аҳамиятга эга”. “Бундай тенгламани ҳал қилиш, - деб ёзган эди машҳур ўзбек олими Т.Н.Қори Ниёзий, - Улуғбек замонида катта проблема саналар эди. Бу тенглама муваффақиятли равишда янги оригинал метод билан ҳал қилиниб, натижада аниқлиги миллиарддан бир бўлган тўққиз хоналик тригонометрик жадваллар тузилган”. Шубҳасиз, бундай жадвалларни тузиш бениҳоя оғир иш эди. Улуғбек ва унинг астрономик мактабида тузилган жадваллардан фақат синус моҳиятининг тўғрилигини текширишга, - деб ёзган эди самарқандлик олим марҳум Раҳматулло Ибодов, - бир йилдан ортиқ вақт сарфладим”. Бу ўринда шуни ҳам айтиш керакки олим бу ҳисоб-китобни маҳсус электрон ҳисоблаш машинаси ёрдамида амалга оширган ***[6:110].***

Демак, Улуғбек академиясида математика, фалакиёт илмига доир мураккаб масалалар ҳал қилинган. Унинг раҳбарлигида юздан ортиқ ўз

замонасининг етук мутафаккир олимлари хизмат қилиб, темурийлар даври маданияти ривожига улкан ҳисса қўшганлар.

Темурийлар даврида Ҳирот йирик маданий марказ бўлиб, маданий ривожланиш Шоҳруҳ даврида (1404-1447) бошқа йўлдан борди. Ҳиротда Самарқанддагига ўхшаб аниқ фанлар, фалакиёт илми, турли маросимлар эмас, асосан адабиёт, миннатюра санъати, хаттотлик ва санъатнинг бошқа соҳалари ривож топди.

Шоҳруҳ табиатан мутаассиб шахс бўлганлиги учун ўз мамлакатида Амир Темур бошлаган ишни давом эттира олмади. Вақтининг кўп қисмини ибодат билан ўтказди. Лекин унинг кичик ўғли Бойсунқур вазир сифатида Хуросонда давлат бошқарувини тартибга солиш, янги қонунларни жорий этиш соҳасида бобоси Темур изидан борди. Ўзи маълумотли, юксак дид эгаси бўлганлиги учун Ҳиротда адабиёт ва санъатнинг ривожланишига сезиларли таъсир ўтказди. Бу ерда бевосита Бойсунқурнинг саъйи-ҳаракати билан китобхона қурилиб ишга туширилди. Ҳаттотлар, миниатюрачилар, муқовачилар, шунингдек, тилшунослар, шоирлар тўпланиб, китобларни кўчириш, муқовалаш билан шуғулландилар. Айни пайтда илмий тадқиқотлар ҳам олиб борилди.

Китобхонада ўша даврда қимматли бўлган илмий, бадиий асарларни тўплаб, кўчириш ва тарқатиш билан ҳам шуғулланилди. Жумладан, Фирдавсийнинг “Шоҳнома” асари тўпланиб, матни турли даврларда кўчирилган нусҳаларига солиштирилди ва 1430 йилда ажойиб миннатюралар билан безатилиб, чиройли муқовада китоб ҳолига келтирилди.

Хулоса қилиб айтганда “Амир Темур XIV асрнинг иккинчи ярми ва XV аср бошида жаҳонда сиёсий иқлимни белгилашда катта нуфузга эга бўлган сиймо даражасига кўтарилди, жаҳон тарихига таъсир ўтказувчи давлат арбобига айланди” ***[1:145].***

Унинг авлодлари, хусусан, Мирзо Улуғбек эса ўзининг улкан салоҳияти билан, буюк нашриётлари билан Темурийлар даврининг жаҳонга машхур сиймосига айланди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Муҳаммад Али. Амир Темур чамани – Т.: Ўзбекистон, 2006-Б.215.
2. Шарафиддинов А. Фарғона вилояти тарихидан лавҳалар (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Т.: Наврўз, 2023 – Б.80.
3. Абу Тоҳир Хожи. Самария – Т.: Мерос, 1991 – Б. 5-81.
4. Байтольд В.В.Сочинения. – М.: Т. I, ч. 2-8, 1964 стр. 25-178
5. Бобурнома – Т.: 1960
6. Ахмедов Б. Улуғбек – Т.: 1989
7. Қори-Ниёзий Т.Н. Улуғбек ва унинг мероси. – Т.: 1971 – Б.112.

TEMURIYLAR DAVRI MADRASALARINING O‘QUV JARAYONI XUSUSIDA

Maxmudov Toxir Isayevich
Samarqand davlat universiteti
katta o‘qituvchisi, t.f.f.d (PhD)
toxirmaxmudov2306@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davri talim tizimida muhim o’rin egallagan Movourounnahr va Xurosondagi madrasalar va xonaqoxlarni o‘quv muassasasi sifatidagi ahamiyatini ochib berishga bag’ishlangan. Shuningdek, madrasalar va xonaqohlar ta’lim tizimi rivojiga qo‘shgan hissasi, o‘quv jarayoni masalasi tarixini yoritishga ham alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘z va iboralar:*Madrasa, xonaqoh, shayx, darvish, sufiylar, mudarris, voiz, “Sultoniya”, “Xalosiya”, “Qur’on”, ulumi aqliya, ulumi ma’muriya, ulumi xarbiya, adno, avsat, sanad, mutavvali, vaqf.*

Аннотация: *Данная статья посвящена раскрытию значения медресе и ханаках как учебных заведений в Мовуроуннахре и Хорасане, которые занимали важное место в системе образования Амира Темура и эпохи Тимуридов. Также особое внимание уделено вкладу медресе и ханака в развитие системы образования, истории образовательного процесса.*

Ключевые слова и фразы: *Медресе, ханака, шейх, дервиш, суфии, мударрис, проповедник, «Султания», «Халосия», «Коран», улуми аглия, управление улуми, улуми харбия, адно, авсат, санад, мутаввали, дарование.*

Annotation: *This article is devoted to revealing the significance of madrasas and khanakas as educational institutions in Movurounnahr and Khorasan, which occupied an important place in the education system of Amir Temur and the Timurid era. Also, special attention is paid to‘the contribution of madrasas and khanaka to‘the development of the education system, the history of the educational process.*

Key words and phrases: *Madrasah, khanaka, sheikh, dervish, sufis, mudarris, preacher, Sultania, Khalosia, Koran, ulumi aglia, ulumi management, ulumi harbiya, adno, avsat, sanad, mutavvali, talent.*

Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda, xususan, poytaxt Samarqandda fan va madaniyatning yangidan tug’ilishi, ta’lim tizimining rivojlanishi Amir Temur va uning nabiralari Muhammad Sulton va Mirzo Ulug‘bek nomi bilan bog‘liq. Ular uzoqni ko‘zlab fan, ta’lim, tibbiyot rivoj topsa degan fikrni hamisha qo‘llab-quvvatlaganlar.

Sharq o‘lkalarida ta’lim tizimi va uning bosqichlari bizgacha yetib kelgan manbalar asosida qator olimlar tomonidan tadqiq etilib, ularning natijalari turli tillarda tarjima qilingan ***[1]***.

Ma’lumki, XIV asrning oxirida Movarounnahrda Amir Temurning saltanati o’rnatilgandan keyin, mamlakatni birlashtirish va turli yurishlar uyushtirish bilan bir qatorda Temuriylar davlati poytaxti Samarqandni obod qilish maqsadida unda turli qurilishlarni amalga oshirish hamda ta’lim tizimini yaxshilash, unga daxldor bo‘lgan bilim o’choqlarini qurish sohasida ham keng miqyosdagi faoliyat boshlab yuborildi. Samarqandda Amir Temurning xotinlari – Saroymulkxonim madrasa, Tumon-og’o xonaqoh va kulohfurushon timi, nabirasi Muhammad Sulton madrasa, amirlaridan Idiku Temur-Feruzshoh madrasasi, amaldorlaridan-Samarqand sadri mavlono Qutbiddin-madrasa va boshqalar tomonidan qator inshootlar, jumladan, madrasalar bunyod etilgan.

Madrasalarda o‘qish arab tilida olib borilgan. Shuning uchun arab tilining morfologiyasi va sintaksisi chuqur va ko‘proq o‘qitilgan. O‘qitiladigan hamma asarlar yoki ularning sharhlari arab tilida bitilgan edi. Shuning uchun talabalardan

arab tilini mukammal bilish jiddiy talab etilgan. Bu esa mudarrislardan ham, talabadan ham katta mas’uliyat talab etgan.

O‘qitiladigan ilmlar tasnifi, o‘qitish saviyasi, mudarrislar mavqeiga binoan madrasalar ikki bosqichga bo‘lingan. Birinchisi umumiy ta’lim beruvchi o‘quv maskani – u madrasa deb atalgan. Bunday madrasalarda ilmi naqliya – diniy ilmlar ancha chuqur o‘rganilgan, ilmi aqliya – tabiiy fanlardan esa umumiy ma’lumot berilgan. Bu turdagi madrasalar kichikroq shaharlarda, tumanlarda, ba’zi katta mahallalarda ham bo‘lgan. Umumiy ta’lim madrasalarini bitirgan talabalar, ko‘proq, maktablarda o‘qituvchi, masjidlarda imom, qozixonalarda mufti yoki boshqa lavozimlarda ishlaganlar. Lekin, bunday madrasani bitirganlarining ichida iqtidorlilari ikkinchisi – madrasayi oliyada o‘qishni davom ettirganlar.

Madrasayi oliya ta’lim-tarbiyaning eng oliy bosqichi hisoblangan. Bunday madrasalar, asosan, poytaxtlarda, ilm-fan rivojlangan Samarqand, Buxoro, Xiva, Hirot kabi shaharlarda bo‘lgan.

Qoida bo‘yicha madrasalarda o‘qish kunlari haftaning to‘rt kuni – shanba, yakshanba, dushanba, seshanba; ikki kuni - chorshanba, payshanba dars tayyorlash kunlari; juma esa-dam olish kuni hisoblangan. O‘qish bir yilda olti oy davom etgan. Aslida, o‘quv yili mezon oyining birinchi kuni (21sentyabr) da boshlanib, hamal oyining birinchi kuni (21 mart) tugagan. Qolgan hamal, savr, javzo, saraton, asad, sunbula oylari ta’til oylari bo‘lib, talabalar tirikchilik (hunarmandchilik, dehqonchilik, masjidlarda imomlik va h.) bilan band edi. Ba’zilari esa madrasalarda qolib, o‘qishni mustaqil tarzda davom ettirgan.

O‘qitish tanlov asosida olib borilgan, kuchlilari o‘qishni davom ettirgan, bo’sh talabalar o‘qishdan ozod etilgan. Jumladan, Hirotdagi Ixlosiya madrasasida har 30 kunda 30 ta talabadan kuchlilari ajratib olinar edi ***[2]***. Madrasaga boshlang‘ich ta’lim maktabini tugatgan o’spirinlar qabul qilingan.

Madrasalardagi o‘quv muddati haqida so‘z yuritganda, shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, turli madrasalarda o‘quv muddati bilim doirasiga qarab turlicha

bo‘lgan. Bilimlar yurti – Movarounnahr madrasalarida, jumladan, Ulug‘bek madrasalarida bilim olish muddati 19-20 yilga muvofiqlashtirilgan o‘quv rejasi asosida tuzilgan. Ba’zi vaqfnomalarga ko‘ra, o‘quv muddati 21 yilga uzaytirilgan yoki ba’zan 8 yilga qisqartirilgan. Ulug‘bek madrasasida o‘quv muddati rasman 8 yilga mo’ljallangan ***[3].*** Shunga binoan o‘quv rejasi ishlab chiqilgan. Lekin, Ulug‘bek madrasasida o‘qib, ijozatnoma olish muddati o‘n olti yil ham bo‘lganligi haqida Shamsiddin Muhammad al-Balxiyning *sanad* (shahodatnoma)si dalolat beradi ***[4]***.

Madrasalarda, asosan, o‘rganilayotgan fanlar tarkibida ulumi naqliya (Qur’on, hadis, fiqh, tasavvuf) va u bilan bog‘liq ilohiy ilmlardan tashqari dunyoviy fanlar chuqur o‘rganilar edi: tarix, adabiyot, falsafa, jug’rofiya, aniq fanlar, tibbiyot, xattotlik san’ati, she’riyat va h. bo‘lgan. Lekin, ba’zi madrasalarda yo‘nalishiga qarab, jumladan, Ulug‘bek madrasasida riyoziyot, handasa, ilmi hay’at, tarix jug’rofiya, ilmi aruz, muhandislik, arab tili va uning morfologiyasi, falsafa, mantiq fanlariga e’tibor kuchaygan.

Madrasani bitirgan talabalarga *ijozatnoma* (diplom) berilar edi. Bu *ijozatnoma* talabalarga dars o‘tish, ya’ni mudarrislik qilishni anglatar edi. *Ijozatnoma*da talaba tomonidan o‘zlashtirgan ilm (sohasi) va o‘rgangan asarlar nomi yozilgan bo‘lar edi.

Talabalar ichida o‘z qobiliyati va iste’dodi bilan alohida ajralib turgan talabaga madrasada dars o‘tishga *ijozatnoma*lar taqdim etilib, shu madrasaning o‘zida mudarris sifatida olib qolganlar. Masalan, Mirzo Ulug‘bek madrasasida Ali Qushchi va Abdurahmon Jomiylar mudarris sifatida faoliyat yuritdi.

Shunday *ijozatnoma*lardan biri, aniqrog’i Ulug‘bek madrasasining bosh mudarrisi Salohiddin Muso Qozizoda Rumiy tomonidan 1435 yil berilgan *ijozatnoma* O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Institutining qo‘lyozma fondida saqlanib kelmoqda ***[5].*** Akademik B.A.Ahmedov o‘zining “Ulug‘bek” nomli risolasida uning o‘zbekcha tarjimasini keltirgan. U quyidagicha: “ Shamsiddin Muhammad al-Balxiy ilm tahsil qilish

uchun vatanidan uzoq erlarga safar qilishni ixtiyor qildi. Musofirlikning og‘ir zahmatlariga chidadi… U Samarqandda o‘n olti yil chamasi istiqomat qildi. Uning talab vodiysida ilmning tiniq suviga tashnaligi kun sari ortib turdi. Idrokli va ziyrak bo‘lganligi uchun darslarni tez tushunar edi. Dars vaqtlarida Abu Bakr Urmaviyning “*Lavom al-asror min matole’ al-anvor*” kitobining yashirin sirlarini tushundi. “*Badoe’ al-ibkor min tavole’ al-afkor*” asarining pardalari nuqtalarini ochdi. Shuningdek, “*Talvihot al-tavzeh*” kitobi uning e’tiborini tortdi. «*Minhoj al-vusul ilo al-usul*»ni tinmayin mutolaa qildi. Nihoyatda tortilib va harakat qilib “*Ihkom al-ahkom muntaxab muntahil amal va-s-suol*” kitoblariga ham etishdi. “*Mafoteh abvob al-adab”*ni tahsil qildi. “*Kashshof*” va uning ishonchli sharhlaridagi chiroyli iboralarning yuzlaridan parda ochdi.

“*Qur’on*” oyatlari dengizidan durlar olib chiqdi. Undan tashqari “*Mavokiy al-kalom*” sahifalaridagi latif so‘zlar hamda maqsadlaridan voqif bo‘ldi. “*Hidoya*” dalillariga erishdi. She’riy masalalarni bilish uchun “*Nihoya*” (“Hidoya” sharhi)ga to‘g‘ri yo‘l topdi. Ushbu darajaga yetgach, yurtdoshlarini o‘z ilmidan naf’lantirish uchun vataniga qaytmoqchi bo‘ldi. Mendan oliy sanad bilan ijozat berishimni iltimos qildi. Men uni iltimosini qabul qildim…

Qozizoda Rumiy nomi bilan mashhur bo‘lgan faqir ul-xaqir Muso ibn Muhammad ibn Mahmud 838 yil rajab oyining o‘rtalari (1435 yil fevral oyining o‘rtalari)».

Madrasalarda nafaqat madrasa joylashgan shaharda yashovchi, balki boshqa shaharlardan kelgan talabalar ham qabul qilinar edi. Ba’zi madrasalarning shu qadar dong’i ketgan ediki, ularda ta’lim olishga talabalar boshqa shaharlardan kelishgan: Hirotdagi Ixlosiya madrasasiga ta’lim olishga turli mamlakatlardan talabalar kelib, o‘qib, madrasani bitirgach o‘z vatanlariga qaytganlar. Bu madrasada 20 yil mobaynida minglab talabalar o‘qib chiqqan.

Temuriylar davrida ko‘zga ko‘ringan madrasalarda o‘qishga kirishga, uni tugatishga davlat tomonidan keng imkoniyatlar yaratilgan edi.

Madrasa olimlarning bilimini oshirish borasida ham katta xizmat qilgan. Hirotdagi G'iyosiya madrasasiga Shayxulislom Mavlono Shahobiddin Abalhaq at-Tusiy (vaf.812G'1410 y.) Tusdan kelgan ***[6]***; Qunduzda joylashgan Ishqamish qishlog'ida yashovchi Mavlono Muhammad Badaxshiy Samarqandga kelib, Mirzo Ulug'bek madrasasida yaxshi ta'lim olib, uyga qaytgan ***[7]***; Mavlono Abdurahmon Jomiy 1436 yil Samarqandga kelib Mirzo Ulug'bek madrasasida alloma Qozizoda Rumiy va yosh mudarris Fazlulloh Abu Layslardan ta'lim olgan; Shamsiddin Muhammad al-Balxiy ham Balxdan kelib Mirzo Ulug'bek madrasasida ilm tahsil qilish uchun Samarqandda o'n olti yil istiqomat qildi ***[8].*** Hirot madrasalarida Mirzo Ulug'bek astronomiya maktabi namoyandalarining asarlaridan ham ma'ruzalar o'qilgan: Shoxrux madrasasida Muhammad Jajarmiy mudarrislik qilib, Mirzo Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchining "*Sharx-i tajrid*" nomli asaridan ma'ruza o'qigan. Tinglovchilar orasida Abdurahmon Jomiy ham bo'lgan.

O'rganilayotgan davrning yetuk olimlari turli fanlar bo'yicha madrasa o'quvchilari uchun darsliklar yaratgan. Jumladan, Alisher Navoiyning (vaf. 1501 y.) ustozi – Mahdumi Mavlono Fasihiddin Muhammad an-Nizomiy (Ohund) morfologiya va sintaksis bo'yicha o'quv qo'llanma yaratgan. Uning falsafa va riyoziyot fanlariga oid asarlari bilan madrasa o'quvchilari darslik sifatida keng foydalangan ***[9].***

Ma'lumki, Mavlono Sa'diddin Mas'ud at-Taftazoniyning (vaf. 1511 y.) merosi o'rta asr deyarli hamma bilim sohalarini o'z ichiga qamrab olgan 40 dan oshiq asarlardan iboratdir. Uning qalamiga mansub bo'lgan barcha asarlari, Qur'onga yozilgan sharhi bundan istisno, arab tilida yozilgan mantiq, notiqlik san'ati va arab tili grammatikasiga bag'ishlangan asarlari Movarounnahr madrasalarida XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning ikkinchi yarmigacha darslik bo'lib xizmat qilgan.

Mavlono Sa’diddin Mas’ud at-Taftazoniy madrasa talabalari orasida keng tarqalgan maxsus bir qator “*Risola”*lar yaratgan. Ularning orasida eng mashhuri “*Alvohi xavotir*” (“Xotira taxtasi”) edi ***[10].***

Madrasalarda davlat ma’muriyatida xizmat qiluvchi, elchilik ishlari bilan shug’ullanuvchi va lashkarboshilar ham tayyorlangan. Aynan shu holatdan kelib chiqqan holda ba’zi madrasalarda ixtisosligiga ko‘ra ulumi aqliya, ulumi ma’muriya, ulumi xarbiya fan sohalaridan ma’ruzalar o‘qilgan.

Olimlarning yig‘ilishi (kengashi) ham tez-tez bo‘lib turgan va unda ularning ma’lumotini oshirish uchun har gal yangi asarlar yuzasidan ma’ruzalar qilingan. Jumladan, Mirzo Ulug‘bek atrofida Samarqandda to‘qsondan oshiq olimlar yig‘ilgan. Bunga Zayn ad-Din Vosifiyning ma’lumoti isbotdir: “Aytadilarki, olimlar yig‘ilish kuni to‘qson alloma nazdida mavlono Xofiy “*al-Majist*”dan dars aytibdur” ***[11].***

Ma’lumki, hozirgi oliygohlarni-institut, universitetlarni tamomlagan iqtidorli talabalar shu oliygohda keyinchalik ustozlik qilishga olib qolinadi. Fikrimizcha, bu an’ana bizgacha Temuriylar davridan yetib kelgan. Ulug‘bek madrasasida ham qobiliyatli yoshlar madrasani bitirganidan keyin mudarris sifatida olib qolingan. Jumladan, Aloiddin Ali Qushchi, Abdurahmon Jomiy, Mansur al-Koshiy va boshqalar Qozizoda Rumiy va Mirzo Ulug‘bekning e’tiboriga tushgan va shu madrasada dars bergan. Abdurahmon Jomiy bir qancha vaqt Ulug‘bek madrasasida sarf va nahvdan dars o‘tgan. U keyinchalik, mudarrislik tajribalarini umumlashtirib “*Sharhi mullo*” asarini yozdi. Aslida bu asar “*Al-Qofiya*” (“Etarli”) asariga sharh bo‘lib, XX asr boshlarida ham madrasalarda asosiy darsliklardan biri sifatida o‘qitilib kelingan.

Har bir madrasada, albatta, mutavalli lavozimi bo‘lgan. U, asosan, xo‘jalik ishlari bilan shug’ullangan. Uning zimmasiga madrasaga tegishli vaqf yerlarini ijaraga berish, undan tushadigan daromadni, shuningdek, vaqfning ixtiyorida bo‘lgan karvonsaroylar, do’konlar, tegirmon va boshqa ko‘chmas mulkdan keladigan daromadlarni oqilona taqsimlash, madrasa xodimlariga maosh,

talabalarga esa *vazifa* (stipendiya) sifatida mablag‘, oziq-ovqat mahsulotlari ajratish kabi xo‘jalik ishlarini olib borgan.

Samarqanddagi Mirzo Ulug‘bek madrasasi Movarounnahr va Xurosonning eng e’tiborli madrasalaridan biri bo‘lgan. U ikki qavatli bo‘lib, 55 nafar hujrasi bo‘lgan. Har bir hujra 2 talabaga mo’ljallangan, uch xona: yotoqxona, darsxona, qaznoq (oziq-ovqat va boshqa mahsulaotlar uchun)dan iborat bo‘lgan.

Talabalarni o‘qitishda ularni yuqorida aytilganidek, quyi, o‘rta va yuqori guruhlarga bo‘lib chiqilgan edi. Talabalarga beriladigan vazifa (stipendiya)larni ularning o‘qish saviyasiga qarab belgilangan. Madrasani rasmiy o‘qish muddati ichida tugatmagan talabalarga maosh berilmagan***[11]***.

Buxoro madrasasining vaqfnomasi hozircha noma’lum, lekin 1841-1843 yillarda Buxoroda bo‘lgan rus sayyohi N. V.Xanikovning ma’lumotiga ko‘ra, shu yillari madrasa talabalari yilida 3,5 tillo olganlar ***[12].***

Shuni ta’kidlab o‘tish zarurki, madrasalar vaqfnomalarida nafaqat iqtisodiy jihatlari, balki madrasalardagi tartib-intizom, o‘qitiladigan fanlar haqida, talabalarning uch guruh: *adno, avsat, a’lo*ga bo‘lib o‘qitilishi haqida ham so‘z yuritiladi. Demak, har bir guruhga xos o‘quv dasturi ishlab chiqilgan edi.

XV asr Movarounnahr va Xuroson madrasalarida o‘qish muddati rasman 8 yil bo‘lgan. Agar talaba shu 8 yil ichida dastur talablarini bajara olmasa, belgilangan vazifa (stipendiya) to‘xtatilgan va talaba belgilangan imtiyozlardan mahrum bo‘lgan.

Alisher Navoiy “*Vaqfiya*” asarida madrasadagi tartib-intizom haqida quyidagi ma’lumotni keltiradi: “Shart ulkim, madrasa mavolisi (egasi) madrasada batutat qilg’aylarkim, agar o‘zga yerda sokin bo‘lub, dars chog’i hozir bo‘lmasalar, muqarrar qilg’on vazifaning nisfin olg’aylar va bu madrasa va xonaqohning mudarrisidin yo‘talaba va mutavalli va shayx va huffoz va soyir amalasidin nomashru’ amre sodir bo‘lsa, ikki qatlag’acha shar’an har muvohazag’a mustavjib bo‘lsalar, anga ko‘ra bo‘lsalar, anga ko‘ra ta’zir va

ehtisob qilsunlar. Uch qatla vujud tutqondin so‘ngra ixroj qilsunlar, dag’i o’rniga yan kishi nasb qilsunlar” ***[12].***

Ko‘rinib turibdiki, madrasadagi tartib-intizom, talabalarning darsga qatnashi qattiq nazorat ostida bo‘lgan, darsga qatnashmaganlarga vazifa berish to‘xtatilgan. Agar talaba uch marta sababsiz darsni qoldirsa, madrasadan chiqarilgan, uning o’rniga munosib talaba qabul qilingan.

Xullas, madrasalarning qurilishi sababsiz emasdi, chunki Amir Temur saltanatga asos solib, uni yanada mustahkamlash uchun savodli amaldorlar, ziyolilar yetishtirishga zarurat paydo bo‘lgan edi. Amir Temur va Temuriylar davrida ta’lim tizimini rivojiga katta e’tibor qaratilgan. Amir Temur qayerda bo‘lmasin, o‘zi bilan Samarqandga ko‘zga ko‘ringan olimu-fuzalolarni olib kelib, ta’lim va fan rivojiga hissa qo‘shishlariga shart-sharoitlar yaratib bergan. O‘zidan ilgari Movarounnahrda qurilgan va turli sabablar tufayli buzilib ketgan madrasalarni tiklab, ularda talabalar ta’lim olishi uchun sharoit yaratib bergan. Amir Temurdan keyin Mirzo Ulug‘bek Movarounnahrda, Shoxrux, Sulton Husayn Boyqaro, Badi’ az-Zamonlar esa Xurosonda uning bu boradagi ishlarini davom ettirdilar. Mudarris va talabalarning ehtiyojini (maosh, taom, kiyim-kechak, yotoq, o‘qishga kerakli narsalar va b.) vaqtida davlat va vaqf tomonidan ta’minlab turildi.

Darhaqiqat, o‘rta asrlarda madrasalar ilm-u urfon va ziyo tarqatish maskanlari bo‘lgan. Hozirgi kunda yurtimizdagi universitet va institutlar yuqoridagi madrasalarning vorislari sifatida xizmat qilmoqdalar.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Вақфия. Т.14. Б.269.

2. Аҳмедов Б. Улуғбек. Эссе. Б.112-113.

3. Бартольд В.В. Улугбек и его время; Мец А. Die Renissance des Islams. 1922. Ўша муаллиф, Мусульманский ренессанс. Москва. “Наука”. 1966; Абдуллаев В., Валиходжаев Б. Дыхание веков. Самарканд. 1970;

Ihsanog'luE. Osmanli egitim muesseseleri. // Osmanli devleti vemedeniyeti tarihi. 2 cilt. Istanbul. 1998, Б.232-251 ва б.

4. Вехи времен. Альманах-89. –Ташкент. «Ғафур Ғулом». 1989. С.87; Валихўжаев Б. Самарқандда олий таълим - мадрасайи олия - университет тарихидан лавҳалар. 28-бет; Тахиров М. Педагогические взгляды Мирзы Улугбека. С.63.

5. Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. Б.50-51.

6. Матвиевская Г.П., Тллашев Х. Математические и астрономические рукописи… С.25; Юсупова Д. Жизнь и труды Хондамира. С. 97-98.

7. Ўз ФА Беруний номидаги Шарқшунослик институти фонди. Инв. Р 106 83-Ш.

8. ЎзФА Абу Райҳон номидаги Шарқшунослик Институти қўлёзмалар фонди. Инв.№10683/ III: Ахмедов Б. Улуғбек. Эссе. –Тошкент: "Ёш гвардия». 1989. Б.112-113.

9. Ўролов А., Хожихонов М. Улуғбек яратган маънавият. Б.9.

10. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи. С.157.

11. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб.1943. С.86; Бартольд В.В. Соч. Т.II. Ч.2.С.125.

12. Хондамир. Макорим ал-ахлоқ. Кембр. нашри. 133 *б*, 157 *б*-варақлар; Юсупова Д. Жизнь и труды Хондамира. С. 115.

13. Хондамир. Маъосир ал-мулук. Теҳр. нашри. 175-бет. Юсупова Д. Жизнь и труды Хондамира. С.149.

14. Хондамир. Ҳабиб ус-сияр. Теҳр. нашри. IV ж., Б.349; Юсупова Д. Жизны и труды Хондамира. С.156.

SHAHRISABZ TARIXIY MARKAZI – YUNESKO E'TIROFIDA

Madraximov Zoxid Sharofovich,
NamDU, tarix kafedrasi dotsenti, t.f.n.
E-mail: zmadrahimov1980@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizning qadimiy shaharlaridan biri – Shahrisabz tarixiy markazining 2000-yilda YUNESKOning "Butun dunyo merosi" ro'yxatiga kiritilishiga asosy sabablardan biri bo'lgan bobomiz Amir Temur davrida barpo etilgan qadimiy me'moriy yodgorliklari haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'z va iboralar: *Shahrisabz, Kesh, YUNESKO, Amir Temur, Oqsaroy, Dor us-Saodat, Gumbazi Sayidon, Ko'k Gumbaz masjidi, mustaqillik.*

Аннотация: *В данной статье приведены сведения о древних архитектурных памятниках, построенных во времена нашего великого предка Амира Темура, что является одной из основных причин включения исторического центра Шахрисабза, одного из древнейших городов нашей страны, в список «Всемирного наследия ЮНЕСКО» в 2000 году.*

Ключевые слова и фразы: *Шахрисабз, Кеш, ЮНЕСКО, Амир Темур, Аксарай, Дор ус-Саодат, Гумбази Сайидон, мечеть Кук Гумбаз, независимость.*

Annotation: *This article provides information about the ancient architectural monuments built during the time of our grandfather Amir Temur, which was one of the main reasons for the inclusion of the historical center of Shakhrisabz, one of the oldest cities in our country, in the UNESCO list. World Heritage" in 2000.*

Key words and phrases: *Shakhrisabz, Kesh, UNESCO, Amir Temur, Aksaroy, Dor us-Saodat, Gumbazi Sayidon, Blue dome mosque, independence.*

Yurtimizning qadimiy shaharlaridan biri, "yashil shahar" Shahrisabz o'zining boy tarixi va me'moriy obidalari bilan mashhur. 2002-yilda YUNESKO bilan hamkorlikda shaharning 2700 yillik yubileyi nishonlangani ham bejiz emas. Shuningdek, 2000-yilda YUNESKOning "Butun dunyo merosi" ro'yxatiga "Shahrisabz tarixiy markazi" ham kiritilgan.

Hozirgi Shahrisabz shahri dastlab temuriylar davri manbalarida "Kesh" nomi bilan qayd etilgan ***[1: 47]***. Shuningdek, "Shahrisabz" toponimi va uning etimologiyasi haqida Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida shunday yozadi: "Ba'zi tarix kitoblarida bitilmishdurkim, Kesh shahri o'tgan zamonlarda islom olimlari yig'ilgan joy bo'lgan ekan… U yerda juda ko'p imomlar va fozil kishilar ham bo'lganlar va hammalari uchun dars va aqida majlisi tuzilgan. Shu jihatdan Kesh shahri "Qubbat al-ilm val-adab" ("Ilm va odob qubbasi") degan nom olgan. Bahor chog'larida bog'lari va maysazorlarining tarovati-yu ko'rkamligi beqiyos bo'lib, ul shaharning tomlari va hovlilarigacha (ko'm-ko'k) maysa bilan qoplanadi. Shu sababdan, uni "Shahrisabz" (yashil shahar) atamishlar" ***[2: 61, 163]***.

Ma’lumki, respublikamizdagi madaniy meros ob’yektlariga boy 10 ta shahar – Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz, Kattaqo‘rg‘on, Karmana, Qo‘qon, Qarshi, G‘ijduvon tarixiy shaharlar Ro‘yxatiga kiritilgan va mustaqillik yillarida bu shaharlarning tarixiy markazlari va qo‘riqxonalari hududida katta qurilish, ta’mirlash ishlari amalga oshirildi va oshirilmoqda. Xuddi shu tartib 2002-yilda qabul qilingan “Shaharsozlik kodeksi” da ham o‘z aksini topgan. 2000-yilda Shahrisabzning Amir Temur va temuriylar davri me’morchilik yodgorliklari (24-sessiya, Avstraliya) – “Butunjahon madaniy meroslari Ro‘yxati”ga kiritildi. 2002-yilda Shahrisabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan shaharda katta ta’mirlash, bunyodkorlik ishlar amalga oshirildi. Amir Temur hukmronligi davri (1370 – 1405)da davrida Shahrisabz yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylangan. Shahar atrofi baland devor bilan o’ralib, ko‘plab me’moriy yodgorliklar barpo etilgan.

Shahrisabzdagi eng mashhur me’moriy yodgorlik shak-shubxasiz Oqsaroy hisoblanadi. Oqsaroy me’moriy majmuasi buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tomonidan bunyod etilgan. Oqsaroy o‘sha davrda qurilgan boshqa me’moriy inshootlardan o‘zining me’moriy yechimi bilan ajralib turgan. Koshinkor va parchinkor naqshlari insonni beixtiyor lol qoldiradi. Yana shuni ham aytib o‘tish lozimki, inshoot peshoqining guldor naqshlari orasiga – “Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarimizga boq”, degan so‘zlar bor. Shuningdek, saroyning bosh peshtoqidagi koshinkor morpechida eronlik koshinpaz usta Muhammad Yusuf Tabriziyning nomi ikki joyda zikr etilgani aniqlangan. Oqsaroy rivojlangan o‘rta asrlarning so‘nggi davrida, 1380 – 1404-yillar oralig‘ida bunyod etilgan ***[3]***.

Obidaning o‘ziga xos tomonlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Amir Temur o‘z davlatining shon-shuhrati uchun uning markaziy qismi bo‘lgan Movarounnahrning obodonchiligiga alohida e’tibor beradi. Shu maqsadda Hindistondan olib kelingan yuzlarcha mohir g‘isht teruvchilar, Sheroz, Isfahon va Damashqning mashhur usta-hunarmandlari qatorida mahalliy ustalar ham mamlakatda go‘zal barpo qiladilar.

Bundan tashqari, manbalarda aytilishicha, obida Amir Temur va temuriylar tomonidan bunyod etilgan me’morchilik odidalarining eng balandi bo‘lib, uning balandligi 70 metrni tashkil qilgan ***[3]***.

Oqsaroy kirish peshtoqining janubida olib borilgan arxeologik qazishmalar, unga yondoshgan polning serhasham, naqshinkor koshin qoplama bezagini ochib berdi. Oqsaroydan hozirda faqat peshtoqning ikki asosi saqlanib qolgan bo‘lsada, ular o‘lmas taassurot qoldiradi. O‘z davrida ular oralig‘ida eni 22 metrli ravoq qurilgan. Asoslari ikki chekkasi, osti ko‘p qirralik, yuqorisi aylana guldasta burjlar bilan tugallangan ***[3]***.

Bugungi kunda Oqsaroyning peshtoq, ark qismi mavjud emas. U XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning 40-yillarida tushib ketgan va hozirgi holatdagi ko‘rinishga kelib qolgan. Hozirda Oqsaroyning ikkita tayanch qismi mavjud bo‘lib, uning balandligi 38 metrni tashkil qiladi. 1996-yil Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan Oqsaroy ro‘parasida Amir Temur haykali o‘rnatildi. Bu inshoot atrofi bugungi kunda obodonlashtirilgan, turli joylardan tashrif buyurgan sayohatchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda ***[3]***.

Shahrisabzning noyob me’moriy inshootlaridan biri – Dor us-Saodat majmuasi hisoblanadi. Dor us-Saodat majmuasi Amir Temur tomonidan bunyod etilgan (1379 – 1380) Shahrisabzdagi yirik me’morchilik inshootlaridan biri. Dor us-Saodat – saodatmandlar maskani, davlatmandlar saroyi, sayyidlar uyi ma’nolarini anglatadi. Uning qurilishi 1379-yili boshlangan. Unda mahalliy ustalar bilan birga Xorazmdan olib kelingan ustalar ham qatnashganlar. Amir Temurning maqsadi ona shahrida o‘zining hazirasini yaratish edi. 1376-yilda bevaqt halok bo‘lgan sevimli katta o‘g‘li Jahongir (1356-yil yozi – 1376-yil o‘rtalari)ning qabri Shahrisabzga ko‘chirilib keltirilgan. Keyinchalik u yerga Amir Temurning boshqa o‘g‘li – Umar Shayx ham dafn etilgan ***[4]***.

Inshoot rivojlangan o‘rta asrlarning oxirlarida, temuriylar davrida bunyod etilgan bo‘lib, uning qurilishida pishgan g‘isht, marmar, tosh, yog‘och va boshqa

ashyolardan foydalanilgan. Binoning bosh tarzida Oqsaroydan qolishmaydigan mahobatli peshtoq qurilgan, uning har bir asosida esa maqbara joylashtirilgan. Markaziy peshtoqdan mo‘jazgina hovliga kirilgan. Uning qarama-qarshisida markaziy o‘q bo‘ylab qachonlardir baland gumbazli maqbara bo‘lgan, hozirda uning faqat daxmasi saqlanib qolgan. Dor us-Saodatning ikki yonida keng xonalar mavjud bo‘lganligi arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan. Ulardan birining ostida yana bir daxma ochilgan, uning ustida ham maqbara bo‘lgan. Maqbara va xonalarni bir-biri bilan bog‘lash vazifasini bajargan ***[4]***.

Majmua XIV – XV asrlarga xos bo‘lgan va hukmdorlarning yirik allomalar qabri yoniga ko‘milish sharaf hisoblanib, hazira turida bunyod etilgan inshootdir. Dor us-Saodat majmuasida hozirda kirish peshtog‘ining Jahongir maqbarasi joylashgan chap asosi hamda binoning poydevor qoldiqlari saqlanib qolgan. Jahongir maqbarasining ichkarisi kvadrat tarhli bo‘lib, to‘rt tarafi ravoqli toqilardan iborat. Uning uch gumbazli tizimi o‘ziga xosdir: ganchdan qolibkori usulida qilinib, yog‘och bilan g‘isht qatlamiga mahkamlangan bezakli gumbaz, uning yuqorisida esa g‘ishtdan terilgan o‘rta gumbaz va yana uning ustiga baland qirrali asosga joylashgan. Maqbara ostida daxma joylashgan.

Majmuaning markaziy o‘qida joylashgan va yuqorida qayd etilgan daxmani Amir Temur o‘zi uchun qurdirgan edi. Lekin taqdir taqozosi bilan u Go‘ri Amirda dafn etilgan. Jahongir maqbarasining sharqidagi qazishmalarda yana bir daxma, sakkiz qirrali xona devorlari, qabr toshlar, pol qoplamalari topildi. Daxma markazida marmardan yasalgan tobut joylashgan, uning og‘ir qopqog‘ining yonlari o‘yma naqshlar bilan bezatilgan, ammo kelgusida tarix yoziladigan yoqori qismiga ishlov berilmagan. Daxmaning shifti – “darbozi” usulidagi chodirsimon gumbaz ko‘rinishida bajarilgan.

Mustaqillik yillarida Amir Temurning 660 yilligi hamda Shahrisabz shahrining 2700 yillik yubileyini o‘tkazish maqsadida Dor us-Saodat majmuida keng ko‘lamli arxeologik qazishmalar, ilmiy izlanishlar, konservatsiyalash va ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. Majmuadagi ramziy Temur sag‘anasi, Jahongir

Mirzo qabri bilan o‘rni – andomi yasalib, barcha imoratlarning poydevorlari tiklandi ***[5: 88]***.

Gumbazi Sayidon maqbarasi – Shahrisabzning qadimiy me’moriy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Gumbazi Sayidon maqbarasi o‘zida aks etgan yozuvlarga qaraganda, temuriylar davrida, 1437 – 1438-yillar oralig‘ida bunyod etilgan. Maqbaraning hajmi mutanosib nisbatlarga egadir. Tashqarisi kub shaklida bo‘lib, gardish asosga tik gumbaz o‘rnatilgan. Ichkarisida esa chorsu tarhli xonaning to‘rt devori bo‘ylab ravoqli tokchalar joylashtirilgan. An’anaviy sakkiz qirralik ustidagi ravoqli bag‘allarga ichki tik gumbaz o‘rnatilgan. Maqbaraning bosh tarzi g‘arbga, hovliga qaratilib, peshtoq bilan belgilangan. Peshtoq va gumbaz asosida sirkor g‘ishtin qoplamalarning qoldiqlari saqlanib qolgan. Ichki bezagi esa Ulug‘bek davriga xos: devorlari, gumbaz osti qurilmalari va gumbaz qubbasi oq asosga, ko‘kish rangda tushirilgan naqshlardan iborat bo‘lib, ba‘zi yerlarida tilla suvi yuritilishiga tayyorlangan qizil kesakning qizg‘ish rangi ko‘rinib turadi. Bezakning asosiy naqshi girrih bo‘lib, uning ko‘p qirralik va yulduzsimon shakllari oralig‘iga islimiy naqshlar, shoxlagan daraxtning tasviri tushirilgan. Xitoy chinnisiga monand oq asosdagi ko‘kish naqshlar Temur davrining turfa rang, tilla suvi yuritilgan bezaklaridan farq qilib, XV asrning birinchi yarmiga xos bo‘lgan bezaklarga o‘xshashdir ***[6]***.

Yodgorlikning nomlanishida arab grammatikasining “Jumlai mutariza” deb ataluvchi yashirin qoidasi qo‘llaniladi. Qizig‘i shundaki, “Gumbazi Sayidon” maqbarasining nomlanishi va “Muborak Sultonning avlodlari”dagi yozuvlarda ma’lum bir yaqinlik mavjud.

Gumbazi Sayidon mozori ichida bir qancha qabrtoshlar bo‘lib, ularning birida Abu Maoliy va uning ajdodlari, nomma-nom bitilgan. Bu qariyb sakkiz asrni o‘z ichiga oladi. Termiz sayyidlari nomi bilan shuhrat qozongan mashhur sulola vakillarining kelib chiqishi Islom dini asoschisi Muhammad (s. a. v.) payg‘ambar va ularning qizlari Fotima, kuyovlari hazrati Alilarga borib taqaladi. Qabrtoshda ularning vafot etgan yili ham yozilgan ***[6]***.

2002-yilda qabul qilingan – “Shaharsozlik kodeksi” da Gumbazi Sayidon maqbarasiga ham alohida o’rin ajratilgan. 2002-yil Shahrisabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan maqbara atrofida bir qator ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.

Shahrisabzning yana bir mashhur, qadimiy arxitektura inshooti Ko‘k Gumbaz masjidi hisoblanadi. Ko‘k gumbaz masjidi temuriylar hukmronligi davrida, Shahrisabzdagi Shamsiddin Kulol maqbarasining qarama-qarshisiga Mirzo Ulug‘bek tomonidan 1434 – 1435-yillarda barpo qilingan. Mirzo Ulug‘bek Ko‘k gumbaz masjidini otasi Shohrux Mirzo nomidan bobosi Amir Temur sharafiga bunyod etgan. Masjidning asosiy qurilishi ta’kidlanganidek, Mirzo Ulug‘bek tomonidan yakunlangan ***[7: 126]***.

U jome’ masjidi vazifasini o‘tagan. Masjidning tarhi chorsu shaklida bo‘lib, yon devorlariga toqilar joylashtirilgan. Yuqorisiga qarab, tik devor, burchaklari qalqonsimon bag‘alli, bag‘allar qatori hamda 16 qirralik asosdan baland gumbazga o‘tilgan. Inshootning qurilishida pishgan g‘isht, har xil o‘lchamdagi toshlar, yog‘och, marmar va boshqa ashyolardan foydalanilgan. G‘arbiy devorida mehrob qilingan, uning tashqarisi esa, berk peshtoq ko‘rinishini olgan. Binoning birchak asoslariga tomga chiqadigan aylanma zinalar joylashtirilgan. Ichki gumbaz tashqarisidan, kvadratning ustidagi sakkiz qirralikda mahobatli asosga joylashtirilgan va moviy sirkor g‘ishtchalar qoplangan gumbaz ko‘rinishini olgan. Masjidning kirish qismi sharq tomondan bo‘lib, u baland peshtoqli qilingan. Peshtoq bezagini asosan sirkor g‘ishtlardan terilgan girrih naqshlar tashkil qiladi. Uning burchagi nim ustunlariga, ravoq qanoslari va arabiy yozuvli hoshiyalariga mayolika ishlatilgan ***[8]***.

Dastlabki olib borilgan tadqiqotlar Ko‘k Gumbaz masjidi XIV asrda mavjud bo‘lgan Jome’ masjidi o‘rnida bunyod etilgan degan xulosani bergan bo‘lsa, 1976 – 1981-yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida masjid Qoraxoniylar davridagi X – XII asrlar me’morchiligida keng qo‘llanilgan to‘g‘ri burchakli g‘ishtdan iborat oldingi masjidning poydevori ustiga bunyod etilganligi aniqlandi.

Bundan tashqari uning devorlaridagi rangli koshinlar parchasi va kuydirilgan jigarrang gil bo‘laklari ham yuqoridagi taxminlarni tasdiqlaydi. Zero, bunday koshin kuydirilgan jigarrang gil Afrosiyobda XII asr masjidlarini qazish paytlarida ham topilgan. Ular Buxorodagi Mag‘oki Attor masjidining (XII asr) ravoqlarida, Chashmai Ayub maqbarasi (XII asr) peshtoqlarida uchraydi. Shuningdek, masjidning janubi-sharqidagi ustun ostidan ham shu davrga oid me’morchilik-kulolchilik namunalari – o‘yma naqshlar va nur sochayotgan yulduzga o‘xshash rang-tasvirlar bilan to‘yintirilgan jigarrang sopollar topilgan ***[8]***.

Jome’ masjidi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bir necha marta ta’mirlangan. Buxoro amiri Abdulahadxon tomonidan masjid hovlisiga yangi kirish qismi (1904 – 1905), hovlining shimoliy tomonida sakkizta hujra (1909), keyinroq hovlining sharqiy tomonida (1910) yana bir qancha hujralar qurilib, ulardan bizgacha beshtasi saqlanib qolgan. Amir Olimxon tomonidan esa hovlining shimoliy tomonida yana ikkita hujra bunyod etiladi. Amir Olimxon (1910 – 1920) esa hovlining shimoliy tomonida yana ikkita hujra bunyod ettiradi. Keyingi yil-larda ham masjid binosida ta’mirlash ishlari olib borilgan. Ammo asosiy ta’mirlash ishlari Amir Temur tavalludining 660 yilligi hamda Shahrisabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan ta’mirlanib, keng ko‘lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshirilgan.

Xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkinki, yurtimizning qadimiy shaharlaridan biri, “yashil shahar” Shahrisabz o‘zining boy tarixi va me’moriy obidalari bilan mashhur. Kesh ya’ni Shahrisabzning dovrug‘ini butun dunyoga yoyishda, uni dunyoning go‘zal shaharlaridan biriga aylantirishda Amir Temurning xizmatlari beqiyos bo‘ldi. Amir Temur hukmronligi davri (1370 – 1405)da davrida Shahrisabz yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylandi. Shahar atrofi baland devor bilan o’ralib, ko‘plab me’moriy yodgorliklar barpo etildi. E’tiborlisi, YUNESKO e’tiboriga tushgan Shahrisabzdagi me’moriy yodgorliklarning deyarli barchasi Amir Temur va temuriylar davriga tegishli. Shahrisabzning e’tirof etilgan, nomini dunyoga tanitgan me’moriy inshootlariga noyob me’moriy durdona

Oqsaroy (1380 – 1404), Dor us-Saodat majmuasi (1379 – 1380), Gumbazi Sayidon maqbarasi (1437 – 1438), Ko‘k Gumbaz masjidi (1434 – 1435) kabi yodgorliklarni alohida qayd etishimiz mumkin.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Юлдузча, 1989.

2. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Т.: Шарқ, 1997.

3. Oqsaroy // https://uz.wikipedia.org/wiki/Oqsaroy_(Shahrisabz)

4. Dor ussiyodat // https://uz.wikipedia.org/wiki/Dor_ussiyodat

5. G‘afforov Sh., Yunusov M., Sharipov S., Saidov M. O‘zbekiston arxitektura yodgorliklari tarixi. – Samarqand: O‘zRFA Arxeologiya instituti, 2011.

6. Gumbazi sayidon // https://uz.wikipedia.org/wiki/Gumbazi_sayidon

7. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. Тарихий очерк. – Т.: Қомуслар, 1994.

8. Ko‘k gumbaz masjidi // https: // uz.wikipedia.org /wiki / Ko’k_gumbaz_ masjidi_(me’moriy_yodgorlik)

TEMURIYLAR DAVRI BAYRAMLARI

Qosimjonova Nodirabegim Farxodjon qizi

FarDU Tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Bayram va marosimlar har qaysi davrda mavjud bo‘lgan. Hamda qaysi davlat yoki millat ularni to‘g‘ri baholay olib, yanada sayqallanishiga hissa qo‘sha olgan bo‘lsa, o‘sha davlat, millat faqat taraqqiy etgan. Amir Temur va Temuriylar davrida ham bayramlarning mohiyati anglandi va to‘g‘ri baholandi. Amir Temurdan boshlab toki boshqa Temuriyzodalarga qadar bu tadbirlar amalga oshirildi. Misol uchun hozirgi kunda ko‘zimizni quvnatadigan, faxrlanib ko‘rsatadigan hamda turizmning asosiy omilkori bo‘la olayotgan muhtasham binolarimiz aynan Temuriylar davrida tashkil etildi. Masalan Ko‘ksaroy, Bibixonim masjidi, Shohizinda mavzeyi. Bularning barchasi to‘y , marosim, sayli, bayramlar o‘tkazish uchun barpo etilgan. Hattoki Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zga yurtdaligi davrida, ya’ni Agrada Navro‘z bayramini katta tantana qilib nishonladi va bu orqali ajdodlarimiz an’analarini dunyoga yoyishga o‘z hissasini qo‘shdi.*

Kalit so‘z va iboralar: *“Zafarnoma”, shahzodalar, Qurultoy , Samarqand, Hamadon, Kabutar, Husayn Boyqaro, qovun sayli, Boburnoma , ramazon*

Аннотация: *Праздники и церемонии существовали во все времена. И любая страна или нация, которая сумела их правильно оценить и способствовать их дальнейшему совершенствованию, та страна, нация только прогрессировала. Ядро и самобытность государства и нации восходят к культуре. Поэтому необходимо взращивать эти праздники, адаптировать их ко времени и передавать их следующему поколению. Во времена Амира Темура и Тимуридов сущность праздников была понята и правильно оценена.Эти действия проводились от Амира Темура к другим Темуризада.Например, наши великолепные здания, радующие наш взор и являющиеся основным фактором туризма, были построены в эпоху Тимуридов.Например, Коксарой, мечеть Бибиханум, район Шахизинда.Все они построены для свадеб, церемоний, вечеринок и праздников.Еще Захируддин Мухаммад Бабур с размахом отпраздновал Новруз во время своего пребывания за границей, то есть в Агре, и тем самым способствовал распространению в мире традиций наших предков.*

Ключевые слова и фразы: *«Зафарнама», Князья, Курултай, Самарканд, Хамадан, Кабутар, Хусейн Бойкара, Дыня Продажа, Бабурнама, Рамадан.*

Annotation: *Celebrations and ceremonies existed in every era. And any state or nation that has been able to evaluate them correctly and contribute to‘their further refinement, that state, nation only developed. That is, this holiday, rituals are a sign of culture. The core and identity of the state and the nation go back to culture. So, these celebrations can only be grown, adapted to‘the times and the future It is also necessary to deliver for the generation. During the time of Amir Temur and the Timurids, the essence of holidays was understood and correctly evaluated. These activities were carried out from Amir Temur to other Temurizadas. For example, it is the main factor of tourism, which pleases our eyes and shows us with pride Our magnificent buildings were built during the Timurid era.For example Koksaroy, Bibikhanim mosque, Shahizinda area. All of these are built for weddings, ceremonies, parties, and holidays. Even Zahiriddin Muhammad Babur, during his stay in another country, in Agra, celebrated Nowruz with a grand ceremony and thereby contributed to spreading the traditions of our ancestors to‘the world.*

Key words and phraes: *“Zafarnama”, princes, Qurultay, Samarkand, Hamadan, Kabutar, Husayn Boykara, melons, Baburnama, Ramadan.*

O‘rta asrlarda davlatchilik rivoj topishi natijasida mamlakat ijtimoiy-siyosiy voqealari, davlat rahbari (podshoh, shoh, xon, amir) hayotiga bog‘liq bayram va marosimlar keng nishonlana boshlagan. Podshohning taxtga o‘tirishi, bosqinchilardan vatanning ozod qilinishi yoki boshqa hududning bosib olinishi, shahzodalarning dunyoga kelishi, ularning sunnati va uylanishi kabi voqealar keng tantana qilingan. Bunday shodiyonlar Xorazmshohlar (XI – XIII asrlar), Temuriylar (XIV – XVI asrlar), shayboniylar (XVI asr) va Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari (XVIII – XIX asrlar) davrida katta tantana bilan o‘tkazilgan. Bunday tantanalar keng xalq ommasi uchun ham uyushtirilib, ularda davlat rahbarlari o‘zlarining oliyjanobligi, sahiyligi va xalqparvarligini ko‘rsatish barobarida o‘zlarining kuch – qudrati, boyligini targ‘ib qilgan. Temuriylar davrida iqtisodiy hayot, fan (astronomiya, matematika, mantiq, falsafa, tarix, fiqhshunoslik, ilmi aruz) adabiyot, san’at, me’morchilik, miniatura, hattotlik ravnaq topib, an’ana, marosim va bayramlar yanada ko‘paydi. Amir Temur Movarounnahr va Xurosondagi elatlar, urug‘lar, shahar va qishloq aholisi, o‘troq va ko‘chmanchilarni birdam qilish, markazlashgan davlatni mustahkamlashga qaratilgan har qanday ijtimoiy harakat, san’at, marosim, urf – odatlarni qo‘llab quvvatlaydi. Xalq ruhini ko‘taruvchi bayramlar, sayillar, to‘y va tantanalarga ham yetarli e’tibor bergan.

Bu davrga oid qadriyatlar, urf – odatlar va bayram, marosimlar haqidagi ma’lumotlarni Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridan ko‘p ma’lumotlarni olamiz. Misol uchun Ali Yazdiy o‘z asarida Amir Temur hayotidagi ko‘plab to‘ylar haqida ma’lumotlar beradi. Bu to‘ylarni 3 ga bo‘lish mumkin:

1. Temur hayoti bilan bog‘liq to‘ylar
2. Temur farzandlari va nevaralari hayoti bilan bog‘liq marosimlar
3. Davlat va din ishlari bilan bog‘liq bayramlar

Amir Temur shaxzodalarga kelin tanlash va ularni katta to‘y qilib uylantirishga alohida e’tibor bergan. “Zafarnoma”da Shahzoda Jahongir Xonzoda xonim bilan zifof (tantanali nikoh to‘yi) haqida quyidagilar bayon etilgan: “Beklar

to‘y tartibiga mashg‘ul bo‘lub, ancha chodir va shomiyona va oq uy tikdilarkim, falakning yulduzlaridin ko‘brak. Va xossa uchun bir oq uy ko‘k kibi tikdilarkim, ichida tashi la’lu javhar bilan murassa erdi. Moh yuzluq soqiylarning karashmalari achchiq jog‘irning nash’asi bilan bir bo‘lub, oshiqlarning aqlu xushlarini talab eltur erdilar. Va mutriblarning nag‘malari navo ohangi bilan oshiqlarni behush ertar erdilar. Ulamoi fuzalo soatda ul hazratning majlisida shar’iy mutahhara yo‘suni bilan ul oyni shahzoda bilan aqd bog‘ladilar. Va har soriddin “ Muborakbod” deb, duoyu sano unini ko‘kka ketkuzdilar. Bas, anjumani hisraviy xilvat eviga kirdi va olam qaro burunchak boshiga bordi.

Dema kechakim, ul shabi qadr edi,
Bari yulduzu har biri badr edi.
Saodatparvar erdi ul dam spehr
Yurur erdi mah xizmatida va mehr ***[1:75-76]***.

Sharafiddin Ali Yazdiy Temurning o‘g‘illari va nabiralarining Samarqandda bo‘lib o‘tgan bir to‘yi marosimini ham g‘oyat nozik did va ustalik bilan tasvirlaydi. Bayram tusini olgan bu to‘yda mashhur san’atkor Xo‘ja Abduqodir boshchiligida *turkcha, forscha, mo‘g‘ulcha, xitoycha, arabcha* qo‘shiq va raqslar ijro etilgan. Muallif to‘y va bazmini hayajon bilan ta’riflab, mehmonlar oldida oltin va kumush suvi yugurtirilgan idishlarda turli taomlar tortilganini, sharob va musallaslar ko‘p quyilganini yozadi. Bu to‘y ham 2 oy davom etdi. “Bunday to‘yni – deb yozadi muallif, - hatto *Afrosiyob* hamda *Faridun* zamonida ham hech kim ko‘rmagan va eshitmagan”. Shu to‘ydan so‘ng Temur farmon e’lon qilib, mamlakatning barcha joyida sharob ichishni taqiqlaydi. Chunki sharob odamlarni ishdan qoldirib, har xil buzg‘unchiliklarni, g‘araz niyatlarni keltirib chiqaradi ***[2:21].***

Sohibqiron Turkiyaning Mingko‘l dashtida ekanligida o‘g‘li Shohruxdan yangi shahzoda tug‘ilganini eshitib, shu voqeaga bag‘ishlab, u yerda to‘y bergan. Beklar Sohibqironni shahzoda bilan muborakbod qilishganidan so‘ng u to‘y tantanalarini o‘tkazishga hukm qildikim, “ Har nekim kerak bo‘lsa, muhayyo qilsunlar!” Sohibqiron o‘z faoliyatida a’yonlari bilan kengash qilish, qurultoy

o‘tkazishga alohida e’tibor bergan. Amir Temur harbiy yurishni boshlashdan oldin albatta qurultoy o‘tkazgan. Kengashdan so‘ng qurultoy chinakam bayramga aylanib ketgan. Bu haqida Sharafiddin Ali Yazdiy o‘z asarida ma’lumot bergan. Hatto Sohibqiron o‘z saltanati hududidagi mamlakatlarni avlodlariga bo‘lib berganida albatta *hosil to‘yi* marosimini o‘tkazgan.

Amir Temur *diniy bayramlarni* o‘tkazishga alohida e’tibor bergan. Bu xususida ham “Zafarnoma”da ko‘pgina ma’lumotlar mavjud. Masalan: “ Shanba kunikim, Iyd erdi (12.04.1404), namoz o‘qub, mavlono Nizomiddin Shibliykim, ulomolar ichida mashhur erdi, xutba o‘qudi. Va namozdan so‘ng suhbatlar tutib, Iyd qildilar, rahbarlar tortib, majlisdagi fozillarga inoyat qildi. “Amir Sohibqiron Hamadon viloyatiga yetib, (798 yil) ramazon oyini (1396 yil, 6-8 iyun) u joyda o‘tkazdi. Iyd namozini o‘qish vazifasiyu ibodat marosimini ado etdi. Iyd bayramini o‘tkazish buyurdi”. Amir Temur xudoyi qilish, qurbonlik, xotirlash marosimlarini o‘tkazishga ham alohida e’tibor bergan. Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Bobur kabi temuriyzodalar ham tarixda yorqin iz qoldirishgan. Ularning to‘y – tomosha va bayramlar tashkil qilish bo‘yicha tajribalari ham diqqatga sazovordir. Mirzo Ulug‘bek davrida Navro‘z sevimli bayram bo‘lganligini shoir Sakkokiy o‘z qasidasida bayon etgan. Uning Ulug‘bekka bag‘ishlab yozgan qasidasining Navro‘zga oid bobida quyidagi misralar bor:

Guliston ahlina bir kun erur ham iydu Navro‘z,
Ular gul sochdilar, man ham keturdim hush bu halvoni.

Husayn Boyqaro bayramlar, to‘ylar, tomoshalar, o‘yinlarni juda hush ko‘rgani o‘sha zamon muarrixlari kitoblarida bayon etilgan. U xalq bayramlari uchun maxsus sayilgoh, o‘yingoh, tomoshagohlar ham barpo ettirib, ularda o‘zi ham ishtirok etgan. Alisher Navoiy o‘z ijodida ham, amaliy faoliyatida ham, xalq bayramlari va sayillariga katta ahamiyat bergan. Jumladan uning:

Har tuning qadr o‘lubon, har kuning o‘lsun Navro‘z!

degan misralari barcha ma’lum. Alisher Navoiy “Tarixi muluku ajam” asarida Navro‘z va boshqa bayramlar tarixiga to‘xtaladi. Navoiy ko‘p asarlarida

Navro‘zga murojaat qiladi. Shu bois uni “Navro‘z kuychisi” desak bo‘ladi. Chunki u bayramga atab ajoyib baytlar bitgan ***[3:47].***

Amir Temur Samarqandda *Ko‘ksaroy*, *Bibixonim* masjidini, *Shohizinda* mavzeyini, Samarqand atrofida *Bog‘i Chinor, bog‘i shamol, bog‘i Dilkusho, bog‘i Behisht, bog‘i nav* kabi bog‘ va saroylarni qurdirgan va bu joylar to‘y, marosim, sayil, bayramlar o‘tkazish uchun qulay manzillarga aylantirilgan. Hattoki “Boburnoma”asarida Boburning Agrada (1528 yil) Navro‘z bayramini katta tantana bilan nishonlaganini ma’lum qilingan ***[4:12].*** U bu bilan ajdodlar an’analarini dunyoga yoyishga o‘z hissasini qo‘shgan. Huddi shu kabi boshqa temuriyzodalar ham aynan bayram va marosimlar tashkil qilishga katta ahamiyat berishgan va buning salmog‘ini to‘g‘ri baholay olishgan.

Temuriylar davri bayramlari, tadbirlari haqida mulohaza qilar ekanmiz, bu davlatning mavqei qanchalik yuqoriga ko‘tarilganligi hamda har bir davlat tepasida turgan hukmdorning urf – odatlarga e’tibori, ularni rivojlantirishga qo‘shgan hissalari davlatchilikning rivojlanishiga ham muhim omil bo‘lib xizmat qilganiga guvoh bo‘lamiz. Misol uchun Temuriylar avlodidan bo‘lgan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ham to‘y va bayramlar, ayniqsa, *Qovun sayli*ni o‘tkazishga alohida e’tibor bergan. Boburning bolaligidan *Qovun sayliga* Ishtiyoqi baland bo‘lgani haqida quyidagi afsona mavjud. Kunlardan bir kuni podshoh Umarshayx o‘z saroyida ayonlari va mashhur kishilar bilan suhbatlashib o‘tirar edi. Birdan bug‘otga kabutar kelib qo‘nadi. U o‘ymakor naqshlar bilan bezatilgan hariga tushib, “g‘urq- g‘urq” deb ovoz chiqaradi. Umarshayx o‘z ayonlaridan “ kabutar nima demoqda”- deb so‘raydi. Uzoq davom etgan osoyishtalikdan so‘ng mol – dunyo ilinjida qonli urushni qo‘msab qolgan ayonlar: “ hazrati oliylari! Kabutar qilichlarni yalang‘ochlab, yurish qilishga chorlamoqda”, javob qaytarishdi. Shu paytgacha sukut saqlab o‘tirgan yosh shahzoda Bobur ohista javob berdi: “ yo‘q, kabutar urushga chorlamayapti. Bu bilan bizni mo‘ysafid bobomiz *qovun sayliga* taklif etmoqda”. Shoh Umarshayx kabutarni tutish va huzuriga olib kelishni buyurdi. Kabutarni tutib olishganida uning oyog‘ida xat

bitilgan mis halqa borligi ma’lum bo‘ldi. Hamda shunday so‘zlar yozilgan edi: “Oliy hazrat! Qovunlar pishdi. Tashrif buyurishingizni so‘raymiz”. Davlatpanoh Umarshayx o‘z o‘g‘lining ziyrakligiga qoyil qoldi va so‘radi: “ Mirzo, bizga aytinchi, kabutar xat olib kelganligini qanday bildingiz? padari buzruk bor,- dedi Bobur,- siz kabutarga diqqat bilan qaramadingiz. Bu kabutar o‘tgan yili ham huddi shunday uchib kelib, xursandchilik xabarini yetkazgan edi. Men uni o‘ng qanotidagi qora dog‘idan tanib qoldim”. Umarshayx vazirlariga: “Qilichni qinidan chiqarib chopishni emas, fikr yuritishni o‘rganish kerak. Ey mulozimlar, barchaga ma’lum qiling, *Qovun sayli*ga borishga tayyorlanishsin”- dedi. Bu afsona yuqoridagi fikrimizga yaqqol isbot bo‘la oladi. Bobur bahorda *gul sayillari,* yozda *sayohat, suv sayli,* kuzda *qovun sayli, uzum sayli, xazonrezgi,* qishda – *ov, gap-gashtak* larda qatnashishni juda yaxshi ko‘rgan ***[5: 43]***. U Afg‘oniston, Hindistonda bo‘lgan chog‘larida vatanidagi odatlar, marosimlar, bayramlarni u yerlarda ham tashkil qilishga harakat qilgan. Va bu siyosatning natijasi hozirgi hayotimizda ham o‘z aksini topadi. Ya’niki Temuriylar davrida yurtimiz hududlarida *uchinchi Renessans* jarayonining sodir bo‘lishi aynan hukmdorlarning madaniyat, ilm – fan sohalariga e’tibori o‘laroq yuzga keldi va rivoj topdi.

O‘rta asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari madaniy hayoti ravnaq topgan. Ayni shu davrda ularning bayram – marosimlarida rivojlanish yuz bergan. Ayniqsa IX – XII asrlar va XIV – XV asrlarda bu o‘lkada bayramlar juda katta tantanalar bilan nishonlangan. Bu davrda o‘lkada islom dini keng yoyilib, ushbu dinga xos *Ro‘za Hayiti, Qurbon hayiti, Ramazon* kabi bayramlar xalq hayotidan o‘z o‘rnini topdi. Bayramlarni tashkil qilish uchun “ Namozgoh”, “ Iydgoh”, “ Muasalla- Iyd” kabi shahardan tashqari maskanlar barpo etildi. Xalqning qadimiy bayramlari (Navro‘z, Sada, Mehrjon) o‘rta asrlar boshida saqlangan bo‘lsa- da, keyinchalik din arboblarining bu bayramlar o‘tkazilishiga qarshi kurashi natijasida ular o‘z mavqeini yo‘qota boshlagan. “Navro‘z”ning esa tabiat o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liqligi tufayli uni taqiqlash, xalq hayotidan siqib chiqarish samara bermagan. “Navro‘z” o‘rta asrlarda ham xalqning sevimli bayrami bo‘lib

qolgan. Davlatchilik rivojlanishi natijasida hukmdorlar hayotiga bog‘liq to‘ylar, uning farzandlari va nevaralari hayoti bilan bog‘liq marosimlar va davlat miqyosidagi ijtimoiy – siyosiy voqealarga bo‘liq bayramlarni o‘tkazish keng yoyilgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Sharafiddin Aliy Yazdiy. Zafarnoma. – T.: “Sharq”, 1997.
2. Ibrohim Mo’minov, Amir Temurning O‘rta Osiyo‘tarixida tutgan o’rni va roli. – T.: “Fan”. 1993.
3. Shodiyev B. Navro‘zi olam. – T.:1998.
4. Bobur Z.M. Boburnoma. – T.: 1990.
5. Mahmud Sattor. O‘zbek udumlari. – T.: 1992.
6. Eshonqulov J.. Navro‘z qo‘shiqlari. Tatqiqot – majmua. – T.: O‘zbekiston. 2011.
7. Murodova M. Xalq ijodiyoti. – T.: O‘zbekiston. 2015.
8. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.
9. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).
10. Valiyevich, Y. S., & Azamatjon, O. (2022). Theoretical And Practical Prospects For The Development Of Ethnoturism In Uzbekistan. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(4), 21-24.
11. Yo‘ldashev, S., & Dilshodjon, M. (2022). Ta’lim Tizimida Innovatsion Texnologiyalarining Ahamiyati. Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal, 3(6), 427-431.

12. Юлдошев S., и Бобоев M. “Туркестанский сборник” Как важный источник в изучении истории Узбекистана». Актуальные проблемы истории Узбекистана, т. 1, вып. 1, январь 2023 г., сс. 461-7.

13. Bekmirzaev, R. B. (2021). Factors affecting nation-building relationships in Fergana Valley. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 122-125.

14. Bekmirzaev, R. B. (2021). Traces Of Archaic Religions In The Modern Way Of Life Of The Peoples Of The Ferghana Valley. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(11), 41-46.

15. Bekmirzaev, R. B. (2022). Socio-Economic Causes Of Ethnic Conflicts In The Ferghana Valley. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(06), 135-138.

16. Bekmirzaev, R. B. (2022). Historical and political problems of the Ferghana valley. Asian Journal Of Multidimensional Research, 11(6), 104-106.

17. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

18. Begalievich, B. R. (2022). Inter-ethnic conflicts in the south of the Kyrgyz Republic. Eurasian Research Bulletin, 14, 51-56.

19. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

20. Бекмирзаев, Р. (2022). Yangi O‘zbekistonda millatlararo‘totuvlik va dinlararo bag ‘rikenglikni mustahkamlashning huquqiy asoslarini yaratilishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 585-593.

21. Abdunosirova O. Shohrux mirzoning ilmiy va ijodiy qarashlari. O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolari, xalqaro ilmiy-nazariy konfreensiya materiallari. – Farg‘ona , 2022. – B.172-179

22. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА

МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

23. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

24. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

25. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

26. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

27. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

28. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

29. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

30. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

31. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

32. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

33. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

34. Abdunosirova O.B. ON THE SPONSORSHIP ACTIVITIES OF THE TEMURIAN PRINCE. Asian Journal of Multidimensional Research 1(11), 2022.

35. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

36. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

37. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

38. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

39. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

40. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

41. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

42. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

43. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

44. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

45. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

46. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

47. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

48. Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

49. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

ТЕМУРИЙ ДАВРИДА ҲАРБИЙ МАҲОРАТ ВА ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИ

Эгамбердиева Турғуной Аҳмаджоновна
ФДУ педагогика фанлари доктори, профессор,

Йўлдошев Салимжон Валиевич
ФДУ тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: *Мазкур мақолада асрлар давомида сайқалланиб борган халқ ўйинларнинг ҳарбий маҳоратни шакллантиришдаги роли асосида мушоҳада юритилади. Амир Темур ва темурийлар даврида мавжуд бўлган айрим ўйинлар тарихи илмий асосда ўрганилган бўлиб, ёш авлодни жисмоний ва маънавий тарбияси ҳамда ҳарбий маҳоратини ошириш билан боғлиқ жараёнларни чуқурроқ идрок этишга имкон беради.*

Калит сўз ва иборалар: *халқ ўйинлари, маънавий, жисмоний тарбия, чаққонлик, тиришқоқлик, эмоционал, ватанпарварлик, “Байроқни қўриқлаш”, “Тузоқ” ўйинлари, турмуш тарзи, урф-одат, анъаналар, хўжалик анъаналари, этномаданий жараёнлар, “Авесто”, “Алпомиш”, “Манас”, овчилик, чорвачилик, деҳқончилик, диний эътиқод, , “Мунғус-мунғус”, Хопитиш, “Кок бўри”, афсона ва ривоятлар.*

Annotation: *This article deals with the role of folk games in the formation of military skills, which have been improved over the centuries. The history of some games that existed during the times of Amir Temur and Temurids is studied on the scientific basis, which allows a deeper understanding of the processes associated with the physical and spiritual upbringing of the younger generation and the improvement of military skills.*

Key words and phrases: *folk games, spiritual, physical education, agility, diligence, emotionality, patriotism, "Flag Defence", "Trap" games, lifestyle, customs, traditions, economic traditions, ethnocultural processes, "Avesta", "Alpomish", "Manas", hunting, animal husbandry, farming, religious beliefs, "Mungus Mungus", swimming, "Ko'k boru", legends and traditions.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль народных игр в формировании воинских навыков, которые совершенствовались на протяжении веков. На научной основе изучается история некоторых игр, существовавших во времена Амира Темура и Темуридов, что позволяет глубже понять процессы, связанные с физическим и духовным воспитанием подрастающего поколения и совершенствованием воинских навыков.*

Ключевые слова и фразы: *народные игры, духовные, физическое воспитание, ловкость, трудолюбие, эмоциональность, патриотизм, "Защита флага", игры "Ловушка", образ жизни, обычаи, традиции, хозяйственные традиции, этнокультурные процессы, "Авеста", "Алпомиш", "Манас", охота, животноводство, земледелие, религиозные верования, "Мунгус-мунгус", купание, "Козлодрание", легенды и предания.*

Ўйинлар халқ ижодиётининг муҳим соҳаларидан биридир. Уларда жамият тараққиётининг у ёки бу босқичига ҳос ижтимоий ҳаёт, урф одатлар, маънавий қарашлар акс этади. Яъни кўпгина ўйинлар қадим замонларда маълум қабила, эл-улус ёки ҳудуднинг ижодий фаоллиги махсули сифатида юзага келган. Бироқ, асрлар давомида муайян ўзгаришларга учраган, шу сабабли аксар ўйинлар кўп қатламли ва мураккабдир. Уларни тўлиқ тасаввур этиш авваломбор тўғри илмий тасниф этишга боғлиқ. Тараққиётнинг ҳар қандай босқичида ҳам катта авлод вакиллари ёрдам қўлларини чўзиб, имкон

қадар ўзи тўплаган билим, тажрибаларини севимли машғулотлари бўлган ўйинларини ёшларга тинмай ўргатиб, тадрижий боғланишни вужудга келтириб келган. Натижада, ёшларда жисмоний тарбия ва спорт машқларига бўлган интилиш кучайиб, бу ҳол одатий бўлиб борган. Ёшларни жисмоний тарбиялашда айрим мажбурий машқлар ўрнига миллий халқ ўйинлари, турларини саралаб олиш, уларнинг таъсирчанлигини белгилашда Алишер Навоийнинг “Маҳбуб-ул-қулуб”, ”Фарҳод ва Ширин”, Умар Ҳайёмнинг “Наврўзнома”, Ибн Синонинг “Тиб қонунлари”. Кайковуснинг “Қобуснома”, Маҳмуд Қошғарийнинг “Девон-луғатит турк”, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг асарлари муҳим манбаа бўлиб хизмат қилади ***[1]***. Мазкур манбаларда кўп асрлик тарихга эга халқимиз ҳаётидаги турли тарихий ўйинларимиз орасида Шарқ якка курашлари ва жанг санъатлари ҳам алоҳида ўрин тутади. Айниқса, Амир Темурнинг ҳарбий юришларидаги жанг санъати бу спорт турининг чуқур илдизга эга эканлигидан дарак беради ***[2: 7-8.].*** Маълумотларга кўра Турк хоқонлиги даврида кўплаб шахарлар маданият марказларига айлана бошлаган. Шаҳарларда кўп кунли сайиллар, тамошалар, мусобақалар уюштирилар эди. Албатта, бундай беллашувларда мардлар синови билан бирга янги жисмоний тарбия машқлари намойишлари ҳам кўрсатилган. Масалан, юриши, чопиши лозим бўлган касб бу "чопар"лар бўлиб, айнан мусобақа тарзда, сайлларда синаб, саралаб олинган. Бу ҳақида "Сиёсатнома" асарида маълумотлар берилган. Етмиш – саксон километр масофани осонлик билан босиб ўта оладиган, ўз касбининг ҳадисини олган, чидамли, кучли, чаққон махсус тайёрланган касб эгалари "Югўртаклар", тайёрланган ***[3:12, 395].*** Улар орасида махсус мусобақалар ташкил этилган. Чопарлар ва югўртакларнинг жисмоний тарбиясининг воситалари ҳозирги кичик ва катта марафончилар, соатлаб югурувчилар, “бешкураш”, “еттикураш” ва “классик ўнкураш”нинг югуриш турлари машқларидан айтарли фарқ қилмаган. Ўрта Осиё халқлари орасида белбоғли кураш усталари полвонлар халқ қаҳрамонига айланган. Фақат байрамлардагина

эмас, элатлар орасидаги низолар оқибатида юзага келган урушларнинг олдини олиш мақсадида ҳам, жангга сафга тортган қўшин олдида полвонларнинг кураш мусобақаси ўтказилиб натижасига кўра ғолиб ва мағлуб эл ҳал қилинган. Бундан кўриниб турибдики, куч жисмоний тайёргарлик фақат машқлар билан эмас балки ўйин-мусобақалар ўтказиш орқали ҳам олиб борилган. Мисол тариқасида Амир Темур қўшинининг жисмоний тайёргарлиги асосан машқ-мусобақаларга йўналтирилганлигини жангчиларнинг жанг аслахаларининг зарволига қараб баҳоласа ҳам бўлади. Одам бўйи келадиган “тўра” деб аталадиган қалқонни жангчи кўтариб юриб ўзини душман зарбидан тўсиб куролини ишга солиб қарши хужумга ўтиши лозим. Шу билан бирга жангчини ёй, ўқдони, қилич ва найзадан ҳимоя учун симдан тўқилган “жубба” ёки “жавжони”, бошида темир ёки пўлатдан ясалган “дубўлға”си, “чўқмори”(ёғоч дастали тўқмоқ) ёки дастали ой болтаси, айримларида эса палаҳмон (ичига нисбатан кичикроқ тошлардан солиб отиладиган қурол) ва бошқа ҳарбий қуроллардан ташқари шахсий буюмлари ҳам бўлиб, уларни ўзи билан бирга олиб ҳаракатланиш ҳамда жанг олиб бориш учун қанча куч талаб этишини тасаввур қилиш қийин эмас. Шуни айтиш лозимки, 27 мамлакатни бирлаштирган моҳир саркарда бобомиз Амир Темур давлатчилик тизимидаги барча табақа вакилларини жисмоний тайёргарлигига алоҳида эътибор бериб уларга полвонлик, мерганлик, қиличбозлик, мушт, пичоқ, найза ва бошқа тиғ билан жанг қилиш маҳоратларини тайёрлаш мактабларини яратганлар. Бу эса халқ орасида мавжуд ўйинлар ва жанговор санъатни ривожланишига ва янги турларини шаклланишига хизмат қилган. Тарихчиларимизнинг таъкидлашича, Амир Темур ўз лашкарини, асосан, пиёда ва отлиқ аскарлардан тузиб, уларни қилич, найза, ўқ-ёй, гурзи, чўқмор билан қуроллантирган. Бундан ташқари, қўшинда тош, ғўла ва турли ёнувчи нарсаларни отадиган мосламалар бўлган ва жанг майдонларида қурол-яроқсиз ҳам қўл ва оёқ зарбалари билан душманларни мағлуб этган экан. Бугунги қиличбозлик, камондан ўқ отиш,

тошни узоққа улоқтириш каби спорт турлари ўша даврлардаёқ лашкарлар томонидан ўзлаштирилиб, уларни ҳақиқий жанг санъатларига айлантирилгани учун Амир Темурнинг ҳарбий жанг санъати Европа ва Осиёнинг турли ҳарбий академияларида асрлар оша ўқитиб келинмоқда. Ҳатто рус генерали М. И. Иваниннинг “Темурнинг жанг санъати”га бағишланган ўқув дарслиги ҳам мавжуд ***[4: 11]***. Ҳарбий юришлар олдидан турли хил жанг санъатини ўз ичига олган рақс ўйинлари ташкил этилган. Бунга асосан болалар жалб этилиб, бу рақс ҳаракатларида эпчиллик, чаққонлик ва маҳорат ўз аксини топади. Айниқса, шамширбозлик, пичоқ билан олишув, палаҳмон тоши ва камондан отиш, сопқон улоқтириш каби ўйинлари Шарқ якка курашининг асосини бошлаб берган. Шарқда ҳар бир миллатнинг ўзига хос бўлган ўйин услублари мавжуд эди. Масалан, туркманларда қўл жангига асосланган “ўрда қочди” ўйини, Самарқандда “ҳуркач” ўйини, қирғиз ва қозоқ миллатларида “ер саёш” каби ўйинлар қадимда жуда машҳур эди. Қозоқ миллатининг яна бир ўйини “жудырыктасу” кураш, қўл жангини ўз ичига олган бўлиб, яна бир ўйин “алып сок”дан тубдан фарқ қилад ***[5:12].***

Хуллас, бир сўз билан айтганда, Шарқ якка курашларининг тарихи жуда узоқ-узоқларга бориб тақалади. Улуғ мутафаккир бобомиз Алишер Навоий асарларига ишланган миниатюра расмларда ҳам миллий жанг санъатининг турли кўринишлари ўз аксини топган. Рус ёзувчиси А. Мандузяк ўзининг “Ислом жангчилари” китобида ҳам бу ҳақда жуда кўп маълумотлар берган. Шунингдек, “Бобурнома” асарида жанг санъатига оид турли хил воқеалар атрофлича ёритилган ***[6:12]***. Халқ ўйинларининг тарихий-генетик асосларини очиб бериш орқали шаклланиш босқичлари ва тараққиёти тамойиллари, генетик таснифи, ижтимоий ҳодиса сифатида юзага келиш тарихи ва тадрижий ривожи, унинг таркибидаги ижтимоий-иқтисодий элементларнинг хусусиятлари ва ўйиннинг тарбиявий вазифалари алоҳида аҳамиятга эга деган ҳулосалар чиқариш мумкин. “Ўзбек жанг санъати”

маркази ўз фаолиятини 2004-йилда бошлади. Унга 22 та федерациялар аъзо бўлиб, атрофига 250 мингга яқин ёш спортчиларни бирлаштирган. Марказ томонидан илк бор юртимизда “Тўмарис” танлови муваффақиятли ўтказилди, “Шарқ якка курашлари” фестивали ҳар йили ўтказилиб келинмоқда. “Ўзбек жанг санъати” қилич, ханжар, таёқ, жуфт таёқ найзалар каби предметлардан фойдаланиш каби турлари мавжуд. Жанг санъати спортчининг камтарлик, ҳалоллик, сабрлилик, ўзини назорат қила олиш, руҳий жиҳатдан кучлилик каби фазилатларини шакллантириш унинг бош ғоясидир. Шунингдек, 2007 йил 27 февралда жисмоний имкониятлари чекланган шахсларнинг ижтимоий мослашувига йўналтирилган “Ўзбекистон Миллий Паралимпия Ассосацияси” номини олган ассосация негизида “Ўзбек жанг санъати”нинг “Матонат” номи билан олти йўналишли мусобақаларни ўтказиш қоидалари ишлаб чиқилди. Кўриниб турибдики, мустақиллик даврида мамлакатимизда анъанавий халқ ўйинларининг кенг кўламда замонавийлашиб, оммалашиб бораётган ҳолатни трансформациялашиш жараёнлари билан боғласак хато бўлмайди.

Мустақиллик арафасида трансформациялашиш жараёнларини бошидан кечирган бир талай ўйинларимиз турлари Жиззах вилоятининг Фориш туманида ўтказилган халқ миллий ўйинларининг II фестивалида намойиш этилди. “Оломон пойга”, “кўпкар”, “қиз қувмоқ”, “кураш” турлари ҳамда унутилаёзган “тақия туширар” ёки “қарабтеп” жанг санъати шулар жумласидандир.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Кайковус. Қобуснома. – Т.: Истиқлол. 1994. – Б.173., Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1984., Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк.Т.I, II, III. – Т.: 1963.; Абу Райхон Беруний.Танланган асарлар. Т.I. 1968. Т. II. – Т.: Фан. 1965.; Умар Хайём. Наврўзнома. – Т.: Меҳнат. 1990. – Б.78.; Алишер Навоий Хамса. – Т.:

Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.423.; Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. – Т.: Ўқитувчи. 2008. – Б.287.

2. Носиров А.Ҳ., Усмонов П.А. ва б. Ўзбек жанг санъатининг матонатли спортчилари. А.Ҳ. Носиров, таҳрири остида. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. – 178 б.

3. Носиров А., ва бошқалар...Ўзбек жанг санъатининг матонатли спортчилари..... – Б.12.; Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960. – 395 б.

4. Носиров А. ва бошқалар...Ўзбек жанг санъатининг матонатли спортчилари.... – Б.11

5. Ўзбек кураши ва миллий истиқлол./ Тузувчилар: Ҳ. Бобобеков, М. Содиқов, З. Рўзиева ва бошқ. – Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашр. 2002. – Б.12.

6. Носиров А., ва бошқалар...Ўзбек жанг санъатининг матонатли спортчилари..... – Б.13.

7. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. *The American Journal Of Social Science And Education Innovations*, *3*(11), 36-40.

8. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. *European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol*, *8*(9).

9. Valiyevich, Y. S., & Azamatjon, O. (2022). Theoretical And Practical Prospects For The Development Of Ethnoturism In Uzbekistan. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(4), 21-24.

10. Yo‘ldashev, S., & Dilshodjon, M. (2022). Ta’lim Tizimida Innovatsion Texnologiyalarining Ahamiyati. *Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal*, *3*(6), 427-431.

11. Юлдошев S., и Бобоев М. «” Туркестанский сборник " Как важный источник в изучении истории Узбекистана». Актуальные проблемы истории Узбекистана, т. 1, вып. 1, январь 2023 г., сс. 461-7.

12. Bekmirzaev, R. B. (2021). Factors affecting nation-building relationships in Fergana Valley. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *10*(11), 122-125.

13. Bekmirzaev, R. B. (2021). Traces Of Archaic Religions In The Modern Way Of Life Of The Peoples Of The Ferghana Valley. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *3*(11), 41-46.

14. Bekmirzaev, R. B. (2022). Socio-Economic Causes Of Ethnic Conflicts In The Ferghana Valley. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, *2*(06), 135-138.

15. Бекмирзаев, Р. (2022). Yangi O ‘zbekistonda millatlararo‘totuvlik va dinlararo bag ‘rikenglikni mustahkamlashning huquqiy asoslarini yaratilishi. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, *1*(1), 585-593.

16. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

17. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

18. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

19. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

20. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

21. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

22. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

23. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

24. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

25. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

26. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og‘oning ta’sir o‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

27. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

28. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

29. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

30. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

31. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

32. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

33. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

34. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

35. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

36. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

37. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

38. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

39. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

40. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

41. Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

42. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

17. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

18. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

TEMURIY MALIKALRNING IJTIMOIY VA MADANIY HAYOTDA TUTGAN O‘RNI

Fayzullayeva Shahzoda

SamDU, 2-bosqich talabasi.

shahzodafayzullayeva113@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davri ijtimoiy va madaniy hayotida temuriy malikalarning tutgan o‘rni va ularning davlat boshqaruvidagi ishtiroki masalalari tahlil qilingan. Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Xadichabegim, Gulbadanbegim, Arjumandbonu, Jahon Oro Begim va boshqa ko‘plab malikalarning madaniy hayotdagi ishtiroki masalasi manbalar asosida o‘rganilgan.*

Kalit so‘z va iboralar:*temuriy malikalar, Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Gulbadanbegim, Arjumandbonu, Jahon Oro Begim.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль тимуридских принцесс в общественной и культурной жизни Амира Темура и эпохи Тимуридов и их участие в государственном управлении.*

Ключевые слова и фразы: *тимуридские принцессы, Сараймулханум, Гавхаршадбегим, Амир Темур, Захириддин Мухаммад Бабур, Гулбаданбегим, Арджумандбану, Джахан Оро бегим.*

Annotation: *In the article, the princesses did not easily reach their important princesses in history and for this reason, they always combined intelligence and wisdom, they gave the right advice to‘their husbands and fathers for the benefit of the state and the approval of the people and as a result, the rulers we can see that he acted on the advice of this queens.*

Key words and phrases: *Timurid princesses, Saraymulkhanim, Gavharshadbegim, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Gulbadanbegim, Arjumandbanu, Jahon Oro Begim.*

Ma’lumki tarix zarvaraqlarida o‘tgan tarixiy shaxslar qatorida ayollarning ham munosib o’rni bor. Jumladan, temuriylar, boburiylar davlatida ayol malikalarning boshqaruv, madaniy hayot rivoji, obodonchilik sohalariga qo‘shgan hissasi o‘ziga xos bo‘lgan. Temuriylar sulolasi malikalarining birinchi va ikkinchi avlodi sifatida Saroymulkxonim va Gavharshodbegimlar o‘z davrining faol malikalaridan bo‘lganlar. Saroymulkxonim chig‘atoy ulusiga mansub mo’g’ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo‘lib,1341-yilda tug’ilgan. Qozonxon taxtdan azl etilib,qatl etilgan chog’da Saroy mulk honim hali 5 yoshda edi. Saroymulkxonim balog’atga yetgach, 1355-yilda Movarounnahr hukmdori amir Qozog’onning nabirasi Amir Husayn uni nikohiga kiritdi. 1370-yilda sohibqiron Amir Temur jangda Amir Husaynni yengib, uni qatl qildirgach Movarunnahr hukmronligini o‘z qo‘liga oladi.

Amir Husynning bir nechta xotinlari bo‘lib haramning Ulug‘ bekasi Tamarishxonning qizi Suyunch Qutlug’ og’o edi. Sohibqiron Temur uning haramidagi malikalar orasidan Qozonxonning qizi Saroymulkxonimni, Bayon Sulduzning qizi Ulus og’oni, Xizr Yasuriyning qizi Islom og’oni hamda Tag’oy Turkon Xotunni tanlab olib, idda muddat 3 oydan so‘ng o‘z nikohiga kiritadi. Sohibqiron Saroymulkxonimni o‘z nikohiga olgach “ko‘ragon” unvonini oladi, uning ma’nosi mo’g’ulchada “kuyov” degan ma’noni bildiradi.Saroy mulkxonim mo’gul xonining qizi bo‘lganligi uchun Amir Temur “Amir Temur Ko‘ragon,, degan nomini oladi. Sohibqiron Amir Temur Saroymulkxonimni o‘z nikohiga kiritgunga qadar ham haramida xotinlari bo‘lgan lekin ularning ichida xon

urug’iga mansub Saroymulkxonim bo‘lgan. Shuning uchun haramdagi malikalar ichida Ulug‘rog’i hisoblaninb “katta xonim” yoxud “Bibixonim” degan unvonga noil bo‘lgan. Albatta, bunday e’zozga musharraf bo‘lish uchun aql zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo‘lgan. Zotan tarixiy manbalarning guvohlik bershicha, Saroymulkxonim zamonasining yuksak idrokli did farosatli tadbirkor va aql zakovat sohibasi husn –latofat bobida ham benaziri edi. Saroymulkxonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa ilm-ma’rifatga alohida e’tibor berar va tolibi ilmlarga homiylik qilardi. O‘ta ziyrak va tadbirkor Saroymulkxonim mamlakat siyosiy hayotida ham vujudga kelgan muammolarni hal qilishda o‘zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur malikaga oshkora bo’ysunmasada, uning oqilona maslahatlariga o‘zida qandaydir ehtyoj sezib turgan. Amir Temur Eronga qilgan yurishi paytida Isfaxonning qamali ko‘pga cho‘ziladi qo‘shinni oziq ovqat bilan ta’minlashda yetishmovchilik yuzaga keladi. Shunda, Amir Temur malikaga qisqa jumladan iborat xat yo‘llaydi “Qo‘shinning zaxirasi tugadi,zaxiradan zar yuboring,, deb aytiladi. Saroymulkxonim xatni olib uning orqasiga kinoyali ohangda “Ulug‘ amir zaringiz tugagan bo‘lsa siyosatingiz ham tugadimu? -deb yozadi va uni choparga tutqazadi. Maktubni olgan Amir Temur ko‘p o’ylab bir qaror qiladi o‘sha paytda barcha so’yib yeyilgan qo‘y qoramol ot va tuya suyaklarini o‘sha kuniyoq yig’dirib turli hajmlarda qirqtirib katta hajmdagisini katta qiymat, kichigiga kichik qiymat berib po’lat muhrni qizdirib tamg’a bostiradi va muvaqqat pul o’rniga muomalaga kiritishga ruxsat beradi. Natijada mahalliy aholidan o‘sha pullar evaziga oziq-ovqat sotib olinadi. Isfaxon shahri taslim bo‘lgach suyak pullar zar bilan almashtiriladi ***[2:3].*** Mamlakatga kelgan chet ellik elchilar ham katta hurmat e’tibor bilan kutib olingan va shu elchilardan Ispaniya qiroli Genrix III tomonidan jo‘natilgan Ryui Gonzales de Klavixo 1404-yil 8-sentabrdagi safaridan yorqin taassurotlarida yozib qoldirilgan. Saroymulkxonim

Amir Temurda farzand ko‘rmagan. Shunday bo‘lishiga qaramay Sohibqiron o‘z o‘g‘li Shohrux mirzoni suyukli nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Halil Sulton Mirzo va Ulug‘bek mirzo‘tarbiyasini bevosita Bibixonim tarbiyasiga topshiradi. Malika 1408-yil Halil Sultonning rafiqasi Shodmulk begim tomonidan zaharlab o’ldiriladi. Jasadi o‘zi qurdirgan madrasa yonidagi maqbaraga “tosh tobut”ga solib mumiyolab dafn etiladi. Amir Temur Hindiston yurishlaridan qaytgach rafiqasiga atab 1399-1404-yillarda Bibixonim masjidi jomesini qurdirgan. Bu jome O‘rta Osiyodagi obidalardan eng yirigi hisoblanadi ***[3:18].***

Gavharshodbegim Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shoxrux Mirzoning suyukli katta xotini edi. U Chig‘atoy zodagonlaridan G’iyosiddin Tarxonning qizi edi. G’iyosiddin Tarxonning bobokaloni – qushlik bir vaqtlar Chingizxon mulozimatida bo‘lib, bir jang asnosida uni o‘limdan saqlab qolgan ekan. Shundan buyon Chig‘atoy ulusida bu avlod yuksak e’tibor va hurmatga sazovor bo‘lgan.

Gavharshodbegim 1379-yilda tug’lib, 1393-yilda Shohrux mirzo nikohiga kirgan. Undan 3 o’g’il va 2 qiz ko‘rgan. To‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bek Mirzo Ko‘ragon (Muhammad Tarag’ay 1394-1449), o‘rtancha o‘g‘li Boysung’ur Mirzo (1397-1433) va kichik o‘g‘li Muahmmad Jo’ki Mirzo (1401-1450) lardir. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Gavharshodbegim yuksak didi farosatli, oqila, tadbirkor, suhandon, bir so‘zli, qat’iyatli, husn bobida ham benazir ayol bo‘lgan ***[2:32].***Tabiatan dindor Shohrux mirzo ko‘p vaqtini toat ibodat va kitob mutoalasiga sarflardi. Saltanat devon ishlarini o’ktam va tadbirkor xotini Gavharshodbegim boshqarardi. Bu ziyrak ayol qaynotasi Amir Temur vafotidan so‘ng mamlakat ishlarini asta-sekin o‘z qo‘liga ola boshlaydi. Zotan Shohrux mirzo ham rafiqasining aql zakovatiga chindan tan berar, saltanatni boshqarishda uning oqilona va tadbirli maslahatlariga ehtiyoj sezardi.Shu bois saltanat ishlariga doir ko‘p masalalar malika nazar-e’tiboriga havola etilar edi. Viloyatlarga hokim tayinlash, qo‘shinga sarkarda belgilash, hatto kimga qanday in’om va kimga qandy jazo berish masalalari ham malikaning inon ixtiyorida edi. Shohrux Mirzo davrida Xuroson siyosiy-ijtimoiy va madaniy jihatdan gurkirab rivojlanadi.

Mamalakat poytaxti Hirot iqtisodiy va madaniy yuksalishda Sharqning eng nufuzli shaharlaridan biriga aylanadi. Tabiiyki mamlakatning bunday yuksalishda “amaliy hukmdor” malika Gavharshodbegimning hissasi beqiyosdir. Bu davrda Hirotda va mamlakatning boshqa viloyatlarida qurilish ishlari avj oladi. Masjid madrasalar, xonaqoh, maqbara, dahma, musofirxona, ravot, ko‘prik va sardobalar qurib bitkaziladi. Tabiatan vatanparvar Gavharshodbegim mamlakat ravnaqi yo‘lida tinmay g’amxo’rlik qiladi. Uning dasturida madaniy va ma’rifiy hayot birinchi o’rinda bo‘lgan. Shu boisdanmi, farzandlari hamda barcha nabiralari ilm-fan muxlislari bo‘lgan, hatto g’azal ham bitganlar. Malika Hirotdagi ko‘plab qurilish ishlari rahnamosi bo‘lgan. Hirotda 2 ta katta madrasa qurdirgan. Mamlakat hayotida muhim ro’l o’ynagan Gavharshodbegim Shohrux Mirzo vafotidan so‘ng nabirasi Aloud-Davlani taxt sohibi qilish uchun makr hiylalar ishlatadi, ammo o‘z maqsadiga erisholmaydi aksincha o’g’illari o‘rtasida jiddiy kurashlar avj olib ketadi. Ushbu jarayonlar yuz bergan paytda malika 80 yoshda edi. Ammo‘taqdirga tan bermasdan chevarasi Sulton Ibrohim Mirzoni Sulton Abusayid Mirzoga qarshi isyon ko‘tarishga undaydi. Bundan xabar topgan Sulton Abusayid malikani chopib tashlashga farmon beradi. 1457-yil malika chopib o’ldiriladi va o‘zi qurdirgan madrasa yonidagi Boysung’ur dahmasiga dafn etiladi ***[3:8].***

Boburiylar davlatida madaniy hayotga hissa qo‘shgan ayollardan biri Gulbadanbegimdir. Zahiriddin Muhammad Bobur vafot etgan yili 1530-yili 26-aprelda Gulbadanbegim 8 yoshda edi. Onasi Dildor begim edi. Gulbadanbegim “Humoyunnoma” asarida onasini Dildor og’ocha deb aytib o‘tgan, “Onam hazratlari” deb ardoqlaydi. Lekin, Gulbadanbegim yoshlik chog’ida o‘z ukasi Hindol Mirzo bilan Boburning katta xotini Mohim bonu tarbiyasiga topshiriladi.Shu tariqa Mohim bonuning vafoti (1533) ga qadar Gulbadanbegim valiahd shahzoda Humoyun Mirzo bilan birgalikda tarbiyalanadi. Gulbadanbegim ikkala onasini ham qattiq hurmat qilgan ularga mehr muhabbati cheksiz bo‘lgan. Ikkala onasiga nisbatan hamisha o‘zining nozik hislari va sevgisi sadoqati bilan

mehr ko‘rsatgan. Bobur 1526-yil 27-aprelda Panipat yaqinidagi Dehli sultoni Sulton Ibrohim (1517-1526) bilan bo‘lgan jangda g’alaba qozonadi va Shimoliy Hindistonda o‘z hukmronligini o’rnatadi. So‘ngra Kobuldagi barcha qarindoshlari bilan birgalikda olimlar, davlat amaldorlari, shoirlar hamda haramni chaqiradi. Qobuldan chiqqan karvonda jami 96 ta ayol bo‘lganini aytgan Gulbadanbegim Boburning katta xotini Mohim begim bilan karvonning eng boshida keladi va Bobur bilan qarshilashadi. Gulbadanbegim avval Bobur keyinchalik Humoyun podshoh (1530-1556) Akbarshoh (1556-1603) g’amxo’rligida umr kechirdi. Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarida faqatgia Humoyun davri emas balki otasi Bobur haqida ham ma’lumotlar qisman berilgan. Qisman berilganining sababi otasi vafot etganida malika juda yosh bo‘lgan va bor ma’lumotlarni ham “Boburnoma” kitobiga suyangan holda yozgan. “Humoyunnoma” juda ajoyib tarzda sodda va tushunarli qilib yozilgan. O‘sha zamonning mashhur shoirlari Mirxond, Binoiy, Muhammad Solih kabilar asarga yuksak baho berishgan va aynan ayol kishi yozganligini asarning o‘zgacha uslubda nazokat bilan yozilganligi ajralib turishini aytib o‘tishgan. Asar “Boburnoma”ga o‘xshash tarzda yozilgan va asar aynan “Boburnomada”gi ma’lumotlarga asoslanib yozilgan ***[1:5].*** Malika fors tilini mukammal o‘rganadi. Zahiriddin Muhammad Bobur Gulbadanbegim uchun faqatgana muhtaram padari buzrugvor bo‘libgina qolmay balki uning o‘rta asr sharq tarixida chiqqan yagona tarixnavis olima ayol bo‘lib yetishib chiqishida ibrat bo‘lgan ustoz hamdir. Shuning uchun ham tarixda yagona tarixchi olima sifatida nom qoldiradi. “Humoyunnoma” Akbarshoh buyrug’i asosida yoziladi. Asarni 83 varoqdan iborat yagona qo‘lyozmasi Britaniya muzeyida saqlanmoqda, undagi voqealar tavsifini Charlz Ryo o‘z katalogida berib o‘tadi. 1902-yilda ingliz olimasi Beverij ingliz tiliga undan 1959-yilda Azimjonova o‘zbek tiliga tarjima qiladi. Tarixchi olim Abulfazl Allomiy aynan “Akbarnoma” asarini yaratishda “Humoyunnoma”dan keng foydalangan. Gulbadanbegim 1603-yilda Dehlida vafot etadi ***[3:19].***

Boburiylar saltanatining eng ko‘zga ko‘ringan husn-malohatda yagona, aql-u zakovati ila ota va o’g’il o‘rtasidagi munosabatlarni hamisha mustahkamlab kelgan malika Arjumanbonu edi. Arjumabonu tahminan 1594-yilda Mashhadda tug’ilgan. U asli eronlik bo‘lib bobosi va ota-onasi kambag’allik tufayli Hindistonga keladi, otasi Akbarshoh mulozimatiga xizmatga kiradi. 1611-yilda Arjumanbonuning ammasi Nurjahon (Mehriniso) Jahongirshohga turmushga chiqqach uning bobosi E’timod ud-Davla bosh vazirlik lavozimga ko‘tariladi. Arjumandbonuning otasi E’timodxon (Osafxon) esa saroy boshqaruvchisi lavozimiga ko‘tariladi. 1613-yili 19 yoshli Arjumanbonu 21 yoshli Xurram (Shoxjahon) ga turmushga chiqadi. O‘tkir aql-idrok va did farosat sohibasi bo‘lgan Arjumandbonu tez kunda tadbirkorligi, nozik tabiati iffati va tengsiz husn malohati bilan butun saroy a’yonlarini hurmat va e’tiborini qozonadi. Xususan, Jahongirshoh Arjumanbonuni alohida e’zozlardi. Bundan tashqari Jahongirshoh va shahzoda Xurram o‘rtasida turli kelishmovchiliklar kelib chiqardi ammo bularni barchasini Arjumanbonu hamisha hal qilishga kirishardi va buni uddasidan chiqardi ham.Shu tariqa ikki tomonning ham hurmatiga sazovor bo‘lardi. Shuning uchun bo‘lsa kerak ko‘p vaqt o‘tmay Arjumandbonu-Mumtoz Mahal begim ya’ni “saroyning ko‘rki” deya atala boshlanadi. Ushbu nomga Arjumanbonu malika sifatida haqiqatda munosib edi. 1628-yil fevralida taxtga Shoxjahon o‘tiradi. Uning yonida doimiy ravishda sodiq, aqlli, xushmuomala, yaxshi kunda ham kulfatida ham birga yonma-yon turuvchi, davlat ishlarida eng to‘g‘ri maslahatlarni beruvchi, jang-u jadallarda qo‘llab quvvatlovchi rafiqasi Mumtoz Mahal begim birga edi. Malika saroyda maslahatchi va muhrdorlik lavozimlarida faoliyat yuritgan. Mumtoz Mahal begim hayoti davomida 14 nafar farzand ko‘rdi, ulardan 8 nafari bu hayotda yashab qola oldi, qolgan 6 nafar farzandi esa yoshlik chog’ida nobud bo‘ldi.Ularni 4 tasi qiz va 4 tasi o’gil farzand edi, o’g’illari Doro Shukuh (1616-1659), Shoh Shujo (1617-1661) Avrangzeb (1618-1707) Murodbaxsh (1621-1658). Qizlari Jahon Oro begim, Arjuman Oro begim, Dahr Oro begim va Kiti Oro begimdir. Malika Shoxjahon

hukmronligining 4-yili 17-iyun chorshanba kuni Burhonpurda 14-farzandini dunyoga keltirish chog'ida hayotdan ko'z yumadi. Bu paytda farzandlari oldida bo'lga Mumtoz Mahal begim farzandlari bilan vidolashuv chog'ida otasiga g'amxo'rlik qilishni katta qizi Jahon Oro begimga tayinlaydi. Turmush o'rtog'iga yozgan vasiyatida esa o'zidan so'ng boshqa ayolga uylanmasligi unga atab hashamatli maqbara qurdirishini farzandlariga g'amxo'rlik qilishini yozgan edi. O'z ayoliga bo'lgan kuchli muhabbati sabab Shoxjahon vasiyatni to'lig'icha ado etdi. Haqiqatda ham Mumtoz Mahaldan keyin 36 yillik hayoti davomida boshqa ayolga uylanmaydi unga atab hashamatli maqbara ham qurdiradi. Ushbu maqbara Agra shahrida 18 yil davomida 20 ming mutaxasis va ustalar yordamida qimmatbaho yaltiroq oq marmardan bunyod ettiradi. Ulug'vor obida "sevgi va vafo" qasrining qurilishiga 40 million rupiya sarf etiladi. Obida qurib bitkazilgach marhumaning hoki olib kelib dafn etiladi. Uning sharafiga Mumtoz Mahalga kiydirilgan toj sifatidan maqbaraga "Toj Mahal" deb nom beriladi. Hindistonning dunyoga mashhur sevgi va muhabbatdan ilhomlanib barpo etilgan ushbu obidasi hozirgacha o'z latofati bilan Agra shahriga yiliga 7 million sayyoh kelishiga sababchi bo'moqda ***[2:19].***

Jahon Oro begim Shoxjahonning katta qizi. 1614-yilda tug'ilgan. Otasi taxtga o'tirganda Jahon Oro begim 14 yoshda edi. Shoxjahon qizi Jahon Oro begimga 40 ming dona yoqut javohir in'om etib, unga yiliga 600 ming rupiya miqdorida nafaqa tayinlangan edi. Onasi Mumtoz Mahal begim vafot etgan chog'da u 17 yoshda edi. Onasining vasiyatiga muvofiq u otasiga g'amxorlik qiladi. Jahon Oro begim o'z ismiga monand tabiat unga xusn-u malohatda, tengsiz aql idrok va ilmu odobda saxiylik qilgan edi. Jahon Oro begim otasi va ukasi Avrangzeb o'rtasidagi tez tez bo'lib turadigan kelishmovchiliklarni o'z aql zakovati bilan hal qilardi va yechim topadi. Bobokaloni Bobur shohdan unga me'morchilik san'ati o'tgan edi. Malika shu sababli ham otasi ardog'ida bo'lgan. Shu tariqa otasiga davlat ishlarida tashqi va ichki siyosatda diplomatik aloqalarda hamisha o'z maslahatlarini ayamagan va saroyda katta obro' e'tiborga ega

bo‘lgan. Onasi Mumtoz Mahal mavqeyiga sekin asta munosib bo‘la oldi.Jahon Oro begim nafaqat me’morchilikda balki g’azallar yozishni ham me’ros qilib olgandi. U o‘z g’azallarini ham mahorat va nozik did bilan qog’ozga ko‘chirardi. Dehli, Panipat, Surat, Amboda, Bexal shaharlarida ulkan karvonsaroylar barpo ettiradi, Lohurda ham orombaxsh bog‘ bunyod ettiradi. Aytgancha Toj mahalning ham ijodkori aynan Jahon Oro begimdir. Kashmirda “Pari Mahal” (Parilar saroyi) nomli saroy ham qurdirgan edi. Jahon Oro begim doimiy ravishda faqirlar va yordamga muhtoj insonlarga oziq ovqat ulashgan va ularga uy joy qurdirgan. Shahdobodda Alimardonxon arig’ini qazdiradi va naqshinkor hovuz qazdiradi. Jahon Oro begim “Risolayi Sohibiya” (Do’stlik haqida risola) nomli asar ham yozib qoldirgani tarixdan bizga ma’lumdir. 1658-yil taxt talashgan Avrangzeb akasi Doro Shukuhni mag’lubiyatga uchratadi, o‘z ukasi Murodbaxshni zindonband etadi. Otasi Shohjahonni esa Agradagi saroy “Qizil qal’a”ga jo‘natadi. Dilxasta malika dunyo ishlariga qo‘l yuvib zindonband va xasta otasiga xizmat qilib o‘ziga biroz bo‘lsada taskin beradi. Shoxjahon 1658 yildan 1666-yilgacha bo‘lgan vaqtda “Qizil qal’a”dagi hayoti davomida hayotining mazmuni Mumtoz Mahalga atab qurdirgan maqbara “Toj Mahal” dan ko‘z uzolmay suyukli qizi Jahon Oro begim qo‘lida vafot etadi. Jahon Oro begim 1681-yilda 67 yoshida bu yorug’ dunyoni tark etadi. Malika Dehlidagi Zarzara qabristoniga dafn etiladi. Vasiaytiga binoan bo‘lsa kerak qabrtoshiga ushbu misralar bitilgan:

Ba g’ayri sabza naposhad kase mazori maro

Ki qabrpo’shi parishon hamin giyoh bas ast.

Mazmuni: «Yashil maysadan boshqa hech kimsa qabrini yopmasin, toki g’ariblar qabrini yopmoq uchun shu giyoh kifoyadir»***[2:20].***

Xulosa qilib aytganda Temuriylar va ularning davomchilari bo‘lgan Boburiy malikalar hukmronligi davrida ayollarning davlat va jamiyatdagi o’rni ijtimoiy hayotdagi o’rni yuksak darajada bo‘lgan. Albatta malikalar bunga munosib bo‘lishgan va haqiqatda mamalakat tinchligi va osoyishtaligini asrashda o‘zlarini munosib ko‘rsatishgan, katta-katta me’moriy obidalar qurishda o‘z nozik

didi va aql idroki bilan ajralib turishgan. Mehr va saxovati, kamtarligi bilan xalq mehrini qozonishgan. Shu tariqa turmush o’rtoqlari va mamlakat hukmdorlari hattoki davlat a’yonlarining yuksak hurmatiga sazovor bo‘lishgan. Haqiqiy ayollarga xos hislatlar bilan hamisha ezgulikka xizmat qiluvchi ulkan ishlarga bosh-qosh bo‘lishgan. Bu faxrlanarli va o’rnak olsa arziydigan tariximiz ayollari biz uchun iftixor tuyg’usini shakllantirishi shubhasiz. Ayniqsa qafas ichida yashab kelayotgan ayrim ayollarimizga tarixni o‘rgatish va o‘z mustaqil va erkin fikriga ega bo‘lishga davlat tomonidan belgilangan qonunlardan o‘z hayoti uchun qay tarzda to‘g‘ri foydalanishni o’rgatishga va o‘rganishga chorlaydi. allik bu buyuk ne’mat, go‘zal inson bilan umr kechirmoq baxt, ammo‘tashqi go‘zallik bir kun o‘z holatini yo‘qota boshlaydi boringki qirq yil yashar undan zerikib qolishingiz mumkin, ammo qalbi go‘zal dono ayol bilan yuz yil yashasangiz ham unga doim ehtiyoj sezasiz. Qalb go‘zalligi bu oliy va bebaho in’omdir. Biz ayollar uni hamisha aqlimiz,donoligimiz bilan sayqallab borishimiz lozim.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Boburning qizi “Humoyunnoma,, Ma’naviyat. – 1998

2. Turg’un Fayziyev. Temuriy malikalar. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti – 1994

3. Azamat Ziyo. O‘zbek ayollari tarix sahnasida. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Fan nashriyoti, - 2008

4. Bekmirzaev, R. B. (2022). Socio-Economic Causes Of Ethnic Conflicts In The Ferghana Valley. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(06), 135-138.

5. Bekmirzaev, R. B. (2022). Historical And Political Problems Of The Ferghana Valley. Asian Journal Of Multidimensional Research, 11(6), 104-106.

6. Жўраев, Х. П., Бекмирзаев, Р. Б., & Юсупов, Ж. (2022). ЧОР РОССИЯСИНИНГ ТУРКИСТОНГА АҲОЛИНИ КЎЧИРИШ СИЁСАТИДА

ЕР БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАРНИНГ ҲАЛ ЭТИЛИШИ. *IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(11), 54-59.

7. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. *The Peerian Journal*, *12*, 31-34.

8. Begalievich, B. R. (2022). Inter-ethnic conflicts in the south of the Kyrgyz Republic. *Eurasian Research Bulletin*, *14*, 51-56.

9. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, *3*(11), 34-40.

10. Бекмирзаев, Р. (2022). Yangi O ‘zbekistonda millatlararo‘totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni mustahkamlashning huquqiy asoslarini yaratilishi. *Актуальные проблемы истории Узбекистана*, *1*(1), 585-593.

11. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

AMIR TEMUR VA ISLOM MA’NAVIYATI

Yoqubova Iroda

SamDU, Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Amir Temurning islom ma’naviyatida tutgan o’rni, jahonda Amir Temur davlatining yuksak cho‘qqiga erishuvida islom dinining ahamiyati va davlat boshqaruvida roli, shuningdek Sohibqironning diniy sohada amalga oshirgan ishlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘z va iboralar:*Amir Temur, islom dini, diniy hayot, shayx Zayniddin, Qur’oni Karim, “Shabistoni hayol”, “Shohnoma”, “Qubbat-ul ilm val adab”, “Dunyo jannati”.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль Амира Темура в исламской духовности, значение Ислама в достижение Амиром Темуром государства в мире и рол государственного управления, также деятельность Сахибкираном в религиозной сфере.*

Ключевые слова и фразы: *Амир Темур, исламская религия, религиозный жизнь, шейх Зейниддин, Коран, “Шабистани хаял”, “Шахнама”, Куббат-уль-илм вал адаб”, “Рай мира”.*

Annotation: *In this article, Amir Temur’s life in Islamic spirituality is Amir Temur in the world the importance of Islam and its role in state management in the state’s achievement also analyzed the work done by Sahibkiran in the religious field.*

Key words and phrases: *Amir Temur, Islamic religion, religious life, sheikh Zainiddin, Quran, "Shabistani hayal", "Shaxnama", "Qubbat ul-ilm val adab", "The paradise of the world", "Mother of cities".*

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk Sohibqiron Amir Temur alohida o'rin tutadi. Bemisli va betakror, butun jahon e'tirofiga sazovor bo'lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan va ma'daniyat homiysi, yurtimizning asl farzandi o'laroq, eng katta shuxrat qozongan, eng muhimi, Amir Temur og'zida emas, haqiqatda, gapda emas amalda, chin musulmon edi. Amir Temurdagi qat'iyat va kuchli iroda Amu va Sir o'rtasida mo'jaz Movarounnahr davlatini ulkan imperiyaning markaziga aylantirdi. Amir Temur tug'ilishidan boshlab islom dini u bilan birga edi. Sohibqironning otasi Amir Tarag'ay Kesh shahrining o'rtahol yer egalaridan biri bo'lgan. U Amir Temur tavalludidan bir muncha avval tush ko'rgan, tushida uning yoniga farishtasifat bir mo'ysafid kelib, qo'liga qilich tutqazib ketgan ekan. Ertasi kuni peshin vaqti masjidda ibodat amalini bajarib bo'lgach, mahalla imomi shayx Zayniddinni chetga tortib, tushini aytib va uning ta'birini so'raydi. Shayx esa bir muddat o'ylanib, "Ko'rgan tushingizni ta'biri shuki, Alloh sizga bir o'g'il ato etadi.Qilich bilan butun dunyoni qo'l ostiga birlashtiradi, yetti iqlimga islom dinini yoyishga xizmat qiladi". Oradan bir yil o'tib Sohibqiron dunyoga keladi. Otasi unga ism tanlash maqsadida yana shayx Zayniddin huzuriga borganida, u Quroni karim mutoalasi bilan band ekan.67-suraning mana bu oyatini qiroat qilib turgan ekan: "Ey sen, nahotki, osmondagi Zot, yerni oyoqlaring ostida qulatishdan va uning larzaga kelishidan qo'rqmasang''. "Larza" so'zi arabchada "Tamurru" tarzida talaffuz etiladi va u Temur talaffuziga yaqin. Shu sababli bo'lsa kerak, Temur ismi qo'yiladi. Amir Temur yoshligidan islom shariat qoidalari asosida tarbiya ko'rdi. Bilimga chanqoqligi, o'tkir zehnga egalagi sabab, o'qishni boshlagan davrining uchinchi yilida Quroni Karimni yod oldi. Hadisi ilmi bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni ham puxta egalladi ***[2:9].*** Amir Temur yoshlik chog'laridan Bahouddin Naqshband tariqati yurtda hali keng yoyilmagan kezlardayoq bu ta'limot asoslaridan boxabar

bo‘lgan va e’tiqod qilgan. O‘tkir aql va farosat sohibi bo‘lgan Amir Temur keyinchalik omma orasida keng tarqalgan Naqshband tariqati afzalliklarini chuqur anglagan va uni o‘z davrining mafkurasining asosi deb tasdiqlagan. Bahouddin Naqshband o‘z talimotida Ollohga yaqin bo‘lishning to‘g‘ri va eng samarali yo‘li-jamiyat saodati uchun yashash, bunyodkorlik,savob ishlar va mukammal ahloq ekanligini ko‘rsatadi.Bu tariqat yo‘lini tanlaganlar tarki dunyo qilish, xalqdan, jamiyatdan uzoqda bo‘lishlik emas ,balki qalbda Ollohni jo qilib, mehnat qilishlari, dunyoni obod etishlari zarurdir. Buyuk Temur saltanati-Imperiyasini boshqarish qonun-qoidalarini ana shu ta’limot-Naqshbandiy tariqatlari g’oyalari bilan asosladi. Kuchli mafkuraviy nazariya hamda boy amaliy tajribalar mahsuli sifatida davlat yuritishning mashhur qonun-qoidalar majmuasi – “Temur Tuzuklari” maydonga keldi. Shu bilan Naqshband tariqati g’oyalari Amir Temur davrida Movarounnahrda va saltanatning boshqa hududlarida kuchli ijtimoiy mafkuraga aylandi. Bu mafkura esa Naqshbandiy qoidalariga muvofiq kishilarni dunyoviy va diniy bilim olishga, hunar o‘rganishga, mehnat qilishga davat etar edi ***[10:9].***

O‘rta asrlar davlatchiligi tizimida islom shariati, qonun-qoidalari yetakchi o’rinni egallagan. Shu nuqtai nazardan Amir Temur davlatida ham huquqiy munosabatlar Qur’oni Karim va Hadisi Sharifda bayon qilingan tartib-qoidalarga asoslangan ekan. A.Doniyning yozishicha, Sohibqiron va uning avlodlari hukmronligi davrida Markaziy Osiyoda, ayniqsa Movarounnahrda islom dini, sufiylik tariqatlari, xususan uning Naqshbandiylik oqimi keng rivojlandi. Bu bilan o‘sha davr ma’naviyatining rivoji uchun keng va ma’suliyatli yo‘li ochildi ***[10:27].***

Amir Temur: “Davlat agar din-u oyin asosida qurilmas ekan, to’ra-tuzukka bog‘lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi’’ ***[1:85].*** U iymon e’tiqodli halol pok inson bo‘lib voyaga yetdi. Amir Temur pirlariga, avliyolarga, din ulamolariga juda katta e’tibor bergan. Sohibqiron “Saltanatim qonun qoidalarini islom dini va kishilarning eng xayrlisi, hazrati Muhammadning shariatiga bog‘lab ,izzat-u hurmatlash vojib bo‘lgan onhazratining avlodi va sahobalariga muhabbat bildirgan holda ularni mustahkamladim” ***[1:102].*** Bir

vaqtlar Shayx Muhammad Shabistariyning “Shabistoni hayol” (“Sirlar yog’dusi”) kitobini o‘qigani va bu asar unga yoqqani uchun ham Ozarbayjonning Shabistar aholisiga ziyon-zahmat aholisiga yetkazmadi. Chunki, Mahmud Shabistariy shu hudud ahlidan biri bo‘lgan. Shabistar aholisini sonini aniqlashni buyuradi. Qariyb 3900 nafar aholining har biriga besh misqoldan oltin berishlarini amr qilgan ekan. Bundan tashqari Sohibqiron Firdavsiyning “Shohnoma” asarini ham o‘qigan edi. Amir Temur uning yurtiga borganda mahal qarovsiz qolib ketgan qabrini izlab ziyorat qiladi ***[2:27].*** Amir Temur o’smir vaqti otasiga Muhammad (s.a.v)ning dinida qoyim turishlikka, umr bo’yi yaxshi amallar bilan hayotini ziynatlashga, imkoni bo‘lsa, masjidlar qurishga,olim-u ulamolarni qadrlashga so‘z bergan ekan. Buyuk hukmdor bo‘lganida bu ishlarni amalga oshira boshladi. Isfaxon, Sheroz, Tabriz, Damashq, Kesh, Buxoro, Xorazm, Samarqandda masjid-u madrasalar bunyod ettirgani yaqqol misol bo‘la oladi. Temur o‘z vatani sifatida, ota-bobolari yurti sifatida Shahrisabzga nihoyatda e’tibor berib,obodonchilik,madaniy-memoriy inshootlar bunyod etganligi bois, Kesh –Sharisabz o‘rta asrlarda “Qubbatul ilm val adab” (Ilm va ta’lim gumbazi) degan muqaddas nomga sazovor bo‘lgan ***[3:247]***. Sharafiddin Ali Yazdiy ma’lumotlariga ko‘ra, Shahrisabzda o‘z davrining mashhur islom namoyondalari yashagan bo‘lib, Abu Muhammad Obdon Keshiy edi. XIV-XV asrlarda Abdulloh Samarqandiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Buxoriy va Abdul Husayn Muslim Nishopuriylar ham Shahrisabzda yashab faoliyat olib brogan ***[6:87]***.

Amir Temur Hindistonda g’alaba bilan qaytishi munosabati bilan o‘tkazilgan bazmda Dehli masjidi bilan tenglasha oladigan Jome masjidini bunyod etajagini bayon qildi. Masjid to‘rt yil davomida mohir quruvchilar tomonidan qurib bitkazildi. Unga “Bibixonim masjidi” deb nom berdi ***[5:101]***. Abu Tohirxoja o‘zining “Samariya” asarida shunday yozadi: “Amir Temur Ko‘ragonning Jome masjidi shahar ichida ,uning shimol tomonida Hazrati shoh (Dari Ohanin) darvozasining yaqinidadir.Jome eshigining ustiga yozilgan bayt mavjud, uning tabiri quyidagicha : “Xalq kaftida bori aldov va havasdir.Bu dunyoning yolg’iz

egasi bo‘lgan tangrining ixtiyoridadir” ***[11:24].*** Bu mashhur masjid o‘z davrining mahobatli va maftunkor imoratlardan biri bo‘lgan. Xususan “Dunyo Jannati” deb atalgan Damashq shahrini qo‘lga kiritganda» ushbu shahar ahlining o‘zlari uchun oliy imoratlar,baland uylar, ko‘ngilochar mavzelarni qurganlari holda, Muhammad (s.a.v) turmush o’rtoqlari Ummu Salima, Ummu Habibaning dafn etilgan qabrlari ustiga oliy imoratlar, gumbazlar qurish u yoqda tursin, loaqal to‘rt devoraylantirib qo‘yishga yaramaganliklaridan” taajjubga tushgan. So‘ngra Amir Temur buyrug’i bilan ushbu mozor ustiga ikki oq gumbaz 25 kun ichida oq toshdan tiklangan ***[7:30]***. Tarixiy manbalarning ma’lumot berishicha, Toshkent shahridagi Yunusobod dahasida joylashgan “Hasanboy” masjidi Amir Temur davrida qurilgan. 1390-yil Amir Temur Toshkent qal’asi va uning atrofini obod etish barobarida ushbu masjidni tiklashga ham amr etgan.O‘sha vaqtlarda bu jome “Oq masjid” deb atalgan. Keyinchalik bu yerlar “Hasanboy” deyilib, masjid ham shu nomni olgan. Amir Temur Tuzuklarida» sayyidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, Ulug‘ kishilarni aziz tutsinlar. Avliyolar, din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag‘ ajratsinlar. U yerlarni palos, taom va chiroq bilan ta’minlasinlar’’, deyilgan. 1398-yil sentabrda Amir Temur lashkarini Hindiston tomon boshladi va daraxt hamda qamishlardan ko‘prik yasab,Indra daryosidan o‘tadi.Birinchi bo‘lib Talamba shahri ishg’ol etildi «Zoti shariflar (Payg‘ambar avlodlari),ahli ilm va ulamoga hurmat ehtirom ko‘rsatadi, ularning mol-mulki himoya ostiga olinadi. Odatda shaharlarni fath etishda Amir Temur iqtidorli ilm va din ahlini o‘z himoyasiga olar, ularga nisbatan kuch ishlatishga yo‘l qo‘ymas edi ***[5:95]***. Amir Temur “Tuzuklari”da “Musulmonlarga, diniy masalalardan ta’lim berib, shariat aqidalarini, islom dini ilmlari, tavsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olim-u fuzalolar, mudarrislar tayin qildim”.

Amir Temur yoshligidanoq Amir Tarag’aydan o‘rgangan pirlarni, shayxlarni Ulug‘lash e’tiqodi bor edi. Sohibqironning bir necha pirlari bo‘lgan. Ular ikki guruhga ajratilgan. Birinchi guruh-ruhoniyatli pirlar: Sohibqiron tug’ilgunga qadar yashab o‘tgan tabarruk zotlar. Turkiston mulkining shayx-ul mashoyixi Xoja

Ahmad Yassaviy, Sulton Burhoniddin Qilich, Shayx Nuriddin Basir, Shayx Burxoniddin Sog'arjiy va Shayx Safiuddin Yoqub Ardabiliydir. Ikkinchi guruhga: Sohibqironning zamondoshlari kirgan.Ulug'Amr bevosita e'tiqod etgan va iroda yo'lini bergan pirlar-Shayx Shamsuddin Kulol, Shayx Zayniddin Abu Bakr Toybodiy,Mir Said Barakalar .Amir Temur ularga doim izzat-hurmatda bo'lganlar.Ushbu pirlar haqida tarixiy manbalarda ("Temur Tuzuklari"; Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma", "Ibn Arabshoh Amir Temur tarixi", "Fasih Havofiy" Mujmali Fasihiy", "Hofiz Obro", "Zubdat ut-tavorix" va boshqa) asarlarda ma'lumotlar keltirilgan. Amir Temur umrining oxirlarida Usmonli turk sultoni Yildirim Boyazid ustidan 1402-yilda Anqara jangidagi g'alabasidan keyin, Temur "Shaharlar onasi" bo'lmish Makkai Mukarramaga Haj ibodatini ado etishni maqsad qilib qo'ygan. XV asrning mashhur Misr tarixchisi Ibn Tangriberdining mashhur "Misr va Qohira podsholiklarida ko'rinuvchi yulduzlar" asarida 1404-yilda Sohibqironning Makka shahriga ziyoratga kelishligi haqida xabar tarqaladi. Makka amiri Sohibqironni kutib olish uchun tayyorgarlik ko'radi. Ammo noma'lum sabablarga ko'ra bu ziyorat amalga oshmay qoldi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Amir Temur ma'naviyatining shakllanishida Islom dinining o'rni beqiyosdir. Amir Temur hukmronligi davrida islomning rivojlanishi , shariat qonun qoidalariga rioya etilishi uchun sharoit yaratilgan. Temur davlatida din peshvolari va ularning maslahatlariga tayanilgan holatda davlat boshqarilgan. Shunday ekan, Amir Temur islom mafkurasi bilan davlatni idora qilishi, davlatning yuqori darajada jahonga tanilishiga, qudratli davlat sifatida tarix zarvaraqlarida o'rin egallashiga hissa qo'shgan.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "…xalq armoni ro'yobga chiqarishga bo'lgan intilish Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Bahodir davrida nafaqat mamlakat nafaqat mamlakat mustaqilligini ta'minlash,balki qudratli davlat barpo etish,ma'daniyat san'at, ilm-fan sohalarini rivojlantirishga xizmat qildi" ***[8:164].***

Tarix Amir Temurni Makedoniyalik Iskandar, Doro I, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorga qo'yadi. Amir Temur ming jangni o'tkazib,

yengilmagan mashhur zamon sarkardasi sifatida davlat tuzilish ishlariga ilm-fan, ma’rifat-madaniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan siyosiy arbob sifatida tarixga kirdi. Yurtboshimiz aytganlaridek, har qanday chinorning ko‘rki-qudrati uning ildizlariga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yurtimiz yer yuzida kecha paydo bo‘lgan davlat emas. Biznining ildizlarimiz mustahkam. Ana shunday baquvvat ildizlarimizdan biri –Amir Temur bobomizdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Temur Tuzuklari. – Toshkent: Yoshlar, 2018.
2. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent, “Sharq” nashriyoti – 1997.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent, O‘zbekiston. – 1996.
4. Ibn Arabshoh. Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent, Mehnat – 1992.
5. Abu Tohirxoja. Samariya. www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2021.
7. Bahodir Eshov. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent. 2012.
8. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati – Toshkent, O‘zbekiston. 2016.
9. Marsel Brion. Menkim, Sohibqiron-Jahongir Temur. – Toshkent, Yangi asr avlodi. 2013.
10. Muhammad Ali. Amir Temur solnomasi. – Toshkent. 2008.
11. N.G‘oyibov. Amir Temur davri ma’naviyati. G’afur G’ulom nashriyoti –Toshkent. 2001.
12. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.
13. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING

O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

AMIR TEMURNING BIZ BILGAN VA BILMAGAN QIRRALARI

Abdullayev Shuhratjon Xamidullayevich
Mamadaliyev Islomjon Akramjon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV
Namangan akademik litsey o‘qituvchilari

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Amir Temur bobomizning saltanat boshqaruvi hamda saltanat xavsizligi yo‘lida amalga oshirgan choralari, qo‘llagan taktik uslublari va nabirlariga aytgan tuzuklari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘z va iboralar:*xonlar, amirlar, dorug‘a, tuzuklar, josuslar, xufiya- ayg‘oqchilar, savdogarlar, saltanat.*

Аннотация: *В этой статье описываются меры, предпринятые нашим предком Амиром Темуром для управления государством и обеспечения безопасности государства. В ней также описаны тактика, которую он использовал, и правила, которые он рассказывал своим внукам.*

Ключевые слова и фразы: *ханы, эмиры, даруга, уложения, разведчики, купцы, государство.*

Annotation: *This article talks about the measures taken by our grandfather Amir Temur in the way of the management of the kingdom and the security of the kingdom, the tactics he used and the rules he told his grandchildren.*

Key words and phrases: *khans, emirs, daruga, tuzuks, spies, khufiya-spies, merchants, kingdom.*

Mamlakatimiz sharqning eng qadimiy davlatlari qatorida insoniyat sivilizatsiyasi beshiklaridan biri hisoblanadi. Bizning diyorimiz dunyo ilmu fani va madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan Al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, imom al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Muhammad az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi daholarni dunyoga keltirgan. Ular qatorida Bobomiz Amir Temur mamlakatimiz davlatchiligini yuksak darajaga ko‘tarib, jahondagi eng qudratli davlatga aylantirgan. Amir Temur dunyo davlatchilik taraqqiyotiga va jahon harbiy san’ati rivojiga salmoqli hissa qo‘shib, uni yangi pog‘onaga ko‘targanligi haqida tarixchilar, harbiy mutaxassislar e’tirof etganlar. Amir Temur tarixini o‘rgangan tarixchi, yozuvchi, muarrixlarning ma’lumotlariga ko‘ra, Amir Temur qudratining omillaridan biri, ichki va tashqi razvetka xizmatini a’lo

darajada yo‘lga qo‘yilganligidadir.Amir Temur xabar va maxfiy ma’lumotlar do’stu dushmanga nisbatan katta ustunlikni ta’minlashi mumkinligini hech qachon unutmagan. Bu haqida “ Temur tuzuklari “ da axborotlarni zudlik bilan yetkazishni buyurganligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan: “ Amr qildimki – mingta tez yurar tuya mingan , mingta ot mingan yelib - yuguruvchi kishini chopqunchi, ming nafar tez yurar piyodani chopar etib tayinlasinlarki, turli mamlakatlar, sarhadlarning xabarlarini, qo‘shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, huzurimga kelib, xabar qilsinlar, toki biron voqea, kor- hol yuz bermasidan burun chora va ilojini qilaylik”. Amir Temur Movoraunnahrda hali siyosiy hokimiyatga ega bo‘lmasidan oldin, o‘zining maxfiy ayg‘oqchilar xizmatini tashkil etib, bu xizmat orqali o‘z manfaati uchun zarur axborotlarga ega bo‘lgan. Bu axborotlar orqali Chig‘atoy xonlari va amirlari orasidagi o‘zaro munosabatlarni, o‘zaro urushlarni ziyraklik bilan kuzatib borgan, zaruratga qarab ulardan foydalangan. Jumladan: 1360-1361-yillarda Movaraunnahrga Mo’g’uliston xoni Tug’luq Temur bostirib kirganida uni xizmatiga kirib, Kesh viloyatining dorug‘asi bo‘lishga erishadi. Ammo, ayrim masalalarda Tug’luq Temurning o‘g‘li Ilyosxo‘ja bilan kelisha olmagani tufayli Tug’luq Temur tomonidan Ilyosxo‘jaga maxfiy farmon yuborilib, Temurni qatl etishni buyuradi. Temurning maxfiy xizmati shu ma’lumotni Ilyosxo‘jadan avval qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ladi. Bu haqida M. Ivankinning “Ikki buyuk sarkarda Chingizxon va Amir Temur” asarida shunday ma’lumot keltiriladi: “ Ilyosxo‘ja Movaraunnahrda hukmronlik qilishda o‘zbeklar (Sirdaryoning shimolida yashaydigan ko‘chmanchilar qabilalar – o‘zbeklar deb atalgan) bilan hamkorlik qilar edi. O‘zbeklar payg‘ambar avlodidan bo‘lgan 70 kishini zindonga tashlaganligini eshitgan Amir Temur ularni shu zahotiyoq ozod etishga buyruq berdi. O‘zbeklar bilan yuz bergan shu kabi to‘qnashuvlar Ilyosxo‘ja va o‘zbeklar g‘azabini uyg‘otdi. Aftidan, Ilyosxo‘ja shu haqda otasiga xat yo‘llagan. Tug‘luq Temur buyrug‘iga binoan Temurni o‘ldirishg*a buyurilgan. Ammo bu axborot Amir Temurga Ilyosxo‘jadan oldinroq yetib kelgan”.*

Amir Temur 1370-yilda Movaraunnahrda siyosiy hokimiyatni egallaganidan keyin, o‘zining josuslik xizmatini qaytatadan tashkil etib, endi uni davlatning razvedka va kontrrazvedka xizmatiga aylantirdi. Amir Temur shunday maxfiy xizmat tizimini yarata olgan ediki, bu orqali qo‘shni o‘lkalar, mamlakatlar va raqiblari haqida barcha ma’lumotlarga ega bo‘lib, dunyoning hamma mintaqalarida bo‘layotgan voqea va hodisalardan ogoh bo‘lib turgan. Bu axborotlarning eng muhumlari yuzasidan kengaytirilgan va tor doirada muhokamalar qilib, ko‘pchilikni fikrini o‘rgangan. Shundan keyin zarur choralar ko‘rgan. XIV – XV asr tarixchisi Ibn Arabshox o‘zining “Amir Temur tarixi” asarida Amir Temurning josuslik xizmati haqida shunday ma’lumotlarni keltiradi: “Josuslar chor atrofda bo‘layotgan xodisalar va ularning xabarlarini Temurga yetkazib, manzil-u shaharlarni tavsiflardilar. Ularda manzilni tekis va notekis joylarning suratini keltirib, uylari va daryolari o’rnini chizib ko‘rsatar, shahar va qishloqlarning nomlarini, har bir joy boshliqlarini, amirlarini, Ulug‘larini, fozillarini, faqirlarini holatini , ismlarini laqablarini, hunarlarini bayon qilar edilar. Natijada, Temurbek o‘z fikri bilan shu narsalarni yaqqol ko‘rib, tafakkuri vositasida bu yerlar ustidan hukm yuritar edi. Amir Temurning josuslik xizmati shunday ishlar ediki, unda budparastlar, olovga sajda qiluvchilar, yahudiylar, majusiylar, sehrgarlar, nasroniylar, zardushtiylar kabi barcha dinlarga mansub kishilar bo‘lgan. Ular Amir Temurga sidqidildan sadoqat bilan xizmat qilganlar. Bunday sidqidillikka Ibn Arabshox ajablanib “Amir Temur tarixi” asarida shunday yozadi. Ular tangridan tashqari o‘zlariga Temurni sardor va homiy deb qabul qilganlar. Ular bu bilan o‘zlaricha kibrlanib, bag‘oyat faxrlanadilar. Ularning Temurga nisbatan munosabatlari shunchalik darajada ediki, basharti Temur payg‘ambarlik yoki ilohiylikni davo qilsa uning da’vosini albatta tasdiqlardilar. Amir Temurning josuslik xizmati shu vaqtlarda dunyoning barcha mamlakatlarda ish ko‘rgan. Josuslar orasida yuqori lavozim egalari, harbiy amaldorlar, e’tiborli kishilar, din xizmatchilari, yirik savdogarlar, naqshbandiylik va yassaviylik tariqatining qalandar darveshlari, faoliyat ko‘rsatar edi. Ayniqsa, qalandar, darveshlar uchun

barcha musulmon mamlakatlari ochiq bo‘lgan, ular har qanday shahar va qo’rg’onlarga kira olganlar. Bu qalandarlar Amir Temurning eng ishongan odamlari Temurning ko‘zi va qulog‘i bo‘lgan. Bundan tashqari harbiy yurushlar davrida maxsus bo‘linmalar qalandar, darveshlar kabi kiyinib, yoki ko‘chmanchi qabilalarning kichik-kichik qaroqchi to’dalari ko‘rinishida harakatlanib, axborotlarni to‘plardilar. Amir Temurning axborot- josuslik xizmati haqida rus harbiy mutahasisi Mixail Ivankin “Ikki buyuk sarkarda Chingizxon va Amir Temur” asarida shunday ma’lumotlar keltiriladi: “Chegaradosh davlatlar to‘g‘risidagi kerakli ma’lumotlarni Amir Temur 1000 kishilik yengil bo‘linmalar vositasida to‘plardi. Bu bo‘linmalar suvsiz cho’l yerlarda tuya minib, boshqa joylardan esa otliq va piyoda holda harakat qilardilar. Qoshni chegaradosh davlatlar hukmdorlarining qanday niyatlari borligini, kimga, qachon urush boshlashlarini bilib olishga harakat qilardilar. Mazkur bo‘linmalar keltirgan ma’lumotlarga qarab Amir Temur tegishli chora tadbirlar ko‘rardi. Bunday axborot to‘plash ishi huddi Chingizxon kabi savdo munosabatlari bahonasida ham amalga oshirilishi mumkin edi. Amir Temur savdo karvonlarini O‘rta Osiyonining turli o‘lkalariga, Xitoy, Hindiston, Misr, Suriya, Gurjiston va hatto Yevropa davlatlariga ham yuborar edi. Karvon qaytib kelganidan keyin, darvesh shaklida savdogarlar bilan karvonga qo‘shilgan, ayonlar yo‘l davomida ko‘rgan davlatlaridagi shart – sharoitlarni, shu davlatda yashovchi xalq urf – odatlarini va eng asosiysi - o‘sha davlat hukmdorlarining o‘z fuqorolariga bo‘lgan munosabatlari haqida ma’lumot berardilar. Amir Temur saltanat xavsizligi yo‘lida tashqi razvedka bilan bir qatorda ichki razvedkaga ham saltanat ishining muhum sohasi sifatida katta e’tibor bergan. “Temur tuzuklari” da shunday tuzuklar keltiriladi: “Podshoh majlis ahlidan ogoh va hushyor bo‘lsinkim, ular kopincha ayb axtarib, uni tashqariga tashiydilar. Podishohning so‘zidan, ishidan amirlarga, dushmanlarga xabar berib turadilar. O‘zimning xos majlisimdagi bir qancha suhbatdoshlarim vazirlar va amirlarimning josuslari ekan. Davlat ishida talay olchoq, yomon odamlar bordirki, davlat dushmanlarini yaxshilab, uning

jonfidolarini turli makr-hiylalar bilan xarob qiladilar. Chunonchi, amir Husayn vazirlarimdan ikitasini aldab, davlatimning tayanchi, ikki qo‘li bo‘lmish amir Idiku Temur va amir Jokuni menga qarshi qo‘ymoqchi bo‘lib gap chiqardi. Men buni farosatimla sezib, ular hususida aytilgan hamma gaplarni eshitmaganga soldim. “Amir Temur tuzuklar orqali avlodlariga ma’lum qilmoqchi bo‘lgan o’git shuki, Temur bunga o‘xshagan ig‘volarga ko‘p marta duch kelgan. Dastlabki vaqtlarda mudxish xatolarga ham yo‘l qo‘ygan. Shunday ig‘volar natijasida eng yaqin amiri Abbosni o‘limga buyurib, keyin pushmon qilganligini yozib qoldirgan. Bu tuzuklar va tarixiy faktlardan xulosa shuki, Temur razvedka va kontrrazvedka ishiga saltanat xavfsizligining muhum omili sifatida qaragan. Toplangan axborotlarni eng ishongan kishilar bilan sinchkovlik bilan tahlil qilgan. Natijada har doim barcha masalada axborot ustunligiga ega bo‘lgan. Amir Temur tomonidan qo‘llanilgan harbiy san’atning yana bir usuli hammani chalg‘ita olish san’ati edi. Bunday usulni qo‘llashning sababi dushman ayg‘oqchilarini yolg‘on axborotga ega qilish, ularni g‘aflatda qoldirish bo‘lgan. Amir Temur hech qachon qayerga yurish qilishini ma’lum qilgan emas. Biror yurtga yurush qilinadigan bo‘lsa u mamlakat haqidagi ma’lumotlar yuqoridagi josuslik usullari orqali yillar davomida to‘planar, tegishli zahira imkoniytlari yaratilib, dushman haqidagi ma’lumotlar mukammal o‘rganilganidan keyin yurush taradudi boshlanar, shunda ham hech bir kishi navbatdagi yurish qayerga qaratilganligini bilmas edi. Amir Temur mashhur “Uch yillik”, “Besh yillik”, “Yetti yillik” yurishlar vaqtida ham shunday qilgan. Hammani chalg’itgan bu bilan dushman tomon josuslarini ham g‘aflatda qoldirgan. Bu borada Ibn Arabshoxning “Amir Temur tarixi” asarida keltirilgan ma’lumotlar diqqatga sazovor: “Temur bu masalada o‘zining yo‘lboshlovchi, rahbar-u boshliqlarini chaqirib, o‘sha kelishilgan tomonga yo‘l olib, faqat boshqa tarafga qarab, tarqalishlarini amr qilardi. Qachonki jo‘nash uchun nog‘ora chalinib, odamlar o‘z yuklarini ortib amr qilingan tomonga ravona bo‘lganlarida , Temur o‘z yo‘lboshlovchilarini chaqirar, ularni ham yuklarini ortib, jo‘nay boshlaganlaridan keyin odamlardan ajralishlarini va boshqa tomonga qarab yurishlarini amr qilardi.

Masalaning oydinligi qaysi tomonga yurishlik jamoaga faqat shu onda ayon bo‘lardi. Odamlar u tomonga ketsa, Temur bu tomonga, askarlar g‘arbga yursa Temur sharqqa yurardi”.

Bugungi kunda bu Ulug‘ zotni nafaqat harbiy san’at, balki, bunyodkorlik, qonunshunoslik, yaratuvchilik, davlat boshqaruviga doir ishlari butun dunyoda o‘rganilmoqda. Ayni vaqtda dunyoning 33 mamlakatida 500 dan ziyod chet ellik tadqiqotchilarning asarlari chop etilgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Temur Tuzuklari. – 1991
2. Ikki buyuk sarkarda Chingizxon va Amir Temur” Mixail Ivanin. – 1994.
3. Amir Temur tarixi. Ibn Arabshoh. – 1992.
4. Sh. Karimov. R. Shamsiddinov. Vatan tarixi. – 1997.

MIRZO ULUG‘BEK ILMIY MEROSIGA BIR NAZAR

A.A.Aloxunov
FarDU Jahon tarixi kafedrasi dotsenti,
I.Y.Bozorov
FarDU O‘zbekiston tarixi 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: *Dunyo astronomiya fani taraqqiyotida o‘rta asr Sharq astronomiyasi, jumladan, Markaziy Osiyo olimlarining faoliyati alohida o‘rin tutadi. Bu davrda, ayniqsa, Quyosh, Oy va sayyoralarning harakat nazariyasi, amaliy astronomiyaning vaqt va joyning geografik koordinatalarini aniqlashga doir masalalari bo‘yicha O‘rta Osiyo, xususan, o‘zbek allomalari juda boy meros qoldirdilar. Mazkur maqolada Quyosh, Oy va sayyoralarning harakatlarini o‘rganish bo‘yicha Ulug‘bek va uning maktabi qo‘ygan poydevor astronomiya fanining shakllanishida muhim o‘rin tutganligi, shuningdek, olim va uning ilmiy merosi o‘sha davr reaksion va progressiv kuchlari tomonidan qattiq tazyiqqa uchraganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bayon qilingan.*

Kalit so‘z va iboralar: *buyuk qomusiy olimlar, falakiyot fani va ilmi, astronomiya maktabi, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Ulug‘bek observatoriyasi, reaksion va progressiv kuchlar.*

Аннотация: *В развитии астрономической науки в мире особое место занимают средневековые восточные астрономы, в том числе деятельность ученых Средней Азии. В этот период среднеазиатские, в частности, узбекские ученые оставили богатое наследие в области теории движения Солнца, Луны и планет, по вопросам определения географических координат времени и места в практической астрономии. В данной статье приведены сведения о том, что фундамент, заложенный Улугбеком и его школой*

по изучению движений Солнца, Луны и планет, сыграл важную роль в становлении астрономической науки, в то же время сам ученый и его научное наследие подверглись резкой критике со стороны реакционных и прогрессивных сил того времени.

Ключевые слова и фразы: *великие ученые-энциклопедисты, астрономическая наука, школа астрономии, Мухаммад Тарагай Улугбек, обсерватория Улугбека, реакционные и прогрессивные силы.*

Annotation: *In the development of astronomical science in the world, a special place is occupied by medieval oriental astronomers, including the activities of scientists from Central Asia. During this period, Central Asian, in particular, Uzbek scientists left a rich legacy in the field of the theory of the motion of the Sun, Moon and planets, on the determination of the geographical coordinates of time and place in practical astronomy. This article provides information that the foundation laid by Ulugbek and his school for the study of the movements of the Sun, Moon and planets played an important role in the development of astronomical science, at the same time, the scientist himself and his scientific heritage were sharply criticized by the reactionary and progressive forces of the time.*

Key words and phrases: *great encyclopedic scientists, astronomical science, school of astronomy, Muhammad Taragay Ulugbek, Ulugbek's observatory, reactionary and progressive forces.*

Biz yashayotgan dunyo so‘nggi yillarda nihoyatda tez o‘zgarmoqda. Xususan, Vatanimiz tarixida XX asrning 90-yillarida olamshumul voqealar yuz berdi: mamlakatimiz mustaqillikka erishib, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini tanladi, rivojlanishning o‘zbek modelini amalga oshirishga kirishdi. Ayniqsa, davlatimizning o‘z istiqlolini qo‘lga kiritishi, o‘zlikni anglash, Ona tariximizni chuqur o‘rganishga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi natijasida mavjud ilmiy-badiiy merosga emin-erkin, real yondoshish va tadiq etishdek zarur imkoniyat qo‘lga kiritildi. Fan masalalari xolisona yoritila boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: «tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” ***[1].*** Sharqning Ulug‘ allomalari va mutafakkirlarining kashfiyotlari zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot poydevoridir. Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an’analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma’naviy muhit mavjud bo‘lmog‘i kerak. Taniqli ingliz fan tarixchisi

J.Bernal XX asrning o‘rtalarida Prezidentimizning yuqorida bildirgan fikrlariga hamohang ravishda shunday yozadi: “Ovro‘paning katta qismida Rim imperiyasi qulashida, alg‘ov-dalg‘ov bo‘lib yotgan paytda musulmon dunyosi misli ko‘rilmagan taraqqiyotni boshidan o‘tkazgan edi. Musulmon olimlari tirik va rivojlanayotgan fanni yaratdilar. Ular Eron, Hindiston, Xitoy va Yunoniston ilmini rivojlantirib matematika, astronomiya va tibbiyotni kengaytirdilar, algebra, trigonometriya va optikaga asos soldilar. Eng hal qiluvchi yutuqlarni musulmon olimlari kimyo va alkimyo sohasida qo‘lga kiritdilar. Ular eski nazariyalarni tubdan qayta ishladilar, unga tajribalar yakunlarini qo‘shdilar va yangi kimyo fanini yaratdilar” ***[7:77]***. Darhaqiqat, inson dunyoqarashining shakllanishida ma’rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o‘rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo‘ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo‘ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo‘ladimi? ularning barchasi odamning intellektual kamolotiga erishuvida katta ta’sir kuchiga ega.

Sharqning buyuk qomusiy olimlari Ahmad al-Farg‘oniy, Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, Ulug‘ so‘fiylar Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, So‘fi Olloyyor, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband va yana ko‘plab mutafakkirlarning ilg‘or umuminsoniy g‘oyalari ilm-ma’rifat, adab ahliga to‘laqonli ravishda yetkazilmoqda. Bu esa yosh avlodning har tomonlama yetuk, komil insonlar bo‘lib ulg‘ayishida ulkan ahamiyat kasb etib, ularda zarur bilim va ko‘nikmalarni shakllantirmoqda. Ma’lumki, al-Ma’mun davrida katta muvaffaqiyatlarga erishilgan fanlardan biri falakiyot edi. «Bayt al-qikma»dagi astronomlar qadimgi yunon olimlari asarlarida ta’riflangan natijalarni qaytadan o‘zlarining tajribalari asosida tekshirib chiqdilar ***[2:39].***

Astronomik bilimlar taraqqiyoti o‘rta asrlarda o‘ziga xos tarzda davom etdi. Hozirgi zamon fan tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda bu davrda Markaziy Osiyo xalqlari tarixida fan va madaniyat yuksalishining ikki bosqichi aniqlangan: birinchisi — IX–XI asrlar, ikkinchisi — XV asr ***[3]***.

IX asrdan boshlab O‘rta Osiyo va Xurosonda ilm-fan jadal rivojlana boshladi. Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar va Temuriylar hukmronlik qilgan davlarda iqtisod va madaniyat yuksalib, shaharlar, hunarmandchilik va savdo rivojlandi, ma’muriy, xo‘jalik, diniy va madaniy inshootlar qad ko‘tardi. Marv, Buxoro, Samarqand, Kot, Gurgon, Gurganj, Ray, Balasog‘un, Koshg‘ar, Hirot kabi shaharlarda ilmiy markazlar yuzaga keldi.

O‘rta asrlar musulmon Sharqida falakiyot fani taraqqiyotiga As-Said ibn al-Marvaziy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Sobit ibn G‘urra, Muhammad ibn Jobir al-Battoniy, Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy, Abu Nasr Muhammad al-Forobiy, Abdurrahmon as-Sufiy, Abul Vafo Muhammad al-Buzjoniy, Ibn Yunus, Abu Mahmud Hamid al-Xo‘jandiy, Abu Nasr Mansur ibn Iroq, Abu Ali al-Hasan ibn al-Xaysam, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy, Abu Ali al-Husayn ibn Sino, Umar Xayyom, Ibn Tufayl, Ibn Rushd, Mahmud al-Chag‘miniy, Nosiriddin Tusiy, Ali Shoh, al-Xorazmiy al-Buxoriy, G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Qozizoda ar-Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, Sharafiddin Ali Yazdiy, Alouddin Ali Qushchi, Fasihdddin Muxrmmad an-Nizomiy al-Ko‘histoniy, Abdulqodir Ro‘yoniy Lohijiy kabi ko‘plab olimlar salmoqli hissa qo‘shganlar.

O‘rta asrlarda aniq fanlar tarkibida falakiyot fani keng tarqalgan bo‘lib, o‘sha davrlarda u ilm al-hay’a, ilm al-falak, ilm an-nudjum, tanjim deb nomlangan. Musulmon dunyosida vaqt va makon muammolari, Makka, ya’ni Ka’ba tomonni, yer yuzida geografik koordinatalarni, namoz vaqtini, diniy bayramlar kunlarini aniqlash, kun, oy, yil davomida vaqtni bilish maqsadida tuziladigan taqvimlar, zijlar tuzish falakiyot kuzatuvlariga tayanardi.

XIV–XV asrlar Markaziy Osiyo gumanitar yozma yodgorliklarida falakiyotga oid ma’lumotlar bo‘lgan 40 ga yaqin gumanitar manbalar aniqlandi va ulardan Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Umar Xayyom, Sayfi Saroyi, Xoja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi falakiyotga oid ma’lumotlar tadqiq qilindi . Mazkur davrda musulmon Sharqi,

Markaziy Osiyoda yassi usturlob, devoriy sekstant (Xo‘jandiy ihtirosi), Qo‘shyoyli devoriy kvadrant (Ulug‘bek ihtirosi), suv soati, Toshkent, Bag‘dod, Ray, Marog‘o, Smarqanddagi “Obskur kamera” (Qora xona effekti) tamoyilida ishlaydigan jihoz-binolar va gumanitar yo‘nalishda Alisher Navoiy nazmidagi o‘nta nodir astronomik tushuncha kabilar ma’lum bo‘ldi.

Fan masalalarini muvaffaqiyatli tahlil va tadqiq etgan, falakiyot, ya’ni astronomiyaga oid bilimlarning ilk tadqiqotchilaridan bo‘lgan buyuk Sharq matematigi va jamoat arbobi Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek ham xalqimizning suyukli dilbandi va donishmandidir. U qoldirgan ilmiy-fundamental meros nafaqat o‘z davrida, balki ayni vaqtda ham o‘z qimmatini yo‘qotmay, jahon fani rivojiga bemisl ulush qo‘shib kelyapti. Allomaning serqirra ijodi bugungi fanimizning turli tarmoqlarida o‘rganilayotganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Ulug‘bekning ta’lim olishi to‘g‘risida rasmiy tarixshunoslikda uning birinchi murabbiysi Amir Temurning katta xotini Saroy Mulkxonim bo‘lganligi, 1405-yildan 1411-yilgacha esa amir Shohmalik vasiyligida turganligidan bo‘lak boshqa hech narsa ma’lum emas. Bu kishilar Ulug‘bekka bilim olish ma’nosida biron muhim narsa berganliklari ehtimoldan uzoq, chunki ularning o‘zlari yetarlicha bilimga ega bo‘lmaganlar. Shuning uchun ham bu masalada biz tusmoliy gaplar aytish bilan cheklanib qolamiz.

Yoshligida qilgan sayohatlar unda bilimga tashnalikni uyg‘otishda katta rol o‘ynagan, albatta. Masalan, Ulug‘bekning Hirotga tez-tez borib turganligi va shu davrda Hirot madaniy jihatdan qanday darajada turganligini eslash kifoyadir. Temur saroyidagi olimlar va shoirlar bilan muomalada bo‘lish Ulug‘bekning ilmiy jihatdan kamol topishiga ayniqsa katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu olimlar orasida astronom Mavlono Ahmad ham bo‘lib, u 1405–1406-yillarda «ikki yuz yillik astrologik hisoblar qilganligini ibn Arabshohga aytgan» ***[4:46]***.

So‘ngra Ulug‘bekning otasi Shohruh kitobga, ayniqsa nodir kitoblarga juda o‘ch kishi bo‘lgan. Shohruh dunyoning hamma chekkalaridan kitoblar yig‘ib va nodir qo‘lyozmalarni har qanday katta pulga xarid qilib, juda boy kutubxona

vujudga keltirgan. Mana shu kutubxona ham Ulug‘bekning bilim doirasini kengaytirishga yordam bergan, albatta. Chunki u vaqtining ko‘pini kitob mutolaasida o‘tkazgan.

Ulug‘bek yunon olimlaridan Platon, Aristotel, Gipparx, Ptolemeylarning klassik asarlari bilan tanish bo‘lgan va o‘z vatandoshlari — Ahmad Farg‘oniy, Aburayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Muso Xorazmiy kabi olimlarning yozgan asarlarini yaxshi o‘rganib chiqqan.

Bundan tashqari Ulug‘bekning xotirasi ham juda kuchli bo‘lgan. Buni quyida bayon qilinadigan hodisa ham yaqqol isbotlaydi. U juda ishqiboz ovchi bo‘lib, qilgan ovlarini Ro‘yxatga olib borgan. Bir kuni shu Ro‘yxatni yo‘qotib qo‘yadi va xotirasida qolganiga ko‘ra qayta yozib chiqadi. Oradan birmuncha vaqt o‘tgach yo‘qolgan boyagi daftar topiladi. Shunda tuzgan yangi Ro‘yxatni daftarda yozilganiga taqqoslab ko‘rganida oradagi tafovut juda oz — to‘rt yoki besh joyidagina bo‘ladi, xolos. Ulug‘bek salohiyatli, ajoyib xotirali bo‘lganligi, sekin-asta bilim egallab borganligidan ilm-fanga ishtiyoq va intilishi kuchayib boradi. Ulug‘bek yanada ko‘proq mutolaa qilish va muntazam ravishda qattiq ishlash natijasida katta bilimga ega bo‘lib, o‘zining ko‘pgina zamondoshlaridan ancha o‘zib ketadi. Shunday qilib, O‘rta Osiyodagi qadimgi xalqlar ajdodlarining madaniy merosi Ulug‘bek olgan bilimlarning asosiy manbai bo‘lib qoladi.

O‘sha davrda aniq fanlarning rivoj topganligi, bu sohada ajoyib asarlar yaratilganligi va, nihoyat, taniqli astronomlar va matematiklar bilan muomalada bo‘lib turishi asosan Ulug‘bek ilmiy faoliyatining yo‘nalishini belgilab beradi.

Mirzo Ulug‘bek davrida aniq fanlar jadal rivojlandi va bu, o‘z navbatida, astronomik tushunchalarning gumanitar manbalarda ham aks etishiga olib keldi. Uning rahbarligida shakllangan riyoziyot va falakiyot maktabi fan tarixida alohida nufuzga ega bo‘ldi.

Ulug‘bek o‘z saltanatida ma’rifat, fan va ta’lim ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi. Jumladan, Buxorodagi madrasa eshigiga «Bilim olish har bir musulmon va muslimaning burchidir», degan shiorning o‘yib bitilganligi

buning yaqqol dalilidir. Ulug‘bek Movarounnahrni butun musulmon mamlakatlarining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi. U o‘zining fan va ta’lim dasturi asosida Samarqanddagi Ko‘hak tepaligida o‘sha zamon falakiyot ilmining barcha yutuqlarini o‘zida mujassam etgan va o‘rta asrlar falakiyot ilmining eng yuqori cho‘qqisi namunasi bo‘lgan hamda Ulug‘bek akademiyasining markazi bo‘lgan ulkan rasadxona majmuasini bunyod qiladi ***[3:50-51]***.

1424–1428-yillarda qurilgan Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi XV asr me’morchiligining nodir namunalaridan bo‘lgan. Bobur Mirzoning yozishicha, rasadxonaning sirti koshin va chiroyli bezaklar bilan ziynatlangan bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek rasadxonasida kvadrantdan tashqari bir necha kuzatish asboblaridan ham foydalanilgan. Ularning orasida armilyar sfera, trikver kabi asboblar mavjud edi ***[8]***. Rasadxonada yigirmaga yaqin turli astronomik jihozlar, kutubxona, hisobxonalar mavjud bo‘lib, yuzga yaqin xodimlar astronomik tadqiqotlar bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Lekin, bu ishlarning barchasi biz o‘ylagandek oson kechmagan. Chunki XV asr O‘rta Osiyo uchun ikki dunyoqarash kurashi davri bo‘lgan. Temurning sobiq poytaxti Samarqandda 40 yil hukmronlik qilgan uning nabirasi Ulug‘bek bir dunyoqarash namoyandasi bo‘lsa, naqshbandiy darvishlarning boshlig‘i Xoja Ahror ikkinchi dunyoqarash namoyandasi bo‘lgan. Xoja Ahror siyosiy hokimiyatni qo‘lga olish uchun o‘zining diniy obro‘sidan foydalangan va Temurning haqiqiy yoki soxta avlodlari orqali mamlakatga 40 yil hukmronlik qilgan ***[5]***. Shariatga shak keltirdi, deb Ulug‘bekka nisbatan shayxlar bir necha bor ta’nalar qilgan bo‘lsalar-da, Ulug‘bek bu hurujlarni dadil daf qiladi va o‘z qilmishlarida qattiq, izchil, prinspial turib qolaveradi. Masalan, bir kuni ziyofat vaqtida Ulug‘bek saroyiga muttaasib Said Oshiq kelib, Ulug‘bekka qarata bunday so‘zlar aytadi: «Siz Muhammad dinini barbod etib, kofirlarning urf-odatlarini kiritdingiz» deydi. Bunga javoban Ulug‘bek vazminlik va qat’iyat bilan borayotgan yo‘limni o‘zgartirmayman, deb javob qiladi. Xoja Ahror esa Said Oshiqni juda maqtab, Muso payg‘ambarga o‘xshash g‘oyat mohir va’zxon, degan edi. Bir kuni Said Oshiq Samarqandda va’zxonlik qilaturib, «Mirzo Ulug‘bekka

qattiq-qattiq o‘git-nasihat qiladi. Shunda Ulug‘bek undan so‘raydi: «Aytingchi Said, kim yomonroq— menmi yoki Fir’avnmi?» Said javob beradi: «Fir’avn yomonroq». Mirzo yana so‘raydi: «Endi aytingchi, kim yaxshiroq — Musomi yoki sizmi?» Said javob beradi. «Muso yaxshiroq». Shundan keyin Mirzo unga mana bu savolni beradi: «Olloh taolo Muso payg‘ambarga Fir’avnga qattiq-qattiq gap aytma va hatto «u bilan gapni yumshoq qil» deb farmoyish berganida nima uchun Muso payg‘ambardan ham pastroq bo‘lgan janobingiz Fir’avndan balandroq bo‘lgan menga bu qadar qo‘pollik qilyapsiz?» Said mulzam bo‘lib, hech nima deya olmay qoladi». Umuman, butun kishilik tarixi, jumladan, o‘rta asrlar tarixida jamiyatning reaksion va progressiv kuchlari orasida kurash borgan. Masalan, buyuk olim Beruniyni deyarli butun ijodiy faoliyati davomida quvg‘in ostiga olganlar. «Men yashirinib yurishga, boshpana qidirishga majburman» deydi, u. Beruniyning sarsongarchiligi avjga chiqqan bo‘lsa kerak: «Shunday azoblarni kechirdimki, unaqasini Nuh ham, Lot (a.s) ham ko‘rmagan» deydi. O‘rta asr Sharqining boshqa buyuk olimi — Abu Ali ibn Sino ham o‘zining bund saroyida birinchi ministr lavozimida bo‘lishiga qaramay, bunday azoblarni tortgan. U bir necha marta qamalgan, quvg‘in qilingan, uning ba’zi asarlari bid’at deb kuydirib yuborilgan ***[6:288].*** Shunday taqdir Mirzo Ulug‘bek hayotiy faoliyatida ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, olimning rasadxonasi tabiiy holda vayron bo‘lgan emas. U «g‘ishtma-g‘isht ko‘chirib buzilgan, chunonchi, bu yerdan butun g‘isht, katta-katta bo‘laklar, marmar plitalar va katta-katta sirkorlik naqshlari boshqa inshootlarni qurish uchun olib ketilgan, qolgan-qutgan narsalar esa kvadrantning (sekstant) chuqur zovuriga tashlanavergan. Keyingi yillarda o‘tkazilgan qazishmalar mana shu xulosani tamoman tasdiqladi: darhaqiqat, o‘sha paytda rasadxona butunlay buzilgan, yaroqsiz g‘ishtlari esa tashlab yuborilgan. Shunday qilib, reaksion ruhoniylar uyushtirgan xoinona fitnada mashhur rasadxonaning asoschisi Ulug‘bekning o‘zigina qurbon bo‘lib qolmay, uning rasadxonasi ham vayron qilingan.

Xulosa qilib aytganda, astronomik kuzatishlar nuqtai nazaridan jahon astronomiya tarixini ikki yirik davrga ajratish mumkin: teleskopgacha bo‘lgan davr va teleskop davri. Birinchisida kuzatishlar oddiy ko‘z bilan olib borilgan. Ikkinchi davrda esa, teleskop vositasi bilan kuzatilgan. O‘zining ulkan masshtabi, konstruksiyasining originalligi, shuningdek kuzatish natijalari bilan Ulug‘bek observatoriyasi teleskopgacha bo‘lgan astronomiyaning eng oxirgi yutug‘i edi.

Geliotsentrik sistema Ulug‘bek maktabiga yot emasligi haqida gapirib o‘tgan edik. O‘z zamonida ilg‘or bo‘lgan Ulug‘bekning astronomik maktabi, o‘zidan oldin o‘tgan Beruniyning geotsentrik va geliotsentrik sistemalar tengligi haqidagi qarashlari bilan albatta tanish bo‘lgan. Lekin, Ulug‘bek maktabi bu ta’limotni ochiq-oydin bayon etish imkoniga ega bo‘lgan emas, chunki u islom aqidalariga zid edi. Hukmdor teologik dunyoqarash (reaksion ruhoniylar fanatizmi) bu yo‘lga to‘sqinlik qilar edi.

O‘z zamonining ilg‘or maktabini tashkil qilgan Samarqand astronomlarining faoliyati progressiv kuch bilan reaksion din peshvolari o‘rtasidagi kurash jarayonida o‘tdi. Ulug‘bekning xiyonatkorona o‘ldirilishi – bu kurash keskin zo‘rayishining namoyon bo‘lishidir, bu hodisa-voqealarning cho‘qqisidir.

Ulug‘bek o‘ldirilgandan keyin feodalizm davrining keskinlashgan ijtimoiy to‘qnashishlari natijasida uning ilmiy maktabi inqirozga uchradi, parchalanib yo‘q bo‘lib ketdi. Sharqda astronomik fikrlar tushkunlikka uchradi. Ulug‘bekdan keyin deyarli uch asr o‘tgandan so‘ng uning an’analarini Hindistonda tiklashga harakat qilinadi, lekin bu ham qisqa muddatli chaqnash edi.

Foydalanlgan manba va adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи // Халқ сўзи, 19 октябрь 2016.

2. Абдухалимов Б.А. «Байт ал-ҳикма ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (IX-XI асрларда аниқ ва табиий фанлар). – Тошкнет, 2004. – 236 б.

3. Азизов С. Марказий Осиёда астрономия ва Улуғбек мактаби. – Т.: «Ўзбекистон», 2009. – 96 б.

4. Бартольд В.В. Сочинения, т. II, ч. 2. – М.: Наука, 1964. – 657 с.

5. Вохидов Ш.Х., Ботиров М.А. Российские учёные-исследователи жизни и деятельности Ходжи Ахрара (конец XIX — начало XX вв.). https://cyberleninka.ru/article/n/rossiyskie-uchyonye-issledovateli-zhizni-i-deyatelnosti-hodzhi-ahrara-konets-xix-nachalo-hh-vv .

6. Қори-Ниёзий Т.Н. Улуғбек ва унинг илмий мероси. – Т.: Ўзбекистон, 1971. – 294 б.

7. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

8. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

9. Шодиев Н., Ахмедова Ш. Миллий дастурни амалга оширишда таълимнинг педагогик тадқиқотлар билан интеграцияси. СамДУ. Илмий ахборотномаси. №4, 2017. – Б. 76-80.

10. http://old.muslim.uz/index.php/yangiliklar-2016/uzbekistan/item/13678-mirzo-ulu-bekning-samar-and-bukhoro-va-izhduvondagi-madrasalari-z-davrida-ziga-khos-universitet-vazifasini-bazhargan.

11. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

12. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

AMIR TEMURNING KEKSALARNI E’ZOZLASHDAGI QARASHLARI

Kurbonova Shaxnoza Nimadovna

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institut Farg‘ona filiali katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk Amir Temurning davlat boshqaruvi va hayoti davomida keksalarni qadrlashga doir qarashlari, bu haqida “Temur tuzuklari”da yozib qoldirilgan fikrlari, milliy hamda ahloqiy qadriyatlarimiz tarixiy tasviri, xozirgi kunda keksalarga bo‘lgan munosabatlarning ayrim muammolari haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘z va iboralar:*Amir Temur, “Temur Tuzuklari”, milliy qadriyatlar, ahloqiy qadriyatlar, keksalarni qadrlash, ta’lim-tarbiya, insoniy fazilatlar.*

Аннотация: *В данной статье представлены сведения о взглядах великого Амира Темура на государственное управление и ценить стариков при жизни, его размышления по этому поводу, записанные в «Законах Темура», историческая характеристика наших национальных и нравственных ценностей, а также некоторые проблемы отношения с пожилыми людьми сегодня.*

Ключевые слова и фразы: *Амир Темур, «Законы Темура», национальные ценности, нравственные ценности, уважение к старшим, образование, человеческие качества.*

Annotation: *This article provides information on the views of the great Amir Temur on state management and valuing the elderly during his life, his thoughts on this written down in “Temur’s Laws”, historical description of our national and moral values, and some problems of relations with the elderly today.*

Key words and phrases: *Amir Temur, “Temur Laws”, national values, moral values, valuing the elderly, education, human qualities.*

O‘zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o‘z ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri keksalarni yuksak darajada e’zozlash, izzat-ikromini, xurmatini joyiga qo‘yishdan iboratdir.

Keksalarni qadrlash, ularning beo‘lchov, beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo‘lish, duolarini olish - yoshlarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir. Keksalarimiz qo‘llarini duoga ochar ekan, doimo sog‘lik va omonlik so‘rab allohga iltijo qiladi va buni ijobatini hayotimizda ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bunga yaqqol misolni Amir Temur faoliyatidagi ayrim voqealarda ham uchratishimiz mumkin. Masalan tuzuklarda shunday yoziladi: duogo‘y kishilarni qadrladim. Ular bilan hilvatda suhbat qurib, ko‘nglimdagi maqsadimni aytib, duo‘tilardim. Majlislarda, bazmlarda, jang

maydonlarida ulardan ko‘p barakatlar topdim. To‘xtamishxon bilan bo‘lgan jangda g‘anim lashkari ko‘pligidan va mening lashkarim esa ozligi, ochligidan ko‘p aziyat tortgan edim. Shu payt sohibi duo bo‘lmish Mir Ziyovuddin Sabzavoriy boshidan sallasini oldi, qo‘llarini duoga ochib men uchun Tangridan zafar tiladi. Hali duosi tugamay turib duo‘ta’siri ko‘rinib, lashkarlarim yog‘iyni qochirdilar.

Duogo‘y sayyidlardan o‘n ikki kishi yig‘ilishib keldilar. Har biri umridan bir yilni unga bag‘ishladi va u sog‘ayib yana o‘n ikki yil yashadi. Keksalarimizning duolarini olish, ularga xurmat ehtirom ko‘rsatish o‘z navbatida ularning xizmatlarini qilib, ko‘ngillarini olish bilan uyimizning parilarini va barakasini saqlab qolgan bo‘lamiz. Shu bilan birga asrlar osha saqlanib kelayotgan urf-odatlarimizni davom ettirgan bo‘lamiz. Yuqorida tuzuklardan keltirilgan parchadan xulosa sifatida aytish mumkinki keksalarmizning duolarini olish bilan nafaqat ishimiz yurishi balki, sog‘lik va salomatligimiz ham yaxshilanishi mumkin ekan. Tan olishimiz kerakki, sho‘rolar davrida keksalarni xurmat qilish haqidagi milliy qadriyatlarimiz biroz xira torta boshladi. Ba’zi yoshlarimizda o‘zlaridan kattalarni, nuroniy qariyalarni xurmat qilish, ularning nasihatlariga quloq solish singari yuksak ma’naviy fazilatlar yo‘qolib ketayotgani sezilmoqda. Ehtimol, boshqa millat vakillari bunga unchalik katta e’tibor berishmas, lekin biz, o‘zbeklar buni xis qilmay, ta’kidlamay ilojimiz yo‘q. Zero sohibqiron Amir Temur ham o‘z o‘gitlaridan birida aytib o‘tgan: “Saltanatimni o‘n ikki toifaga bo‘lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Ikkinchi toifa – aqlli kishilar va kengash sohiblari, ehtiyotkor arboblar, sergak va keyinini o‘ylab, olisni ko‘rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilarni xos majlisimga kiritib, suxbatlaridan, ishlaridan naf olib, tajriba hosil qilardim” ***[1:65].*** Shuni alohida ta’kidlash joizki keksalarimizning boy tajribasi, pand-nasihatlari, o‘gitlari biz yosh avlodni faqat to‘g‘ri unib-o‘sishimiz va barkamol inson bo‘lib yetishishimiz yo‘lida berilgan ma’naviy ozuqadir. Buyuk sohibqiron Amir Temurki keksa avlod vakillarini boy tajribasidan foydalangan ulardan maslahatlar so‘ragan ekan, nega biz ularning e’zozda tutmasligimiz kerak. Faqiru miskin, biron kasb qilishga ojiz shol-ko‘rlarga nafaqa belgilasinlar.

Mudarrislar va shayxlarga biron vazifa bersinlar. Avliyolar, din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag‘ ajratsinlar. Temur tuzuklarida keltirilgan ushbu misol orqali aytishimiz mumkinki keksalarimizga xurmat e’tibor ko‘rsatish kecha yoki bugun paydo bo‘lgan ma’naviy qadriyat emas, balki buning o‘q ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Zero har qaysi davrda xalqimizda keksalarga xurmat ko‘rsatish, ularning boy tajribalaridan unumli foydalanish, duolarini olish har bir farzand uchun ham farz, ham qarz hisoblangan. Ammo bugungi kunda ayrim muaamolar ham borki ularning mavjudligi ko‘ngilni xira qiladi. Jumladan: keksalar uylarida farzandlari tirik, o‘ziga to‘q bo‘lgan ota-onalarning borligi or nomusli har qanday kishini taajjubga soladi. Ayrim holatlarda bo‘lsa ham, keksalarga qo‘l ko‘tarish, undan ham og‘irroq jinoyat qilish hollari sodir bo‘lib turganligi esa achinarli holdir. Milliy qadriyatlarimizga, o‘zbek xalqining sha’niga dog‘ tushuradigan bunday yaramas hodisalar zamini, ildizi, sababi nimada, degan savol paydo bo‘lishi tabiiy albatta. Ta’kidlash joizki sho‘rolar zamonida, avlod-ajdodlarimizning o‘gitlari, pand-nasixatlari, ajoyib an’analarimizni targ‘ib etish o‘rniga doimo qoralandi, yomon otli qilindi, bid’at, xurofot, deb baholandi. Milliy tarbiya borasidagi merosimiz o‘rganilmadi, targ‘ib etilmadi. Ularning o‘rniga ta’lim-tarbiya borasida Yevropa, Rossiya modelini ko‘klarga ko‘tarib maqtab, targ‘ib qilib, yoshlarimizni o‘z milliy qadriyatlarimizdan bebaxra qilib qo‘ydik. Ta’kidlash joiz mustaqilligimiz tufayli bularga chek qo‘yildi, bunday salbiy illatlarni tugatish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa sifatida aytish joizki kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shavqat, ota-onalarga e’zoz, farzandlarga mehr-sadoqat kabi insonni inson sifatida Ulug‘laydigan, axloqiy, ma’naviy jihatdan go‘zal va barkamol qiladigan qadriyatlarimizga doimo sodiq bo‘lgan va ularni rivoji yo‘lida harakat qilgan Amir Temurning vorislari bo‘lmish biz yoshlar qalbidan ushbu qadriyatlarning chuqur o‘rin ola boshlagani quvonchli bir holdir. Amir Temurning “Temur tuzuklari” nomli kitobida uning adolatparvarligi va har bir ishga mas’uliyat bilan yondashganligini ko‘rish mumkin. Ushbu tuzuklardan barchamiz turmush

tarzimizda, farzand tarbiyasida, oilada ichki qonun-qoidalar o‘rnatishda va tarbiyada ma’naviy meros, milliy qadriyat sifatida foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir ***[3].*** O‘zbek millati insoniy fazilatlarni Ulug‘laydigan, keksalarini qadrlaydigan, ularga izzat-ikrom ko‘rsatadigan buyuk kelajakni quradigan barkamol avlodni tarbiyalash yo‘lida bardavom bo‘lsin.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Temur tuzuklari. B.Ahmedov tahriri ostida. Toshkent. 1991
2. Мўминов, Иброҳим. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли: ёзма манбалар маълумоти асосида. – Тошкент : Фан. 1993
3. Фармонова.М. ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ МАЪНАВИЙ МЕРОСИДА ФАРЗАНД ТАРБИЯСИ (Илмий-услубий қўлланма) «TASVIR NASHRIYOT UYI» Тошкент – 2020
4. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.
5. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

AMIR TEMURNING ILM-FANGA BO‘LGAN E’TIBORI

Azamatov Shaxzod Sayfullo o‘g‘li
FDU, Tarix fakulteti III bosqich talabasi
Shaxzodazamatov19@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temurning ilm-fanga bo‘lgan munosabati o‘rganildi. Zero ilm-fan yuksalgan davlat taraqqiyotga erishadi. Maqolamizda Sohibqironning chet el yozuvchilari nigohida qay darajada ilm-fan va madaniyat homiysi ekanligi va u zotning yaratgan ilmiy muhiti baholi qudrat yoritildi deb o’ylaymiz.*

Kalit so‘z va iboralar:*ilm-fan, madaniyat, temuriylar, olimlar, Lyusen Keren, jug’rofiya, tarix, Zafarnoma.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается отношение Амир Темура к науке. Ведь развивается страна с передовой наукой. В нашей статье мы думаем, что*

Сахибкиран является покровителем науки и культуры в глазах зарубежных ученых, и освещена созданная им научная среда.

Ключевые слова и фразы: *наука, культура, Тимуриды, ученые, Люсьен Керен, география, история, Зафарнама.*

Annotation: *This article examines Amir Temur's attitude to science. After all, a country with advanced science develops. In our article, we think that Sahibqiran is a patron of science and culture in the eyes of foreign scientists, and the scientific environment created by him has been highlighted.*

Key words and phrases: *culture, subject, Temurids, science, Lyusen Keren, geography, history, Zafarnamah.*

Tarixiy manba va adabiyotlarni o‘qib, ularni tadqiq etganimizda, shunga amin bo‘lamizki, tarixda o‘tgan buyuk davlatlar va ularni boshqargan hukmdorlarning ilm-fan, madaniyat va san’atga homiylik qilishi natijasida o‘sha mamlakatlar jahondagi boshqa davlatlarga qaraganda rivojlanish nuqtayi nazaridan ancha yuqori pog‘onada turganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Masalan, qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimni olaylik, bu mamlakatlarda ilm-fanning shakllanishi va uning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratib berilganligini va ular yani, ilm ahllari bu yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, o‘sha davr uchun katta yutuq hisoblangan ixtirolarni qilishganini va ular tomonidan hozirgacha saqlanib qolgan juda ko‘plab qimmatbaho asarlarning yozib qoldirilganligi fikrimizni isbotlaydi. Bunday jarayonning ulkan misoli qilib, lX – Xl asrlarda yuz bergan Sharq Renesannsni boshqacha qilib aytganda islom renesannsni keltirishimiz mumkin. Chunki, aynan shu davrda islom dini tarqalgan hududlar juda katta madaniy va ilmiy o‘zgarishlarni boshidan o‘tkazdi. Albatta, bu o‘zgarishlarning tepasida birinchi o‘rinda yuksak ta’lim va tarbiya ko‘rgan, ilmli, ziyoli xalifalar bo‘lmish Mansur, Xorun al-Rashid va Ma’munlar turgan edi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinku, mamlakat yuksalishi, kuchayishi va har tomonlama rivojlanishi uchun davlat rahbarining o‘zi, avvalo, o‘zida har jihatdan yuksak fazilatlarni namoyon etadigan, xalqni odilona boshqarish uchun uning dardini his etadigan bo‘lmog‘i zarur. Ana shunday fazilatlar sohiblaridan biri bu Amir Temurdir. Biz ushbu tadqiqotimizda ushbu insonning mamlakatda ilm-fanga rivoj berganligini va madaniyatni yuksaltirganligini qisqa bo‘lsada yoritib

o’tdik. Chunki, bugungi XXl asr, globallashuv jarayonlarida biz quyida o‘rganadigan mavzu o‘ta dolzarb hisoblanadi. Sababi biz bugun “uchinchi renessanns” ning poydevorini barpo etarkanmiz, tarixdan hali ko’p narsalarni o‘rganib ulardan munosib xulosa chiqarishimiz kerak deb o‘ylayman.

Jahon tarixida o‘ziga xos yuksak o‘ringa ega bo‘lgan, Temuriylar imperiyasi asoschisi Amir Temurning ilm-fan kishilariga, umuman ilm-fanga munosabati qanday bo‘lgan? Yuqoridagi savolga javob berish uchun avvalo Amir Temurning kelib chiqishi haqida ozgina to‘xtalsak. Amir Temur ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Barqul 1336-yil 9-aprelda (hijriy 736-yil 25-sha’bon) Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida dunyoga kelgan. Amir Temurning otasi amir Muhammad Tarag‘ay barlos qabilasiga mansub beklardan bo‘lgan. “Mujmali Fasihiy” nomli asar muallifining bergan ma’lumotiga qaraganda, amir Tarag‘ayning nasl-nasabi jahongir Chingizxonga borib taqaladi. “Jangnomayi Amir Temur Ko‘ragon”da yozilishicha, onasi Buxoro fuzalolarining eng Ulug‘i–sadr ul-shar’ia (shariat qonunlarini sharhlovchisi)ning qizi – Takina Moh begim bo‘lgan” ***[4:13]***. Yuqoridagi fikrlardan shuni anglash mumkinki, Amir Temurning ota tomondan ajdodlari o‘z davrining ilmli, jasur, qo‘rqmas hamda shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, barlos qabilasining yirik oqsoqollaridan bo‘lishgan. Ona tomondan esa Buxoro fuzalolarining avlodi ekanligini guvohi bo‘lib turibmiz. Shunday ilmli, xalqda obro‘- e’tibor qozongan oilada tug‘ilishi, bo‘lajak jahongirning bolalik chog‘laridanoq zehnining o‘tkirligi hamda qo‘rqmas bahodir jangchi bo‘lib yetishishida namoyon bo‘lgan. Temurbekning otasi Amir Muhammad Tarag‘ay, avvalo, komil musulmon va bahodir jangchi bo‘lgan. Shuningdek ulamoyu fuzaloga ixlosmand , ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi edi ***[4:13]***. Otasi haqidagi yuqorida aytilgan hislatlarni Amir Temurda ham ko’ramiz. Amir Temur! Bu nomni eshitganimizda, bevosita temuriylar davri renessannsi ko‘z oldimizda gavdalanadi. Amir Temur qariyb bir yarim asr davomida O‘rta Osiyoda mo’g’ullar hukmronligi tufayli to‘xtab qolgan ilm-fan, madaniyat, turkiy davlatchilik boshqaruv tizimini qayta tikladi. Amir Temur

mamlakatni markazlashtirish, tashqi xavf-xatarlarni oldini olish hamda karvon yo‘llari daxlsizligini ta’minlash maqsadida juda ulkan harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Bu yurishlar tarixda “uch yillik”, “besh yillik” hamda “yeti yillik” deb nomlanishi ham ko‘pchilikka sir emas. Mana shu harbiy yurishlar jarayonida Amir Temur bir narsaga alohida e’tiborini qaratdi. Qo‘shinlariga qaysi shahar yoki qal’a qamal qilinganda o‘sha yerdagi olimlar, shoirlar, me’morlar va bir so‘z bilan qaytganda, ilm-fan namoyondalariga tegmaslikni, jang paytida ularning xavfsizligini ta’minlashni uqtirgan. Bundan ko‘rinadiki, Amir Temur ularni sog‘-salomat asrash orqali mamlakatni yuksaltirishda katta hissasini qo‘shadigan qatlamni to‘plab, ularni poytaxt Samarqandga jo‘natgan. Amir Temurning qaysi harbiy yurishini o‘rganmaylik shunga amin bo‘lamizki, birinchi navbatda, bu inson zabt etilayotgan shahar yoki mamlakatdagi olim-u fozillar bilan uchrashishga, ular bilan suhbatlashishga oshiqqan. Nega shunday degan savol tug’ilishi shubhasiz. Chunki, Amir Temurning o‘zi ham zamonasining zarur bilimlarini puxta egallagan mavridi kelganda aytishimiz kerakki, ba’zi fanlarni, masalan, astronomiya, geografiya, tarix, fanlarini, me’morchilik, sohasini, shuningdek arab va fors tillarini chuqur o‘zlashtirgan va bu sohalarda ijod qiladigan o‘z davrining yetuk olim-u fozillari va mutaxassislari bilan bemalol bahs-munozara qila olgan. Amir Temurning dunyoda eng Ulug‘ va buyuk shaxs, davlat arbobi, mashhur sarkarda, fan va madaniyat homiysi sifatida nom qozonishiga sabab bo‘lgan fazilatlar “Temur tuzuklari”da o‘z ifodasini topgan. Bu fazilatlar: birinchisi va eng asosiysi Islom dini, Qur’oni Karim va uning g‘oyasiga cheksiz sadoqatda. Har yerda va har vaqt Islom dinini quvvatladim ***[3:55]*** - deydi. Amir Temurning mamlakatni jipslashtirishida, uning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashida bosh omil bu albatta islom dini edi. Qoraxoniylar davrida islom diniga bo‘lgan e’tibor oldingi davrlardagidan ham yaxshiroq bo‘lganligini va bundan ko‘zlangan maqsadni eslash kifoya. Amir Temur ham markazlashgan davlatni tuzar ekan, uning tayanchi birinchi navbatda ruhoniylar, sayyidlar va din peshvolari edi. Amir Temurga doimo o‘zlarining pand nasihatlari va o‘g‘itlari bilan manaviy ozuqa berib

turadigan mashhur uch piri bo‘lganligini yaxshi bilamiz. Shulardan biri Amir Temur birinchi marta 1370-yilda Amir Husaynga qarshi jang oldidan Termiz shahrining Biyo qishlog‘ida uchratgan Mir Sayyid Baraka edi. Bu shaxs Amir Temurning ko‘p harbiy yurishlarida shaxsan ishtirok etgan, masalan, Amir Temurning To‘xtamishga qarshi Qunduzchadagi yurishida jang To‘xtamishning ustunligi bilan boshlanadi shunda Temurning piri Mir Sayyid Baraka lashkarga qarata otashin va jangovar nutq so‘zlaydi, Temurga Alloh nomi bilan ma’naviy ozuqa beradi va sening g‘alabang ta’minlangan deb bashorat qiladi. Bilamizki, Amir Temur tug‘ilgan joy va unga yondosh bo‘lgan Termiz, Samarqand , Buxoro shaharlari azaldan islom olamida mashhur bo‘lgan buyuk olimlarni o‘z bag’rida yetishtirgan edi. Professor Bahriddin Usmonovning ta’kidlashicha, Shayxulislomlar asosan yig‘ilgan joy temuriylar poytaxti Samarqand edi. Temur zamonida shayxulislom Abu al-Malik, “Hidoya” muallifi Burhoniddin Marg‘inoniy avlodidan edi deb ta’kidlaydi. Sohibqironning ayniqsa islom olamida mashhur bo‘lgan olimlarga bo‘lgan munosabati o‘zgacha bo‘lgan. Bunga misol qilib Sa’duddin Taftazoniy bilan ro‘y bo‘lgan quyidagi voqeani keltirish mumkin. Abdulqodir Tamimiy o‘zining “at-Tabaqot” asarida keltirishicha, kunlardan bir kun Amir Temur o‘z tasarrufiga qarashli uzoq bir shaharga muhim topshiriq bilan choparini jo’natib, unga: “Agar safar paytida oting horib qolsa, yo‘lingda uchragan odamning, hattoki o‘g‘lim Shohrux bo‘lsa ham, otiga almashtirib, to‘xtamasdan yo‘l yurib, zudlik bilan bu xabarni o‘sha manzilga yetkaz”, - deb tayinlaydi. Chopar Amir Temur buyurgan shahar tomonga ravona bo‘ladi. Bir necha kun yo‘l yurgach, yo‘lda alloma Sa’duddin Taftazoniyga duch keladi. Olim yo‘l chetida otlarini o‘tlatib, o‘zi chodirda dam olayotgan edi. Shu payt Amir Temur chopari horigan otini uning otlaridan biriga almashtirmoqchi bo‘ladi. Shunda Sa’duddin Taftazoniy chodirdan chiqib, otini chopardan qaytarib oladi va jahli chiqib, uni rosa kaltaklaydi. Chopar o‘ziga topshirilgan vazifani ado etib, Amir Temur huzuriga qaytgach, sarkardaga safar paytida yuz bergan voqeani birma-bir so‘zlab beradi. Bu xabardan Amir Temur qattiq g‘azabga keladi-da, so‘ng biroz taftidan

tushib: “Agar uning(Sa’duddin Taftazoniy) o‘rnida o‘z farzandim bo‘lganida ham bu ishi uchun albatta qatl ettirardim. Lekin hali mening qilichim yetmagan joylarga asarlari-yu kitoblari tarqalib, dovrug‘i doston bo‘lib ketgan allomai zamonni qanday qilib qatl qilaman”, deb mutafakkirga nisbatan o‘zining cheksiz hurmatini bildirgan ***[5:223]***.Amir Temur bosib olingan o‘lkalardan juda ko‘p olimlar, ijodkorlar, shoirlarni Samarqandga olib kelganligini yuqorida qayd etgan edik. Ana shu ilm-fan namoyondalarining taqdiri, ularning Amir Temur saroyidagi faoliyati xususida o‘sha davrda yashagan arab tarixchisi Ibn Arabshoh nisbatan batafsil ma’lumot bergan. U Samarqanddagi ilmiy muhit haqida quyidagi ma’lumotlarni beradi: “O‘z saltanati kunlarida Temur Samarqandga faqih olimlardan mavlono Abdulmalikni – u “Hidoya” sohibi(Burhoniddin al-Marg’inoniy)ning avlodidan bo‘lib, mudarrislik qilar , shatranj va narddan ta’lim berar hamda yagona bir holatda she’r ham nazm etardi, - No’moniddin Xorazmiyni – u zikr qilingan Abduljabborning otasi bo‘lib, uni No’mon ikkinchi ham derdilar, uning ko‘zi ojiz edi va mavlono Abdulmalikning amakivachchasi Xoja Abdulavval – o‘z amakisining o‘g‘lidan keyin Movorounnahrda riyosat unga kelib yetgandi. (Temurning) muhaqqiq (olim) laridan mavlono Sa’duddin at- Taftazoniy – u 791-yilning muharram (1389-yil, yanvar) oyida Samarqandda vafot etdi va Sayyid Sharif Muhammad Jurjoniy u Sherozda vafot etdi. Muhaddis (olim) lardan Shayh Shamsuddin Muhammad ibn al-Jazoiriy, Temur uni Rumdan olib kelgan bo‘lib, u fitnadan oldin Shomdan Misrga kelgan, undan (Misrdan) esa Rumga qochib o‘tgan edi. U Sherozda vafot topdi. (Yana) Xoja Muhammad az-Zohid Buxoriy, Ulug‘ tafsirchi, hadischi, hofiz bo‘lib, Qur’on ul-karimni yuz jildda tafsir qilgan. Qur’onni qiroatda ham, savtda ham tajvid bilan yod olgan kishilardan Abdullatif ad-Damg’oniy, mavlono Asaduddin, Sharif Hofiz Husayniy, Mahmud Muhriq al-Xorazmiy va Jamoluddin Ahmad al-Xorazmiy va musiqa ilmida ustoz bo‘lgan Abdulqodir al-Marog‘iy edi; va’zxon va xatiblardan saroylik mavlono Ahmad ibn Shams ul-Aimma bo‘lib, uni turkcha, forscha, arabchada malik ul-kalom deb atardilar. U o‘z zamoninig mo‘jizasi edi; (yana) mavlono Ahmad at-Termiziy va

mavlono Mansur al-Qog‘oniydir. Mohir kotiblardan xattot Ibn Bangdir, Tojuddin as-Salmoniy va boshqalar; munajjimlardan bir guruh mohir kishilarki, men ularning ismlaridan faqat mavlono Ahmaddan boshqasini bilmayman. U tabib, misgar va yulduzga razm solib hisob oladigan (olim) edi. U menga: “Men yulduzlarga qarab ikki yuz yilga hukm (tolei) chiqardim”, degandi. Sangtaroshlardan katta bir guruhi bor bo‘lib, ularning eng ko‘zga ko’ringani Oltun edi. U o‘z hunarida bir mo’jiza bo‘lib, qimmatbaho‘toshlarga naqsh solar, yashmga, aqiqqa Yoqut (Hamaviy) ning xatidan ham chiroylik xat bilan o’yib yozardi”***[1:85-86]***. Yuqoridagi Ibn Arabshohning keltirgan ma’lumotlaridan shuni anglash mumkinki, saroyda ijod qilgan olimlar faqatgina bir soha bilan emas, ularning har biri fanning turli yo’nalishlarida har tomomlama chuqur bilimga ega bo‘lganlar. Yana shuni ham alohida takidlash kerakki, biz yuqorida keltirib o’tgan olimlar Samarqanddagi ilmiy muhitdan ummondan tomchidek gap. Samarqandda to’plangan ilm-fan, madaniyat, san’at namoyondalarining soni juda ko’p bo‘lganligi xususida Ibn Arabshoh quyidagi fikrlarni aytgan: ” Mana shular men tanib, zikriyu ismi xotirimga kelgan kishilardir. Ammo men bilmagan yoinki bilganu biroq zikriyu ismi xotirimda qolmagan kishilar son-sanoqsiz bo‘lib, hisob-kitobdan xorijdur”***[1:87]***. Ibn Arabshoh garchi Amir Temurni ba’zi o’rinlarda tanqid qilib yozgan bo‘lsada, lekin haqiqatni tan olishga majbur bo‘lgan: ”Temur olimlarga mehribon bo‘lib, sayyid-u shariflarni o‘ziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga to’la-to’kis izzat ko’rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko’rardi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo’yib, o‘z ikrom-u hurmatini unga izhor etardi. Unga nisbatan, o‘z muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bu bahsida insof-u xishmat bo‘lardi. ...Temur tarix(kitob) lari, Xudoning rahmati va salomi bo‘lg’ur anbiyolar ”Qissalari” ni, podshohlar siyratlari va o’tgan salaflar haqidagi hikoyatlarini doimo safarda ham, xadarda ham o’qitib, qunt bilan tinglar edi”***[1:71]***. Amir Temur nega olim-u ulamolar, ilm ahllari bilan Samarqandni to’ldirib yubordilar. Chunki Amir Temurning o‘zi o’qimishli,

savodxon va ma’rifatparvar inson bo‘lgan. Faqat o’qimishli, savodli va ma’rifatparvar insongina olim-u ulamo va ziyoning yurt taraqqiyoti va el farovonligi hamda madaniy jabhadagi qadrini biladi. Xullasi kalom, Temur har bir (foydali) jonni yig’ib, nimaiki narsa bo‘lsa sarasini Samarqandga keltirdi. Natijada, Samarqandda har bir ajib fan ahli namoyondasidan ba san’atlar g‘aroyib uslubidan fazilati peshonasida nishona bo‘lib, o‘z tengqurlaridan ustun turgan o‘z sohasida alloma kishilar yig’ilgan edi ***[1:87]***. Amir Temur haqida xorijda yaratilgan tadqiqotlarda ham, avvalo, uning ilm-fan azaldan gullab yashnagan hududdan yetishib chiqqanligiga alohida e’tibor bilan qaraladi. Quyida Angliyalik mashhur yozuvchi Hilda Hukhemning aytgan fikrlari yuqorida keltirilgan fikrimizning isboti bo‘la oladi:” Temur O’rta Osiyo‘tarixida chuqur ildiz otgan imperiyaviylik va madaniy an’analarning davomchisi edi. U X va Xl asrlarda arab va fors tillarida yozilgan falsafa, tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, jug’rofiya, tarix, adabiyotga doir ajoyib asarlar yaratilgan yurtdan chiqqandi”***[6:7]*** deb ta’kidlaydi va Temurning ilm-fan kishilari bilan munosabatini shunday izohlaydi: Temur jismonan baquvvat, ma’naviy hayotning yuksak qadriyatlarini egallagandi, doimo olimlar davrasida ishtirok etar, ulardan talaygina fanlarni o‘zlashtirgandi, tarixni yaxshi bilardi. Temur Osiyo qit’asini har qanday jug’rofiyundan ko’ra yaxshiroq bilardi. U davlat ishlaridan bo’sh vaqtlarida, harbiy yurishlari davridagi hordiq damlarida arkoni davlati bilan bahs-munozaralarga kirishar, o‘z xalqi rivoyatlarini bajonidil tinglardi. Temur dini islomning yetakchi olimlari bilan tarix, diniy ta’limotlar va ilmiy muammolar yuzasidan bemalol bahslasha olardi ***[6:8]***.

Sohibqiron Amir Temur va uning jahon tarixida tutgan o‘rni haqida Fransiyada o’nlab tarixiy-badiiy va ilmiy asarlar yaratilgan. Ana shulardan biri taniqli olim, yozuvchi Lyusen Keren hisoblanadi. U o‘zining juda ko’p tarixiy manba va ilmiy adabiyotlarga tayanib yozilgan ”Amir Temur saltanati” romanida Amir Temurning bolaligidan ilm-fanga ishtiyoqmand bo‘lganligini ta’kidlab o’tadi. Temurbek bu xil o’smirlik mashg’ulotlaridan bo’sh paytlarida Kesh masjidiga qatnar, taqvodor otasi Tarag’ayga munosib tarzda diniy bilim olishga

intilardi. Uning shayh va ulamolar majlislarida tez-tez ishtirok etishi hamda shariat aqidalarini yaxshi egallagani jangari uru" farzandi bu sohada chuqur ta'lim olganidan dalolat berardi ***[7:18]***. Shuningdek Lyusen Keren Amir Temurning haqiqiy o'z davrining ilmli, ziyoli va ma'rifatli davlat arbobi ekanligini juda ko'p o'rinlarda ta'kidlaydi. Masalan, uning quyida aytilgan fikrlari orqali Sohibqiron bobomizning o'sha murakkab va ziddiyatli davrda naqadar sabr-bardosh, og'ir-bosiqlik bilan uzoqni ko'zlab siyosat yuritganiga va ilm ahlini qay darajada hurmat qilganligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Amir Temur har qanday kuch ishlatishdan oldin masalani tinch yo'l bilan hal qilishga intilardi. U elchilarni nihoyatda hurmat qilar va g'animlar bilan til topishish uchun doimo o'zi birinchi bo'lib elchi yuborardi. U ba'zan makr-hiyladan holi bo'lmagan muzokaralarda bardoshini namoyon etardi. Biroq eng qizig'i shunda ediki, Ulug' amir doimo'tinchliksevar va ma'rifatparvar siyosat yuritardi. Chindan ham u isyonkor shaharlarni olish paytida g'animlarni qattiq jazolasa-da, payg'ambar avlodlariga, ulamolarga, adib va shoirlarga, musiqachilar, iste'dodli rassom va ustalarga rahnamolik qilardi. Ulardan eng mashhurlari Samarqandga jo'natilar, Temur saltanati poytaxtining go'zalligi va madaniyati ravnaqi uchun xizmat qilishardi. Ularga shaharda alohida xonadonlar ajratilar, yaxshigina nafaqa belgilanardi" ***[7:44]***.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek Amir Temur tarix ilmiga boshqacha qiziqish bilan yondashgan. Buning sababi, tarixda o'tgan mashur qirollar, podsholar va xonlarning o'z mamlakatlarida yuritgan siyosati va harbiy yurishlaridan munosib xulosa chiqarish, ularning davlatni boshqarishda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini takrorlamaslik edi. Amir Temur bejizga "Tuzuklari"da bunday yozmagan: Davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash, tadbir, mashvarat qolgan bir ulushini qilich bilan bajo keltirdim". Mana shu tuzukning o'zidan ham juda ko'p narsani anglasa bo'ladi. Zero, nega Amir Temur biror marotaba jangda mag'lub bo'lmagan va nega shuday katta va xilma xil o'lkalarni bosib olgan degan savollarga yuqoridagi tuzuk orqali javob topsa bo'ladi. Amir Temur o'zidan keyin mamlakatni boshqaradigan avlodlariga, o'zi

bosib o’tgan mardonavor yo‘lni haqqoniy , maqtov va olqishlarsiz va eng muhimi xolis yoritadigan tarixini yozishni niyyat qiladi. Sababi avlodlar davlat boshqaruvida ish yuritishni, qiyin vaziyatga duch kelganda Amir Temur qanday yo‘l tutganligini mana shu Temurning tarixi haqida yoziladigan asarlarni o’rganib, shularga amal qilishlari kerak edi. Mana shunday asarlardan biri Nizomiddin Shomiy qalamiga mansub Amir Temurning shaxsan topshirig’iga asosan yozilgan “Zafarnoma” asari hisoblanadi. Nega aynan Shomiy degan savol tug‘iladi. Avvalo Amir Temur bua dib bilan qachon va qay tarzda uchrashganligiga to‘xtalib o’tsak. Birinchi marta Amir Temur Shomiyni 1393-yil avgust oyida Bag’dod shahri qamal qilish paytida uchratgan. Bu haqida Shomiyning o‘zi “Zafarnoma” da quyidagilarni keltirib o‘tadi: “Shu vaqtda bu banda Bag‘dodda turgan edim. U Shahar aholisi ichidan palos o’pishga yetib kelganlardan birinchisi bu banda bo‘ldi. Amir Sohibqiron iltifot qilib, bu boshqalardan ilgari kelishni maqtov bilan qarshi olib, e’tibor ko‘rsatdi va muborak lafzi bilan shunday dedi: Xudo senga o‘z rahmatini yo‘llasinki, bu shahardan mening oldimga birinchi bo‘lib chiqqan kishi sen bo‘lding”***[2:184]***. Nega aynan mashhur adib va tarixnavis olim birinchi bo‘lib Temur huzuriga chiqqan, chunki Sohibqironning ilm-ahliga chuqur hurmat va e’tibor ko’rsatishi va ularni hamisha e’zozlashi haqidagi gaplar hali Amir Temur zabt etmagan hududlar bo’ylab ham keng tarqalgan edi. Har bir ijodkor yoki ilm ahli uchun eng muhimi birinchi navbatda faoliyatini munosib baholaydigan hukmdor bilan yonma yon bo‘lishdir. Nizomiddin Shomiyning Sohibqiron Amir Temur bilan ikkinchi uchrashuvi esa 1400-yil oktabr oyida Amir Temur Shom tegrasida joylashgan Halab shahrini qamal qilgan paytda bo‘lgan. Shomiyning yozishicha, u o‘sha vaqtda Hijoz tomon safarga ketayotganida shahar muhofazachilari shubhalanib, uni to‘xtatganlar va qal’a ro’baro’sidagi bir binoga qamab qo’yganlar. Bu yerdan u qal’aning zabt etilishini o‘z ko‘zi bilan ko’rgan (Tauer nashri, 1-jild, 227-bet). Shu davr muarrixlaridan bo‘lgan Hofizi Abruning yozishicha, jangdan so‘ng Jalol ul-Islom nomli amir Nizomiddin Shomiyni Amir Temur huzuriga olib kelgan, hazrat Sohibqiron unga iltifotlar ko’rgazib, yaxshi

qabul qilgan (Tauer nashri, 2-jild, Praga, 1956-yil, 160-bet). Yuqoridagi voqealardan anglanadiki, Amir Temur Shomiyni ancha yillardan beri yaxshi bilgan. Amir Temur bunday mas'uliyatli ishga aynan Nizomiddin Shomiyning tanlashi bu insonning o'z davrining bilimdon fuzalolaridan va zukko adiblaridan biri bo'lganligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, aynan Amir Temur dastlab qo'yib bergan temuriylar ilm-fanining poydevorini uning nabiralari va keyingi avlodlari munosib tarzda yuksaltirdilar va bobolarining hamisha ilm-ma'rifatga oshno bo'lib yashash hissini o'zlarida yaqqol namoyon etdilar. Amir Temur asos solib ketgan ilmiy muhitdan keyinchalik nomi butun dunyoga mashhur bo'lgan olimlar, shoirlar va bir so'z bilan aytadigan bo'lsak har sohaning yetuk arboblari yetishib chiqdi. Amir Temur avlodlari ichida bevosita Mirzo Ulug'bek, Sulton Husayn Boyqaro va Zahiriddin Muhammad Boburlar ijodni ham davlat boshqaruvini ham birdek olib borib butun dunyoga temuriylar ilm-fanining dovrug'ini yoyishdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. II китоб / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи – Убайдулла Уватов. – Т.: Меҳнат. 1992. – 192 б.

2. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи – Й. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатлар тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни "Зафарнома"га ёзган "Зайл"и("Илова")ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларни тузувчи – О.Бўриев. – Т.: Узбекистон, 1996 – 528 б.

3. Темур Тузуклари / Форсчадан Алихон Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. Т.: Ғафур Ғулом, 1991 – 144 б.

4. Тургун Файзиев. Темурийлар шажараси. Т.: Ёзувчи, 1995 – 352 б.

5. Убайдулла Уватов. Буюк юрт алломалари. / Тузувчи ва нашрга тайёрловчи У.Уватов. Т.: Узбекистон, 2020 – 424 б.

6. Ҳилда Ҳукҳем. Етти иқлим султони / Русчадан Ҳасан Тўрабеков ва Шерали Сокин таржимаси. Т.: Адолат, 1999 – 320 б

7. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

8. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

9. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

10. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

11. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

12. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

13. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

14. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

15. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

16. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

17. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

18. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

19. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

20. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

21. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

22. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

23. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

24. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

24. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

25. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

26. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

27. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

28. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

29. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

30. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

31 Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

32. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

33. Люсен Керен. Амир Темур салтанати / Франсуз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи: Б.Ерматов; Махсус муҳаррир: Х.Султон; Сўзбоши Луи Базен. Учинчи нашри. Т.: Ўзбекистон, 2020 – 248 б.

РАЗВИТИЕ ОБРАЗОВАНИЯ И НАУКИ В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ

Лукашова Наталья Михайловна

доцент Наманганского инженерно-технологического института,
Lukashova-NM@mail.ru

Ключевые слова и фразы: *Темуридский ренессанс, воспитание, науки, медресе, историография, библиотечное дело, каллиграфия.*

Аннотация: *В данной статье представлен краткий анализ, сложившейся в эпоху правления Амира Темура и его потомков образовательной системы, научной деятельности, как в области богословия, так и светских наук, развития искусства миниатюры, каллиграфии, поэзии.*

Key words and phrases: *Temurid renaissance, education, science, madrasah, historiography, librarianship, calligraphy*

Annotation: *This article presents a brief analysis of the educational system that developed during the reign of Amir Temur and his descendants. Particular attention has been given to scientific activities of the scholars, both in the field of religious and secular sciences, as well as the development of the art of miniature, calligraphy and poetry.*

Калит сўз ва иборалар: *Темурийлар ренессанси, тарбия, фан, мадраса, тарихшунослик, кутубхоналар, хаттотлик санъати.*

Аннотация: *Мақолада Амир Темур ва унинг авлодлари ҳукмронлиги даврида таълим тизими, диний ва дунёвий фанлар соҳасидагиилмий изланишлар, миниатюра, хаттотлик санъати ҳамда бадиий адабиётнинг ривожланиши қисқача таҳлил қилинган.*

Воспитание гармонично развитого поколения во все времена было светлой мечтой и заботой человечества. Знание, науки, всегда являлись решающим фактором, поддерживающим державную мощь государства, его культуру, духовно-нравственный потенциал на уровне цивилизованных стран. Развитие же такого потенциала напрямую зависело от эффективности образовательной системы, от условий, создаваемых в государстве для

расцвета и прогресса науки. Высказывание Первого президента И.А.Каримова:«ОбразТемура как крупнейшего государственного деятеля – реформатора средневековья, мужественного сторонника справедливости, покровителя науки и культуры пережил века вопреки различным идеологическим воздействиям, ревнивым и несправедливым оценкам» ***[1:3]*** как нельзя более точно констатирует факт большого уважения и признания заслуг нашего великого предка. С именем и деятельностью Амира Темура и его потомков, тесно связан взлет в духовном развитии народов Центральной Азии, в конце XX века, вошедший в историю под названием «Темуридский Ренессанс». Создание крупного централизованного государства, рост его экономического потенциала, прекращение феодальных междоусобиц и победа над кочевыми традициями как нельзя лучше благоприятствовали и развитию науки и образования в нашем государстве. Высокий уровень развития науки и культуры определил необходимость дальнейшего развертывания деятельности системы образования, где готовились квалифицированные кадры для страны. С другой стороны, именно внимательное и разумное отношение к вопросам образования и воспитания способствовало все большему расцвету различных сфер государства. Амиру Темуру удалось достигнуть, перефразируя известную фразу Первого президента Республики Узбекистан, так называемого «взрывного эффекта», то есть, особого качественного состояния общества, которое современники имели счастье ощущать.

Период правления Амира Темура и Темуридов был ознаменован большим вниманием к развитию системы образования и науки. Недаром в своем «Уложении» Амир Темур подчеркивал, что «оказывал почтение потомкам пророка, ученым, богословам, философам и историкам. Я уважал и почитал их» ***[3; 8].*** И далее: « Я призвал к себе врачей, астрологов и геометров, потому, что эти люди способствуют славе и благосостоянию государства. Я призывал к себе историков, авторов летописей и хроник. От

них я узнал историю протекших веков и о переменах, совершившихся на земле» ***[3: 18].*** Представители вышеуказанных профессий составляли восьмой и девятый классы из двенадцатиуровневой системы, созданной Амиром Темуром и описанной в его «Уложении». В Самарканде- сердце своей империи он собрал ученых и талантливых представителей народа – философов, историков, архитекторов, художников, каллиграфов, артистов, мастеров всех видов ремесел, для того, чтобы они свободно творили, а также отражали его идеи силы и власти. Даже в своих многочисленных военных походах Амир Темур всегда был окружен учеными и просто талантливыми людьми. Как передает текст «Уложения», Амир Темур любил устраивать беседы с учеными, дебаты. Победивших в них он одаривал драгоценными подарками.АмирТемур внес большой вклад в развитие науки. В его правление большое развитие получили богословие, хадисоведение, юриспруденция, математика, астрономия, медицина, история, философия, литература, музыковедение, поэтика и другие науки. До нас дошли имена многих представителей этих наук, например: богослова Джамал ад-Дина ал-Хоразми, юристов-законоведов Абдал-Малика, Исам ад-Дина Джазаири, астронома маулана Ахмада, музыковедов Абд ал-Кадыра Мараги, Сафи ад-Дина и АрдашираЧанги, философа Мир Саид Шарифа Джурджани. До нас дошли труды некоторых богословов. Например, пять сочинений ходжа Мухаммада Парсо: «Степени духовного совершенства ходжа Ала ад-Дина Аттара», «Фасл ал-хитаб» («Ясная речь»), «Трактат об искании истины», «Трактат о возлюбленном», «Рисала», посвященные жизнеописанию и речам Ала ад-Дина Аттара, ученика ходжа Баха ад-Дина Накшбанда, а также определению и уточнению понятий «Тарикат» и «Шариат», ступеням совершенства для суфиев. Среди перечисленных сочинений большую ценность представляет «Фасл ал-хитаб» - полная энциклопедия по суфизму, по вопросам мусульманского вероучения, религиозным обрядам, догматическим и философским течениям в свете суфийской доктрины. Еще

при жизни Сахибкирана ученые его дворца прославились своими открытиями. К их числу можно отнести изобретателя письма настаълик Мирали Хаттата, творца двенадцати макомов, теоретика музыки АбдулкадираМараги (1334-1435 гг.), великого математика ГиясаддинаДжамшида, астронома Саййид Шарифа Джурджани (1339-1413 гг.).Мир Саид Шариф Джурджани написал более пятидесяти сочинений: учебники по арабской грамматике, по богословию, по риторике, мусульманскому праву и философии. Большую часть своих трудов он писал в Самарканде. Дворцовыми художниками Амира Темура были ДжахангирБухари и Абдулхай – создатели величайших памятников зодчества, настенных росписей и сотен рукописей с миниатюрными украшениями, частично сохранившимися до наших дней. Одним из известных ученых эпохи Темура, неоднократно принимавшим участие на ученых диспутах при его дворе, был Саъдад-ДинМасуд ибн Омар Тафтазани (1332-1392 гг.). До конца своей жизни он занимался преподаванием в Гиждуване, Джаме, Хорезме, Туркестане, Самарканде, Герате и Серахсе и написал много научных работ. До нас дошли пять сочинений Саъд ад-Дина Тафтазани, посвященных вопросам языкознания, логики, схоластической теологии, геометрии и арифметике.

Значительны были и достижения в области историографии. Выдающимся историком своего времени был Ахмад ибн Мухаммад ибн Арабшах (1392-1450 гг.) Он родился в Дамаске, но с восьмилетнего возраста жил в Самарканде. Основным его произведением является труд о времени Темура «Аджайиб ал-макдур фи тарих-и Таймур»(«Чудеса в предопределениях в событиях (жизни) Темура»). Другой историк этого периода Низам ад-ДинШами завершил в 1404 году составление труда под названием «Зафар-наме-и Тимури» («Книга побед Тимура»).Шараф ад-Дин Али Йазди (ум.в 1454 г.) составил в 1424-1425 гг. сочинение, также посвященное времени Темура – «Зафар-намэ» («Книга побед»). Оба

сочинения, благодаря оригинальности и обилию фактического материала исторического, социально-экономического и этнического характера, по государственному и военному устройству, культуре и взаимоотношениям государств, являются главным источником по изучению жизни и деятельности Амира Темура, истории народов и стран, с которыми связана его жизнь и деятельность. Положительную роль в развитии литературы и науки сыграл суфизм. В эпоху Амира Темура и Темуридов получает распространение, возникшее в Бухаре направление суфизма – накшбандия, связанное с именем Баха ад-Дина Накшбанда.

Очагами высшего образования в эпоху Амира Темура и Темуридов были медресе. На территории Мавераннахра и Хорасана существовало много медресе, построенных, в основном, на средства государства и состоятельных лиц. Первое медресе в мусульманском мире в Бухаре, как известно, было построено еще в раннем средневековье. Медресе было духовным учебным заведением. Наряду с теологией, там преподавались и светские науки: юриспруденция (фикх), логика (мантик), математика (риезиет), геометрия (хандаса), астрономия, медицина (тиббиет), история, география, литература, поэтика (илм-и аруз), арабский язык, морфология и т.д.Мударрисами медресе были наиболее известные в своих областях знания ученые. Им платили особое жалование. В «Уложении» Амира Темура по этому поводу говорилось: «Я отдал приказ, чтобы сайиды, табибы, старцы, ученые, дервиши и все монахи, которые избрали для своего жительства мои владения, получали пособия и жалованье, чтобы бедные или не имеющие средств к существованию люди получали пропитание и, наконец, чтобы преподаватели медресе получали отдельное содержание…» ***[3: 20].***

По данным источников, в 1404 году любимая жена Амира Темура Сарай Мульк-ханум с разрешения мужа и на свои личные деньги построила в Самарканде, напротив главного портала мечети (сегодня мечеть Биби-ханым) медресе, выделявшееся особым великолепием среди других.

Характерно, что духовные черты Темура, явившиеся в основном результатом его интеллектуальных качеств, воспитания, общения, а также опыта, передались его сыновьям, внукам, последующим поколениям Темуридов, Покровительство образованию и культуре становится для Темуридов семейной традицией, передающейся из поколения в поколение.

Выдающиеся научные открытия в области естественных наук, особенно в астрономии и математике связаны с именем внука Амира Темура – Мирзо Улугбека. Улугбек застал в Самарканде немало ученых. Более всего на него оказал влияние крупнейший астроном того времени – Казы-задэРуми. По приглашению Улугбека в Самарканд прибыл из Кашана другой известный астроном – Гияс-ад-Дин Джамшид. По инициативе Улугбека в Самарканде была построена всемирно известная обсерватория. В ее создании принимали участие выдающиеся ученые своего времени - Джамшид Каши, Казы-задеРуми, Муинад-ДинКашани, Салах ад-Дин Мусави, Али Кушчи. Высота секстанта обсерватории, по письменным источникам равнялась высоте храма Святой Софии в Константинополе. Здание было трехэтажным. Историк Абд ар-РаззакСамарканди писал об изображении девяти небесных сфер с градусами, минутами, секундами и десятыми долями секунды, небес, вращении семи планет, неподвижных звезд, земного шара с делением на пояса, с горами, морями, пустынями и т.п. По данным современной историографии, в целях содействия развитию науки и системы образования Мирзо Улугбек построил четыре медресе.

Одно медресе было построено в Бухаре в 1417 году, другое в городе Гиждуване в 1433 году. Третье медресе – это всемирно известная постройка в центре Самарканда на площади Регистан. Оно представляло собой одну из лучших построек средневекового Востока. По свидетельству Васыфи, одного из авторов XVI века, Улугбек принимал личное участие в постройке этого медресе. В отношении четвертого медресе имеются сведения, что оно входило в ансамбль Гур-и Амир и имело 64 худжры ***[4:108].*** Слушатели

медресе штудировали множество книг по разным областям знаний. При дворе Амира Темура и его потомков содержались богатые библиотеки, в которых коллекционировались редкие сочинения античности и средневековья. Существовали библиотеки в Самарканде – Амира Темура и Улугбека, в Герате – Шахруха, Байсункара и ближайшего друга Султан Хусейна – Алишера Навои. В Балхе была открыта библиотека Бади аз-Замана. Многие авторы специально посвящали свои труды библиотекам. Так, Гийасаддин Каши, как он отмечал в предисловии к своим трудам, посвящал их библиотеке Улугбека. Библиотеками широко пользовались ученые различных отраслей знания. Например, библиотекой Алишера Навои пользовались Мирхонд и Хондамир, библиотекой Улугбека, созданной при Самаркандской обсерватории (где хранилось более пятнадцати тысяч томов книг) - все представители его астрономической школы.

В библиотеках не только хранились редкие книги, но и велось обучение искусству письма. Благодаря целенаправленной политике Амира Темура по отбору и концентрации лучших мастеров в Самарканде и Мавераннахре сложилась уникальная ситуация синтеза достижений, умений лучших мастеров Востока. Таким образом, происходит синтез всех достижений в области книжной культуры, создаются условия для творческого взлета мастеров, производится лучшая в мире бумага и великолепные образцы среднеазиатской рукописной книги. Именно рукописные книги содержали тот материал, который позволил со временем создать энциклопедию культуры среднеазиатских народов, столь важную для правильной оценки путей и результатов культурного развития человечества.

В противовес Самарканду, в Герате питали большой интерес к литературе, истории и поэзии. Слава Герата, как литературного центра была связана в большей степени с именем талантливого внука Амира Темура сына Шахруха – Байсункар – мирзой. При своем отце Байсункар - мирза занимал должность

везиря и, в силу своего положения, располагал огромными возможностями для оказания покровительства писателям, поэтам и художникам. Около 1420 года Байсункар-мирза создал при своем дворе библиотеку-мастерскую, значительно расширенную им впоследствии. По меркам того времени эта китаб-хона была грандиозным заведением. В ее стенах работали лучшие мастера, создававшие для своего патрона высокохудожественные рукописные книги. Это были отобранные повсюду лучшие каллиграфы, миниатюристы, позолотчики, переплетчики и даже филологи. В гератскойкитаб-хоне под прямым руководством Байсункар-мирзы производились не только переписка и украшение книг, но и подлинно научная текстологическая работа. Именно здесь в 30-х годах XVвека был составлен сводный текст знаменитой поэмы Фирдоуси – « Шах-наме». Известны две рукописи «Шах-намэ», сделанные специально для Байсункара, датированные 1430 годом и украшенные замечательными миниатюрами. Не без участия Байсункара было отправлено в 1420 году Шахрухом посольство в Китай с художником Гияс-ад-дином в целях знакомства с китайским искусством.

Высшего расцвета культурная жизнь в Герате достигла во второй половине XУ века, в годы правления Султан- Хусейна Байкара. Украшение Герата неразрывно было связано с именем Алишера Навои. С памятью об Алишере Навои связана не только интенсивная строительная деятельность в Хорасане, но и развитие поэзии, и деятельность его как мецената. При Алишере Навои исключительного совершенства достигло искусство украшения книг – прежде всего каллиграфия и миниатюра. Крупнейшими мастерами каллиграфии в Герате были Султан Али Мешхеди и Мир Али Меджнун. О первом из них, как о своем знаменитом современнике, упоминает в своих «Записках» Захир ад-ДинБобур. Он писал, что Султан Али Мешхеди переписал много книг дляСултан Хусейна и Алишера Навои.Для первого он ежедневно переписывал свыше 30 бейтови по 20

бейтов – для второго ***[2:109].*** Ученик Султана Али Мешхеди – Мир Али Меджнун, известный также под именем Рафики, достиг особенно больших успехов в почерке насталик, которым владел с таким же совершенством, как и его замечательный учитель. Большого расцвета достигла в Герате в XV веке и музыка, как например, игра на смычковых инструментах – гиджаке и уде, а также флейте. Среди музыкантов особенно славился Кул-Мухаммад. Сам Алишер Навои также был превосходным музыкантом.

Также Герат в это время стал центром исторической науки. В начале XV века здесь жил талантливый историк ХафизиАбру, написавший сочинение «Зубдатат-таварих-и Байсунгури» («Сливки летописей»), в котором изложение событий доведено до 1426/27 годов. Умер ХафизиАбру в 1430 году. Самая ценная часть труда - вторая глава IVтома, где автором излагаются события. Царствования Шахруха. В царствование Шахруха, Абу-Саида и Султан Хусейна жил другой крупнейший историк XV века – Абд ар-РаззакСамарканди, умерший в Герате в 1482 году. Он был продолжателем ХафизиАбру. Его сочинение под заглавием «Матла ас-саъдайнвамаджма ал-бахрейн» («Место восхода двух счастливых созвездий и место слияния двух морей») вместе с трудом ХафизиАбру представляет богатейший источник по истории тимуридского государства за первые 70 лет XV века и доведено до 1470-1471 гг.С именем Алишера Навои и Гератом также связаны имена широко популярных историков: Мирхонда (1433-1498 гг.) и Хондемира(1475/76 – 1535 гг.).

Свой большой труд «Раузат–ас-сафо» («Сад чистоты относительно жизни пророков, царей и халифов»)Мирхонд (подлинное имя – Мухаммад ибн Хаванд–шах ибн Махмуд) составил по прямому предложению Алишера Навои. В предисловии к своему труду Мирхонд писал, что прежде чем приступить к работе, он представил проект великому поэту и своему меценату, который после тщательного рассмотрения одобрил его.Алишер Навои не только обеспечил Мирхонда помещением всвоейханакеХаласийе,

необходимым питанием и одеждой, но и предоставил в полное его распоряжение свою библиотеку. Много забот и внимания уделил Алишер Навои и внуку Мирхонда – историку Хондемиру. Хондемир был талантливым и плодовитым ученым, оставившим после себя около десяти исторических сочинений, посвященных политической и культурной жизни Мавераннахра и Хорасана XV- первой четверти XVIвеков. Особое место среди его сочинений занимает «Хабиб ас-сияр фи фхбарваафрад ал-башар» («Круг жизнеописаний в известиях об отдельных персонах»).Во второй половине XIV-XV вв. в Мавераннахре и Хорасане большое развитие получило и литературоведение. В 1486 году один из придворных Султана Хусейна Байкары-ДоулетшахСамарканди (1435-1495 гг.), часто общавшийся с Джами и Навои составил известную антологию под названием «Тазкирататаш-шуара» («Упоминание о поэтах»), В антологии приводятся сведения более чем о ста поэтах, живших при Амире Темуре и Темуридах. Можно сделать вывод, что секуляризм, возникший в правление Амира Темура и, впоследствии, ставший существенным социальным и духовным фактором в государстве Темуридов, выразился в бурном развитии естественных (математика, астрономия, геометрия, медицина) и гуманитарных (история, историография, литература) наук, дворцовой архитектуры и музыкального искусства. Каждый человек неповторим в среде соплеменников своими особыми нравственными чертами, а качество и результат его личной и общественной деятельности напрямую связаны с его нравственным обликом. И насколько высока эта нравственность, насколько велик в обществе прогресс научный, политический, экономический и культурный, настолько построены на справедливости внешние и внутренние дела государства. Важнейшая особенность АмираТемура и Темуридов состояла в их всесторонней и глубокой образованности. Наука, образование и воспитание в эпоху Темуридов были основаны на философских воззрениях, гармонично сочетавшихся с законами природы и общества.

Использованные источники и литература

1. Джаббаров И. Я соблюдал строжайшую справедливость. – Правда Востока.- Ташкент, 6 апреля 2001.

2. Бабур Захириддин Мухаммад. Бабур-Наме. – Ташкент: «Шарқ». 2008.

3. Уложение Тимура. – Т.: Чулпон. 1992.

4. Юсупова Д.Ю.Развитие образования в эпоху Амира Темура и Темуридов. // Общественные науки в Узбекистане. 1996. – Ташкент, № 7-10.

AMIR TEMUR – ADOLAT TIMSOLI

Burxonov Lazizjon Salimjon o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Umumiy tarix kafedrasi o‘qituvchisi.
lazizjonburxonov@gmail.com

Abdujabborova Mohinur Bobosher qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tarix fakulteti Tarix yo‘nalishi 202-guruh talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk davlat arbobi, ilm-fan homiysi, iste’dodli sarkarda Sohibqiron Amir Temurning davlatni hamda qo‘l ostidagi mamlakatlar xalqlarini boshqarishda adolat tamoyillariga asoslanib boshqarganligi, haqsizlik, zulm-zo‘ravonlik va o‘zboshimchalik singari illatlarga barham berilib, xalq manfaati himoya qilinganligi yoritishga harakat qilingan.*

Kalit so‘z va iboralar:*Sohibqiron, Temur tuzuklari, Mavorounnahr, Samarqand, adolat, adolat amiri, vazirlar, sipoh, arzbegi, raiyat, Yoso, Ibn Arabshoh, yetti iqlim sohibqironi, podshohlar-u sultonlar javohiri.*

Аннотация: *В этой статье делается попытка осветить тот факт, что великий государственный деятель, покровитель науки, талантливый полководец Сахибкиран Амир Темур управлял государством и народами подвластных стран, руководствуясь принципами справедливости, а такие пороки, как несправедливость, тирания-насилие и произвол, были ликвидированы, а интересы народа защищены.*

Ключевые слова и фразы: *Сахибкиран, Тимур тузуки, Мавороннахр, Самарканд, справедливость, Амир правосудия, министры, сипах, арзбеги, раият, йосо, Ибн Арабшах, семь климатов сахибкиран, короли-это драгоценности Султанов.*

Annotation: *This article attempts to highlight the fact that the great statesman, patron of Science, the talented sarkarda Sahibqiron Amir Temur ruled the state and the peoples of the countries under his control based on the principles of justice, ending such vices as dishonesty, oppression-violence and arbitrariness, and protecting the interests of the people.*

Key words and phrases: *Sahibqiran, Temur traps, Mawarounnahr, Samarkand, Justice, Justice Emir, ministers, Sipah, arzbegi, raiyat, Yasa, Ibn Arabshah, seven climate sahibqirans, Kings-he is the jewel of Sultans.*

Amir Temur asos solgan davlat o‘zining qudrati bilan mashhur davlatlar qatoridan munosib o‘rin egalladi. Amir Temur buyuk davlat arbobi, fidoyi vatanparvar, ilm-fan homiysi, xaloskor va buyuk lashkarboshi edi. Sohibqiron Amir Temur davlat boshqaruvida adolat mezoniga, qonun ustuvorligiga amal qilib, har doim “Kuch-adolatda” deb ta’kidlar va unga qat’iy rioya qilar edi. Adolat – Amir Temur davlatchilik siyosatining asosiy mezoni bo‘lgan.

Amir Temurning ichki va tashqi siyosati mamlakatni iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko‘tarishga qaratildi. Shu o‘rinda aytish joizki, o‘sha davrda birorta Yevropa davlatlari o‘z konstitutsiyalariga ega bo‘lmagan davrlarida, Amir Temur o‘z “Tuzuklari” asosida davlatni boshqardi.

Ulkan saltanatida nohaqlik, adolatsizlikka nisbatan murosasiz kurash olib borilib, nafsi yomon, buzuq, va ahloqsiz odamlar mamlakatdan haydab chiqarilgan. Amir Temur oliy hukmdor sifatida mamlakatda o‘g‘ri qaroqchilani qattiq jazolagan. Har bir hudud amaldoridan o‘g‘rilik va qaroqchilikka qarshi kurashda shaxsan javobgar ekanligi qoida tariqasida belgilab berilgan. Shu yo‘l bilan saltanatda jinoyatchilikdek illatning tomir otib ketishiga yo‘l qo‘yilmagan.

Sohibqiron saltanatida haqsizlik, zulm-zo‘ravonlik va o‘zboshimchalik singari illatlarga ham barham berilib, xalq manfaati himoya qilingan. Sohibqiron boshqa o‘lkalarda hukmronlik qilayotgan farzandlaridan ham qonun, adolat va haqiqatga rioya qilishni talab qilgan. Sohibqiron Amir Temur “Temur tuzuklari” kitobida “Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu-sitam yo‘lini yopdim” ***[1:94]*** – deb yozadi. Amir Temur har gal safardan qaytganida Samarqand aholisini ahvolidan xabar olib, ma’lum kunlarda arzchilarni qabul qilar edi. Darhaqiqat, saltanatning barcha hududlarida qonun va adolat mezoniga qattiq amal qilingan.

Amir Temurning davlat boshqaruviga eng muhim ustunliklaridan biri ham unda adolat mezoniga, qonun ustuvorligiga alohida ahamiyat

berilganligidir. Uning davlat boshqaruvi masalalarini o‘z ichiga olgan Tuzuklarida ham har bir masalada adolat mezoniga amal qilish g‘oyasi chuqur ifodalangan.

Amir Temur davlat boshqaruvida vazirlar tanlash masalasiga muhim e’tibor beradi. “Amr qildimki, deb yozadi Sohibqiron “Temur tuzuklari”da, vazirlar ushbu to‘rt sifatga ega bo‘lgan kishilardan bo‘lishlari lozim, birinchisi – asillilik, toza nasllilik, ikkinchisi – aql-farosatlilik, uchinchisi – sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo‘lishlik, to‘rtinchisi – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Kimki shu to‘rt sifatga ega bo‘lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar... Bunday vazirga to‘rt imtiyoz: ishonch, e’tibor, ixtiyor va iqtidor berilsin”***[1:15]***.

Amir Temur davrida davlatni idora qiluvchi vazirlar yetti kishidan iborat bo‘lgan. Amir Temur davlatida vazirlar orasida “arzbegi” lavozimining ta’sis etilishi katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Amir Temurning ulkan saltanatida oddiy xalqning arz-dodi, shikoyatiga jiddiy e’tibor berilgan. Bu ishlarning barchasida arzbegi mas’ul bo‘lgan. Bu haqda Amir Temur shunday deb yozadi: “Hukm qildimki, bir kishini arzbegi qilib tayinlasinlar. U sipoh, raiyat va arz-dod qilib (huzurimga keluvchilarning) ahvolini, mamlakatning obod-xarobaligini, muhim ishlardan qaysi biri bitgan-bitmaganligini mening arzimga yetkazib tursin” ***[1:85]***. Sohibqiron saltanatida haqsizlik, zulm zo‘ravonlik va o‘zboshimchalik singari illatlarga barham berilib, xalq manfaati himoya qilindi.

Amir Temur davlatida oddiy xalqning arz-dodi, shikoyatlariga jiddiy e’tibor qaratilgan. Maxsus arzbegi lavozimi ta’sis etilgan. Amir Temur davlat siyosatining muhim ibratli tomoni – o‘z davrida hech bir davlatda bo‘lmagan va tarixda kamdan-kam uchraydigan lavozim – “Adolat” amiri lavozimining ta’sis etilganligi edi.

Bu lavozim o‘z mavqei bo‘yicha vazir darajsida bo‘lib, har bir el va har bir shaharda sipoh va raiyatga doir nizoli masalalarni adolatli tinch yo‘l bilan har

qilish masalalari bilan shug‘ullangan. Adolat amiri har el va har shaharda sipoh bilan raiyat o‘rtasidagi urf-odatlar, rasm-rusumlar oqibatida kelib chiqadigan ishlar, nizoli masalalarni tinch, tushuntirish yo‘li bilan hal qilgan.

Amir Temur o‘z davrining boshqa hukmdorlaridan farq qilib, o‘ziga ikki kishini – Mahmud Shahob va Nasiriddin ul-Aramirni asosiy nazoratchi qilib tanlagan. Ularga har ishni kuzatish, ikki o‘rtada bo‘ladigan suhbatlarda qatnashish huquqi berilgan.

Amir Temurning davlat boshqaruviga xos bo‘lgan muhim ustunliklaridan biri, adolat mezoniga, qonun ustuvorligiga qattiq rioya qilinganligida edi. Amir Temur davrida saltanatning barcha hududlarida adolat kuchda emas, kuch adolatda, degan shiorga birday amal qildi. “Davlat ishlarini, – deydi u, saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. Tura-tuzukka tayanib, saltanatda o‘z martaba va maqomini mustahkam saqlab turdim. Adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim” ***[1:94]***.

Sohibqiron saltanatida haqsizlik, zulm-zo‘ravonlik kabi illatlarga barham berilib, xalq manfaati himoya qilingan.

Amir Temur “Tuzuklari”da “Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu-sitam yo‘lini to‘sdim” – deb yozadi. Sohibqiron boshqa o‘lkalarda hukmronlik qilayotgan farzandlaridan ham qonun, adolat va haqiqatga rioya qilishni talab qilgan. Darhaqiqat, saltanatning barcha hududlarida qonun va adolat mezoniga qattiq amal qilingan.

Amir Temur davrida mamlakat sarhadlarida o‘g‘rilik va qaroqchilik kabi illatlarga qarshi keskin kurash olib borilib, jinoyatchilikning tomir otib ketishiga yo‘l qo‘yilmagan. Bu to‘g‘rida Sohibqiron “... o‘g‘ri va qaroqchilarni “Yoso” asosida jazolasinlar, fasodchi, buzuqi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar” ***[1:94]*** – deb buyuradi.

Amir Temur o‘z saltanatida qonunga rioya qilmay, adolat va diyonatni unutgan, o‘z mansabini suiste’mol qilgan, davlat mulkiga xiyonat qilgan amaldorlarni ayamagan, qattiq jazolagan. Chunonchi, o‘z mansabini suiste’mol

qilgan Samarqand dorug‘asining “... mol-mulkini musodara qilib, o‘zini dorga osishga buyuradi” ***[2:174]***.

Bundan tashqari, “... uch ming otni ishonib topshirgan, ammo saltanat mulkini tugal saqlay olmagan bir nufuzli shaxsni ham osib o‘ldirishga buyuradi” ***[2:175]***. Ko‘rinadiki, Sohibqiron saltanatida qonun va adolat mezoniga qattiq rioya qilingan.

Amir Temur har gal harbiy yurishlardan qaytganida Samarqand ahlini ehsonlar bilan siylagan, ma’lum kunlarda esa arzchilarni o‘zi qabul qilgan.

Sohibqiron o‘z saltanatida gadolarning eb-ichishlari va ish bilan ta’minlashga muhim e’tibor qaratgan, gadolikni tugatish choralarini ko‘rgan. Bu haqda “Temur tuzuklari”da “... har mamlakatning gadolariga vazifa yuklab, ish bersinlar, toki shu yo‘l bilan gadolik rasmi yo‘qolsin”***[1:95]***, “...har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to‘plab, kundalik yemish-ichmishlarini berib, ularga biron vazifa belgilasinlar hamda barchasini tamg‘alasinlar, toki boshqa gadolik qilmasinlar. Agar tamg‘adan keyin ham gadolik qilgudek bo‘lsalar, ularni uzoq mamlakatlarga sotib yuborsinlar yoki haydasinlar. Shundagina gado zoti mamlakatdan yo‘qoladi”, ***[1:98]*** – deb yozadi. Sohibqiron shu tariqa, gadolikni mamlakatdan butunlay yo‘q qilishga harakat qilgan.

Saltanat sohibi vazir tanlashda shunday ko‘rsatmalar berarkan, vazirning jamiyatda tutgan o‘rnini yuksak baholab, shunday xulosalarga keladi: “Agar podshoh zolim bo‘lib, vazir odil bo‘lsa, podshohning jabr zulmini to‘xtatish chora-tadbirini ko‘radi. Lekin vazir zolim bo‘lsa, saltanat ishlari tez muddatda parokandalikka uchraydi”***[1:77]***.

Amir Temur bir necha yillar davomida olib borgan harbiy yurishlari, diplomatik mahorati, usta tadbirkorligi tufayli, mamlakatning ko‘pgina hududlarini mo‘g‘ullar hukmronligi asoratidan xalos etib, siyosiy tarqoqlik, parokandalik, o‘zaro nizo va janjallarga barham berib, markazlashgan davlatga asos soldi va bu davlatni aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora qila boshladi. Uning “Davlat

ishlarining to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim”***[1:54]***,– degan so‘zlari buning yorqin isbotidir.

Sohibqiron Amir Temurning soliq siyosati ham e’tiborga molik bo‘lib, fuqaroning moddiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan edi. Amir Temur qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda, yangi yerlarni o‘zlashtirishga asosiy e’tiborni qaratdi. Buning uchun Sohibqiron farmoni bilan “...Kimki, biror sahroni obod qilsa yoki koriz qursa yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yoxud bir joydagi xarob bo‘lib yotgan joyni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (soliq) qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig‘ilsin... xarob bo‘lib yotgan erlar egasiz bo‘lsa, xolisa (davlat daromadlari va erlari bilan shug‘ullanuvchi mansabdorlar) tarafidan obod qilsin. Agar egasi bo‘lsa-yu, obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblar va kerakli narsalar bersinlar, toki o‘z yerini obod qilib olsin”***[1:98]*** – deb qonunlashtiradi. Amir Temur o‘z faoliyati davomida xalq farovon bo‘lsa – davlat boy va qudratli bo‘ladi, degan aqidaga qat’iy amal qildi. Shu bois ham fuqaroning moddiy ahvolini yaxshilash, uning farovonligini yanada yaxshilashga alohida ahamiyat qaratdi. Uning bu boradagi soliq siyosati qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda rag‘batlantiruvchi asosiy omil bo‘ldi. Bu haqda “Temur tuzuklari”da “... raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag‘allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi, sipohning tarqoqligi o‘z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi”***[1:98]*** – deb yozadi.

Amir Temur davrida har bir qarich erdan unumli foydalanishgan, ekin ekish mumkin bo‘lgan barcha maydonlar bog‘ va ekinzorlarga aylantirilgan.

Amir Temur mamlakatda ilm-fan va madaniyat rivojlanishiga asosiy e’tiborni qaratdi. Olimu, ulamolar, jamiki hunar ahliga g‘amxo‘rlik qildi. Mamlakat markazi Samarqand ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi.

Sohibqiron davrida Buyuk ipak yo‘lining shuhrati yanada oshdi. Mamlakatda ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik rivojlandi.

O‘sha davrda Ispaniyadan Amir Temur davlatiga elchi bo‘lib kelgan Rui Gonsales de Klavixo o‘zining “Kundaliklar” asarida Samarqand bozorlari haqida – “Bu yurt don-dun, may, meva-cheva, parranda go‘shti, (boshqa) har xil go‘sht mahsulotlari, qo‘yingki, hamma narsaga boy mamlakatdir. Qo‘ylari katta, serdumba, juda yirik bo‘ladi... bunday qo‘ylardan bir juftining bahosi bir do‘xat turadi. Boshqa mollar ham shu qadar arzon, arpaning bahosi chamasi yarim real, nonni suv tekin desa bo‘ladi, guruch esa hamma yoqni bosib ketgan edi”***[2:199]***, – deb yozadi.

Ko‘rinadiki, mamlakat bozorlarining obodligi, narx-navoning arzonligi, turli mahsulotlarning mo‘l-ko‘lligi, Amir Temur davlatining moddiy jihatdan yuqori pog‘onaga ko‘tarilganligidan dalolat beradi.

Amir Temur buyuk davlat arbobi bo‘lish bilan birga o‘z davrining dunyo‘tan olgan mashhur harbiy sarkardasi ham edi. Harbiy tarix Amir Temurni o‘rta asr Osiyosida eng yirik harbiy lashkarboshilardan biri sifatida hisoblaydi. Harbiy sarkardalik, buyuk harbiy san’atning bosh maqsadi “Mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmush tarzini yaxshilash, qurilish ishlarini yanada kuchaytirish, davlatni rivojlantirishning amaldagi tarkibiy qismi edi”***[3:288]***.

Amir Temur adolat va haqiqatni o‘z davlatining ramziy shiori qilib olgan edi. Zero, Amir Temur tamg‘asining naqshida “rostu rasti” deb yozilgan bo‘lib, “haqgo‘y bo‘lsang, najot topasan”***[4:65]*** – deyilgan edi.

Amir Temur asos solgan davlat o‘zining qudrati bilan o‘z davrida buyuk davlatlar qatoridan munosib o‘rin egalladi. U o‘z millati va davlatining shuhratini butun olamga tarannum eta oldi.

Ibn Arabshoh yozganidek, Amir Temur o‘z zamonasidayoq “yetti iqlim sohibqironi, yer-u suvni idora qiladigan (zot), podshohlar-u sultonlar javohiri”***[4:66]*** deb tan olingan edi. Sohibqiron Amir Temur o‘zining buyuk

xizmati bilan o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim o‘rin egallaydi, uning buyuk nomi esa asrlardan-asrlarga o‘tib, avlodlar tomonidan katta ehtirom bilan tilga olinadi.

Muxtasar qilib aytganda, Amir Temur davlatchilik siyosatining asosiy mezoni bo‘lgan adolat va haqiqatni o‘z davlatining ramziy shiori qilib olgan edi. Sohibqiron Amir Temur markazlashgan davlat va buyuk saltanat asoschisi, qonunchilik va adolatga tayangan davlat arbobi va iste’dodli sarkarda edi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Temur tuzuklari., – Toshkent.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 1991.
2. R.G.de.Klavixo Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayyohat., “Kundaliklar”., (1403-1406 yillar) – Toshkent.:, O‘zbekiston, 2010.
3. Sh.A.Yazdiy “Zafarnoma”, – Toshkent.:, “Kamalak”, 1994.
4. Ibn Arabshoh., “Amir Temur tarixi”, –Toshkent.:, “Mehnat”, 1992, II kitob.

BIZ HAVAS QILSA ARZIYDIGAN ULUG‘ SARKARDA

Otaboyeva Zulfiya G‘ofurovna
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
O‘zbek tili pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi assistenti
Mo‘minova Feruza Tojiddin qizi
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushba maqolada mamlakatimiz tarixida juda ko‘p buyuk ilm ma’rifatli shaxslar yashab o‘tkanlar nafaqat O‘zbekiston tarixida va jahon tarixida o‘zining “Kuch adolatdadir” degan so‘zlari bilan dunoni zabt eta bilgan tarixiy shaxslardan biri, buyuk sarkarda Amir Temurdir bayon etilgan*

Kalit so‘z va iboralar:*Ma’rifat, Movarounnahr, Eron, Kavkazorti, Iroq, Kichik osiyo, diplomatsiya*

Аннотация: *В этой статье много великих интеллектуалов, живших в истории нашей страны, не только в истории Узбекистана, но и в мировой истории, одна из исторических личностей, которая смогла покорить мир своим словами «Сила в справедливости», описывается великий полководец Амир Темур*

Ключевые слова и фразы: *Маърифать, Мовароуннар, Иран, Кавказ, Ирак, Малая Азия, дипломатия.*

Annotation: *In this article, there are many great intellectuals who have lived in the history of our country, not only in the history of Uzbekistan and in the history of the world, one*

of the historical figures who was able to conquer the world with his words "Strength is in justice", the great leader Amir Temur is described

Key words and phrases: *Enlightenment, Movarounnahr, Iran, Caucasus, Iraq, Asia Minor, diplomacy*

Amir Temur o‘zining ilm – ma’rifati hamda uddaburonligi bilan dunyoning juda ko‘p davlatlarni o‘ziga bo‘ysundirgan tarixiy shaxs hisoblanadi. Zero prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonivich ta’kidlaganidek; Bizning havas qilsa arziydigan Ulug‘ tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan Ulug‘ ajdodlarimiz bor” ***[1:50]*** o‘z davrida Amir Temur buyuk saltanat barpo etgan, o‘zbek davlatchiligi va jahon tarixida munosib o‘rin egallagan, buyuk sarkarda, ilm – ma’rifat egasi, hisoblanadi.

XIV asr ikkinchi yarmida, Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik yanada kuchayadi. Bunday og‘ir vaziyatda feudal tarqoqlikdan barlos amirzodalaridan Amir Temur ustalik bilan foydalanib va 1370- yili oily hokimyatni qo‘lga oldi. U 1370-1379-yillar davomida mamlakatdagi tarqoqlikni tugatib Movaraunnahr va Xorazmni o‘ziga bo’ysundirdi. 1381-1402 yillarda Amir Temur qo‘shni mamlakatlar ustiga yurish qilib, Eron, Kavkazorti, Iroq, Kichik osiyo va Hindistonni istilo qildi. Oltin O‘rda honi To‘xtamishga qaqshatqich zarba berib uni poytaxti Saroy Berkani egalladi. Sohibqiron badiiy adabiyotlar yaratildi. O‘zRFA temuriylar tarixi davlat muzeyida bajarilgan “Amir Temur bibliografiya. Birinchi kitob” mavzuyidagi maqsadli amaliy grant doirasida bajarilgan loyihada O‘zbekiston va jahon miqyosida Amir Temuning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlab nashr qilingan turli adabiyotlar jamlanib izohlar bilan ta’minlandi ***[2:501].***

O‘zbekiston Prezidenti Sh.M Mirziyoyev sohibqiron Amir temur diplomatsiyasini yuksak baholab shunday ta’kidlagan edilar: “ Amir Temur bobomiz va temuriylar saltanatini oladigan bo‘lsak ushbu sulola hukmronlik qilgan yillarda o‘lkamizda diplomatik munosabatlar naqadar yuksak darajaga ko‘tarilganiga guvoh bo‘lamiz. Sohibqiron bobomizning Fransiya, Angilya, Ispaniya, Vizantiya, Misr, Hindiston, Xitoy, Usmoniylar imperiyasi kabi ko‘plab davlatlarning hukmdorlari bilan olib brogan diplomatik aloqalari va yozishmalari

buni yaqqol tasdiqlaydi. Amir Temur saroyiga dunyoning turli mamlakatlaridan, jumladan, Yevropa davlatlaridan o‘nlab elchilar kelgani tarixdan yaxshi ma’lum.

O‘sha davr manbalarida 1389-1398-yillar oralig‘ida, ya’ni sal kam o‘n yil ichida Amir Temur nomidan Xitoyga 9-martda elchilar borgani qayd etiladi. Ayni vaqtda Amir Temur va Temuriylar saltanati nomidan Yevropa va Osiyo mamlakatlariga vakil bo‘lib brogan, asli Shahrisabzlik Muhammad Keshiy,shuningdek Mavlono Hofiz, G‘iyosiddin Naqqosh, Abdurazzoq Samarqandiy, kabi elchilarning nomlari tarix sahifalarida saqlanib qolgan ***[3:41]***.

Amir Temurning 1399-1404- yillarda olib broga harbiy yurishlari natijasida Shomning Halab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba’albek), Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroq Arabiyaning Ubiliston o‘lkasi (qadimgi Kappadokiya) bilan Bag’dod, shuningdek, Turkiyaning katta qismi zabt etildi. Keng ko‘lamli harbiy yurishlar natijasida Sohibqiron Amir Temur saltanatining chegarasi Usmonli turklar davlati chegarasiga borib taqaldi.

Bu davrda yaqin sharqda Usmonli turklar, shuningdek, Misr sultoni al- Faraj (1399-1405)ning shuningdek, jaloiriylarlar 1336 – 1432) va Qora quyunlilar (1380-1468)ning siyosiy va harbiy qudrati oshib, Temur saltanatining janubi g‘arbiy viloyatlariga xavf solina boshladi. Bu urushning ochilishig asosiy sabab bo‘ldi. Shu omillar tufayli bu ikki davlat o‘rtasida to‘qnashuv bo‘lishini muqararrar bo‘lib qoldi. Biroq, Amir Temur 1389-yildan Usmonli turklar taxtini egallagan Sulton Boyazid I Yildirim (1359-1403) bilan jang qilishga shoshilmadi, aksincha sulton bilan munosabatni yaxshilash tarafdori bo‘lgan. Ziddiyatlarni diplomatik yo‘l bilan hal qilish maqsadida ikki tomon o‘rtasida 4 martta xat almashish tashabbuskori bo‘ldi. Biroq Sulton Boyazid esa har safar qaysarlik, manmanlik qilib, hatto Amir Temur nomiga nomaqbul so‘zlarni yozgan Natijada bu Amir Temur urush boshlashiga sabab bo‘ldi. Amir Temur bilan sulton Boyazid qo‘shinlari o‘rtasidagi hal qiluvchi jang 1402- yil 20-iyulda Anqara yaqinida Chubuq mavzeyida sodir bo‘ldi. Bu jang tarixda “Anqara jangi” deb ataladi. Uch kun davom etgan bu jjangda har ikki tomondan hammasi bo‘lib 300 ming nafar

shu jumladan Sohibqiron Amir Temurning taxminan 200ming, usmoniylar sultonining 160 ming askari qatnashdi. Jangohning qulay qismiga joylashtirilgan qo‘shinning markaziy qismiga Amir Temurning o‘zi qo‘mondonlik qiladi. Uzoq davom etgan shiddatli jangda sohibqiron kuchlari turk qo‘shinini tor- mor etdi ***[4:150].*** Anqara jangidan so‘ng usmonlilar sultoni Boyazid va uning oilasi xotini Olivera va o‘g‘illari Muso va Iso Chalabiylar ham asirga olishga muvaffaq bo‘lgan. BAndi qilingan Boyazidga Amir Temur hurmat va ehtirom ko‘rsatadi. Boyazidning vafotidan keyin esa uning vorislariga beqiyos muruvvatlar qilib, Boyazidning to‘ng‘ich o‘g‘li Sulaymon Chalabiyni turklarning Yevropadagi viloyatlariga hokim etib tayinlaydi. Iso Chalabiyga esa Anadoluning shimoli-g‘arbiy qismi suyurg‘ol sifatida in’om qilinib, Muso Chalabiyga usmoniy turklar davlatining markaziy qismini boshqarishni topshiradi.

Amir Temur Usmonli turklar davlatini butunlay bosib olish niyatida bo‘lmagan, chunki u yevropa davlatlarining Yaqin sharq mamlakatlariga nisbatan tajovuzkorona niyatda ekanligini tushunar edi. Shuning uchun ham Amir Temur Usmoonli turklar davlatini saqlab qolgan holda Boyazidning vorislariga muruvvat ko‘rsatadi. Amir Temur zabt etgan mamlakatlarida ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirib, bir qator shaharlari (1258-yil mo‘g‘ullar tomonini vayron qilgan Iroq poytaxti Bag‘dodni, Darbandni, 1221-yilda mog‘ullar istilosi davrida vayron qilingan Arake va Kura daryolari birlashadigan yerga yaqin bo‘lgan shahar - Baylaqonni (1403-yil) qayta tikladi. Amir Temur tomonidan Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag’dodda madrasa, 1389-1395-yillarda Turkistonda mashhur shayx Xoja Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara qurdirilgan bolsada, lekin asosiy e‘tiborini ona shahri Kesh (Shaxrisabz) va poytaxti Samarqandga qaratdi.

Keshda otasining qabri ustiga maqbara, o‘g‘li Jahongirga maqbara bilan masjid qurdirdi. Amir Temur hukmronligining ilk davrida Kesh shahrini poytaxtga aylantirish niyatida bo‘lib, uning obodonchiligiga katta ahamiyat berdi, bu yerda mashxur Oqsaroy qad ko‘tardi. Amir Temur Keshni Movarounnahrning madaniy markaziga aylantirishga harakat qildi. Shu boisdan bu shahar “Qubbat ul-ilm va

ta’lim gumbazi” degan sifat bilan shuhrat topgan. Amir Temur va temurilar davrida Shahrisabzda ulkan saltanatning yirik shahriga Barlos beklarining yozgi qarorgohiga aylantirilgan. Shahar atrofi qal’a devoir bilan o‘rab olingan. Shahrisabzda Amir Temur tomonidan “Dor us- siyodat” (“Sayyidlar uyi”) maqbarasi va Oqsaroy qurilgan ***[5: 166].***

Amir Temur buyuk sarkarda, adolatli hamda kuchli davlat barpo etgan hukmdor sifatida o‘sha davrida yuksak cho‘qqilarga erishganiga guvohi bo‘lamiz.

Amir Temur buyuk sarkarda, adolatli hukmdor, davlat arbobi, ilm – ma’rifatda ilg‘or, kuragi yerga tegmagan, yengilma fotih sifatida O‘zbekiston va jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan Ulug‘ zot sifatida e’tirof etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasidan // Xalq so‘zi 2017-yil 4-avgust

2. Amir Temurning jahon tarixshunosligi va manbashunosligida tutgan o‘rni Sabriddin Bahodir o‘g‘li Ahmedov muallifi tomonidan yozilgan maqola. 501-betlar.

3. Mirziyoyev Sh. M. xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T:. O‘zbekiston, NMIU. – B.218-282-betlar.

4. R. Shamsitdinov. X. Mo‘minov. O‘zbekiston tarixi. Amir Temur va Temuriylar davrida o‘zbek davlatchiligining yuksalishi. Ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot (XIV- XV asrlar) Toshkent “Akademnashr”. 2019-yil, 150-51-betlar

5. R. Shamsitdinov. X. Mo‘minov. O‘zbekiston tarixi. Amir Temur va Temuriylar davrida o‘zbek davlatchiligining yuksalishi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot (XIV-XV asrlar) Toshkent “Akademnashr” 2019-yil, 166-bet.

TEMURIYLAR DAVLATINING XITOY BILAN 1417-1419-YILLARDA ELCHILIK VA DIPLOMATIK ALOQALARI ABDURAZZOQ SAMARQANDIYNING “MATLAI SA‘DAYN VA MAJMAI BAHRAYN” ASARIDA

Muhriddin Xolov Xamrali o‘g‘li.

FDU Tarix fakulteti II-bosqich magistiranti.
xolovmuhriddin41@gmail.com.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” asari va unda temuriylar davlatining Xitoy bilan diplomatik aloqalari, elchilik munosabatlari borasida so‘z boradi. Shuningdek, manbada berilgan elchilik bilan bog‘liq urf-odatlar, marosimlar ham tahlil qilingan.*

Kalit so‘z va iboralar:*O‘rdu (lashkar), Tavsir (arabchadan - sharh, tushintirish, ochib berish, izoh)-Qur’on oyatlarini sharhlash, Hadis (arabcha - xabar, gap, yangilik), Fiqh (arabcha- bilish, tushunish), Bog‘i Zog‘on (Amir Temur tomonidan Samarqandda barpo etilgan bog‘), Shunqor (Ovchi qush).*

Аннотация: *В этой статье рассказывается о произведении Абдураззака Самарканди «Матлай Садайн ва Маджмай Бахрейн», а также о дипломатических и посольских отношениях государства Тимуридов с Китаем. Также были проанализированы обычаи и обряды, связанные с посольством, приведенные в источнике.*

Ключевые слова и фразы: *орду (армия), тавсир (от арабского — комментарий, разъяснение, раскрытие, комментарий) — толкование аятов Корана, хадис (арабский — сообщение, утверждение, известие), фикх (арабский — знание, понимание), Сад Зоган (сад, основанный Амиром Темуром в Самарканде), Шункор (Охотничья птица).*

Annotation: *This article talks about Abdurazzaq Samarkandi's work "Matlai Sadayn va Majmai Bahrain" and the diplomatic relations and embassy relations of the Timurid state with China. Also, customs and ceremonies related to‘the embassy given in the source were analyzed.*

Key words and phrases: *Ordu (army), Tawsir (from Arabic - comment, explanation, disclosure, commentary)-interpreting verses of the Qur'an, Hadith (Arabic - message, statement, news), Fiqh (Arabic - knowledge, understanding), Garden Zog'an (the garden established by Amir Temur in Samarkand), Shunqor (Hunting bird).*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan ilm-fanni rivojlantirish maqsadida ko‘plab qaror va farmonlar ishlab chiqilmoqda. Amalga oshirilayotgan bu islohotlar shu o‘rinda tarix fanining yuksalishi va ravnaqiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. O‘rta Osiyo‘tarixi bo‘yicha eng mukammal va qiziqarli davir albatta XIV-XV asrlar ya‘ni Amir Temur va temuriylar davri hisoblanadi. Shuning uchun ham aynan shu davir nafaqat O‘zbekistonlik tarixchilar balki butun dunyo‘tarixchilarni ham qiziqtirib kelmoqda. Misol uchun dunyo bo‘yicha shu davirgacha Temuriylar davriga oid 500dan ortiq ilmiy tatqitot ishlari olib borilgan.

Bundan ko‘rinadiki O‘rta Osiyodagi ikkinchi sivilizatsiya deb ataladigan davir Amir Temur va temuriylar davriga qiziqish baland ekanligini bildiradi. Ko‘plab tatqiqotchilar tomonidan aynan shu davirga tegishli fors va arab tilida yozilgan manbalarni o‘rganish va tarjima qilish mobaynida muhim ma’lumotlar qo‘lga kiritildi.

Ayni shunday manbalarni o‘rganish natijasida Xitoy va Movarounnahir o‘rtasidagi aloqalar XIV asrning 80-yillaridan boshlanganligini Sardor Kenjayev ham o‘zining ilmiy maqolasida qayd etib o‘tgan. Unga ko‘ra Xitoyda Min sulolasi hokimyat tepasiga kelgach asosiy etiborni shimoldan bo‘ladigan mo’g’ullar hujumini qaytarishga qaratiladi. Tabiiyki bu qo‘shin va otlarga bo‘lgan ehtiyojni tug’diradi. Min imperyasi esa bu ehtiyojni Movarounnahirdan otlarni sotib olish orqali hal qilishga intiladi. Bu ehtiyoj Amir Temur davlati bilan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yishga imkon yaratadi. Ilmiy maqolada bundan tashqari otlarning zotlari va qasi mahsulotga ayriboshlanganligi qayd etilgan.

Amir Temur va temuriylar davridagi elchilik va diplomatik aloqalarni o‘z asarlarida yozib qoldirgan tarixchi olim Abdurazzoq Samarqandiyning asarlari qimatli hisoblanadi. Abdurazzoq Samarqandiy asarlarining qimatliligi shundaki shu davirda yashab bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligida. Shuning uchun ham u yozgan asarlardan XV-XVI asrlardanoq boshqa tarixchi olimlar o‘z asarlarini yaratishda foydalanganlar.

Abdurazzoq Samarqandiy hijriy 816 (milodiy 1413-yil 7-noyabr)da temuriylarning markaziy shaharlaridan bo‘lgan Hirot shahrida tug‘ilgan. Hijriy 887 (milodiy 1482-yil)da shu shaharda vafot etgan ***[1:11].*** Abdurazzoq Samarqandiy Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shoxruh saroyida mulozimlikda bo‘lib ko‘p yillar davomida uning o‘rdusi (lashkari)da imomlik va qozilik mansabida ishlagan. Shu bilan birga Abdurazzoq Samarqandiy o‘z davrining bilimli shaxslaridan edi. Abdurazzoq tafsir, hadis, fiqh, tarix va til- adabiyot fanlari bo‘yicha o‘z zamonasining yetuk ma‘lumot egasi bo‘lib yetishgan. Shuning uchun ham u tomonidan yozilgan asarlar yuqorida aytganimizdek juda qimatli hisoblanib XV-

XVI asrlarning o‘zidayoq boshqa tillarga tarjima qilinib boshqa tarixchilarning o‘z asarlarini yozishlariga muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Temuriylar davlatining elchilik va diplomatik aloqalari haqidagi qimatli ma’lumotlarni Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” asaridan olishimiz mo‘mkin. Abdurazzoq Samarqandiy asarni yozishda elchilar, savdogarlardan so‘rab hamda o‘zi elchi sifatida tashrif buyurgan davirda o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan kechirganlari asosida asarni yaratgan. Misol uchun Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan olib borilgan elchilik aloqalarini juda yaxshi yoritgan. Asarda Xitoy va Temuriylar davlati o‘rtasidagi elchilik almashuvi va hukumdorlarning yulagan maktublarini ham qayt etib o‘tgan. Hattoki maktublarning mazmuniga ham alohida etibor qaratgan.

Mourounnahirga Xitoy elchilarining birinchi tashrifi Amir Temur vafoti tufayli taziya bildirish uchun yuborilgan. Elchilar sovg‘a-salomlar bilan yetib kelib o‘z podishoxlari so‘zini yetkazgach ularga ortga qaytib ketishlariga ijozat beriladi.

Abdurazzoq Samarqandiy asarida ko‘rsatilgan Xitoy podishoxi Doy-Ming tomonidan yuborilgan elchilar Xoqoni Sayid tomonidan kutib olish uchun “Shahar va bozorlar ziynat berilsin, har bir san‘at egasi o‘z hunarini to‘la zohir qilib do‘konini bezatsin”, degan farmon berildi. Elchilik tamoiliga ko‘ra amirlar elchilarni shahar tashqarisida kutib olib izzat-hurmat bilan shaharga olib kirganligi hamda Xoqoni Sayid farmoni bilan elchilar sharafiga Bog‘i Zog‘onga xuddi jannat bog‘idek oro berib o‘ziga xos joy tayyorladilar. Shohrux elchilarni Bog‘i Zog‘onda kutib olgach elchilar tomonidan Xitoy podishohi maktubi topshirildi. Maktub forsiy tilda yozilganligini tarixchi qayd etib ketgan. Xitoy podishoxining maktubida olloh yer va osmon o‘rtasidagi barcha insonlarni rohat va farog‘atda yashasin deb yaratgan va xudoyi taoloning madadkorligida ilohiy hukumga buysunib hukumronlik qilayotganligini bildirgan ***[1:223].***

Maktubda Shohrux mirzo aqilli, dono hukmdorligi va qo‘l ostidagi rayiat va askarlarga mehribon ekanligini takidlagan. Yuborilgan elchilar yetib borgach ularni hurmat ila kutib olib ular bilan darxol elchi yuborganligini, yuborilgan

elchilar bilan otlar va atlas matolarni yetkazganligini bildirgan. Maktub so‘ngida Shohruxni do‘stlik yo‘lida ekanligini tan olib otasi Temur va Toy-Zuy o‘rtasidagi elchilar va tuxfalar oldi berdi qilganliklari va buni davom etirishlikni bildirib, yuborilgan elchilar nomlarini tilga olgan. Jo‘ning Kasoy hazorasi odamlaridan Du-Jixun, Boyni va Sun-Qung-Ji sadasidan Dong-Chingni bir guruh kishilar bilan yubordik. Bundan tashqari Xalil Sultonni tug‘ilganlik haqini bajo keltirib uni yaxshi tarbiya qilishi kerakligini aytib o‘tgan ***[1:224].***

Bu maktub bilan yana bir maktubni yuborgan edi. Maktubda jo‘natilgan sovg‘a, tuhfalar Ro‘yxati tushirilgan edi. Maktublar fors tilida yozilgan va xuddi shu maktubda so‘z mazmuni mo‘g‘il va turkiy tilda yozilgan, yana o‘sha maktubda o‘sha mazmun xitoy xati bilan xitoy tilida yozilgan. Shohrux mirzo maktubni o‘qittirib eshitib mazmunini tushinib amirlarga elchilar sharafiga tuy berishni farmon etadi. Shohrux mirzo Xitoy elchilari ortga qaytish chog‘ida ularga qo‘shib Shayx Muhammad Baxshiyni elchi sifatida Xitoyga jo‘natadi. Xitoy podishoxi to shu vaqitgacha islom dinini qabul qilmaganligi va shariyat talabi bo‘yicha ish ko‘rmayotganligi sababli do‘stlik yuzasidan imomga chaqirish maqsadida arab va fors tillarida yozilgan ikki nasixatnomani yuboradi.

Arabcha maktubda Muhammad (s.a.v)ni Ollohning rasuli ekanligini kimki Ollohning amriga hozir tursa sira kamchilik ko‘rmasligini va qiyomatgacha ular shunday ahllikda bo‘lishlari, hamda haq dinni barcha dinlardan ustun qilmoq hamda shariyat qonun- qoidalarini insonlarga o‘rgatmoq uchun Muhammad (s,a,v)ni yuborganligini takidlagan. Hukumat va siyosatning davomiy bo‘lishiga xayru savob umidida yer yuzidan ko‘p xudolik, kofirlik zaralarini yuqotish bilangina erishish va bu yo‘lda bizga hamrohlik ko‘rsatishga sheriklik qilsalar xamda elchilar va xabarchilar yuborib tursa, sayyox va savdogarlar uchun yullarni ochib tursalar mamlakatlar orasidagi xalqlar rohatga erishsa. Rahbarlik qiluvchiga ergashganlarga salom! Olloh bandalariga mehribondir! ***[1:226].***

Forscha maktubda. Olloh tomonidan Odam alayhissalomni yaratgach, farzandlaridan ba’zilarini payg‘ambar va rasul qilib haq yo‘lda davat qilsinlar

uchun xalq ichiga yubordi. Yana bu payg‘ambarlardan ba‘zilariga masalan Ibrohim, Muso va Dovud alayhissalomlarga kitob yuborib shariyatda ta’lim berdi. Bu rasullarning barchasi kishilarni bir dinga xudoparaslikga davat qilib, oftob, oy, yulduz, shayton va butlarga sig‘inishdan qaytardilar. Bizning rasulimiz Muhammad (s.a.v)ni oxir ur- zamon rasuli va payg‘ambari bo‘lganligi, butun olam amiru- sulton, g‘aniyu- faqir, kattayu- kichik barchasi uning shariyatiga amal qilishligi haqiqiy va to‘g‘ri e‘tiqod ana shudir.

Bundan birnecha yillar ilgari Chingizxon xuruj qilganligi va uning bazi farzandlari islom va musulmonlik tepasida turib hazrat Muhammad (s.a.v)ni shariyatiga amal qilib kelganlar. Undan so‘ng mening padarim Amir Temur ko‘ragoniy imon va islomni ravnaqiga harakat qildilar. Maktub so‘ngida Muhammad Baxshiy elchini yubordik shu narsa muqarardirki, savdogarlar tinch omon borib kelishlari uchun bundan buyon yo‘llar ochiq bo‘lur deya tugatadi.

Xitoy podishoxi Doy-Ming yana elchilar yuborib, ular (1417-yil 17-may) Hirotga yetib keladilar. Ularning boshliqlari Bi-Bochin, Tu-Bochin, Jot-Bochin va Tatq-Bochinlar uchyuz otliq bilan kelganliklari qayd etilgan. O‘zlari bilan ko‘plab sovg‘a salomlar, shunqorlar, atlas va kimxoblar, chinni asboblar va boshqalardan ibrat ko‘p hadiyalar keltirib, shahzodalar va og‘alar uchun esa alohida hadiyalar keltirilgan edi. Xitoy podishoxi yozgan maktubni Shohrux mirzoga o‘qib eshtirdilar. Mazmuni shunday. “Har ikki tomondan ham g‘ayrilik va begonalik pardasi daf qilmog’i, muvofiqatchilik, birdamlik eshigi ochilmog‘i lozimdir, toki rayiatlar va savdogarlar istak-imtiyozlari bilan berib kelsinlar, yo‘llar bexavotir bo‘lsin” ***[5:73].***

Xitoy elchilari birinchi bor tashrifidan so‘ng ortga qaytish chog‘ida Amir Sayid Ahmad tarxon podishohga atab bir to‘riq otni yuborgan edi. U ot podishox nazarida bexad tahsinga sazavor ko‘ringan va podishoh ot evaziga amir Sayid Ahmadga ko‘p hadiyalar jo‘natgan. Xitoy podishohi o‘sha otni jilovini ikki tomonidan ikki axtochi tutib turgan holdagi Xitoy naqqoshlari chizgan rasmini

ham yuborishgan edi. Elchilarni mehmon qilib kerakli yaroqlarni hozirlab Ardasher tavochini elchilarga hamrox qilib Xitoy tomon jo‘natdi ***[1:326].***

Xitoy podishohi Doy Ming dargohiga 1417-yilda u yuborgan elchilar bilan Ardasher tavochi yuborilgan edi. Ardasher tavochi ortga qaytishda Xitoy elchilari ham unga qo‘shib yuborildi. Xitoy elchilarining Farg‘ona sarhadlariga yaqinlashib kelishayotganligini Andijon beginning chopari yetkazdi. Bu Xitoy elchilarining uchinchi bor kelishlari (1419-yil 22-avgust) edi. Bu paytda Samarqand ko‘chalari harqachongidan gavjum, aramjon va sarishta. Chorrahalarga ayniqsa Registon va bozorlar atrofigagi ko‘chalarga kuniga ikki marotaba supirilar, qasirlar va shahar bozorlarining devorlari anvoiy matolar bilan bezatilgan, do’konlar va rastalar turli-tuman molar va buyumlar bilan limolim ***[5:75].*** Shundan so‘ng elchilar (1419-yil 20-oktabr) Pi-Mochin va Xon-Mochinlar Hirotga yetib keldilar. Xitoy podishoxining maktubi va sovg‘a-tortiqlar taqdim qildilar. Xitoyliklarning uslubi shundayki maktubda podishoxning nomini satir boshidan yozadilar. Maktubda biror yerida xudoyi taolloning nomi tilga olingan joyga yetsa, satir bo‘sh qoldirilib yangi satirdan yozadilar. Podishoxning nomi tilga olinsa ham shunday ish tutadilar. ***[1:347]***.

Doy Ming maktub avvalida Shohrux mirzoni islom mamlakatini boshqarishi uchun Olloh uni dono, oqil va yetuk qilib yaratgan. Shuning uchun mamlakat kishilari davlatmand va barcha musilmonlardan oliyroq sulton ekanligini takidlagan. Bundan ilgariroq yuborilgan Li Do, Beg Buqo va boshqa elchilar qaytib kelganligi, elchilar orqali olib kelingan xadiyalar sher, chopqir otlar, qoplonlar va boshqa har xil narsalarni yetkazganliklarini qayd etib o‘tgan. Xitoy podishoxi Shohrux Mirzoni islom joyi bo‘lmish mag‘ribda diyorida o‘tgan ulamolar, solix kishilardan hech biri Sulton Shoxruxdan ko‘ra oliyroq bo‘lmagan bo‘lsa kerak deb, garchi oramizdagi masofa yiroq bo‘lsada guyo ko‘zimga ko‘rinib turgandeksan deb tariflagan. Xitoydan kelgan elchilarga javoban Li-Do va Jonk-funi biz gumroh bilan Beg- Buqo va boshqa elchilar bilan yuborilganligi, elchilar bilan yetti bosh shunqorlar va boshqa hadiyalar jo‘natilganligini yozib garchand

shunqorlarni boshqa mamlakatlardan olib keligan bo‘lshsaham uni o‘z qo‘li bilan parvoz qildirganligi va shunqorlar u yerda kam ekanligini takidlab yuborilgan tuhvalar arzimas bo‘lsada lekin muhabbat va moyilik dalili sifatida qabul qilishni so’ragan. Maktub so‘ngida ikki oradagi rishta ya‘ni aloqalar uzilmasligi, elchilar va savdogarlar uzluksiz borib kelishlarini, toki barcha kishilar davlatda omonlik va faravonlikda yashashlikni bildirgan ***[1:347-348].***

Xitoyliklar hargal Shohrux mirzoga keltirgan maktublari uch maktubdan iborat bo‘lib, har bir maktub uch xil xat: biri forsiy iborada, ikkinchisi asli uyg‘ur xati bo‘lmish mo‘g‘il xati bilan turk tilida, uchinchisi xitoy xati bilan xitoyliklar tilida yozilgan edi. Lekin uchala xatning mazmuni birxil. Bundan tashqari ovchi qushlar va hadiyalar Ro‘yxati tushirilgan alohida xat ham yuborilgan. Bu xat ham uch xil xatda uch tilda yozilgan, Oy va yil tarixi esa o‘sh podishoxning hukumronligining boshlanishi vaqtidan boshlanadi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash kerakki Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” (Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo‘shilish joyi) nomli asari temuriylar davriga oid eng muhim manbalardan biridir. Buning asosiy sababi tarixchi asarni yaratishda o‘zidan oldingi temuriylar davriga oid qimmatli asarlar yozib qoldirgan G’iyosiddin Naqqosh “Xitoy safari ko‘ndaligi”, Hofizi Abru “Zubdat ut-tavorixiy Bo’ysung’uriy” (Buysung’urga bag’ishlangan tarixlar sarasi), Sharofuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarlaridan foydalangan. Asarni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va geografik ma’lumotlar bera oladigan asar hisoblanadi. Shu sababli “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” asari XV-XVI asrlarning o‘zidayoq boshqa tarixiy asarlarning yozilishiga bosh manba bo‘lib xizmat qildi. Bu esa asarni qimmatlilik darajasini oshiradi albatta. Yangi davirga kelib ham bu asarga bo‘lgan qiziqish yuqoriligicha qolaverdi. Tarixchi olim B.Axmedov ham o‘z asarlarini yozishda “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” asaridan keng foydalangan. Hattoki bu asarning ba’zi parchalari ingliz, fransuz va

boshqa tillarga ham tarjima qilingan. Bundan ko‘rinadiki Yevropa tarixchilarining bu asarga qiziqishi katta.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Абдураззоқ Самарқандий. МАТЛАИ САЪДАЙН ва МАЖМАИ БАҲРАЙН./ Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев II – жилд. – Т.: O‘ZBEKISTON, 2008. – 632 b.

2. ТЕМУР ва УЛУҒБЕК даври тарихи. – Т.: ҚОМУСЛАР, 1996. – 263 b.

3. ШАРОФУДДИН АЛИ ЙАЗДИЙ. ЗафарномА – Т.: ШАРҚ, 1997. – 383b.

4. АМИР ТЕМУР ЖАҲОН ТАРИХИДА. – Т.: ШАРҚ, 1996. – 391 b.

5. Аҳмедов Б. Улуғбек – Т.: Ёш гвардия, 1989 – 256 б.

6. Kenjayev S.N. Amir Temur va Xitoy min saltanatlari o‘rtasida olib borgan savdo aloqalarida Movarounnahir otlari. Ilmiy maqola.

7. Абдуносирова О. Шоҳрух мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Б. Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари. Халқаро илмий-назарий конференция материаллари. Фарғона, 2022. – 172-179

8. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

9. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

10. Abdunosirova O.B. ON THE SPONSORSHIP ACTIVITIES OF THE TEMURIAN PRINCE. Asian Journal of Multidimensional Research 1(11), 2022.

11. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ.

INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339

12. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

13. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

AMIR TEMUR DAVRIDA SAMARQAND ZAMINIDA BUNYOD ETILGAN MAQBARALAR

Amirkulov Jasur Baxtiyorovich

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti,

jasur.amirkulov@inbox.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur davrida Samarqand zaminida bo‘lgan aziz avliyolar, Temurga yaqin bo‘lgan shaxslar qabrlarida bunyod etilgan maqbaralar, marhumlar xotirasiga ko‘rsatilgan ehtirom to‘g‘risida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘z va iboralar:*Amir Temur, Samarqand, temuriylar, maqbara, Shoxi Zinda, Go’ri Amir, Ruxobod, Cho‘pon ota.*

Аннотация: *В данной статье приведены сведения о мавзолеях, построенных на могилах близких людей Тимура и святых, находившихся на земле Самаркандской в период правления Амира Темура, и уважении, проявленном к памяти усопших.*

Ключевые слова и фразы: *Амир Темур, Самарканд, Тимуриды, мавзолей, Шахи-Зинда, Гури Эмир, Рухабад, Чупан ата.*

Annotation: *This article provides information about the mausoleums built on the graves of the dear saints who were in the land of Samarkand during the reign of Amir Temur, and the respect shown to‘the memory of the deceased.*

Key words and phrases: *Amir Temur, Samarkand, Timurids, mausoleum, Shakhi-Zinda, Guri Emir, Rukhabad, Chupan ata.*

“Tarixiy merosni asrab-avaylash, urganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yunalishlaridan biridir”

Shavkat Mirziyoyev

Zarafshon vohasining markazida joylashgan qadimiy Samarqand azal-azaldan o‘trok hayot, sug’orma dexqonchilik, ilm-fan va taraqqiyot markazi bo‘lishi bilan birga, jahon tarixida haqli ravishda insoniyatning madaniyat beshiklaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Samarqand o‘zida 2750 yillik boy tarix va qadimiy sivilizatsiya namunalarini mujassam etadi.

Rus ofitseri, shoir V.V. Krestovskiy Samarqand haqida o‘zining “Buxoro amiri xuzurida mehmonda” nomli maqolasida – “Umuman olganda bularning hammasi nihoyatda o‘ziga xos, go‘zallikka to‘la Ulug‘vor kartinaga o‘xshaydi. Unga shunchaki qarashning o‘zi, o‘ziga ishongan “madaniyatli” Yevropalikning keyinchalik xech qachon O‘rta Osiyolik “varvar”larning nafis didi va badiiy dohiyonoligiga takabburlik, hurmatsizlik qilmasligi uchun etarlidir” degan fiklarni bildiradi ***[5:511]***.

Musulmon me’morligidagi eng yaxshi davr Amir Temur va uning avlodlari nomi bilan bogliq. Temuriylar davrida qurilish ishlari, me’morchilik misli ko‘rilmagan darajada rivojlangan. Amir Temur buyuk imoratlar, masjid va maqbaralar, ulkan bog‘u-rog‘lar, suv inshootlari barpo etganligi bilan ham mashxur.

Amir Temur o‘z saltanatida bunyodkorlik ishlarini olib borish jarayonida asosiy e’tiborni musulmonlar uchun muqaddas qadamjolarni obodonlashtirishga qaratgan.

Bunday joylardan biri Shoxi-Zinda maqbarasi edi.

Samarkanddagi aziz insonlar dafn etilgan Shohi Zinda, ya’ni “Tirik shox,” makbaralar majmuasi o‘tmish ajdodlarimiz tarixida alohida o’rin tutadi. U qo’hna Samarqandning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, musulmonlarning muqaddas ziyoratgoxlaridan biridir ***[10:30]***.

Shohi Zinda nomi Muhammad (s.a.v) payg‘ambarning amakivachchalari Qusam ibn Abbos nomi bilan bog‘liq.

Qusam ibn Abbosning Samarqandda shahid bo‘lganligi haqida Abu Toxirxo‘ja quyidagilarni yozib qoldirgan. “Qusam ibn Abbos Xuroson hokimi etib

tayinlangan Sa’id bin Usmon ketidan Movorounnahrga keldi. Said bin Usmon yarash yo‘li bilan Samarqandni olib xalqini musulmon qildi. Dinni kuchaytirmoq va shariat hukmlarini yurguzmoq tilagi bilan Qusam bir necha islom qo‘shini bilan bunda qoldirildi. 56 hijriy yilda kofirlar shaxarga xujum qildilar. Samarqand shaxrining Nomozgohida Qusam jon chiqariga o‘q tegib shahid bo‘ldi va qutlug’ gavdasini Banu Nojiya qabristonida g’or yonida ko’mdilar. To‘g‘ri rivoyat shulkim, Sa’id bin Usmon Samarqandni eli bilan urushayotganda, Qusam jon chiqarida o‘q tegib shahid bo‘ldi va Bani Nojiya qabristonida ko’mildi” ***[3:29]***.

Tarix va afsona ana shu tariqa bir-bir bilan uyg‘unlashib ketgan.

Samarqand taxtiga Amir Temur o‘tirgach Shohizinda ansamblining hayotida ham katta o‘zgarishlar ro’y berdi. Amir Temur bu erdagi ko‘pgina, xarobaga aylangan inshootlarning o‘rniga yangisini qurdi, ko‘plarini qayta ta’mirladi, Qusam ibn Abbos qabri ustiga hashamatli qabrtosh o‘rnattirdi. Shuningdek, sohibqironning buyrug‘i bilan bu erda yangi masjid ham barpo qilindi. Bu o‘rinda shuni aytishimiz lozimki, Shohizinda me’morchilik ansambli turli davrlarda har xil hukmdorlar va amaldorlar tomonidan barpo qilingan maqbaralar, masjid va madrasalardan iborat murakkab yodgorlikdir.

Bu yerga Temur davrida Ulja oyim, Tug‘luq Tekin, uning opasi Qutlug‘ Turkan og‘a, singlisi Shirinbeka Og’olar dafn qilingan bo‘lib ularning qabrlari ustida maqbaralar qurilgan.

Shuningdek, Amir Temurning katta rafiqasi Tuman og‘aning ko‘rsatmasi bilan Shoxi-Zindada bir qancha binolar: masjid, darveshlar uchun istiqomat joylari, Chortog’ va maqbara, Samarqandning asosiy ko‘chalaridan birida esa yopiq savdo majmuasi qurilgani ham ma’lum.

Shoxi Zinda ansamblidagi peshtoqli maqbaralar butun musulmon sharqida tengsiz xisoblanadi. Bu Ulug‘vor yodgorlik Amir Temur davrida Afrasiyob yonbag‘iridagi Samarqand devori ortida shakllangan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra Qusam ibn Abbos maqbarasi XI asrda qurilgan. XI-XII asrlarda uning yaqinida Tamg‘achxon madrasasi va yana

ikkita maqbara bunyod etilgan. XIII asrda bu binolar mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan, ammo ilohiy bo‘lgan asosiy ziyoratgohni buzishga qo’rqishadi. 1331-yilda ziyorathona qayta tiklandi. 1360-yilda uning yonida noma’lum zodagon qizning maqbarasi qad rostlagan, tahminan shu vaqtda Xoja Ahmad maqbarasi ham uning yonida bunyod etildi. Ammo Shoxi-Zinda majmuasining asosiy qurilishlari Amir Temur davrida amalga oshirilgan. XIV asrning 70-80 yillarida asosiy ziyoratgohdan pastga qadimiy Afrosiyobning qal’a devorlarigacha cho‘zilgan yo‘lak bo’ylab maqbaralar quriladi. Ularning hammasi bir honali, peshtoqli gumbazli ko‘rinishga ega bo‘lgan ***[4:72]***.

Shoxi Zinda majmuasi xalq orasida shunchalik mashhur va ilohiy qadamjo bo‘lganki, 1901 yil iyul oyida bu majmuaning koshinlari ko‘chirib olinishi to‘g‘risida rus imperator arxeologiya komissiyasi xulosasi bo‘lishiga qaramasdan, mahalliy xalqning g‘azabidan qo’rqib Samarqand harbiy gubernatori bu ishni qilmaslikni imperatordan iltimos qilib xat jo‘natadi ***[11]***.

Amir Temur davrida Shoxi-Zinda majmuasini loyihalashning yakuniy bosqichi XV asr boshlarida uning rafiqasi Tuman Oqaga atab qurilgan yodgorlik bilan bog‘liq. Yodgorlik tepa qismida ayollar maqbarasi, maqbara yonida masjit qurilgan. Bu maqbara Temurning ayol qarindoshlari uchun mo‘ljallangan edi.

Amir Temurning oila a’zolari, saroy ayonlari Hazrati Qusam ibn Abbos maqbarasi yaqinida ko’milishni sharaf bilishib, o‘zlariga naqshinkor, takrorlanmas obida-maqbaralar qurdirishdi. Bu obidalarni chet eldan-Erondan, Hindistondan, Shomdan kelgan ustalar hamda mahalliy me’morlar hamkorligida qurishadi va ta’mirlashadi. Amir Temurdan so‘ng uning ishlarini nabirasi Ulug‘bek mirzo davom ettiradi ***[7:35-36]***.

Amir Temur davrida hukmron xonadon a’zolari va musulmon ruhoniylarining ko‘zga ko‘ringan vakillari dafn etilgan joylar ustida maqbaralar qad rostlagan. Ular markaziy gumbazli va ko‘pincha peshtoqli gumbazli tuzilmalar shaklida namoyon bo'ladi. Haqiqiy qabrlar maqbara erto‘lasida joylashgan bo‘lib, ularing joylashuvi go’rxonada sag’ana – qabrtoshlar bilan takrorlangan.

Mashhur Ruxobod (Burxoniddin Sog‘arji qabri), Qutbi chahardaxum nomi bilan mashhur bo‘lgan Shayx Xo‘ja Nuriddin Basir maqbarasi, Temuriylar sulolasiga ta’luqli bo‘lgan Go’ri Amir maqbaasi ham Temur davrida qurilgan.

Bir-biridan bir muncha uzoqda joylashgan bu maqbaralar bir o‘qda joylashgan bo'lib, gumbazlari Samarqandning yam-yashil daraxtlari ustidan ko‘rinib turadi.

Bu kompozitsion aloqadorlik Amir Temur va temuriylar maqbarasining yuksak hurmatli shayxlar bilan birlashtirgan g‘oyaviy bog‘liqligini ta’kidlaydi.

Ko‘rinishidan sodda va oddiy, ammo Ulug‘vor bu obidani Amir Temur XIV asrning 80-yillarida bunyod qildirgan. Ushbu maqbara to‘rtburchak asosga ega bo‘lib uning ustiga sakkiz qirrali yana bir qavat bino qilingan, uning ustida esa gumbaz barpo qilingandir. Ruxobod maqbarasi o‘z shakli va qurilish usullari bilan Markaziy Osiyoda XI-XII asrlarda bunyod qilingan inshootlarga o‘xshab ketsa-da, Amir Temur hukmdorligining dastlabki yillarida qurilganligi ma’lumdir.

Ushbu yodgorlikning Ruhobod deb nomlanishini sababi, rivoyatlarga ko‘ra maqbaraning gumbazi qurilayotgan paytda unga payg‘ambarimiz Muhammad alayxissalomning muborak sochlaridan bir necha tolasi mis idishga solinib qo‘yilgan. Shu sababli ushbu obida “Ruxobod”, deb atala boshlangan. Manbalarga ko‘ra, ushbu maqbaraning yonidagi masjid qadimda xalq orasida “Muyi muborak” deb nomlangan ***[10:106]***. Ruxobod maqbarasiga Samarqandda yashagan Ulug‘ zotlardan biri, tasavvufning ko‘zga ko‘ringan namoyandasi shayx Burxoniddin Sog’arjiy, u zotning o’gillari va avlodlari, dafn etilganlar. Tarixiy qo‘lyozmalarning guvoxlik berishicha, shayx Burxoniddin Sog’arjiy, chahoryorlardan ikkinchisi, xalifa Umarning avlodlaridan bo‘lib, Samarqandning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan Sog’arj shaxrida tavallud topganlar. Shayx Nuriddin Basirning izdoshi Burhoniddin Sog’arji 80-yillarda vafot etgan. Temur Shayx qabri ustiga maqbara qurishni buyuradi. Ruxobod - g'ishtdan qurilgan, kub, sharsimon bir gumbazli bino bo'lib, markazlashtirilgan tarkibga ega. Asosiy arkasimon fasad o'yilgan, sirlangan terakota plitalari bilan qoplangan ***[2:48]***.

1907-yil oktabr oyida bo‘lgan zilzila natijasida maqbarada mavjud yoriqlar ko‘payib,shuvoqlari to‘kilib tushgan ***[12]***.

Go‘ri Amir maqbarasi jahonga mashhur va O‘rta Osiyo me’morchiligining noyob asari sifatida e’tirof etiladi.

Maqbara qurilishi 1403-yilda Amir Temurning vorisi Muhammad Sultonning vafot etishi munosabati bilan boshlangan, Mirzo Ulug‘bek davrida tugallangan hamda Amir Temur va temuriylar xilxonasiga aylantirilgan.

Maqbara o‘rta asr Samarqandining janubiy-sharqiy qismida, Temurning nabirasi Muhammad Sulton XIV asrning oxirida bino qildirgan majmua qoshida tiklangan.

“Go’ri Amir” maqbarasi nomi bilan jaxonga mashxur bo‘lgan ushbu tarixiy obidani bir necha asrlardan beri shaxarliklar ba’zan "Go’ri Mir” deb Mir Sayid Barakaga nisbat bergan xolda xam atashadi. Tadqiqotchi Komilxon Kattayev fikricha maqbaraning bunay atalishi unchalik ham to‘g‘ri emas, - “negaki birinchidan, Amir, Temur ushbu erga ilgariroq dafn etilib, pirining jasadi sal keyinrok ko‘chirilgan; ikkinchidan, maqbara eng avvalo‘temur va temuriyzodalar dahmasi sifatida qurilgan; uchinchidan, mavzeda ilk ko'milgan mashxur murshid - Mir Sayid Umar ham mavjud bo‘lib, «Mir» nisbati berilganda avvalo ul zot nomiga qo‘yilardi yoki ikkala sayidga nisbat berilib «Guri Miron» (Mirlar qabri) deb atalib ketardi; to‘rtinchidan, etti iqlim podshoxi va mashxur tarixiy shaxs bo‘lgan Amir Temur va uning dunyoga mashhur o’g’ilu nabiralaridan bir qanchasi ushbu maqbarada ko’milganligi birligida, boshqa shaxsga maqbara nomi berilishi mutlaqo mumkin bo'lmagan xoldir. Chunki, mashxurlikda Temur va uning avlodi nisbatan yuqorida edi. Shuning uchun xam maqbara dunyoga mashxur Shoxrux, Ulug‘bek yoki Muxammad Sultonning nomlari bilan ham, hatto piru murshid Mir Sayid Barakaning nomi bilan ham atalmay, balkim soxibqiron Amir Temur nomi bilan atalganligi aniqdir” ***[6:27-28]***.

Muhammad Sulton 1403-yilda Kichik Osiyoga bo‘lgan harbiy yurish vaqtida to’satdan kasallikdan vafot etgan. Shahzodaning jasadi Samarqandga olib

kelinib, majmuaning janub tomonidagi ayvoni orqasidagi dahmaga dafn qilinadi. So‘ng Amir Temur shahzodaga atab maqbara qurish haqida farmon beradi. Shundan keyin dahma ustiga sakkiz yoqli bino quriladi.

Amir Temur vafotidan keyin Shoxruh Mirzo Hirotni poytaxt qilib, o‘g‘li Mirzo Ulug‘bekni esa Samarqandga hokim etib tayinlaydi. U mamlakatda madaniyat va qurilish ishlarini rivojlantirib yuboradi.

Mirzo Ulug‘bek buyuk bobosiga hurmat yuzasidan ushbu sakkiz qirralik maqbarani temuriylar avlodi dafn qilinadigan maqbaraga aylantiradi. Maqbara bitgach, Amir Temurning ma’naviy ustozi Mirsayid Barakaning jasadi shu maqbaraga ko‘chiriladi va Sohibqironning bosh tomoniga dafn etiladi. Rivoyatlarga ko‘ra, Amir Temur o‘zini pirining oyok tomoniga dafn qilinishini vasiyat qilgan. Maqbaraga Mironshoh Mirzo, Shoxruh Mirzo, Shayx Sayyid Umar, Mirzo Ulug‘bek va Ulug‘bekning go’dakligida vafot etgan ikki farzandi - Abdulloh va Abdurahmonlar ham dafn qilingan.

Ulug‘bek tomonidan binoning ichi yangidan bezatildi, maqbara sahdiga dahmalar qo‘yilib, atrofiga nafis marmar toshdan panjara qilindi. Maqbaraga 1424-yildan boshlab uning sharq tomoniga taqab qurilgan ko‘p gumbazli galereya orqali kiriladi. Maqbaraning g‘arb va janub tomonlari yondosh qilib qurila boshlagan, lekin bitmay qolgan ulkan imoratlarning tiklanishi Mirzo Ulug‘bek hukmronligining so‘nggi yillariga tuo’g’ri kelishi mumkin ***[10:26]***.

XVIII asrda Eron shoxi Nodirshox Buxoro va Xiva xonlari ustidan g’alaba qozongach, Go’ri Amir maqbarasidagi nefrit qabrtosh va Bibixonim maschitidagi quyma darvozalarni olib ketadi. Maqbaradagi qabrtoshni olish vaqtida uni to‘rt bo‘lakga bo‘ladi. Ammo bu buyumlarni olib ketmasdan, Temur haqiga fotiha o‘qib, ularni o‘z joyiga qaytarishni buyuradi ***[8:29]***.

XX asr boshlariga kelib maqbaraning axvoli ancha xarob axvolga kelib qoladi. Jumladan 1903-yil 14-iyunda nashr etilgan “Asxabat” gazetasida maqbaraning minorasi qulab tushganligi haqida xabar nashr etilgan ***[14]***. Bu

xabarni aniqlash, va talofotlarni bartaraf etish uchun Samarqand harbiy gubernatori tomonidan ishchi guruh tuziladi ***[13]***.

Maqbarani tiklash va ta’mirlash uchun mustaqil O‘zbekiston hukumati tomonidan katta mablag‘ ajratilib, 1994-1996 yillarda katta hajmdagi ishlar olib borildi.

Cho‘pon ota maqbarasi. Samarqand yaqinida Ko‘xak tog‘i yonida, tepalikda joylashgan kichkina nozik bino. Xalq orasida u cho'ponlarning homiysi Chupon ota maqbarasi sifatida tanilgan va hurmatga sazovor. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra maqbaraning barpo etilishi XV asrning 30-40 yillariga ya’ni Ulug‘bek hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Bu inshoot dastlab, mayoq, kuzatuv joyi yoki shaxar ko‘rinishidan zavqlanib dam olish joyi sifatida qurilgan bo‘lishi mumkin. Binolar nozik mutanosibliklari, umumiy shaklning nafisligi, ehtiyotkor dekoratsiyasi va tabiatning o‘zi bilan organik aloqasi bilan ajralib turadi ***[9:49]***.

Amarqanddan tashqari Amir Temur boshqa hududlarda ham ko‘plab maqbarala qurdirgan, ulardan Turkistondagi Ahmad Yassaviy, Toshkentdagi Zangi ota, Shaxrisabzda Shamsiddin Kulol va boshqa maqbaralarni misol keltirsak bo‘ladi.

Asrlar o‘tgan bo‘lsada Amir Temur va uning avlodlari bunyod etgan obidalar o‘z mahobati va go‘zalligi bilan jahon me’morchiligining asl durdonalaridan bo‘lib turishibdi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlarning tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida so‘zlagan nutqidan
2. Axmedov B.A., Mukminova R.G., Pugachenkov G.A. Amir Temur tarixi. - Toshkent: Fan, 1999.- b. 48.
3. Abu Tohirxo‘ja. Samariya. Toshkent. Kamalak. 1991 y. 29-b
4. Булатовой В.А., Шишкиной Г.В. Самарканд музей под открытым небом. Ташкент, 1986.- с. 72.

5. В. В. Крестовский. В гостях у эмира Бухарского. “Русский Вестник”, 1882 г., № 2, стр. 511

6. K.Kattayev, Q.Mamaraimov.Go’ri Amir maqbarasi va qabrtoshlar tarixi. Samarqand 2007. 27-28 b.

7. K.Kattayev...Shoxi Zinda(risola).Toshkent. Fan. 2006. 35-36 b

8. M.E.Masson. Mavzoley Gur-Emir. Samarkand 1929. 29-b

9. Pugachenkova G.A. Samarqand va Buxoroning qadimiy yodgorliklariga ko'ra. Moskva, 1968.- s. 49.

10. Samarqand yodgorliklari. Sh. Qulmatov, A. Berdimurodov.- Samarqand: Imom Buxoriy halqaro markazi, 2017. 26-bet

11. O‘z.R.M.A. Fond I-1, opis-11, 1902 – ish. 1-6 varaq.

12. O‘z.R.M.A. Fond I-1, opis-13, 374 – ish. 51 varaq.

13. O‘z.R.M.A. Fond I-1, opis-13, 374 – ish. 13-14 varaq.

14. “Asxabat” gazetasi 1903 y. 14-iyun, № 165

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH, SAQLASH HAMDA ULARDAN FOYDALANISH MASALALARI

Rasulov Ma’murjon Foziljonovich

Farg‘ona davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, (PhD).
mf.rasulov@pf.fdu.uz

Annotatsiya: *maqola Amir Temur va temuriylar davri me’moriy inshootlarini saqlash, muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada Amir Temur va temuriylar davri me’moriy inshootlarining respublika madaniy-ma’rifiy, xalqaro sayyohlik sohasidagi ahamiyati va ularni muhofaza qilish, saqlash hamda foydalanish borasida O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *madaniy meros obyektlari, “mayin kuch”, me’moriy inshootlar, shahriston, hisori, gumbaz, madrasa, maqbara, rasadxona, qal’a, xandak.*

Аннотация: *статья посвящена вопросам сохранения, защиты и использования архитектурных сооружений периода Амира Темура и темуридов. В статье проанализировано значение архитектурных сооружений эпохи Амира Темура и темуридов в культурно-просветительской сфере республики и международном туризме, а также мероприятия, проводимые правительством Узбекистана в сфере их охраны, сохранения и использования.*

Ключевые слова: *объекты культурного наследия, «нежная сила», архитектурные сооружения, шахристан, хисори, купол, медресе, мавзолей, обсерватория, крепость, ров.*

Abstract: *the article is devoted to the issues of preservation, protection and use of architectural structures of the period of Amir Temur and the Temurids. The article analyzes the importance of architectural structures of the era of Amir Temur and the Temurids in the cultural and educational sphere of the republic and international tourism, as well as the activities carried out by the government of Uzbekistan in the field of their protection, preservation and use.*

Keywords: *objects of cultural heritage, "soft power", architectural structures, shakhristan, hissori, dome, madrasah, mausoleum, observatory, fortress, moat.*

O‘zbekiston istiqlolga erishgandan so‘ng, xalqaro maydonda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari bilan o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Keyingi yillarda mamlakat xalqaro diplomatik faoliyatini ilmiy, madaniy-ma’rifiy sohalarda ham kengaytirishga intilmoqda. Xalqaro amaliyotda bunday siyosat “mayin kuch” (“soft power”) deb yuritiladi. Bunda ilm-fan, madaniy-ma’rifiy va sayyohlik sohalaridagi xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O‘zbekistonda salmoqli tajriba to‘plandi. Jumladan, Xiva (1990-yil), Buxoro (1993-yil), Shahrisabz (2000-yil), Samarqand (2001-yil) shaharlari YuNESKOning Butun jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilganligi, shaharlar, tarixiy shaxslar va buyuk allomalar yubileylarining xalqaro miqyosda nishonlanishi, turli xalqaro festivallar mamlakatning xalqaro maydonda madaniy-ma’rifiy hamda xalqaro sayyohlik sohasida faoliyat doirasi kengayib va mustahkamlanib borayotganligini ko‘rsatadi. Bunda, birinchi navbatda, respublikadagi tarixiy shaharlar va madaniy meros obyektlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda respublikada 8208 ta madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, shundan 2250 tasi me’morchilik, 4748 tasi arxeologik yodgorliklar, 678 tasi mahobatli san’at (monumental) obyektlari, 532 tasi diqqatga sazovor joylardir. Bu madaniy meros obyektlaridan 4000 dan ortig‘i YuNESKOning Butun jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan **[*1*]**.

O‘zbekistondagi 180 dan ortiq xalqaro sayyohlik yo‘nalishlarining 140 dan ziyodi aynan madaniy meros obyektlari bilan bog‘liq. Shuning uchun, moddiy

madaniy meros obyektlarini ta’mirlash va tiklash ishlariga keyingi yillarda mamlakat hukumati tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 2016-yilda 67 ta, 2017-yilda 45 ta, 2018-yilda 72 ta madaniy meros obyektlarida keng ko‘lamli ta’mirlash-tiklash ishlari respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan bajarildi [*2*]. Bu jarayon hozirgi kunda ham uzluksiz ravishda amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, Turizm va madaniy meros vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra, madaniy meros obyektlarining restavratsiya, ta’mirlash-tiklash hamda konservatsiya ishlariga 2019-yilda jami 73 ta obyektga 59,9 mlrd so‘m, 2020-yilda 75 ta obyektga 63,6 mlrd so‘m, 2021-yilda jami 56 ta obyektga 45,7 mlrd so‘m, 2022-yilda jami 69 ta obyektga 164,9 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan.

Bu boradagi ishlar 2023-yilda ham davom ettirilib, respublikadagi 57 ta madaniy meros obyektlarini ta’mirlash uchun 100 mlrd so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltirish ko‘zda tutilmoqda. Shuningdek, Dalvarzintepa, Mingtepa, Chilonzor Oqtepasi, Sherozqal’a, Qo‘yqirilganqal’a kabi yirik arxeologiya yodgorliklarini ilmiy tadqiq etish va muzeylashtirish ishlarini olib borish rejalashtirilgan. Vazirlik ma’lumotiga ko‘ra, madaniy meros obyektlarini asrash sohasida Koreya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Turkiya, Eron va Rossiya kabi mamlakatlar bilan dastlabki kelishuvlarga erishilgan ***[3]***.

O‘zbekistondagi xalqaro maydonda e’tirof etilayotgan madaniy meros obyektlarining asosiy qismi Amir Temur va temuriylar davrida bunyod etilgan me’moriy inshootlardir. Xususan, Samarqand viloyatida 1607 ta madaniy meros obyektlari mavjud ***[4]*** bo‘lib, 2022-yilda obidalarning ta’mirlash va qayta tiklash uchun jami 28,7 mlrd so‘m mablag‘ sarflangan hamda 14 ta madaniy meros obyektlari qayta ta’mirlangan. Jumladan, Registon, Shohizinda va Bibixonim majmualari, Amir Temur maqbarasi, Ulug‘bek rasadxonasi kabi tarixiy inshootlar qayta ta’mirlangan ***[5]***.

Amir Temur va temuriylar davri me’moriy inshootlari qanday jihatlari bilan hozirgi kungacha dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda? Buning uchun o‘sha davr tarixiy jarayonlarini biroz tahlil qilish zarur bo‘ladi. Amir Temur va temuriylar

davrida nafaqat me’moriy inshootlar balki, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning barcha yo‘nalishlarida o‘sha davrda rivojlangan ilm-fan yutuqlariga, turli innovatsion loyihalarga asoslangan edi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan “Qudratimizni ko‘rmoq istasang – binolarimizga boq!” degan yozuv Amir Temur davlatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ham anglatar edi. Amir Temur davrida Movarounnahr shaharsozlik an’analarida istehkomlar, shoh ko‘chalar, me’moriy majmualar qurilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davr shaharsozlik sohasida alohida yangi yo‘nalishlar, o‘z davri uchun innovatsion loyihalar yaratildi. Ilk o‘rta asrlardagi shaharning asosiy qismi bo‘lgan “shahriston”dan ko‘lam va mazmun jihatdan farq qiluvchi “hisori”* qurilish an’anasi shakllandi. Bunday shaharsozlik namunasini Samarqand va Shahrisabzda kuzatish mumkin **[*6: 107*]**.

Amir Temur poytaxt Samarqandni bezatishga alohida e’tibor qaratdi. Shaharda “hisori”, qal’a, Ulug‘vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi. Uning davrida Samarqand Afrosiyobdan janubda mo‘g‘ullar davridagi ichki va tashqi shahar o‘rnida qurila boshlandi hamda bu maydon qal’a devori va xandak bilan o‘ralib (1371-yil) “hisori” deb ataldi. Hisori 500 gektar bo‘lib devor bilan o‘ralgan va shaharga kirish uchun oltita darvoza qurilgan.

Shaharda me’moriy majmualar shakllanishi Amir Temur va temuriylar davrining eng katta yutug‘i bo‘ldi. Me’morchilik taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarildi, inshootlar ko‘lami bilan birga ularning shakli ham ulkanlashdi. Bu jarayon muhandislar, me’morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo‘ydi. Amir Temur davrida gumbazlar tuzilishida qirralar oralig‘i kengaydi. Ikki qavatli gumbazlar qurishda ichkaridan yoysimon qovurg‘alarga tayangan tashqi gumbazni ko‘tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshdi. Ulug‘bek davrida gumbaz osti tuzilmalarning yangi xillari ishlab chiqildi. Aniq fanlardagi yutuqlar me’morchilik inshootlari (Shohizinda, Ahmad Yassaviy, Go‘ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Ulug‘bek madrasasi)da o‘z aksini topdi ***[7: 138]***.

***Ҳисори(й)** – *форс., араб.* ўраб олиш; қуршов, қамал; мустаҳкам қалъа. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 537.

XV asrda madrasa me’morchiligi o‘zining uzil-kesil qiyofasiga ega bo‘ldi. Madrasa qurilishi yagona tizim bo‘yicha rejalashtirilsa-da, asosiy shakllari, ularning o‘zaro nisbatlari va bezaklariga ko‘ra har biri o‘z qiyofasiga ega edi.

Temuriylar davridan qolgan maqbara, din arboblari, ruhoniylar va avliyolar qadamjolari, dahmalar qurilishida ham alohida me’moriy yechimlar ishlab chiqildi. Samarqandda Amir Temur davrida qurilgan shayx Burhoniddin Sag‘orjiy xilxonasi – Ruhobod maqbarasi va Temuriylar xilxonasi – Go‘ri Amir ana shunday me’moriy yechimlar asosida barpo etildi.

Temuriylar davrida qurilgan saroylar ikki xil bo‘lgan. Birinchisi – ma’muriy-siyosiy maqsadda bo‘lib, qal’a yoki shahar ichida qurilgan. Ikkinchisi – shahar tashqarisidagi bog‘larda qurilgan qarorgohlarda qabul marosimlari, majlislar o‘tkazilgan va xordiq chiqarilgan **[*7: 139*]**.

Amir Temur shaxsiyati, davlatchilik borasidagi faoliyati, temuriylar davrida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot istiqlol sharofati bilan qayta tadqiq etildi. 1993-yil 31-avgust kuni Toshkent shahrida buyuk sarkardaning haykali tantanali ravishda ochildi. Vazirlar Mahkamasi qarori [*8*]ga asosan, Amir Temur davri bilan bog‘liq madaniy meros obyektlari saqlanib qolgan shahar va qishloqlarda keng ko‘lamli ta’mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi.

Vazirlar Mahkamasining Ulug‘bek tavalludi 600 yilligini o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori [*9*]ga asosan, Samarqand, Buxoro, G‘ijduvon va Shahrisabzdagi me’moriy yodgorliklarda ta’mirlash ishlari olib borildi. Jumladan, Samarqandda Ulug‘bek madrasasi, Ulug‘bek rasadxonasi, Go‘ri Amir majmuasi; Buxoroda Ulug‘bek madrasasi; G‘ijduvonda Ulug‘bek madrasasi; Shahrisabzda Ko‘k-Gumbaz masjidi, Gumbazi Sayyidon, Dorut-Tilovat majmuasidagi Shamsiddin Kulol maqbaralarida ta’mirlash-tiklash ishlari uchun 120,9 mln so‘m mablag‘ ajratildi ***[10]***.

1995-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag‘ishlab Samarqand viloyati bo‘yicha 11 ta, Qashqadaryo viloyati bo‘yicha 11 ta, Surxondaryo viloyati bo‘yicha 1 ta Amir Temur va temuriylar davri me’moriy yodgorliklarda ta’mirlash-

tiklash ishlari olib borildi ***[11]***. Shu jumladan, Samarqanddagi Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda, Registon majmualari va boshqa obyektlarda, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahridagi Dorus-Saodat, Dorut-Tilovat, Oq Saroy arki, Chubin madrasasi, Qal'a devorida va Qarshi shahridagi Ko'k Gumbaz masjidi, qadimgi ko'prik va hammom, Qilichboy madrasasida, Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi Sulton-Saodat me'moriy majmuasida keng ko'lamli ta'mirlash-tiklash ishlari, "O'zbekta'mirshunoslik" institutida ilmiy-tadqiqot va loyiha ishlari, "Qadriyat" Davlat korxonasi tomonidan me'moriy bezaklarni ilmiy ta'mirlash ishlari bajarildi ***[12]***. 1995-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan "1996-yilni Amir Temur yili" deb atash to'g'risidagi Farmon qabul qilindi ***[13]***.

Mazkur farmonda belgilangan vazifalar yuzasidan 1996-yilda keng ko'lamli ta'mirlash-tiklash ishlari bajarildi ***[14]***. Shahrisabzdagi Oq Saroy, Dorut-Tilovat va Dorus-Saodat me'moriy majmualarida 1995-yilda ham katta hajmdagi ta'mirlash-tiklash ishlari olib borilgan edi. 1996-yil 18-oktyabr kuni poytaxtda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi.

1996-yilning 22–24-aprel kunlari Parijda YuNESKO doirasida "Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi" mavzusida xalqaro konferensiya hamda tadbirlarning o'tkazilishi o'zbek xalqi tarixiy qadriyatlarining nafaqat milliy, balki umumbashariy ahamiyat kasb etayotganligini yana bir bor tasdiqladi.

1991–2001-yillar mobaynida respublikadagi 69 ta me'moriy obidalar ta'mirlanib, o'zligiga qaytarildi. Jumladan, Buxoro viloyatida 25 ta, Samarqand viloyatida 14 ta, Xorazm viloyatida 10 ta, Surxondaryo viloyatida 3 ta, Navoiy viloyatida 2 ta, Toshkent shahrida 5 ta, Qo'qonda 2 ta, Shahrisabzda 8 ta ***[15: 20-23.]***.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2014-yilda qabul qilingan qaror ***[16]*** ga asosan, Qashqadaryo viloyatida joylashgan Oq Saroy, Dorus-Saodat, Dorut-Tilovat, Chubin madrasasi, Chorsu, Koba karvonsaroyi, o'rta asr hammomi,

Abdushukur Og‘alik, Tarixiy devorlar, Samarqand darvoza, Kitob darvoza kabi madaniy meros obyektlarida keng ko‘lamli ta’mirlash-tiklash ishlar olib borildi.

Vazirlar Mahkamasining “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali to‘g‘risida”gi qarori ***[17]*** ga asosan, 1997-yilning 25-avgust – 2-sentyabr kunlarida Samarqand shahrining Registon maydonida birinchi xalqaro musiqa festivali bo‘lib o‘tdi. Festivalda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan san’atkorlar qatnashdi. Festival geografiyasi yillar davomida kengayib bordi. Masalan, 2005-yilda dunyoning 51 mamlakatdan, 2007-yilda 53 mamlakatidan, 2009-yilda 50 mamlakatidan, 2011-yilda 56 mamlakatdan, 2013-yilda 56 mamlakatidan, 2017-yilga kelib esa, 58 mamlakatidan vakillar qatnashdi ***[18]***.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari ***[19]***ga asosan 2019-yil 26–30-avgustda “Sharq taronalari” navbatdagi XII festivali o‘tkazildi. Festivalda 75 mamlakatdan 340 nafar vakillar qatnashdi ***[20]***. Prezident Sh.M.Mirziyoev festivalning ochilish marosimida nutq so‘zlab, quyidagi fikrlarni bildirdi: “Ushbu festival sababli bugungi kunda afsonaviy Samarqandning uzoq o‘tmishini aks ettiradigan munavvar koshonalari, muattar havosi bilan birga, bu muqaddas zamindan taralayotgan dilbar va maftunkor taronalar ham dunyo ahlini o‘ziga chorlamoqda. O‘tgan salkam chorak asr davomida Samarqandning moviy gumbazlari, yulduzli osmoni ostida qanchadan-qancha sehrli navolar, hayotbaxsh ohanglar yangradi” ***[20]***.

YuNESKO Bosh direktori Odri Azule o‘z chiqishida festival o‘tayotgan Samarqand Amir Temurning buyuk davlati, Registon maydoni esa Mirzo Ulug‘bek merosidan dalolat berishini, bu meros asrlar davomida olimlar, hunarmandlar, san’atkorlarni bu yerga yetaklaganligini qayd etdi ***[20]***.

Yuqorida keltirilgan Prezident Sh.M.Mirziyoev va YuNESKO Bosh direktorining fikrlaridan shunday xulosa chiqarish mumkinki, festivalning asosiy tashrif qog‘ozi sifatida Samarqandning moviy gumbazlari hamda Registon maydoni e’tirof etilmoqda. Bu holat respublikadagi madaniy meros obyektlaridan

madaniy-ma’rifiy maqsadlarda foydalanish geografiyasi xalqaro miqyosda kengayayotganligidan darak beradi.

Amir Temur va temuriylar davrida bunyod etilgan me’moriy inshootlardan hozirgi kunda madaniy-ma’rifiy, xalqaro turizm maqasadlarida foydalanilishi O‘zbekistonning xalqaro hamkorlikda “mayin kuch” (“soft power”) tamoyillarini qo‘llashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi bilan birgalikda, respublikaga sezilarli darajada moddiy manfaat ham keltirmoqda. Bu holat nafaqat Amir Temur va temuriylar davri me’moriy inshootlari, balki butun respublikadagi madaniy meros obyektlarini ilmiy tadqiq etish, muhofaza qilish, saqlash hamda ta’mirlash-tiklash ishlarini muntazam ravishda olib borilishini taqozo etadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. https://www.pv.uz/uz/news/moddiy-madaniy-merosning-royxati-tasdiqlandi

2. Маданий мерос департаментида 2016-2018 йилларда олиб борилган таъмирлаш-тиклаш ишлари ҳақидаги электрон маълумотидан.

3. https://uza.uz/uz/posts/madaniy-meros-obektlari-konstituciya-darazhasida-himoyalangan_432940?q=%2Fposts%2 Fmadaniy-meros-obektlari-konstituciya-darazhasida-himoyalangan_432940

4. https://samarkand.uz/press/news/samarqanddagi-1607-ta-obekt-ozbekistondagi-kochmas-madaniy-meros-obektlarining -milliy-royxatidan-joy-oldi

5. https://qalampir.uz/news/2022-yilda-samark-anddagi-tarikhiy-obidalar-restavratsiyasi-k-anchaga-tushdi-74856

6. Абдураҳмонов М., Рахмон Н., Гулметов Э. Маданиятшунослик (дарслик). – Тошкент. 2007. – Б. 107.

7. Обломуродов Н., Толипов Ф. Ўзбекистон тарихи (дарслик). – Тошкент. 2019. – Б. 138; 139.

8. “Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. 1994. 29 декабрь. 630-сон.

9. “Аллома Муҳаммад Тарағай Улуғбек таваллудининг 600 йиллик юбилейини ўтказиш тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. 1993. 19 апрель. 182-сон.

10. ЎзМА, М-7-фонд, 1-рўйхат, 60-иш, 107-108-варақлар.

11. ЎзМА, М-7-фонд, 1-рўйхат, 367-иш, 10-15-варақлар.

12. ЎзМА, М-7-фонд, 1-рўйхат, 367-иш, 182-183-варақлар.

13. 1996 йилни “Амир Темур йили” деб эълон қилиш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. 1995. 26 декабрь. ПФ-1333-сон.

14. ЎзМА, М-7-фонд, 1-рўйхат, 368-иш, 27-варақ.

15. Таъмирланиб, ўзлигига қайтарилган обидалар // Мозийдан садо. 2001. 3-сон. – Б. 20-23.

16. Қашқадарё вилоятининг Шаҳрисабз шаҳридаги объектларни қуриш ва реконструкция қилишга доир комплекс чора-тадбирлари дастури тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. 2014. 20 февраль. 31-сон.

17. “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивали тўғрисида”. Вазирлар Маҳкамаси қарори. 1997. 11 март. 132-сон.

18. https://uz24.uz/culture/sharu-taronalari-xi-haluaro-musiua-festivali-yakunlandi

19. “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалини ўтказишга тайёргарлик кўриш чора-тадбирлари тўғрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори. 2019. 26 февраль. ПҚ-4214-сон; “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивалини ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”. Вазирлар Маҳкамаси қарори. 2019. 25 апрель. 354-сон.

20. https://kun.uz/news/2019/08/26/prezident-samarqandda-sharq-taronalari-xalqaro-musiqa-festivalini-ochib-berdi

III SHO‘BA

Temuriylar davrida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayot

AMIR TEMURNING USMONLI TURKLAR BILAN MUNOSABATI VA UNING YEVROPA UCHUN AHAMIYATI

Elimov Lochin Shavkatovich

Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amir Temurning Usmonli turklar sultoni Boyazid I bilan olib borgan munosabatlari xorij tarixchilari asarlaridagi ma’lumotlar orqali bayon qilingan. Shu bilan birgalikda maqolada Amir Temurning Boyazid I ustidan qozonilgan g’alabasining endigina oyoqqa turayotgan Yevropa uchun ahamiyati ham tahlil qilingan.*

Kalit so‘z va iboralar:*Arzinjon, Kichik Osiyo, Misr, Damashq, Anqara, Yevropa, Sivas, Vizantiya, Samarqand, Gurjiston.*

Аннотация: *В данной статье с использованием сведений из работ зарубежных историков описываются отношения Амира Темура с султаном турок-османов Баязидом I. Наряду с этим в статье также анализируется значение победы Амира Темура над Баязидом I для новоявленной Европы.*

Ключевые слова и фразы. *Арзинджан, Малая Азия, Египет, Дамаск, Анкара, Европа, Сивас, Византия, Самарканд, Грузия.*

Annotation: *This article, using information from the works of foreign historians, describes the relationship of Amir Temur with the Sultan of the Ottoman Turks Bayazid I. Along with this, the article also analyzes the significance of Amir Temur's victory over Bayazid I for the newly appeared Europe.*

Key words and phrases*. Arzinjan, Asia Minor, Egypt, Damascus, Ankara, Europe, Sivas, Byzantium, Samarkand, Georgia.*

Ozarbayjon, Grujiston va Sharqiy Anatoliyaning bir qismi bosib olingandan so‘ng, Amir Temur davlatining g‘arbiy sarhadi Usmonli turklar davlati sarhadlariga tutashgan. Ikki sarkarda o‘rtasida munosabat yanada yomonlashishi

sababi Boyazidning Amir Temur davlati tarkibidagi hududlarga ko‘z olaytirishi bo‘lgan.

Boyazid tomonidan Amir Temurga qarashli Arzinjon va Arzirum shaharlarini o‘ziga tobe qilish uchun harakati ikki o‘rtadagi munosabatlarni yanada yomonlashib ketishiga olib kelgan. Bu voqea haqida Klavixo shunday ma’lumot keltirgan. “Temurbek va turk sultoni Boyazidning bir-birlarini yaxshi bilishlari va Temurbekning unga qarshi urush boshlashining sabablari quyidagicha: – deb yozgan. U– Arsinga (Arzinjon) shaharining hokimi Zaratan (ya’ni Tahurtan, ispan elchisi eshitganiga qarab shunday yozgan) yerlari Turkiya yerlari bilan tutashgan ***[3:66]***. Tahurtan yerlarini, ayniqsa, Kamox qal’asini egallashga oshiqqan Boyazid Tahurtandan boj to‘lash va Kamox qal’asini topshirishni talab qildi. Tahurtan qaysarning hokimiyatini tan olishi va boj to‘lashga tayyorligini aytadi, ammo qal’ani topshira olmasligini bildirgan.

Boyazid bilan Arzinjon hokimi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan munosabat to‘g‘risidagi Klavixo ma’lumotlarini Sharafuddin Ali Yazdiy va Shomiy “Zafarnomalari” anchagina to‘ldirgan. Klavixo voqeani anchagina tushunarsiz bayon qilgan bo‘lsa, Shomiy va Ali Yazdiy anchagina aniq tasvirlagan ***[2:323-325]***.

Amir Temur Boyazidning bu ishidan jahli chiqib, o‘z qo‘shinini Kichik Osiyoga qarab harakatlantirgan. Sohibqiron katta qo‘shin bilan borib Boyazidga qarashli bo‘lgan Sivas shahrini egallagan.

Shiltberger o‘z asarida Amir Temur haqidagi ma’lumotlarni keltirishni Boyazid bilan munosabatlaridan boshlagan. Sebastiya (Sivos) shahrini egallash borasidagi Amir Temur va Boyazid o‘rtasidagi kurashga Shiltberger alohida to‘xtalgan. Shiltberger Boyazid tomonidan Sebastiya shahrini egallangandan keyin bu shaharni Amir Temur bir million askar (shu yerda biz Shiltberger tomonidan raqamlarni bo‘rttirishni kuzatishimiz mumkin) bilan borib 21 kun davomida shaharni qamal natijasida egallashi to‘g‘risida ma’lumot bergan. Shu o‘rinda Shiltberger “Amir Temurning shaharni egallagandan keyin shahar aholisining

ma’lum qismini asir qilib olib ketgan” - deya yozgan ***[6:20]***. Shiltberger shaharni egallashda Amir Temur 3 mingdan ortiq askarlar yo‘qotganligiga to‘xtalib o‘tgan.

Amir Temurning katta qo‘shin bilan Kichik Osiyodagi harakatlaridan xabar topgan Boyazid askar to‘plash taraddudiga tushgan. To‘plangan qo‘shin bilan Amir Temurga qarshi harakat boshlagan. Lekin shu vaqtda Amir Temur qo‘shinlari to‘satdan g‘oyib bo‘lib qolgan. Amir Temurning bu qilgan ishiga Lyusen Keren quyidagicha tarif bergan: “Amir Temurning strategiyasi eng avval qo‘shinining tez harakat qilishida bo‘lgan. Buning natijasida o‘zining juda ko‘plab dushmanlarini dog‘da qoldirgan” ***[8:162].***

Amir Temurning Kichik Osiyoda Boyazid qo‘shinlariga qarshi dastlabki muvaffaqiyatli harakatidan tezda butun Yevropa davlatlari xabar topgan. Ularning bir qanchasi Boyazidga qarshi Amir Temur bilan ittifoq tuzish ilinjida ham bo‘lgan. Ayni shu damda Fransiya qiroli Karl VI ham Amir Temur bilan munosabat o‘rnatishga harakat qilgan. Bundan tashqari, Genuya ham aynan shu vaqtda Amir Temur huzuriga o‘z vakilini yuborgan. Boyazid bilan harbiy to‘qnashuvda Genuya ham o‘z yordamini berishni bildirgan.

Amir Temurning Kichik Osiyodan birdaniga janubga qarab harakatini Misr sultonidan elchi Sovaning qasdini olish bo‘lgan. Uning ma’lumotiga ko‘ra, Amir Temur Sulton Barquq huzuriga yuborgan elchining qatl qilinganidan qattiq g‘azabda bo‘lgan. Elchini xunini olish maqsadida Misrga qarshi yurish qilgan ***[5:224]***.

Amir Temur Damashqni egallash bilan ovvora bo‘lganida Boyazid Qora Yusuf va Ahmad ibn Uvays bilan ittifoqda Arzinjonga hujum qilgan va uni egallab o‘z davlati tarkibiga qo‘shib olgan ***[1:65]***. Amir Temur bu xabarni Ozarbayjonning Naxichevaniga yetib kelganida eshitgan. Boyazidning bu ishidan jahli chiqib, unga qarshi yurish qilish uchun qo‘shinni qaytadan yig‘ishga buyruq bergan.

Arzinjonni qo‘lga kiritgandan keyin Boyazid asir tushgan shahar hokimini Amir Temur huziriga elchi qilib yuborgan. O‘ziga vassal elchi bo‘lib kelganini

ko‘rgan Amir Temur Boyazid taklifiga o‘zini rozi bo‘lgandek ko‘rsatgan. Buni amaliy ifodasi sifatida o‘z qo‘shini bilan Gurjistonga borgan.

Amir Temur bu yerda ov qilish bahonasida Boyazidga qarshi qo‘shinni shakllantirishga harakat qilgan. Shu orada Samarqanddan Muhammad Sulton boshchiligidagi saralangan qo‘shin ham yetib kelgan. Yetarlicha qo‘shinni jamlagan Amir Temur Boyazidga qarshi harbiy harakatni boshlagan.

Amir Temur Boyazidning harbiy ishda mohirligi haqida juda ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lgan. Shuning uchun unga ittifoqchilar zarur edi. Bunday ittifoqchi sifatida dastlab Vizantiya, keyinroq esa Genuya va Venetsiya davlatlari maydonga chiqqan. Amir Temur Boyazidga qarshi suv yo‘li orqali yordam zarur bo‘lgan. Bu vazifani Genuya, Vizantiya va Venetsiya o‘z zimmasiga olishgan ***[9:171].***

Amir Temur qabulidan qaytgan elchilar ittifoq shartlarini bajarishga kirishgan. Buning amaliy ifodasi sifatida Pera shahri minoralarida Amir Temur bayrog‘i hilpiray boshlagan. Kichik Osiyo sari harakatlanar ekan qo‘shin Sivos cho‘liga kelganda to‘xtagan. Amir Temur bu yerda o‘z qo‘shinini jang oldi ko‘rigini o‘tkazgan. Har safargidek Sohibqiron ikki rakat namozini o‘qib yana yo‘lda davom etgan. Amir Temur katta qo‘shin bilan kelayotganini bilgan Boyazid jang qilishga tayyorgarlik ko‘ra boshlagan. U turli hududlardagi o‘z vassallaridan qo‘shin yuborishni so‘ragan. Hatto o‘zining ittifoqchisi bo‘lgan Misr hukmdori Farajga ham elchi yuborib, birgalikda harakat qilishga chaqirgan. Lekin Suriyadagi voqealardan keyin xavotirga tushib qolgan Sulton Faraj bu chorlovga javob qaytarmagan.

Ikki taraf ham urushga tayyorgarlik ko‘rgandan so‘ng harakatni boshlagan. Amir Temur charchab kelgan turk qo‘shinlarini holdan toydirish maqsadida bir qancha tadbirlarni amalga oshirgan. Natijada turk qo‘shini anchagina toliqqanligini ko‘rgan Sohibqiron vaziyatni qo‘ldan bermaslik uchun jang boshlashga buyruq bergan. Amir Temur va Boyazid o‘rtasidagi Anqara yaqinida bo‘lib o‘tgan jangga Iaon Grinlo asarida alohida to‘xtalib o‘tgan. U ikki sarkarda o‘rtasida bo‘lib o‘tgan

bu muhoraba haqida quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: “Amir Temur o‘zining yetarlicha lashkari borligidan ko‘ngli to‘q bo‘lib, ularni tepalik va tekislikda saflagan. Unga qarshi jangga kirgan turk hukmdori o‘z qo‘shinini to‘rt qismga bo‘lgan”. U ikki o‘rtada jang boshlanganda, Amir Temur qo‘shinining ko‘pligini ko‘rgan Boyazid qo‘shinining bir qismi jang maydonidan qochib ketganligiga ham urg‘u bergan ***[6:24]***.

Amir Temur bilan Boyazid o‘rtasidagi jangga to‘xtalar ekan Ibn Arabshoh voqeani shunday bayon qilgan. U jangda Amir Temurni g‘alaba qozonishining asosiy omili sifatida Boyazid qo‘shini tarkibida bo‘lgan tatar (mo‘g‘ul) qo‘shinlarini sotqinligi deb baholagan. Ibn Arabshoh ma’lumoticha, Boyazid tarkibidan ajralib chiqqan tatar askarlari umumiy qo‘shinning uchdan ikki qismini tashkil qilgan. Bu askarlar jang boshlanishi vaqtida Amir Temur qo‘shini tarkibiga borib qo‘shilgan ***[7:79]***.

Ioanning ma’lumoticha, Anqara jangi natijasida qurbon bo‘lganlar 40 ming kishini tashkil qilgan. Halok bo‘lganlarning katta qismi turk qo‘shini tashkil qilganligiga ham alohida urg‘u berib o‘tgan. Uning so‘zlariga qaraganda Boyazid juma kuni soat 24 da qo‘lga olingan. Shu bilan yengilmas turk qo‘shini mag‘lubiyatga uchragan.

Jangda mag‘lubiyatga uchrab qochayotgan Boyazidni Sulton Mahmudxon quvib yetgan va uni asir qilib Amir Temur huzuriga olib kelgan. Amir Temur sultonni xurmatini joyiga qo‘ygan.

Shiltberger Anqara jangi natijasida g‘olib bo‘lgan Amir Temur ega bo‘lgan boylikka ham to‘xtalib o‘tadi. Uning aytishicha, qo‘lga kiritilgan oltin-u kumushlarni olib ketish uchun 1000 ta tuya kerak bo‘lgan ***[4:23]***. Asir tushgan Boyazidni Amir Temur Samarqandga olib ketmoqchi bo‘ladi. Lekin Boyazid 58 yoshida yo‘lda vafot etadi. Amir Temur turklarning qarshiligini sindirish maqsadida o‘z qo‘shining mayda qismlarga bo‘lib, Kichik Osiyoning g‘arbiga qarab harakatlantirgan. Natijada bu hududlarda qarshilik harakatlari butkul tugatilgan.

Amir Temur bu yurishi davomida 1402-yilning 2-dekabr kuni Egey dengizi bo‘yidagi turklar tomonidan o‘n yildan beri egallay olmayotgan salibchilarning qarorgohi Izmir qal’asini ham ishg‘ol qilgan ***[10:231]***.

Amir Temurning qudratini to‘g‘ri baholay olgan Sulton Boyazidning bo‘ysunmas o‘g‘li Musulmon Chalabiy ham o‘zining tobeligini izhor qilgan. Shundan keyin Amir Temur Usmonlilar yerlarini Boyazidning o‘g‘illariga suyurg‘ol tarzida taqsimlab bergan. Boyazid esa 1403-yil 9-mart kuni nafas qisishi va qon bosimining oshishidan vafot etgan. Amir Temur Boyazidning o‘limidan motamsarolikka tushgan. Lekin, uning juda motamsaro bo‘lishi nabirasi Sulton Muhammadning vafoti bo‘lgan. Uning vafoti munosabati bilan butun qo‘shin bir hafta davomida qora kiyimda yurgan.

Amir Temurning turk sultoni Boyazid I ustidan qozonilgan g‘alabasi bilan “yetti yillik” yurishni yakunlab, asta-sekin ortga, Samarqand sari harakatlana boshlagan. Uning huzuriga yo‘l bo‘yi g‘alaba bilan qutlash maqsadida turli xil davlat elchilari tashrif buyurib turgan. Shu o‘rinda e’tiborimizni Amir Temur davlati bilan G‘arbiy Yevropa davlatlari hukmdorlari o‘rtasidagi faol aloqalarga qaratsak. Amir Temurning Yevropa davlatlari hukmdorlari bilan munosabatlari yuqorida aytib o‘tganimizdek, oldinroq boshlangan. Boyazid I ustidan erishilgan g‘alaba bu aloqalarni yangi bosqichga olib chiqqan.

Yevropa davlatlarini Amir Temur va Boyazid o‘rtasidagi jang befarq qoldirmasligiga sabab turklarning janubiy-sharqiy va Sharqiy Yevropada amalga oshirilgan g‘alabali yurishlari bo‘lgan. Chunki Usmonlilarning bu hududdagi muvaffaqiyatlari hali to‘liq markazlashib ulgurmagan Yevropa davlatlari uchun haqiqiy muammo sifatida qaralgan. Xususan, fikrimizning tasdig‘i sifatida, 1396 yilda bir emas bir nechta Yevropa davlatlaridan kelgan ritsarlarni turk yancharlaridan mag‘lub bo‘lishini keltirishimiz mumkin. Bundan shunday to‘xtamga kelishimiz mumkinki, hali Yevropa davlatlari Usmonlilar qo‘shiniga bas kela oladigan kuchda bo‘lmagan.

Amir Temurning Usmonli turklar ustidan qozonilgan g‘alabasi endigina uyg‘onayotgan hali to‘liq markazlashib ulgurmagan Yevropa davlatlarini halokatdan saqlab qolgan. Chunki, 1396-yildagi salib yurishlarining besamar ketishi Yevropa davlatlari Usmonli turklar qo‘shinidan kuchsiz ekanligini yaqqol ko‘rsatib qo‘ygan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома”/ Сўз боши табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмедов, Ҳайдарбек Бобабеков. Тошкент: “Шарқ”, 1997. 383 б.

2. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан таржима Юнусжон Ҳакимжонов қилган, масул муҳарир: Асомиддин Ўринбоев. Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996. 542 б.

3. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Темура (1403-1406). М., 1990.

4. Bondage and Travels of Johann Schiltberger A Native of Bavaria, in Europe, Asia, and Africa, 1396-1427. Cambridge University Press 2010.

5. A.Vambery. Eine legendare Geschte Timur // Zeitschift fur Assirologie und verwandte Gebiete, LI, Strassburg, 1897.

6. Jean of Sultoniya. Memoir sur Tamerlan et sa cour par un Dominicain, et 1403, ed., H. Moranville.-Bibliotheque de I’Ecole des Chartres, Paris: 1894.

7. Ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi” I-II qismlar/ Arab tilidan tarjima va izohlar, so‘zboshi mual. U.Uvatov; Mas’ul muharrir A. O’rinboyev. K. II.-Toshkent; “Fan” 2019.

8. Keren L. La Raute de Samarkand au temps de Tamerlan. Paris. 1990.

9. Ross E. Tamerlan et Bayazed en 1402. London. 1940.

10. Jean Paul Roux. Tamerlan / Paris. 1991. 380 p.

11. Israilov N. R. The first period of amir temur's activity in the interpretation of bartelemi d'erbelo de molenville //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – T. 9. – №. 11. – C. 219-224.

AMIR TEMURNING MIN IMPERIYASI NISBATAN DIPLOMATIK MUNOSABATLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mirzabek Ro‘zimatov Umidjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Quyidagi maqolada ikki xil dunyoqarashga ega bo‘lgan, hamda bir davrda mustaqillika erishgan Temuriylar va Min imperiyasining XIV asr oxiri va XV asrning boshlaridagi diplomatik aloqalari manbalar va adabiyotlar asosida tahlil etilgan.*

Kalit so‘z va iboralar:*Min, Diplomatiya, Chju Yuanchjan, Zafarnoma, Mog‘uliston, Klavixo, Mo‘g‘ul shaxzodalari, Buyuk Xitoy devori.*

Аннотация: *На основе источников и литературы анализируются дипломатические отношения империи Мин в конце XIV и начале XV веков в государстве Тимуридов, имевших два разных мировоззрения и одновременно обретших независимость.*

Ключевые слова и фразы: *Мин, Дипломатия, Чжу Юаньчжан, Зафарнама, Монголия, Клавихо, монгольские князья, Великая Китайская стена.*

Annotation: *In the article below, Timurids, who had two different worldviews and gained independence at the same time, the diplomatic relations of the Ming Empire at the end of the 14th century and the beginning of the 15th century are analyzed on the basis of sources and literature.*

Key words and phrases: *Min, Diplomacy, Zhu Yuanzhang, Zafarnama, Mongolia, Clavijo, Mongolian Princes, Great Wall of China.*

Temuriylar va Min imperiyasiga oid ma’lumotlar o‘zbek va fors tiliga qaraganda “xitoy tilida ma’lumotlar ko‘pligi, xitoy manbalarining ustunligi tufayli Temuriylar-Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarga Sinologik nuqati nazardan qaralmoqda” ***[10: 46].*** Biroq shuni ham aytib o‘tish kerakki, O‘zbekistonda Xitoyga qaraganda, Temuriylar va Xitoy munosabatlariga doir yirik xalqaro ilmiy tadqiqotlar kam amalga oshirilgan. Bu holat ayrim noto‘g‘ri xulosalarga ham sabab bo‘lmoqda. Quyida ushbu masalaga e’tibor berilib, Temuriylar davri manbalari va O‘rta Osiyolik mutaxasislarning ma’lumotlari, chet ellik sayohatchilarning esdaliklari asosida Temuriylar va Min sulolasi munosabatlari tahlil etilgan. Diplomatik munosabatlar haqida gap ketganda, elchiga qo‘yilga bir qancha talablar bor. Temuriylar davlatida elchilik munosabatlariga yaxshi e’tibor berilgan. Jumladan Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt Ulus tarixi” da asarida “Elchi o‘q bo‘lsa, podshoh kamon bo‘lishligini, safarda elchi podshohdan kamtaroq bo‘lishi kerakligi” ***[3: 34]*** haqida so‘z yuritilgan. Temuriylarda elchilikka yuboriladigan

shaxslar ilmli, obroʻli va yoshi ulugʻ insonlardan tanlab olingan holda elchilikka asosiy nomzod, Turkiston diyorida “ulamolar” ***[9: 79]*** boʻlib, ularning xizmatidan keng foydalanilgan. Temuriylar saltanatiga, Ming imperiyasidan kelgan elchi Chen Chen oʻz fikri bilan yuqoridagi ma’lumotlarni tasdiqlagan, “Musulmon dining muqaddas kitobi mazmuniga kirib borgan kishini hamma hurmat qiladi va uni man-la deb atashadi. Unga doim hurmatli joy berladi.” ***[9: 79]*** Lekin bundan elchilkka faqat oʻbroʻli va diniy bilimlari bor kishilar jalb etilgan degan xulosaga bormaslik kerak. Chunki, elchilik munosabatalarining oʻziga xos qonun qoidalari boʻlgan. Abdurazzoq Samarqandiyning qalamiga mansub “Matlai sa’ydan va Majmuai baxrayn” asarida keltirilishcha “On hazrat Samalqon yaylovidan elchilik qoidalarini bilishi bilan mashhur boʻlgan, Mingli Temur naymanni Pirak podshoh huzuriga joʻnatdi” ***[4: 97]*** degan ma’lumot uchrashi, Temuriylar saltanatida diplomatiyaning oʻziga xos maktabi shakllanganligini koʻrishimiz mumkin. Bu borada Xitoydan Turkiston diyoriga yuborilgan elchilarga kelsak, ularning asosiy qismi “chegara hududlaridan kelgan, harbiy va ma’muriy vazifaga ega boʻlgan mansabdorlar boʻlgan, ular orasida marosimlar uchun javobgar vazirlar ham boʻlgan.” ***[9: 75].*** Bu shuni anglatadi-ki, Xitoydan Amir Temur saroyiga kelgan elchilar oʻrta va quyi lavozimdagi kishilar boʻlgan, bu odat Xitoyning qoʻshni davlatlarga nisbatan olib boradigan diplomatiyasining oʻziga xos xususiyatlaridan edi. Shuni tarixan aytib oʻtish kerak-ki, Xitoy davlati, Turkiston diyori bilan aloqalar oʻrnatishda uygʻurlarni oʻrni katta boʻlgan. Ikkalla sulola asoschilarning oʻzaro aloqalari haqida gap ketganda ularda qaydaydir umumiy oʻxshashlik bor, Amir Temur (1336-1405) va Ming imperatori Chju Yuanchjan (1328-1398) deyarli bir vaqtda hokimyat tepasiga kelishgan, ikki hukmdor ham 69 yoshda vafot etgan, har ikkisi ham Xitoy va Oʻzbekistonda muhim tarixiy shaxs hisoblanadi. Amir Temur va Chju Yuanchjan oʻrtasidagi ilk munosabatlar haqida Zafarnomada “Sohibqiron Jayhun (Amudaryo) yaqinida toʻxtab, Nizomiddin Koshgʻariyni Eronga yurishidan avval Xitoy hukmdoriga elchi qilib joʻnatganligi haqida ma’lumot uchraydi. ***[2: 118]*** Ushbu Eron yurishi, Amir Temurning 3 yillik yurishi

bo‘lib, bu yurish 1385-1387-yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, elchilik tahminan 1385-yilga to‘g‘ri keladi. Shu davrdan boshlab, tet-tez ikki o‘rtada elchilik aloqalari bo‘lib turgan. “Xitoy olimlarining tadqiqotlariga ko‘ra, Amir Temur Min poytaxti Pekinga 8 marta elchi yuborgan” ***[7: 199].*** Bunday elchilik va savdo aloqalari amalda, Buyuk ipak yo‘lining qayta tiklanishi bo‘lgan, hamda bu savdo Xitoy uchun ham manfaatli edi. Qisqa vaqt ichida, bunday ko‘p miqdordagi elchilikni yuborilishidan yana bir sabab Xitoyga boradigan yo‘llarni aniqlashtirish ham bo‘lgan. Ammo elchilik missiyasi doim ham bir xil muvofaqiyatli bo‘lavermagan. Buning asosiy sababi esa tomonlarning dunyo qarashida edi, Xitoy imperatorlari azaldan qo‘shni mamlakatlarni o‘ziga vassal va ular yuborgan sovg‘a salomlarni o‘lpon deb hisoblangan. “1394-yilda imperator Xun u (Chju Yuanchjanning hukmdorlik nomi) Samarqandga 1500 kishidan iborat elchilik karvonini yubordi, unga nazoratchi kotiblar Fu An va Guo Ji hamda amaldor Lyu Vey boshchilik qildi” ***[11: 188].*** Bu missiyada yuborgan maktubida Xun u Amir Temurni Xitoyga berib yuborgan sovg‘larini “tabeligiga qabul qilinganligi uchun ko‘rsatilgan himmat” ***[7: 201]*** belgisi, Amir Temurni esa Xitoy humdorining vassalli deb xisoblagan. Amir Temur bu maktubni o‘qib g‘azab otiga mingani aniq, ammo elchilikni ushlab qolinishiga boshqa narsa sabab bo‘lgan. “Fu Anning 1500 kishi hamrohligida Hirotga bormoqchi bo‘lganligi Amir Temurda shubha uyg‘otgan, ikkinchi sababi esa Min xoqoni 100 ming musulmonni qatl etish to‘g‘risida farmonni haqidagi xabar Amir Temurga yetib kelganligida edi” ***[7: 202]*** Ma’lumki, ushbu davrda Hirot Xurosonning ma’muriy markazi bo‘lib, Eron va Hindistonga bo‘ladigan yurishlarda muhim o‘rin tutgan. Biroq, qatl qilingan 100 ming kishi, biroz bo‘rtirilgan bo‘lsa-da, lekin mo‘g‘ullar Xitoyni bosib olgandan keyin, Xitoyni boshqarishda judda ko‘p musulmon Turkistonliklardan foydalanganini inobatga olsak, Xun u ning bu farmoni ortidan ko‘plab musulmonlar jabr ko‘rgani ma’lum. Musulmonlarning bunday asoratga solinishi, Temuriylar va Min o‘rtasidagi sovuq munosabatlarni boshlanishi edi. Ushbu elchilik, ortidan yuborilgan boshqa Min elchisi 1397-yilda Chen Dyuen ham

ushlab qolingan ***[12: 64].*** Bu elchilar Amir Temurning vafotiga qadar ushlab qolingan, va “Fu va Guo 1407-yil iyul oyida Nankinga qaytib borishgan” ***[11: 188]*** Zsombor Rajkaining fikricha Amir Temur vafotidan so‘ng, Samarqandda hokimyat almashinuvi tufayli Temuriylar va Min saltanti o‘rtasida munosabatlar iliqlashgan. Chen Dyuen kelgan yildan boshlab, Amir Temur Xitoyga nisbatan munosabatini o‘zgartira boshlaydi. Sohibqiron “1397-yili Dashti Qipchoqdan kelgan Mahmud Sultoni 30 ming qo‘shin bilan Mo‘g‘iliston chegarasiga yuborgan.” ***[8: 97]*** Sharofiddin Aliy Yazdiy “Zafarnoma”siga ko‘ra “1397-yilning kuz boshida Amir Temur va Mo‘g‘uliston xoni Xizr Xo‘janing qizi Tukal xonim o‘rtasida nihoh to‘ylari bo‘lib o‘tgan” ***[2: 190].*** Bu nikohning ahamyatli tomoni shundaki, ushbu nikoh munosabati bilan Amir Temur, Temuriylar va Xitoy oralig‘ida joylashgan Mo‘g‘uliston bilan mustahkam harbiy-siyosiy ittifoqni o‘rnatgan. Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarda keltirilishicha, bu nihokdan so‘ng, Xizr Xo‘ja Xitoyga g‘azovot urushini olib borgan. Manbada Xizr Xo‘ja Xitoy tarkibida bo‘lgan Turfan va Qoraxo‘jaga yurish qilib g‘alaba qozongani va u yerlik aholini islomga kirgazgani haqida yozilgan ***[5: 31].*** Amir Temurning besh yillik urushi nihoyasi yetgan, sharqiy o‘lkalarga bemalol e’tibor qarata oladigan, ushbu vaziyatda Amir Temur bu yurishga monelik qilmagani bejiz emas albatta. Zsombor Rajkai Xitoy hukmdori Xun u ning Amir Temurga yozgan vassalik haqidagi maktubi, ular o‘rtasidagi nizoning asosiy sabab bo‘la olmasligini takidlagan bo‘lsa-da, biroq Baxriddin Usmonov “Amir Temur Xitoyga yurishga 1398-yildan boshlab, jiddiy tayyorgarlik ko‘ra boshlaganini va shu yilning fevral oyida Mahmud Sulton boshchiligida 40 ming kishilik qo‘shini mamlakatning shimoliy-sharqiy o‘lkalariga jo‘natganligi” ***[8: 115]*** haqida malumot beradi. Nizzomidin Shomiy ham bu haqida “Zafarnoma”sida quyidagicha ma’lumot bergan: “…amirzoda Muhammad (Mahmud) Sultoni Mo‘g‘uliston viloyatiga tayinladi, unga sarhad chekkalarini ekin ekib, imorat solib obod qilishni buyurdi. Amir Sohibqironning ravshan fikri butparastlarni tag-tomiridan qo‘porib tashlash uchun Xitoy va Xotan tomon lashkar tortishni jazm qilib qo‘ygan edi” ***[1: 224]*** deya

ma’lumot beradi. Bundan ko‘rinadiki, Mahmud Sulton Mo‘g‘ulistondan Xitoygagacha bo‘lgan yo‘llarda, qal’a qurish va ularning atrofiga oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish vazifasi yuklatilgan. Shu yilning Zulhijja oyining uchinchisi (1398-yil 17-avgustda) da Nizzomidin Shomiy “Zafarnomasi” da Amir Temur qarorgohiga “Temur Qutlug‘ o‘g‘lon, amir Ediku, Xizrxo‘ja o‘g‘lon tarafidan kelgan elchilar va Erondan kelgan Shayx Nuriddin hamda ular orasida Xitoydan elchi bo‘lib, kelgan Toyzi o‘g‘lon” ***[1: 226]*** haqida ma’lumot uchraydi. Ushbu elchilikning nima maqsadda tashrif buyurgani aniq ochiqlangan emas, biroq Toyzi o‘g‘lon Hindiston yurishi arafasidagi chaqirilgan harbiy majlisda ishtirok etgan. Bu harakati bilan Amir Temur qo‘shni hududlar hisobiga, hududiy kengayishni amalga oshirilishini yashirib o‘tirmagan. Shuningdek, Toyzi o‘g‘lon imperator Xun u ning yuborgan so‘ngi elchisi bo‘lgan. Bu haqida Samarqanga 1404-yilni iyul oyida kelgan va Samarqandda biroz ushlab qolingan Xitoylik savdogarlari bilan suhbatlashgan Klavixo o‘z esdaliklarida “Xitoydan 8 yildan beri hech qanday elchi jo‘natilmaganligi” ***[6: 202]*** haqida yozgan. Buning sababi Klavixo Xitoydagi o‘zoro ichki nizolar tufayli elchilar kelmayotganini tushuntirib o‘tgan. Shunisi muhimki Xitoy ham G‘arbiy o‘lkalarni bosib olish fikri ham yo‘q bo‘lmagan albatta. Sohibqironga yozilgan maktublardan birida Xitoy humdori Amir Temurni “o‘g‘lim” ***[8: 118]*** deb atagan. O‘rta asrlar qonun-qoidasiga ko‘ra, xalqaro munosabatlarda bir davlatning ikkinchi bir davlat hukmdoriga “o‘g‘lim” deb murojat qilishi, o‘sha davlat hukmdorini o‘ziga teng hukmdor emasligini ko‘rsatishning diplomatik usuli bo‘lgan. Amir Temur Xitoyning g‘arb tomonidan faol harakatga olib borayotganidan xabardor bo‘lgan, imperator “Cheng Zsu (1402-1424) o‘zining Gansudagi g‘arbiy qo‘mondonlarini har qanday muammoga tayyor bo‘lishlari haqida ogohlantirgan.” ***[13: 81]*** Xitoy g‘arbiy o‘lkalarni zabt etish ishtiyoqi, shu bilan birga Amir Temurning sharqqa tomon siljishidan qo‘rquvi birga hamo-hang edi. Sohibqiron Xitoyni istilo qilish maqsadida, Xitoyni yon atrifidan ittifoqchi qidirgan, “Mo‘g‘ul tarixchisi J. Borning yozishicha, Engke Temur bilan Amir Temur Min sulolasiga qarshi ittifoq tuzgan” ***[15].*** Shuningdek,

Mo‘g‘ullarning ichki kurashlari tufayli go‘dak shahzoda Bunyashiri Amir Temur hokimi joylashgan Beshbaliqqa qochib kelgan. Amir Temur hokimiga uni hurmat bilan kutib olishni buyurdi ***[16].*** Bunyashiri Samarqanddagi Amir Temur saroyida bo‘lganida islomni qabul qildi ***[14: 408].*** Mo‘g‘ul shaxzodalarining islom dinini qabul qilishi, mo‘g‘ullarni Amir Temur bilan yaqinlashishidan dalolat beradi. Xitoyga yurish maqsadida, Amir Temur Mo‘g‘ulistonda joylashgan omon qolgan mo‘g‘ul qabilalari bilan ittifoq tuzib, Buxorogacha bo‘lgan barcha yo‘llarni tayyorladi ***[17].*** Reja judda aniq va puxta tayyorlangan, Xitoygacha bo‘lgan yo‘llar xisobi olindi. Bu haqida “Zafarnoma”da: “Xon Baliqkim, Xitoy viloyatining poytaxti turur, suv va obodonlik yo‘lidin yuz otmish bir manzil turur” ***[2: 226]*** kabi malumot uchraydi. Zamonaviy ma’lumotlarga ko‘ra Sharafiddin Aliy Yazdiy keltirgan bir mazil, bir kunlik yo‘l bo‘lib, taxminan 30 km tashkil etgan. Ammo voqealarning bunday rivojida, Xitoy imperiyasi ham qo‘l qovushtirib o‘tirmagan, Buyuk Xitoy devorida joylashgan Jiayuguan shahar qal’asi Amir Temur bosqinidan qo‘rqib, ancha mustahkamlangan edi ***[18].*** Xitoyliklarning Amir Temurning harkatlaridan cho‘chib, mudofaga yaxshi e’tibor qilganlar haqida, Sharafiddin Aliy Yazdiy shunday deydi: “andin Qaro Xojag‘acha o‘ttuz besh manzil turur va Qaroxo‘jadin Tatqovulg‘achakim, Xitoy sarhodi turur va tog‘din yana tog‘qacha tom urub, darvoza urub tururlar va uylar va yomonalar yasab tururlarkim, doim anda bir jamoat turub sarhadni muhofazat qilurlar, o‘ttuz bir manzil turur.” ***[2: 226]*** Bu yerda “tog‘din yana tog‘qacha tom urub, darvoza urub tururlar” deganda, Buyuk Xitoy devori nazarda tutilmoqda, shuningdek manbada, uylar, darvozalar va yomonalar (otxonalar) ham qurilayotgani, uzunligi esa 31 manzil yani 930 km tashkil etganligi haqida so‘zlaydi. Ammo 1405-yil 18-fevralda Amir Temurning vafoti Xitoyga nisbatan yurishni to‘xtab qolishiga olib kelgan. Shu tariqa Temuriylar va Minning sovuq munosabatlari, Sohibqironning vafotiga qadar davom etdi. Lekin faqat Amir Temur vafotigina, Temuriylar va Min o‘rtasidagi sovuq munosabatlarga barham berdi deyishlik, xato fikr bo‘ladi. Ma’lumki, Sohibqiron vafotidan keyin ham Xitoy urushi davom etishi mumkin edi,

ammo‘temuriylar davlatidagi hokimyat uchun o‘zoro ichki kurashlar bunga yo‘l bermagan bo‘lsa, Xitoyda Xun u ning vafotidan so‘ng, vorislari Temuriylarga nisbatan munosabatlarni o‘zgartira boshlagan. Bunday siyosiy o‘zgarishlar tomonlarni o‘zoro kelisha olishi uchun imkoniyatini yaratgan

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл» и («Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О.Бўриев. –Т.: “Ўзбекистон”, 1996. – 528 б.

2. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сузбоши, табдил, изохдар ва курсаткичлар муаллифлари: Ашраф Ах,мад, Х,айдарбек Бобобеков. Тошкент: «Шарк», 1997. – 383 б.

3. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи/ Б.Ах,медов, Н.Норқулов ва М. Х,асаиийлар таржимасию Т.: Чўлпон, 1993. - 352 б.

4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А.Ўринбоев. Ж. II. Қ. I. 1405 – 1429 йил воқеалари. – Т. : «O‘zbekiston». 2008. – 632 б.

5. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий / Нашрга тайёрловчи, сўз боши, тадбил изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи О.Ё.Жалилов. – Т.: «O‘zbekiston». 2011. – 704 б.

6. Гонсалес, Руи Де Клавихо. Самарқандга - Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406) Гонсалес, Руи Де Клавихо.; масъул муҳаррир: Муҳаммад Али; сўз-боши ва изоҳлар муаллифи М. Сафаров; тарж. О.Тораев. -Т.: «O‘zbekiston», 2010. - 264 б.

7. Аблат Хўжайев, «Буюк ипак йўли» Тошкент “Ўзбекистон миллий енциклопедияси”, 2007, б. 199, 201, 202.

8. Усмонов В. Амир Темур давлати. – Тошкент. Адабиёт учқунлари, 2016. – 256b.

9. К.Ш.Хофизова, «Китайская дипломатия в Сентралъной Азии», Алмати, “Гылым”, 1995, б.75, 79.

10. Zsombor Rajkai, “The Timurid emperie and Ming China”, Budapest, 2015, p. 46,

11. Shih-shan Henry Tsai «The Ming Emperor Yongle» London, “University of Washington”2001, p. 188, 189.

12. Denis Twitchett, John K. Fairbank, «The Cambridge history of China Volume 8 The Ming Dynasty, 1368– 1644» Part 2, New York, “Cambridge University Press”, 2008, p. 64.

13. Charles O. Hucker, «The Ming dynasty its origins and evolving institutions», University of Michigan Press, 1982, p. 81.

14. Christopher P. Atwood «Encyclopedia of mongolia and the mongol empire», New York, 2004, – p. 408.

15.https://en.m.wikipedia.org/wiki/Engke_Khan

16 https://en.m.wikipedia. org/wiki /% C3%96ljei_Tem%C3%BCr_Khan

17 https://en.m.wikipedia. org/ wiki/Timur

18. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Jiayu_Pass

19. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

20. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

21. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

22. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

23. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

24. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

25. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

26. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

27. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

28. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

29. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og‘oning ta’sir o‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

30. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

31. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

32. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

33. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

34. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

35. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

36. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

37. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

38. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

39. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

40. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

41. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

42. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

43. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

44. Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

45. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

AMIR TEMUR DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDA DARGOH VA DEVON (VAZIRLIK)LARNING FAOLIYATI

Sindarova Yorqinoy Tuvalboyevna

Sharof Rashidov nomidagi SamDU
tarix fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amur Temur davlat boshqaruvida dargoh va devon (vazirlik)larning faoliyati haqida ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, dargoh va devonda xizmat qilgan xodimlar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'z va iboralar:Amir Temur, "Temur tuzuklari", boshqaruv tizimi, Saltanat, davlatchilik, idora, dargoh, devon, devonbegi.

Аннотация: *В данной статье приведены сведения о деятельности даргахов и деванов (министерств) в государственном управлении Амур Темура, двух административных управлениях; делится на даргах и деван (служение).*

Ключевые слова и фразы: *Амир Темур, "Тузуклари Темур", система управления, султанат, государственность, должность, даргях, деван, деванбеги.*

Annotation: *This article provides information about the activities of dargahs and devans (ministries) in the Amur Temur state Administration, two administrative departments; divided into dargah and devan (ministry).*

Key words and phrases: *Amir Temur, "Tuzuklari Temur", management system, Sultanate, statehood, office, dargah, devan, devanbegi.*

Mustaqil, kuchli, qat'iy siyosatga ega davlat barpo etishga muvaffaq bo'la olgan Amir Temur davlatchilik an'analarini davlat boshqaruv tizimini ham yuqori darajaga ko'tara olgan. U mahalliy hamda o'z davrining boshqa davlatchilik an'analining eng yaxshi jihatini o'z davlatchilik tizimida mujassam etgan. Bugungi kunda Amir Temur davlatida boshqaruv qay tarzda yo'lga qo'yilganligini chuqquroq o'rganish va shu bilan birga uning ayrim jihatlarini boshqaruv tizimida joriy etish bo'yicha takliflar kiritish va o'rganilgan ma'lumotlar asosida kerakli tajriba to'plash,saboq chiqarisgh bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Amir Temur davlat boshqaruvida qo'llanma o'rnini o'taydigan o'n ikki muhim qoidani (tuzuk) o'z "Tuzuklari"ning eng avallida tilga olgan va shunga doimo amal qilgan. Boshqaruv ikki idora: dargoh va devon (vazirlik) larga bo'linga ***[2: 41-45].***

Dargoh - eng oliy davlat idorasi bo'lib, uning boshlig'i Amir Temurning o'zi bo'lgan. Yuqorida ta'kidlanganidek dargohni boshqarishda o'n ikki qoidaga ya'ni tuzukka amal qilgan. Yana Amir Temur dargoh faoliyatini yuritishda maslahat va kengashlardan ham unumli foydalangan. Xususan, o'z "Tuzuklari"da Amir Temur shunday yozgan edi: "saltanat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim" ***[1: 15].***

Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirlik, mahalliy hokimiyat idoralari va umuman, saltanatda kechayotgan jarayonlar bilan bog'lanib turish ishini oliy devon olib brogan. Dargoh tizimidagi bu devonga devonbegi bosh bo'lib,

vazirliklar unga hisobot berib turishgan. Yana dargoh faoliyatida muhim lavozimlar mavjud bo‘lib bular quyidagilar:

Arzbegi - uning xizmatiga shikoyat bilam kelganlar arzchilar bilan ishlash, ularning arzdodini hukumdorga yetkazish bo‘lgan. Lozim bo‘lganida joylarga vaziyatni o‘rganish uchun aminlar (ya’ni, ishonchli vakillar) taftish uchun jo‘natilgan. Aminlar vazifaziga bundan tashqari, tobe yerlar to‘lovini yig’ib kelishi ham kirgan.

Tavochi – oliy farmonga muofiq joylarga borib, harbiy yurish uchun Lashkar to‘plash bilan shug’ullangan. Tavochilar bosh tavochi, piyoda askar tavochi kabilarga taqsimlangan. Harbiy yurish vaqtida tavochilar qo‘shinlarning joylashishi, buyruqlar ijrosi, tinchlik vaqtidagi ishlarga taqsimlanishgan ***[2: 45].***

Adolat amri – bu mansabdagi shaxs turli o‘lka viloyat va shaharlarda “sipoh va rayiat orasidagi urf-odatlarga oid janjalli ishlar haqida” oliy hukumdorga hisobot va ma’lumot yetkazib turgan ***[3: 235].***

Shuningdek, dargohda bosh xojib, xojiblar, (rasmiy tadbirlar boshqaruvchisi va tashkilotlari), xazinador, xonsolar (dasturxon tuzatishga bosh-qosh bo‘luvchi), jibachi (quro-aslaha saqlovchi), qushchi (podshohona ovlar uyishtirishda maxsus o’rgaaatilgan ov qushlarini olib yuruvchi va parvarish qiluvchi) va mana shu xizmatini boshqaruvchi qushbegi, bakovulboshi (saroy oshpazlarining boshlig’i), kotiblar, bitikchilar, tabiblar, sozandalar, g’azalxonlar kabilar mavjud bo‘lgan ***[2: 45].*** Yuqorida keltirilgan mansab va unvonlar Amir Temur davrida mukammal va adolatli boshqaruv tizimi yaratilganligini va bu tizim mamlakat ravnaqi va fuqorolarni himoya qilishga va ularning farovonligini ta’minlashga xizmat qilgan.. Bu davrda har bir lavozim egasi mavjud qonun-qoidalar asaosida ish yuritgan. Qonunning ustuvorligiga amal qilishgan va ularning burchi hamda vazifalari davlat tomonidan belgilangan.

Amir Temur devon (ijroiya) xizmatini esa mo’g’ul isibotidan keyin tiklay oldi. Devon boshqaruvchisi esa devonbegi bo‘lgan. U kata mavqega ega lavozim

egasi hisoblangan. ”Temur Tuzuklari”da keltirilishicha devonda, ya’ni markaziy ijroiya hokimiyatda yettita vazir xizmati mujassam bo‘lga ***[2: 48].***

Birinchi vazir – Mamlakat va raiyat (aholi) vaziri u bosh vazir hisoblanib, mamlakatning muhim sohasi uchun mas’ul bo‘lgan.

Ikkinchi vazir – Harbiy ishlar vaziri bo‘lib, harbiylarning iqtisodiy ahvoli, maoshi, yer-suvlari boshqaruvi, qurol-aslaha ta’minoti, harbiy ko‘riklar, yarador bo‘lganlarga nafaqa tayinlash va boshqalar ijrosi uning zimmasiga yuklatilgan.

Uchinchi vazir – Mulkchilik va Soliq ishlari vaziri. U egasiz qolgan mol-mulklarni nazoratga olish, savdogarlardan zakot va boj undirish, o‘tloq-yaylovlarni boshqarish, barcha tushadigan daromadlarni saqlash va boshqa vazivalarga mas’ul etib tayinlangan.

To‘rtinchi vazir – Moliya vaziri bo‘lib, u butun saltanat bo‘yicha krim-chiqim ishlariga, barcha xazina xarajatlari hisobini oluvchi, moliyaviy ishlarni tartibga keltiruvchi hamda unga javobgar shaxs egasi bo‘lgan.

Keyingi uch vazir – Sarhad vazirlari hisoblanib, ular saltanat tarkibidagi turli o‘lka va mamalakatlarga oid moliyaviy muommolar va daromadlarni, soliqlarni boshqarishgan. “Temur tuzuklari” dagi ma’lumotga ko;ra bu uch vazirlar quyidagi vazifalarni bajarishgan ***[1: 8] .***

-birinchi vazir – xalqdan olinadigan soliqlar undirilishini kuzatgan, o‘z faoliyati to’g;risida hukumatga hisobot bergan.

- ikkinchi vazir – sipoh ishlarini bajargan. U sipohga berilgan va berilishi lozim bo‘lgan mablag‘ hisobini olib borgan.

-uchinchi vazir – bedarak yo‘qolgan kishilar, kelib ketib yuruvchilar (sayohatchilar va savdogarlar) har xil yo‘llar bilan yig‘ilib qolgan hosil, aqildan ozganlarning mol-mulki, vorissiz mol-mulklarni, qozilar va shayxlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirgan. Tarixiy manbalarda adliya vazirligi (devon mazolim) haqida ham gap ketib, u sud-huquq sohasi bo‘yicha faoliyat yuritgan. Vaqf ishlari ea – sadrlar-sadri zimmasiga yuklatilgan. Xususan, Azamat Ziyo ham o‘z kitobida sakkizinchi vazirlik bu – adliya vazirligidir (devoni

mazolim) deb ta’kidlagan ***[4: 180].*** Adliya, ya’ni sud tizimi uchga bo‘lingan. Adliya vazirligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri fuqorolar yo dunyoviy ishlar bilan shug’illangan. Harbiy sud (Lashkar qozisi) alohida faoliyat olib borgan. Shariyat tartiblari bilan islom qozisi shug’illangan.

Shuningdek, Amir Temur “Tuzuklari” da vazir tayin etish ishida to‘rt sifatga ega bo‘lish lozimliginini ta’kidlaydi. Ular quyidagilarga bo‘lgan:

1. asillik va tozza nassillik;
2. aqillilik va fahm-farosatlilik;
3. sipoh va raiyat ahvolidan xabordorlik, ularga nisbatdan xushmuomallalik;
4. sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Amir Temur yuqorida sanalgan sifatlarga ega shaxsni vazirlik martabasiga loyiq deb hisoblab, bunday vazirlarga to‘rt imtiyoz – ishonch, e’tibor, ixtiyor va qudrat berilishini ta’kidlaydi ***[1: 75].*** Yana “Vazirlar, - deyiladi “Tuzuklar”da – saltanat ustunlaridir… **[**ular**]** mamlakat obodonchiligini, raiyatning tinchligini, sipohlarning birligini, xazina boyligini doimo ko‘zda tutadilar. Davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchillika yo‘l qo‘ymaydilar. Saltanatga zararli narsalarni qaytarishda molu jonnini ayamaydilar”. Ya’ni saltanat obodonligi yoki xarobligi shu vazirlarga bog‘liqdir ***[1: 9]***. “Tuzukot’ da ta’kidlanganidek, Amir Temur o‘z vazirlariga nisbatdan juda ham mehribon b’lgan. Shuningdek ularni ortiqcha siylamaslik lozimligini ham ta’kidlagan. Zotan, Amir Temur: “Vazir zolim bolsa, saltanat ishlari tez muddatda parokandalikka uchraydi”, deb hisoblaydi. Shuni ham alohida qayd etish lozimki; vazirlarning vazifalarini taftish etayotganda o‘z vorislariga tuxmat va hissiyotlarga berilmaslikni uqtiradi. Bu xususida “Tuzukot” da shunday deyilgan: “G’arazgo’yi; buzuqi va hasadgo’y odamlarning vazirlar haqidagi uydirmalarni eshitmasinlar, chunki bu tabaqadagi kishilarning dushmani ko‘p bo‘ladi; negaki olam ahlining barchasi dunyotalabdirlar” ***[5: 303*****]**. Shuning bilan birga o‘z mansabiga loqayd va suiste’mollika yo‘l qo‘ygan larni qattiq jazolagan.

Amir Temur zamondoshlarining aksariyati, xususan, ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo bunday yondashuvga kata e’tibor berilganligini, mansabiga noloyiq ishlar qilgan amaldorlarga tegishli ravishda jazolanganligini ta’kidlagan. Xususan, Amir Temur o‘z mansabini suiste’mol qilgan mansabdorga keskin salbiy munosabat bildirgan. Klavixo o‘z kundaligida 1404-yil 9-oktyabrda Sohibquron o‘zining ikki vaziri: Xo‘ja Mahmud Dovud va Muhammad Jaldodni qattiq jazollanganligini va ularni qatl qildirilganligini qayd etgan ***[2: 48-49].*** Albatta bunday siyosat boshqaruvda o‘z mansabiga nisbatdan loqayd bo‘lmaslikni hamda aholiga nisbatdan adolatli bo‘lishga undagan.

Devonda shuningdek, boshqa turdagi amaldorlar ham bo‘lishgan. Bular: shayxulislom, qozi al-quzzot (oliy sudiya), qoziyi ahdas (odat bo‘yicha hukum chiqaruvchi qozi), qozi askar (harbiy qozi), sadri a’zam (oliy sadr), dodxoh (shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi), eshikog’a, saroy vaziri, yasovul, (hukumdor shaxsiy buyruqlarni bajaruvchi), muhassil (soliq va o’lpon yig’uvchi), qorovulbegi, Muhtassib, voqeanavis, munshiy va boshqalar ***[2: 49].***

Amir Temur XIV asr oxirlari XV asr boshlarida o‘z davrida nisbatdan ilg’or bo‘lgan davlat boshqaruv tizimini yaratdi. Bu tizim o‘zida milliy davlatchilikning eng yaxshi an’analarini jam etib, o‘zbek davlatchiligi taraqiyyotida muhim iz qoldirdi. Xulosa qilib aytganda boshqaruvdagi ikki idora ya’ni dargoh va devon (vazirlik) lar va ularada faoliyat ko‘rsatgan mansab egalari qonun-qoidaga roiya qilgan va adolatli ish olib borgan. Shuning uchun ham Amir Temur davrida davlat boshqaruvi va boshqa sohalari ham yaxshigina rivojlangan va mustahkamlangan.Bugungi kunda Amir Temurni dunyo‘taniydi va uning faoliyati bilan qiziqadi. Ammo Amir Temur vafotidan so‘ng o‘zro boshlanib ketgan toju-taxt uchun kurashlar oqibatida mustahkam boshqaruv tizimi susaya borgan. Albatta bularning asosiy sababi Amir Temurning o‘z vorislariga yer mulklarni ulus sifatida vorislariga bo‘lib berganligida edi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. “Temur tuzuklar” – Toshkent G’ofur G’ulom nomidagi nashiriyot-matbaa birlashmasi, 1991.

2. B.J.Eshov. A.A. Odilov. O‘zbekiston tarixi. 2-kitob.- Toshkent,2020.

3. B.J.Eshov. O‘zbek davlatchilik va boshqaruv tarixi.- Toshkent, 2012.

4. A.Ziyo. O‘zbek davlatchilik tarixi. – Toshkent, 2001

5. Bo’riboy Ahmedov. Tarixdan saboqlar. – Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti, 1994.

6. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

7. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

8. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

9. Abdunosirova O.B. ON THE SPONSORSHIP ACTIVITIES OF THE TEMURIAN PRINCE. Asian Journal of Multidimensional Research 1(11), 2022.

РОЛЬ САХИБКИРАНА АМИРА ТЕМУРА В МИРОВОЙ ИСТОРИИ

Мамбетназаров Миразиз Куанышбаевич

Студент 2 курса Академического лицея при НГПИ им. Ажинияза

Аннотация: *В статье речь идет о заслугах выдающегося полководца и правителя Амира Темура. В частности, в ней отмечается, что Амир Темур оказал существенное влияние на общий ход мировых событий. Автором указывается роль Амира Темура в истории нашей страны и за рубежом. Приводятся факты относительно жизни и деятельности Амира Темура в трудах историков всего мира. В статье также отмечается проводимые работы по возрождению и увековечению памяти Амира Темура в годы независимости.*

Ключевые слова и фразы: *сахибкиран, полководец, государственное управление, правитель, Уложения Темура, дипломатические связи, зарубежные послы.*

Аннотация: *Мақолада буюк саркарда ва ҳукмдор Амир Темурнинг хизматлари ҳақида сўз боради. Унда Амир Темурнинг бутунжаҳон воқелигига қўшган ҳиссаси*

эътироф этилади. Муаллиф Амир Темурнинг мамлакатимиз ва дунё тарихидаги аҳамиятига алоҳида урғу беради. Муаллиф мамлакатимиз ва дунё тарихчилари асарларида Амир Темур ҳаёти ҳақидаги фактларни келтиради. Мустақиллик йилларида Амир Темур хотирасини қайта тиклаш ва абадийлаштириш бўйича амалга оширилаётган ишлар ҳам атаб ўтилади.

Калит сўз ва иборалар: *соҳибқирон, саркарда, давлат бошқаруви, ҳукмдор, Темур тузуклари, дипломатик алоқалар, чет эл элчилари.*

Annotation: *The article deals with the merits of the outstanding commander and ruler Amir Temur. It notes that Amir Temur had a significant impact on the overall course of world events. The author emphasizes the role of Amir Temur in the history of the country and the world. He analyzes the facts about the life of Amir Temur in the works of historians of the country and the world. The ongoing work to revive the memory of Amir Temur in the years of independence is also noted.*

Key words and phrases: *sahibkiran, commander, state administration, leader, the code of Temur, diplomatic relations, foreign ambassadors.*

Издревле Узбекистан славится яркими выдающимися личностями в своей многовековой истории. Особенно велика роль в истории нашей Родины и заслуги выдающегося полководца и государственного деятеля Амира Темура. С обретением Узбекистана независимости благодаря действиям первого Президента Республики Узбекистан Ислама Каримова была восстановлена роль Амира Темура в мировой истории, были предоставлены возможности для изучения и популяризации его деятельности. В нашей стране увековечено имя Амира Темура, имя его присвоено проспектам, площадям многих городов и кишлаков, музеям и кинотеатрам.

Как отметил первый Президент нашей страны И.Каримов на торжественном открытии Международной конференции «Историческое наследие ученых и мыслителей средневекового Востока и его роль и значение в развитии современных цивилизаций», состоявшемся 16 мая 2014 года в Самарканде: «История средневекового Востока свидетельствует о том, что несравнимый уровень развития культуры, науки, медицины, литературы, искусства, архитектуры, появление научных школ, волны новых талантливых поколений, в первую очередь неразрывно связано с активным развитием экономики, сельского и городского хозяйства, ремесленничества и торговли, строительством дорог, новых караванных путей и прежде всего, обеспечения

относительной стабильности на территории» ***[1: 54]***. По инициативе И.Каримова на центральных площадях Ташкента, Самарканда, Шахрисабза и других городов установлен памятник Амиру Темуру. В 1995 году образован Международный фонд Амира Темура. В 1996 году в сквере Амира Темура в Ташкенте построен Государственный музей Темуридов, учрежден орден «Амир Темур». Также по инициативе международной организации ЮНЕСКО в 1996 году в Ташкенте, Самарканде и зарубежных странах широко праздновали юбилей Амира Темура, и этот год в Узбекистане был провозглашен «Годом Амира Темура».

Как отметил Президент страны Ш.М.Мирзиёев в торжественной церемонии, посвященной 29-й годовщине независимости Республики Узбекистан: «…Сегодня, когда в полную силу реализуется мощный потенциал нашего народа, в Узбекистане закладывается фундамент новой эпохи Возрождения – Нового Ренессанса ***[2: 1].*** В 2017 году Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев в ходе своей речи на IV курултае общественного движения молодежи «Камолот» выдвинул идею о присвоении военно-образовательным школам названия «Темурбеклар мактаби».

Второй период Восточного Ренессанса – Темуридский Ренессанс приходится в XIV – XVI века. Несравнимы роль и значение великой империи, созданной Амиром Темуром: «Великий Сахибкиран собрал в Самарканде – в столице своей империи – ученых, писателей, архитекторов и ремесленников из разных регионов мира. Он поощрял науку, просвещение и профессии. Оба Ренессанса Востока – уникальное явление в истории человечества в целом – были пронизаны благородными идеями великих предков о науке, просвещении, религиозной толерантности и гуманизме. И приобрели особый, более глубокий смысл в наше время, в годы независимости Узбекистана ***[3: 1].***

Примечательно, что жизнь и деятельность Амира Темура широко освещены в трудах историков нашей страны и за рубежом. Сахибкиран Амир

Темур был выдающимся государственным деятелем, сыгравшим огромную роль в развитии узбекской государственности. В исторических источниках Амира Темура именуют «владыкой мира» и «справедливым». На сегодняшний день этого великого человека во всем мире признают в качестве выдающегося государственного деятеля, талантливого полководца, покровителя науки и культуры. Государственные деятели, ученые отзываются о нем тепло и высоко оценивают его жизнь и деятельность.

Стоит отметить, с XVI века возрастает интерес ученых Европы к личности и деятельности Амира Темура. В 1553 году в итальянском городе Флоренция было издано произведение итальянского ученого Перондино «Величие Тамерлана из Скифии». Это было первым научным исследованием европейских ученых об Амире Темуре. В том же веке издается произведение испанского историка Перо Мексики «История великого Темура». В 1582 году изданы «Воспоминания» известного испанского посла Клавихо. В тот же период было создано сценическое произведение английского драматурга Христофора Морлу «Великий Темур». С тех пор не прекращалось создание произведений, посвященных великому Сахибкирану. К настоящему времени в 33 странах издано более 500 произведений зарубежных исследователей, посвященных Амиру Темуру и Темуридов ***[4: 110]***.

Как известно, Амир Темур родился 9 апреля 1336 года в кишлаке Ходжа-Илгар области Кеш. Детство Амира Темура прошло в родном городе. Его отец Амир Тарагай с малых лет обучал сына на уровне детей высокопоставленных сановников, преподавая всесторонние знания и навыки, в том числе науку обращения со старшими и младшими, охоту и военное дело. С 7 лет он начал учиться в медресе уже полностью владея азбукой. С 12 лет со своими сверстниками занимался военными состязаниями. С детства Амир Темур любил конные состязания и охоту, метание копья и стрельбу из лука, имел склонность к военным играм. Амир Темур стал талантливым и смелым наездником, хорошо разбирался в лошадях. Вокруг него собирались

друзья детства, вместе со сверстниками занимались и участвовали в соревнованиях, создавали военные дружины. Впоследствии те друзья и сверстники стали сторонниками Амира Темура и занимали должности военачальников в его войске.

При жизни Амира Темура было написано сочинение о государственном управлении и военном искусстве, известное под названием «Уложения Темура». В нем уделяется большое внимание главным опорам государства: чиновникам и военачальникам вплоть до рядового солдата, определены порядок и правило о деятельности высших должностных лиц, их права и обязанности, порядок назначения военачальников. Слова Амира Темура: «… девять десятых государственных дел я решал с помощью советов, мероприятий и аудиенции, и лишь десятую часть с помощью - меча», «Сила – в справедливости» свидетельствует о том, что он управлял государством разумно и справедливо. В управлении государством Сахибкиран опирался на близких ему людей. Основой его управления были законы и правила Ислама. Его отношение к Корану и хадисам было искренним. Проявлял безграничное уважение поколениям Пророка, шейхам и мудрецам. Пользовался их советами в вопросах укрепления империи.

Амир Темур управлял государством в течение 35 лет. Он создал огромное государство, границы которого простирались от Индии и Китая до Черного моря, от Арала до Персидского залива. Кроме этого, он покорил Малую Азию, Сирию, Египет и Нижнее Поволжье, низовья Дона, земли вокруг озера Балхаш и бассейн реки Или, территории до северной Индии. Амир Темур не только благоустраивал города Мавереннахра и Туркестана, но и заново отстраивал многие населенные пункты покоренных стран, в том числе города Багдад, Дербент, Байлакан. Восстановление древних торговых путей благоприятствовала развитию торгово-экономических и культурных отношений не только в Мавереннахре, но и способствовало сближению народов и государств Дальнего и Ближнего Востока. Амир Темур установил

торгово-дипломатические связи с наиболее крупными королевствами Европы – Францией, Англией, Кастилией (Испанией).

Летом 1402 года Амир Темур через специальных послов направляет письмо королю Франции Карл VI, королю Англии Генриха IV. Послы прибыли в Париж в мае 1403 года и заявили, что Амир Темур предлагает обеспечить купцам обеих стран свободу торговых связей и, если король и герцоги согласятся, закрепить эту свободу торговли заключением соответствующего договора. Из письма Карла VI на имя Амира Темура, датированного 1403 года явствует, что Франция одобрила предложения Амира Темура.

В переписке между королем Англии Генрихом IV и Амиром Темуром принимал активное участие правитель западных областей Мираншах. Правитель северного Ирана, Ирака, Табриза и Султании Мираншах, намекая на преклонный возраст отца, старался привлечь внимания правителей стран Западной Европы к себе. Для оживления международной торговли с государствами Европы он благожелательно отнёсся к христианским духовенствам и принял меры для обеспечения безопасности купцов-христиан. Поэтому, на Западе в скором времени Мираншах стал известен, как «покровитель католической религии».

Особенно интересовался Востоком молодой король Кастилии Генрих III. Весной 1402 года он отправил посольство в Малую Азию к Амиру Темуру с поручением собрать сведения о силе и могуществе Амира Темура и Баязида, по количеству войск, о нравах, обычаях, религии, законах. Амир Темур принял кастильцев, наряду с другими послами стран Запада и Востока и провожая их, отправил вместе с ними посла Мухаммада Кази с письмом к королю и подарками. В 1403 году Генрих III отправил очередное посольство к Амиру Темуру под руководством де Клавихо. Послы Испании прибыли в Самарканд, где были торжественно приняты Амиром Темуром ***[5: 58].***

Очередной визит испанского посольства во главе с де Клавихо продолжался в Самарканде с сентября по ноябрь 1404 года. В связи с готовящимся походом Амира Темура в Китай 21 ноября 1404 года, все дипломатические миссии вернулись в свои государства. В Испанию де Клавихо вернулся в марте 1406 года. Впечатление о своем путешествии он изложил в книгах «История великого Темура», «Резиденция Темура», «Дневник путешествия в Самарканд». Эти сочинения неоднократно издавались на испанском языке.

Таким образом, Амир Темур стал образованным и мудрым правителем своего времени. Хорошо знал такие науки, как медицина, математика, астрономия, зодчество, история. Известный арабский философ Ибн Халдун, близко знавший Амира Темура отмечал, что он отлично знал история тюркского, арабского, персидского народов, досконально владел знаниями из области религиозных, светских и философских наук.

Отрадно отметить, что количество ученых любой страны, внесших вклад в мировую цивилизацию, не так велико, как количество ученых, выросших в Узбекистане. И для нас молодежи особой гордостью является то, что мы потомки родившихся на этой земле и завоевавших мировую славу исторических личностей, великих мыслителей и ученых.

Использованные источники и литература

1. Каримов И.А. // «Высокая духовность – непобедимая сила». – Т., 2005.

2. Мирзиёев Ш.М. // Речь Президента на торжественной церемонии, посвященной 29-й годовщине независимости Республики Узбекистан. // Газета «Правда Востока». – Т., 9 сент., 2020.

3. Саидов А. // Третий Ренессанс в Новом Узбекистане. // Газета «Новый Узбекистан». – Т., 9 сентября, 2020.

4. Мухаммаджанов А. // История Узбекистана. – Т.: «Шарк», 2017, 110 С.

5. Мамбетназаров М. // O‘zbekiston tarixida Ikkinchi Renessans davrining buyuk namoyondasi. // «Yangi O‘zbekiston yoshlari va Uchinchi Renessans» mavzusidagi iqtidorli talaba va magistrantlarning ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Navoiy shahri, 2022 yil, 10 iyun. 58-59 B.

АМИР ТЕМУР САЛТАНАТИДА ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА СОЛИҚ СИЁСАТИ

Мирзаев Авазбек Толибжонович

Андижон давлат университети ўқитувчиси

Аннотация: *Амир Темур ўзининг хукмронлиги даврида бошқарув тизимининг барча бўғинларида ҳамиша адолатнинг устун бўлишини таъминлаб келган. Мазкур ҳолат солиқ сиёсатига кўпроқ таъсир кўрсатган. Ушбу мақолада Амир Темур давлатидаги солиқ ишлари ҳақида таълумотлар берилган ва бу тизимда адолат устунлик қилганлиги ёритилган.*

Калит сўз ва иборалар: *давлат; адолат; қонун; солиқ; хазина; пул; хирож; маош; фақир; тушум; ҳисса; тамойил.*

Аннотация: *Во время своего правления Амир Темур добился того, чтобы во всех ветвях системы управления всегда торжествовала справедливость. Эта ситуация оказала большее влияние на налоговую политику. В данной статье представлена информация о налоговых делах в государстве Амира Темура и подчеркивается, что в этой системе восторжествовала справедливость.*

Ключевые слова и фразы: *государство; справедливость; закон; налог; сокровище; деньги; дань; зарплата; бедный; доход; вклад; принцип.*

Annotation: *During his reign, Amir Temur ensured that justice always triumphed in all branches of the management system. This situation had a greater impact on tax policy. This article provides information about tax affairs in the state of Amir Temur and emphasizes that justice has triumphed in this system.*

Key words and phrases: *state; justice; law; tax; treasure; money; tribute; salary; poor; income; contribution; principle.*

Амир Темурнинг тарихдаги буюк хизматлари Марказий Осиёда давлатчилик институтини қайта тиклаб, уни қонун ва адолат асосида ривожлантирганидир. Амир Темурнинг давлатчилик сиёсати деганда, унинг бошқарув тизими, ички ва ташқи идора тартиблари назарда тутилади. Мустақил Туркистоннинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий-маданий юксалишида Амир Темур давлатида амалга оширилган ҳарбий, иқтисодий-хўжалик, молиявий, маданий ислоҳотлар муҳим аҳамият касб этади. Ўша

даврда Мовароуннаҳрда барча аҳоли маълум касб билан машғул бўлганлиги, давлатнинг ички ва халқаро нуфузи ошганлиги тўғрисидаги маълумотлар, шу вақтда яратилган тарихий ёзма манбаларда батафсил баён этилган.

“Тарихий ҳақиқатни тиклаш йўлида замонавий ёндашувни талаб қиладиган долзарб муаммолар мавжуд бўлиб, улар қаторида давлатчилигимиз тарихида чуқур из қолдирган темурийлар даври ўрин эгаллайди” ***[1: 194]***.

Ўзбек давлатчилиги тарихида турлича юксалиш ва тараққиёт босқичлари бўлган ва Амир Темурнинг давлатчилик институти шу тараққиётнинг чўққисида туради. Демоқчимизки, марказлашган, такомиллашган, қонун ва адолатга асосланган давлат бошқарув тизими барпо этилди. Соҳибқирон ўз давлатини ақл-заковат билан қонунлар асосида, дунёвий ва шаръий қадриятларга таяниб бошқарди. Амир Темур давлатчилик сиёсатининг янги сифатларини мамлакатнинг иқтисодий-хўжалик жиҳатдан тез ривожланганлиги, жумладан, шаҳарлар ўзининг қиёфасини тубдан ўзгартириб, йирик ҳунармандчилик, савдо, маданий, маъмурий марказларга айланганлигида, деҳқончилик тараққий этганлигида кўриш мумкин.

“Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда қисқа муддат ичида Амир Темур салтанати тарихига оид ёзма манбаларнинг бир қисми илмий муомалага киритилди ва салмоқли тадқиқотлар амалга оширилди” ***[2: 164]***.

Амир Темурнинг Туркистон ва унинг ташқарисида олиб борган ободонлаштириш, бунёдкорлик фаолияти аниқ таҳлил қилинганда айтиш мумкинки, энг муҳими, мазкур қурилишлар географияси биргина Туркистон билан чегараланиб қолган эмас. Амир Темур Мовароуннаҳр ва Хуросоннинг шаҳар ва қишлоқларида, ҳатто Жанубий Озарбайжон ва Қобул каби узоқ ерларда ҳам ободончилик ишларини олиб борган, суғориш иншоотларини қурдирган. Тарих - бу қўҳна дунёда ўтган кўп жаҳонгирларни билади. Уларнинг аксарияти фақат бузган. Амир Темурнинг фарқи шундаки, у умр бўйи, бунёдкорлик билан машғул бўлган.

«Тузукоти Темурий» - муҳим тарихий манба бўлиб, унда қадимий Туркистоннинг буюк фарзанди Амир Темурнинг давлатнинг тузилиши ва бошқарилиши хусусидаги нуқтаи назарлари баён этилган ***[3: 299]***.

Соҳибқирон ўз салтанатининг истиқболини қўшни давлатлар билан фаол сиёсий-дипломатик, иқтисодий-маданий алоқаларда кўрди ва амалда шунга эришди. Хитой, Миср, Рум давлатлари билан, Европанинг Франция, Англия, Италия, Испания каби қиролликлари билан алоқалар ўрнатилди. Бунга Франция қироли Карл VI, Испания хукмдори Генрих III, Англия қироли Генрих IV ва бошқалар билан олиб борган ёзишмалар, яққол мисол бўла олади.

Амир Темур давлатни бошқаришга жиддий эътибор бериб, янги давлат тизими бўйича Девони бузургдан ташқари, ҳар бир вилоятда “Девон” деб аталувчи бошқарма тузиб, бу бошқармалар солиқ йиғиш, тартиб сақлаш, ижтимоий бинолар – бозорлар, ҳаммомлар, йўллар, суғориш тармоқларига қараб туриш ва аҳолининг ҳулқий-аҳлоқий ҳаракатларини назорат остига олиш каби ишлар билан шуғулланган ***[4: 109]***.

Шаҳарлар ва шаҳар атрофи аҳолисидан на жон солиғи ва на бож олинарди. Бирорта ҳам аскарнинг доимий туриш учун одамлар шахсий уйини эгаллашга ёки фуқароларнинг молини ва бойлигини ўзлаштириб олишга ҳаққи йўқ эди. “Барча ишларда, - деган эди Амир Темур, - бу ишлар қайси ўлка халқига тааллуқли бўлмасин, ҳокимларнинг адолат томонида қаттиқ туришларига буйруқ берилган. Қашшоқликни тугатиш мақсадида бошпаналар ташкил қилдимки, камбағаллар улардан нафақа олиб турардилар”.

Амир Темурнинг давлат бошқарув тизими ҳарбий санъат, дипломатик алоқалар ва бошқа соҳаларда ўзига хос тажриба мактабини яратди. Эътиборли томони шундаки, Соҳибқирон давлат бошқарувининг барча поғоналарида адолат ва қонунни устун мавқеда тутган ва бу ўз навбатида солиқ тизимида ҳам акс этган.

Маълумки давлат хазинасини бойитиш, керакли харажатларни ўз вақтида қоплаш ва бу билан боғлиқ ишлар давлат раҳбаридан жуда катта маҳорат талаб қилган. Бу жараёнда халқдан тўпланадиган солиқ ва йиғимлар муҳим аҳамиятга эга бўлган, зеро солиқларни йиғиш, унда аниқ миқдорни белгилашда йўл қўйилган камчиликлар халқ норозилигига сабаб бўлган. Шу боис Амир Темур давлат ҳокимиятига эришгач, солиқлар тизимида ҳам бир қатор ислоҳотларни амалга оширди.

“Темур тузуклари”да айтилишича, “...раиятдан мол-хирож йиғишда уларни оғир аҳволга солишдан ёки мамлакатни қашшоқликка тушириб қўйишдан сақланиш керак. Негаки, раиятни хонавайрон қилиш давлат хазинасининг камбағаллашишига олиб келади. Хазинанинг камайиб қолиши эса, сипоҳнинг камайиб кетишига сабаб бўлади. Сипоҳнинг тарқоқлиги, ўз навбатида салтанатнинг кучсизланишига олиб боради” ***[5: 98]***. Бу ўша даврда солиқларга нисбатан буткул янгича қараш эди. Чунки бундан олдин аксарият давлатларда солиқлар давлат хазинаси учун эмас, балки, бир қисми солиқ йиғувчиларнинг ёки бўлмаса хукмдорнинг шахсий хазинасини бойитишга хизмат қилар, улар бу борада янгидан-янги солиқларни жорий қилиб, халқ манфаати ва адолат тамойили кейинги ўринларда турар эди.

Амир Темур томонидан давлатни бошқариш шаклланаётган дастлабки йилларда ўтган даврлардан кўп сонли солиқ ва йиғимлар мерос бўлиб келган эди. Шунинг учун ҳам Амир Темурнинг ташаббуси билан бир қатор фавқулодда ва маҳаллий аҳамиятга эга бўлган солиқлар бекор қилинди. Булар қаторида, соварий яъни олий мансабдаги кишиларга совға учун, қўналға яъни элчилар ва чопарлар учун меҳмон пули ҳамда шилон яъни сарой хизматчилари учун совға ва бошқа шу сингари солиқ-йиғимларни кўрсатиб ўтиш мумкин.

Тарихдан маълумки, бир давлат иккинчи давлат худудини ўз таркибига қўшиб олганида, ерли халққа янги солиқлар жорий қилиб, халқни талаш ва шу йўл билан хазинани тўлдириш мақсадида янги солиқлар киритиш

ҳисобига солиқ юкини оғирлаштирган. Кузатишлар шуни кўрсатадики, Амир Темур бундай усуллардан фойдаланмаган. Бу тўғрисида "Темур тузуклари"да “Агар ерлик фуқаро азалдан бериб келган ҳирож миқдорига рози бўлса, уларнинг розилиги билан иш кўрсинлар, акс ҳолда (ҳирожни) тузукларга мувофиқ йиғсинлар” ***[5: 98]***, - деб қайд этилган. Бу ўз навбатида бир томондан, солиқларнинг самарали йиғилишига кўмак берган бўлса, иккинчи томондан, олдиндан мавжуд камчиликни бартараф этиш имконини яратган. Шунингдек, бу тадбир тузуклардаги солиқ тўловчилар солиқни “яхши сўз билан олсинлар, калтак, арқон ишлатиб, занжир билан боғламасинлар” ***[5: 99]*** – деб кўрсатилган салбий ҳолатларни олдини олишга хизмат қилган.

Амир Темургача солиқ йиғувчиларнинг иш ҳақи солиқ тўловчилар ҳисобига бўлиб, улар қонунда кўзда тутилмаган солиқларни ундиришга ҳам ҳаракат қилар эдилар. Амир Темур солиқ тўловчилар, ясавулбошиларга халқнинг устига юк бўлиб яшашларига йўл қўймасдан, уларга маош тайинлаш билан бирга, бу борада қонуний чекловларни ҳам ўрнатади. Бу ҳақда “Темур тузуклари”да шундай дейилади:-“Яна буюрдимки, агар (ҳар ер ва аҳолининг) амалдорлари ва калонтарлари оддий фуқарога жабр-зулм қилса ва шу йўл орқали бечораларга зарар етказган бўлса, (бундай вақтларда) етказилган зарарни калонтардан ундириб, жабр кўрганга берсинлар, токи улар яна ўз ҳолларига келсинлар” ***[5: 99]***.

Шунингдек, “Темур тузуклари”да: “Яна амр этдимки, кимки бир саҳрони обод қилса, биринчи йили ундан ҳеч нарса олмасинлар, иккинчи йили раият ўз розилиги билан берганини олсинлар, учинчи йили қонун-қоидага мувофиқ ҳирож олсинлар” ***[5: 99]***,-деб ёзилган. Амир Темур бу каби солиқ имтиёзларини тадбиқ этиш орқали мамлакат ободлиги ва бир қатор ерларнинг ўзлаштирилишига қулай имконият яратади. Амир Темур оддий фуқаролар тўғрисида ҳам қайғуриб, “Деҳқонлар ва раиятдан қайси бирининг деҳқончилик қилишга қурби етмай қолган бўлса, унга экин-тикин учун зарур уруғ ва асбоб беришсин. Агар фуқародан бирининг ўз иморати бузилиб

тузатишга қудрати етмас экан, унга ёрдам беришсин” ***[6: 11]***, - деб таъкидлаган.

Шу ўринда айтиб ўтиш керакки, солиқ йиғимларидан тушган маблағ фақатгина давлат хазинасини бойитиш ёки ҳарбий харажатлар учун эмас, балки унинг бир қисми ижтимоий ҳимоя, фан-таълим ва маданият равнақига сарфланган. “Темур тузуклари”да ўша даврда фақир-мискин, бирор касб билан шуғулланишга ожиз, шол, кўрларга нафақа бериш лозимлиги таъкидланади. Бундан ташқари ҳар мамлакатдаги гадоларни тўплаб, кунлик емиш-ичишларини бериб, уларга бирор вазифа юклаш, иш билан таъминлаш ҳам амалга оширилган ***[7: 96]***.

Соҳибқирон Амир Темур даврида мамлакат миқёсида солиқларни ўз вақтида тўплаш, уларнинг мамлакат хазинасига тушишини амалга ошириш зўр куч ва ташкилотчилик талаб этар эди. Солиқларни улуслар ва туманлар бўйича тўплашни такомиллаштириш мақсадида суюрғол ва тархон усулидан фойдаланилган. Бу орқали барча солиқлар тушумини марказга тўпламасдан, марказдан маҳаллий ҳокимиятга пул ажратмаслик, уларнинг бир қисмини маҳаллий вилоятлар ихтиёрида қолдириш сиёсати қўлланилди. Суюрғол ва тархон эгаларининг фаолияти эса доимий равишда қаттиқ назорат қилиб борилди. Шунинг учун ҳам ҳар бир ўлкага солиқлар масаласи бўйича махсус вазир тайинланганки, бу вазир “Темур тузуклари”даги солиққа оид қоидаларнинг амал қилинишини назорат қилиб борган.

Амир Темур солиқ тўловчи ва йиғувчиларга қулайлик яратиш мақсадида солиқ йиғимларини натура ҳисобида ёки нақд пул билан амалга ошириш ишларини ҳам йўлга қўяди. “Темур тузуклари”да: “Агар раият рўйхатга олинган ерлардан бериладиган солиқларни нақд ақча билан тўлашга рози бўлса, нақд ақча миқдорини саркорнинг ҳиссаси ҳисобланган ғалланинг мазкур даврдаги нархига мувофиқ белгиласин” ***[5: 98]***, - дейилган бу хусусда. “Агар ер эгаси солиқни пул ҳисоби билан тўлашни истаса, унда ҳосилнинг учдан бир қисми жорий қиммат бўйича пул ҳисобига айлантирилиб

олинарди. Аскарлар эса ейдиган озиқ-овқатлар қимматига биноан мояна оладилар. Агар фуқарога бу тартиб ҳам хуш келмаса, у ҳолда ҳосилнинг ҳар уч ботмонидан алоҳида-алоҳида ҳақ олинарди. Биринчи ботмондан 3 чорак, иккинчисидан 2 чорак, учинчисидан эса 1 чорак ҳосил олинарди. Ярми буғдой, ярми арпа экилган ерлардан чиққан умумий ҳосилнинг ярми солиқ ҳисобига ўтади" ***[8: 36-37]***.

Хирож солиғи фақат ҳосил пишгач йиғилиб, иккинчи ёки учинчи ҳосил учун солиқлар олинмаслиги тўғрисидаги қоида ҳам амал қилган. Бунга ҳам Соҳибқироннинг "Тузуклари"да алоҳида эътибор қаратилади.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, демак Амир Темур солиқларга фақат хазинанинг моддий таянчи сифатида эмас, балки мамлакатни идора қилиш ва ободонлиги учун хизмат қилувчи восита сифатида қараган. Шу боис Соҳибқироннинг сиёсатида солиқлар солиқ тўловчилар фаолиятини назорат қилишдагина намоён бўлмасдан, балки улар мамлакат олдига қўйилган вазифаларни бажариш ҳисобланиб, давлатни идора қилишга кетадиган ҳаражатларнинг манбаи саналарди. Бошқача айтганда, Амир Темур солиқлар борасида доимо чуқур мулоҳаза қилган ва давлат солиқ тизимида адолат тамойиллари барқарор бўлишини таъминлаган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Амир Темур ва темурийлар даврида илм-фан ва маданият. – Тошкент: Akademnasr, 2013.

2. Темурийлар тарихига оид манбалар. – Т.: Akademnasr, 2011.

3. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1993.

4. Янги Ўзбекистон Учинчи Ренессанс остонасида. – Т: "Zamin nashr", 2021.

5. Темур тузуклари. – Т.: "Ғофур Ғулом", 1991.

6. Амир Темур васияти (рисола). – Т.: "Ғофур Ғулом", 1991.

7. Темурийлар салтанатида давлатчилик ва ренессанс. – Т.: Akademnasr, 2008.

8. Иброҳим Мўминов. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. – Тошкент: “ФАН”, 1993.

SHOHRUX MIRZO O‘ZIGA KIMNI VALIAHD QILMOQCHI EDI YOHUD MUHAMMAD JO‘QIY HAYOTIGA BA’ZI CHIZGILAR

Asatov Yunus

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tarix fakulteti 314-22-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Shohrux Mirzoning kenja farzandi bo‘lmish Muhammad Jo‘qiyning hayot faoliyati yoritiladi.*

Kalit so‘z va iboralar:*Muhammad Jo‘qiy, Shohrux Mirzo, Ulug‘bek mirzo, Gavharshod Og‘o, Saraxs, Hirot, Oqqo‘yunlilar, Arzinjon*

Аннотация: *В этой статье рассказывается о жизни младшего ребенка Шахруха Мирзы, Мохаммада Джоки.*

Ключевые слова и фразы: *Мухаммад Джоки, Шахрух Мирза, Улугбек Мирза, Гавхаршад Аго, Серахс, Герат, Аккоюнлылар, Арзинджан.*

Annotation: *This article covers the life of Shah Rukh Mirza's youngest child, Mohammad Joqi.*

Key words and phrases: *Mukhammad Jo‘qiy, Shokruh mirza, Gavharshod oga, Mukhammad Joki.*

Qadim tarixga nazar tashlar ekanmiz, tarix bizga yangidan yangi bilimlarni tuhfa etaveradi. Davlatchiligimiz tarixida uzoq davrlarga borib taqaladi, bu uzoq o‘tmishning hali ochilmagan qirralari bordir. Tariximizda ko‘pgina tadqiqotga muhtoj mavzular, biz bilmagan va to‘liq tanib olmagan shaxsiyatlar mavjud. Ulardan biri Temurbek naslidan bo‘lmish Muhammad Jo‘qiy ibn Shohruxdir.

Muhammad Jo‘qiy 1402-yilning 7-aprelda ***[1:254]*** «Mujmali Fasihiy»da qayd etilishicha 27-aprelda ***[2:161]*** Hirotda tavallud topgan, onasi – Gavharshod Og‘o. Amirzodaning tug‘ilgani xabarni eshitgan Sohibqiron Amir Temur xursand bo‘lib, unga Muhammad Jo‘qiy deb ism qo‘yadi va uni tarbiyalashni Mironshohning zavjasi bo‘lmish Xonzodaga (?-1411) topshiradi ***[1:254]*** Bizningcha yangi shahzodaga Muhammad Jo‘qiy deb ism qo‘yilishi tasodif emas, balki Temurbekning ukalaridan birining ismi Jo‘qiy bo‘lgan ***[3:115]***. Sohibqiron Shohrux Mirzoning to‘ng‘ich farzandiga padari buzrukvorining ismini bergani

kabi, bu o‘g’ligada o‘z inisining ismini bergan bo‘lsa ajab emas. T.Fayziyevga ko‘ra shahzoda yoshligidan nimjon va kasalmand bo‘lib o‘sadi ***[7:337].*** 1405-yilning 18-fevralida Temurning O‘trorda vafot etishi ortidan vaziyat tersga aylanib ketadi, Temuriyzodalar o‘rtasida taxt uchun kurash boshlanib ketadi, Xalil Sulton Movarounnahr taxtiga ega chiqadi. Shunday vaziyatda Muhammad Jo‘qiy Samarqandda Xalil Sultonning onasi bo‘lmish Xonzodaning qo‘lida bo‘ladi va bu ma’lum darajada Shohrux Mirzoning Xalil mirzoga nisbatan keskin choralar ko‘rishini tiyib turuvchi murvat bo‘lgan ***[8:363]***. 1407-yilning mart oyi oxirlarida Samarqanddan Hirotga Xonzoda tashrif buyuradi. U o‘zi bilan shahzoda Muhammad Jo‘qiynida olib kelgan edi. Bundan mamnun bo‘lgan mirzo Shohrux ularning sharafiga to’y beradi va Muhammad Jo‘qiyni Hirotga yuborib, o‘zi Umar mirzo ustiga yurishga otlanadi ***[2:188]*** Aslida shahzodani Amir Temurning o‘limidan 2 yil o‘tib olib kelinishida bir sabab bordek, Xonzoda Temur vafotidan so‘ng shahzodani ota-onasiga qaytarishga shoshilmagan, sababi shahzodaning Samarqandda bo‘lishi Xalil Sultonning foydasiga ishlardi. Endi shahzodani Hirotga qaytarilishi esa Xalilda ustunlikni yo‘qolganligidan darak berardi. 1408-yilning 21-sentabrida Mirzo Shohrux o‘g‘illari Boysung‘ur va Muhammad Jo‘qiyni xatna qildirib, to‘y beradi. P.Ravshanovga ko‘ra 11 yoshli «Boysung‘ur mirzo ismi sharifi bu mundarijaga adashib kirib qolgan. Muhammad Jo‘qiy mirzoning 6 yoshida xatna qildirilishi zamon voqealarining osoyishda emasligi bilan bog‘liq» ***[8:467]*** Jo‘qiy 7-8 yoshlaridayoq davlat ishlariga, aniqrog‘i davlatlararo munosabatlarda aralasha boshlaydi. Shohrux Mirzo 1409-yilda Movarounnahr hokimiyatini ham o‘z qo‘liga oladi. Shu yili Hirotga Dashti Qipchoq va O‘zbek mamlakatlarining sohib ixtiyorlari Fo‘lodxon (Bo‘lat Sulton) va amir Idikuning elchilari kelishadi ***[4:168]***. Shohrux Mirzo Fo‘lodxon va amir Idiku bahodirning elchilariga qo‘shib amir Hasan boshchiligidagi o‘z elchilarinida yo‘llaydi. Shohrux Mirzo mazkur elchilik orqali o‘g‘li Muhammad Jo‘qiyga Oltin O‘rdaning qudratli amiri Idikuning qizini so‘ratadi ***[9:2]***. Idiku bahodir Shohrux Mirzoning bu so‘roviga ijobiy javob berib, qizi Xonumni Hirotga yuboradi

[2:209]. Fikrimizcha, Muhammad Jo‘qiy va Xonumning nikohi ko‘proq siyosiy ahamiyatga ega, sababi vaziyatni to‘g‘ri baholay olgan Shohrux Mirzo Idiku mang‘it bilan munosabatlarni iliqlashtirish orqali saltanatning shimoliy chegaralarini daxlsizligini saqlab qolishga intilgan. Oltin O‘rdaning serg‘ayrat amiri Idiku(1352-1419) amalda O‘rda hokimiyatini o‘z qo‘liga olgan, O‘rdaning avvalgi kuch-qudratini tiklashga urinardi. U 1406-yilda Xorazmni bosib oladi ***[10:333]***. Qaltis vaziyatda aloqalarning iliqlashuvi ikkala tomon uchun ham foydali edi, biroq buning ortidan Xorazm masalasi biroz chetga surilardi, lekin bu ham uzoqqa davom etmaydi. Idikuning qudrati zaiflashgach, 1413-yilda Xorazm Temuriylarga qaytariladi ***[4:236]***. 1417-yil Ulug‘bek mirzo Hirot tomon yo‘lga tushadi. Ulug‘bek mirzoni Gavharshod Og‘o, Boysung‘ur mirzo, Muhammad Jo‘qiy, Muhammad Jahongir va boshqa amirlar kutib olishadi. 1417-yil 16-iyunda Ulug‘bek Hirot safarini tamomlab, Movarounnahrga qaytar ekan, ukasi 15 yoshli Muhammad Jo‘qiynida o‘zi bilan birga olib ketadi, ular Samarqandga 1 haftada yetib olishadi, ***[2: 245]*** lekin ularning bu qadar shoshilganliklari sababi manbalarda bayon etilmagan. Bo‘riboy Ahmedovga ko‘ra Ulug‘bekning Hirotga tashrifi Oq O‘rdada yuz bergan voqealar va otasi bilan unga yurish boshlash xususida maslahatlashish edi ***[11:73]***. Ulug‘bek qishloq manzili qilib Tark suvi bo’yini tanlaydi va katta lashkar yig‘iladi. Og‘a-ini Ulug‘bek va Muhammad Jo‘qiy 1418-yilning 8-fevraliga qadar Tark suvi bo‘yida bo‘ladi, Oq O‘rda taxtiga To‘xtamishning o‘g‘li Jabborberdi o‘tirgani xabari kelgandan so‘nggina Samarqandga qaytishadi ***[11:74].*** Faraz qilish mumkinki, Oq O‘rdaga yurish qilishga to‘g‘ri kelib qolsa, Muhammad Jo‘qiy Ulug‘bekka qo‘shimcha kuch sifatida qo‘shib yuborilgan. 1418-yil Muhammad Jo‘qiy Samarqandga tomon otlanadi. Shahzoda Jayhundan o‘tgach, uni kutib olish uchun Mirzo Ulug‘bek o‘z amirlarini yuboradi. 23-avgustda Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Jo‘qiy uchrashadi, Ulug‘bek mirzo ukasini iliq qarshilaydi. Muhammad Jo‘qiyga „Bog‘i Dilkusho" ajratiladi. Mirzo Ulug‘bek ukasi sharafiga bir necha kun ziyofat beradi. Muhammad Jo‘qiyning Samarqandga kelishining sababi manbalarda qayd

etilmagan bo‘lsa-da, bizningcha, avvalo Mo‘g‘uliston xoni Naqshi Jahonni (1416-1418) Uvaysxon (1418-1428) tomonidan qatl etilishi va mo‘g‘ullar orasida boshlangan kelishmovchiliklar sababli edi, har holda bu kabi tashriflar shunchaki «ko‘ngil yozdi» uchun amalga oshirilmagan. Buni voqealar rivoji ham tasdiqlaydi, Mo‘g‘ulistonga yuborilgan ishonchli kishi qaytib kelib, u yerdagi vaziyatni Ulug‘bek Mirzoga yetkazadi. Shu orada Uvaysxonning elchilarida keldi va yakdillik izhor etadilar ***[2:249]***. Undan so‘ng Ulug‘bek Jo‘qiyga shohona sovg‘a-salomlar in’om qilib, aka-ukalar 1418-yilning 14-noyabrida Xuroson tomon yo‘lga tushadi. Ular 26-noyabrda Hirotga yetib kelishadi. Mo‘g‘uliston taxtiga Muhammadxon o‘tirgach, Shohrux Mirzo huzuriga elchi yo‘llaydi va itoat izhor qiladi ***[4:349]***. Shohrux Mirzo ham elchilarga qo‘shib o‘z vakili– Hasankoni yuboradi. Hasanko‘temurbek zamonasida bir necha bor Mo‘g‘ulistonga borib kelgan edi. Bu elchilikdan maqsad Muhammad Jo‘qiy uchun chingiziy malikalardan birini so‘rattirish edi, Muhammadxon bu taklifni xursandchilik bilan qabul qiladi va akasi Sham’i Jahonning(1399-1408) qizi Mehr Nigor Og‘oni arkoni davlatdan bir guruhi hamrohligida nihoyatda hashamat bilan Mo‘g‘ulistondan jo‘natadi ***[4:350]***. Mirzo Ulug‘bek Chinoz kechuvi orqali Sirdaryodan o‘tadi, Mehr Nigor Og‘o va boshqa vakillarni hurmat bilan Xurosonga qadar kuzatib qo‘yadi. Ular 1419-yilning 15-oktabrida Hirotga yetib kelishadi ***[2:250]***. Shohrux Mirzo buyrug‘i ila Gavharshod Og‘o shohona to’y tashkillashtiriladi. Bu to‘y xususida «Oliy hazrat (Shohrux) «Bog‘i Zog‘on»da shunday tantanali bazm qurishni buyurdiki, unga o‘xshaganini hech kim ko‘rmagan va Hazrati oliylari, zamon Bilqisi Gavharshod- Og‘o, uning ma’sumligi abadiy bo‘lsin, buni tasavvur qilib bo‘lmas jihatda uyushtirdi» ***[2: 250]*** deb yozgan edi, zamon muarrixlaridan biri. Muhammad Jo‘qiy Chingiziylarga kuyov bo‘lgani bilan manbalarda «ko‘ragon» unvoni bilan tilga olinmaydi, aslida Shohrux Mirzo ham bu unvonni olmagan edi ***[22:76]***. Muhammadxon yuborgan odamlar 1419-yil 18-noyabrida qaytishga ijozat olib, Mo‘g‘ulistonga qaytishadi. Qora Yusufdek (1406-1420) dushman bilan kurashga kirishdan avval mamlakatda tinchlikni ta’minlash suv va havo kabi zarur

edi. Bu qarindoshlik rishtalaridan ham shu maqsad ko‘zlangan, aniqrog‘i saltanatning shimoli-sharqiy va sharqiy chegaralaridan keladigan xavfni bartaraf etish bo‘lgan. Shohrux Mirzo 1420-yilda Iroq va Ozarbayjonga yurish qiladi, bu yurish asnosida poytaxtni boshqarish Muhammad Jo‘qiyga topshiriladi. «Iroq va Ozarbayjon fath etilib amir Qaro Yusuf turkmon daf qilingach va bu xabarlar Xuroson va Movarounnahrga yetgach» ***[4:381]***. Mirzo Ulug‘bek o‘zining Hirotga borishi mushkul ekanligi uchun onasi Gavharshod begimni Movarounnahrga kelishini iltimos qiladi. 16-mart kuni Gavharshod Og‘o yo‘lga tushadi, kichik o‘g‘li Muhammad Jo‘qiy ham unga hamroh bo‘ladi. Ulug‘bek ularni Buxoro yaqinida kutib oladi, 28-29-aprel kunlari ular Samarqandga kelib tushadi. Ulug‘bek ular uchun «Bog‘i Chinor»da ziyofat beradi, podshohona sovg‘a-salomlar, tortiqlar ulashadi, so‘ng esa ularni Raboti Yomga qadar kuzatib borgach, Gavharshod Og‘oning «tamomi mubolag‘a (qattiq zo‘rlash) bilan» ***[12:110]*** ortga qaytadi. Manbalarda Ulug‘bek tomonidan Muhammad Jo‘qiyga alohida hurmat ko‘rsatilgani ta’kidlanadi. Bu tashrifda davomida yana Mo‘g‘uliston ustiga yurish masalasi ko‘ndalang qo‘yiladi. Abdurazzoq Samarqandiyning «shundan so‘ng Mirzo Ulug‘bek Mo‘g‘ulistonga yurish qarorini qat’iylashtirib jumod al-oxirning o‘rtalarida (26—27-iyun, 1420) ko‘p lashkar bilan yo‘lga chiqdi» ***[4:382]*** degan so‘zlaridan bu tashrifning aniq maqsadi ko‘rinib qoladi. 1422-yil 19-avgustida 20 yoshli Muhammad Jo‘qiy Baxt Davlatdan o‘g‘il ko‘radi ***[3:177]***, to‘ng‘ich farzandiga Muhammad Qosim deb ism qo‘yadi. 1423-yilning 29-mayida Muhammad Jo‘qiy yana bir o‘g‘illi bo‘ladi, bu o‘g‘ilga Ali deb ism qo’yishadi, ***[4:457]*** uning onasi Bulg‘on mo‘g‘ul edi. Afsuski bu o‘g‘il uzoq yashamadi, amirzoda Ali 1424-yilning 8-iyunida vafot etadi ***[2:269]*** 1425-yilning oktabrida Ulug‘bek Hirotga tashrif buyuradi, bu tashrifdan maqsad nazarimda Ulug‘bek Mo‘g‘ulistonga qilgan yurishi yuzasidan otasiga shaxsan hisobot topshirish va keyingi rejalar yuzasidan maslahatlashish bo‘lgan. 9-noyabrida Ulug‘bek ukasi Muhammad Jo‘qiy ila Samarqand tomon otlanadi, ular bir haftada Samarqandga yetib boradi. Taassufki, manbalarda Muhammad Jo‘qiyning Movarounnahrga

borishidan nima maqsad ko‘zlangani yozilmaydi, Muhammad Jo‘qiy Shohrux Mirzoning maxsus vakili sifatida viloyatdagi vaziyatni o‘rgangani ehtimoldan holi emas, undan tashqari bu kabi tez-tez bo‘lib turadigan «bordi-keldi»lar Ulug‘bek va Muhammad Jo‘qiyning hammaslak bo‘lganligiga ishora qiladi. Muhammad Jo‘qiy 1426-yilning 8-mayida Hirotga yetib keladi. 1423-yilda Ulug‘bek yordami bilan Oltin O‘rda taxtiga kelgan Baroqxon 1426-yilga kelib, Sirdaryoning quyi oqimidan to Sig‘noq atroflarigacha bo‘lgan yerlarga ***[15:12]*** da’vo qila boshlaydi. Shohrux Mirzo Ulug‘bekka urushni ta’qiqlagan bo‘lsa-da, lekin Shohrux Mirzo Ulug‘bekning harbiy salohiyatiga u qadar ishonmagan ko‘rinadi, shu sababdan 1427-yilning 15-fevralida Movarounnahrga harbiy sohada anchayin layoqatli bo‘lgan Jo‘qiy boshchiligida qo‘shin yuboradi. Son jihatdan Temuriy o‘rdu ustun esa-da, biroq Ulug‘bek va Muhammad Jo‘qiy boshchiligidagi qo‘shin kutilmagan sur’atda mag‘lubiyatga uchraydi, bu mag‘lubiyat Ulug‘bekka qimmatga tushdi. Ulug‘bek Baroqxon ustiga qayta yurishga tayyorgarlik ko‘rishni boshlaydi, biroq Jo‘qiy og‘ir betob bo‘lib qoladi va uni Samarqandda qoldirib ketadi ***[11:86]***. 1427-yilning 18-oktabrida Muhammad Jo‘qiy Baxt Davlat Og‘odan yana bir o‘g‘il ko‘radi, bu o‘g‘liga Abu Bakr deb ism qo‘yishadi. Shohrux bundan xabar topgach, xursand bo‘lib, bazm tuzishga ishorat qiladi. Gavharshodbegim, Boysung‘ur va arkoni davlat tabriklash marosimlarini ado etadi, Muhammad Jo‘qiy esa o‘g‘li sharafiga ketma-ket to‘y beradi. 1429-yil Shohrux Ozarbayjonga ikkinchi yurishini boshlaydi, 17-19-sentabr kunlari Salmos sahrosida Temuriy va Qoraqo‘yunli(o‘rta asrlarda Old Osiyoda mavjud bo‘lgan davlat) o‘rdusi o‘rtasida savash boshlanadi. Jangda Muhammad Jo‘qiyni bir necha ming otliq qo‘shin bilan markaziy qismga yaqin yerga qo‘ydi. Uni qaysi tomon yordamga ehtiyoj sezsa, o‘sha yoqqa zudlik bilan yetib borishini ta’minlaydi ***[6:425]***. Mag‘lub bo‘lgan Iskandar (1420-1429;1431-1435) quvish uchun Mirzo Shohrux Muhammad Jo‘qiy yoniga ba’zi beklar va qo‘shin qo‘shib yuboradi. Uni Mush sahrosigacha quvib boradi, biroq tutolmay ortga qaytadi. 1430-yilning 5-mayida Shohrux Ozarbayjondan Xurosonga qarab yo‘lga chiqadi. 9-iyunda Sultoniyaga kelib tushadi, Sultoniyada turar ekan,

Iskandarning daragi keladi, Mirzo Shohrux o‘g‘li Muhammad Jo‘qiyni yana Iskandar ustiga yuboradi, o‘rdu to‘satdan Iskandar o‘rdusiga duch keladi, Iskandar esa oyoqyalang holda, uzangisiz otga minib qochish yo‘lini tutdi.Temuriy o‘rdu Iskandarning yuklarini talon etib, yana ortiga qaytadi ***[16:132]***. 1433-yilda Shohrux Jo‘qiyga Garmser va Afg‘on viloyati hokimligini in’om qiladi ***[5:43]***. 1433-yilning 20-dekabrida Boysung‘ur mirzo Hirotda vafot etadi, akasining vafoti xabarini eshitgan Jo‘qiy mirzo Hirotga keladi, u akasining vafotidan chuqur qayg‘uga tushib qolgan edi, chunki Boysung‘ur va Jo‘qiy maslakdosh, shu bilan birga juda yaqin edi, buni muarrix so‘zlari ham buni tasdiqlaydi «u(Boysung‘ur vafotidan) shu qadar kuyinib o‘rtandiki, u hayot kiyimidan ajralib, mamot libosiga uraladi, degan xavf tutildi. Hazrat xoqoni sa’id(Shohrux) davlatmand farzandga podshohona va’zlaru xusravona nasihatlar bilan taskin va tasalli berdi» ***[5:43]*** 1434-yilning noyabrida Shohrux Ozarbayjon sari uchinchi yurishni boshlaydi. 1435-yilning bahorida Shohrux Muhammad Jo‘qiy va shirvonshoh Xalilullohni ilg‘or tarzda qoraqo‘yunli Iskandar ustiga qo‘shin tortishga buyuradi ***[17:77]***. Temuriylar ila jang qilishga ko‘zi yetmagan Iskandar Onado‘liga qochadi, buni eshitgan Shohrux Muhammad Jo‘qiy va amirlardan Yusuf xoja, amir Seydi, Muhammad Miram, Bobo Hoji va 60 ming suvoriyni ***[16:139]*** qoraqo‘yununli Iskandarning ortidan yuboradi. Bu bilan qanoatlanmagan Shohrux Oqqo‘yunlilar (o‘rta asrlarda O‘rta Sharqda mavjud bo‘lgan davlat) hukmdori Qora Usmonga(1403-1435) xabarchi orqali Iskandarni yo‘lini tusishni buyuradi, Arzirum (hozirgi Turkiyaning shimoli-sharqi) yonida Qora Usmon va Iskandar o‘rtasida to‘qnashuv bo‘ladi, qattiq to‘qnashuvda Qora Usmon otdan yiqilib, boshidan yaralanadi ***[16:140].*** Jangda Oqqo‘yunlilar yengiladi va yaralangan Qora Usmonni Arzirumga olib keladi va u shu yerda vafot etadi.(1435-yil avgust) ***[16:140]*** Iskandar Arzirumga zafar bilan kirib keladi, biroq Muhammad Jo‘qiy yaqinlashganini eshitgach, u bilan to‘qnashishga jur’at etolmay Onado‘liga qochadi. E’tiborli tomoni Shohrux Mirzo Ozarbayjon ustiga qilingan ikki yurish davomida ham Iskandarni quvish va tutib keltirish uchun kenja o‘g‘li Jo‘qiyni

tayin qiladi, yana qiziq tomoni ikki marotabada ham Iskandar shahzoda bilan to‘qnashishga jur’at qilolmaydi. Ibn Arabshoh bu xususida «Jo‘qiy, qaysiki u Qora Yusuf o‘g‘li Iskandarga qarshi yurish qilgan va Qorayluk(Usmon) o‘lgandan keyin uni(Iskandar) mayda-mayda qildi. Bu voqealar 839-yil (1435-yil iyul-1436-yil iyun)da bo‘lib, uning o‘zi shu yilning oxirlarida vafot topdi» ***[18:412]*** deb yozadi. Ibn Arabshohning Jo‘qiy Mirzoni hijriy 839-yilning oxirlarida vafot etishi xususidagi bilgisi g‘alizdir. Ibn Arabshoh nimaga asoslanib, bunday yozganligi noma’lum, ehtimol boshqa kishi ila adashtirib yuborgan. Temuriy o‘rduga yo‘l davomida Qora Usmonning o‘g‘li Alibek aksar mulozimlari bilan qo‘shiladi. Muhammad Jo‘qiy esa uni bir guruh amirlar bilan birgalikda Iskandarning izidan yo‘llaydi. Alibek boshchiligidagi qo‘shin Qoyluhisar(Turkiyaning Sivas viloyatini shimolida)da to‘qnashadi. Savashda Iskandar mulozimlarining bir qismi qatl etiladi, uning o‘rdusi talon-taroj qilinadi, Iskandarning o‘zi esa o‘z sonli qo‘shin bilan Rum sari qochib qoladi. Qo‘shin Arzinjonga qaytadi. Arzinjonda to‘xtab, dam olayotgan shahzoda Muhammad Jo‘qiy Arzinjon hokimligiga Qora Usmonning o‘g‘li Yaqubbekni tayinlaydi. Oqqo‘yunlilar bu vaqtda Temuriylarga qaram bo‘lib, buni Jo‘qiy tomonidan Alibekni (1435-1438} Oqqo‘yunli ulusi hukmdorligiga tayin qilinishi va unga oltin qilich, kamar taqdim etilishi buni isbotlaydi ***[16:141]***. Bu yurish davomida Muhammad Jo‘qiy uzoqni ko‘ra biladigan yaxshigina siyosatchi ekanini namoyish qiladi, 1435-yilning 5-oktabrida Arzinjon shahrida Muhammad Jo‘qiy va Qora Usmonning qizi bo‘lmish Toj al-islomni ***[3:177]*** nikoh to‘yi bo‘ladi. Bu nikohda ko‘proq siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib, temuriy va oqqo‘yunlilar aloqalarini yanada yaqinlashtirar, Temuriylar Oqqo‘yunlilarni qo‘llashda davom etishini bildirar edi. Masalani yana bir tomoni shundaki, bu vaqtda Temuriylar va Misr aloqalari taranglashgan bo‘lib, Shohrux va Barsboyning (1421-1438) murosasi bir-biriga to‘g‘ri kelmasdi. Temuriylar va oqqo‘yunlilar o‘rtasidagi bu yaqinlashuv Misr sultoniga tahdid ham edi. Ozarbayjonga uchinchi yurish, Mirzo Shohruxning Usmonli sultoni, Oqqo‘yunli hukmdori, Zulg‘adir va Kermon amirlariga sarpo yuborishi ***[21:119]*** va

oqqo‘yunlilar bilan aloqalarning yangi bosqichga ko‘tarilishi Misr sultoni taraddudlantirib qo‘yadi, shu sababdan u harbiy tayyorgarlikni kuchaytiradi. Bu nikoh xabari Shohrux Mirzoga yetgach o‘g‘liga ko‘p tahsinlar aytadi. Shunday qilib, Jo‘qiy 1409-1410-yillarda bir vaqtlar qudratli bo‘lgan Oltin O‘rdaning g‘ayratli va qudratli amiri Idikuga, Mo‘g‘ulistonning sobiq hukmdori Muhammadxonga, endi esa Oqqo‘yunlilarga kuyov bo’lgan edi. Balki, shu sababdan ham Shohrux kenja o‘g‘lini valiahd bo‘lishini istagandir, biroq Jo‘qiyning iqtidorli ekanini ham inkor qilib bo‘lmaydi. Iskandarning xabari eshitilmay qolgach, Shohrux o‘z o‘g‘lini o‘rduga qaytishga buyruq beradi. O‘g‘li yetib kelishi bilan Shohrux Qorabog‘ sari yuradi va 1435-yilning 12-noyabrida Qorabog‘ning Para Kurash mavzesida qishlashga farmon beradi ***[5:59]***. 1437-yil (9-mart- 7-aprel oralig‘i) Muhammad Jo‘qiy devonida amir ul-umaro bo‘lib xizmat qiladigan amir Alouddin Ali Sulton vafot etadi ***[5:64]***. U Jaloluddin Feruzshohning o‘g‘li edi. Ehtimolki, bu amirni Gavharshod Og‘o atayin Jo‘qiyning har bir qadamini o‘lchash uchun uning devoniga qo‘ygan bo‘lishi mumkin, chunki Feruzshoh malikaga tayanardi,ona va bolaning munosabatlari esa yaxshi emas edi. 1438-yilning 25-sentabrida Shohrux Mirzo Mashhad ziyoratiga otlanadi. Muhammad Jo‘qiy, Alouddavla, Alika ko‘kaltosh Hirotda qoladi. 9-oktabrda Jo‘qiy Samarqandga otlanadi. Alouddavla Astrobod qishloviga, amir Alika esa Marvga yuzlanadi ***[5:79]***. Manbalarda Muhammad Jo‘qiyning Samarqandga nima sababdan borganligi, uni qanday kutib olingani haqida yozilmaydi, lekin shu yili Ulug‘bek Hirotga o‘z odamini yuborib, 1419-yilda Gavharshod Og‘o‘tomonidan Hirotga chaqirtirib olingan qizi Xonzoda begimni (asl ismi Hasiba Sulton bo‘lib, Xonzoda laqabi edi.) Samarqandga yuborishni iltimos qiladi ***[5:82]***. Gavharshod Og‘o Hasiba sultonni zo‘r ehtirom bilan Samarqandga jo‘natib yuboradi, Samarqandda ham malikani yaxshi kutib olishadi, Ulug‘bek unga nima lozim esa, barchasini muhayyo qiladi. 1438-yilning 18-aprelida malika Samarqanddan Hirotga qaytib keladi ***[2:299]***. Balki shahzoda Movarounnahrdagi vaziyatni o‘rgangani borgan bo‘lishi mumkin, oxirgi yillarda Hirot va Samarqand orasidagi

марказий ҳудудларига нисбатан сиёсий таъсири жуда қисқа муддат – 1360 йилнинг ёзидан 1361 йилнинг баҳорига қадар содир бўлган.

1360, 1361 йилларда Мўғулистон ҳукмдори Тўғлуқ Темурхон Мовароуннаҳрга бостириб кирганда ҳар икки сафар ҳам унга биринчи бўлиб, амир Боязид пешвоз чиқади. Бу маълумот ҳам Мовароуннаҳрнинг шарқий чегараларида Хўжанд вилоятидан бошқа йирик маъмурий бирлик бўлмаганлигини кўрсатади.

Шу ўринда амир Боязид жалойирнинг таъсири кучайгунга қадар Фарғона водийсида мавжуд бўлган вазиятга ҳам ойдинлик киритиб ўтиш зарур. XIV асрнинг 40 йилларида Фарғона водийсининг шарқий қисмлари Мўғулистон таркибига кирган эди. Б. Аҳмедов Мўғулистон улуси таркибида бўлган ҳудудлар қаторида Фарғонанинг шарқий қисмини ҳам санаб ўтади ***[8:170]***. Муаррихлардан бири Мирзо Ҳайдар “Тарихий Рашидий” асарида Мўғулистон давлатининг асосчиси бўлган дуғлат қабиласига қарашли шаҳарлар ҳақида сўз юритар экан, Косон, Ахси, Андижон ва Ўзганд шаҳарларини қайд этиши ҳам юқоридаги фикрни тасдиқлайди ***[9: 26].*** Нумизматик материаллар эса бу масалага аниқлик киритишга ёрдам беради. Мовароуннаҳрда Амир Қазаған томонидан тахтга ўтказилган Баёнқулихон номи қайд этилган тангаларнинг XIV аср ўрталарида Марғилонда зарб этилганлиги ***[10: 170-171]*** бу шаҳар Чиғатой улусининг ғарбий қисми таркибига кирганлигини кўрсатади. Нумизматик материалларни ёзма манбалар билан солиштириш Фарғона водийсининг маъмурий-ҳудудий чегараланиши, яъни XIV асрнинг 40-йилларида водийнинг ғарбий қисмидаги Хўжанд ва Марғилон шаҳарлари Мовароуннаҳр давлати, Ахси ва Андижон шаҳарлари жойлашган шарқий қисми эса, Мўғулистон таркибига кирганлигини асослайди.

1360 йили Мовароуннаҳрга Чиғатой улусини қайта тиклаш баҳонаси билан Мўғулистон хони Тўғлуқ Темурхон бостириб кирди. Унга биринчи бўлиб амир Боязид таслим бўлди. Ушбу воқеа манбаларда бир-бирига жуда

ўхшаш тарзда тасвирланган бўлса-да, улар орасида бироз фарқлар мавжуд. Низомиддин Шомий “Самарқанддан икки манзил беридаги Чоноқ Булоқга етди. Ўзининг амирлари ва давлат арбоблари билан жонқий (кенгаш) ва маслаҳат ўтказганидан кейин Кероийт қабиласидан Тўқ Темур, амир Ҳожи Эркунитий, амир Бекижакларга Мовароуннаҳр томон боришни тайинлади. Уларга Боязид жалойирга тобеъ бўлишни буюрди. Амирлар хоннинг ишоратини қабул қилиб, йўлга тушдилар. Хўжанд чегарасига етишганда, амир Боязид жалойир уларга эл бўлиб, ўзининг мукаммал лашкари билан қўшилди ва Шаҳрисабз томон равона бўлдилар”, – деб маълумот беради. Шарафуддин Али Яздий эса “Туғлуқ Темурхон Хўжанд суви яқинида Тошкент чўлида жойлашган Чаноқбулоқ мавзесига етгач, амирлар ва аркони давлат билан кенгаш қилиб, каройит ўмоқидин Улуғ Тўқа Темур, арканўт ўмоқидан Ҳожибек ва қонғли ўмоқидан Бикижак манғлой тарзида олдинда боришларини маъқул кўрдилар. Ҳар учала амир фармонга мувофиқ олдинда юрдилар. Хўжанд сувидан ўткандан сўнг, амир Боязид жалойир итоат қадамини сулҳ йўлига қўйди ва ўз қавми билан уларга келиб қўшилди. Улар биргаликда Шаҳрисабз томон юзландилар”, – деб ёзади. Муиниддин Натанзий амир Боязиднинг хонга таслим бўлганлиги, йўл бошловчи сифатида мўғулларни Самарқанд ва Шаҳрисабз устига бошлаб келганлигини таъкидлайди. Абдураззоқ Самарқандий амир Боязидни Чаноқ Булоққа бориб хон лашкарига қўшилганини ва сўнгра Мовароуннаҳрни забт этишга юборилганлигини маълум қилади. Мирхонд ҳам Чаноқ Булоқ кенгаши ва Мовароуннаҳрга жўнатилган уч мўғул амири ҳамда уларга амир Боязиднинг қўшилиши ҳақида сўз юритади ***[11: 14]***. Хондамир эса уч амир дарёдан ўтгач, амир Боязид таслим бўлганлигини қайд этган ***[12: 39]***.

Бир қатор илмий адабиётларда бу масала ёритилмаган бўлса, Б.Аҳмедов Боязид жалойирни тўғридан-тўғри мўғуллар томонига ўтиб кетганлигини таъкидлайди.

Манбалардаги маълумотлар таҳлили эса қуйидаги мулоҳазаларни билдириш имконини беради. Тўғлуқ Темурхон манғлой қилиб юборган уч амир қўшини Сирдарёдан ўтгач, Боязид жалойир мўғуллар лашкарига бориб қўшилган. Бу эса унинг Чаноқ Булоқдаги кенгашда қатнашмаганлигини кўрсатади. Боязид жалойир ўз ҳокимлигини сақлаб қолиш мақсадида ўта эҳтиёткорлик билан иш тутиб, элчи орқали Туғлуқ Темурхонга бўйсуниш учун тайёрлигини билдирган. Аслида эса Хўжанддан чиқмай, Мовароуннаҳр марказидаги амирларнинг қандай ҳаракат қилишларини кутган. Чунки унинг бир ўзи душманга қаршилик қила олмаслиги аниқ эди. Амир Ҳожи барлос, амир Баён сулдуз, амир Ҳусайн ва бошқа амирлардан ёрдам келмаслиги аён бўлгач, Туғлуқ Темурхон лашкари Сирдарёдан ўтиб, Хўжандга яқинлашганида Боязид жалойир ўз ихтиёридаги қўшини билан мўғулларга бориб қўшилди. Туғлуқ Темурхон Мовароуннаҳрнинг бошқа амирлари ишончига эришиш, уларни ҳам ўз томонига оғдириш учун амир Боязидни яхши кутиб олди. Уни Яздий ва Натанзийлар берган маълумотга кўра, мўғул лашкарига йўл бошловчи, Шомийнинг таъкидлашича, Туғлуқ Темурхон лашкарининг манғлой қисмидаги амирлар устидан раҳбар этиб тайинлаган.

1360 йили Мовароуннаҳрнинг кўпгина вилоятлари каби Фарғона водийси ҳам мўғул хони Тўғлуқ Темурхон қўли остига ўтган.

Мўғул амирлари ўртасида келиб чиққан низо натижасида Жета лашкари ортга қайтгач, Мовароуннаҳр амирлари яна ўз вилоятларини эркин бошқара бошлайдилар. Амир Боязид жалойир мўғуллардан ажраб чиқиб, Амир Темур ва Хизр ясовурийга келиб қўшилди. 1360 йилнинг ёзига келиб, мўғул босқини хавфининг кескин камайиши Мовароуннаҳр амирлари ўртасида ўзаро урушларнинг бошланишига сабаб бўлди. Амир Ҳусайн Баён сулдузга қарши курашиш учун Темур, Боязид жалойир ва Хизр ясовурийдан кўмак сўрайди. Фасиҳ Хавофий Амир Ҳусайн Баён сулдузга қарши курашда Амир Темур ва Хизр ясовурийдан, Хондамир эса Амир Темур ва Боязид жалойирдан ёрдам сўралганлигини қайд этади. Амирлар ўзаро келишиб,

Боязид жалойир мўғул қўшинини кузатиб туриш учун Хўжандга қайтишини, қолган икки амир эса Ҳусайнга ёрдамга боришларини маъқул кўрган. Чиндан ҳам Туғлуқ Темурхон катта лашкар билан Хўжанд яқинида турган вақтда Боязид жалойирни ўзига қарашли ҳудудда бўлиши ҳар жиҳатдан тўғри эди. Низомиддин Шомий амир Боязид жалойир Туғлуқ Темурхонга шахсан учрашиш мақсадида йўлга чиққанлигини таъкидлайди. Лекин Боязид жалойир Хўжандга етиб келган пайтда мўғул амирлари ўртасидаги низо кучайиб, Тўғлуқ Темурхон Мўғулистонга қайтиб кетган эди.

1360 йилнинг ёзи ва кузида бўлиб ўтган воқеалар амир Боязид жалойирнинг Мовароуннаҳрдаги мавқеини ўсишига сабаб бўлди. Сулдуз қабиласи амирларидан бири Туғлуқ сулдуз амир Ҳусайнга қарши исён кўтарди. Амир Ҳусайн бу гал Туғлуқ сулдузга қарши курашда яна Амир Темур ва Хизр ясовурийдан ёрдам сўради. Шарафуддин Али Яздий Амир Темур Хизр ясовурий ва Боязид жалойирга ушбу воқеа тўғрисида хабар берганлигини, Хизр Ясовурий ёрдамга етиб келганлигини таъкидлайди. Низомиддин Шомий эса Туғлуқ сулдузнинг исёни масаласида амир Боязид ҳақида умуман сўз юритмаган. Бу борада Муиниддин Натанзийнинг маълумотлари аҳамиятлидир. У Туғлуқ сулдуз Боязид жалойир билан тил бириктириб, амир Ҳусайнга қарши исён кўтарганлигини таъкидлайди. Воқеалар таҳлили муаррихнинг маълумотлари тарихий ҳақиқатга яқинлигини кўрсатади. Шарафуддин Али Яздий Амир Темур томонидан хабар берилган бўлса ҳам амир Боязид бу низога аралашмаганлигини таъкидлайди. Аксинча, у Мовароуннаҳрга қайтган Ҳожи барлос билан иттифоқ тузди ва Туғлуқ сулдузга қарши қўшин тортган Хизр ясовурий мулкларига ҳужум қилишни режалаштирди. Ҳожи барлос амир Боязиднинг ёрдамида ўз лашкарини қайта тузишга эришди. Гарчи Натанзий бу икки амир томонидан амир Ҳусайнга қарши юриш қилганлиги қайд этилса-да, аслида улар Ҳусайннинг иттифоқчиси бўлган Хизр ясовурийга қарши юриш бошлаган эдилар. Ҳожи Барлоснинг асл нияти Боязид ёрдамида Кеш

вилоятини Амир Темурдан қайтариб олиш бўлса, Боязиднинг мақсади Самарқанд шаҳрини эгаллаш эди. Самарқанд ҳокими Баён сулдуз Мўғулистон хони Тўғлуқ Темурхон қўшинидан қўрқиб, Ҳисорга қочган, кейинчалик эса Ҳусайн билан ўрталарида низо чиқиб, Ҳусайннинг иттифоқдошлари Хизр ясовурий ва Амир Темур томонидан тор-мор келтирилган. Натижада Самарқанд атрофи тўлиқ Хизр ясовурийнинг тасарруфига ўтган. Боязид жалойир Туғлуқ сулдузнинг амир Ҳусайнга қарши кўтарган исёнидан фойдаланиб, амир Ҳусайннинг иттифоқдоши Хизр ясовурий мулкларини қўлга киритади.

Кеш яқинидаги Оқ Ёрда Амир Темур ва Хизр қўшинлари мағлуб этилган Ҳожи барлос амир Боязид ҳузурига қочиб борган. Уни таъқиб этиб Самарқанга яқинлашаётган Амир Темур қўшини кутилмаганда парокандаликка учрайди. Унинг хизматидаги навкарлар бирин кетин Ҳожи барлос лашкари сафига бориб қўшилади. Натижада Амир Темур ва Хизр ясовурий ўртасида ишончсизлик пайдо бўлган. Шундан сўнг Амир Темур ҳам Боязид ва Ҳожи барлосга бориб қўшилишга мажбур бўлди. Охир-оқибат Хизр ясовурий мағлубиятга учрайди ва Кеш вилояти Ҳожи барлосга бошқарувига қайтган.

Шарафуддин Али Яздий ва Низомиддин Шомий ушбу воқеалардан сўнг амир Боязид жалойирнинг ҳукумат тахтига ўтирганлигини таъкидлайди. Бу аслида муболаға бўлса-да, амир Боязиднинг нуфузи бир мунча ошганлигини кўрсатади. Муиниддин Натанзий уни “Жанд мамоликида худди улуғ амирлардек (мустақил) ҳукмдор бўлди”, – деб ёзади. Ғулом Каримийнинг фикрича, Натанзий Жанд ҳақида сўз юритганида Хўжанд шаҳрини назарда тутган. Бу ҳам унинг аслида Хўжандда қолганлигини кўрсатади. Манбалардаги маълумотлардан кўриниб турибдики, ушбу воқеалардан сўнг амир Боязид жалойирнинг Мовароуннаҳрдаги таъсири кучайган. Шу ўринда таъкидлаш жоизки, унинг таъсири фақат

Мовароуннаҳрнинг шарқий ҳудудларда эътироф этилган бўлиб, марказий ва жанубий вилоятларда амир Ҳусайннинг мавқейи кучли эди.

1361 йилнинг март ойида яна Мўғулистон хони Тўғлуқ Темурхон Мовароуннаҳрга бостириб кирди. У катта қўшин билан Сирдарёдан ўтиб, Хўжанд шаҳрига етиб келгач, амир Боязид жалойир яна хон хизматига ўтди. Мовароуннаҳрнинг йирик амирларидан амир Баён сулдуз ва Ҳожи барлос ҳам хонга таслим бўлишга қарор қилдилар. Лекин Тўғлуқ Темурхон ўз хизматига кирган амирларга ишонч билдирмади. Уларни кўп ўтмай қатл эттирди. Аввал амир Боязид жалойир, сўнгра амир Баён сулдуз хон фармонига кўра ўлдирилди ***[11:105].*** Яна бир йирик амир Ҳожи барлос эса Туғлуқ Темурхондан қочиб қутулса-да, Хуросонда бир гуруҳ фитначилар томонидан ўлдирилди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Атаходжаев А.М. Чиғатой улусидаги сиёсий вазият ва Амир Темурнинг ҳокимиятга келиши. // Амир Темур даврида Мовароуннаҳр. – Б.13-14

2. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи садъайн ва мажмаи бахрайн. Қўлёзма. عبدالرزاق سمرقندوی مطلع السعدین و مجمع البحرین АҚШнинг Мичиган университети кутубхонасидан олинган электрон нусха.

3. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996

4. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.

5. Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи - Ғулом Каримий - Т.: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.

6. Ахмедов Б. Международное положение Мавераннахра во второй половине XIV века. Общественные науки в Узбекистане. 1996. № 7-10. – С. 52-53;

7. История Узбекистана. Эпоха Амира Темура и Темуридов. / Отв. Редакторы: Э.В.Ртвеладзе, Д.А.Алимова. – Т.: Фан, 2017. – 568 б.

8. Аҳмедов Б. Чингизхон ва унинг ворислари даврида Марказий Осиё. // Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Б. 170.

9. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А. Урунбаева, Р.П. Джалиловой, Л.М. Епифановой, примечания и указатели Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой – Т.: Фан, 1996. – 727 с.

10. Тўхтаев И. Темур ва Темурийлар сулоласининг тангалари – Т.: Фан, 1992. – 44 б

11. Мирхонд. Равзат ал-сафо фи сийрат ал-анбиё вал мулук вал хулофо. Қўлёзма. میرخواند ورالصفا فئ سئره الانبیائ و الملوک و الخلفا АҚШнинг Мичиган университети кутубхонасидан олинган электрон нусха .

12. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазраткулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.

13. Usmonov B. ABOUT THE DATE OF THE FIRST AND SECOND MONGOLIAN WALKS OF AMIR TIMUR //Конференции. – 2021.

14. Usmonov, B. "Ferghana in 70 years of XV century." *Scientific journal of the Fergana State University* 2.1 (2019): 39-42.

15. Usmonov, B. "Horticulture in Fergana in the Temurid's period." *Scientific Journal Of The Fergana State University* 2.4 (2019): 73-75.

16. Usmonov, Bahriddin Ahmedovich. "A Study of Political Processes in the Fergana Valley In 1371-1376." *Design Engineering* (2021): 6174-6187.

МИРЗО ИСКАНДАРНИНГ ШАРҚИЙ ТУРКИСТОН ЮРИШИНИ ЁЗМА МАНБАЛАРДА ЁРИТИЛИШИ ҲАҚИДА

Аҳмаджонов Мухторжон Таваккал ўғли
ФарДУ магистранти

Аннотация: *Мақолада Фарғона водийси ҳокими Мирзо Искандарнинг Шарқий Туркистон юришининг тарихий манбаларда ёритилиши ҳолати таҳлил этилган. Унда мазкур ҳарбий юриш ҳақида баъзи манбаларда сўз юритилмагани ҳолда, бошқа манбаларда батафсил баён этилишининг сабаблари изоҳланган*

Калит сўз ва иборалар: *Амир Темур, Мирзо Умаршайх, Мирзо Искандар, тарихий манба, Фарғона, Кошғар, Ёркент, Торим, Шомий, Яздий, Натанзий, Ҳофизи Абру, Абдураззоқ Самарқандий.*

Аннотация: *В статье анализируется освещение Восточно-Туркестанского похода правителя Ферганской долины Мирзо Искандара в исторических источниках. Объясняются причины, по которым в одних источниках эта военная кампания не упоминается, а в других подробно описывается.*

Ключевые слова и фразы: *Амир Темур, Мирзо Умаршайх, Мирзо Искандар, исторический источник, Фергана, Кошгар, Ёркент, Торим, Шами, Язди, Натанзи, Хафизи Абру, Абдураззок Самарканди.*

Annotation: *The article analyzes the coverage of the East Turkestan campaign of Fergana Valley governor Mirzo Iskandar in historical sources. It explains the reasons why this military campaign is not mentioned in some sources, while other sources describe it in detail.*

Key words and phrases: *Amir Temur, Mirzo Umarshaikh, Mirzo Iskandar, historical source, Fergana, Koshgar, Yorkent, Torim, Shami, Yazdi, Natanzi, Hafizi Abru, Abdurazzoq Samarkandi.*

Искандар мирзонинг Шарқий Туркистонга қилган ҳарбий юриши ҳақида турлича қарашлар мавжуд. Тарихий манбалардаги баъзи маълумотлар бу ҳар юриш ҳам сепаратистик ҳаракатлардан бири бўлганлигидан далолат беради.

Бундай фикрлашимизнинг сабабларидан бири тарихий манбалардан мазкур юриш ҳақижа маълумотларнинг кўп учрамаслигидир. Мисол учун Низомиддин Шомий бу воқеа ҳақида маълумот берар экан “амирзода Умаршайх баҳодирнинг ўғли амирзода Искандар баҳодир кичик ёшли бўлишига қарамай Мўғулистон томон лашкар тортиб бориб, ҳақ таоло унга

нусрат ва зафар ато этганлиги, душман аскарини мағлуб ва мақҳур қилиб падари бузургворининг мамлакатини забт этганлиги” сўзлари билан чекланган ***[1:278]***. Бу келтирилган парчадан кўринадики, Низомиддин Шомий мазкур юриш ҳақида оз ва жуда умумий маълумот қолдирган. Ҳарбий юришнинг ғалаба билан якунланганлигини қайд этган бўлса-да, ўзининг асарида бу ғолибона юришнинг тафсилотларини келтиришни лозим топмаган. Ҳарбий юришдан сўнг мирзо Искандарнинг ҳибсга олиниши, унинг яқин маслаҳатчилари ва навкарларининг қатл этилиши ҳақида эса умуман сўз юритмаган. Асар Амир Темур ҳаётлиги вақтида ёзилганлигини эътиборга оладиган бўлсак, бу балки тушунуш мумкиндир. Чунки асар ёзилган вақтда мирзор Искандар кечиррилган ва у усмонли туркларга қарши юришда фаол иштирок этган эди. Қолаверса, бу кўнгизсиз ҳодисани амир темур ҳам тарих саҳифаларига киришини ҳоҳламаган бўлиши мумкин.

Фасиҳ Ҳавофий ўзининг солномасида Мўғулистон юриши ҳақида сўз юритмаса-да, Мирзо Искандарнинг ҳибсга олиниши ва унинг отабеги, 26 нафар хос навкарининг қатл этилганлигини қайд этган ***[2:120]***. Мазкур асар Амир Темур вафотидан кейин ёзилган. Шу ўринда мазкур асар тўғрисидаги маълумотларга тўхталиб ўтсак. Фасиҳ Хавофийнинг “Мужмали Фасиҳий” асари Амир Темур ва темурийлар даври тарихини ўрганишдаги муҳим манбалардан биридир. Ўзининг қисқа ва аниқ фактик маълумотларга бойлиги билан ажралиб турувчи ушбу асар ҳамда унинг муаллифи ҳақида манбашунослигимизда бир қатор тадқиқотлар яратилган. Фасиҳ Аҳмад ибн Жалолуддин Муҳаммад Хавофийнинг (1375 йилда таваллуд топган) асари умумий тарих типида ёзилган. Унда мусулмон Шарқида энг қадимги замонлардан 1442 йилга қадар кечган тарихий воқеалар, таниқли сиёсий арбоблар, олимлар ва шоирларнинг таржимайи ҳолига доир хронологик маълумотлар келтирилади.

Фасиҳ Аҳмад Хавофийнинг таржимайи ҳолига оид маълумотлар кам. Маълумотларга қараганда у Ҳиротда таввалуд топган ва фаолияти ҳам

асосан шу шаҳарда кечган. Темурий ҳукмдорлардан Шоҳрух мирзо ва унинг ўғли Бойсунқур мирзо саройида девон ва турли молия идораларида хизмат қилган. Манбаларда таъкидланишича, 1432-1442 йиллар давомида у сарой хизматидан четлаштирилган. Айнан шу даврда умри давомида тўплаган маълумотлари асосида ўз асарини яратганлигини тахмин қилиш мумкин. Фасиҳ Хавофий 1442 йил 6 майда Шоҳрух мирзо қабулига кириш шарафига эришади ва кўплаб олимлар фикрича, шу учрашувда муаллиф ўз асарини ҳукмдорга тақдим этади. Шоҳруҳ мирзога тақдим этилган асарда унинг тахт учун курашдаги рақибларидан бири бўлган Мирзо Искандарнинг ҳибсга олиниши ва яқинларининг қатл этилиши воқеасини акс этишини тушуниш мумкин, деб ўйлаймиз

Хондамир ҳам Низомиддин Шомий каби Мирзо Искандарнинг Мўғулистон юриши ғалаба билан якунланганлигини таъкидлаш билан кифояланган ***[3:197]***. Хондамир ўз асарини ушбу воқеалар бўлиб ўтганидан 100 йилча кейин баён этган. Унда воқеаларни батафсил баён этиш учун ҳеч қандай сиёсий тўсиқ мавжуд эмас эди. Лекин у ўз асарининг ҳажмидан келиб чиқиб, Мирзо Искандарнинг Шарқий Туркистон юриши ҳақида сўз юритишни лозим топмаган бўлиши мумкин.

Муиниддин Натанзий эса Фарғона водийсига оид маълумотларни бошқа муаллифларга нисбатан кенгроқ ёритган бўлса ҳам , ушбу юриш ҳақида умуман сўз юритмаган ***[4]***. Муиниддин Натанзий асарининг ёзилиш тарихига эътибор қаратсак, бу ердаги асл муаммони англашимиз осон кечади. Муиниддин Натанзий қаламига мансуб *"Мунтахаб ут-таворих-и Муиний"* китоби Амир Темур тарихига бағишлаб ўзидан аввал ёзилган Ғиёсиддин Али Яздий ва Низомиддин Шомий асарларидан мустақил манбалар асосида ёзилганлиги билан аҳамиятлидир. Асарнинг илмий муомилага киритилган илк қўлёзмасида китобнинг номи ва муаллифи мавжуд бўлмаганлиги сабабли бу ноёб манба "Аноним Искандар" номи билан шуҳрат топди. Илмий адабиётларда асарга ушбу ном академик

В.В.Бартольд томонидан берилганлиги таъкидланади. В.В. Бартольд томонидан олиб борилган кейинги тадқиқотлар натижасида асарнинг Парижда сақланган қўлёзмасида, шунингдек, Давлатшоҳ Самарқандийнинг "Тазкират уш-шуаро" китобида асарнинг номи ва муаллифнинг исми-шарифини келтирилганлиги аниқланди.

Муиниддиннинг нисбасидан келиб чиқиб, Эроннинг Исфаҳон вилоятидаги Натанз шаҳрида таваллуд топганлиги таъкидланади. Давлатшоҳ Самарқандийнинг юқорида таъкидланган асарида қайд этилишига кўра, Муиниддин Натанзий аввал Фарғона вилоятини бошқарган, кейинчалик Форс вилояти ҳокими этиб тайинланган Султон Искандар мирзо саройида хизмат қилган. Амир Темурга набира бўлган мазкур шаҳзода, Умаршайх мирзонинг ўғли эди. Натанзий ўз асарини айнан Искандар мирзонинг топшириғига биноан ёзишга киришган ва ҳижрий 816 (милодий 1413/1414) йилда тамомлаган.

Муиниддин Натанзийнинг ушбу асари умумий тарих шаклида ёзилган бўлиб, Эрон, Олд Осиё, Мовароуннаҳр, Дашти Қипчоқ ҳудудларидаги давлатлар тарихини асар ёзиб тугалланган даврга бўлган тарихини қамраб олган. "Мунтахаб ут-таворих-и Муиний" асарининг сўнгги қисмлари Ўрта Осиёнинг XV аср тарихини тадқиқ этишда муҳим манба бўлиб хизмат қилади.

Муаллиф 1399-1400 йиллари Фарғона ҳокими бўлган Мирзо Искандар ва унинг отаси, 1376-1393 йиллари водийни бошқарган Мирзо Умаршайх фаолиятига алоҳида эътибор қаратган. Тадқиқ этилаётган давр тарихига оид асарлар орасида “Мунтахаб ут-таворихи Муиний” асари Фарғона тарихи бўйича энг кўп маълумот бера олувчи манба ҳисобланади. Гарчи Муиниддин Натанзий Фарғона топонимини қўллаган бўлса-да, у ҳам кўплаб муаллифлар қатори водийни кўпроқ Ўзжанд вилояти, Андигон номлари билан атаган. Бошқа асарлардан фарқли равишда ушбу манбада 12 тумандан иборат бўлган Фарғона водийси 1376 йили Мирзо Умаршайхга жулду тариқасида иқтоъ

қилиб берилганлиги алоҳида қайд этилган. Асарда Мирзо Умаршайхнинг Фарғона водийси хавфсизлигига жиддий таҳдид солган Мўғулистон хонлигига қарши олиб борилган юришлардаги иштироки батафсил ёритилган. Шунингдек, Фарғона лашкари билан Мўғулистон ҳукмдори Қамариддин ўртасида 1376 йили бўлиб ўтган жанг тафсилотлари ва жанггоҳ номи, Кошғарнинг эгалланиши, Шарқий Туркистон аҳолисининг бир қисмини водийга кўчирилиши каби муҳим маълумотлар ўз аксини топган.

Муиниддин Натанзий бошқа тарихий манбаларда кам учрамайдиган маълумотлар ўз асарида тақдим этишга ҳаракат қилган. У Амир Темур Ниёзий қишлоғида таваллуд топганлигини таъкидлаган ва Самарқанддаги сарбадорлар қўзғолонини кенг ёритган. "Мунтахаб ут-таворих-и Муиний" кўплаб туркий ҳарбий атамалар келтирилганлиги билан ҳам аҳамиятлидир. Бу ўша давр ҳарбий ишида асосан туркий атамалар қўлланилганлигидан далолат беради. Юқоридагилардан кўриниб турибдики, Муиниддин Натанзий ўз асарини аслида Мирзо Искандарга атаб ёзган ва унинг бу ўзбошимчалик билан амалга оширган ҳарбий юришини, гарчи ғалаба билан якунланган бўлса ҳам ўз китобига киритишга журъат этмаган.

Мирзо Искандарнинг Мўғулистон юриши Шарафуддин Али Яздий, Ҳофизи Абру ва Абдураззоқ Самарқандийлар томонидан нисбатан кенг баён этилган ***[5:225-226; 6: 894-897, 938-939; 7: 255]***.

Шарафуддин Али Яздий бу ҳақида батафсил ҳикоя қилади. “Мундоқ эрмишким, – деб ёзади муаррих, – чун Жета улусининг подшоҳи Хизр Хожа Ўғлон вафот бўлди, ўғлонлари бир-бири била мухолиф бўлуб, эл-улуси паришон бўлуб эрди, амирзода Искандар бу хабарни эшитиб, фурсат ғанимат билиб, бовужуд улким, ўн беш ёшида эрди, Андижон черикини йиғиштуруб, беклари билаким, мулозиматида эрди, мисли Пир Муҳаммад Тағай Буғай Барлос ва Нурак Барлос ва Баён Темур Беккичик Жета ва Пир Ҳожи Малаш ва Шерматким, Баҳман Жониқурбонийнинг ўғли эрди, Мўғулистонға мутаважжиҳ бўлдилар. Ва ул бекларким, ҳукм била Жета сарҳадида ўлтуруб

эрдилар, мисли (Бердибек) ва Пир Муҳаммадбек ва Худойдоди Ҳусайний ва Шамсуддин Аббос ва Довуд Малик Барлос ва Сиддиқ Тобон ва ғайриҳум барча шаҳзодадин хабар билиб, мутаважжиҳ бўлдилар. Шаҳзода Кошғарга етконда беклар келиб қўшулдилар ва иттифоқ била Мўғулистон сори юрубердилар. Ва бориб Ёркентни чоптилар. Ва андин ўтиб Сариққамиш ва Калпин ва Алакўл ва Ёрқўрғон ва Чаҳортоқ ва Куюкбоғ барчани чобтилар. Учда етконда эл-улуским, бор эди, баъзилари тобиъ бўлуб, баъзилари кўчуриб Оқсув йўлидин элттилар. андин Бой ва Кусин сори чопқин йибардилар. Ва Бой йайлоқ эрди ва Кусин – қишлоқ. Амирзоданинг черики Бой ва Кусинни чопиб, Хизршоҳбекнинг ҳарами Малик оға ва қизи Иҳсан Маликни асир эттилар”.

Ҳофизи Абруда ҳам бу юриш ҳақида қизиқарли маълумотлар ўрин олган: “Ушбу фатҳлардан кейин Амирзода Искандар Мўғулистоннинг барча ноҳияларини эгаллашни истади. Амир Худайдод, Шамсиддин Аббос, Бердибек, Довуд Малик барлос ҳамда Сиддиқ Тобон бунга рози бўлмадилар. Ва айтдиларки, бизга ҳазрат Соҳибқирон Чуд мавзеида қишлашимизни буюрган. Босқинчи ҳолда ёғий бўлмоқдамиз”. Бундан кўринадики, Ашпарадан келган амирлар юришни Хўтан томон давом эттиришни исташмаган. Шарқий Туркистоннинг жанубида жойлашган Хўтанга ҳужум қилиш уларни асосий манзилгоҳлари бўлган Ашпарадан узоқлаштириб юборарди. Шундан сўнг юришни Мирзо Искандар фақат ўз ихтиёридаги билан давом эттирган бўлиши мумкин. Чунки кейинги воқеалар баёнида Ашпарадан келган амирларнинг номи манбаларда учрамайди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га

ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996

2. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пер. предис. примеч. и указатели Д. Ю. Юсуповой. – Т.: Фан, 1980. – 346 с.

3. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазраткулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.

4. Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи - Ғулом Каримий - Т.: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.

5. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.

6. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи садъайн ва мажмаи бахрайн. Қўлёзма. عبدالرزاق سمرقندوی مطلع السعدین و مجمع البحرین АҚШнинг Мичиган университети кутубхонасидан олинган электрон нусха.

7. حافظ ابرو. زوبة التواريخ. مقدمة، تصحيح و تعليفات: كمال حاج سيد جوامی. در چهار جلد. تهران، 1380

8. Usmonov B. ABOUT THE DATE OF THE FIRST AND SECOND MONGOLIAN WALKS OF AMIR TIMUR //Конференции. – 2021.

9. Usmonov, B. "Ferghana in 70 years of XV century." *Scientific journal of the Fergana State University* 2.1 (2019): 39-42.

10. Usmonov, B. "Horticulture in Fergana in the Temurid's period." *Scientific Journal Of The Fergana State University* 2.4 (2019): 73-75.

11. Usmonov, Bahriddin Ahmedovich. "A Study of Political Processes in the Fergana Valley In 1371-1376." *Design Engineering* (2021): 6174-6187.

МОВАРОУННАҲРДА ТЕМУРИЙЛАР СУЛОЛАСИНИНГ ИНҚИРОЗИ

Дадабоев Бобур
ФарДУ магистранти

Аннотация: *Мақолада XV аср охири ва XVI аср бошларида Моваруннаҳрда темурийлар давлатининг инқирозга учрашининг сабаблари тарихий манбалар ва илмий тадқиқотлар асосида таҳлил этилган. Таҳлил давомида темурий шаҳзодаларнинг ўзаро тахт учун олиб борган акурашлар инқирознинг асосий сабаблари сифатида эътироф этилган.*

Калит сўз ва иборалар: *Моваруннаҳр, Дашти Қипчоқ, Мўғулистон, Фарғона, Самарқанд, Тошкент, Андижон, Мирзо Султон Аҳмад, Мирзо Султон Маҳмуд, Мирзо Умаршайх, Ўратепа*

Аннотация: *В статье на основе исторических источников и научных исследований анализируются причины кризиса государства Тимуридов в Моваруннахре в конце XV – начале XVI веков. В ходе анализа основной причиной кризиса была признана борьба тимуридских князей за престол.*

Ключевые слова и фразы: *Моваруннахр, Дашти Кипчак, Монголия, Фергана, Самарканд, Ташкент, Андижан, Мирзо Султан Ахмед, Мирзо Султан Махмуд, Мирзо Умаршайх, Ораtепа.*

Annotation: *The article analyzes the reasons for the crisis of the Timurid state in Movarounnahr at the end of the 15th century and the beginning of the 16th century based on historical sources and scientific research. During the analysis, the struggles of the Timurid princes for the throne were recognized as the main causes of the crisis.*

Key words and phrases: *Movarounnakhr, Dashti Kipchak, Mongolia, Fergana, Samarkand, Tashkent, Andijan, Mirzo Sultan Ahmed, Mirzo Sultan Mahmud, Mirzo Umarshaikh, Oratepa.*

Султон Аҳмад мирзо бутун Моваруннаҳр ҳокими ҳисобланса-да, аслида фақат Самарқанд ва Бухорогина унга тўлиқ бўйсунди. Биринчи бўлиб Султон Маҳмуд мирзо ўз аксига қарши исён бошлади. Хуросондан келганидан сўнг Самарқан девонини бошқараётган Султон Маҳмуд мирзо Ҳисори Шадмон ҳокими амир Қанбар Алининг таклифига кўра Аҳмад Муштоқ ва Хисравшоҳ каби амирлар билан пойтахтни тарк этди ва ўзини Ҳисори Шадмоннинг мустақил ҳокими деб эълон қилди. Гарчи кўп ўтмай Султон Маҳмуд мирзонинг исёнкор лашкари Султон Аҳмад мирзонинг қўшини томонидан тор-мор келтирилган, Султон Маҳмуд мирзонинг ўзи Амударё бўйига қочган бўлса-да, Ҳисори Шадмонни ўз қўлида сақлаб

қолишга эришди. Хондамир унинг ҳукми остидаги мулклар қаторида Ҳисор, Хатлон, Термиз, Чағониён, Қундуз, Балқон, Бадахшон вилоятларини санаб ўтади. У Бадахшонни ҳам кейинчалик ўз мулклари қаторига қўшиб олган. Бу вақтда Бадахшонда Султон Абусаид мирзонинг бошқа бир ўғли Абобакр мирзонинг қўлида эди. Султон Маҳмуд мирзо Бадахшоннинг Катвар ва Сиёҳпушон худудларига яшовчи ислом динини қабул қилмаган аҳоли устига бир неча бор ғолибона юриш қилганлиги учун тарихий манбаларда “ғозий” унвонига сазовор бўлганлиги таъкидланади.

Ўратепа ва Шоҳруҳия, Тошкент ва Сирдарё бўйидаги шаҳарлар ҳам расман Султон Аҳмад мирзонинг тасарруфида эди. Ўратепа вилояти Самарқанд тахтига тўлиқ бўйсунган бўлса-да, Тошкент ва Сирдарё бўйидаги бошқа шаҳарлар ҳақида бундай фикр билдира олмаймиз. Тошкент ҳокими Шайх Жамол эса Султон Аҳмад мирзога деярли бўйсунмаган. Шайх Жамол 1472-1473 йиллари мўғул амири Абдулқундус томонидан ўлдирилганнидан сўнг Шоҳруҳия, Тошкент ва Сайрам шаҳарлари ҳам тўлиқ Султон Аҳмад мирзо ихтиёрига ўтади.

Лекин Султон Аҳмад мирзо ушбу шаҳарларни узоқ вақт ўз қўлида сақлаб тура олмади. 1462 йили Фарғона ҳокими этиб тайинланган Умаршайх мирзо 1469 йилдан водийни мустақил бошқара бошлади. 1473 йилдан сўнг Мовароуннаҳрда Султон Аҳмад мирзо мавқеининг кескин ошиб кетиши Умаршайх мирзонинг Мўғулистон хони Юнусхон билан яқинлашишига олиб келди. Натижада 1475-1476 йиллари Умаршайх мирзо Юнусхоннинг қизига уйланади ва Султон Аҳмад мирзога қарши курашда унинг ёрдамидан фойдаланишга интилади. Манбаларда санаси берилмаган бўлса-да, тахминан 1480 йилларда Султон Аҳмад мирзо эса Умаршайх мирзога Тошкент ва Сайрам шаҳарларини инъом этади. Манбаларда бу инъомнинг сабаби ҳақида сўз юритилмаган. Балки Султон Аҳмад мирзо Мўғулистон билан чегарадош худудларни Умаршайх мирзога бериш орқали Зарафшон ваҳосини мўғулларнинг талончилик ҳужумларидан асрамоқчи бўлгандир. Умаршайх

мирзо эса бу ерларга қаноат қилмай Шоҳруҳияни ҳам эгаллаб олади. Натижада Султон Аҳмад мирзо 1481 йили Умаршайх мирзога қарши юриш бошлаб унинг қўшинларини Хавос яқинида тор-мор келтиради. Ушбу мағлубиятдан сўнг Умаршайх мирзо Юнусхондан ёрдам сўрайди. Юнусхон ўз қўшинлари билан Марғилонга келиб жойлашади. Натижада Султон Аҳмад мирзо ҳам юришни давом эттирмайди ва Хўжа Аҳрор валийнинг раҳномалигида сулҳ тузилади.

1482 йили Султон Аҳмад мирзо яна Фарғона томон юриш бошлайди. Умаршайх мирзо яна Юнусхондан ёрдам сўрайди ва унга бу сафар Ўшни инъом этади. Юнусхоннинг водийга келганидан хабар топган Султон Аҳмад мирзо яна юришни тўхтатишга мажбур бўлади. Юнусхон эса Ўшга ўз одамини қўйиб, Мўғулистонга қайтиб кетади. Умаршайх мирзо эса қўшин жўнатиб, қайнотаси томонидан қўйилган доруғани Мўғулистонга жўнатиб юборади. Лекин, Султон Аҳмад мирзо Тошкент, Сайрам ва Шоҳруҳия вилоятларини қайтариб олиш фикридан қайтмади. У 1483 йилнинг кузида Тошкентга юриш қилди. Шу юриш вақтида Султон Аҳмад мирзо Шоҳруҳияни забт этишга эришади. Умаршайх мирзо яна Юнусхонга мурожат қилади ва унга бу сафар Сайрамни топширади. Мўғулистон хонининг Сайрамга етиб кетиши билан Султон Аҳмад мирзо урушни тўхтатиб, Самарқандга қайтиб кетади.

1485 йили Умаршайх мирзо ўзининг 15 минг кишилик лашкари билан Шоҳруҳияни қайтариб олиш учун юриш бошлайди. Унга Юнусхоннинг катта Султон Маҳмудхон ҳам Сайрамдан 30 минг кишилик қўшин билан ёрдамга етиб келади. Султон Аҳмад мирзо ҳам Тошкентни қўлга киритиш мақсадида Шоҳруҳияда катта лашкар тўплайди. Лекин яна Хожа Убайдуллоҳнинг аралашуви билан сулҳ тузилиб, Тошкент Мўғулистон хони Юнусхон ихтиёрига ўтади. Натижада 1483 йили Сайрам вилояти Мўғулистон давлати таркибига, худди шу йили Шоҳруҳия Султон Аҳмад мирзо мулклари қаторига, 1485 йилга келиб Тошкент вилояти ҳам Мўғулистон давлати

таркибига ўтади. Умаршайх мирзо узоқ давом этган курашдан сўнг юқорида таъкидланган худудларни қўлдан чиқариб фақат Фарғона водийси билан чекланишга мажбур бўлади.

1487 йили Юнусхоннинг вафот этиши билан Умаршайх мирзода Тошкент вилоятини қайтариб олиш умидини пайдо бўлади. Лекин Умаршайх мирзо қўшинлари Уштур қалъасини эгаллаб олган бўлса-да, кўп ўтмай мағлубиятга учрайди.

1487 - 1488 йили Султон Аҳмад мирзо Тошкентни темурийлар давлати таркибига киритиш мақсадида Султон Маҳмудхонга қарши юриш бошлайди. Султон Аҳмад мирзонинг мағлубиятидан сўнг Умаршайх мирзо Самарқанд томон юриш бошлаб Ўратепани қамал қилади ва эгаллаб олади. 1488 йилдан то Умаршайх мирзо вафотига қадар Ўратепа вилояти Фарғона улуси таркибида қолади.

1494 йили Султон Аҳмад ва Султон Маҳмудхон ўзаро иттифоқчиликда Фарғона водийси томон юриш бошлади. Хусусан, Хўжанд сувининг жануб томонидан Султон Аҳмад ва шимол тарафидин Султон Маҳмудхон Фарғонага қарши қўшин тортдилар ***[1:9]***. Қизиқарли томони шундаки Заҳириддин Муҳаммад Бобур билан бир даврда яшаб ижод қилган муаррихлардан бири, унинг яқин қариндоши Мирзо Ҳайдар эса Мирзо Бобурдан фарқли фикр мулоҳазалар билдирган. Мирзо Ҳайдар бу юриш бошланиши ҳақида бошқача фикр юритган: “...Мирзо Умаршайх каптархонадан йиқилди ва 899 (1493-1494) йилда ҳалок бўлди. Бунинг хабари Мирзо Султон Аҳмадга етгач, у дарҳол, Худо кўрсатмасин, Андижон мўғуллар қўлига тушмасин, деб Андижон томонга қўшин тортди. Мирзо Умаршайхнинг амирлари ҳушёрлик ва матонат кўрсатишиб, Мирзо Умаршайхнинг ўн икки яшар ўғли Заҳириддин Муҳаммад Бобур подшоҳни тахтга ўтқазишди ва Султон Маҳмудхондан ёрдам сўраб мурожаат қилишди” ***[2:147]***.

Шу ўринда алоҳида таъкидлаб ўтиш лозимки, Мирзо Муҳаммад Ҳайдарнинг бу маълумоти жуда ишонарсиз ва тарихий ҳақиқатга тўғри келмайди. Аслида эса Мирзо Султон Аҳмад Ўратепа, Хўжанд, Марғилонни эгаллаб, Қубога етиб келган чоғида Мирзо Умаршайхнинг ҳалок бўлганлиги хабарини эшитади. Бу вақтда Султон Маҳмудхон ҳам ўз қўшинлари билан Фарғона водийси ҳудудида бўлиб, Сирдарёнинг шимолий қисмидаги шаҳарларни бўйсундириш мақсадида жанг бошлаётган эди. Мирзо Умаршайхнинг ҳар иккала рақиби ҳам унинг ҳаётлик вақтидаёқ юриш бошлаган ва ҳатто унинг фожиеали вафоти ҳақидаги хабарни эшитганларидан кейин ҳам юришни тзхтатмай, аксинча, қулай вазиятдан самарали фойдаланиш мақсадида жуда тез ҳаракатланишга ҳаракат қилган эдилар.

Мирзо Бобурнинг тахтга ўтириши жуда таҳликали кунларга тўғри келган ***[3:2 9]***. Лекин Фарғона амирларининг тадбиркорлиги, қолаверса, Қубо сувидан ўтиш жараёнида Самарқанд қўшинининг талофат кўриши ва лашкарда тарқалган от ўлати касаллиги вазиятни тубдан ўзгартирди. Султон Аҳмад сулҳ тузиб, Ўратепа ва Хўжандни тасарруфига киритиш билан чекланиб, Марғилонни Мирзо Бобур изнида қолдириб, ортга қайтишга рози бўлди. Мирзо Ҳайдар Султон Аҳмаднинг касалланиб қолганлиги кутилмаган сулҳга сабаб бўлганлигини таъкидлайди. Чиндан ҳам у 40 кундан сўнг Самарқандга қайтаётиб, Ўратепа вилоятида вафот этади.

Султон Маҳмудхон хоин амирлар ёрдамида Косонни эгаллаган бўлсада, Ахсини бўйсундира олмади. Султон Аҳмаднинг сулҳ тузганлигини эшитгач, у ҳам Косонни ташлаб, Тошкентга қайтишга мажбур бўлган.

Худди шу вақтда Кошғар ҳукмдори Абубакр дуғлат ҳам Фарғона водийсига бостириб кириб, Ўзгандни эгаллаш учун ҳаракат бошлаган эди. У Ўзгандни қамал билан эгаллаш мақсадида мустаҳкам қароргоҳ – қўрғон қурдирган. Лекин икки асосий рақибдан ҳоли бўлган Мирзо Бобур Ўзгандга қўшин жўнатгач, Абубакр дуғлат сулҳ тузиб, Кошғарга йўл олди ***[1:34]***.

Шундай қилиб, янги тахтга чиққан ёш Мирзо Бобур отасининг мулкларидан Ўратепа ва Хўжанддан ташқари барчасини ўз қўлида сақлаб қолишга эришди.

Мирзо Бобур қисқа вақт ичида ҳокимиятини мустаҳкамлаб олишга эришган. У 1495 йилда Хўжанд ва Ўратепа вилоятларини қайтариб олиш учун ҳаракат бошлади. Бу вақтда Самарқанд тахти Бойсунғур мирзо қўлида эди. Бобур дастлаб Исфарада Бойсунғур мирзо номига хутба ўқитган Иброҳим сору исёнини бостиришга киришди. Исфара қамал ва жанглар билан эгалланган сўнг Хўжанд томон юриш бошлаган. У дипломатик усуллар билан шаҳар ҳокими Абдуваҳоб шиғовулни таслим бўлишга кўндирди. Натижада Хўжанд ҳам бир йил ўтиб, яна Фарғона мулки таркибига қайтарилди. Лекин Фарғона лашкарининг Ўратепага қарши юриши самарасиз якунланди.Хўжанд ҳокими Заҳириддин Муҳаммад Бобурга бўйсунишни ҳоҳламади. Аммо шаҳарни ҳам ўз қўлида сақлаб қола билмади. Мирзо Бобур Фарғонага қайтиб кетиши билан Ўратепа вилоятини Султон Маҳмудхон ўз мулклари таркибига қўшиб олди. Бу воқеа темурийлар сулоласининг Мовароуннаҳрдаги нуфузига навбатдаги сезиларли зарба бўлди.

1496 йили Мирзо Бобур Самарқандни эгаллаш мақсадида юриш бошлади. Бу юриш Бухоро ҳокими Мирзо Султон Али билан иттифоқликда амалга оширилган. Дастлабки юриш натижа бермагач, ҳар икки томон келаси йили Самарқандни биргаликда забт этишга келишиб, қайта куч йиғиш учун ортга қайтган.

Мирзо Бобур 1497 йили Самарқандни қўлга киритиш мақсадида иккинчи марта қўшин тортди ва узоқ қамалдан сўнг уни эгаллашга муваффақ бўлди. Афсуски, қамалнинг чўзилиб кетиши натижасида қўшин таъминотида юзага келган муаммолар баъзи хоин беклар учун янги низоларни келтириб чиқаришга баҳона бўлиб хизмат қилди. Бир неча амирлар рухсатсиз Фарғонага қайтиб, исён кўтардилар. Улар Андижонни жанг билан эгаллаб,

Фарғона ҳокимиятини Мирзо Бобурнинг укаси Мирзо Жаҳонгирга топширдилар. Ҳокимият эса амалда Узун Ҳасан ва Султон Аҳмад Танбал исмли амирлар қўлига ўтган. Бу вақтда Мирзо Бобур Андижонни ўз ихтиёрида сақлаб қолиш мақсадида Самарқандни ташлаб чиққан эди.

Натижада у Андижонни қайтариб олиш учун кураш бошлашга мажбур бўлди. 1498-1500 йилларда Фарғона учун олиб борилган кураш сулҳ билан якун топди ***[5:40]***. 1500 йили тузилган сулҳ шартларига кўра, Фарғона водийси иккига бўлиб олинди. Сирдарёнинг шимолидаги ҳудудлар Мирзо Жаҳонгирга, жанубдаги ерлар эса Мирзо Бобурга ўтди. Ака-укалар биргаликда Самарқандга юриш қилишга ва Мовароуннаҳр пойтахти қўлга киритилгач, Мирзо Бобур Самарқандда, Мирзо Жаҳонгир Фарғонада ҳукмронлик қилишга келишиб олдилар.

Мирзо Бобур 1500 йилнинг майида Самарқанд юришини бошлаб водийни тарк этди. Жаҳонгир эса сулҳга хиёнат қилди. У ўз амирларининг ихтиёрига бўйсуниб, акасига тегишли мулкларга қўшин тортди. Натижада 1500 йили Фарғонада тўлиқ Мирзо Жаҳонгирнинг ҳукмронлиги ўрнатилди. Амалда эса ҳокимиятни амир Аҳмад Танбал бошқарган. 1500 йилнинг кузида Мирзо Бобур Самарқандни Шайбонийхондан тортиб олди. 1501 йилнинг кўкламида бўлиб ўтган Сарипул жангида Фарғона водийсидан Мирзо Бобур учун ёрдамга юборилган амир Халил бошчилигидаги қўшин ҳам қатнашган. Шайбонийхон Сарипул жангидаги ғалабадан сўнг узоқ қамал қилиб, Самарқандни қўлга киритди.

Натижада Мирзо Бобур яна Фарғона ҳокимлигини қайтариб олиш ҳаракатларини бошлашга мажбур бўлди. Султон Маҳмудхон ҳам ўз манфаатлари йўлида унга ёрдам беришга интилди. Лекин Мирзо Бобурнинг тоғалари бўлмиш Султон Маҳмудхон ва Аҳмадхонларнинг ёрдами Фарғона ҳокимлигини эгаллаш учун етарли бўлмади. Мирзо Бобурнинг хонлар билан иттифоқига қарши Султон Аҳмад Танбал Шайбонийхонга итоат изҳор этиб, ундан ёрдам сўради. Натижада Мирзо Жаҳонгир ҳам Султон Аҳмад

Танбалдан қочиб, Мирзо Бобурга қўшилди. Бу эса 1503 йилга келиб, амалдагина эмас, расман ҳам Фарғона водийсида ҳокимият Султон Аҳмад Танбал қўлига ўтганлигини билдирарди. 1504 йили Мирзо Бобур укалари, Жаҳонгир ва Носир мирзолар билан биргаликда Фарғона водийсини тарк этди. Мазкур ҳолат Фарғона водийсида темурийлар сулоласи ҳукмронлиги якунига етганлигини билдирар эди.

Амир Темур вафотидан сўнг бошланган ўзаро урушлар оқибатида Фарғонада Амир Худойдод Ҳусайний бошчилигида алоҳида сиёсий-ҳарбий бирлик ташкил топди. Марказлашган давлатнинг кучайиб бориши натижасида Фарғона 1409 йили Шоҳруҳ мирзога бўйсундирилди. Мирзо Аҳмадга суюрғол этиб берилган Фарғона мулки тасарруфидаги ҳудудлар Кошғар вилояти ҳисобига кенгайтирилди. 1415 йили Фарғона водийсининг Мирзо Улуғбек мулклари таркибига қўшиб олиниши Мовароуннаҳрнинг шарқий чегараларининг мустаҳкамланишида ҳамда мўғул қабилалари талончилик ҳужумларини бартараф этишда муҳим аҳамиятга эга бўлди. Мирзо Улуғбекнинг 1416 йили Кошғарни ўз тасарруфига киритиши ва 1425 йилги Мўғулистон юриши Мовароуннаҳрнинг шимоли-шарқий чегаралари хавфсизлигининг таъминланишида муҳим рол ўйнади.

Темурийлар давлатининг мамлакат шимоли ва шарқидаги қўшни кўчманчи давлатларга нисбатан ташқи сиёсий фаоллигини йўқотиши оқибатида Мовароуннаҳрнинг чегара вилоятлари қатори Фарғона водийсига ташқи кучларнинг талончилик ҳужумлари кўпайиб борди. Амир Темур ва Мирзо Улуғбеклар томонидан Мўғулистонда ўз таъсирини мустаҳкамлаш сиёсати Мирзо Султон Абу Саъид даврида ҳам давом эттирилди. Мирзо Султон Абу Саъид Амир Темур ва Мирзо Шоҳруҳ каби Фарғона водийсида марказга бўйсунадиган мустаҳкам улусни ташкил этди.

Мирзо Умаршайхнинг бошқарув йиллари икки даврга бўлиб ўрганилди. Биринчи давр 1462-1469 йилларни ўз ичига олган бўлиб, у Мирзо Султон Абу Саъиднинг ноиби сифатида фаолият юритган. Мирзо Умаршайх

ҳукмронлигининг иккинчи даври водийни мустақил ҳукмдор сифатида бошқарган 1469-1494 йилларга тўғри келади.

Тошкент, Сайрам ва Шоҳрухия вилоятлари учун бошланган Мирзо Султон Аҳмад ва Мирзо Умаршайхлар ўртасида ўзаро урушлар ушбу вилоятларнинг мўғул хонлари Юнусхон ва Султон Маҳмудхонлар ихтиёрига ўтиб кетишига олиб келди ва темурийлар давлатининг сиёсий нуфузини кескин пасайтирди. Фарғонада ўзаро урушлар кучайиб бориши ҳокимиятнинг йирик амирлар қўлига ўтиб боришига замин яратди ва 1503 йилга келиб водийда Темурийлар сулоласи ҳукмронлигини амалда тугатилиб, ҳокимият маҳаллий амирлардан бири Султон Аҳмад Танбал қўлига ўтди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи П. Шамшиев – Т.: Юлдузча. 1989. – 368 б.

2. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А. Урунбаева, Р.П. Джалиловой, Л.М. Епифановой, примечания и указатели Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой – Т.: Фан, 1996. – 727 с.

3. Гулбаданбегим Заҳириддин Муҳаммад Бобур қизи. Ҳумоюннома: Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ўғли – Ҳумоюн подшоҳнинг аҳволи. // Форс тилидан С. Азимжонова таржимаси. – Т.: “Маънавият”, 1998. – 104 б.

4. Азимджанова С. К истории Ферганы второй половины XV в. – Т.: Издательство Академии наук Узбекской ССР. 1957. – 92 с.

5. Жалилов С. Бобурнинг Фарғона давлати – Т.: Фан, 1995. – 144 б.

6. Usmonov B. ABOUT THE DATE OF THE FIRST AND SECOND MONGOLIAN WALKS OF AMIR TIMUR //Конференции. – 2021.

7. Usmonov, B. "Ferghana in 70 years of XV century." Scientific journal of the Fergana State University 2.1 (2019): 39-42.

8. Usmonov, B. "Horticulture in Fergana in the Temurid’s period." Scientific Journal Of The Fergana State University 2.4 (2019): 73-75.

9. Usmonov, Bahriddin Ahmedovich. "A Study of Political Processes in the Fergana Valley In 1371-1376." Design Engineering (2021): 6174-6187.

10. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

11. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МАНБАЛАРИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ШАҲАРЛАРИ ҲАҚИДА

Мавлонова Одинахон Қодиралиевна

ФарДУ магистранти

Аннотация: *Мақолада Амир Темур ва темурийлар даври тарихига оид манбаларда Фарғона водийси шаҳарлари тарихига оид маълумотлар таҳлил этилган. Таҳлил давомида ушбу тарихий манбаларнинг мазкур давр тарихига оид манбаларнинг шаҳар тарихи масаласидаги манбавий салоҳиятига баҳо берилган.*

Калит сўз ва иборалар: *Мовароуннаҳр, Фарғона, Амир Темур ва темурийлар даври, тарихий манба, ўрта аср шаҳарлари, ўрта аср қалъалари, Низомиддин Шомий, Шарофуддин Али Яздий.*

Аннотация: *В статье анализируются сведения по истории городов Ферганской долины в источниках, связанных с историей Амира Темура и тимуридским периодом. В ходе анализа был оценен источниковедческий потенциал этих исторических источников по истории данного периода.*

Ключевые слова и фразы: *Мовароуннахр, Фергана, период Амира Темура и Тимуридов, исторический источник, средневековые города, средневековые замки, Низамуддин Шами, Шарафуддин Али Язди*

Annotation: *The article analyzes the information on the history of the cities of the Ferghana Valley in the sources related to‘the history of Amir Temur and the Timurid period. During the analysis, the source potential of these historical sources for the history of this period was evaluated.*

Key words and phrases: *Movarounnakhr, Ferghana, Temur period, source, middle century, Nizamuddin Shami, Sharafuddin Ali Yazdi*

Амир Темур тарихини ёритувчи дастлабки манбалардан бири Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома” асаридир. Низомиддин Шомий

Фарғона ҳақида сўз кетганида Андигон, Ўзганд топонимларидан фойдаланган. Ушбу асарда Фарғона водийси шаҳарларидан бири Хўжанднинг XIV аср ўрталарида Мовароуннаҳр сиёсий ҳаётида тутган ўрнига оид қимматли маълумотлар учрайди. Шунингдек, Хўжанд шаҳрида Амир Темурга қарши режалаштирилган суиқасднинг амалга ошмаганлиги, 1376 йилги унинг ҳокими Одилшоҳ жалойир бошчилигидаги исён ва унинг бостирилиши билан боғлиқ воқеалар баён қилинган ***[1:28-36; 96-101]***.

Муиниддин Натанзийнинг “Мунтахаб ут-таворихи Муиний” асари ҳам давр тарихига оид энг қимматли манбаларидан биридир. Гарчи Муиниддин Натанзий Фарғона топонимини қўллаган бўлса-да ***[2:116]***, у ҳам кўплаб муаллифлар қатори водийни йирик шаҳарлар номи билан Ўзжанд вилояти, Андигон номлари билан атаган. Ўзжанд вилояти сўзидади Ўзжанд сўзи Ўзганд шаҳрининг номи бўлса-да, у шаҳарнинг ўша вақтдаги салоҳияти ва номини англатмайди. У Қорахонийлар даврида Ўзганд, яъни Ўзжанд шаҳри водийнинг йирик шаҳри ва пойтахти сифатида кўплаб манбаларда акс этганининг бу даврдаги инъикоси сифатида манбада келтирилган дейишимиз мумкин.

Шарафуддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асари ҳам мазкур давр тарихига оид муҳим манбаларидан биридир. Яздий ҳам Фарғона водийси ҳақида сўз юритар экан, Андигон, Андукон, Андижон, Андижон вилояти топонимларидан фойдаланган ***[3:268]***. Бу номлар ҳам Фарғона вилояти ўрнида ҳамда шаҳарнинг ўша давр тарихий манбаларда учрайдиган номи сифатида учрайди. Шу билан биргалдикда водийнинг энг марказий ва йирик шаҳри Андижон бўлганлигини асословчи асосий маълумотлардан бири сифатида учрайди дейишимиз мумкин.

Ҳофизи Абру номи билан танилган Шиҳобиддин Абдуллоҳ ибн Лутфуллоҳ ибн Абдурашид Ҳаравий (Хавофий)нинг тарих ва географияга бағишланган асарларида ҳам Фарғона водийси тарихига оид лавҳалар учрайди. Муаллиф “География” асарида Хўжанд шаҳри ва вилояти ҳақида

сўз юритиб, ушбу ҳудуднинг иқтисодий ҳолатига оид қимматли маълумотлар келтиради ***[4: 74-75]***. Тарихчининг Фарғона водийси тарихи учун яна бир муҳим асари “Мажма ат-таворих”деб номланиб, Мовароуннаҳр, Эрон ва Хуросонда исломиятдан аввалги даврдан бошлаб то 1427 йилгача юз берган воқеаларга бағишланади. Унда учрвйдиган энг асосий маълумотлардан бири Амир Темурнинг фарзанди Мирзо Умаршайх томонидан Андижон шаҳрининг мудофаа деворлари билан мустаҳкамланишидир.

Фасиҳ Хавофийнинг “Мужмали Фасиҳий” асари Амир Темур ва темурийлар даври тарихини ўрганишдаги муҳим манбалардан биридир. Ўзининг қисқа ва аниқ фактик маълумотларга бойлиги билан ажралиб турувчи ушбу асар ҳамда унинг муаллифи ҳақида манбашунослигимизда бир қатор тадқиқотлар яратилган. Бу асарда ҳам водий ҳақида сўз юритилганда Ўзганд вилояти атамаси қўлланилган ***[4:152]***. Бу ҳам юқорида айтганимиздек, аввалги форс тилида яратилган асарларнинг таъсири натижасида келиб чиққан номдир.

Фарғонанинг Амир Темур ва темурийлар даври тарихига оид маълумотлар мавжуд бўлган асарлардан бири Ибн Арабшоҳнинг “Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур” асаридир. Мазкур манба ўзбек тилига таржима қилиниб, нашр этилган. Асар кўплаб тарихий шахслар, уларнинг фаолияти, Халил Султон, амир Худойдод Ҳусайний кабиларнинг инсоний фазилатлари ҳақида қимматли маълумотлар бера олувчи нодир манбалардан биридир. Шунингдек, “Ажоиб ал-мақдур” Амир Темур даврида ва унинг вафотидан кейинги ўзаро урушлар вақтида юз берган сиёсий ҳамда ижтимоий--иқтисодий ҳаётга оид бошқа манбаларда акс этмаган кўплаб воқеалар тўғрисида ҳикоя қилади. Айниқса, Амир Темур вафотидан кейин Фарғона водийсида бўлиб ўтган сиёсий жараёнлар ва уларнинг Мовароуннаҳрдаги вазиятга таъсири тўғрисидаги маълумотлар жуда аҳамиятлидир. Муаллифнинг айни шу вақтда Самарқандда яшаганлиги, ушбу воқеаларда қатнашган кўплаб тарихий шахслар билан шахсан таниш бўлганлиги ҳам

асарнинг қимматини оширади. Ибн Арабшоҳ Мовароуннаҳрнинг йирик шаҳарлари ҳақида сўз юритар экан, улар қаторида Хўжанд, Марғилон, Андижон шаҳарларини санаб ўтади ва Марғилон шаҳрига алоҳида тўхталади ***[4:86]***. Ушбу асарда Андижон ва унинг атрофлари тўққиз тумандан иборат эканлиги таъкидланган бўлиб, мазкур маълумот манбанинг тадқиқотчиси У. Уватов томонидан алоҳида кўрсатиб ўтилган.

Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн” асари тадқиқотнинг муҳим манбаларидан биридир. Асарнинг қўлёзмалари ва турли тилларга қилинган таржималари, муаллифи ҳақида батафсил маълумотлар мавжуд. “Матлаи саъдайн... ” икки жилддан иборат бўлиб, биринчи жилдда Амир Темур даври, иккинчи жилдда эса 1470 йилга қадар бўлган темурийлар даври воқеалари баён қилинади. Асарнинг биринчи жилди шу кунга қадар таржима қилинмаган ва нашр этилмаган. Амир Темур даври воқеалари Шомий, Яздий, Натанзий ва бошқа муаллифларнинг асарларида батафсил ёритилган бўлсада, “Матлаи саъдайн... ”да ҳам ушбу даврга оид қимматли маълумотлар бор. Улардан бири Ахси шаҳри ҳақидаги маълумотлардир “... у ваъда (мухдати) охирига етдию ўғли келмади. Мирзо Улуғбек кўрагон Андижонга қараб юрди. Мирзо Амирак Аҳмад у ернинг қалъаларини мустаҳкамлаб, тоққа чиқиб кетди. Мирзо Улуғбек у ернинг энг катта қалъаси бўлган Ахси қалъасини муҳосара қилди. У шундай қалъаки, унинг мезаналаридан фалак бош оқ (юлдуз)ларини териб олиш ва баланд хоналаридан фариш талар ғулғуласини эшитиш мумкин эди. Қалъа аҳолиси қалъанинг мустаҳкамлигига мағрур бўлишиб жанг аслаҳаларини ҳозирладилар. Ғалаба ёр лашкар қалъа атрофини зирҳ кўзию ари уясидек (илма тешик) қилиб қалъани эгаллади ва лашкар ахли қўлига кўп бойликлар кирди. Мирзо Улуғбек раиятга тинчлик майдони ва омонлик маконидан ўрин берди ҳамда Поянда баковулни кутвол тайинлаб, Андижон томон йўл олди. Мирзо Амирак Аҳмад чиқиш қийин бўлган баланд тоғларга кетиб қолган эди; Мирзо Улуғбек амир Мусоко ва амир Муҳаммад Тобонларни

Андижонни идора қилишга тайинлаб, ғалаба ёр мавкаб Самарқандга қайтди.” ***[5 :254-255]***. Юқорида келтирилган маълумотнинг эътиборли томонларидан бири шундаки унда Ахси шаҳри Фарғона водийсининг энг йирик ва мустаҳкам қалъаларидан бири эканлиги ҳар томонлама асослаб берилган.

Хондамирнинг “Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар” асари Амир Темур ва темурийлар даври тарихига оид энг йирик ва кўп мурожаат қилинадиган манбалардан биридир. “Ҳабиб ус-сийар”да Фарғона водийсининг XIV асрнинг иккинчи ярми XV асрнинг биринчи ярми тарихига оид маълумотлар жуда кам учраса-да, улар бошқа манбалардаги айрим маълумотларни тўлдиради. Хусусан, Хондамир ҳам Натанзий каби Мирзо Умаршайхнинг Кошғар юриши ҳақида маълумот беради. Бу асарда Мирзо Султон Абу Саъиднинг ўғли Мирзо Умаршайх, набираси Мирзо Бобурларнинг фаолияти нисбатан батафсил ёритилган. Шунингдек, асарда водийдаги ҳунармандчилик ривожи ва унинг ихтисослашувига оид қизиқарли фактлар келтирилади ***[6:874]***.

Хондамирнинг “Макорим ул-ахлоқ” ва “Хулосат ул-ахбор” асарларида темурийлар давридаги Фарғонанинг илмий-адабий муҳитини ёритишга хизмат қилувчи маълумотлар учрайди. “Макорим ул-аҳлоқ”да Алишер Навоий ва Мир Сарбараҳна ўртасида кечган мутоиба ҳақида ҳикоя қилинса ***[7:185],*** “Хулосат ул-ахбор”да Мавлоно Юсуф Бадиий ва Саййид Шамсуддин Муҳаммад Андижоний ҳақида сўз юритилади ***[8:65-66]***. Эътиборли томони шундаки, фақат “Хулосат ул-ахбор”да Мир Сарбараҳнага Андижоний нисбаси қўшилган.

Шайбонийлар даврида яратилган бир қатор тарихий асарларда ҳам тадқиқ этилаётган мавзу доирасидаги маълумотлар учрайди. Шулардан бири Муҳаммад Солиҳнинг “Шайбонийнома” асаридир. Асарда Фарғонада Шайбонийлар сулоласи ҳукмронлиги ўрнатилиши жараёнлари ёритилиб, “Бобурнома”да баён қилинмаган кўпгина воқеалар ўз аксини топган. Шайбонийхон қўшинлари томонидан Хўжанд қалъасининг эгалланиши,

Мирзо Бобур ва унинг тоғалари Султон Маҳмудхон ва Султон Аҳмадхоннинг қўшинларини 1503 йили Ахси яқинида бўлиб ўтган Архиён жангида шайбонийлар томонидан тор-мор келтирилиши воқеалари шулар жумласидандир. Марғилон ва Андижоннинг шайбонийлар томонидан забт этилиши, Фарғона водийси шаҳарларининг ҳимояланиш тизимлари, темурийлар қўшинида хизмат қилган мўғул ҳарбийларининг Мовароуннаҳрни кўпгина вилоятларида шайбонийлар ҳукмронлиги ўрнатилгач, Фарғона водийсида тўпланиши каби масалалар ёритилган ***[9:170-224].***

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996;

2. Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи - Ғулом Каримий - Т.: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.

3. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. – Т.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2017. – 352 б.

4. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. /Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У. Уватов тайёрлаган. К. I. –Т.: Меҳнат, 1991. – 328 б.

5. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. Ж. II. Қ. I. 1405 – 1429 йил воқеалари. – Т. : «O‘zbekiston». 2008. – 632 б.

6. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазраткулов,

Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.

7. Хондамир Ғиёсиддин. Макорим ул-аҳлоқ / Форс тилидан таржима, изоҳлар, кириш ва иловалар муаллифи К. Раҳимов – Т.: «Akademnashr», 2015. – 372 б.

8. Хондамир Ғиёсиддин. Макорим ул-аҳлоқ / Форс тилидан таржима, изоҳлар, кириш ва иловалар муаллифи К. Раҳимов – Т.: «Akademnashr», 2015. – 372 б.

9. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Э. Шодиев. – Т.: Ғафур Ғулом, 1989. – 336 б.

10. Usmonov B. ABOUT THE DATE OF THE FIRST AND SECOND MONGOLIAN WALKS OF AMIR TIMUR //Конференции. – 2021.

11. Usmonov, B. "Ferghana in 70 years of XV century." Scientific journal of the Fergana State University 2.1 (2019): 39-42.

12. Usmonov, B. "Horticulture in Fergana in the Temurid's period." Scientific Journal Of The Fergana State University 2.4 (2019): 73-75.

13. Usmonov, Bahriddin Ahmedovich. "A Study of Political Processes in the Fergana Valley In 1371-1376." Design Engineering (2021): 6174-6187.

14. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

15. Usmonov B. FARG'ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O'RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

16. Israilov N. R. The first period of amir temur's activity in the interpretation of bartelemi d'erbelo de molenville //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 219-224.

АМИР ҚАЗАҒОНБЕК ФАОЛИЯТИ ТАРИХЧИ ОЛИМ ҒУЛОМ КАРИМОВ ТАЛҚИҚНИДА

Маъмуров Дилшодбек Тилаволди ўғли
ФарДУ магистранти

Аннотация: *Мақолада Мовароуннаҳрда мўғул хонларидан мустақил давлат тузиш учун ҳаракат олиб борган амир Қазағоннинг фаолиятига тарихчи олим Ғулом Каримов томонидан берилган баҳо таҳлил этилган. Муаллиф илк бора амир Қазағон фаолиятини илмий асосда ҳақчил ёритишга эришганлиги таъкидлаб ўтилган.*

Калит сўз ва иборалар: *Ғулом Каримов, Муниддин Натанзий, Амир Қазағон, Амир Абдулла, Амир Ҳусайн, Амир Темур, Мовароуннаҳр.*

Аннотация: *В статье анализируется оценка, данная историком Гуламом Каримовым деятельности эмира Казагана, предпринявшего усилия по созданию независимого государства от монгольских ханов в Мовароуннахре. Отмечено, что автор впервые добился справедливого освещения деятельности эмира Казагана на научной основе.*

Ключевые слова и фразы: *Гулам Каримов, Муйниддин Натанзи, Амир Казаган, Амир Абдулла, Амир Хусейн, Амир Темур, Мовароуннахр.*

Annotation: *The article analyzes the evaluation given by the historian Ghulam Karimov to‘the activities of Emir Kazaghan, who made an effort to create an independent state from the Mongol Khans in Movarounnahr. It was noted that the author for the first time achieved a fair coverage of the activities of Emir Kazaghon on a scientific basis.*

Key words and phrases: *Ghulam Karimov, Muiniddin Natanzi, Amir Kazaghan, Amir Abdullah, Amir Husayn, Amir Temur, Movarounnahr.*

Амир Қазаған тарихини ёритишда Муниддин Натанзийнинг “Мунтахаб ут- таворихи Муиний” асари муҳим аҳамиятга эга. Ушбу асарнинг мазкур масалани ёритишдаги ўрни ҳақида тарихчи олим Ғулом Каримов бир қатор эътиборли фикрлар билдирган. «Мунтахаб ут-таворихи Муиний»да, - деб ёзади Ғулом Каримов, - Амир Темурнинг ёшлиги кечган давр, яъни XIV асрнинг 40-50-йиллари тарихи бошқа тарихий манбаларга нисбатан кенгрок ёритилган. Айни шу даврда Мовароуннахрда бир канча мухим сиёсий воқеалар юз бериб, улар ёш Темурнинг дунёқараши ва сиёсий онги шаклланишига катта таъсир кўрсатгани шубҳасиз. Бу воқеаларнинг энг ёркин ва аҳамиятлиси Қазағоннинг золим мўғул хони Қозонхонга карши исён кутариб, бир неча шиддатли жанглардан сўнг ниҳоят ғалаба қозониб, 1346

йилда хонни тахтдан ағдариб, ўн икки йил давомида, яъни то 1358 йилгача Мовароуннахрда ҳокимиятни ўз қўлида ушлаб турганлигидир. Амир Қазағон Дошмандча, Баёнқули каби чингизийзодаларни номига хон қилиб кўтарса-да, мустакил хукмдор сифатида сиёсат юргизган. Темурийлар даври тарихчилари ўз асарларида бир овоздан амир Қазағонни мўғул хони Козонхон истибдодига чек қўйган ва сўнгра элу юрт осойишталигини таъминлаган оқил ва тадбиркор ҳукмдор сифатида таърифлашади" ***[1:24]***.

Шундан сўнг Ғулом Каримов Амир Қағағон фаолиятининг темурийлар даври манбаларида ижобий ёритилишининг сабаблари хусусида ам қизиқарли фикрлар билдирган. Эътиборли жиҳати шундаки, муаллиф тарихий манбалардаги Амир Қазағон ҳақидаги маълумотларни таҳлил қилар экан, бу маълумотлар Амир Темурнинг Амир Қазағон ҳақидаги қарашларнини ифода этади, деган илмий хулосани олдинга суради: "Бу асарларнинг дастлабкилари яратилганда амир Қағағон вафотидан сўнг қарийб ярим аср ўтган эди. Бу ҳол ҳам мазкур амирнинг ўзидан сўнг халк орасида ёркин ва эзгу хотира қолдирганини кўрсатади. Шу нарса диққатга сазоворки, амир Ҳусайн шахсиятини таърифлашда салбий чизгиларни кўпрок ишлатган муаррихлар унинг бобоси амир Қазағон ҳақида асосан ижобий фикрлар ишлатишган. Қазағон Амир Темурнинг бош хотини Сароймулкхонимнинг отаси Қозонхонни тахтдан ағдариб, қатл этгани хам темурийлар даври тарихчиларига унинг фаолиятини ижобий бахолашга монелик қилмаган. Аксинча, Қозонхоннинг зулми ҳаддан ошгани амир Қазағон исёнига сабаб бўлгани хусусида муаррихлар якдилдир. Юкоридаги далиллар асосида биз (яъни Ғулом Каримов), манбалардаги амир Қазағон ҳақидаги маълумотлар холисона самимий бўлиб, муайян даражада Амир Темурнинг бу хусусдаги нуқтаи назарини хам акс эттиради, деган фикрга мойилмиз" ***[1:25].*** Тарихчи олим Ғулом Каримовнинг мазкур фикрларини асосли деб ўйлаймиз. Чунки Амир Темур ҳаётлиги вақтида қаламга олинган ва Соҳибқиронга тақдим этилган Низомиддин Шомийнинг "Зафарнома"

асарида ҳам Амир Қазағон ҳақида ижобий фикрлар билдирилган. “Етти юз қирқ еттинчи йилда (1340-1347) пошоҳлик Донишмандча ва Баёнқули қўлида бўлган вақтда амир Қазоғон малакат ишларини юритишга бошчилик қилар эди. Унинг адолати ва эҳсонидан олма аҳлига кўп фойда тегарди. Шариат йўруғи ва ростлик йўлини тутиб, ҳаммага мақбул ҳаёт кечирарди. Доимо мазлумлар додига етиб, халққа адолат эшигин очиб, олимлар вашарфли зотларнинг ҳурматини сақларди.Раият ва қўл остидагиларни фаровончиликда тутарди ***[2:27-28].***

Ғулом Каримов ўзининг тадқиқотида Сохибқиронга замондош муаррихлардан Низомиддин Шомий амир Қазағон хакида бир неча сатр маълумот бериб ўтиш билан чекланганлигини таъкидлаган. Биз бу ҳақида юқорида сўз юритдик. Ғулом Каримов бошқа тарихчилар ҳақида ҳам қисқача фикр билдириб ўтган: “Шарафиддин Али Яздий «Зафарнома»сида амир Қазағон исёни ва ҳукмронлиги даврига алоҳида фасл бағишланган. Яздий, хусусан, Қазағонбекнинг Хуросонга юриш килишига батафсил тухталади” ***[1:25]***.

Ғулом Каримовнинг фикрича Шарофуддин Али Яздий амир Казағоннинг ташқи сиёсатини ёритган: “Мовароуннаҳр мамлакати, - деб ёзади муаллиф, Қазаған Маликнинг адлидан қарор топиб эрди. Жом вилоятининг машойихлариким, Малик Ҳусайнга уруғ бўлурлар эрдилар ва унинг ёмон ҳаракатларидан кўнгуллари нохуш бўлиб, Қазағаннинг хизматига келиб, Малик Ҳусайндан шикоят қилдилар. Арлот Беклари ва апардий бекlариким, Малик Ҳусайндан қочиб Қазағанбекнинг хизматига келиб эрдилар, алар тақи айтдиларким, байт:

Ки Чингиз насли магар қолмади
Ки ёд этмас аларни киши эмди
Ки ул Ғурий андоқ бўлубдур ғурур
Ки мен-мен дебон шоҳу айлар сурур”.

Қазағанбек бу сўзларни эшитиб дедиким, “тожикка не ҳадд бўлғай,подшоҳлик даъво қилғай ва подшоҳларнинг фармонидан бош тортқай. Ғурур елини қиличим зарби билан бурнидан чиқарайим ва черик отларининг туйноқи била анинг қалъайи ҳисорини туфроқ била тенг қилайим ва черикидин жайҳун каби қон оқтурайим”. Бас тожиклар ҳар сори чобтуриб, Аму суйидан ўтуб, Балх вилоятида йиғилдилар ва Қазағанбек Баёнқулихон била Ҳирот сари йузланди ва улусларнинг беклари Баён сулдуз ва Муҳаммад Хожа апарди ва Сатилмиш ва Улжойту апарди, ва Абдуллоҳким Тайғунинг ўғли эрди ва Бадахшон шоҳлари барча йиғилиб , Қазағанбекка қўшилиб, Ҳирот сори юридилар. Ва бу хабарни Малик Ҳусайн эшитти, эрса мирохурини уч юз киши бирла қаровулликқа йибардиким, “Борғил ва хабар таҳқиқ қилғилким,чиғатой черики сувдин кечиб турурлар. Бас, ёниб Малик Ҳусайн қошиға келиб арз қилди”. Малик Ҳусайн бекларни йиғиштириб, бу хабарни уларга деди. Андитн сўнг беклари билан кенгашди. Эрса алар дедиларким, “Турон вилоятининг черики асру кўб турур ва бизнинг черигимиз тўрт минг отлиқ ва беш минг йайоқ турур. Бу черик билан аларнинг ўтрусига борса бўлмас”. Маслаҳат мундоқ кўрдиларким, ҳар қачон шаҳарга яқин келсалар анда урушқайлар. Малик Ҳусайн бу кенгашни қабул қилди. Андин сўнг Ҳирот шаҳридин кун чиқар соридин, Пойи Мурғон деган жойдин Кўҳдистонгача том урдилар ва чуқр ҳандақ қаздилар.Уруш асбобини шаҳардин чифариб анда йиғдилар. Ва Малик Ҳусайн ҳар лаҳза уруш ҳавасин қилиб айтур эрди. Бас, Қазағанбек черики била Боштин дарасидин кечиб, Кўҳдистонға тушди. Тонгласи хон била ва Ўлжойту ва Сатилмиш ва ўзга беклар била отланиб, Клзиргоҳ тоғига чиқиб, Малик Ҳусайннинг черикин кўриб, Қазағанбек дедики, “Тожик уруш тариқасин билмас эрмиш, бу ердаки ул туруб турур,ани бот хароб қилурбиз.Икки жиҳатидин бири улким, аларнинг чериги бизнинг сори келса, йуқори чиқмоқ керак ва бизнинг черигимиз қуйи борур.Йана бири улким, чун кун чиқса уларнинг ўтрусидин чиқар ва аларнинг кўзлари кун сори бўлур ва биз сори боқолмиағайлар ва

ўтруларида бўлғон кишини кўролмағайлар”. Муни деб қайтиб тушди. Тонгласи отланиб улар сори йуриди ва икки черик бир бириға етканда Қазағанбек бир тепа устига чиқиб ўз черигин урушға фармонлади. Ва Турон вилоятининг баҳодурлари Ҳирот чериги сори чобтулар ва Ҳирот йигитлар алар сори йуридилар асру қаттиқ уруш бўлди.Малик Ҳусайннинг черики уруш қилғондин сўнг тура олмай шаҳар сори йузланди. Ҳар ерда чуқур қазиб, сув қуйиб эрдиларким, андин киши ўтолмағай (деб),ўзлари ўқ ўшул чуқурларда тушиб ўлдулар. Ва Қазағанбекнинг баҳодурлари Малик Ҳусайн черикининг кейнидан тушибшаҳаргача қавладилар. Малик Ҳусайн шаҳарга кирди ва вашаҳарнинг кўча ва боғларини беркитди. Қазағанбек музаффар ва масрур черики билан ёнди. Тонгласи кўчуб шаҳарнинг йақинига келиб тушти. Ҳар кунда намози шомғача урушур эрдилар. Шеър:

Урушур эрди чериги қирқ кун

Ки ер йузи ҳар кур эрди ғарқи хун

Малик Ҳусайн қамални тоқат қила олмай, шаҳар акобирини шайх ва донишмандларини орада солди, йарашқали учун. Бу шарт билаким, “Қазағанбек давлат била қайтиб вилояти сори борсун, Келур йилда мен бекнинг хизматиға борайим”. Акобирлар пешкаш билан шаҳардан чиқиб, Қазағанбек қошига келиб, Малик сўзини арз қилдилар. Бу бек одил ва раъиятпарвар эрди. Билдиким, шаҳар раъиятлари хароб бўлдилар, вилоят тақи хароб бўлғуси турур. Ризо бериб, яраштилар. Шеър:

Раъойои мискин хароб бўлдилар

Бу меҳнатда барча кабоб бўлдилар.

Қазағанбек Малик Ҳусайн била йарашиб, қайтиб вилоятиға тушти ва воқиъа етти юз эллик иккида (1351) воқиъ бўлди” **[**3:16-18**]**.”

Натанзий унинг ички сиёсати хакида ниҳоятда кимматли маълумотлар келтиради: «Қазағоннинг адолати туфайли мулку миллат ишлари шу даражада мустахкам ва устувор булдики, бўри билан қўй бир сувлоқдан сув ичиб, дарвиш кулбаси бехатарлигидан нажот уйига айланди. Зулм номи ва

ситам нишони ҳаёт юзасидан батамом йўқолди. Оддий одамлар ва улуғлар, мусофирлар ва муқимлар, катттаю кичик, хосу ом – ҳеч кимнинг дилида рўзғор гардишидан шикоят ғубори қолмади ва Анушировон адолати ҳақидаги ҳикоятлар халқ хотирасидан унутилиб кетди. Унинг адли ўлчови шу қадар юксакка етдики, бирон амир ёки вазир мол-мулкдан ушр солиғи ва расмий қабчурдан бошқа бирон исм ё бирон расм билан хеч бир бандадан бир динор хам ололмасди” ***[4: 47-48].***

Ғулом Каримов Амир Қағағон ва унинг авлодлари Мовароуннаҳрда босқинчи мўғул хонларидан мустақил давлат тузиш ишида маълум бир ютуқларга эришган бўлсалар ҳам нима учун асосий мақсадга ета олмаганликлари хусусида ўзи хос фикрлар билдирган: “Тарихий манбалар маълумотларига таяниб, амир Қазағон фаолияти Мовароуннаҳрда мустақил давлат қуриш йўлидаги илк ҳаракатлари ва унинг баъзи тадбирларини, кичикроқ миқёсда бўлса-да, «темурона ишлар», деб баҳолаш мумкин. Бирок бу йўлда айрим муваффақиятларга эришилганига қарамай, ютуқлар охирига етказилиб, етарли даражада мустахкамланмади. Бунинг асосий сабаби, назаримизда, амир Қазағон. Ва ворисларининг мамлакатни марказлаштириш сиёсатини изчил равишда олиб боришолмагани эди. Амир Қазағон даврида ўлканиш доимий ва муайян иойтахти булмаган. Гарчанд, унинг ўғли Абдулла Самаркандни пойтахт этса-да, ички исёнларни бостиришга ожизлик килди. Натижада Мовароуннахрда таркоклик авж олиб, бир неча йилдан сўнг Мўғулистон хони Туғлуқтемур ўлкани босиб олиб, мўғуллар ҳукмронлигини кайта тиклади. Туронда мўғуллар истибдодини узил-кесил ағдариб ташлаб, том маънодаги мустақил ва марказлашган давлат бунёд этиш ишини Амир Темур амалга оширди” ***[1:25]***.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Каримов Ғ. “Мунтахаб ут-таворихи Муиний”да Амир Темур даври тарихининг ёритилиши. // Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-

таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи - Ғулом Каримий - Т.: Ўзбекистон. 2011. – Б. 3-43

2. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996

3. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.

4. Муниддин Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи - Ғулом Каримий - Т.: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.

5. Usmonov B. ABOUT THE DATE OF THE FIRST AND SECOND MONGOLIAN WALKS OF AMIR TIMUR //Конференции. – 2021.

6. Usmonov, B. "Ferghana in 70 years of XV century." Scientific journal of the Fergana State University 2.1 (2019): 39-42.

7. Usmonov, B. "Horticulture in Fergana in the Temurid's period." Scientific Journal Of The Fergana State University 2.4 (2019): 73-75.

8. Usmonov, Bahriddin Ahmedovich. "A Study of Political Processes in the Fergana Valley In 1371-1376." Design Engineering (2021): 6174-6187.

9. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

10. Usmonov B. FARG'ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O'RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

ҲОФИЗИ АБРУ АСАРЛАРИДА ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ТАРИХИНИ ЁРИТИЛИШИ

Баҳриддин Усмонов Ахмедович
ФарДУ Ўзбекистон тарихи кафедраси профнссори, т.ф.д.
bahriddinusmonov2@gmail.com

Сатторов Хуршид
ФарДУ 2-курс магистранти

Аннотация: *Мақолада темурийлар даври тарихчиси Ҳофизи Абрунинг "Зубдат ут-таворихи Бойсунғурий" асарида учрайдиган Фарғона водийсининг Амир Темур даври тарихига оид маълумотлар таҳлил этилган. Таҳлил жараёнида ушбу давр тарихини ёритишда муҳим ўрин тутган бошқа тарихий манбалардан ҳам кенг фойдаланилган.*

Калит сўз ва иборалар: *Ҳофизи Абру, Мирхонд, Абдураззоқ Самарқандий, Амир Темур, Фарғона, "Зубдат ут-таворихи Бойсунғурий", Андижон.*

Аннотация: *В статье анализируются сведения по истории Амира Темура Ферганской долины, содержащиеся в труде историка тимуридского периода Хафизи Абру «Зубдат ут-Таворихи Боисун'ури». При анализе широко использовались другие исторические источники, сыгравшие важную роль в освещении истории этого периода.*

Ключевые слова и фразы: *Хафизи Абру, Мирхонд, Абдураззок Самарканди, Амир Темур, Фергана, «Зубдат ут-таварихи Бойсунг'ури», Андижан.*

Annotation: *The article analyzes the information on the history of Amir Temur of the Ferghana Valley found in the work "Zubdat ut-Tavorikhi Boisung'uri" by Hafizi Abru, a historian of the Timurid era. During the analysis, other historical sources that played an important role in illuminating the history of this period were widely used.*

Key words and phrases: *Hafizi Abru, Mirkhond, Abdurazzoq Samarkandi, Amir Temur, Fergana, "Zubdat ut-tavarihi Boysung'uri", Andijan.*

Ҳофизи Абру номи билан танилган Шиҳобиддин Абдуллоҳ ибн Лутфуллоҳ ибн Абдурашид Ҳаравий (Хавофий)нинг тарих ва географияга бағишланган асарларида ҳам Фарғона водийси тарихига оид лавҳалар учрайди ***[1]***. Муаллиф "География" асарида Хўжанд шаҳри ва вилояти ҳақида сўз юритиб, ушбу ҳудуднинг иқтисодий ҳолатига оид қимматли маълумотлар келтиради ***[2]***. Тарихчининг Фарғона водийси тарихи учун яна бир муҳим асари "Мажма ат-таворих"деб номланиб, Мовароуннаҳр, Эрон ва Хуросонда исломиятдан аввалги даврдан бошлаб то 1427 йилгача юз берган воқеаларга бағишланади ***[3]***. Асар тўрт жилддан иборат. Асарнинг 4-жилди "Зубдат ут-таворихи Бойсунғурий", деб номланган бўлиб, Амир Темур ва Мирзо

Шоҳруҳнинг 1427 йилгача бўлган тарихидан иборат. Ушбу қисм ҳижрий 736 йил милодий 1336 йил воқеалари билан бошланади. Ўз навбатида 4-жилд ҳам тўрт қисмга бўлинади ва Теҳронда 1959-1960 йилларда Сайид Камолхож Сайид Жаводий томонидан нашр этилган. Асар Шарафиддин Али Йаздийнинг “Зафарнома” асари билан бир вақтда ёзилганлигини ҳамда келтирилган маълумотларининг бошқа манбаларда учрамаслиги унинг манбавий аҳамиятини яна ҳам оширади. Жумладан, Амир Темурнинг 1371 йилда Фарғона водийсига келганлиги, Фарғонани бошқариш учун юборилган Мирзо Умаршайх билан биргаликда апарди ва қарлуқ қабилаларидан таркиб топган туманлар водийга жўнатилганлиги, Анқотўра 1388 йилдаги Фарғонага қилган босқинида Сирдарёнинг Тўққиз Торим кечувидан ўтганлиги каби маълумотлар Амир Темур ва темурийлар даври манбаларида учрамайди. Агар Мирхонд, Хондамир ва Муҳаммад Ҳайдар Мирзолар ўз асарларини ёзишда Яздий асарига суянган бўлса, Абдураззоқ Самарқандий Амир Темур ва Мирзо Шоҳрух даврини ёритишда Ҳофизи Абруга мурожаат қилади.

Ҳофизи Абрунинг муҳим маълумотлар Амир Темурнинг 1371 йилги Мўғулистон юриши йўналишларини белгилашда ҳам муҳим аҳамиятга эга. Шарафуддин Али Яздий 1370-1371 йили Амир Темур қўшинлари Сирдарёдан ўтиши билан бу ерда турган Кумаз ва Ўрнак Темур таслим бўлганликларини қайд этган ***[4: 71].*** Низомиддин Шомий эса мазкур юриш 1371-1372 йили бўлиб ўтганлигини таъкидлаб, Кумаз ҳақида сўз юритмасдан, бу юриш натижасида Ўрунг Темурнинг таслим бўлганлиги, Амир Темур уни яна шу ҳудуд ҳокими этиб тайинлаб, ортга қайтганлигини баён қилган ***[5: 89; 6: 99].*** Ушбу юриш мақсади ва натижаси ҳақида Муиниддин Натанзий батафсил маълумот беради. У ҳам мазкур воқеалар 1371-1372 йили бўлиб ўтганини қайд этади ***[7: 116-117]***. Натанзий Амир Темурнинг бу юриши натижасида мўғул амирлари Фарғона водийсини тарк этганлигини қайд этган. Ҳофизи Абру ва Абдураззоқ Самарқандий ҳам Амир Темур Фарғона

водийсининг Ўзганд ноҳияси орқали Мўғулистонга юриш қилганлигини таъкидлаган

Шарафуддин Али Яздий ва Низомиддин Шомийлар ўз асарларида исён ҳақида хабар топган Амир Темур Самарқандга ёрдам учун лашкарнинг илғор қисмини Мирзо Жаҳонгир бошчилигидаги жўнатганлигини баён этган. Лекин Муиниддин Натанзий илғорга Мирзо Умаршайх бошчилик қилганлигини таъкидлаб, жанг воқеаларини ҳам батафсил ҳикоя қилади. Ҳофизу Абруда ҳам ушбу воқеалар баёнида фақат Мирзо Жаҳонгир ҳақида сўз юритилган. Бизнингча, Мирзо Жаҳонгир раҳбарлигида жўнатилган қўшин сафида Мирзо Умаршайх ҳам бўлган ва у бу жангда қоровул қисмини бошқарган бўлиши керак. Натанзий ўзининг ушбу асарини дастлаб Мирзо Умаршайхнинг ўғли Искандарга тақдим этганлиги сабабли, Умаршайх фаолиятига кўпроқ эътибор қаратган кўринади. Балки, ушбу исён бостирилгач, Фарғона водийсининг айнан Мирзо Умаршайхга тақдим этилиши ҳам Натанзийнинг шундай хулоса чиқаришига асос бўлган бўлиши мумкин.

Амир Темур мамлакатнинг шарқий қисмини исёнчилардан озод этиб, маъмурий ўзгаришларни амалга оширди. Шарафуддин Али Яздий Мирзо Умаршайхга Фарғона водийсини суюрғол қилиб берилиши борасида “амирзода Умаршайхни Андижонга йибарди”, дейиш билан чекланган бўлса, Ҳофизи Абру ва Абдураззоқ Самарқандий Мирзо Умаршайхни Ўзганд(Фарғона маъносида)га юборилганлигини таъкидлашади. Низомиддин Шомий воқеалар баёнини тўғридан-тўғри Умаршайхни Андижон шаҳрида эканлигидан бошлайди. Муиниддин Натанзий бу воқеага алоҳида эътибор қаратиб, ўз асарининг бир фаслини мазкур тайинланиш баёнига бағишлайди. “Олам Шаҳзодасининг саъй-ҳаракатлари туфайли тўла ғалаба муяссар бўлгач, – деб ёзган эди муаллиф, – жулду (инъом) тариқасида Ўзжанднинг ўн икки тумани ҳазратга иқтоъ қилиб берилди ва жаҳон бўйсунувчи фармонга

мувофиқ амирзода ул тарафга отланди”. Афсуски, Натанзийда Фарғонанинг ўн икки тумани қайси ҳудудлардан иборат эканлиги аниқ берилмаган.

Шарафуддин Али Яздий ва Низомиддин Шомийлар берган маълумотдан янги ташкил этилган мулкнинг маркази Андижон шаҳри эканлиги ойдинлашади. Бу фикрни воқеаларнинг кейинги ривожи ҳам тасдиқлайди. Ҳофизи Абру ва Абдураззоқ Самарқандийнинг сўзларига кўра Мирзо Умаршайх Фарғонага келгач, Андижонни янги девор билан ўратади. Бу ҳолатни Умаршайх мирзонинг Андижонни водий марказига айлантиришдаги дастлабки қадами, дейиш мумкин.

Мирзо Умаршайх ихтиёрида бир мунча катта лашкар борлигини тахмин қилиш мумкин. Унинг Қамариддин қўшинлари бостириб келаётганидан хабар топиши билан очиқ майдонда жанг қилиш мақсадида Фарғона водийсининг Мўғулистон билан чегараси томон йўлга чиқиши шундан далолат беради. Низомиддин Шомийнинг маълумотига қараганда, у қоровул қўшини сифатида қозоқ ҳазорасидан тузилган лашкарни олдинга жўнатиб, ўзи уларнинг кетидан борган. Қазоқ ҳазораси эса, Мирзо Умаршайх асосий қўшин билан етиб келмасидан аввал душман томонга ўтиб кетган. Шарафуддин Али Яздий, Ҳофизу Абру ва Самарқандий қазоқ ҳазораси Мирзо Умаршайхдан қочиб, душман томонига ўтиб кетганлигини қайд этган. Натижада Мирзо Умаршайх жангга кирмай, қолган кучлари билан тоғлар томонга чекиниб, Амир Темурдан ёрдам сўрайди. Хондамир Мирзо Умаршайх Амир Темур ҳузурига вазиятни билдириш учун Донишманд исмли шахс жўнатилганлигини таъкидлайди. Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома”сининг форс тилидан эски ўзбек тилига қилинган таржимасида Амир Темур ҳузурига юборилган хабарчининг исмини берилмасдан унинг сифатини баён қилиниб, донишманд инсон эканлигини қайд этилган. Лекин ушбу асарнинг форс тилидаги матнида жўнатилган хабарчининг исми Донишманд эканлиги ёзилган. Бундан кўринадики, Муҳаммад Али томонидан 1516 йили амалга оширилган таржимада баъзи ўзгаришларга йўл

қўйилган, Хондамир эса бу масалада Шарафуддин Али Яздийнинг маълумотига таянган. Натанзий Умаршайх ихтиёридаги қўшин билан Қарсоб соҳилида босқинчилар йўлини тўсганлиги, лекин жанг бошланиши олдидан уч минг кишилик қозоқ минглиги душман томонга ўтиб кетганлиги натижасида жангга кирмай, тоғ чўққиларига мустаҳкамланиб, Самарқандга хабар жўнатганлигини қайд этган.

Мирзо Умаршайхнинг Қарсоб (Оби қарс, оби фарс) соҳилида мўғул қўшинини қарши олганлиги фақатгина Натанзий, Ҳофизи Абру ва Абдураззоқ Самарқандийнинг асарлари орқали бизга етиб келган. Қарсоб дарёси ёки сойи ҳақида бошқа манбаларда маълумот учратмадик. Лекин тарихий манбалардаги маълумотлар ва В.В. Бартольд асарларига илова тарзида тузилган хариталарга асосланиб, Қарсоб дарёси ёки сойи Фарғона водийсининг шарқий чегараларидаги тоғларга яқин дарёлардан бирининг номи, деб тахмин қилиш мумкин. Мирзо Умаршайхнинг Андижонга чекинмай, тоғларга чиқиб кетиши бу дарёнинг тоғларга жуда яқин бўлганлигини кўрсатади. Бизнингча, В.В. Бартольд харитасида кўрсатилган Ўзганд шаҳрининг шимоли ва ғарбидан оқиб ўтувчи Ясси номи билан берилган дарёни Натанзий Қарсоб, деб атаган бўлиши мумкин. Бу дарёнинг юқори оқими Фарғона водийсининг шарқий чегараси бўлган Ясси довонига яқин жойдан оқиб ўтади. Айнан шу ҳудудда Мирзо Умаршайх мўғул босқинчиларига қарши чиққан.

Шу ўринда Қамариддин ҳақидаги фикрларга тўхталиб ўтиш лозим. Низомиддин Шомий Тўхтамиш лашкарбошиларидан ҳеч кимнинг номини қайд этмаган бўлса, Шарафуддин Али Яздий уларнинг номини батафсил санаб ўтган. Лекин у Қамариддин ҳақида маълумот бермаган. Мирзо Ҳайдар Амир Темурнинг 1376 йилги Мўғулистонга уюштирилган бешинчи юриши вақтида Қамариддиннинг изсиз йўқолганлигини таъкидлаган. Шунингдек, Низомиддин Шомий ва Шарафуддин Али Яздий асарларида ҳам 1376 йилдан кейинги воқеалар баёнида Мўғулистон амири Қамариддин номи учрамайди.

Фақат Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома”сида Амир Темур қўшинларининг 1383, 1390 йиллардаги Мўғулистонга қилинган юришларида темурийлар лашкари билан жанг олиб борган баҳрин қабиласи вакили амир Қамариддин ҳақида сўз юритилган. Натанзий, Ҳофизи Абру, Абдураззоқ Самарқандий ва Хондамир Мўғулистонда мағлуб бўлган Қамариддиннинг Тўхтамишхон олдига паноҳ сўраб борганлиги ҳақида маълумот берган. Бундан кўринадики, Мирзо Ҳайдарнинг амир Қамариддин ҳақидаги маълумоти ишончсиздир.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. – С. 40-42;

2. Бартольд В.В. Хафиз-и Абру и его сочинения. // Бартольд В.В. Сочинения. Т. VIII – М.: Наука, 1973. – С. 74-97;

3. Бўриев О. Ҳофизу Абру ва унинг илмий мероси. // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. /

4. М. Хайруллаев ва бошқаларнинг таҳрири остида; тузувчилар: А. Ўринбоев, О. Бўриев. – Т.: А.Қодирий номидаги хадқ мероси нашриёти., 1997. – Б. 61 – 62;

5. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Б. 169 – 171;

6. Ўша муаллиф... Ҳофизи Абру. // Ўша муаллиф... Ўзбекистоннинг атоқли тарихшунос олимлари. – Б. 17 – 18;

7. Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Б. 109-110;

8. Амир Темур жаҳон тарихида. – Б. 198; История Узбекистана.

9. Эпоха Амир Темура и Темуридов. – С. 18-19; Mohamad Reza Ghiasian. The “Historical Style” of Painting for Shahrukh and Its Revival in the Dispersed Manuscript of Majmaʿ al-Tawarikh Iranian Studies, 2015. Vol. 48, № 6. – P. 871-903.

10. Ҳофизи Абру. “География”дан. // Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. – Б. 74-75.

11. حافظ ابرو. زوبة التواريخ. مقدمة، تصحيح و تعليفات: كمال حاج سيد جوادى. در چهار جلد. تهران، 1959-1960.

12. Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.

13. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996

14. Мирхонд. Равзат ал-сафо фи сийрат ал-анбиё вал мулук вал хулофо. Қўлёзма. میرخواند الصفا فئ سئره الانبیائ و الملوک و الخلفاور АҚШнинг Мичиган университети кутубхонасидан олинган электрон нусха

15. Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи - Ғулом Каримий - Т.: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.

16. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013. – 1272 б.

17. Usmonov B. ABOUT THE DATE OF THE FIRST AND SECOND MONGOLIAN WALKS OF AMIR TIMUR //Конференции. – 2021.

18. Usmonov, B. "Ferghana in 70 years of XV century." *Scientific journal of the Fergana State University* 2.1 (2019): 39-42.

19. Usmonov, B. "Horticulture in Fergana in the Temurid’s period." *Scientific Journal Of The Fergana State University* 2.4 (2019): 73-75.

20. Usmonov, Bahriddin Ahmedovich. "A Study of Political Processes in the Fergana Valley In 1371-1376." *Design Engineering* (2021): 6174-6187.

МИРЗО УМАРШАЙХНИНГ МИРЗО СУЛТОН АБУ САЪИД ДАВРИДАГИ ФАОЛИЯТИ ҲАҚИДА БАЪЗИ БИР МУЛОҲАЗАЛАР

Бахриддин Усмонов Ахмедович
ФарДУ профессори
bahriddinusmonov2@gmail.com
Турсунова Гулнора Шухратовна
ФарДУ магистранти

Аннотация: *Мақолада Фарғона ҳокими Мирзо Умаршайхнинг ёшлик йиллари ва отаси темурийлар салтанатининг олий ҳукмдори Мирзо Султон Абу Саъид давридаги давлатчилик фаолияти тарихий манбалар ва илмий адабиётлар асосида ёритиб берилган.*

Калит сўз ва иборалар: *Мовароуннаҳр, Мўғулистон, Ҳирот, Кобул, Фарғона, Андижон, Ахси, Ўш, Худойберди Темуртош, Бек атка, Оталиқ.*

Аннотация: *В статье на основе исторических источников и научной литературы освещаются юношеские годы ферганского губернатора Мирзы Умаршайха и его отца, верховного правителя Империи Тимуридов Мирзы Султана Абу Саида.*

Ключевые слова и фразы: *Мовароуннахр, Монголия, Герат, Кабул, Фергана, Андижан, Ахси, Ош, Худойберди, Темурташ, Бек атка, Оталик.*

Annotation: *In the article, the youth years of Ferghana Governor Mirza Umarshaikh and his father, the supreme ruler of the Timurid Empire, Mirza Sultan Abu Sa'id, are highlighted on the basis of historical sources and scientific literature.*

Key words and phrases: *Movarounnahr, Mongolia, Herat, Kabul, Fergana, Andijan, Akhsi, Osh, Khudoyberdi Temurtash, Bek atka, Otaliq.*

Мирзо Умаршайхнинг (*1469 йили йили Андижонда битилган ёрлиқда Мирзо Умаршайх номи расмий равишда Султон Умар Шайх тарзида келтирилган. Қаранг: Қ. Омонов. Темурийлар даврида битилган ёрлиқлар*

унвони. // "Темурийлар тарихига оид манбалар" мавзуидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, Темурийлар тарихи давлат музейи. 18 октябрь 2007 йил. – Б. 76. Лекин биз тадқиқотда илмий адабиётларда кенг қўлланилган Мирзо Умаршайх тарзида фойдаландик) Фарғона водийсидаги ҳукмдорлиги 1462 йилнинг октябридан бошланган (*Мазкур масалага биринчи бўлиб С. Азимжонова аниқлик киритган ва Стэнли Лэн-Пуль, П.М. Мелиоранскийларнинг хулосалари нотўғри эканлигини асослаб берган.*) ***[1:21].*** Бу вақтда Умаршайх 6-7 ёшда бўлганлиги учун ҳам, вилоятни унинг номидан Султон Абу Саъиднинг йирик амирларидан бири ҳисобланмиш бек аткаси, яъни оталиғи (*Темурийлар даврида давлат бошқарувида оталиқ (бек атка) лавозими муҳим аҳамияти эга мансаблардан бири эди. Темурийлар давлатига тегишли йирик улуслар ва вилоятлар раҳбари этиб тайинланган шаҳзодаларнинг бошқарув ишларига оталиқлар катта таъсир ўтказган. Бу кўп ҳолларда шаҳзоданинг ёши билан боғлиқ бўлган. Мирзо Улуғбек номидан 1409-1411 йилларда Моваройннаҳрни шаҳзоданинг оталиғи амир Шоҳмалик бошқарган.*) Худойберди Темуртош (*Худойберди Темуртош (1437-1465)– Мирзо Умаршайхнинг оталиғи.*) бошқарган.

Худойберди Темуртош тўғрисида "Бобурнома"да қисқа, лекин қимматли маълумотлар мавжуд: "Худойберди Темуртош эрди. Хирий ҳокими Оқбуғабекнинг оғасининг насилдиндур. Мирзо Султон Абу Саъид Жўги мирзони Шоҳрухияда қабағонда, Фарғона вилоятини Мирзо Умаршайхга бериб, эшикни бу Худойберди Темуртошга бошлатиб йибориб эрди. У маҳалда бу Худойберди Темуртош йигирма беш ёшда эрди, агарчи ёшда кичик эрди, тузуки ва забту рабти бисёр яхши эрди. Бир-икки йилдин сўнгра Иброҳим Бекчик Ўш навоҳисини чопқонда, Худойберди Темуртош кейинича бориб, урушиб, босилиб, шаҳид бўлди. Ул фурсатта Мирзо Султон Аҳмад Ўратепанинг Оққачғай деган яйлоғида эдиким, Самарқанддин ўн саккиз йиғоч шарқ жонибидир, Мирзо Султон Абу Саъид Бобо Хокийда

эрдиким, Ҳирийдин ўн икки йиғоч шарқ соридур, бу хабарни Абдулваҳҳоб шиғовулдин арза дошт қилиб, мирзоға чоптурдилар, бу юз йигирма олти йиғоч йўлни тўрт кунда чопар” ***[2:15].***

Ушбу маълумот муҳим хулосалар чиқаришга ёрдам беради. Иброҳим бекчик мўғул улусининг энг йирик амирларидан бири эди. Мирзо Ҳайдар маълумотига кўра, Иброҳим Бекчик Эсан Буғахон ҳукмронлигини тан олмай, Иссиққўлда қалъа қуриб, асосан Туркистон, Сайрам шаҳарларини доимий талон-тарож қилган амир Пир Ҳақбердининг жиянидир. У Пир Ҳақберди вафот этгач, Иссиққўлда ҳокимиятни қўлга олган ва Юнусхон Мўғулистонга келганда унинг хизматига кирган ***[3:109]***. Амир Иброҳим бекчик бошчилигидаги мўғул қўшини 1464-1465 йилларда ҳам Ўш атрофини талон-тарож қилиши Юнусхоннинг Мўғулистондаги ҳокимиятининг кучсиз бўлганлигини кўрсатади. Чунки Юнусхон ўзига катта ёрдам бераётган темурий ҳукмдор Мирзо Султон Абу Саъидга қарашли мулкларга мўғул қабилаларининг сардорларидаг бири бўлмиш Иброҳим Бекчикнинг ҳужум қилишига тўсқинлик қилолмаган. Чунки бу вақтда, яъни, 1464 йили Юнусхон Мўғулистонда муваффақиятсизликка учраган ҳамда яна бир бор Ҳиротга ташриф буюриб, темурийлар салнатати ҳукмдори Султон Абу Саъид олдида таъзим қилиб, ундан ёрдам сўраб боради. Фарғона водийси чегараларида тинчлик ўрнатиш учун ҳам Мўғулистон тахтига ўз одамини чиқариш зарурлигини яхши англаб етган Мирзо Султон Абу Саъид мўғул хони Юнусхонга яна бир бор ёрдам беришга қарор қилади.

Бу ҳақида Абдураззоқ Самарқандий қуйидагиларни баён қилади: “Шу аснода Юнусхон замона ҳодисалари ва кеча-кундуз ўзгаришлари сабабли умид юзини олампаноҳ даргоҳга қаратганлиги ҳақида шарафли қулоқларга хабар етди. (Юнусхон) кўп вакқтлардан бери у ҳазрат (Султон Абу Саъид)нинг гўзал иноятн ва маҳамати тарбияти билан сарафроз бўлиб, онҳазрат унинг салтанати асосини бир неча бор тартибга келтирган, у камоли улуғворлик билан (1280) ўз эл-улусига кирган ва онҳазратнинг иноятн

кўмагида подшоҳ бўлган эди. (Унинг келаётганлигини эшитган) онҳазрат (Султон Абу Саъид) таъзим ва улуғлаш шар-шароитлари ҳам иззатлаш ва кутиб олиш расм-русумларини бажо келтириб, улуғ амирлар ва номдор мукарриблари бир неча манзил илгари юборди, у яқинлаб етганида эса султон ҳазратлари ўз шариф зоти билан истиқболга чикди. Улар бир-бирларини қучоққа тортдилар ва онҳазрат хонга дилдорлик кўрсатди, бир неча мажлисда подшоҳона тўйлар ва хусравона базмлар ташкил этди. (Юнусхоннинг) ҳол тили ҳар замон ушбу мақол мазмунини тараннум этар эди".

Тегишли ёрдам олиб, Мўғулистонга қайтган бўлса ҳам Юнусхон 1465 йили бу ерда ҳукмронликни тўла қўлга кирита олмаган эди. Мўғул қабилаларининг бир қисми унинг ҳокимиятини тан олган бўлсалар-да, бир қисми унинг рақиблари томонида бўлиб ўзаро курашларга киришган эдилар.

Худди шу йиллари қалмоқларнинг Мовароуннаҳрга бостириб кирганлиги ҳам Иброҳим бекчик учун қўл келган. Бу вақтда Султон Аҳмаднинг Ўратепада эканлиги бежиз эмас эди. Одатда Самарқанд ҳукмдорлари мамлакатнинг шимоли ва шарқий ҳудудларига хавф туғилса, Ўратепа ёки Шоҳрухия атрофини ўзларига лашкаргоҳ қилиб олганлар. Шоҳрух ва Мирзо Улуғбекларнинг фаолиятида ҳам бунга гувоҳ бўлиш мумкин.

Шунингдек, Абдураззоқ Самарқандий 1465 йили қалмоқ қабилалари Мовароуннаҳр шаҳарларига ҳужум қилганлигини хабар қилган: "Шу ойнинг ўрталарида (12 апрель 1465) Мовароуннаҳр томондан арзнома билан элчи келиб: «(Қалмок,) диёрининг бузуқчи кофирлари бўлган ва у мулклар чеккаларида юрту маконга эга бўлган Қалмоқ мўғуллари ислом шаҳарларига қасд қилдилар ва ўзлари нимагаки қодир бўлсалар — зоҳир этдилар; давлатҳоҳ, бандалар ва жангталаб диловарлар пистирма қуриб, тўсатдан пистирмадан ҳужумга ўтдилар ва мухолифлар тўдаси асосини бунёдидан ағдариб, бузуқчи кофирлардан кўпини қаҳр тиғидан ўтказдилар ва

каллаларни араваларга ортиб Мовароуннаҳрга етказдилар» деб арзга етказди” ***[4:555]***. Қалмоқларнинг бу босқинида ўзаро низолар натижасида улар хизматига ўтиб кетган мўғул қабилалари ҳам қатнашган. Ҳужум асосан Туркистон шаҳарларига (*Абдураззоқ Самарқандий қалмоқлар Мовароуннаҳр шаҳарларига ҳужум қилганлиги айтган бўлса-да, уларга қарши олиб борилган жанг тафсилотлари ва жангларда ўлдирилган қалмоқларнинг “каллалари араваларда Мовароуннаҳр шаҳарларига етказилганлиги” хабари уларнинг ҳужуми Туркистон шаҳарлари яъни Сирдарёнинг ўрта оқимидаги шаҳарларга уюштирилганлигини кўрсатади)* уюштирилган бўлиб, темурийлар қўшини томонидан муваффақиятли қайтарилган. Султон Аҳмаднинг Ўратепа яқинида турганлиги сабабини қалмоқларнинг шу босқини билан изоҳлаш мумкин.

Хонсолор жангида мағлуб бўлган Юнусхон 1458-1459 йиллари Султон Абу Саъиднинг ҳузурига ёрдам сўраб келади. Барча лашкаридан айрилган Юнусхонда Мўғулистонга қайта юриш бошлаш учун имкон йўқ эди. Шу сабабли Мирзо Султон Абу Саъид унга Фарғонанинг Мўғулистон билан чегарадош ҳудудларида жойлашган Еттикандни инъом этган.

Юнусхон Еттикандан туриб Мўғулистон тахти учун узоқ вақт кураш олиб борди. Лекин бирор-бир йирик натижага эриша олмади. Бу вақтда ҳали катта қудратга эга бўлмаган Султон Абу Саъиднинг берган ёрдами бутун Мўғулистон устидан ҳукмронликни қўлга киритиш учун етарли эмасди. Юнусхон томонидан Мўғулистоннинг тўлиқ бўйсундирилиши эмас, балки уларнинг ўзаро уруш билан банд бўлиб, Мовароуннаҳрга нисбатан хавф солмасликлари темурий ҳукмдор учун энг муҳим натижа эди.

В.В.Бартольд Юнусхоннинг 1456-1462 йиллари Еттикандда яшаганлиги ва шу ердан туриб, Мўғулистон тахти учун кураш олиб борганлигини таъкидлайди. Лекин Юнусхон иккинчи марта ёрдам сўраб келганидан сўнг унга Еттиканд инъом этилганини назарда тутсак, унинг Еттикандаги ҳаёти 1459-1460 йиллардан бошланган бўлиб чиқади. Б.

Аҳмедов ҳам бирор санани келтирмаган ҳолда, Юнусхон Эсан Буғахондан мағлубиятга учраганидан сўнг Еттикандга жойлашганлигини қайд этган.

Юнусхон бу сафар ҳам бирор бир натижага эриша олмаганлигини Мирзо Ҳайдар таъкидлайди. Эсан Буғахоннинг 1462 йили вафот этганлигидан келиб чиқсак, бу вақтда Мирзо Султон Абу Саъид Юнусхонга янги хон Дўст Муҳаммадхон ҳамда Кошғарнинг янги ҳокими Сонсиз мирзога қарши курашида ёрдам бера олмас эди. Чунки унинг ўзи Мирзо Муҳаммад Жўкийнинг Дашти Қипчоқ ҳукмдори Абулҳайрхон томонидан қўллаб қувватланган исёнини бостириш билан банд бўлиб, Фарғона Мирзо Муҳаммад Жўкий тасарруфига ўтиб қолган эди. Лекин кўп ўтмай, юқорида таъкидланган исён бартараф этилиб, Мовароуннаҳрда тинчлик ўрнатилгач, Юнусхонга ёрдам бериш имконияти пайдо бўлади.

Юқоридагилардан кўринадики, Иброҳим бекчикнинг Ўш атрофларига мазкур ҳужуми, қалмоқларнинг Туркистон шаҳарлари томон уюштирган босқинлари билан бир вақтда 1465 йили содир бўлган. Бу ҳужум натижасида 1462 йилнинг охирларидан водийни Мирзо Умаршайх номидан бошқариб келган Худойберди Темуртош ҳалок бўлиб, унинг ўрнига янги оталиқ тайинланади.

Худойберди Темуртош вафотидан сўнг Мирзо Умаршайхнинг оталиғи вазифасига Ҳофиз Муҳаммадбек дўлдой тайинланган. У 1465 йилдан тахминан 1470-71 йилларга қадар Мирзо Умаршайхнинг оталиғи сифатида Фарғона водийсини бошқарди. Лекин Мирзо Бобурнинг сўзларига қараганда, Султон Абу Саъид вафотидан кейин Андижоннинг маҳаллий беклари билан тил топиша олмаган Ҳофиз Муҳаммад дўлдой Самарқандга Султон Аҳмад ҳузурига кетади: “Яна бир Ҳофиз Муҳаммад дўлдой эрди. Султон Малик Кошғарийнинг ўғли Аҳмад Ҳожибекнинг иниси эрди. Худойбердибек ўлгандан сўнгра муни эшик ихтиёри қилиб йибориб эрдилар. Мирзо Султон Абу Саъиднинг воқеасидин сўнгра Андижон беклари анинг била яхши чиқишмағон жиҳатидин Самарқандға Мирзо Султон Аҳмад мулозаматиға

борди” ***[2:15]***. Чунки унинг амакиси Жонибек Самарқандда Султон Аҳмаднинг оталиғи, иниси Аҳмад Ҳожибек эса Ҳирот ҳокими вазифасида фаолият олиб борган. Амир Жонибек вафотидан сўнг оталиқ лавозими Аҳмад Ҳожибек зиммасига юклатилган. Шунинг учун ҳам Ҳофиз Муҳаммад дўлдой иниси ҳузурига боришни маъқул кўрган.

Ҳофиз Муҳаммад дўлдойдан сўнг оталиқ вазифасини бажарган шахслар ҳақида маълумотлар учрамайди. Бу ҳол кейинги оталиқларнинг катта обрўга эга бўлмаганлиги билан боғлиқ бўлиши мумкин. Чунки бу вақтда Мирзо Умаршайх 14-15 ёшларда бўлиб, вилоятни шахсан ўзи бошқаришни хоҳлаган ва Ҳофиз Муҳаммад дўлдойнинг кетиши шу истак билан ҳам боғлиқ, деб ўйлаймиз.

Умуман олганда, Мирзо Умаршайхнинг мустақил ҳокимлик даврини 1469 йилдан белгилаш ҳар жиҳатдан тўғри бўлади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

12. Азимджанова С. К истории Ферганы второй половины XV в. – Т.: Издательство Академии наук Узбекской ССР. 1957. – 92 с.

13. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи П. Шамшиев – Т.: Юлдузча. 1989. – 368 б.

14. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи П. Шамшиев – Т.: Юлдузча. 1989. – 368 б.

15. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. Ж. II. Қ. II-III. 1429 – 1470 йил воқеалари. – Т. : «O‘zbekiston». 2008. – 832 б.

16. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А. Урунбаева, Р.П. Джалиловой, Л.М. Епифановой, примечания и указатели Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой – Т.: Фан, 1996. – 727 с.

17. Usmonov B. ABOUT THE DATE OF THE FIRST AND SECOND MONGOLIAN WALKS OF AMIR TIMUR //Конференции. – 2021.

18. Usmonov, B. "Ferghana in 70 years of XV century." *Scientific journal of the Fergana State University* 2.1 (2019): 39-42.

19. Usmonov, B. "Horticulture in Fergana in the Temurid's period." *Scientific Journal Of The Fergana State University* 2.4 (2019): 73-75.

20. Usmonov, Bahriddin Ahmedovich. "A Study of Political Processes in the Fergana Valley In 1371-1376." *Design Engineering* (2021): 6174-6187.

АМИР ТЕМУРНИНГ 1389-1390 ЙИЛЛАРДАГИ МЎҒУЛИСТОН ЮРИШЛАРИ

Баҳриддин Усмонов Ахмедович

ФарДУ профессори

bahriddinusmonov2@gmail.com

Олимжонов Муроджон Камолжон ўғли

ФарДУ магистранти

Аннотация: *Мақолада Амир Темурнинг 1389-1390 йилларда уюштирилган Мўғулистон юришларининг келиб чиқиш сабаблари ва оқибатлари тарихий манбалар ҳамда илмий адабиётлар, тадқиқотлар асосида таҳлил этилган.*

Калит сўз ва иборалар: *Мовароуннаҳр, Мўғулистон, Дашти Қипчоқ, Сирдарё, Фарғона, Амир Темур, Умаршайх мирзо, Амир Қамариддин, ҳарбий юриш.*

Аннотация: *В статье на основе исторических источников, научной литературы и исследований анализируются причины и последствия монгольских походов Амира Темура, организованных в 1389-1390 гг.*

Ключевые слова и фразы: *Мовароуннахр, Монголия, Дашти Кыпчак, Сырдарья, Фергана, Амир Темур, Умаршайх Мирза, Амир Камариддин, военный поход.*

Annotation: *The article analyzes the causes and consequences of Amir Temur's Mongolian campaigns organized in 1389-1390 based on historical sources and scientific literature and research.*

Key words and phrases: *Movarounnahr, Mongolia, Dashti Kipchak, Sirdarya, Ferghana, Amir Temur, Umarshaikh Mirza, Amir Qamariddin, military campaign.*

1389 йилнинг март ойида Мирзо Умаршайх бошчилигидаги қўшин лашкарнинг асосий қисми Сирдарёдан ўтиши учун кўприк бунёд этади. темурийлар лашкарининг дарёдан ўтганини эшитган Дашти Қипчоқ қўшини ўз юртига қайтиб кетди. Шундан сўнг кенгаш ўтказилиб, Дашти Қипчоқ томон юришни давом эттириш ёки Тўхтамишхоннинг иттифоқчилари

Мўғулистон хони Хизр Хожа ва амир Анқотўрани тор-мор келтириш зарурлиги тўғрисида маслаҳат қилинади.

Қурултой арафасида Мирзо Мироншоҳ Хуросонга қайтариб юборилган. Бунинг бир неча сабаблари бор эди. Биринчидан, бу вақтда Амир Темурнинг Мовароуннаҳрда бандлигидан фойдаланган Музаффарийлар сулоласининг вакиллари Форс вилоятида яна ўз мавқеларини мустаҳкамланаётганди. Иккинчидан, 1388 йилда Тусда Хожибек Жониқурбоний бошчилигида юз берган исён бостирилган бўлса-да Хуросонда вазият тўла барқарор эмасди ***[1:112-113; 2: 49.]***.

Кенгашда Амир Темур ўғилларидан фақат Мирзо Умаршайх иштирок этган. Асосий рақиб Тўхтамишхонга қарши юриш бошлашдан аввал унинг иккинчи иттифоқчиси бўлган Мўғулистонни тор-мор келтириш зарур эди. Бу масала яна шунинг учун муҳим эдики, узоқ давом этадиган Дашти Қипчоқ юришини бошлашдан аввал Фарғона водийси ва Тошкент воҳаси хавфсизлигини тўлиқ таъминлаш талаб этиларди. Бунинг учун эса айнан шу ҳудудга қўшни бўлган Мўғулистонни тор-мор келтириш, уларнинг бу ҳудудларга босқин уюштириш имкониятларини йўққа чиқариш керак эди. Мирзо Умаршайх энг мақбул таклиф сифатида Мўғулистон юришини қўллаб қувватлаган. Шомий ва Яздий кенгашда ким қандай фикр билдирганлиги ҳақида тўхталиб ўтмаган. Лекин Муиниддин Натанзий Мирзо Умаршайх Мўғулистонга қарши юриш қилиш тарафдори бўлганлигини қайд этган ***[3:146]***. Амир Темур эса Тўхтамишхон лашкари томонидан Мовароуннаҳрда амалга оширилган ҳунрезликлар учун тезроқ ўч олиш мақсадида Дашти Қипчоққа юриш қилишга шошилар эди. “Аммо Ҳазрат Амир Темурнинг хаёли бор эдиким, – деб ёзади Шарафуддин Али Яздий, – Тўхтамишхоннинг кейнида борғай. Аммо беклар барча иттифоқ қилиб, юкуниб дедиларким: “Давлатқа лойиқ турурким, аввал Хизр Хожа Ўғлонким, Тўғлуқ Темурхоннинг ўғли турур ва мўғул қавмининг хони турур ва бир улуғ душманимиз ул турур, анинг бошиға борали ва андин кўнгул жамъ этиб,

фароғат билан ўзга душман Тўхтамишхон устига борали”. Бу сўзни ва бу кенгашни ҳазрат Амир Темур қабул қилди ва андин қайтди” ***[4:123]***.

Ушбу юришда Мирзо Умаршайх ҳам фаол иштирок этиб, бир неча бор кўрсатган жасорати билан Амир Темур эътирофини қозонган. Улардан бири тўғрисида сўз юритар экан, Шарафуддин Али Яздий Мирзо Умаршайхни 50 киши билан душманнинг 800 кишилик гуруҳини тор-мор келтирганлигини қайд этиб, бу жасоратни “ Шаҳзода ул кун андоқ иш қилдиким, кўк ва ер анга офарин ўқудилар”, – деб таърифлаган эди ***[4:124]***. Амир Темур ушбу юришдан қайтаркан, Шарқий Туркистондаги душманларни тор-мор келтиришни Мирзо Умаршайхга топширди ***[5:190].***

Мирзо Умаршайх дастлаб Кўплакбек бошчилигидаги мўғул қўшинини тор-мор келтириб, Куран ва Учфармон мавзеларини эгаллайди. Шундан сўнг ғолиб лашкар иккинчи бор Кошғарга етиб келиб, уни забт этади. Бу юриш орқали Фарғона водийсига шарқий томондан қўшни бўлган ҳудудлардаги душман кучларига зарба берилди . Шарафуддин Али Яздийнинг маълумотига кўра, Мирзо Умаршайх катта ўлжалар билан Кошғардан вилояти Фарғона водийсига қайтиб кетган ***[4: 27]***. Лекин, Низомиддин Шомий уни Амир Темур бошчилигидаги лашкарга бориб қўшилганлигини таъкидлаб, қуйидагиларни баён қилади: “Амир Темур киши юбориб, амирзода Умаршайх Баҳодирни тўхтамасдан Қаҳлаға томонга жўнашга буюрди. Амирзода фармонга биноан дарҳол отланиб, Қаҳлағадан ўтди. Йўлда душманлардан бўлмиш Кублокка дуч келиб, уни тутиб ҳалок этди ва унинг вилоятларини ғорат қилди. Учпармон ва Кузан мавзеидан кўчиб ўтиб, у ердан Кошғарга кирди ва Ўзгандга бориб, ғалаба ёр лашкарга қўшилди” ***[6:156]***. Бу юриш тўғрисида Муиниддин Натанзий маълумот бермаган. Ҳар икки “Зафарнома”даги воқеалар баёни эса Амир Темур эса Мирзо Умаршайхни Шарқий Туркистон забти учун жўнатгач, Еттисув, Тароз ва Сайрам орқали Самарқандга йўл олганлигини, Мирзо Умаршайх эса қўшинлари билан Кошғардан сўнг Ясси довони орқали водийга

қайтганлигини кўрсатади. Демак, Низомиддин Шомий Фарғона водийсидаги Ўзгандни, Жанубий Қозоғистондаги Ўзгандга адаштирган бўлиши мумкин.

Шу ўринда айтиб ўтиш зарурки, темурийлар даврига оид манбаларда, айниқса, ҳар икки “Зафарнома”да довонлар Қаҳлаға номи билан аталаверган. А.Аҳмедов ва Ҳ.Бобобековлар аслида Қаҳлаға Сурхондарё вилоятидаги қадимий қалъанинг номи, бу ерда хаттот хатоликка йўл қўйган, – деб ҳисоблашган ***[4:535]***. Аслида бу хаттот хатоси эмаслиги ҳақиқатга яқин. Бошқа ўринларда ҳам ўзга ўлкалардаги довонларни, Мовароуннаҳрдаги довонлар номи билан аталган ҳолатлар мавжуд. Мисол учун Тахти Қорача номи Форс вилоятидаги довон номида ҳам ишлатилган ***[4:116]***.

1390 йили эса Амир Темур яна бир бор Мўғулистон устига юриш бошлашга фармон беради. Ушбу ҳужум ҳақида фақатгина Шарафуддин Али Яздий маълумот қолдирган. Унинг ёзишича, Мирзо Умаршайх мазкур ҳарбий юришда иштирок этмаган бўлса-да, Мўғулистонга юборилган 20 минглик қўшини сафида унинг беш минг кишилик ҳарбий қисми қатнашган ***[4:128]***. 1389-1390 йилларда Мўғулистонга қилинган ҳарбий юришлар Тошкент воҳаси ва Фарғона водийсининг чегарадош ҳудудларидаги кўчманчиларнинг куч ва мавқеларига жуда катта зарба берди ҳамда ушбу ҳудудларнинг хавфсизлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этди.

1391 йили Амир Темур Дашти Қипчоққа қарши биринчи йирик юришини бошлайди. Ушбу юришда Мирзо Умаршайх ҳам фаол иштирок этган. Юриш бошланишидан аввал Мўғулистонга икки бор юриш қилиниб, рақиблар тўлиқ тор-мор этилган бўлса-да, темурийларнинг асосий кучлари Тўхтамишга қарши юришга жалб этилганидан фойдаланган амир Қамариддин бошчилигидаги мўғулларнинг бир гуруҳи Фарғона водийсига бостириб кирган.

Ушбу босқин ва унга қарши олиб борилган кураш ҳақида ҳар икки “Зафарнома” муаллифлари ҳам сўз юритмаган. Уларда ҳеч бир саркарданинг ёки шаҳзоданинг асосий қўшиндан ажраб, ўз вилоятига эрта жўнаганлиги

ҳақида қайд этилмаган. Фақат Шарафуддин Али Яздий Мирзо Мироншоҳнинг Амир Темур билан Самарқандга етиб келганидан сўнг, рухсат олиб ўз мулки Хуросонга кетганлигини ёзади. Шу ўринда эътиборни жалб этадиган ҳолат шуки, Амир Темур қишни Тошкентда ўтказган. Одатда Амир Темур қишни Самарқанд атрофларида, шунингдек, Бухоро ёки Қашқадарё воҳасида ўтказарди. Амир Темур Дашти Қипчоқ юришидан қайтишда лашкар ўғруқини жуда катталиги сабабли секин ҳаракатланганлиги учун Ҳожи Сайфуддин бошчилигидаги беклар билан қолдирган. Ўғруқ Тошкентга 1391 йилнинг декабрида етиб келади. Балки Амир Темур ўғруқни кутиб олиш учун Тошкентга боргандир. Унинг Тошкентда туриши ҳам Дашти Қипчоқни кесиб ўтаётган ўғруқ хавфсизлиги учун катта ёрдам эди. Шу билан биргаликда, Мўғулистон билан муносабатларда яна кескинлик ошганлиги Амир Темурнинг Тошкентда қишлашига таъсир қилган.

Муиниддин Натанзий мўғул қабилаларининг водийга 1391 йилги босқини ва унга қарши кураш ҳақида қуйидагича ҳикоя қилади: “Ушбу юриш асносида Қамариддин бадкорлик қилиш учун фурсатдан фойдаланиб, Ўзканд тумани устига келган эди. У бир неча қишлоқни талаб, Мўғулистонга қайтиб кетди. Амирзода Умаршайх йўл ярмидаёқ кичик гуруҳ билан лашкардан ажраб, шаҳзодалар билан (тезроқ) мулоқот қилиш иштиёқида илғор тарзида йўл босди. Чунончи, ғоятда шошганидан бошқалардан ўзиб, Андигонга бир ўзи етиб келди. Унинг муборак пойқадами шарофатидан маҳзунлик ва ғам-ғусса шодлик ва фароғатга мубаддал бўлиб, жунбушга келган вилоятда барқарорлик ўрнатилди. Бир неча кундан сўнг лашкарнинг баъзи қисмлари етиб келгач, (амирзода Умаршайх) Мўғулистонга жўнади ва Қамариддиннинг қилмиши қасоси учун ул улусни тавбасига таянтирди. Ҳар бир қўй эвазига бир сурув, ҳар бир одам ўрнига бир гуруҳ кишини асирга олиб келтирди” ***[3:151].***

Шуни алоҳида қайд этиш керакки, юқорида тилга олинган Қамариддин баҳрин қабиласининг сардори бўлиб, уни 1376 йилга қадар Мўғулистонда

катта мавқега эга бўлган дуғлат қабиласининг сардори амир Қамариддин билан адаштирмаслик лозим. Қамариддин унча кўп бўлмаган аскар билан босқин уюштирган бўлса керакки, Ўзган атрофидаги бир неча қишлоқни талаш билан чекланган. Фарғона водийсини асосан Ўзжанд вилояти номи билан тилга олган Муиниддин Натанзийнинг бу ерда Ўзканд тумани атамасини ишлатиши ҳам босқин Ўзган шаҳри атрофи билан чекланилганлигини кўрсатади.

Шу ўринда ушбу юриш бўлиб ўтган вақт ҳақида ҳам мулоҳаза юритиш жоиз. Дашти Қипчоқ юришидан Самарқандга қайтиб келган Мирзо Мироншоҳнинг Амир Темурдан рухсат олиб, Хуросонга кетганлиги Шарафуддин Али Яздий томонидан қайд этилишидан Мирзо Умаршайх улар билан бирга қайтмаганлиги ҳам англашилади. Агар аксинча бўлганда, Мирзо Умаршайх номи ҳам тилга олинарди. Амир Темур 1391 йилнинг октябрида Самарқандга етиб келганлиги асосида фикр юритадиган бўлсак, у билан бирга қайтган Мирзо Умаршайх шум вақтда ўз мулкига етиб келган. У ўзининг Мўғулистонга юришини Амир Темурнинг рухсати билан октябрь охири ва ноябрь ойининг бошларида бошлаганлигини тахмин қилиш мумкин. Чунки, октябрь ойида Самарқандга етиб келган Амир Темурнинг бир неча кундан кейин Тошкентга қишлаш учун кетганлигини Шарафуддин Али Яздий ҳам қайд этган. Бизнингча, Амир Темурнинг Тошкент томон сафарга чиқиши ва Мирзо Умаршайхнинг Мўғулистонга ҳужуми бир вақтда бошланган. Амир Темур Тошкентда қишлаш орқали мўғул кучларининг катта қисмини Мирзо Умаршайх қўшини кириб борган Шарқий Туркистондан Мўғулистоннинг шимоли-ғарбий чегараларига жалб этиб, ўғлига катта ёрдам берган. Мирзо Умаршайх юриш давомида кўп сонли лашкар билан ҳаракат қилмаган. Шунинг учун ҳам Мўғулистоннинг ичкарисига кириб бормаган ва Шарқий Туркистонга зарба бериш билан чекланган. Агарда бу юришга Дашти Қипчоқ юришидан қайтган катта лашкар жалб этилганда, шунингдек, юриш Тошкент ва Туркистон воҳалари

орқали олиб борилганда ҳар икки “Зафарнома” муаллифлари бу юриш ҳақида сўз юритган бўларди.

Умуман олганда 1389, 1390 йилларда Мўғулистонга уюштирилган катта ҳарбий юришлар ва 1391 йилги Мирзо Умаршайх бошчилигидаги ҳужумдан сўнг, Фарғона водийсининг чегаралари янада мустаҳкамланди ва мўғул амирларининг босқинчилик ҳужумларига бутунлай чек қўйилди. Шундан кейинги 20-30 йил давомида уларнинг Фарғона водийсига босқини кузатилмади. Мовароуннаҳр қўшинлари билан жанглардаги кетма-кет мағлубиятлар натижасида Мўғулистон ҳукмдорлари ўз эътиборларини шарққа қаратишга мажбур бўлди. мирзо Ҳайдарнинг таъкидлашига кўра, Амир Темурга бўйсунган Хизрхожахон даврида мўғул амирлари бу вақтда Хитой тасарруфига ўтиб қолган Турфон ва Қорахўжа атрофларига ҳужумлар уюштирганлар ***[7:81]***.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пер. предис. примеч. и указатели Д. Ю. Юсуповой. – Т.: Фан, 1980. – 346 с.

2. Roemer H.R. Timur in Iran // The Cambridge histore of Iran. Vol. 6. The Timurid and Safavid periods, ed. Peter Jackson and Laurence Lockhart. Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 49.

3. Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи - Ғулом Каримий - Т.: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.

4. – Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Ҳ.Бобобеков, -Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.

5. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи садъайн ва мажмаи бахрайн. Қўлёзма. عبدالرزاق سمرقندوی مطلع السعدین و مجمع البحرین АҚШнинг Мичиган университети кутубхонасидан олинган электрон нусха.

6. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев -Т.: Ўзбекистон, 1996

7. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А. Урунбаева, Р.П. Джалиловой, Л.М. Епифановой, примечания и указатели Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой – Т.: Фан, 1996. – 727 с.

8. Usmonov B. ABOUT THE DATE OF THE FIRST AND SECOND MONGOLIAN WALKS OF AMIR TIMUR //Конференции. – 2021.

9. Usmonov, B. "Ferghana in 70 years of XV century." *Scientific journal of the Fergana State University* 2.1 (2019): 39-42.

10. Usmonov, B. "Horticulture in Fergana in the Temurid's period." *Scientific Journal Of The Fergana State University* 2.4 (2019): 73-75.

11. Usmonov, Bahriddin Ahmedovich. "A Study of Political Processes in the Fergana Valley In 1371-1376." *Design Engineering* (2021): 6174-6187.

AMIR TEMUR TOMONIDAN HIROT SHAHRI ZABT ETILISHINING TARIXIY MANBALARDA YORITILISHI

Ahmadjonova Zarnigor Abdujalil qizi

Farg'ona davlat universiteti tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:*Ushbu maqolada Amir Temur lashkari tomonidan Hirot shahrining zabt etilishi masalasining tarixiy manbalarda yoritilishi o'rganilgan. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Muiniddin Natanziyning "Muntaxab ut-tavorix" hamda "Temur tuzuklari" asarlaridagi masalaga oid ma'lumotlar qiyosiy tahlil etilgan.*

Kalit so'z va iboralar: *Amir Temur, Malik G'iyosiddin, Nizomiddin Shomiy, Sharofuddin Ali Yazdiy, Muiniddin Natanziy, "Temur tuzuklari" , Hirot, Fushanj, Po'shang.*

Аннотация: *В этом статье говорится о напровление войск Амира Темура в город Хират что бы захватит и в том числе изучат проблему исторического источника. Низамиддин Шомий "Зафарнома", Шарафиддин Али Язди "Зафарнома", Муиниддин*

Натанзий “Мунтахаб ут- таворих” и “Темур тузуклари” в этих произведениях проблема достигло еравнительнедю ведение.

Ключевые слова и фразы:*Амир Тимур, Малик Гиазиддин, Низамуддин Шами, Шарафуддин Али Язди, Муниддин Натанзи, “Правила Тимуры”, Ҳират, Фушанж, Пўшанг.*

Annotation:*This article examines the coverage of the conquest of the city of Herat by Amir Temur’s army in historical sources. The information on the issue in the works of Nizamiddin Shami “Zafarnoma”, “Zafarnoma” of Sharofuddin Ali Yazdi, “Muntahab ut-Tawarikh” and “Tuzuklari of Timur” by Muiniddin Natanzi were analyzed.*

Key words and phrases: *Amir Temur, Malik Ghiyosiddin, Nizamiddin Shami, Sharafuddin Ali Yazdi, Muiniddin Natanzi, “Tuzuklari Temur”, Herat, Fushanj, Poshang*

Amir Temur tomonidan Hirot shahrining zabt etilishi hikoya qilingan ilk tarixiy manba Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridir. Dastlab muallif haqida so‘z yuritsak. Nizomiddin Shomiy Amir Temur davri tarixchisi bo‘lib, uning tug‘ilganyili haqidagi ma’lumotlar saqlanmagan. Shomiyning tavallud topgan joyiga nisbat berilib, Shomiy yoki Shanbiy nomlari bilan ham atalishidan kelib chiqib, u aslida Tabriz chekkasidagi Shanbi G‘ozon deb atalgan mavzedan bo‘lganligi taxmin qilinadi ***[1: 3]***. Muallifning o‘zi haqidagi ma’lumotlari “Zafarnoma” da ham uchraydi. Ular muallifning Amir Temur bilan uchrashuvlari va mazkur manbaninig yozilish tarixi haqidagi qisqa-qisqa ma’lumotlardan iborat. Nizomiddin Shomiy 1393-yil avgust oyida Amir Temur bilan uchrashib u bilan suhbatda bo‘lganligini aytib o‘tgan. “Zafarnoma” asarining yozilish tarixiga kelsak, Shomiyning o‘zi bergan ma’lumotga ko‘ra Amir Temur uni huzuriga chorlab, yurishlari haqida yirik bir asar yozishini hamda ushbu asar xalqqa tushunarli sodda va shu bilan birga ma’rifatli kishilar e’tiboriga loyiq tarzda yozilishi lozimligini ham aytib o‘tgan. Nizomiddin Shomiy Sohibqiron yurishlarini 1404-yil bahorigacha bo‘lgan qismini yozib asarni tamomlagan va Amir Temurga taqdim etgan. Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma” asarini yozish uchun qanday manbalardan foydalanganligi haqida afsuski ma’lumotlar yetib kelmagan. Lekin “Zafarnoma” asarini o‘rganishimiz natijasida Shomiy quyidagi manbalardan foydalanganligini taxmin qilishimiz mumkin. Shu jumladan, Amir Temurning munshiylari hamda kotiblari tomonidan forsiy va turkiy tillarda yozgan

kundaliklari va bitiklari, 1400- 1404yillar davomida Amir Temur yurishlarida o'zi shohid bo'lgan va yozib olgan voqealari, Amir Temurning Hindistonga yurishi bilan bog'liq voqealari bayon etilgan G'iyosiddin Alining "Ro'znomayi g'azavoti Hindiston" asaridan ham foydalangan. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari tarixiy manba sifatida XIV va XV asr boshida Temur va temuriylar hukmronligi davridagi O'rta Osiyo, Oltin O'rda xonligi, Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston, Iroq, Suriya, Misr, Turkiya va boshqa mamlakatlar tarixiga oid voqealarni ham o'z ichiga qamrab olgan. Amir Temur hukmronlik taxtiga kelguniga qadar bo'lgan voqealar ham tasvirlangan bo'lib, chingiziylar haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Amir Temurning XIV- asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshida qilgan yurishlari ham biz o'rganilayotgan manbada batafsil tasvirlangan.

Amir Temur tomonidan Hirot shahrining zabt etilishi hikoya qilingan ikkinchi muhim tarixiy manba Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridir. Sharafuddin Ali Yazdiy Fors viloyatining shimolidagi Yazd shahrida tug'ilgan. Yazdiy bir nechayil Hirotda Shoxrux Mirzoning hamda Forsda uning o'g'li Ibrohim Sultonning saroyida xizmat qilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarini 1424-1425 yillar oralig'ida yozib tugatgan. Bu asarga asos bo'lgan ilk nusxani Sohibqironning saroy kundaliklari va boshqa manbalar asosida hamda saroy kotiblari yordamida Ibrohim Sulton yozgan. Sharafuddin Ali Yazdiy bu nusxani qayta ishlagan va yana boshqa manbalardan foydalanib o'z "Zafarnoma"sini yozgan. "Zafarnoma" faqat Sohibqironning harbiy yurishlarini maqtab, ko'klarga ko'tarishdan iborat, desak xato bo'ladi. Unda Amir Temurning xarakterlari ham yaxshi tasvirlangan. Ba'zi sifatlarda Amir Temur qahrining qattiqligi ham aytib o'tilgan ***[2: 140-142]***.

"Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" asari Hirot shahrining zabt etilishi to'grisida ma'lumot beruvchi yana bir muhim manba hisoblanadi. Asar muallifi Muiniddin Natanziyning hayoti haqidagi ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. Muiniddin Natanziy Isfaxon viloyatidagi Natanz shahrida tug'ilgan. Asli seyistonlik va shia mazhabida bo'lgan deb taxmin qilinadi. Natanziy o'z asarini 1413-1414yillar

oralig‘ida yozib tugatgan. Ushbu asarini Fors viloyati hokimi Amir Temurning nevarasi Sulton Iskandar ibn Mirzo Umarshayxga bag‘ishlangan ***[2: 137-139]***.

Shomiyning “Zafarnoma” asarida qayd etilishicha, Amir Temurning Hirot yurishi Po‘shang qal’asi zabt etilgandan so‘ng boshlangan. U katta qo’shin bilan Hirot tomon yo’lga chiqqach, Malik G‘iyosiddin shahar himoyasiga jiddiy tayyogarlik ko’rgan. Sohibqiron lashkari shahar atrofini handaq va tuproq ko’tarmalari bilan o’rab olgan ***[1: 114]***. Shafuddin Ali Yazdiy esa Hirot yurushining boshlanishi xususida yanada aniq ma’lumotlar keltirgan. Uning hikoya qilishicha Movorounnahr lashkari chorshanba kuni Hirotga yetib kelgan va shaharni qamal qilishgan. Tayyorgarlik ishlari yakuniga yetgach, shahar sari hujum boshlangan. “Muborak xotiri, - deb yozadi muarrix, - Fushanj qal’asinda jam bo‘lib, azimat inonini Hirot sori qildi. Malik G‘iyosuddin g‘ururi va hisorning berkligiga va kishisining ko‘pligiga mag‘rur bo‘lib urush asbobini tayyor etib, qal’ani berkitdi. Chahorshanba kuni Sohibqiron mansur cheriki bila anda yetib, tashqaridagi bog‘larni buzub, tomlarni yiqib, xandaq qazib tushtilar. Va hazrat o‘zi muborak nafasi bilan shaharni (atrofini) bir evrulub, tushar va kirar yo‘llarini ko‘zladi. Muxoliflar kiyna kamarlarini bellariga bog‘lab, darvozalarni ochib, g‘uriylardin bir jamoat kishi chiqib, urushdilar. Nomdor beklardin va baxodurlardin, alalxusus, Qimorshox Barlos ul kun yaxshi ishlar qildilar va dushmanlarni darvozag’acha surib, shaharg’a kiyurdilar va andan yonib, har kishi o‘z yeriga tushub, farog‘at qildilar. Tonglasi nusratpanoh cheriki otlanib yasol tortib, qal’aning o‘trusida kelib turadilar. Oqshomg’acha ul kun urush solmadilar. Tonglasikim, juma kuni erdi, choshgoh bolg’onda zafar ohangi urush qilib qal’a sori yuridilar” ***[3: 90]***.

Amir Temur, Mubashshir va Sunchak himoyaga o‘tib, Hisorning chegarasiga yetib bordilar. Ikki mingga yaqin kishini Temur huzuriga keltirdilar. Shundan keyin Malik G‘iyosiddin odamlarni to‘plashlarini buyuradi va bu kengash hech qanday foyda bermaydi. U vaziyatni ko‘rgach, o‘zining katta o‘g‘lini Iskandar Shayxiyga qo‘shib, Amir Temur huzuriga yuboradi. Sohibqiron ularni

yaxshi kutib olib Malik G‘iyosiddinga shuni aytib qo‘yishlarini buyuradi: “Malikka bizdan salom yetkazing, shuni ham aytingki o‘rtamizda qadimdan adovat bo‘lmagan, aksincha do‘stlik munosabatlari bo‘lib, qarindoshlik bilan mustahkamlangan edi. G‘iyosiddin endilikda tortinmasdan biz tomonga kelsin, toki o‘sha do‘stligimiz saqlanib qoladi, balki undan ham kuchayib ketadi”. Ushbu xabardan so‘ng Malik G‘iyosiddin hisordan chiqadi va Sohibqiron huzuriga borib, itoat qiladi. Amir Sohibqiron unga omonlik bag‘ishladi. Amir Temur bir necha kun Hirotda to‘xtab turdi va Malik G‘iyosiddinning u yerning maliklari tomonidan ko‘p yillar davomida yig‘ilgan xazinlarini hisordan olib chiqdilar. Sharafuddin Ali Yazdiy yozishicha Amir Sohibqiron Fushanj qal’asi zabt etilgandan so‘ng Hirot sari yo‘l oldi. Malik G‘iyosiddin qochib ichkari qal’aga kirdi. “Barcha sultoniy urush olib borsin!” deya farmon beradi. Iygu Temur, Mubashshir va Sevinchak hisorga kirib boradilar. Mansur cherik boshchiligida ikki ming kishini tutib Temur huzuriga keltiradilar. Sohibqiron uni kechiradi va buyuradiki, “Xatlar yozib, bular bilan shahar ichida yuboring!” Xatning mazmuni, “Har kim o‘z uyida o‘tirsin, kim chiqib urushsa gunohi o‘z bo‘ynida”. Malik G‘iyosiddin ichkari hisorga kirib qal’ani berkitib saqladi va aholini chorladi, hech kim uyidan chiqmadi, uning so‘zini hech kim eshitmadi. Endi u bildiki, Sohibqironga taslim bo‘lishi kerak. Onasi Sulton Xotun va o‘g‘li Pirmuhammadni, Iskandar Shayxiy bilan xazrat Sohibqiron qoshiga yuboradi. Hazrat sohibqiron ularga shavqat qildi va xilat va oltin kamar bilan sarafroz qildi. Va ularga shuni ta’kidlaydi “Malikka ayting: shahardan chiqib kelib, bizni ko‘rsin va agar biz urush bilan shaharni olsak, ko‘p kishi va musulmonlarning moli hamda ahli ayoli halok bo‘lur. Va ularning javobi uning bo‘ynida bo‘ladi”. Iskandar Shayxiyni qo‘yib yubormadi va shaharning ahvolini so‘rab, barchasidin voqif bo‘lib turdi. Malik G‘iyosiddin, yakshanba kuni hisordan chiqib kelib, sohibqiron huzuriga keldi. Amir Temur bilan ko‘rishdi va bo‘lgan ishlardan uzr so‘radi. Hazrat unga omonlik berdi va oltin kamar hadya etib shaharga yubordi. Bu fatx hijriy yetti yuz sakson uchinchi yilda bo‘ldi ***[3: 91]***.

“Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asari muallifi Natanziy esa Hirotning zabt etilishi xususida quyidagi fikrlarni bildirgan. Amir Sohibqiron Xorazm fathidan so‘ng, Mironshohga Balx vodiysiga borib o‘rnashishni aytadi. Shundan keyin Amir Temur katta qurultoy o‘tkazadi va qurultoyga Hirotdan Malik G‘iyosiddin va Kalotdan Alibekni Xurosonning boshqa sardorlari bilan birgalikda chaqirdi. Alibek yetib keldi, ammo Malik G‘iyosiddin kelmadi va shunday javob yozdi: “Hoji Sayfiddin kelmaguniga qadar, mening borishim uzrlidir”. Amir Sohibqiron tezlik bilan Hoji Sayfiddinni yuboradi, ammo Malik G‘iyosiddin o‘z vadasiga vafo qilmadi. Uning niyatlari Amir Sohibqironga ma’lum bo‘lgach, Mironshohga Hirot viloyatiga lashkar tortib, viloyatning ba'zi joylarini talon-taroj qilishini buyuradi. Hijriy 783-yilning bahorida Amir Sohibqironni Xuroson yurishiga targ‘ib qiladilar. Amir Sohibqiron butun lashkarlar bilan Xuroson fathi uchun otlanadi. Amir Sohibqiron Xuroson qal’alari ichida eng metin-mustahkami bo‘lgan Fushanj qal’asini qamal qilishga kirishadi. Bu birinchi zarba bo‘lgani, uning dahshati Xuroson aholisining diliga o‘rnashishi uchun amirlar va shahzodalarga bor kuchlari bilan jonbozlik ko‘rsatib jang qilishni buyuradi. Ushbu sa’y-harakatlar natijasida qal’a egallanadi, Malik G‘iyosiddin esa o‘zining mag‘lubiyatini anglab yetadi ***[4: 124]***.

Hirotning zabt etilishi haqida ma’lumot beruvchi yana bir muhim manba bu “Temur tuzuklari” hisoblanadi. Ushbu asarning muallifi ma’lum emas. Asardagi voqealar faqat bir shaxs, Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Sharq mamlakatlarida bu mashhur asar Amir Temur tarafidan yozilganligi va uning tarjimayi holi ekanligi aytiladi. “Temur tuzuklari”da Hirotning zabt etilishi xususida: Amir Husayn o‘ldirilib, Balx, Hisori Shodmon va Badaxshon viloyatlari Amir Sohibqiron qo‘liga o‘tganligi haqidagi xabar Xuroson hokimi Malik G‘iyosiddinga yetib kelganda uni qo‘rquv bosdi, urush qilish uchun lashkarlarini to‘plab, mudofaaga kirishdi. Shu o‘rinda Malik G‘iyosiddinning urush qilmoqchi ekanligi haqida Sohibqiron xat oladi. Sohibqiron harbiy hiyla ishlatmoqchi bo‘lib, Samarqandga yurish qiladi. Temurning Samarqandga qaytayotganligi haqidagi

xabarni eshitib, G‘iyosiddin xotirjam bo‘ladi. Shunda Sohibqiron kengashib: “Ana endi xurosonliklarning ko‘ngli mendan xotirjam bo‘ldi, ularning ustiga bostirib borishning ayni payti” deydi va Balxda qoldirgan askarlari bilan Hirot sari yuradi, Malik G‘iyosiddin boshqa chora qolmaganliginidan shahardan chiqib, xazina va barcha boyliklarini Amir Sohibqironga tortiq qiladi ***[5: 21].***

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Hirot shahrining Amir Temur lashkari tomonidan zabt etilishi tarixiga oid bo‘lgan manbalarning ma’lumotlari bir biriga juda yaqin. Bu esa ushbu ma’lumotlar haqidagi manbalarning ko‘pligi va mualliflar tomonidan yaxshi o‘rganilganligini ko‘rsatadi. Kelajakda ushbu masalani o‘rganishga boshqa manbalarni ham jalb etish uni to‘liq yoritish imkonini beradi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Ўринбоев А. Низомиддин Шомий ва унинг “Зафарнома” асари // Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгировчи Юнусхон Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи А. Ўринбоев, Изоҳлар ва луғатлар муаллифи Ҳ. Кароматов, жуғрофий номлар изоҳм ҳамда Ҳофизу Абрунинг “Зафарнома”га ёзган “Зайл”и(илова)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳлар тузувчи О. Бўриев. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б. 3-10.

2. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгировчи Юнусхон Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи А. Ўринбоев, Изоҳлар ва луғатлар муаллифи Ҳ. Кароматов, жуғрофий номлар изоҳм ҳамда Ҳофизу Абрунинг “Зафарнома”га ёзган “Зайл”и(илова)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳлар тузувчи О. Бўриев. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 527 б.

3. Арслонзода Р.А. Источниковедение: Учебник. – Т.: Навруз, 2019. – 354 с.

4. Шарафуддин Али Йаздий. Зафариома // Сўз боши, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, Ҳ. Бобобеков:

Масъул муҳаррир Б. Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И. Шогуломов ва бош қалар// Т.: Шарқ, 1997. – 382 б.

5. Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи – Ғулом Каримий. – Т.: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.

6. Темур тузуклари. / Форсчадан Алихон тўра Соғуний ва Ҳабибулло Кароматов таржимаси. Изоҳлар Бўрибой Аҳмедов томонидан тайёрланган. Сўз боши муаллифи ва масъул муҳаррир – Муҳаммад Али. – Т.: “Шарқ”, 2005. – 160 б.

IV SHO‘BA

UMUMIY TARIX MASALALARI

USTRUSHONANING TARIXIY-GEOGRAFIK O‘RNI

Mamaradjabov Jamshid Parmonovich
Guliston davlat universiteti, 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Usturshonaning joylashuvi va tarixiy ahamiyati masalasi tadqiq etilgan.*

Kalit so‘z va iboralar: *Usturshona, tarix, geografik, o‘rta asrlar, manba.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается местонахождение и историческое значение Устуршона.*

Ключевые слова и фразы: *исторический, исторический, географический, средневековый, источник.*

Annotation: *this article analyzis of the situated, geography in Usturshona.*

Key words and phrases: *Usturshona, history, geography, middle century, source.*

Ustrushona - O‘rta Osiyoda qadimgi mamlakat bo‘lib, u ilk o‘rta asrlarda (IX asrlar) Farg‘ona vodiysining shimoli-sharqiy qismida, Sirdaryoning o‘rta oqimidagi chap qirg‘oq bo‘ylab Isfara daryosi chegaralariga qadar va janubi Hisor tizmasi bo‘ylab. Bu zamonaviy shimoli-g‘arbiy Tojikiston, janubiy O‘zbekiston va g‘arbiy Qirg‘iziston hududidir. Xuddi shu mintaqaga zamonaviy Leyk viloyati, Sulukta shahri va Botken vodiysining g‘arbiy qismi, Samarqand va Xo‘jand shaharlari kiradi.

Mug‘ tog‘idagi qal’ada topilgan So‘g‘d hujjatlarida **[**(tojikcha); alay Mu; - Muga qal’asi; (Mugi yoki Magi - musulmongacha bo‘lgan ruhoniylar)**]**, Zeravshan daryosining yuqori qismida joylashgan (Tojikiston), "Ustrushona" so‘zi "Istur̄shan"

shaklida yozilgan. Va yana bir versiyaga ko‘ra, davlat nomi "Istaravshan" shaklida berilgan. Ustrushona toponimlari tadqiqotchisi A.R.Ayubovning fikriga ko‘ra "Istaravshan" atamasi ikki qismdan iborat: "ist / r / - yulduz, farishta" va "ravshan / rashn - yorqin" va "yorqin yulduz" yoki "yorqin yulduz" degan ma’noni anglatadi.

Ustrushonaning poytaxti Tojikistonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan zamonaviy Shahriston qishlog‘i hududida, Shahriston-Sai daryosining bo‘yida joylashgan Bunjikat shahri edi.Bundjikat so‘zi "beshta uy" degan ma’noni anglatadi.Mamlakat 18 mintaqaga bo‘lingan, ko‘plab qal’alar bo‘lgan (400 ga yaqin).Ustrushonaning faol rivojlanishiga Buyuk Ipak yo‘lining muhim qismida qulay joylashishi yordam berdi. Hunarmandchilik va metallurgiya yuqori darajaga ko‘tarildi. Etnik jihatdan (til va madaniyatda) Ustrushonlar So‘g‘diylar bilan qarindosh edilar, So‘g‘d va Fors tillarida gaplashdilar, zardushtiylikni ham e’tirof etdilar, ammo ularning So‘g‘d tilidan farqli o‘z alifbosi bor edi.

So‘g‘diylar So‘g‘diyona hududida yashagan odamlarni (bu so‘z quyidagi ma’nolarni "muqaddas", "yonish" yoki "toza" degan ma’noni anglatadi), Sharqiy oraliqda joylashgan Markaziy Osiyodagi qadimiy tarixiy mintaqa deb atashga odatlangan. Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo), Zeravshan daryosi vodiysining markazida - Xo‘janddan (Tojikiston) Buxoro (O‘zbekiston) gacha. Ushbu etnik guruh vakillari Sharqiy Eron tillarining shoxobchasiga mansub So‘g‘d tili lahjalaridan birida so‘zlashdilar.

Uzoq vaqt davomida Ustrushona poytaxti Bunjikatning joylashuvi masalasi ziddiyatli bo‘lib, bu inqilobgacha bo‘lgan rus tadqiqotchilarining e’tiborini ham tortgan. Shaharning joylashgan joyi to‘g‘risida yozma manbalardan olingan ma’lumotlarga asoslanib, akademik V.V. Bartoldning fikricha, “Osrushana poytaxtining qoldiqlari O‘ra-Tubening janubi-g‘arbiy qismida, 25 verstlikdagi Shahriston qishlog‘i yaqinidagi qiziqarli xarobalar deb tan olinishi mumkin”. Bundan tashqari, V.V. Bartold Ibn Xordadbekning ma’lumotlari asosida quyidagi xulosaga keldi: “Bundjikat - Shahriston; Eski-Sabotdan yo‘l Shahristonga emas, balki O‘ra-Tubaga olib boradi”.

Ustrushona davlatining yana bir muhim shahri Marsmanda shahri edi. Arab geografi va sayohatchisi Abulqosim Muhammad ibn Xavqal an-Nisibiy “Kitob al-Masalik va-l Mamalik” kitobida al-Istahriy bilan uchrashuv taassurotida yozilgan va u tomonidan ikkinchisining qayta ko‘rib chiqilgan tahriri sifatida o‘ylangan. “Bu tog‘li shahar, unda bog‘lar va uzumzorlar umuman yo‘q, lekin u suv oqadi. Kuchli sovuqlar shaharning uzumzorlar va bog‘larga ega bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi. Undagi daryo keng va juda muzlaydi. Ammo shahar o‘zlarining joylashuvi va go‘zalligi bilan yoqimli gulzorlarga, o‘tloqlarga va zavqlanadigan joylarga ega” – deb yozadi. Marsmanda shahri yaqinida, Turkiston tizmasining tog‘li mintaqasidagi Dakkat darasida joylashgan, qadimiy konchilar temir qazib olishgan. Bu kon nafaqat Ustrushona va Farg‘ona ni ta’minladi, balki temir Xuroson va Iroqqa ham u yerdan etkazib berildi.

Biroq, ushbu shaharning joylashishi (lokalizasiya) masalasi hali ham ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘lmoqda. Masalan, akademik V.V. Bartold uni Zarafshan daryosi boshlariga joylashtiradi (uning nomi forscha “Zar-afan” so‘zi “oltin yoyuvchi yoki oltindan yasalgan” degan ma’noni anglatadi); yuqori oqimida - Matcha, quyi oqimida - Qorako‘ldaryo, Tojikiston va O‘zbekiston hududidan oqib o‘tmoqda.

Olimlar va tadqiqotchilarning ikkinchi versiyasiga ko‘ra, Marsmanda qishlog‘i Botken viloyati Laylak tumanidagi zamonaviy Sulukta shahri hududida joylashgan edi, masalan, noma’lum forsiyzabon muallifning 982-yildagi geografik traktatida. “Khudud al-allam min al-Mashrik ila-l-Maghrib” (dunyoning sharqdan g‘arbgacha chegaralari) rivoyatida aytilishicha, u erda taniqli yarmarkalar bo‘lib o‘tgan, u yerdan temir qazib olingan mahsulotlar bo‘lgan.butun tuman bo‘ylab tarqatilgan: pichoqlar, pichoqlar, harbiy texnika va uy-ro‘zg‘or buyumlari. Ushbu yarmarkalar har yili Marspand yoki Marspant oyining 29-kunida bo‘lib o‘tdi, bu qadimgi Eronning “osmon”, “osmon, tosh, poydevor” degan ma’noni anglatuvchi so‘ziga qaytadi. Bu shaharning tog‘li hududda joylashganligini ko‘rsatadi. Tovarlar

eksporti tog‘ yo‘llari bo‘ylab va Sulukta - Ispana (Isfana) eng qadimiy yo‘l bo‘ylab amalga oshirildi.

Zamonaviy Sulukta shahri Botken viloyatining Leyk tumanining shimoli-g‘arbiy qismida Turkiston tizmasining shimoliy shoxlari yon bag‘irida dengiz sathidan 1380 metr balandlikda joylashgan. Shahar nomi suluk = suluu - chiroyli + (y) k - nominal affiksi = kelishgan, kelishgan, go‘zallik + ta - qadimgi turkiy sifatlar affiksi = go‘zal maydon so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu arab geografi va sayohatchisi ibn Xavqalning “Kitob al-Masalik va Mamalik” (Yo‘llar va mamlakatlar kitobi) kitobida ushbu hududga berilgan ta’rifga to‘liq mos keladi.

IV asrgacha Ustrushona So‘g‘d tarkibida bo‘lgan. Milodiy IV - V asrlarda. Ustrushona mustaqil mulkka aylanadi va 435-yilda Xitoy manbalarida Sao (Sao) deb nomlanadi. Ustrushona hukmdori “afshin” unvoniga ega edi. Ushbu nomning kelib chiqishini batafsil tarixiy va etimologik tahlil olim va filolog V. I. Abayev tomonidan olib borilgan va uning osetin tilida saqlanib qolgan “fsin” so‘zidan kelib chiqqanligini isbotlagan. Bu saka-massaget qabilalari etakchilarining nomi edi va keyinchalik bu unvon Markaziy Osiyodagi qo‘shni qabilalar tomonidan qarzga olingan, ammo erkaklarga nisbatan allaqachon mavjud edi.

V asrdan VI asrning o‘rtalariga qadar Ustrushona Eftalit (Oq Xunlar) davlati mulkiga kirgan. 560-yillardan boshlab uni Turk xoqonligi boshqargan. VII asrning boshlarida turklar ta’sirining susayishi bilan Ustrushona mustaqil knyazlikka aylandi, ehtimol rasmiy Samarqandning ixshidlari (shahzoda hukmdorlari)ning yuqori hokimiyatini tan oldi. Ayni paytda Bunjikat Markaziy Osiyodagi eng yirik shaharlardan biriga, mintaqaning iqtisodiyoti, savdosi va madaniyati uchun eng muhim markazga aylandi.

Ustrushtan davlati yaratilgan yildan VIII asrgacha bo‘lgan davrda hukmdorlarning nomlari yozma manbalarda saqlanmagan, ammo o‘sha paytda yasalgan bir qator tangalarda (umumiy tamg‘a belgilarida) ularni ajratib ko‘rsatish mumkin. Chirdmish, Satachari va Raxanch hukmdorlarining obrazi (VI-VII asrlar),

V asr boshlarida arab bosqinchilari Ustrushona chegaralariga etib bordi. 738-yilda Ustrushonlar turklar bilan birgalikda arablarga qarshi urushda qatnashdilar. 739-yilda arab qo‘mondoni Nasr ibn Sayyor Afshin Ustrushona Xaraxurrani arablar kuchini tan olishga majbur qildi. Ammo bu topshiriq yuzaki edi, Ustrushonlar faqat shartli o‘lpon to‘lashdi. Aslida Ustrushona mustaqil bo‘lib qoldi va Islomni qabul qilmasdan o‘z dinini saqlab qoldi. 794-795 yillarda Ustrushona xalifa Horun ar-Rashid tomonidan Barmakidlar qabilasidan Fadlu ibn Yahyo boshqaruviga o‘tkazildi. 822-yilda arab xalifasi al-Mamun Ustrushonaga qarshi yangi kampaniya uyushtirdi, unga Ahmad ibn Abu Xolid al-Ahvol boshchilik qildi. O‘sha paytda Ustrushonaning hukmdori Afshin Kavus bo‘lib, uning to‘rt o‘g‘li bor edi: Haydar, Fadl, Xash va Rashid.

Arab armiyasining muvaffaqiyatiga Afshin Kavus o‘g‘illari o‘rtasidagi ichki tartibsizlik yordam berdi, ulardan biri Haydar arablarga yordam berdi. Kavus o‘zini xalifaning vassali deb tan oldi va Islomni qabul qildi. 830-yilda Haydar Ustrushona taxtida Kavusning merosxo‘riga aylandi, lekin aslida u mamlakatni boshqarmadi, lekin Bag‘dod xalifalari ixtiyorida bo‘lib, turli viloyatlarda gubernator bo‘lib, qo‘shinlarga qo‘mondonlik qildi.835-838-yillarda Haydar (uni tez-tez unvoni bilan atashardi – “Afshin”) Bobek qo‘zg‘olonini bostirishda hukumat qo‘shinlarini boshqargan.Ustrushona somoniylar urushi vakili Yahyo ibn Asad boshqaruviga o‘tkazildi, uning 855-yilda vorisi uning o‘g‘li Yoqub edi. 893-yilda Ustrushona alohida mulk sifatida Somoniylar tomonidan tugatilib, ularning davlati tarkibiga kiritildi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Pardayev M.H., G‘ofurov J.I. Ustrushonaning ilk o‘rta asr qishloq makonlari (yozma va arxeologik manbalar asosida). Toshkent:. 2016-y.

2. M.H.Pardayev, F.E.Toshboyev. Ustrushonaning qadimgi davr davlatchiligi. Toshkent:. 2020-y.

3. M.H.Pardayev, B.B.To‘ychiboyev. Ustrushona qadimda va ilk o‘rta asrlarda. Toshkent:. 2017-y.

4. A.Asqarov. Eng qadimiy shahar T:, “Ma’naviyat”. 2001-y.

5. O‘zbekiston tarixi davlatchiligi ocherklari. T:, Sharq, 2001-y.

6. www.arxiv.uz

7. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

ФАРҒОНА ВОДИЙСИ МОДДИЙ МАДАНИЯТИДА КИЙИМЛАР МАСАЛАСИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (ТАРИХШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИ)

А.Р. Маматалиев,

А.Авлоний номидаги миллий-тадқиқот институти
Умумий ўрта таълим мазмуни ва илмий-тадқиқот
бўлими катта илмий ходими,

Аннотация: *Ушбу мақола Ўзбекистоннинг Фарғона водийсининг XX аср ва XXI аср бошларига бағишланган этнографик, тарихий манбалардаги кийим-кечаклари ўрганишга бағишланган. Муаллиф ушбу соҳада олиб борилган ишлар натижалари ва кейинги ривожланиш муаммоларини таҳлил қилинган. Этнологик тадқиқотлар масалалари алоҳида кўриб чиқилган.*

Калит сўз ва иборалар: *Фарғона водийси, анъанавий, кийим-кечак, мунисак, яктак, замонавий тарих, Марказий Осиё, Ўзбекистон.*

Аннотация: *Эта статья посвящена изучению Узбекистанской долины Фергана и изучению ранних XXI-веков этнографической, исторической одежды. Автор анализирует результаты работы, выполненную в этой области, и дальнейшие проблемы разработки. Проблемы этнологических исследований рассматриваются отдельно.*

Ключевые слова и фразы: *долина Фергана, традиционная, одежда, мунисак, яктак, Современная история, Узбекистан.*

Annotation: *This article is devoted to‘the study of Uzbekistan's Fergana Valley and the study of the early XXI centuries ethnographic, historical clothing. The author analyzes the results of the work done in this area and further development problems. Ethnological research is considered separately*

Key words and phrases: *Fergana valley, traditional, munisak, yaktak, modern history, central asia, uzbekistan.*

Моддий маданиятнинг ўзига хос бўлаги сифатида қараладиган халқнинг анъанавий ва замонаий кийимлари қадимдан бошлаб узоқ вақт давом этган тарихий тараққиёт давомида ҳозирги кунгача шаклланган.

Ҳар бир этноснинг ўзига хос анъанавий кийимлари дарҳақиқат турли тарихий тараққиёт босқичларида ушбу халқнинг ижтимоий-иқтисодий ҳолатини кўрсатиб бериш билан бирга, бошқа халқлар билан таққослаш имконини беради ва улар билан қандай даражада маданий алоқада бўлганлигини кўрсатиб ҳам беради.

Изланувчилар аҳоли кийимларини кўпроқ ёш ва жинс билан боғлик эркаклар, хотин-қизлар, болалар ҳамда оилавий маросим кийимлари каби турларга ажратиб ўрганганлар, албатта, ҳар бир тур кийимлар ўз навбатида яна ташқи кийимлар, ички кийимлар, бош ва оёқ кийимларга бўлинган.

XIX – XX аср бошларида водий этнослари кийимлари Марказий Осиёнинг бошқа аҳолисиники сингари чопон, пўстин, тўн, кўйлак-яхтак, камзул каби устки кийимлар, салла, телпак, дўппи, қулоқчин, қалпоқ, локки, дурра каби бош кийимлар ва махси, ковуш, чориқ, этик сингари оёқ кийимларидан иборат бўлган.

Биз тадқиқ этаётган даврдаги тарихий ва этнографик адабиётлар таҳлили берилган юқорида санаб ўтилган кийимлар ҳар бир халқнинг азалий кўникмалари ва маҳаллий шароитдан келиб чиқиб у ёки бу этник жамоаларнинг миллий либослари сифатида шаклланган эди**.**

Қадимги кийим-кечаклар, бош кийимлар ва тақинчоқлар ҳар бир даврнинг яъни қадимги давр бўлсин, ўрта асрлар бўлсин ва тарихиннг кейинги даврлари бўлсин моддий маданиятининг муҳим йўналиши бўлиб қолаверади. Археолог Б.Матбобоев ҳам ўзининг Фарғона водийсига бағишланган докторлик диссертациясида ҳам кўплаб археологик маълумотлардан фойдаланган ҳолда водийнинг қадимги аҳолиси кийим-бошлари ҳақида тўхталиб ўтган. Муаллифнинг келтиришича кийим-бошлар тайёрлашда чармдан ташқари ипак ва пахта тайёрланган матолардан таёрланганлиги Мунчоқпепа археологик ёдгорлиги мисолида келтириб ўтган ***[1]***. Тақинчоқлар кундалик турмушда жамиятни ҳамма қатламлари: эркак ва аёл, ўғил ва қиз болалар фойдаланадиган буюмлар қаторига киради. Шунинг учун

улар инсон танаси аъзоларини ва уст-бошларини кўп қисмини эгаллайди. Тақинчоқлар бош, бўйин, пешона, кўкрак, қўлтиқ, бел, бурун, қулоқ, чаккаларга тақилган.

Фарғона водийси этнографиясининг ўрганилиши таҳлил этишда Фақатгина шу минтақа эмас балким Ўзбекистоннинг барча этнографик минтақаларини ёритувчи комплекс адабиётлар мавжуд. Шулардан бири 2008 йил йил нашрдан чиққан Исо Жабборовнинг “Ўбеклар” номли китобидир ***[2]***. Китобда биз ўрганаётган масала яъни моддий маданиятнинг кийимлар билан боғлиқ қисмига Фарғона водийси мисолида кўплаб далиллар келтириб ўтилган. Хусусан, эркак яктагининг тикилиши, мунисакнинг тузилиши, чопоннинг кийилиши, телпак ва салладан фойдаланиш, кийим тикишда ва тайёрлашда турли бўлган безаклардан ва оёқ кийимлардан фойдаланиш келтириб ўтилган. Муаллиф томонилан келтириб ўтилган далилларнинг муҳимлиги шундаки, бошга кийиладиган, инсон танасини ёпиб турадиган кийимлар ва оёқ кийимлар юртимизнинг бошқа этнографик минтақалари билан таққослаш имконини беради. Шу билан биргаликда бу келтириб ўтилган эмпирик ҳарактердаги билимлар бера олади халос.

О.А. Сухарева томонидан Марказий Осиё халқларининг «туниканусҳа» шаклидаги анъанавий кийимлари эволюциясини тадқиқ қилар экан, «Фарғона водийси, Шарқий Туркистон, Қирғизистон ва Помир олди ҳудудларини ўз ичига олган маданий-тарихий ҳудудлар кийимлардаги дифференциялашув (табақаланиш) ҳолатида энг аввало, ўтроқ аҳолига тегишли анъанавий кийимларни жинсга қараб ажралганлигини-эркаклар учун олди очиқ ҳолатдаги кийимлар, хотин-қизлар учун олди ёпиқ бичимдаги кийимлар вужудга келганлигини»**[**3**]** кўрсатиб ўтади.

XX аср етмишинчи йилларида этнограф олима Р.Я.Рассудова Фарғона водийсининг қатор (Хонобод, Чодак, Ғова, Поп, Чуст, Равот, Чиндовул, Тергачи, Косон, Каркидон, Балиқчи, Қияли, Шаҳрихон, Хўжаобод, Арабмозор, Заркент, Охчи, Олтиариқ, Бўрбалиқ, Водил, Сариқўрғон,

Учкўприк, Риштон, Янгиқўрғон, Бувайда, Яйпан каби) туманлар ва уларда жойлашган қишлоқлардан ўтроқ аҳолига тегишли бўлган анъанавий кийимлар ҳақида дала материаллари йиғиш вақтида бир неча кўринишга эга бўлган «фарғонача мурсаклар» ҳақида ҳам қимматли маълумотларни тўплаб, махсус илмий мақола чоп этган ***[4]***.

Марказий Осиёда балким юртимизда аҳолиси зич жойлашган ва кўп миллатли минтақалардан бири бўлган Фарғона водийси аҳолисини шаклланишини ўрганган олима С.С. Губаева Фарғона водийси этносларига бағишланган монографиясида XX аср бошларида мурсак оилавий маросимларда кийилмаганлиги, ярим кўчманчилар ҳаёт тарзининг ўтроқ яшаш шаклига ўтганлиги натижасида уларнинг анъанавий кийимлари ўрнини ўтроқ аҳоли кийимлари эгаллаганлиги, водийдаги барча ярим кўчманчилар кундалик ҳаётда мурсак кийганлиги, мурсак Фарғона водийси қурамаларида-“минсак”, юзларда-“мусак”, қипчоқларда-“мунсак”, туркларда-“мурсак” номлари билан аталган ***[5].***

К.И. Антипина айнан мурсакка ўхшаш аёллар устки кийими XIX аср ярмида жанубий қирғизларда ҳам бўлганлиги, у фақат бошқа ном билан “бередже” деб аталишини кўрсатиб ўтган. Ушбу муаллиф мазкур нусхадаги аёллар кийими нафақат тайёр ҳолатда Фарғона бозорларидан сотиб олинган, балки қирғизларнинг ўзлари ҳам уни ўтроқ аҳолидан ўзлаштирган ҳолда турли шойи ва нимшойи матолардан тикканликларини ҳам келтириб ўтилган ***[6]***. Бу эса ўз ўрнида барча анъанавий кийим-кечак турларида бўлгани каби аёлларнинг ушбу нусхадаги устки либосларида ҳам ўзаро этник алоқалар ўз ифодасини топганлигини кўрсатади.

Ушбу манбалар орқали кўрсатиб ўтилган маълумотлар нафақат мурсак бўйича тасаввурларимизни кенгайтириш билан бирга, бизни «фарғонача» мурсакларнинг ўзига хос томонлари (тикилиши, тузилиши, аҳоли орасида тарқалган нусхалари ҳамда кийиш манераси)ни янада батафсил тушуниш имконини беради.

XX аср ва XXI аср бошларидаги адабиётлар таҳлил этилар экан ўрганилаётган даврда халқ маданиятининг қадимий элементлари ва маълум бир этносга хос бўлган хусусиятларни ўзида сақлаб қолган яна бир кийим тури бу бош кийимлардир. Марказий Осиё ва унга туташ халқлар бош кийимларини ўрганиш шуни кўрсатадики, ушбу кийим турида этник гуруҳларга хос ҳамда маҳаллий (локал) хусусиятлар билан бир вақтда кўплаб умумий-этнослараро, умумминтақавий жиҳатлар ҳам намоён бўлади ***[7]***.

Тадқиқотчилар томонидан бош кийимлардан фойдаланишга кўра икки тоифага бўлинади: эркаклар томонидан бошга кийиладиган кийимлар (қалпоқ, дўппи (тақя, калла пўш), қулоқчин, бўйрак, телпак ва аёллар томонидан бошга ўраладиган ёки ёпинадиган, яъни рўмол, пешонабоғ, лачак, дурра, дуррача, локки, ёғлиқ, ёвлик) ва ҳоказолар.

Ўзининг кўплаб тадқиқотларини Фарғона водийсига бағишлаган О.А.Сухарева XIX аср ва XX аср водий аҳолисининг бош кийимларига бағишланган икки мақоласида этнослар орасида кенг тарқалган енгил бош кийимларидан бири бу дўппи хисобланиши, бу кўрсатилган вақтда водий аҳолиси ўртасида дўппининг, асосан, икки хил шакли бор бўлганлиги, биринчи шаклидагиси XIX аср охири – XX аср бошларида ҳам юқори қисмининг баланд конуссимонлиги ва гардишининг кенглиги билан, иккинчи хилдагиси эса гардиши нисбатан пастлиги, тепа қисмининг тўғри тўрт бурчак (квадрат) эканлиги, яъни яссилиги билан ажралиб турганлиги келтириб ўтган ***[8]***. Вақт ўтиши билан иккинчи хилдаги дўппилар аҳоли ўртасида кўпроқ кийиладиган бўлди.

Олой қирғизларини ўрганган С.М.Дудин ҳам булар ўртасида Марғилон ва Қўқон дўппилари XX асрнинг бошларида кенг аҳоли қатлами ўртасида кийилганлигини, бу жараёнда моддий маданиятдаги айрим кийинишдаги белгилар қирғизларда ҳам учрашини айтиб ўтган ***[9]***.

Демак далилларга таяниб хулоса қилиш мумкинки, водийнинг ўтроқ аҳолиси орасида жун ва теридан тайёрланган бош кийимлар икки хил йўл

билан оммалашиб борган. Биринчидан, ўтроқ аҳоли ўзлари ҳам бундай бош кийимларни тайёрлаганлар, иккинчидан эса, ўтроқ аҳоли томонидан тайёрланган бундай кийимлар тайёр ҳолида яримўтроқ аҳоли қирғиз, қипчоқ, қорақалпоқ, турк, юз, минг каби этник гуруҳлар томонидан харид қилинган ёки айрибошланган.

Этнология фанида моддий маданиятнинг тармоқларидан бири кийимлар хисобланади. Хаттоки, этнослар кундалик аёллар бош кийимлари ҳам турлича бўлиб, ёшга нисбатан, оилавий маросимлари пайтида кийиладиган ёки ўраладиган бош кийимлар хисобланиб, уларнинг тикилиши, ишлатиладиган матоси, безаги ва гули ҳаттоки шакли ҳамда ранггига қараб фарқланган.

Фарғона водийсидаги этник жамоаларда моддий маданият кўриниши хисобланмиш кийимларни ўрганишга доир тадқиқотлар бор бўлиб, кўпгина изланишлар муаммодан келиб чиқиб (махсус равишда эмас) ўрганилган. Х. Исмоилов ҳам ўзбек аёллари XIX аср охири−XX аср бошларидаги бош кийимларини республика миқёсида ўрганиб, водий ҳудудларидаги бош кийимларга ўз муносабатини билдириб ўтган ***[10]***. Жумладан, Наманган дўппилари, Фарғона ёши катта (қариялар) аёллар томонидан чачқоп, кийгич номли шапкалар кийилганлиги, XIX асрда Андижон аёллари салла ўраганлиги ҳақидаги қисқача маълумотларни ўрганган минтақаларидаги далилларга таяниб келтириб ўтган.

Мустақиллик йилларида нафақат Фарғона водийси балким Марказий Осиё моддий маданиятини ўрганувчи тадқиқотчилар ҳам кўпайиб борди. Шу билан биргаликда туркум илмий тўпламларни ташкил этган маҳаллий ва халқаро конференцияларни ҳам сони ортиб бормоқда. Улардаги моддий маданиятни ўрганиш учун этнографик, тарихий, санъатшунослик ишлари сони ортиб борди. Хусусан бир неча йиллардан бери туркум нашрдан чиқиб келаётган тўпламлардан бири Тошкент давлат шарқшунослик университетидаги “Тарихий манбашунослик, таррихнавислик, тарих

тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари” номли тўпламидир. Тўпламнинг IX илмий конференцияда тарих фанлари доктори Ш.С. Камолиддининг “Ўзбек дўпписи тархидан” номли мақоласи ***[11]*** чоп этилган. Муаллиф томонидан моддий маданиятнинг кийим-кечаклар йўнвлишидаги бош кийимлар билан боғлик муҳим маълумотлар келтириб ўтган. Хусусан, Фарғона водийсидаги Қорабулоқ қишлоғи ёнидаги харобалардан бронзадан ясалган ўткир учли бош кийими топилганлиги, ўрта асрлардаги манбаларда эркакларнинг 3 йил бош кийимлари қалпоқ, бўрк ва тақия (дўппи) кийганлиги, Фарғона ва Шарқий Туркистонда кийиладиган дўппилар асосан қора матога оқ иплар билан текилганлиги, дўппининг қора матоси юлдузли осмонни англатиши, X асрдаги Ахсикатда ясалган сопол лаганда дўппининг тепа қисмидаги рамзларга ўхшаш рамзлари борлиги, ва ҳозирги кунда Фарғона водийсида эркакларнинг тўрт бурча шаклдаги дўпписи рамзларни ифода этилишига кўра икки хил тури “чуст” ва “марғилон” дўппиларидан фойдаланиши келтириб ўтилган. Тадқиқотнинг қимматлилик даражаси шундан иборатки, муаллиф қадимги ва ўрта аср ва ҳозирги давр эркаклар бош киймидаги ўхшаш ва фарқли томонларини манбаларга таянган ҳолда келтириб ўтган.

XX асрнинг 70-80-йилларига келиб, Ўзбекистон давлат музейи ходимлари Т.Абдуллаев ва С.А.Ҳасановалар музей материаллари асосида “Ўзбеклар кийими” номли асарни эълон қилган бўлиб, мазкур тадқиқотда XIX-XX аср бошларидаги Бухоро, Самарканд, Фарғона, Тошкент ва Хоразм минтақаларига хос эркаклар, аёллар ва болалар ҳамда турли табақа вакилларининг танлаб олинган кийимлари намуналари кўрсатилган ***[12]***. Бу асар Ўзбекистон тарихи Давлат музейида сақланаётган кийимларни ўрганиш асосидаги дастлабки асар ҳисобланиб, бир қатор муҳим камчиликлардан ҳоли эмас. Унда кийимларнинг маҳаллий хусусиятларга хос томонлари акс эттирилмаган. Шу боис, Ўзбекистоннинг барча минтақаларига хос бўлган хилма-хиллик, анъанавий билиш усуллари батафсил ёритилмаган. Лекин

шунта қарамай, бу асар ўзбек кийимлари мавзуида кенгроқ тадқиқот олиб боришга, ўрганилмаган қирраларини очишга ёрдам беради. Айниқса, бу борада 90-йилларга келиб Москвадаги Этнография институти илмий жамоаси томонидан нашр этилган “Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқларининг анъанавий кийимлари” номли монография алоҳида таъкидлаб ўтиш жоиздир. Мазкур монография муаллифлар гуруҳи томонидан бажарилган бўлиб, Марказий Осиё ва Қозоғистон халқларининг анъанавий кийимларига оид сўнгги тадқиқотлар натижалари баён этилган. Биз учун мазкур монографияда Хоразм аёллари кийимлари ва Фарғона-Тошкент эркакларининг анъанавий кийимларининг солиштирма таҳлилига оид тадқиқотлар муҳим аҳамият касб этади ***[13]***. Мазкур тадқиқотнинг биринчисида Хоразм аёлларининг анъанавий кийимлари этнографик материаллар асосида ёритиб берилган бўлса, иккинчи тадқиқотда Тошкент ва Фарғона водийси эркаклари кийимларининг ўзига хос ва ўхшаш томонлари илмий адабиётлар ва этнографик материаллар асосида ўзаро таққосланиб таҳлил килинган.

Сўнгги йилларда ўзбек миллий кийимларини тадқиқ қилишда санъатшунос олима Н. Содиқова хизматларини алоҳида таъкидлаб ўтиш ўринлидир. Ушбу муаллиф Республикамизнинг ва хорижий мамлакатлардаги йирик музейлар фондларида сақланаётган материаллар асосида XIX-XX-асрлардаги ўзбек миллий кийимларини турли этнографик-тарихий минтақлари бўйича ўрганиб, жумладан, Бухоро, Хоразм, Тошкент-Фарғона, Самарқанд кийимларини бўйича илмий изланиш олиб бориб ***[14]***. Шунингдек илмий ишни амалга оширишда қиёсий материал тарзда жаҳон халқлари анъанавий кийимларига оид нашр этилаётган қатор илмий ва илмий оммабоп материаллардан ҳам самарали фойдаланилган.

К.И.Антипина Жанубий қирғизларда мавжуд бўлган уч нусҳадаги чопонлар ҳақида маълумотлар келтирган. Булар найғут (ёки туура) чопон, каптама (ёки урумча) чопон ва, ниҳоят, Фарғона водийсининг текислик қисми аҳолиси учун хос бўлган чопон нусҳаларидир ***[15]***. Муаллиф

томонидан хар учала чопонларнинг бичими, тикилиши ва тайёрлаш матолари ҳамда бу чопонлар кимлар томонидан кийилганлигига оид маълумотлар келтириб ўтилган.

Этнолог олим К. Шониёзовнинг қипчоқларга бағишланган китобида келтиришича, Фарғона водийсидаги ярим кўчманчи ҳаёт тарзида яшовчи қипчоқлар XIX охирида маҳаллий ўтроқ аҳолидан бир неча нусҳадаги, хусусан ёқаси тик бўлган кўйлак нусҳаларини тайёрлашни ва кийишни ҳам ўзлаштирганлар ***[16]***.

К. Шониёзов маълумотларига таянган ҳолатда яна шуни ҳам қўшимча қилишимиз мумкинки, ўтроқ бўлган ўзбек ва тожик аҳолидан бу нусҳадаги кўйлакларини фақат қипчоқларгина эмас, балким водийнинг бошқа яримўтроқ (яримкўчманчи) аҳоли вакиллари (хусусан, қорақалпоқлар, туркlар, юзлар, минглар, қурамалар ва бошқа) ҳам ўзлаштирганлар.

Л.А. Чвырнинг “Уйгуры Восточного Туркестана и соседние народы в конце XIX – начале XX в. (очерки историко-культурных связей)” деб номланган ишида мавжуд тарихий-этнографик адабиётлар уйғур халқи анъанавий кийим-кечаклари Марказий Осиё, хусусан, фарғоналикларники билан қиёсий таққослаб, бу йўналишда моддий маданиятдаги аҳолига хос этник ва умумий жиҳатлар таққосланган ва ўзаро этномаданий алоқаларнинг азалий тарихий асослари кўрсатиб ўтилган ***[17]***.

Бир сўз билан айтганда Фарғона водийсидаги аҳолининг моддий маданиятдаги ўзига хос жиҳатлари масаласи ҳозирги кунга қадар ҳар томонлама, махсус ўрганиб чиқилмаган.

Моддий маданият ҳар бир халқнинг асосий ўзига хослигини таъминлашда муҳим белгиларидан бири хисобланиб, тарихий тараққиёт жараёнида инсон онги ўзгаришида, табиий муҳитнинг танланишига кўра ҳам вақтлар ўтиши натижасида ўзгариб ва даврга мослашиб боради.

Биз ўрганаётган Фарғона водийсининг Наманган, Фарғона, Қўқон Андижон, Марғилон ҳудудлари ҳам бундан мустасно эмас. Юқоридаги

манбалар, тархий ва этнографик, ўлкашунослик ва санъатга оид адабиётлар таҳлили шу нарсани англатадики: бу гуруҳга кирувчи аксарият адабиётларнинг қанчалик бир ёқламалик характерига эга бўлишига қарамай ўрганилган адабиётлар асосан XIX аср ва XX аср бошлари билан чегараланганлиги, ва бу жараёнда фақат ўша давр билан чегараланган маълумотлар имконини бериши, бу ҳолатда кейинги давр моддий маданиятдаги ўзгаришлар ўрганилиши натижасида даврлар оша кийим-кечаклардаги ўзгаришлар ёритиб борилиши орқали узлуксизлик таъминланмаслигига олиб келади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V-VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида). Тар. фан. док. дисс. Самарқанд-2009. Б. 166-182.
2. Жабборов И. Ўзбеклар. Шарқ. 2008. Б. 90-98.
3. Сухарева О.А. Опыт анализа покроев традиционной ... – С. 78-79.
4. Рассудова Р.Я. К истории женской одежды. . . – С. 168-175.
5. Губаева С.С. Население Ферганской долины ... – С. 48.
6. Антипина К.И. Особенности материальной культуре ... – С. 248.
Туркий халқларнинг тарихи, турмуш тарзи юзасидан илмий тадқиқотлар олиб борган рус тарихчи ва этнолог олимлари Б.А.Латвинский ва Л.Н.Гумилевлар ***[7]*** ҳам ўзларининг тарихий асарларида туркий халқлар хотин-қизлари-нинг ҳуқуқлари юксак даражада эканлигини ва улар ижтимоий ҳаётда ва сиёсатда фаол иштирок этишлари ҳақида қимматли маълумотларни келтириб ўтганлар. Туркий халқлар мардлик ва жасурликни, инсонни юқори даражага кўтарувчи поклик, самимийлик, инсонпарварликни қадрлаганлар.Уларнинг қабила бошлиқлари ана шундай паҳлавон ва

адолатпарвар бўлиши керак эди. У эркакми, хотинми аҳамияти йўқ бўлиб, кўпинча аёллар қабила ва бутун халқни бошқарар, ўз халқининг мустақиллиги учун жонини ҳам беришга тайёр эдилар . Жумладан, Хисрав Парвизнинг қизи Пурондохт, Каёнилардан Баҳромнинг қизи Хумой, Қора Хулагуннинг беваси Доқуз-Хотун, Чиғатой беваси Есулув, Есу Мункенинг хотини Туқаши, Гуюкхоннинг беваси Ўғул Гаймиш каби аёллар ҳалққа бошчилик қилганлар.

Шарқ халқларининг турмуш тарзига айланган ислом манбаларида - “аёл-га, онага, қизга бўлган ҳурмат эҳтиром илоҳий йўриқномалар асносида юксак қадрланади.Аёл зоти муқаддас ҳисобланиб, улар яхши муомала қилинмоғига кўпроқ ҳақлари борлиги уқтирилган.Ислом жамиятида энг катта ҳурматга ло-йиқ зот турмуш қурган аёл, аниқроғи она ҳисобланади. Бу ҳол Пайғамбар алайҳиссаломнинг “Жаннат оналарнинг оёғи остидадир” деган ҳадиси ша-рифларида ҳам яққол баён этилган.

Шуни айтиш мумкинки, аёллар ислом дини нозил этилган илк даврларда жуда фаол бўлишганини тарихий манбалар орқали билсак бўлади. Бунга Ойша разийаллоҳу анҳунинг саҳобалар билан бирга дин ва шариат масалалари муҳокама этилган мажлисларда иштирок этганликлигини келтириш мумкин. Бундан ташқари, Ойша разийаллоҳу анҳу 656 йилда Ҳазрат Али ва унинг аскарларига қарши олиб борилган жангга ўзи бошчилик қилиб, ғалабага эришганлигини мисол қилсак бўлади.

Аёлларнинг жамиятдаги мавқеи Ислом сўфизмида муҳим ўрин тутган. Сўфизм Пайғамбар алайҳиссалом вафотидан тахминан 100 йилдан кейин VIII аср бошларида вужудга келди, ривожлана бошланди. Сўфизмида аёллар тўла равишда тенг ҳуқуқликка эришган, ҳатто баъзи баркамол аёллар “чинаккам эркак” деб ҳам тасвирланадилар. 1628-1658 йилларда ҳукмдорлик қилган Шоҳ Жаҳоннинг катта қизи Фотима Жаҳоноро сўфийлик сўқмоғида шунчалар муваффақиятга эришадики, унинг устози тариқат қонунлари йўл қўйган тақдирда у маликани бемалол ўзидан кейин муршидликка тақдим

этган бўларди. Онаси Мумтоз бегим вафотидан кейин у мамлакатдаги “биринчи хоним” га айланди. Аврангзебнинг қизи Зебуннисо ҳам сўфизм ҳамда шеъриятга мойил бўлган. Ислом оламининг оқила, тақводор хонимлари ўз ҳисобларидан мачит, мадрасалар қурдиришиб донг таратганлар ***[11:11-12]***.

Аёлларнинг жамиятда тутган ўрни ва уларга бўлган эътибор Шарқ ҳукмдорлари фаолиятида ҳам намоён бўлади. Айниқса, соҳибқирон Амир Темур салтанатида аёлларга бўлган ҳурмат, эътибор ва ишонч диққатга сазовордир. XV асрда Мовароуннаҳрга Амир Темур саройига ташриф буюрган Испания элчиси Руи Гонсалес де Клавихо ёзишича, 1404 йил 3 сентябр душанба куни Амир Темур Самарқанд четидаги “Дилкушо” боғида элчиларни қабул қилган маросимда Сарой Мулкхоним бошлиқ бошқа хотинлари ҳам юзларига парда ташлаб ўтирганлар.Испан қироли юборган ҳадялар орасида ҳукмдорга қизил мовут маъқул бўлган ҳамда бу ҳақида ўз хотинлари, биринчи навбатда Сарой Мулкхоним билан фикрлашган. Шунингдек, 1404 йил 17 октябр жума куни Сарой Мулкхоним катта зиёфат берган. Ушбу зиёфатда бошқа элчилар қато-рида испан элчиси Руи Гонсалес де Клавихо ҳам иштирок этган эди ***[12:55-56].***

Тарихий манбаларда илиқ таърифлар билан ифодаланган Сарой Мулкхоним ўзининг ақл-заковати, дид-фаросатлилиги, фикрлаш доираси кенглиги, юксак иродалилиги ва тадбиркор аёл бўлганлиги соҳибқироннинг айрим соҳалардаги мавжуд мураккабликларнинг олдини олиш ва ечимини топишга кўмак берганлиги Амир Темур фаолияти билан боғлиқ тарихий ривоятларда қайд этилган.

Сарой Мулкхоним қатори темурий маликалардан Гавҳаршод бегим, Хонзода бегим, Гулбадан бегим, Нуржаҳон бегим, Мумтоз Маҳал бегим, Жаҳон-оро бегим каби юксак мавқега эга бўлган аёллар тарих саҳифаларига кирганлиги албатта бежиз эмас. Темурийлар даврида аёлларга бўлган

ҳурмат-эътибор, ҳаётда эркин ва фаол бўлиши илм-фан, маънавий тараққиётнинг юксалишига олиб келди.

Тарихда “хонликлар даври” деб ном олган XVI-XIX асрларга оид ёзма манбалар орқали ўрта аср жамиятида ҳам аёллар ўзига хос ҳуқуқ ва мавқега эга бўлганликларини билиб оламиз. Бу даврда аёллар асосан, хусусан, зодагон аёллар хат-саводга эга бўлиб, савдо-ҳунармандчилик, ишлаб чиқариш тараққиётига самарали таъсир ўтказганлар. Мулк эгалари бўлган аёллар шаҳарлардаги ишлаб чиқариш жараёнида шахсан иштирок этмасаларда, савдо-ҳунармандчилик муассасалари бўлмиш дўконларда ҳунармандлар ва ўз ишининг моҳир усталари меҳнатидан кенг фойдаланар эдилар. Савдо-сотиқ ишлари ишончли иш бошқарувчилар томонидан назорат қилинган ва амалга оширилган. Йирик мулк эгалари бўлган аёллар ўз даромадларини хайрия ишларига сарфлашга ҳаракат қилганлар. Жумладан, Муҳаммад Шайбоний-хоннинг келини Меҳр Султонхоним зодогон ва маърифатли аёл сифатида ўзига тегишли мулкнинг катта қисмини масжид ва мадрасалар фойдасига вақф этганлиги тарихий ҳужжатларда қайд этилган ***[2:30-36]***.

Шуни айтиб ўтиш жоизки, ислом динининг хукмрон мафкураси таъсирида шарқ халқлари ҳаётида аёллар масалаласига доир нотўғри ёндашувлар юзага келиши натижасида уларни табиат инъом этган хусусиятлари туфайли “заифа”, “ожиза” сифатида талқин этилиб келиниб, оила ва жамиятдаги ҳақ-ҳуқуқлари камситилиб келинган.

Бироқ, жамиятнинг ижтимоий-сиёсий ва маънавий ҳаётида ислом сиёсий мафкураси тўла хукмронлик қилишига қарамасдан ушбу даврларда қатор таниқли ва истеъдодли шоиралар етишиб чиқдилар. Масалан, Дилшод, Зебунисо, Маҳзуна, Муштарий, Нодира Бегим, Увайсийларнинг ижоди алоҳида эътиборга лойиқдир.Улар ўз даврининг маърифатли аёллари сифатида адолатсизликка, зўравонликка, аёлларнинг ҳақ-ҳуқуқлари поймол бўлишига қарши қаттиқ курашганлар.

XIX асрнинг охири XX аср бошларида юзага келган жадидизм намоёндалари томонидан хотин-қизларни ҳимоя қилган ҳолда уларнинг шахс эканлигини тан олишди. Жумладан, Маҳмудхўжа Беҳбудий шундай деган эди: “... Аёл бу инсоният билан боғлиқ шахсдир. Аёл донишмандларни туғиб, тарбиялаб, улуғ шахслар даражасига етказди. Аёл энг ҳурматга сазовор инсондир. Улар учун эркинлик берилиши, маълумот олиши учун имконият яратилиши, моддий ва маънавий қўллаб-қувватланиши лозим. Шариат хотин-қизларнинг билим олишини тақиқламайди, аксинча маъқуллайди ***[3*:16].**

Абдурауф Фитрат “Оила” асарида қизларга илм беришнинг шарт эканлигини таъкидлаб, миллат оналари тарбия ва илм олишлари лозим, аҳлоқ ва билимларини камолга етказишлари зарур” ***[13*:98]**. Бу билан яхши фарзанд тарбия қилишнинг асосий шартларидан эканлигини изоҳлаб беради.

Абдулла Авлоний оиладаги фарзанд тарбиясида онанинг ўрни ва роли муҳим аҳамиятга эга эканлиги ҳақида тўхталиб, “Тарбияни кимлар қилур? Қайда қилинур?” –деган саволга “Биринчи – уй тарбияси. Бу она вазифасидур. Иккинчи-мактаб ва мадраса тарбияси. Бу ота, муаллим, мударрис ва хукумат вазифасидур”,-деб жавоб берган эди” **[1:37*]***.

Туркистон жадидлари хотин-қизларга муносабат масаласида қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим деб ҳисоблашди;

– аёлларнинг билими эркакларга нисбатан кам бўлмаслиги лозимлиги;

– янги авлоднинг қандай бўлиши миллат тарбиячиси бўлган аёллар билан

боғлиқлиги;

– аёлларнинг ҳурмат ва эҳтиромга муносиб эканлигитенг ҳуқуқлилик уй-рўзғор мажбуриятларининг тўғри тақсимоти билан боғлиқлиги;

эркак-таъминловчи, аёл-уй юмушларининг бажарувчиси, фарзанд тарбияси эса умумий эканлиги ***[6: 91*]**.

Дарҳақиқат, жадидлар томонидан илгари сурилган аёл, оила, жамият масалалари бир-бирига узвий равишда боғлиқ эканлигини бугунги кунда ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди.

Аёлнинг илмли, оқила, фозила бўлишидан инсоният тамаддунининг ҳар бир даврида жамият манфаатдор бўлиб келган ва тараққиёт учун хизмат қилади. Чунки, аёл - соғлом миллат давомчиси ва тарбиячисидир, соғлом авлод эса юрт келажаги пойдеворидир. Аёллари улуғланган ҳар бир юртнинг келажаги ҳам буюкдир.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг янги босқичида хотин-қизларни ижтимоий-иқтисодий фаоллигини ошириш, уларни қўллаб - қувватлаш борасида амалга оширилаётган ишларнинг барчаси тарихий ва миллий қадриятларимиз асосида амалга оширилаётганлигидан дарак беради.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Авлоний А.Танланган асарлар. 2 жилд.-Т.:”Маънавият”.1998.Б.37
2. Агзамова Г.А.Ўрта Осиё хонликлари: аёллар ва жамият тараққиёти // Ўзбекистон хотин-қизлари: кеча ва бугун. //илмий-амалий конференция маърузалари.-Т., 2005 й.Б.30-36
3. Беҳбудий М.. Танлаган асарлар.-. Т., 1997. Б.16
4. Бичирун.Н.Я.ю Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена.Т.2.ч.3.-М.-Л.,1950.С.162
5. Геродот.История.-Л.: Наука, 1972.с.79-80.
6. Жўраева Н. Туркистон жадидларининг даъватларида аёлларга бўлган муносабат.// Ижтимоий фикр.Инсон ҳуқуқлари.№2 . 2011Б.91
7. .Латвинский. Б.А . Истории и культуры народов Средней Азия. М. , 1976 г. Л.Н.Гумилев. “Древние тюрки , М.1967 г.
8. Мусина Ғолима. Туроннинг баҳодир қизлари.// Саодат.1992 .№11 Б.12-13
9. Исҳоқов М.М. Унитилган подшоҳликдан хатлар-Т.: 1992..Б.38-41

10. Ҳомидий.Ҳ. Поклик ва ростлик тимсоли.Саодат .2000 №6 Б.16-17.

11. Шиммел.Жонон менинг жонимда.”Шарқ” нашриёт-матбаа концерни.Бош таҳририяти.Т.-1999.Б.11-21

12. .Файзиев. Т.Темурийлар шажараси.-Т., 1995 й. Б.55-56.

13. Фитрат А. Оила ва оила бошқариш тартиби.-Т.:Маънавият, 2000.Б.98.

14. Shamsieva Makhfuzahon Khoja kizi, On the activities of women’s ngos in Uzbekistan and Kazakhstan:a comparative analysis.Galaxy international interdisciplinary research journal.(GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issue 6, June (2022)

15. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

16. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

17. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

18. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

19. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

20. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

21. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

22. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

23. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

24. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

25. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

26. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

27. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

28. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

29. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

30. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

31. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

32. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

33. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

34. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

35. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

36. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

37. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

38. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

39. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

40. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

41. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

SURXONDARYO HUDUDIDAGI DASTLABKI ODAM MANZILGOHLARI

Jaxongirov Islomxon Faxriddin o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti
Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarixning ajralmas qismi hisoblangan qadimgi dunyo‘tarixi davri bugungi kunga qadar bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, bu davrga tegishli yoritilmagan mavzular, ochilmagan tarix sirlari talaygina topiladi. Maqolada O‘zbekistonimizning janubi hisoblangan Surxon vohasidagi ilk odamlar manzilgohlari haqida atroflicha ma’lumotlar beriladi. Davrlashtirish mezonlariga ko‘ra ushbu hududda qanday madaniyatlar shakllanganligi tog‘risidagi ayrim fikrlarga to‘xtalamiz.*

Kalit so‘z va iboralar: *paleolit, mezolit, neolit, Teshiktosh, Boysuntog‘, tosh buyumlar, Machay, nukleus, uchrindilar, Amir Temur g‘ori, suyakdan yasalgan buyumlar.*

Аннотация: *В данной статье, несмотря на то, что период древней мировой истории, считающийся неотъемлемой частью истории, изучался несколькими учеными, остается много нераскрытых тем и неразгаданных тайн истории, связанных с этим периодом. В статье представлена подробная информация о поселениях первых людей в Сурханском оазисе, который считается югом Узбекистана. Остановимся на некоторых представлениях о том, какие культуры формировались в этой местности по критериям периодизации.*

Ключевые слова и фразы: *палеолит, мезолит, неолит, Тешикташ, Бойсунтог, каменные изделия, Мачай, нуклеус, находки, пещера Амир Темур, костяные изделия.*

Annotation: *In this article, despite the fact that the period of ancient world history, which is considered an integral part of history, has been studied by several scientists, there are many unexplained topics and unsolved secrets of history related to‘this period. The article provides detailed information about the settlements of the first people in the Surkhan oasis,*

which is considered the south of Uzbekistan. We will dwell on some ideas about what cultures were formed in this area according to‘the criteria of periodization.

Key words and phrases: *Paleolithic, Mesolithic, Neolithic, Teshiktash, Boysuntog, stone objects, Machai, nucleus, finds, Amir Temur cave, bone objects.*

Vatanimizning qadrli tuprog‘i juda qadimgi tarixga ega bo‘lib, dunyodagi insoniyat dastlab shakllangan mintaqalar qatoriga kiradi. Boshqa mintaqalarda bo‘lgani kabi yurtimiz tarixi ham qadimgi tosh davridan boshlanadi. Ilk paleolit davriga oid bo‘lgan bir qancha manzilgohlar mavjuddir. Ammo, mavzu hudud bo‘yicha Surxon vohasi bilan chegaralangan, shu sababli biz o‘rta paleolit davridan boshlaymiz.

Nazariy jihatdan o‘rta paleolit davri bundan 100 ming yillar avval boshlanib to 36 ming yillargacha davom etgan. O‘zbekistonda bu davrga oid bir qancha manzilgohlar mavjud bo‘lib, ulardan Surxondaryo hududidan topilgan Teshiktosh g‘ori eng mashhuridir.

Surxondaryoning Boysuntog‘ hududlarida joylashgan Teshiktosh g‘ori Boysun shahridan 18 km shimolda, Machaydaryoning chap qirg‘og‘idagi Zavtalashsoyning o‘rta oqimida joylashgan. G‘or ohaktoshdan iborat bo‘lib, hozirgi Machaydaryodan 500 m chamasi yuqoriroqda joylashgan. Yodgorlikning dengiz sathidan balandligi 1800 m ni tashkil qiladi. G‘orning kirish qismidagi balandligi 7 m, eni esa 20 m dan iborat ***[4].*** Teshiktosh g‘ori 1938-1939 yillarda A.Okladnikov tomonidan o‘rganilgan. Okladnikov tomonidan sof yotqiziqlar bilan ajratilgan 5ta madaniy qatlam aniqlangan. Bu qatlamlarning umumiy qalinligi 1,5 m bo‘lib, uning eng qalin joyi 40 sm gacha yetadi ***[1:23].*** Olib borilgan tadqiqot ishlariga ko‘ra bu 5 dona madaniy qatlamdan turli xil shakldagi o‘choqlar va gulxan qoldiqlari topilgan. Bu o‘choqlar turli o‘lchamlarda bo‘lib, g‘orning katta qismi yuqoridan tushgan suvlar natijasida yuvilib ketgan. Shu sababdan g‘orning ayrim qismlaridagi topilmalar yaxshi saqlanib qolmagan. Bizgacha yetib kelgan va o‘rganilgan barcha topilmalar, tosh buyumlar, faunistik qoldiqlar (hayvonlardan qolgan) barchasi o‘choqlar atrofidan topilgan. Bundan esa o‘sha davr sharoitida olovning ahamiyati nechog‘lik muhim bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Arxeolog

I.V.Gromovaning fikriga ko‘ra “Teshiktosh O‘rta Osiyoning faunistik materillari saqlanib qolgan noyob yodgorliklaridan biridir ***[2].***” O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, g‘ordan topilgan hayvon suyaklari orasida tog‘ echkisi, ayiq, qoplon, quyon, kurka kabilarning suyaklari katta qismni tashkil etishi aniqlangan. Yana shunu ta’kidlab o‘tish joiz-ki, ushbu g‘ordan suyaklardan tashqari 2228 ta tosh buyumlar topib o‘rganilgan. Ularning orasida nukleuslar, qirg‘ichlar, kesgichlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Boysuntog‘da joylashgan o‘rta paleolitga oid bo‘lgan yana bir manzilgoh bu Amir Temur g‘oridir. U Teshiktoshdan 1,5 km shimolroqda joylashgan uncha katta bo‘lmagan soy yonidan topilgan. Yodgorlik ilk bora V.F.Lomaev tomonidan topilgan. 1938-1939 yillarda esa A.P.Okladnikov tomonidan o‘rganilgan. G‘orda uchta madaniy qatlam aniqlangan bo‘lib, chuqurligi bir metr gacha yetadigan uchinchi qatlamdan uncha ko‘p bo‘lmagan tosh buyumlar yig‘ib olingan. Ushbu qatlamda archaga taalluqli ko‘mir qoldiqlari ham topilgan ***[1:24-25].*** O‘rta paleolitga daxldor bo‘lgan yuqoridagi ikki manzilgohda bir biriga o‘xshash hamda farqli jihatlarning borligi hususida hozirgi kungacha bahs-munozaralar davom etmoqda. Ammo shuni ta’kidlash joizki, yurtimiz sarhadlarida joylashgan bu manzilgohlar tuprog‘imizda eng qadimgi davlarda ham insonlar hayot kechira olgan zamin ekanligi shubhasizdir.

So‘nggi paleolit davriga oid bo‘lgan manzilgohlar asosan Toshkent va Zarafshon vohalari hududida topilgan hamda yaxshi tadqiq etilgan. Bu davrga oid bo‘lgan manzilgohlar Surxondaryo hududidan bugungi kungacha topilmagan. Balki yaqin kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar natijasida bu hududdan ham shu davrga tegishli bo‘lgan manzilgohlar topilsa ajab emas.

Dunyo olimlari tomonidan mezolit davriga oid dastlabki ma‘lumotlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida paydo bo‘lgan. Ammo, bugungi kunga qadar mezolit davri boshqa davrlarga nisbatan kam o’rganilgan davr hisoblanadi. Surxon vohasida topilgan hamda bevosita mezolit davriga aloqador bo‘lgan manzilgoh bu Machaydir.

Machay g‘ori Surxondaryo vodiysidagi Machaydaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan. Yodgorlik 1938-1942yillarda G.V.Parfyonov tomonidan ochib o‘rganilgan. 1937-yil g‘orga M.E.Voronest va A.P.Okladnikovlar tashrif buyurishdi ***[5].*** Hamda ular ushbu g‘orda mezolit davriga oid ikkita madaniy qatlamni aniqladilar. 1970-1971 yillarda yodgorlik O‘.I.Islomov tomonidan qazib o‘rganildi. Akademik O‘.I.Islomov yodgrlikni o‘rganishi davomida undagi madaniy qatlamlar mezolitning faqat bir davriga oid ekanligini ilmiy ravishda isbotlab berdi ***[3].*** Machay g‘ori ko‘p qatlamli bo‘lib, u yerdan ko‘p miqdorda tosh qurollari va oz miqdorda suyakdan yasalgan mehnat qurollar ham topilgan. Suyak qurollar 15 nusxada bo‘lib, ular bigiz, igna, so‘zan va boshqalardir. G‘orning madaniy qatlamlaridan jami 870ta toshdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Ular har xil shakldagi nukleuslar, retushlangan va retushlanmagan paraqa va paraqachalar, tosh pichoqlar, arrasimon qurollar, keskich, ushatgich toshlar, nayza va o‘q uchlari, trapetsiyalar, sigmentlar va boshqa xil qurollar topilgan. Machay g‘oridan topilgan qurollarning ishlanish texnikasi, katta kichikligi Tojikistonning Vaxsh daryosi havzasidagi, Markaziy Farg‘ona va Toshkent vohasidagi mezolit qurollariga ancha o‘xshab ketadi. Lekin, ularning o‘ziga xos jihatlari ham bor.

Machay g‘orining madaniy qatlamlaridan antropologik materiallar – odam bosh suyaklari, tishi, jag‘i va boshqa a’zolarining suyak qoldiqlari topilgan. Haligacha O‘rta Osiyoning mezolit davriga oid yodgorliklaridan bunday topilmalar topilgani yo‘q. Shu jihatdan Machaydan topilgan odam suyaklari juda katta amaliy va ilmiy ahamiyatga egadir.

Ayrim olimlar fikriga ko‘ra Machay g‘ori neolit davri yodgorliklari bilan juda o‘xshashdir. Ular buni Machay g‘oridan geometrik qurollarning yo‘qligi hamda g‘ordan ko‘p sonli mikroplastinkalarning topilishi bilan izohlaydilar. Yana bir jihat shundan iboratki, g‘ordan topilgan faunistik materiallar orasida xonaki sigirning suyak qoldiqlari ham topilgan. Ya’ni mezolit davrida boshlangan hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish san’ati neolit davriga kelib ancha ravnaq topgan. Shu jumladan sigir, qo‘y kabi bugungi kunda uy hayvonlari hisoblangan jonivorlar ham

neolit davrida qo‘lga butkul o‘rgatilgan. Bundan ko‘rinib turibdi-ki, Machay g‘ori neolit davriga ham tegishlidir, deyilgan g‘oya qaysidir ma‘noda o‘zini oqlaydi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixi tosh davrining yakunlovchi bosqichi hisoblangan neolit davri jamoalari moddiy madaniyati yurtimiz sarhadlarida juda yaxshi tadqiq etilgan. Yurtimizda shu davrga oid bo‘lgan Kaltaminor, Ustyurt, Markaziy Farg‘ona, Sazag‘on kabi bir qancha o‘ziga xos madaniyatlar mavjuddir. Ammo, baxtga qarshi bu manzilgohlar Surxondaryo hududida joylashmagan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, bu davrga oid boshqa yodgorliklar misolida tarixning bu qismida ham mamlakatimiz hududida bir qancha jamoalar manzilgohlari borligi hamda bu hududlarda insoniyatning rivojlanib, taraqqiy eta olganini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo hududi ham qadimdan insoniyatga xizmat qilgan va ularning taraqqiy etishida o‘z hissasini qo‘sha olgan hududdir. Tarixda umumiy nom bilan tosh davri deb nomlangan juda katta davr mobaynida insoniyatning dastlabki o‘chog‘ shu hududda ham bo‘lgan desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Umuman olganda bu kabi juda qadimiy bo‘lgan davrga tegishli manzilgohlarning bugungi kungacha saqlanib qolganiga tabiiy iqlim sharoiti ham sabab bo‘lgan. Chunki, yog‘ingarchilik kam bo‘lgan hududlarda qadimiy manzilgohlarning yog‘in sababli yuvilib ketishi kam kuzatiladigan holat hisoblanadi. Shu bois, yaqin kelajak yillarda Surxondaryo hududidan ham yanada ko‘proq manzilgohlarning topilishiga va yangi tadqiqot ishlari olib borilishiga umid qilib qolamiz. Zero, tarix ko‘p jabhalarda o‘rganilishga anchayin muhtojdir. Qadimiy yodgorliklar va tarixiy buyumlar yurtimizning qaysi qismidan topilishidan qat’iy nazar bu bizning tariximiz. Uni yoritish va kelajak avlodga o‘rganib yetkazish barchamizning yelkamizdagi burchimizdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Мирсоатова С.М. Ўзбекистоннинг тош даври археалогияси ва антропогенези масалалари. Монография. Фарғона 2017.

2. Громова.В.И. Плейстоценовая фауна млекопытаюших из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан.

3. Исломов Ў.И. Пещера Мачай. Ташкент.: 1975.

4. Окладников А.П. Мустьерская стоянка в гороте Тешик-Таш в Узбекистане. КСИИМК. Вып. 2. М. Л. 1939.

5. Окладников А.П. Следы каменного века в районе Термеза. Термезская археологическая экпедиция. Ташкент.: 1945.

6. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

7. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

8. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

9. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

10. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

11. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA

FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

12. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

13. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

14. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

15. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

16. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

17. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

18. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

19. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

20. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

21. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

22. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

23. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

24. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

25. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

26. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

27. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

28. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

29. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

30. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

31. Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

32. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

33. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

34. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

SHAYBONIYLAR VA ASHTARXONIYLAR SULOLASI HUKRONLIGI DAVRIGA OID ISH YURITISH HUJJATLARI VA EPISTOLYAR MANBALAR

Boboyev M.Q

FarDU I bosqich magistranti

G‘aniyeva D.A.

FarDU I bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatimiz tarixining Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmronligi davriga oid bo‘lgan ish yuritish hujjatlari, yuridik hujjatlar va epistolyar manbalar o‘rin olgan. Bundan tashqari mazkur maqolada Movorounnahrning XVI-XVII asrlarda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘z va iboralar: *Shayboniylar, Ashtarxoniylar, manba, epistolyar, yuridik hujjatlar, xon, xonlik, Movorounnahr.*

Аннотация: *В данной статье собраны административные документы, юридические документы и эпистолярные источники, относящиеся к периоду правления Шайбани и Аштархани в истории нашей страны. Кроме того, в данной статье кратко рассматриваются события, происходившие в Мовороуннахре в XVI и XVII веках.*

Ключевые слова и фразы. *Шайбани, Аштархани, источник, эпистолярный, правовые документы, хан, ханство, Мовороуннахр.*

Annotation: *This article contains administrative documents, legal documents and epistolary sources related to‘the period of Shaibani and Ashtarkhani rule in the history of our country. In addition, this article briefly discusses the events that took place in Movorounnahr in the 16th and 17th centuries.*

Key words and phrases. *Shaibani, Ashtarkhani, source, epistolary, legal documents, khan, khanate, Movorounnahr.*

Mamlakatimizning Shayboniylar va xonliklar davri tarixini yorituvchi manbalardan biri bo‘lgan kutubxonalar va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan yuridik va ish yuritish hujjatlari hisoblanadi.

Ish yuritish hujjatlari tarixiy manbalarning bir turi bo‘lib, ularning vazifasi boshqaruv tizimining faoliyatini ta’minlashdan iboratdir. Ish yuritish hujjatlarini biz dunyoviy, diniy va moliyaviy hujjatlarga bo‘lishimiz mumkin.

Xonliklar davrida turli idoralarda quyidagi ish yuritish hujjatlari yaratilgan:

patta (ko‘rsatma, bildirish xati, moliyaviy hujjat);

musavvada (ar. – qoralama; hisobot hujjati);

sanad (ar. – hujjat; eslatma),

nishon (toj. – belgi, muhr; eslatma);

shukka (ar.-turk. – yozuv; eslatma),

patta-i rasid (pul yoki boshqa moddiy vositalarning olish uchun berilgan tilxat yoki kvitansiya);

daftar (ar. – yozuv, ro‘yxat; hisobot yozuvi), jam'i daftar (ar. – yakuniy yozuv; pul kirimlari ro‘yxati)’

nomgo‘y (toj. – ro‘yxat), ro‘yxat (ar.-toj. – ro‘yxat);

ariza (ar. – iltimosnoma, ariza, xabarnoma; qo‘yi maqomdagi shaxsning yuqori mansabdagi shaxsga yozgan xati);

rivoyat va fatvo (qozilar va myftiylar chiqargan qarorlar);

xat, roqima, ruq'a, kitobat, maktub (bu atamalar arabchadan olingan bo‘lib, "xat, yozuv" degan ma’noni anglatadi) va hokazolar ***[1:195]***.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, xonliklarda hujjatlar davr o‘tishi bilan shakllanib borgan. Bu davrda mirzolar, munshiylar, kotiblarning sa’y-harakatlari tufayli ish yuritish hujjatlarining ma’lum andozalari yuzaga kelgan.

Xonliklar davridagi judayam murakkab vazifalardan biri – ish yuritish hujjatlarini to‘plash va saqlash masalasi edi. Mamlakatimiz xonliklarining birontasida ish yuritish hujjatlarning to‘plash va saqlashning umuman imkoni bo‘lmagan. Mazkur davrda faoliyat olib brogan xonlar, mansabdor shaxlslar, va aholining ma'lum bir toifasi o‘zlariga taalluqli hujjatlarni xohlagan tartibda saqlashgan. Hujjatlarni jamlash va hisobga olish tizimi umuman bo‘lmagan.

Ko‘pincha, davlat amaldorlari (xonlar ham) lavozimdan ketganidan so‘ng, ularga taalluqli hujjatlar saqlab qolinmagan. Mamlakat hayotida vujudga kelgan ichki ziddiyatlar, tashqi bosqinlar va fuqarolar orasida paydo bo‘lgan norozilik harakatlari natijasida ish yuritish hujjatlari yo‘qolib ketgan. Aynan shu tufayli mamlakatimizning xonliklari davriga oi dish yuritish hujjatlari juda kam miqdorda saqlanib qolgan. Bu esa amalda yurtimizing xonliklar davri tarixini o‘rganishda ma’lum darajada qiyinchiliklarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kungacha kelgan hujjatlar hozirgi kunda O‘zbekiston Milliy arxivida, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qoshidagi Sharq qo‘lyozmalari markazida, Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat axborot-kutubxona markazi, Buxoro viloyat tarix va madaniyat muzeyi hamda respublikamizning boshqa muzeylarida saqlanmoqda. Yuqoridagilardan tashqari, ko‘plab yuridik hujjatlar va ish yuritish hujjatlarining nusxalari ayrim tarixiy va adabiy asarlagda kiritilgan. Misol uchun, Badruddin Kashmiriyning "Ravzat ar-rizvon" nomli asarida Abdullaxon II ning Jo‘ybor shahrining ko‘zga ko‘ringan shayxlarini davlat soliqlardan ozod qilish va ularning yerlarini sug‘orish maqsadida Vaxsh vodiysida qurilayotgan kanal qurilishiga aholini safarbar qilish to‘g‘risidagi farmonlari joy olgan.

Ayrim ish yuritish hujjatlarining matni Zaynuddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'" asariga ilova tarzida berilgan. Ularning orasida Navro‘z Ahmadxonning

sadr Sayid Shamsuddin Muhammad Kurtiy nomiga berilgan yorlig‘i alohida ahaiyat kasb etadi va undan biz Toshkentdagi barcha qazilma konlari ushbu sadrga suyurg‘ol tariqasida in’om etilganligini bilib olamiz.

Yuridik va ish yuritish hujjatlari manbashunoslik jihatidan batafsil o‘rganilmagan. Ma’lum bir ma’noda ayrim vaqfnomalar, Jo‘ybor shayxlari arxivi materiallari, XVI asr Samarqand qozilik hujjatlari va XVII-XIX asrlarda Buxoro xonligidagi agrar munosabatlarga doir hujjatlarni e’tirof etib o‘tishimiz mumkin. Ushbu hujjatlar majmui tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib, ularning manbaviy ahamiyati ochib berilgan. XVI asrning birinchi yarmida Muhamad Shayboniyxonning kelini – Mehrsultonxonim tomonidan yozilgan vaqfnoma taniqli sharqshunos olima R.G.Muqminova tomonidan o‘rganildi va Toshkentda 1966-yilda nashr etildi. Ma’lum bir parcha qog‘oz ko‘rinishidagi boshqa vaqfnomalardan farqli ravishda, ushbu vaqf hujjati qo‘lyozma kitob shaklida yaratilga. Bu jihatni hujjatning hajmi kattaligi bilan izohlashimiz mumkin. Ushbu manbada Mehrsultonxonimning Samarqanddagi Qo‘shmadrasaga vasiyat qilgan vaqf xo‘jaligini to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan. Ushbu vaqf xo‘jaligi 200 ga yaqin yer qit’asi, 2 ta qog‘oz ishlab chiqaruvchi ustaxona, 8 ta suv tegirmoni, 40 dan ortiq savdo do‘koni, hammom, omborxonalar, imoratli hovlilarni o‘z ichiga olgan. Mazkur vaqfnoma Buxoro xonligining Shayboniylar sulolasi davri tarixiga oid muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. “Vaqfnoma”ning 2 ta qo‘lyozma nusxasi mavjud. Ulardan biri Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo‘limi kutubxonasida, ikkinchisi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qoshidagi Sharq qo‘lyozmalari markazida saqlanmoqda **[1:197]**.

Epistolyar Atamasi qadimgi yunon tilidan, “EPIOTOLN”(yo‘llanma) – maktub yoki yo‘llanma uslubida ifodalanadigan hujjatlar epistolyar hujjatlar deyiladi.

Epistolyar manbaalar albatta xonliklar davrida ham bo‘lgan va manbaashunoslikda kata ahamiyat kasb etgan.

Asosan epistolyar Manbaalar Movarounnahr va Xurosonning XVI-XIX asrlardagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy hayotini yoritishda beqiyos manbaadir.

Baxtga qarshi ko‘plab epistolyar manbalarning asl nusxalari qo‘ldan boy berilgan bo‘lsada (har xil sabablarga ko‘ra.) ba’zi muhim qismlari boshqa manbalar, yoki hujjatlarga biriktirilish yoki ilova qilish orqali saqlanib qolgan.

Masalan: “Ravzat ar-rizvon” ning muallifi Badruddin Kashmiriyning yozishicha, asarni yoza boshlaganda unda Jo‘ybor shayxlari uhammad Islom va Muhammad Sa’d ga yo‘llangan 500 dan ortiq maktublar bo‘lgan bo‘lib, ulardan 132 tasini u o‘z asariga biriktirgan ***[2:214]***.

Maktublarda shayboniy sultonlarining o‘zaro urushlari, soliqdan aziyat chekayotgan xalq dardi, amaldorlarning zulmidan to‘ygan nochor qatlam arz dodi o‘z aksini topgan.

Qolaversa xatlar orasida Jo‘ybor shayxlarining Hindiston Eron Turkiya Va Qoshg‘Ar hukmdorlariga yo‘llagan maktublari ham bor. Bu albatta Jo‘ybor shayhlarining halqaro nufuzda ham o‘z mavqelariga egaligidan so‘zlaydi.

Zaynuddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye” asarida shayboniylarning fathnomalari va xatlarini o‘z ichiga oladi. Eng ko‘zga ko‘ringani albatta Ubaydullahonning bir juft fathnomasi bo‘lib ikkalasi ham g‘anim ustidan erishilgan g‘alaba haqida qo‘shni mamlakatlar hukmdorlariga xabar berganligi haqida.

Mirzo Abdulazim Somiyning “Silsilat us-salotin” asarida shayboniylar va shtarxoniylarning Hindiston,Turkiya va Eron hukmdorlari bilan olib brogan siyosiy yozishmalarini qamrab oladi +20. Ushbu xatlar xronologik chegarasi1586-1687 yillar oraligэш bo‘lib, Buxoro Xonligining O‘Rta Sharqda geosiyosiy ustunlikka intilganligini ko‘rsatadi.

Bobur avlodi Akbarshohning vaziri Abulfazl Allomiyning “Inshoyi Abulfazl” asosan Akbarshoh bazida Allomiy nomidan bitilgan maktublarni qamrab olgan. To‘plamni jamlagan odam Allomiyning jiyani Abdusamad ibn Afzal Muhammad bo‘lib, to‘liq 3 ta daftardan iborat bo‘lgan. Bizgach esa 2 ta daftardagi

to‘plam yetib kelgan. Asarda 1586-1596 yillar oralig‘ida Boburiylarning Buhoro xonligi, Balx Va Eron bilan olib botrgan qaltis munosabatlarini yoritadi. Boburiylarning shayboniylar bilan tortishuviga asosiy sabab Badahshon viloyati bo‘lsa Eronda qandahor baxsli hudud bo‘lgan ***[4:88]***.

“Maktuboti Abulfazli” Buxoro xonligi va Boburiylar o‘rtasidagi munosabatlarni yoritadi, asarning asl nusxasi toshkenta FA Sharqshunoslik iinstituti qoshidagi sharq qo‘lyozmalari markazida saqlanadi.

Ushbu markazda Buxoro amiri Xaydarning “Majmuai maktuboti Sayid Amir Haydar Bahodurhon” ham saqlanmoqda. Asosiy content 1814-1824 yillardagi amirning maktublarini o‘z ichiga olgan.

Ushbu saqlanayotgan asar nusxa bo‘lib, XIX asrning birinchi yarmida ko‘chirilgan. Amir Haydarning maktublari amirlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot, soliq tizimi., yer egaligi shakllari haqida ko‘plab qimmatbaxo ma’lumtlar beradi.

Qisqacha xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz tarixining aynan Shayboniylar va Ashtarxoniylar davriga oid yuridik hujjatlar, ish yuritish hujjatlari va epistolyar manbalari bugungi kungacha to‘liq yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan ayrim manbalar asosida biz mazkur davr to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Hozirgi kunda Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri manbashunosligiga oid oz bo‘lsada ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Lekin bizning fikrimizcha aynan ushbu davr manbashunosligi bo‘yicha yangi izlanishlar olib borilishi kerak.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Arslonzoda R.A. Manbashunoslik, - Farg‘ona : “Classic”, 2022.
2. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik: Bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
3. Из архива шейхов Джуйбари (Тексты документов). – Москва:Ленинград,1938.

4. Казаков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. – Т.: Узбекистан, 1987.

5. Казийские документы XVI в. / Текст, перевод, указат. юридич. терминов А.Фитрата, Б.С.Сергеева. – Т., 1937.

6. Хафиз-и Таниш Бухари. Шараф-нама-йи шахи (“Книга шахской славы”). – М., Ч. I., 1983; Ч. II., 1989.

7. Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммад Ризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол: Бахтлар боғи. Энг қадимги даврдан 1825 йилгача бўлган Хоразм тарихи. – Т.: “O‘qituvchi” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010.

8. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

9. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

10. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

11. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

12. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

13. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА

АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

14. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

15. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

16. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

17. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

18. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

19. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

20. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

21. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

22. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

23. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

24. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

25. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

26. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

27. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

28. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

29. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

30. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

31. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

32. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

33. Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

34. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

HISTORY OF THE KOKAND KHANATE IN THE WORK “TARIHI ALIKULI AMIRLASHKAR”

Khakimova Saida Bakhtiyorovna
lecturer at Fergana state university, PhD
xakimovasaida28@gmail.com

Annotation: *This article discusses the memoir data on the history of Kokand khanate described in “Tarikhi Alikuli Amirlashkar”. Also, conclusions about value of memoir sources in studying of history of the khanate are given.*

Key words and phrases: *memoir source, Taib, Alikuli, Kokand khanate, amirlashkar, khan, mingbashi.*

Аннотация: *Мазкур мақолада “Тарихи Алиқули Амирлашкар” асарида келтирилган Қўқон хонлиги тарихини ёритувчи мемуар характерга эга маълумотлар таҳлил қилинган, хонлик тарихини ўрганишда мемуар манбаларнинг аҳамияти ҳақида хулосалар берилган.*

Калит сўз ва иборалар: *мемуар манба, Тоиб, Алиқули, Қўқон хонлиги, амирлашкар, хон, мингбоши.*

Аннотация: *В данной статье проанализированы сведения мемуарного характера, приведенные в произведении «Тарихи Аликули амирлашкар» и относящиеся к истории Кокандского ханства, даны заключения о важности мемуарных источников в изучении истории ханства.*

Ключевые слова и фразы: *мемуарный источник, Таиб, Аликули, Кокандское ханство, амирлашкар, хан, мингбаши.*

One of the memoir sources covering the history of the Kokand Khanate in the second half of the 19th century is the work of Muhammad Yunus Muhammadamin (pseudonym Taib) “Tarihi Alikuli Amirlashkar”. Information about this author is known from his own works (in addition to‘the above, he also has the works “Tuhfai Taib” and “Hadiqat ul-anvor”). Muhammad Yunus recalls that when he wrote the work “Tuhfai Taib”, he was 73 years old and that in the

same year 50 years had passed since the capture of the Ak-mosque fortress by the Russians (1853) ***[4:215]***. This means that the work was written in 1903. Accordingly, Muhammad Yunus was born in 1830. The place of his birth is the town of Kunzhak in the Sebzar district of the city of Tashkent. He received his primary education in his native city, then studied at a madrasah in Kokand. In 1860, he entered the service of amirlashkar (commander-in-chief) Alikuli as a mirza (clerk), then mirzabashi (chief of clerks) and rose to‘the ranks of dadho and shigavul ***[1:253]***. He entered into‘the confidence of Amirlashkar Alikuli and, as his personal adviser, actively participated in the internal and external affairs of the Kokand Khanate. At the initiative of Muhammad Yunus, in the early 1860s, ambassadors were sent to China, Afghanistan, Turkey, England and Russia ***[6:36]***. After the occupation of Tashkent by the Russians, at the end of 1865, Muhammad Yunus became the ruler of the city of Yarkand, which was part of Ettishaar, founded in Turkestan by Yakubbek Badavlat. In 1877, after the death of Yakubbek, Taib returned to Kokand and began to engage in creative work ***[6:36]***. He died at the beginning of the twentieth century.

The work “Tarihi Alikuli Amirlashkar” was written at the request of Alikuli’s son Shermukhammad. It mainly covers the political events associated with the reign of the Kokand khans Mallyakhan and Sultan Sayyidkhan, and of course, the participation of Amirlashkar Alikuli in them. The fact that the author himself directly participated in these events increases the reliability of his information. Although the first and last pages of the work have not been preserved, the remaining part allows to get detailed information about the events that took place in the khanate in 1852-1865.

The work provides information about how in 1852 Shadmankhoja Mingbashi, Muhammadniyaz Ponsadboshi, Fozylbek Ponsadboshi, Kasim Ponsadboshi and their supporters, together with Yakubbek Badavlat, who founded the state in Kashgar, organized a conspiracy against the Kipchak elite, who had seized de facto power in the khanate. It is narrated, that the conspirators went

towards Kokand and it was at the direction of Yakubbek that the massacre of the Kipchaks began, after that the leader of the Kipchaks, the chief minister and father-in-law of the Khan Musulmankul was defeated by the conspirators, his tribesmen turned away from him and, having caught him, handed him over to Khudayarkhan, who executed his former minister ***[4:221]***. After Khudayarkhan was freed from the guardianship of his father-in-law, he tries to get rid of his brother Mallyakhan, a possible contender for the throne, by sending him to rule in Tashkent. However, after a short time, Mallyakhan began to make claims to‘the throne. It is noteworthy that Muhammad Yunus justifies Mallyakhan’s claims with the following reasons: “Khudayarkhan was constantly busy with dog, ram and cock fights, did not care about the welfare of the people. Therefore, Mallyakhan decided to put state affairs in order ***[4:215-216]***. In our opinion, Mallyakhan was simply waiting for an opportunity to seize power. Amirlashkar Alikuli at that time was in the service of Mallyakhan.

Muhammad Yunus describes Mallahan as an “angry and evil” ruler. As a confirmation of his words, the author cites as an example that he ordered the arrest of an amirlashkar because of the incident with a cup of koumiss, and only after 3-4 months reinstated him in his position; that he often removed the rulers of the regions under insignificant pretexts. As a result, this leads to‘the fact that the beks and officials arrange a conspiracy and kill Mallyakhan, who is objectionable to‘them. Some Russian authors, who were aware of the political life of the khanate (V.V.Velyaminov-Zernov, A.P.Khoroshkhin, D.N.Dolgorukov) evaluated this murder as the result of a long-standing confrontation between the Kipchaks and settled Uzbeks (as they wrote – Sarts), since Mallyakhan, who was brought to power by the Kipchaks, began to support the Uzbeks more, the Kipchaks regarded this as treason and killed the traitor khan. It seems, that this point of view is close to‘the truth.

After the murder of Mallyakhan, his nephew Shahmurad ascended the throne. Shadmankhoja took the post of mingbashi, and Muhammad Yunus entered

his service. Therefore, he was very well aware of the internal politics of the khanate. He describes the struggle of Amirlashkar Alikuli and Mingbashi against Khudayarkhan. Moreover, being on the side of the first, he calls the inhabitants of Kokand, who let Khudayarkhan into‘the city and helped him ***[4:211]***.

Here the subjectivity inherent in the authors of memoir sources is manifested. That is, in this case, we can observe the principle “who is not with us is against us”. At the same time, if we consider the situation from the point of view of the inhabitants of Kokand, they wanted the reign of peace and for them it was preferable to have a legitimate, in their opinion, ruler – Khudayarkhan, rather than Shokhmurad, proclaimed khan by masterful beks.

The work “Tarihi Alikuli Amirlashkar” contains noteworthy facts related to‘the history of diplomatic relations between Kokand and Russia during the 19th century. In particular, it is said that during the reign of Umarkhan Shadmankhodzha, the Mingbashi, together with their uncle Tursunkhodzha sudur, visited St. Petersburg and agreed with Russia that the Chu River would serve as a border through which neither Russian nor Kokand troops would cross. Also, it is written that these relations were continued during the reign of Mukhammad Alikhan and Miyon Khalil Sohibzoda completed an embassy mission to Russia. On the other hand, it is also reported here that the ambassador Khoji Kurban, sent to Russia at the end of the reign of Mukhammad Alikhan, did not cope with his task and came into conflict with the Russian authorities on the border, as a result of which a cooling began in relations between the two states ***[4:220]***.

During the invasion of Russian troops, Mukhammad Yunus suggests that Alikuli send an ambassador to Russia for reconciliation. When the amirlashkar asked him to name people worthy for this mission, Mukhammad Yunus nominated Aliakbar Khodja naqib, Abulkasymkhan eshon, Eshan kazy and Yuldashbai karvonboshi as candidates. To‘the amirlashkar’s question: “Why did you choose these people?” Mukhammad Yunus answered as follows: “When Miyan Khalil Sohibzoda arrived in St. Petersburg under Mukhammad Alikhan, it turned out that

he had many acquaintances of Nogais who were subordinate to Russia. Each of them, together with their rulers, went out to meet the ambassador, and this made it clear to‘the Russian authorities about his status. These four candidates also have many acquaintances and friends among the Russian authorities, and they themselves are very smart and cautious people. If it is destined and they go‘there, they will certainly be able, without violating the rules of conduct, to address the authorities with due respect ***[4:215]***. From these words, we can conclude that Muhammad Yunus was a far-sighted politician and diplomat. It is also indicated, that he sent ambassadors with Amirlashkar to Rum (Turkey), Kabul and Kandahar, Jamud and Kashmir or that he corresponded with General Chernyaev in an attempt to prevent the conquest of Tashkent by the Russians. However, in response to‘the fact that Muhammad Yunus, during negotiations with Chernyaev, agreed to send a letter to‘the emperor, amirlashkar Alikuli said this: “if we do‘this, people will say that amirlashkar and shigavul, in order to maintain their peace, having betrayed the people, went to peace with Russians and send curses on us. If there is a war, I may die, but the people will not suffer” ***[4:221]***. Of course, “a bad peace is better than a good war”, but in this case it would not save the situation. Russia firmly wanted to conquer the khanates and would not back down from its goal. Therefore, this brave act of the amirlashkar, although it did not save the khanate from being conquered by the Russian Empire, nevertheless served to ensure that he remained in history as a brave commander who died for the freedom of the Motherland. According to Z. Alimov, Amirlashkar Alikuli became famous in the Uzbek military affairs of the 19th century as a major military leader and reformer of the military sphere ***[3:138]***.

The work describes the activities of amirlashkar until his death. The work of D.N. Dolgorukov “Five weeks in Kokan” tells about the circumstances of the death of Alikuli based on the information of the fugitive Russian Cossack Yevfgraf. According to him, Alikuli was wounded in the defense of Tashkent, and died a few days later, and his soldiers, having robbed him, left him alone to die ***[2:298]***. But there is nothing of the kind in Taib's work. On the contrary, it is said that

Amirlashkar called officials and soldiers to war and defense until his death ***[5:222]***. On the one hand, Muhammad Yunus was not in the city at that time, and he might not have known all the circumstances of the death of the amirlashkar. On the other hand, the information provided by Dolgorukov is also doubtful, since a person who enjoys such great respect among the people as Alikuli could not die in such an ungrateful environment. Apparently, the Cossack Yevfgraf, who gave such testimony, deliberately "revived" them with such details.

Although the work of Muhammad Yunus Toib "Tarihi Alikuli Amirlashkar" covers the events of a relatively short period of time, it is considered a very valuable memoir source that provides information about the most turbulent period in the history of the Kokand Khanate – the 50-60s of the XIX century, described by a direct participant and eyewitness of these events . The information of the source allows us to better understand the historical and political processes of that period, to learn many details about the first stage of the conquest of the Russian Empire, to study the relationship between the political forces of the Khanate.

Использованные источники и литература

1. Воҳидов Ш.Ҳ. Қўқон хонлигида тарихнавислик: (генезиси, функциялари, намояндалари, асарлари). – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 320 б.

2. Долгоруков Д. Пять недель в Кокане // Русский вестник. Т. 91. – Москва, 1871. – С. 244-318.

3. Илҳомов З. Аликули Амирлашкар ва унинг Қўқон хонлиги сиёсий тарихида тутган ўрни. Тарих фанлари номзоди… дисс. – Тошкент, 2004. – 160 б.

4. Муҳаммад Юнус Тоиб. Тарихи Аликули Амирлашкар // Шарқ юлдузи. 1996. – № 1. – Б. 215-223.

5. Муҳаммад Юнус Тоиб. Тарихи Аликули Амирлашкар // Шарқ юлдузи. 1996. – № 2. – Б. 208-223.

6. Чориева Д. Тоиб Тошкандийнинг илмий мероси // Moziydan sado. – 2009. – №2. – Б. 36-39.

7. Khakimova S.B. History of hydrographical researches on the Amu Darya in the XIXth century. – Theoretical & Applied Science, 2020. Vol. 5. – P. 927-934. – elibrary.ru

8. KS Bakhtiyorovna. The Amudarya expedition of 1874: goals, course and results // E-Conference Globe, 2021/3/6. – P. 348-350.

9. Хакимова С.Б. Вклад Великого князя Николая Константиновича Романова в исследование Амударьи // Актуальные вопросы развития науки, техники и технологии. – Чистополь, 2020. – С. 82-86.

10. KS Bakhtiyorovna. Memoirs as a source of historical research // Eurasian Journal of History, Geography and Economics, 2023/4/26. – P. 60-63.

11. Nizomiddinov, O. (2021). The Importance Of The Documents Of The Regional State Archive In The Research Of The History Of The Autonomy Of Turkestan. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *3*(11), 53-57.

12. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

13. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

14. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

15. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН

ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

16. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

17. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

18. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

19. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

20. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

21. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

22. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

23. Abdunosirova O.B. ON THE SPONSORSHIP ACTIVITIES OF THE TEMURIAN PRINCE. Asian Journal of Multidimensional Research 1(11), 2022.

24. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

25. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

26. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

27. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

28. Valievich, Y. S. (2020). Children's Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

29. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

30. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

31. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

32. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

FARG‘ONA VILOYATI SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI: O‘TMISHI VA BUGUNI

N.Ashurova

FarDU, O‘zbekiston tarixi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Aholi salomatligiga g‘amxo‘rlik qilish, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismidir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada podsho Rossiyasi davridan to*

hozirgi kungacha bo‘lgan sog‘liqni saqlash hamda tibbiyot sohasida amalga oshirilgan islohotlar to‘g‘risidagi ayrim fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘z va iboralar:*Farg‘ona viloyati, sog‘liqni saqlash sohasi, tibbiyot muassasalari, statsionar shifoxona, tibbiy xizmatlar, arzon dori-darmon vositalari, xorijiy investorlar, raqamli texnologiya.*

Аннотация: *Забота о здоровье населения, развитие системы здравоохранения является составной частью проводимой в Узбекистане мощной социальной политики. На основе этой точки зрения в данной статье представлены некоторые мнения о реформах, проведенных в области здравоохранения и медицины со времен царской России до наших дней.*

Ключевые слова и фразы: *Ферганская область, сфера здравоохранения, медицинские учреждения, стационар, медицинские услуги, дешевые лекарства, иностранные инвесторы, цифровые технологии.*

Annotation: *Taking care of the population's health, development of the health care system is a component of the strong social policy implemented in Uzbekistan. Based on this point of view, this article presents some opinions about the reforms implemented in the field of healthcare and medicine from the time of Tsarist Russia to‘the present day.*

Key words and phrases: *Fergana region, health sector, medical institutions, inpatient hospital, medical services, cheap medicines, foreign investors, digital technology.*

XX asrning oxiri XXI asrning boshiga kelib, jahon tibbiyoti o‘z rivojlanishida yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu yuksalish jahon miqyosida ro‘y bergan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘liq edi. Bu o‘zgarishlar birinchi galda hozirgi zamon ilmiy-texnikaviy revolutsiyaning natijasi sifatida yuzaga chiqdi. XX asrning texnika taraqqiyoti shu daraja yuksaldiki, hatto inson oyog‘i oyga yetdi. Yuksalish inson hayotining hamma sohalariga, shu jumladan, tibbiyot sohasiga ham yoyildi.

Inson kapitali tarkibiga inson salomatligining holati kiritiladi. Salomatlik – umuman organizmning hamda uning barcha organlarining o‘z funksiyalarini bajarishga to‘la qodir bo‘lgan holati, kasallikning mavjud emasligidir. Inson salomatligini muhofaza qilish (sog‘liqni saqlash) – davlat funksiyalaridan biridir ***[4:281]***.

Sog‘liqni saqlash – aholi sog‘ligini muhofaza qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi. Sog‘liqni saqlash kasalliklarning oldini olish va davolash, sog‘lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr ko‘rishni ta’minlashga qaratilgan umumiy tadbirlarni

ko‘zda tutadi; uning asosiy vazifasi bemorlarga zamonaviy, ixtisoslashgan hamda mos tarzda yordam ko‘rsatishdan iborat. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltirish lozim: «Aholi salomatligini muhofaza qilishni yanada yaxshilash, xalqimizni tibbiyot tizimi faoliyatidan rozi qilish – barchamizning eng muhim vazifamizdir» ***[1]***.

O‘zbeksiton Respublikasining 29.08.1996-yildagi “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-martdagi «Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4985-sonli Farmoni, 2017-yil 1-apreldagi «Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2863-sonli, 2017-yil 5 maydagi «O‘zbekiston Respublikasida tibbiy ta’lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2956-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 12-sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 714-sonli qarorlari hamda 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi (O‘zR Prezidentining 07.12.2018 y. PF-5590-son Farmoni), mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ushbu masalaga alohida e’tibor qaratilgan.

XIX asrning so‘nggi choragiga kelib o‘lkaning boshqa hududlari qatori Farg‘ona vodiysi ham rus qo‘shinlari tomonidan zabt etildi. Buning natijasida hududning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o‘zgarishlar yuz berdi. Mazkur davrda aholiga tibbiy yordam asosan tabiblar tomonidan ko‘rsatilgan. Farg‘ona viloyatida aholi zichligi va jazirama saratonning issiqligi albatta hudud aholisining sog‘ligiga va sanitar holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatar edi. Mahalliy aholi orasida vabo, o‘lat, sil, zahm, moxov, rishta, bezgak kasalliklariga chalinish natijasida bevaqt o‘lim hollari ko‘p uchrardi. Tabiiy va yashash sharoitining og‘irligi, bu yerda chor xukumati hukmronligining o‘rnatilishi tufayli vaziyat yanada og‘irlashdi. Tarixan an’anaviy mahalliy tabobatdan davo‘topib kelgan aholi hayotiga rus tibbiyot muassasalari kirib kela boshladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston o‘lkasida tashkil qilingan tibbiyot muassasalari sekin-asta o‘lkadagi yirik shaharlarda ham vujudga kela boshladi. Xususan, Turkiston general-gubernatori M.G.Chernyayev bir guruh tashabbuskor tibbiyot xodimlari takliflariga binoan 1882-yilning oktabr oyida o‘tkazilgan yig‘ilishdan so‘ng Turkiston o‘lkasida dastlabki ambulatoriyalar, xotin-qizlar va bolalar shifoxonasi tashkil etilishi uchun buyruq berdi. 1883-yilda N.N.Gundkus, A.V.Poslavskaya va Y.N.Mandelshtam tashabbusi bilan Toshkentda dastlabki davolash ambulatoriyasiga asos solindi. Bu keyinchalik o‘lkaning boshqa shaharlarida ham shunday davolash muassasalarining ochilishiga turtki bo‘ldi ***[6:268]***.

O‘sha davr hayotini aks ettiruvchi Turkiston davriy matbuotida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida davolash muassasalari 1886-yildan boshlab paydo bula boshlagan. Shu yillar davomida vodiyning Andijon, Marg‘ilon, Namangan kabi shaharlarida dastlabki rus davolash muassasalari vujudga keldi ***[12:126]***. Albatta, bu davrda Farg‘ona viloyatidagi ko‘pgina hududlarning sanitariya holati qoniqarsiz darajada bo‘lgan, suv ta’minoti asosan ariq suvlari orqali ta’minlangan, aholining sanitariya holatini ham yaxshi deb bo‘lmasdi. Buning natijasida aholi orasida teri-tanosil kasalliklari, tif, vabo, chin chechak epidemiyalari yuzaga kelgan. Shuni ta’kidlash lozimki, dastlabki ambulatoriyadagi shifokor va xizmatchilar ichida ayollar nidoyatda kam bulsa-da, xotin-qizlar bu yerga yordam so‘rab kelganlar.

Viloyatda aholi uchun shifoxonalarda yotib davolanuvchi maxsus statsionar shifoxona bo‘lmagan. Bu davrga kelib harbiy gospitalda oddiy fuqarolar ham, shu jumladan, mahalliy aholi vakillari ham bir oyga 15 rubl to‘lagan holda davolanishi mumkin edi. Bunga esa iqtisodiy ahvoli og‘ir bo‘lgan ko‘pchilik aholining qurbi yetmagan.

XX asr boshida Turkiston o‘lkasida xususiy shifoxonalar ham faoliyat yurita boshlagan va ularda turli kasalliklarga chalingan bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatilgan. “Sadoi Farg‘ona ” gazetasining 1914-yildagi ma’lumotlariga ko‘ra,

Qo‘qon shahrida Ch.Y.Norvillo va N.S.Kachxoyev tomonidan birinchi xususiy shifoxona o‘z faoliyatini boshlagan. Unda yuqumli kasalliklardan boshqa barcha kasalliklar davolangan, hatgo doyalik ham qilingan. Ammo bu ilk davolash maskani joylashgan binoning ichi juda sershovqin, ayniqsa, statsionar bemorlar o‘tin saklanadigan polsiz xonalarda yotib davolangan. Shifoxonaga erkaklar, ayollar va bolalar murojaat qilishi mumkinligi ta’kidlanib, muolajalar narxi va qabul soatlari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan ***[6:269]***.

Mahalliy aholi vakillariga tibbiy xizmat ko‘rsatishdagi yana bir muammolardan biri tibbiy xodimlarning yetishmasligi edi. Ushbu davrga oid bo‘lgan qiyosiy ma’lumotlardagi raqamlardan yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Turkistonning Samarqand, Sirdaryo, Farg‘ona viloyatlarida hammasi bo‘lib 25 nafar shifokor hamda 60 nafar feldsher aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatgan. Bu ko‘rsatkich Farg‘ona viloyati umumiy aholisi soniga hisoblaganda 100 ming kishiga 1 nafar shifokor to‘g‘ri kelganligini ko‘rsatadi ***[12:138]***. 1899-yilga kelib Farg‘ona viloyatida aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatuvchilar soni 14 nafar shifokor, 36 nafar feldsherga ko‘paydi. Tibbiy davolash muassasalarining soni 11 taga yetib, viloyatda 3 ta dorixona tashkil etildi.

O‘zbekiston hududida sovet hokimiyati o‘rnatilgach, Rossiyada amalda mavjud bo‘lgan sog‘liqni saqlash muassasalari singari tizimga asos solindi. Avval Turkiston ASSR, BXSR, XXSR, so‘ngra O‘zbekiston SSRda tibbiyot sohasida muayyan siljishlar ko‘zga tashlandi.

Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil sentabrda tibbiy muassasalarni Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi ixtiyoriga o‘tkazish to‘g‘risidagi buyrug‘i e’lon qilinib, 26 sovet hukumati tomonidan turli epidemiyalarga qarshi kurash va sanitariya ishini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Turkistonning Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona viloyatlarida ham sog‘liqni saqlash bo‘limlari tashkil etildi. O‘zbekiston hududida ilk marta markazlashgan sog‘liqni saqlash tizimini shakllantirishga kirishildi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida boshqa sohalar qatori sog‘liqni saqlash sohasidagi xususiy muassasalarni davlat ixtiyoriga ўтказиш ишлари олиб борилди. 1919-йил 28-февралда ҳукуматнинг дорихона муассасаларини davlat ixtiyoriga o‘tkazish to‘g‘risidagi dekreti qabul qilinib, Turkistonning barcha shaharlaridagi dorixonalar davlat tasarrufiga olindi. Bu davrda Turkistonning Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari shaharlarida 53 ta davolash maskani, 45 ta uchastka shifoxonasi, 81 ta feldsherlik punkti mavjud edi ***[11]***.

Ikkinchi jahon urushi yillarida sog‘liqni saqlash tizimida jiddiy o‘zgarishlar qilinib, soha faoliyati harbiy izga solindi. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tarmog‘i og‘ir sinovlardan o‘tdi va ko‘plab malakali, iqtidorli tibbiyot xodimlari urushga safarbar etildi. Urush yillarida O‘zbekistonda davolash muassasalari, o‘rinlar va tibbiyot xodimlari evakuatsiya qilinganlar hisobiga ortib bordi. 1941-yili O‘zbekistonda 368 ta kasalxona va 19498 ta davolash o‘rinlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1945-yilga kelib shifoxonalar 481 ta, davolash o‘rinlari 24848 taga ortdi ***[8:68]***.

O‘zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish masalasida ham yutuqlar bilan birga kamchiliklar ko‘payib bordi. Urushdan keyingi yillarda onalar va bolalar uchun ajratilgan davolash o‘rinlari, maslahatxonalar, tibbiy kadrlar soni bir qadar ko‘paytirildi. 1946-yili O‘zbekistonda bolalar uchun 3193 ta davolash o‘rinlari bo‘lgan bo‘lsa, 1955-yili ularning soni 5492 ta bo‘ldi ***[7:13]***. Davolash o‘rinlarining katta qismi Toshkent shahri hisobiga to‘g‘ri keldi ***[3:130].***

O‘zbekistonda sovet hokimiyati yillarida sog‘liqni saqlash sohasi moddiy-texnika bazasining ahvoli umumiy holatda qoniqarli bo‘lgan. Bu davrda respublikada nafaqat oddiy davolash muassasalari, balki tibbiyotning birorta yo‘nalishiga ixtisoslashgan zamonaviy shifoxona va poliklinikalar bunyod etildi hamda ular yangi tibbiyot asbob-uskunalari bilan jihozlandi. Biroq shu bilan birga bu sohada yetarli muammolar mavjud edi. O‘zbekiston ich terlama, bezgak, virusli gepatit kabi yuqumli kasalliklarning tarqalishi hamda onalar va bolalarning

kasallikka chalinishi, ularning o‘lim ko‘rsatkichlari bo‘yicha ittifoqdosh respublikalar orasida eng yuqori o‘rinda bo‘lgan ***[5:22]***.

Sobiq Ittifoq davrida kichik shaharlarda 500 (600) o‘rinli ikkita (ba’zi joylarda to‘rtagacha) shifoxonalar mavjud bo‘lib, aholi davolanish uchun tuman markaziga kelgan va u butun tuman aholisiga xizmat qilgan. Mustaqillik yillarida ahvol butunlay o‘zgardi. Joylardagi shifoxonalar ixchamlashtirilib, tejalgan mablag‘ni birlamchi bo‘g‘inga – ambulator poliklinika xizmatiga ajratish ko‘zda tutildi. Tibbiyotning vazifasi bemorni davolash emas, balki kasalliklarning oldini olishga qaratildi. Bemorlar dastlab hududidagi qishloq vrachlik punktlariga, agar lozim bo‘lsa tuman markaziy shifoxonalariga murojaat qilishi ko‘zda tutildi. Bu esa aholiga qulayliklar yaratdi. Birinchidan, ularning uzog‘ini yaqin qilib, vaqt tejalgan bo‘lsa, ikkinchidan, ortiqcha sarf-harajatlarning oldi olindi. Bu borada joylarda tizimning moddiy va meyoriy-huquqiy bazasi takomillashtirilib, mahalliy xokimiyatlar ko‘magida barcha viloyatlarda zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan qishloq vrachlik punkti (QVP) va shahar vrachlik punktlari (SHVP) tashkil etildi. Mazkur ishlar Jahon banki hamkorligida “Salomatlik 1”, “Salomatlik 2” loyihalari asosida amalga oshirildi ***[10:355]***.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni yanada rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi 2007-yil 19-sentabr farmoni hamda “Respublika tibbiyot muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2007-yil oktabr qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hududiy sog‘liqni saqlash muassasalarining tashkiliy tuzilmasi va faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2008-yil 18-mart qarori asosida davolash profilaktika tarmog‘ini tashkil qilish maqsadida joylarda tuman tibbiyot birlashmalari tashkil etildi. Qishloq uchastka shifoxonalari tuman tibbiyot birlashmalarining bo‘limlariga aylantirildi. Aholiga namunali tibbiy xizmat ko‘rsatishda tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli bo‘linmalar va qishloq vrachlik punktlari moddiy-

texnik bazasi Osiyo‘taraqqiyot banki, Quvayt dasturi va “Salomatlik 1”, “Salomatlik 2”, “Salomatlik 3” loyihalari bo‘yicha jahon standartlariga mos ravishda ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 28-noyabrdagi “Sog‘likni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-1652-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida 2012-yilda Farg‘ona viloyati Beshariq tuman tibbiyot birlashmasida 1 mlrd 150 million so‘m mablag‘ evaziga barcha qulayliklarga ega bo‘lgan 2 ta QVP qurilib ishga tushirildi. 2013-yilda barcha tarmoqlarini bir joyga to‘plagan holda, respublikada yagona bo‘lgan tuman tibbiyot birlashmasini tashkil etish maqsadida 6,3 gektar yer ajratildi. Birlashmada shifoxona o‘rinlaridan oqilona foydalanish maqsadida maqbullashtirish ishlari amalga oshirilib, yangi shifoxonalar qurilishi boshlandi. 2012–2016-yillarda olib borilgan qurilish-rekonstruksiya ishlari bo‘yicha 3,7 mlrd so‘m mablag‘ ajratilib shifoxonaning 60 o‘rin-joyi bitkazildi, unda 30 o‘rin-joyli shoshilinch tibbiy yordam, 30 o‘rin-joyli xirurgiya, reanimatsiya, qabulxona bo‘limlari va opretsion blogi ishga tushirildi. 2014-yilda esa 4,3 mlrd so‘m mablag‘ ajratilib, 100 o‘rin-joyli terapiya, oshxona, kozonxona, muxandislik inshoatlari, 2015-yilda 5,3 mlrd so‘m mablag‘ ajratilib, 100 o‘rinli tug‘ruqxona majmuasi, sterillash bo‘limi, 2016-yilda 4,5 mlrd so‘m mablag‘ ajratilib, markaziy poliklinikani rekonstruksiyasi uchun 2,3 mlrd, markaziy shifoxonaning bolalar bo‘limi (70 o‘rin-joyli) qon quyish va insenirator binolari qurilib, mustaqillikning 25 yilligiga foydalanishga topshirildi. Ayni paytda ham qurilish ishlari davom etib, 2017-yilda 23-dekabr 2016-yildagi PK-2697-qaroriga asosan qurilish ishlari uchun 5,7 mlrd ajratilgan bo‘lib, unga binoan 45 o‘rinli yuqumli kasalliklar bo‘limi, ichki dorixona va laboratoriya bo‘limlari qurilishi rejalashtirilgan ***[9:345-346].***

Mustaqillik yillarida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barchasi inson manfaatiga qaratilgandir. Mamlakat aholisini farovon hayot kechirishi, o‘z hayotidan ko‘ngli to‘lib yashashi, uning sog‘lom bo‘lishiga katta bog‘liqdir. Aholi salomatligini ta’minlanishi esa tibbiy tizimning sifatiga

bog‘liqdir. Bu borada respublikada qator davlat dasturlari qabul qilinib, joylarda ularning infratuzilmasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2017-yilning o‘zida sog‘liqni saqlash masalasiga bag‘ishlab uch marta videoselektor yig‘ilishi o‘tkazdi. Tizim faoliyatini tubdan takomillashtirish, odamlarda haqli e’tiroz uyg‘otayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berildi, shu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan dasturlar ijrosi atroflicha ko‘rib chiqildi. Davlatimiz rahbari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarga tashriflari chog‘ida shifoxonalar, poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlaridagi sharoitlar bilan bevosita tanishdi, zamonaviy klinikalar qurish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

Sohani yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar ko‘lami va sifatini oshirishga qaratilgan bir qancha farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, 2017–2018-yillarda Prezidentning sohaga oid 50 ta farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining 70 dan ziyod qaror va farmoyishlari qabul qilindi. 6 ta yangi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tashkil etilib, ular soni 16 taga yetdi. Aholiga yanada qulaylik yaratish maqsadida hududlarda ularning 10 ta filiali ish boshladi. Tuman va shahar shifoxonalarida 306 ta yangi ixtisoslashgan bo‘lim, 1 ming 200 ta tez tibbiy yordam shoxobchasi ochildi. Umuman olganda, 2018-yilda tibbiyot sohasiga davlat budjetidan 2017-yilga nisbatan 40 foiz ko‘p mablag‘ ajratildi ***[15]***. Davlat budjetining 2019-yilda sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga sarflanadigan xarajatlari 12,9 trln.so‘mni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 48,4 foizga oshgan. Bu esa tasdiqlangan rejaga nisbatan 1,8 trln.so‘m ko‘p mablag‘ ajratilishi rejalashtirilgan ***[13]***.

2020-yilda Davlat budjeti hisobidan sog‘liqni saqlash sohasiga 14 842,6 mlrd so‘m mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan bo‘lib, birinchi navbatda bu mablag‘lar shoshilinch tibbiy yordam, rejali tibbiy yordam (shu bilan birga, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami), ixtisoslashgan tibbiy yordam (shu bilan birga, yuqori texnologik tibbiy yordam), palliativ tibbiy yordamga yo‘naltirildi ***[14]***.

*Ah*olini sifatli va arzon dori-darmon vositalari bilan ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, shoshilinch tibbiy yordamni takomillashtirish, birlamchi tibbiyot tizimini yanada yaxshilash, xususiy sektor va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni yanada rivojlantirish borasida hali qiladigan ishlarimiz ko‘p, dedi Shavkat Mirziyoyev ***[16]***.

Respublikaning chekka bir hududida zamonaviy ko‘rinishdagi, jahon standartlariga to‘la javob bera oladigan, barcha qulayliklarga ega tibbiyot kompleksining tashkil etilishi, birinchidan aholini barcha kasalliklar bo‘yicha bir joyda ma’lumot olishga erishilgan bo‘lsa, ikkinchidan zamonaviy asbob-uskunalar orqali tibbiy xizmatning sifatini yanada oshishiga olib keldi.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorovning Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha 2021-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2022-yil uchun belgilangan eng ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan murojaatnomasida sog‘liqni saqlash tizimini yaxshilash, aholi salomatligi, surunkali kasalliklarni davolash va profilaktika qilish, sifatli va malakali tibbiy xizmatlarni mahallagacha yetkazish maqsadida:

- Investitsiya dasturi doirasida 15 ta tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilinadi va mukammal ta’mirlandi;

- viloyatdagi 10 ta oilaviy shifokorlik punktlari va 6 ta oilaviy poliklinikalar faoliyati tashkil etiladi, tibbiyot muassasalarini ta’mirlash, zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta’minlash choralari ko‘rildi;

- birlamchi tibbiy xizmatda dori vositalari va tibbiy buyumlar xarid qilish uchun ajratiladigan mablag‘lar 3 barobarga oshiriladi, buning uchun, budjetdan har yili kamida 50 mlrd. so‘mdan ziyod mablag‘ ajratildi;

- ixtisoslashgan tibbiy xizmatlarni kengaytirish va sifatini yaxshilash maqsadida Bag‘dod, Yozyovon tumanlari va Qo‘qon shahrida tumanlararo shikastlanishlar va o‘tkir qon-tomir kasalliklari markazlari, har bir shahar va tuman poliklinikalarida bolalar bo‘limlari faoliyati qayta tiklanadi, shifoxonalarda esa bolalar reanimatsiyasi tashkil etildi;

- viloyatning 40 yoshdan oshgan 1 mln. ga yaqin aholisi o‘rtasida yurak-qon tomir va diabet kasalliklari bo‘yicha manzilli skrining tekshiruvlari o‘tkazildi;

- aholi, ayniqsa ayollar orasida uchraydigan eng ko‘p kasalliklarni (buyrak, endokrin tizimi, onkologiya) kamaytirish maqsadida viloyat Perinatal markazini rekonstruksiya qilish, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha “Klaster” tizimini joriy etish, tibbiyot birlashmalari bolalar bo‘limlari va tug‘ruqxonalarda reanimatsiya bo‘limlarini tashkil etish choralari ko‘rilishi ta’kidlab o‘tilgan.

Shuningdek, 2022-yilda viloyatda Hindistonning “Apollo Hospital” klinikasining filiali tashkil etildi. Ushbu muassasaning asosiy faoliyati tibbiyotning transplantologiya, ortopediya, kardioxirurgiya, oshqozon-ichak a’zolari kasalliklari, ko‘z kasalliklari hamda neyroxirurgiya yo‘nalishida davolash ishlarini amalga oshirish hisoblanadi.

Bundan tashqari, viloyat sog‘liqni saqlash tizimiga xorijiy investorlarni jalb etish hamda davolash ishlarini samarali tashkil etish maqsadida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2021-yilda Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) hamkorligida viloyatda davlat xususiy-sherikchilik asosida hozirgi zamon talablariga mos ravishda viloyat Ko‘p tarmoqli tibbiyot markazini tashkil etish (qurish, jihozlash va xorijiy zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minash) bo‘yicha kelishuv memorandumi imzolandi ***[2]***. Hozirgi kunda davlat tibbiyot muassasalariga ajratilayotgan budjet mablag‘larining maqsadli va to‘g‘ri sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

Bizning fikrimizcha, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish uchun ham, tizimga budjetdan ajratilgan mablag‘larning sarflanishini nazorat qilish uchun ham raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart. Chunki, bugun dunyodagi barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Jumladan, tibbiyot sohasiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni jalb qilish orqali tibbiy xizmatlarning sifati oshadi, ortiqcha xarajatlar kamayadi.

Natijada, mamlakat iqtisodiyotiga bu ijobiy ta’sir qiladi. Asosiysi sog‘liqni saqlash tizimida korrupsiya yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Umuman olganda, bugungi kunda tibbiyot sohasidagi islohotlar mamlakatimizning barcha hududlarida birdek olib borilmoqda. Poytaxtda boshlangan islohotlar respublikaning eng chekka hududlarida ham birday amalga oshirilmoqda. Ularning moddiy-texnik bazasini zamonaviy, jahon andozalariga javob beradigan tibbiy jihozlar bilan ta’minlanishi, viloyatning eng chekka tumanida respublikada yagona bo‘lgan majmuaning bunyod etilishi mamlakatimizda tibbiy xizmatning sifat darajasining yuksalib borilayotganligidan, bu esa aholi salomatligini yaxshilanib borishidan dalolatdir.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг тиббиёт соҳасидаги долзарб масалалар муҳокамасига бағишланган йиғилишдаги нутқи // Халқ сўзи. 2017 йил 13 декабрь.

2. Вилоят ҳок ими Хайрулло Бозоровнинг Фарғона вилоятини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича 2021-йилда амалга оширилган ишлар ва 2022-йил учун белгиланган энг устувор йўналишларга бағишланган мурожаатномаси. https://fergana.uz/site/view/news/11381821

3. Здравоохранение в Узбекской ССР (Ст. сб). Под ред. Л. Я. Дехто.– Ташкент, 1958.–С. 130.

4. Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдураҳмонов таҳрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2016. – 542 б.

5. Муминова Г.Э. Ўзбекистонда совет даврида соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917-1991 йй.). Фан доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018. – 67 б.

6. Нармонов Ф. XIX аср охири - XX аср бошларида Фарғона вилояти тиббиёти ва унинг ахволи. “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзусидаги 3-республика илмий анжумани материаллари. – Фарғона, 2014. – Б. 268-270.

7. Ниязов Д. М. Очерки истории развития охраны здоровья детей в Узбекистане.: Автореф. дис... канд. мед. наук. – Алма-Ата, 1964.

8. Советское здравоохранение.– 1975, – № 10.

9. Тўхтабева Д.Э. Мустақиллик йилларида кичик ва ўрта шаҳарларда тиббиёт соҳасидаги ўзгаришлар. Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Андижон, 2017. – Б. 345-347.

10. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12-жилд. – Тошкент: УзМЭ, 2000.

11. ЎзР МДА, Р-40-фонд, 1-рўйхат, 332-иш, 254-варақнинг орқаси.

12. Шодмонова С. Туркистон тарихи матбуот кузгусида. – Тошкент: Янги нашр, 2011.

13. “Бюджетнома 2020 йил”.//www.openbudget.uz.

14. “Фуқаролар учун бюджет 2020 лойиҳа”.//www.openbudget.uz.

15. https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/ Соғлиқни сақлаш тизимидаги ислоҳотларнинг янги устувор йўналишлари белгилаб берилди-9-11-2018.html

16. https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/ Тиббиёт соҳасидаги ислоҳотлар аҳолининг ҳаётдан розилиги, эл-юртимиз тараққиётига хизмат қилсин.html

17. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

18. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

19. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

20. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

21. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

22. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

23. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

24. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

25. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

26. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

27. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

28. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

29. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

30. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

31. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

32. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

33. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

34. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

35. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

36. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

37. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

38. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

39. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

40. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

41. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

42. Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

43. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

44. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

45. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – S. 886-891.

ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИ ТАРАҚҚИЁТНИНГ ҒОЯВИЙ АСОСИ

Аббосова Шохида Турдалиевна

FarDU,O‘zbekiston tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

Аннотация: *Мазкур мақолада жамият барқарорлигини таъминловчи омиллари, яъни маъсулиятлилик ва ўз бурчига содиқликнинг аҳамияти очиб берилган. “Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари” деган ғоянинг жамият тараққиётининг янги босқичида зарурати ўрганилган.Миллий ғоя жамият ва миллатнинг бирлаштирувчи куч*

эканлиги илмий-назарий жиҳатдан тадқиқ қилинган. Шунингдек, миллий ғоя янгиланаётган жамиятимизнинг ижтимоий-маънавий жиҳатдан юксалтирувчи омил сифатидаги концептуал қарашлар илгари сурилган.

Калит сўзлари ва иборалар: *Жамият барқарорлиги, миллий ғоя, "Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари" ғояси, миллий ва умуминсоний қадриятлар, бунёдкорлик, салоҳият.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются факторы, обеспечивающие стабильность общества, а именно важность подотчетности и верности своему долгу. Изучена необходимость идеи "От национального возрождения - к национальному прогрессу" на новом этапе развития общества. Тот факт, что Национальная идея является объединяющей силой общества и нации, был научно исследован. Также были выдвинуты согласованные взгляды на качество социально-духовного фактора подъема нашего общества, где обновляется Национальная идея.*

Ключевые слова и фразы: *стабильность общества, национальная идея, идея "От национального возрождения к национальному прогрессу", национальные и общечеловеческие ценности, творчество, потенциал.*

Annotation: *This article reveals the factors that ensure the stability of society, namely the importance of accountability and loyalty to its duty. The need for the idea of" from the national revival - towards the National upsurge " at a new stage of the development of society has bee n studied. The fact that the National idea is a unifying force of society and nation has been scientifically researched. Also, concerted views on the quality of the socio-spiritual uplifting factor of our society, where the National idea is being renewed, have been put forward.*

Key words and phrases: *stability of society, national idea, the idea of "From national revival to national progress", national and universal values, creativity, potential.*

Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичи мамлакат сиёсий раҳбарияти, миллий интеллегенция, фан намоёндалари, қолаверса, у ёки бу даражада ижтимоий-сиёсий жараёнлар оқимида иштирок этган фуқаролар учун маънавий-маърифий жабҳада ҳам анча мураккаб кечди. Жамиятнинг маънавий янгиланиши маънавий қадриятларни илм-фан ва тараққиёт ютуқлари билан бойитиб бориш, ўзликни чуқурроқ англаш, миллий ғояни халқимизнинг қалби ва онгига сингдириш, муқаддас динимиз ва тарихимизни сохталаштириш, улардан сиёсий мақсадларда фойдаланишларга йўл қўймаслик - бу борадаги асосий стратегик вазифадир. Бугун жонажон Ўзбекистонимиз "Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари" деган устувор ғоя асосида ўз тараққиётининг янги босқичига дадил қадам қўймоқда ***[1.]***.

Мустақиллик йилларида миллий истиқлол ғояси халқимизнинг миллий тикланишига хизмат қилиши,халқимиз манфаатларини бирлаштиради. 2017 йилдан бошлаб Ўзбекистон ўз тараққиётининг янги - Миллий юксалиш босқичига кирди. Конституциямиз тамойилларига асосланган, халқимизнинг туб манфаатларига жавоб берадиган Ўзбекистонни ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегияси амалда эришилган юксак марралар халқимизни бахтли қилишга қаратилган туб ислоҳотлар ўз самарасини намоён қилмоқда.

Маънавий юксалиш миллий тараққиётнинг асоси эканлигини ижтимоий-фалсафий жиҳатдан илмий тадқиқ этиш ўз навбатида миллий тараққиёт моделларининг ҳилма-ҳиллигини ҳам қамраб олади. Шу боис маънавий юксалиш жараёнлари мамлакатимизда либерал-демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти институтлари фаолиятини такомиллаштириш билан бевосита боғлиқдир.Ушбу вазифалар миллий ғоянинг ижтимоий-маънавий соҳада намоён бўлишининг асосий тамойилларини белгилайди.

Янги жамиятни барпо этиш жараёнида, энг аввало, ижтимоий воқеликнинг маънавий қадриятларини тўғри баҳолай олишни, сохта қадриятлардан ёки тарихан эскирган, ўзидаги бунёдкорлик ва ижобий салоҳиятини сарфлаб бўлган қадриятлардан ҳақиқий ҳаётбахш қадриятларни ажрата олишни ўрганиш лозим. Бирорбир қадриятга баҳо берилар экан, унинг мамлакат мустақил тараққиётининг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва ахлоқий асосларини қай даражада мустаҳкамлай олиши, халқимизнинг умумжаҳон ижтимоий тараққиётининг фаол субъектига айланишига хизмат қила олиши бош мезон бўлиши керак.

Миллий ғоянинг бутун жамият, миллат ва Ўзбекистонликлар учун хизмат қилади. Миллий қадриятимизга баҳо берганимизда, уларнинг миллий ғояга нечоғлик мос эканини назарда тутамиз. Лекин, биз баҳолаш жараёнида фақат алоҳида бир инсон, муайян ижтимоий гуруҳ, бирор бир этнос, манфаатни эмас, балки умуминсоний жамиятимиз, барча Ўзбекистонликлар

манфаатини назарда тутамиз. Шу боис, юқорида зикр этилган мезон ва тамойилдан фойдаланиб, миллий-маданий меросимиз, қадриятларимизни ҳамда бугун айрим ёт мафкуравий полигонлар томонидан тарғиб этилаётган баъзи ғояларни таҳлил этсак, уларда инсоннинг эркин ривожига, ўз орзу-интилишларига мос ҳолда яшашига мос келиши зарур.

Жамиятдаги чуқур ўзгаришлар, уларни бошқариш муаммоларига бориб тақалар экан, ўша шиддатли ва мавҳум пайтларга фикран қайтар экан, Биринчи Президентимиз “...90-йилларнинг бошида биз ўзимиз учун ҳаётий ишлар сифатида белгилаб олган “Ислоҳотлар- ислоҳот учун эмас, аввало инсон учун, унинг мақсадлари учун, “Янги уй қурмай туриб, эскисини бузманг” деган қоидалар учун ҳам фаолиятимизда дастурул амал бўлиб ***[2.]***, хизмат қилган эди.Барқарорлик, тараққиёт ва хавфсизликка таҳдидлар оша борган даврда, жамият қандайдир бир жипслаштирувчи, жараёнлар барқарорлигини таъминловчи ва биз киммиз, не сиру-синоатмиз ва келажакда дунёда ўрнимиз қандай бўлади деган қатор муаммоларнинг ечимини кўрсатадиган жамият ғояси, унинг сараланган хулосаларини жамловчи мамлакат мафкурасини ишлаб чиқиш ташаббуси билан майдонга чиққилган эди. Файласуф олим Р.Симонян таъкидлаганидек, “Ўрта мувофиқлаштирувчи даража бу сингари қарама-қарши, бир-бирига рўбарў келаётган манфаатларни мувофиқлаштириб, тизимда барчани бирлаштириш ҳолатига, яъни ижтимоий консенсусга асосяратилди” ***[3.]***. Бизнингча, бу вазифани Ўзбекистонда миллий ғоя бажарди. Жамиятгамиллий ғоянинг зарурлиги ҳақида фикр юритганда, назаримизда, гап иқтисод, сиёсат, таълим, фан-техника билан бир қаторда, жамиятнинг маънавий таянчи, салоҳияти, жамиятимиз ўзаро муштараклиги, бири-бирини тақозо этиши билан ифодаланган.

Илмий тадқиқлар шуни кўрсатадики, миллий ғояга эътиборни кучайтириши, уни чуқур таҳлил қилиш ва жамият аъзоларига сингдиришнинг замонга мос услубларини яратиш йўлида сафарбарликка

стратегик устуворликлар, ҳаётий манфаатлар нуқтаи назардан қараш, яъни унинг сиёсат майдонига олиб чиқилиши ўзига хос улкан бурилишни англатади. Миллий ғояга бўлган жиддий илмий ва сиёсий қизиқиш, халқимизнинг уни миннатдорлик билан қарши олганлиги, умуман тараққиёт йўлимизга ёндашувнинг кескин янгиланганлиги, шунингдек, унинг маънавий-маданий, тарихий-фалсафий томирларини ўрганишнинг мустаҳкам илмий асосга қўйилганлигини билдиради.

Дарҳақиқат, мустақиллик мустаҳкамлаш ижтимоий жараёнларни янги босқичга кўтарилиши миллатни мақсад сари йўналтириш масъулиятли вазифа эканлигини англатади. Бу борада якдиллик жамиятда бирданига шаклланиб қолмайди. Мамлакат олдига қўйилган пировард мақсаднинг ижтимоий-сиёсий йўналиш тарзида барча фуқаролардан бирдек маъқулланиши маълум фурсатни талаб қилди. Бизнингча, миллий ғоянинг вазифасига нисбатан билдирилган фикрлар хилма-хиллигини ҳам айнан шу тенденция доирасида тушуниш тўғри бўлади.

Тадқиқотларимизнинг натижасига кўра, узоқ ва хайрли йўлнинг бошида:

- биринчидан, ушбу мақсадга нисбатан ҳокимият ва мухолифатни шаклланганлиги;
- иккинчидан,сиёсий, молиявий, саноат ва бошқа нуфузли ижтимоий гуруҳларни ўзаро бирлаштириш;
- учинчидан,ҳокимият тармоқлари, марказ ва минтақалар, ижтимоий қарамлар, жамият соҳалари ва бошқалар ўртасида умуммиллий келишув борасидаги зарурий шарт-шароитни етарли эканлиги кабиларни ташкил этади ***[4]***.

Миллий тараққиёт андозасини яратиш жараёни жуда мураккаб, сон-саноқсиз омилларни ҳисобга олишни, уларни атрофлича таҳлил қилишни талаб қиладиган узоқ муддатли жараён ҳисобланади. Жамият келажаги нуқтаи назардан миллий тараққиёт андозаси миллатнинг моддий ва интеллектуал салоҳияти, бир неча минг йиллар давомида шаклланган

кўникмаларини ҳисобга олса, халқ руҳиятига қанча яқин бўлса, шунча дунё тажрибасига мос тушади. Айнан шу сиёсий тажриба етарли шаклланиши учун ўзига хос миллий ғоя, халқимиз идеалларидан мос бўлган қарашларни инобатга олиш заруратини вужудга келтиради. Мамлакат Президенти Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси қабул қилинди. “Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари” деган ғоя бу жараёнда асосий йуналтирувчи куч бўлиб хизмат қилмоқда ***[5]***. Бугунги тараққиёт учун тобора муҳим аҳамият касб этаётган мустақил ривожланиш йўли билан миллат ғоясининг уйғунлашиши - Ўзбекистонимизда яққол кўзга ташланмоқда. Шундай экан унда барқарорлаштирувчи таянчлар ҳам мавжуд бўлади. Файласуф олимлар таъкидлаганидек, “бу маконда маълум бир чегарага эга ҳудуд ва умумий тилдан кўра, кўпроқ дунёвий ва илоҳий маданият ётади” ***[6]***, - деб ҳисоблайди. Халқимиз ҳаёт фаолиятининг жабҳалари - иқтисод, сиёсат, бошқарув, маданият, маънавият, инсонлараро муносабатлар тизими ва бошқалардан қайси бирини олиб кўрмайлик, зикр этилган цивилизация ташувчи унсурларнинг яққол таъсири кўзга ташланадики, унга эътиборсизлик қимматга тушиши мумкин. Шу нуқтаи назардан, иқтисод ва сиёсат соҳасининг тадқиқотчилари тафаккурида ҳозирча устуворлик қилаётган нигилизм, яъни бошқарув бобида нимаики Ғарбда самара келтираётган бўлса, уларнинг барчаси универсал ҳарактерга эга деган фикрнинг устуворлик қилиши жиддий хатоларга олиб келади. Жамиятни бошқариш борасида халқимиз тўплаган бир неча минг йиллик анъаналарни инкор қилишга сабаб бўлмаслиги керак. Азалдан давлат ҳокимиятининг жамият ҳаётида алоҳида нуфуз касб этиши, кучли ижтимоий сиёсат, индивид ва жамият, фуқаровадавлат манфаатларининг мувофиқлаштирилиши, ҳаётнинг барча жабҳалари ҳамда тафаккурида коллективизм тамойилининг устуворлиги ва шароит тақозо қиладиган бўлса,

шахсий манфаатларнинг жамият манфаатлари билан уйғунлиги қонуниятини ташкил этади.

Ўзбекистон танлаган ривожланишнинг янги йўли Шарқ ва Ғарбда мамлакатларнинг ривожланиш йўлига қиёсан олинганлиги билан аҳамиятлидир. Ўзбекистон қадим вақтлардан эътиборан бошқа мамлакатлар билан уйғунликда умуминсоний қадриятларга хайрихоҳликда жамиятни бошқаришга одатланган ноёблиги учун эмас, балки инсонга, жамият барқарорлигига йўналтирилганлиги, яъни ижтимоий хусусиятга эгалиги билан машҳурдир. Эркин бозор иқтисодиёти сари ривожланаётган иқтисодиёти, табиий бойликларга бой, билимли аҳолига ва Европададан Осиёга транспорт йўлларининг кесишган жойида қулай мавқега эга бўлган мамлакат Марказий Осиё мамлакатлари орасида локомотивга айланмоқда ва ҳақли равишда янги давлат деб даъвоқилмоқда ***[7]***. Бунда ривожланиш йўлини тўғри танлаш ва уни миллий ва умуминсоний қадриятлар билан уйғунлаштириш амалиёти яхши самара бермоқда. Ёш авлод тарбияси ҳақида гапирганда, Абдурауф Фитрат бобомизнинг мана бу фикрларига ҳар биримиз, айниқса, энди ҳаётга кириб келаётган ўғил-қизларимиз амал қилишларини мен жуда-жуда истардим. Мана, улуғ аждодимиз нима деб ёзганлар: “Халқнинг аниқ мақсад сари ҳаракат қилиши, давлатманд бўлиши, бахтли бўлиб иззат-ҳурмат топиши, жаҳонгир бўлиши ёки заиф бўлиб хорликка тушиши, бахтсизлик юкини тортиши, эътибордан қолиб, ўзгаларга тобе ва қул, асир бўлиши уларнинг ўз ота-оналаридан болаликда олган тарбияларига боғлиқ ” ***[8]***. Бу эса, маънавий хусусиятларига кўра, бу жамият ўзида миллийликни умуминсонийлик билан уйғунлаштирган ёшларни тарбиялаш муҳим ҳисобланади.Яъни, шунда барча илғор янгиликларга, ютуқларга очиқ, миллатчилик ёки миллий номукаммаллик туйғуларидан ҳоли, эркин фикрловчи ва ижтимоий масъул фуқароларнинг эркин жамияти қурилади.

Миллий ғоя озод шахсни улуғлайди, эркин фикр юритишни тарғиб этади, илғор умумбашарий ғояларга суянган ҳолда уни амалга оширишга ундайди. Миллий ғоя миллат тараққиётини, унинг барқарорлигини таъминлашнинг асосий манбаси ҳисобланади. Миллатнинг мустақиллиги, озодлиги, эркинлиги, унинг ўзига хослигини эса фақат миллий ғоя, уларнинг моддий кучга айланиши натижасида таъминлаш мумкин бўлади. Миллий ғоянинг тарихий, фалсафий илдизлари унинг тамойиллари билан узвий боғлиқ бўлиб, асосий тамойилларидан бири инсонпарварлик ғояси билан уйғун эканлигини эътиборга олиш зарур. Миллат тақдирига дахлдор бўлган ғоялар, энг аввало, миллий замин билан боғлиқ бўлади. Унга таянмаган, ундан баҳра олмайдиган ёки ундан узилиб қоладиган ғоялар миллат манфаатларига хизмат қила олмайди. Миллий ғоя тамойиллари умуминсоний қадриятлар билан ўзаро уйғунлашиб кетган. Миллий ғоя умуминсоний тамойиллардан “фикрлар хилма-хиллиги”, “ғоялар, мафкуралар хилма-хиллиги”ни эътироф этади. Бу қадриятлар тараққиётнинг, мустақилликни асраб-авайлаш ва мустаҳкамлашнинг кафолатидир. Миллий бағрикенглик, миллий тотувлик ва ҳамжиҳатлик, миллий-маданий меросни ҳурмат қилиш ва эркин ривожланиш учун шароит яратиб бериш фалсафаси миллий ғояда мужассамлашган ***[9]***. Бизнинг фикримизча, жамиятдаги инсон ўртасидаги бағрикенглик, миллатлараро тотувлик ўзаро ҳамжиҳатликни намойиш қилиши билан ифодаланади.

Ҳар бир мамлакат жаҳон ҳамжамиятидан муносиб ўрин эгаллашга интилар экан, бу йўлда унинг миллий ғояси нимага асосланганлиги ҳам муҳим ҳисобланади. Шунингдек, ўз давлат бошқарув стратегиясини мақсади нимага қаратилгани ҳам муҳим ҳисобланади. Бинобарин, миллий тараққиётнинг маънавий-маданий таянчи (сиёсий, иқтисодий, ижтимоий таянчлар билан бир қаторда) ҳисобланган миллий ғоянинг шаклланиши жараёнини, мустақилликдан сўнг асос солинган замонавий ўзбек давлатининг ички ва ташқи сиёсий фаолияти билан боғлаш тўғри бўлади.

Хулоса қилиб қуйдагиларни эътироф этиш лозим, Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида жамият ва давлат фаровонлиги учун муҳим ҳисобланган миллий ғоя ҳақида жиддий фикр юритилмоқда. Глобаллашув асри ҳисобланган XXI аср талабларига бардош бера оладиган жамият бўлиши учун миллий идеал, ғоя зарур эканлиги халқимизда ишонч чуқур илдиз отмоқда. Бази мамлакатлардаги сиёсий жараёнларни издан чиқишига Мутахассислар Грузия, Украинада барқарорликнинг издан чиқишини, ёт унсурлар тазийиғига бардош бера олмаслик ҳолатини миллат учун руҳий озуқа ҳисобланган миллий ғоя ва мафкуранинг йўқлиги ёки заифлиги билан боғлашаётганлиги ҳам бежиз эмас.

Ҳар қандай тараққиёт иқтисод, сиёсий тизим ва социо-маданий меъёрлардан таркиб топади ва уларташқи ва ички омиллар таъсири остида бўлади. Жамиятнинг ўзига хос маънавий-ғоявий салоҳияти эса миллий ғоя “бунёдкор консерватив”, маданият ва маънавият ташувчиси сифатида функцияларни бажаради.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари - Тошкент. Ўзбекистон, 2020.-Б. 166.

2. Каримов И. Мамлакатимиз тараққиёти ва халқимизнинг ҳаёт даражасини юксалтириш барча демократик янгиланиш ва иқтисодий ислоҳотларимизнинг пировард мақсадидир - Тошкент: Ўзбекистон, 2007. - Б. 5.

3. Симонян Р. От национально-государственных объединенийк региональным // Вопроси философии. № 3, 2005. - С. 22.

4. Розов Н.С. Национальная идея как императив разума // Вопроси философии, № 10, 1997. - С. 18.

5. Мирзиёсв Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларни таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б. 297.

6. Розов Н.С. Национальная идея как императив разума // Вопроси философии, № 10, 1997. - С. 84.

7. https://www.gazeta.uz/ru/2021/09/16/sovkombank

8. Mamatov, M., Isomiddinov, A., & Yuldashev, S. (2019). Factors of Developing the Intellectual Abilities of the Youth. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 16(2), 311-313.

9. Суванов И.А. Шахс маънавиятини юксалтиришда миллий ғоя ва ўзликни англаш диалектикаси. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент: 2018,- Б. 18.

10. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

11. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

12. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

13. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

14. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

15. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА

АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

16. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

17. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

18. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

19. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

20. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

21. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

22. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

23. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

24. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

25. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

26. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

27. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

28. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

29. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

30. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

31. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

32. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

33. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

34. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

35. Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

36. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

37. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

38. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

NAMANGANGA BIRINCHI YO‘LOVCHI VA YUK POYEZDINING KELISHI VA UNING HUDUD IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTIGA TA’SIRI

Kupaysinov Ismoyiljon Ahmadjonovich

Farg‘ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Namangan uyezdiga kirib kelgan birinchi yo‘lovchi va yuk tashish poyezdi haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib,dastlabki poyezdni aholi tomonidan kutib olingani bayon etilgan. Kirib kelgan poyezd uyezd ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga qanday ta’sir etganligi va uyezdda kuztilgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar aks etgan.*

Kalit so‘z va iboralar:*uyezd, poyezd, temir yo‘l, sanoat, mahsulot, transport, xo‘jalik, iqtisodiy, ijtimoiy.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о первом вступившем в Наманганский район пассажирском и товарном поезде, а также указано, что первый поезд был встречен жителями. Отражены влияние прибывающего поезда на социально-экономическую жизнь уезда и ожидаемые социально-экономические изменения в уезде.*

Ключевые слова и фразы: *уезд, поезд, железная дорога, промышленность, продукт, транспорт, хозяйство, хозяйственный, социальный.*

Annotation: *This article provides information about the first passenger and freight train that entered the Namangan region, and also indicates that the first train was met by residents. The impact of the arriving train on the socio-economic life of the county and the expected socio-economic changes in the county are reflected.*

Key words and phrases: *uezd, train, railway, industry, product, transport, economy, economic, social.*

Bugungi, har sohada rivoj topayotgan va ilm-fan yutuqlari yuksalib borayotgan zamonda transport tizimi ham o‘z taraqqiyoti cho‘qqilarini zabt etib bormoqda. Temir yo‘l, avtomobil va havo‘transporti mamlakatlar ichki va tashqi hayotini bir-biri bilan bog‘laydi. Temir yo‘l transporti ham mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o’rin tutib, insoniyatga uzoq yillardan beri xizmat qilib kelmoqda.

O‘zbekiston hududida birinchi marta XIX asrning 80-yillarida temir yo‘llar qurila boshlandi. Orenburgdan Toshkentgacha temir yo‘lni qurish zaruriyati 1874-yili maxsus temir yo‘l komissiyasi tomonidan ta’kidlab o‘tilgan edi. Strategik jihatdan temir yo‘lni Kaspiy dengizning sharqiy qirg’og’idan O‘rta Osiyo cho’llari ichkarisi Qizil-Arvat, Ashhobod va keying manzillargacha qurishga qaror qilindi.

Kaspiyorti temir yo‘lini barpo qilish 1880-yil noyabr oyida boshlandi. 1885 yil temir yo‘l Ashhobodga, 1886-yil Charjouga yetib keldi.1888-yil may oyida Amudaryo orqali 30 ta ko‘priklarning qurilishi bilan Samarqandga temir yo‘l harakati ochildi. 1885-yilda Kaspiyorti temir yo‘lining boshlang‘ich punkti Mixaylovsk ko‘rfazidan Uzun-Adadga, 1896 yilda esa katta kemalarning kelishini ta’minlash maqsadida Krasnovodsk (hozirgi Turkmanboshi)ga ko‘chirildi.

1899-yilda Ursatevsk(hozirgi Hovost) stantsiyasidan 2 ta yo‘l tashkil qilindi: Toshkentgacha va Farg‘ona vodiysidan Andijonga.

1899-yilda Kaspiyorti temir yo‘li Yo‘l xabarlari Vazirligi ixtiyoriga berildi va Samarqand-Andijon liniyalari yo‘llari bilan qo‘shilgandan keyin Sirdaryo, Samarqand, Farg‘ona, Kaspiyorti hududlari va Buxoro xonligi hududidan o‘tadigan O‘rtaosiyo nomini oladi. Temir yo‘lning umumiy uzunligi 2354 verstni tashki qiladi ***[4].***

1906-yilda Toshkent-Orenburg liniyasi ishga tushirildi. Kogon-Buxoro xususiy temir yo‘l liniyasi 1906-1907 yillarda qurilgan. 1913-yilda Qo‘qon-

Namangan-Andijon- Jalolobod liniyasi qurilishini yakunlanadi. 1914-1917 yillarda Katan-Amudaryo va Qarshi- Kitob liniyalari qurildi ***[1:17].***

Temir yo‘llarning qurilishi birinchi navbatda iqtisodiy va strategik masalalar bilan bog‘liq bo'lib, bu bir vaqtning o‘zida yo‘lovchi tashishni rivojlantirishga yordam berdi. Inqilobdan oldingi temir yo‘l statistikasi materiallariga ko'ra, hududiy kontekstda temir yo‘l tashish hajmi jo‘natilgan yo‘lovchilar soni bilan tavsiflanishi mumkin.

1912-yilning 7-iyulida Qo‘qondan Namangan tomon birinchi marta o‘tayotgan temir yo‘l izi bitib, dastlabki poyezd kelgan. Bu Namangan shahri va atrof qishloqlar hayotida juda muhim voqea bo‘lib katta bayram tusini olgan. Hamma vokzal tomon yo‘l oladi, poyezdni musiqa sadolari ostida kutib olindi ***[2].***

Namanganga temir yo‘l keltirilishi munosabati bilan uyezd miqyosida sanoatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochiladi. Buni tasavvur qilish uchun o‘sha vaqtda Namangan uyezdining iqtisodiy holatini qisqacha bo‘lsa ham ko‘zdan kechirib o‘tish kifoyadir. Bu davrda uyezddagi paxta tozalash va yog’ zavodlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni chetga chiqarish uchun transport harajatlarini ko‘p bo‘lishi, chetga sotiladigan mahsulotlar uchun pul mablag‘larining tez kelmasligi ana shu korxonlardagi ishchilarni mushkul ahvolga tushirib qo‘ygan edi.

Dehqonlarning ahvoli esa bundan ham og‘irroq edi. Dehqon xo‘jaliklarining ko‘pchiligi yersiz, qisman yerga ega bo‘lganlar esa o‘z mahsulotlarini faqat mahalliy boylarga sotar edilar. Transport vositalarining yo‘qligi natijasida kambag’al dehqonlar bu mahsulotlarni juda kam haq baravariga pullashga majbur edilar. Bu hol esa ularni brogan sari qashshoqlikka, xonavayronchilikka mubtalo qilar edi.

Namanganga poyezd kelishi munosabati bilan to‘qimachilik sanoati uchun tashqariga chiqariladigan xomashyo 80 foizga, mahalliy hunarmandchilik va meva mahsulotlari chiqarish esa 20 foizga ortdi. Rossiyadan to‘qimachilik mahsulotlari

keltirish 40 foizga, kimyoviy moddalar 11 foizga, yoqilg'ilar 5 foizga, oziq-ovqat 15 foizga va boshqa mahsulotlar 29 foizga ko‘payadi ***[3].***

Qo‘qondan Namangangacha temir yo‘l izlari yotqizishda rus temir yo‘lchilari boshchiligida ko‘p kishilik mahalliy aholi ham qatanashgan. Shuni ham aytish kerakki, u paytda texnikaning juda qoloq bo‘lganligi temir yo‘llar qurilishini ancha og‘ir ahvolga solib qo‘ygan. Masalan, Qo‘qon-Namangan temir yo‘li uch yarim yilda qurib bo‘lindi.

Sovet davrida ham temir yo‘l transportiga alohida e'tibor beriladi. Ko‘plab yangi temir yo‘l liniyalari ishga tushirildi. Mustaqillik yillarida ham mana shu temir yo‘l liniyasi takomillashtrildi va yangi yo‘nalishlarga asos solindi. 2021-yil 16-fevraldan esa “Toshkent-Namangan-Andijon” va “Andijon-Namangan-Toshkent” yo‘nalishidagi 64/63-sonli yo‘lovchi poyezdi o‘z harakatini boshladi. Ushbu poyezd yo‘nalishi davomida Pop vokzali, Chust, To‘raqo‘rg‘on, Rauston stansiyalari hamda Namangan vokzali, shuningdek, Chortoq, Uychi, Haqqulobod, Poytug‘ stansiyalaridan o‘tib, Andijon vokzaliga kirib boradi ***[5]***.

Bugungi kungacha, “Qo‘qon-Namangan-Qo‘qon” va “Qo‘qon-Marg‘ilon-Andijon” yo‘nalishlarida shaharlararo poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, Farg‘ona vodiysi halqa temir yo‘li bo‘ylab elektropoyezd qatnovi ham yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunga qadar Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon va Pop vokzallari orqali Toshkent, Buxoro, Xiva hamda Termiz shaharlariga yo‘lovchi poyezdlar qatnovi amalga oshirilib kelinayotgan edi. “Toshkent-Namangan-Andijon” va “Andijon-Namangan-Toshkent” yo‘nalishidagi 64/63-sonli yo‘lovchi poyezdining Namangan vokzali orqali qatnashi Namangan, Andijon, Farg‘ona viloyatlarini o‘zaro bog‘laydi hamda aholiga respublikaning boshqa viloyatlariga temir yo‘l orqali borib kelishlarida juda katta qulaylik yaratadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Ходжаев С. М. Транспорт Узбекистана. – Ташкент, Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1961. -202 с.

2. Завлунов М. Ўролов Қ. Наманганга биринчи поезднинг келиши // Наманган хақиқати. 16 ноябрь 1960 йил. -№ 140.

3. Завлунов М. Ўролов Қ. Наманганга биринчи поезднинг келиши // Наманган хақиқати. 16 ноябрь 1960 йил. -№ 140

4. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

5. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

6. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

7. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

8. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

9. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

17. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

18. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

19. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

19. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

20. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

21. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

22. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

23. Абдуносирова, О. (2022). Шохрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

24. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

25. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

26. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

27. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

28. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

29. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

30. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

31. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

32. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

33. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

34. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

35. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

36. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

37. Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

38. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

39. https://www.railway.uz/uz/gazhk/istoriya_zheleznykh_dorog/

40. https://kun.uz/uz/04969809?q=%2Fuz%2F04969809

QO‘QON SHAHRIDA JOYLASHGAN OLIY TA’LIM MUASSASALARINING SHAHAR MADANIY HAYOTIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Qodirov Muhsinjon Muhtorjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qo‘qon shahar hududida joylashgan oliy ta’lim muassasalarining soni, ularni tashkil etilgan vaqtlari, shu bilan bir qatorda ularda ta’lim berilayotgan yo‘nalishlar, hamda faoliyat olib borayotgan fakultetlar, oliy ta’lim muassasalarining xalqaro hamkorlik doirasida olib borayotgan ishlari haqida ma’lumotlarni olishingiz mumkin.*

Kalit so‘z va iboralar:*Qo‘qon davlat pedagogika instituti, fakultet, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali, mutaxasislik, Wosong universiteti, Karabuk universiteti, xalqaro hamkorlik.*

Аннотация: *В данной статье количество высших учебных заведений, расположенных на территории города Коканда, время их создания, а также предоставляемые в них направления обучения, а также действующие факультеты, в рамках международного сотрудничества высших учебных заведений можно получить информацию о проводимых работах.*

Ключевые слова и фразы: *Кокандский государственный педагогический институт, факультет, Ферганский областной филиал Узбекского государственного института искусств и культуры, специализация, Восонский университет, Карабукский университет, международное сотрудничество*

Annotation: *In this article, the number of higher education institutions located in the territory of Kokand city, the time of their establishment, as well as the areas of education in them, as well as the operating faculties, within the framework of international cooperation of higher education institutions you can get information about the ongoing work.*

Key words and phrases: *Kokand State Pedagogical Institute, Faculty, Ferghana Regional Branch of Uzbekistan State Institute of Art and Culture, specialization, Wosong University, Karabuk University, international cooperation*.

Qo‘qon shahri oliy ta’lim tizimida ham o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Bugungi kunda boshqa shaharlardan farqli ravishda shahar hududida jami 4 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud. Ular quyidagilar:

- Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti;
- O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali;
- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Qo‘qon filiali;
- Qo‘qon universiteti shular jumlasidandir ***[7: 30]***.

Yuqoridagi oliy ta’lim muassasalarining ichidan eng yoshi Ulug‘i bu Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti (QDPI) hisoblanadi. QDPI dastlab 1931-yil yanvar oyida kechki pedagogika instituti sifatida tashkil etilgan. Institut 1939-1940-o‘quv yilidan boshlab kunduzgi davlat o‘qituvchilari institutiga aylantirilgan. 1943-yildan xotin-qiz o‘qituvchilar instituti, 1954-yildan xotin-qizlar pedagogika institutiga aylantirilgan. QDPI ga Muqimiy nomi 1943-yilning oktabr oyida berilgan ***[1:1].*** Bugungi kunga kelganda pedagogika institutida jami 12582 nafar talaba ta’lim olmoqda. Shuningdek, institut tarkibida 11 ta fakultet, 24 ta bakalavr yo‘nalishi, 3 ta qo‘shma ta’lim yo‘nalishi, 14 ta magistratura yo‘nalishi mavjud. Institutning professor-o‘qituvchilari jami 27 ta kafedrada faoliyat olib bormoqdalar ***[11 :52]***. QDPI da mavjud 11 ta fakultetdan ba’zilari haqida fikr yuritsak:

Fizika-matematika fakultetiga 1931 yilda matematika fani o‘qituvchilarini tayyorlash guruhi sifatida asos solingan. Fakultetda 5110100 – Matematika o‘qitish metodikasi, 5110200 – Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi, 5110700 – Informatika o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, jami 1020 nafar talabalar tahsil olmoqdalar. Ulardan 310 nafari grant, 710 nafari to‘lov-shartnoma asosida, 247 nafari o‘g‘il, 773 nafari qizlarni tashkil etadi ***[1:2].***

Fakultet qoshida Matematika o‘qitish metodikasi, Informatika o‘qitish metodikasi, Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi kafedralari mavjud bo‘lib, bu kafedralarda 72 nafar pedagog-xodimlar pedagoglik faoliyati bilan shug‘ullanib yoshlarga ta‘lim-tarbiya bermoqdalar. Ulardan 1 nafari fan doktori, 18 nafari fan nomzodi, dotsentlar, 18 nafari katta o‘qituvchilar hamda 35 nafari o‘qituvchilardir. Ilmiy salohiyat 26%ni tashkil etadi ***[2 :2]***.

- O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti institutning eng to‘ng‘ich va o‘ziga xos an’analarga ega bo‘lgan fakultetlaridan hisoblanadi. Uning tarixi 1931-1932 o‘quv yilida filologiya fakulteti sifatida tashkil topishidan boshlandi. Dastlab fakultet o‘zbek tili va adabiyoti hamda rus tili va adabiyoti bo‘limlaridan iborat bo‘lgan. 1939 yilda esa o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limi mustaqil fakultetga aylangan. 1951-1954 yillarda fakultetda tojik tili va adabiyoti bo‘limi faoliyat ko‘rsatgan. Bu bo‘lim Marg‘ilon o‘qituvchilar insititutidan ko‘chirib keltirilgan edi. 1954 yilda O‘qituvchilar instituti pedagogika institutiga aylantirilganidan so‘ng fakultetda tarix-filologiya mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qituvchilar tayyorlandi ***[7:31]***.

2005 yil 26 avgustda o‘zbek tili va adabiyoti hamda xorijiy tillar fakultetlari birlashtirilib, filologiya fakulteti tashkil qilindi. 2015 yil mart oyidan esa o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti yana alohida faoliyat ko‘rsata boshladi. Fakultetda ikkita kafedra mavjud: o‘zbek tili va o‘zbek adabiyoti. Bugungi kunda fakultetda jami 447 nafar talaba tahsil olmoqda ***[2: 3]***.

Tarix fakulteti Qo‘qon davlat pedagogika institutining nufuzli va o‘z an’analariga ega fakultetlaridan biri xisoblanadi. Dastlabki tarix-filologiya mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash 1954 yil Qo‘qon xotin-qizlar instituti pedagogika institutiga aylantirilgach boshlandi. Shu davrdan boshlab o‘qitish kunduzgi va sirtqi ta’lim shaklida amalga oshirilgan. 1967 yildan esa tarix-geografiya mutaxassisligi bo‘yicha talim tarbiya ishlari olib borilgan.

1991 yildan tarix, inson va jamiyat o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha kunduzgi talimga talabalar qabul qilingan. 1993-1998 yillarda tarix, inson va

jamiyat qo‘shimcha iqtisodiy bilim va tadbirkorlik asoslari o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlangan.

1994-1999 yillarda tarix, inson va jamiyat hamda huquq o‘qituvchisi mutaxassislari tayyorlangan. 1998 yildan boshlab Tarix fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti tarkibidan ajralib chiqib aloxida fakultet sifatida faoliyat yuritmoqda ***[7:31]***.

Hozir fakultetda 5110600-Tarix o‘qitish metodikasi va 5111600-Milliy g‘oya, manaviyat asoslari va huquq ta’limi bakalavr yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Fakultetda tarkibida “Tarix o‘qitish metodikasi” , “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va Huquq ta’limi” , “Ijtimoiy fanlar” kafedralari mavjud ***[3 :1]***.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-sentabr, 754-sonli “Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Qo‘qon filialini tashkil etish to‘g‘risida” qarori qabul qilingan. Natijada Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Qo‘qon filialiga qabul 2018-2019-o‘quv yilidan boshlangan ***[8 :1-2].*** Ushbu o‘quv yilida talabalar jami 5 ta:

1) Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (tarmoqlar bo‘yicha);

2) Elektronika va asbobsozlik (tarmoqlar bo‘yicha);

3) Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi (tarmoqlar bo‘yicha);

4) Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo‘yicha);

5) Elektron apparaturalar ishlab chiqarish texnologiyasi yo‘nalishlari bo‘yicha qabul qilingan ***[7:32]***.

Mazkur o‘quv yilida institut filialining qabul quvvati har bir yo‘nalishga 25 tadan talaba jami 125 ta talab qilib belgilangan. Filialda 2 ta fakultet (“Elektronika va elektr texnikasi” va “Muhandislik texnologiyalari”) va ushbu fakultetlar tarkibida 6 ta kafedralar tashkil etildi ***[12: 63].*** 2018/2019 o‘quv yilidagi talabalar va professor-o‘qituvchilar kontingentidan kelib chiqqan holda ushbu o‘quv yilida

“Elektronika va elektr texnikasi” fakulteti va “Matematik va tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar” kafedrasi tashkil etildi ***[4: 1]***.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filialini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3218-son qaroriga asosan Farg‘ona vodiysi viloyatlari uchun teatr, xalq ijodiyoti sohasi bo‘yicha aktyorlar, madaniyatshunoslik va san’atshunoslik yo‘nalishida yuqori malakali mutaxasislar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali tashkil etildi ***[9:1]***. Qarorda belgilanganidek 2017/2018 o‘quv yili uchun “5150300 — aktyorlik san’ati (turlari bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishiga bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha jami 25 ta — shundan 10 tasi davlat grantlari, 15 tasi to‘lov-kontrakt asosida — qabul kvotasi ajratiladi. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filialiga 2018-2019-o‘quv yili uchun jami 5 ta yo‘nalishda jami 70 ta, 2019-2020-o‘quv yili uchun esa 6 ta ta’lim yo‘nalishida umumiy 90 ta qabul kvotasi ajratilgan ***[5:3]***.

Qo‘qon shahri hududida joylashgan yana bir oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi. Qo‘qon universiteti (ing. Kokand University) – Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahridagi birinchi nodavlat universitet. Universitet shahar markazida joylashgan. Qo‘qon universiteti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 avgustdagi 683-sonli "Qo‘qon universitetini tashkil etish to‘g‘risida"gi qarori asosida tashkil etilgan ***[10:1]***. Universitetda O‘zbekistonning barcha viloyatlaridan – 12 viloyat, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahridan 1000 nafardan ziyod talabalar tahsil olishadi. Qo‘qon universitetiga O‘zbekiston Respublikaning Qo‘qon shahrida dunyoning 1000 ta yetakchi universitetlari reytingiga kiritilgan birinchi nodavlat oliy o‘quv yurtini tashkil etish vazifasini o‘z oldiga qo‘ygan respublikaning yosh va ilg‘or bir guruh tadbirkorlarining tashabbusi bilan asos solindi. Shu maqsadda 2019 yilda universitet yaratish uchun tashabbuskor guruh tuzildi. Yevropa va Osiyoning bir qator yetakchi universitetlari, xususan Janubiy Koreyaning Vusong universiteti

bilan aloqalar o‘rnatildi. Sentyabr oyida universitetni tashkil qilish bilan bog‘liq barcha tashkiliy masalalar hal qilindi, xususan, universitetni boshqarish uchun yuqori darajali ta’lim menejerlari taklif etildi, talabalar universitetga qabul qilindi. 2019 yil oktyabr oyida universitetda o‘quv jarayoni boshlandi ***[6:1]***.

Qo‘qon universiteti Janubiy Koreyaning Wosong universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan bo‘lib, unda talabalar almashinuvi va 2 + 2 dasturida qatnashish imkoniyatiga egalar (Qo‘qon universitetida 2 yil, Vusong universitetida 2 yil). Bundan tashqari, Qo‘qon universiteti AQSH, Yaponiya, Fransiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Indoneziya, Polsha, Qozog‘iston va Chexiya universitetlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan. Xususan, universitet Karabuk universiteti (Turkiya) va Al-Farobiy milliy universiteti (KazNU, Qozog‘iston) bilan talabalar almashinuvi dasturi to‘g‘risida shartnoma imzoladi. Bundan tashqari, Vrotslav biznes universiteti (Polsha), Antaliya bilim universiteti (Turkiya), Olmaota iqtisodiyot va statistika akademiyasi (Qozog‘iston), Jonson va Uels universiteti (AQSH), Hud kolleji (AQSH), Gaja Mada universiteti (Indoneziya), York kolleji (AQSH), Yungbu universiteti, Aju universiteti (Janubiy Koreya) va boshqa ko‘plab nufuzli xorijiy talabalar almashinuv dasturlari va qo‘shma ta‘lim dasturlari mavjud ***[6:2]***.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Qo‘qon shahrining oliy ta’lim sohasida olib borayotgan ishlari muhim o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Zero, mamlakatimizning ma’muriy markaz bo‘lmagan hech bir shahrida bunchalik ko‘p oliy ta’lim muassasalari mavjud emas. Hududning mavjud infrastrukturasi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga mos ravishda ta’lim yo‘nalishlarining soni ortib bormoqda. Bu esa har bir soha va yo‘nalishda faoliyat olib boruvchi yetuk malakali kadrlar va mutaxasislarning mavjudligini ta’minlovchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. http://www.kspi.uz/structure/faculties/1
2. http://www.kspi.uz/structure/faculties/2
3. http://www.kspi.uz/structure/faculties/4

4. http://www.tdtukokand.uz/index.php/en-us/tuzilma/filial-tarixi

5. https://oliygoh.uz/uz/oliygohlar/o-zbekiston-davlat-san-at-va-madaniyat-institutining-farg-ona-mintaqaviy-filiali?year=2018

6. https://kokanduni.uz/view-page/11

7. M.M.Qodirov. “Qo’qon shahrining ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayoti (1991-2019 yillar)”. Qo’qon. 2021. 84 b.

8. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2018-y., 09/18/754/2022-son

9. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 34-son, 875-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.03.2021-y., 06/21/6186/0200-son.

10. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.08.2019-y., 09/19/683/3588-son.

11. Qo‘qon shahrining 2016-2018 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to‘g‘risida AXBOROTNOMA. Qo’qon – 2019. 94 b.

12. Qo‘qon shahar 2017-2019 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to‘g‘risida AXBOROTNOMA. Farg’ona - 2020. 147 b.

13. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

14. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

QUVA (QUBO)NING YOZMA VA ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA YORITILISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

A.A.Aloxunov

FarDU Jahon tarixi kafedrasi dotsenti,

J.K.Nazirov

FarDU Arxeologiya yo‘nalishi 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: *Hozirgi kunda avlod-ajdodlarimizning merosi tarixiy hazinasiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan yaratuvchilik ishlari, shaharlarimiz tarixi va o‘tmishi, Ulug‘ bobokalonlarimizning hayoti chuqur tahlil qilinib, mukammal o‘rganilmoqda. Mazkur maqolada Qubo aholi punktining yozma va arxeologik tadqiqotlari aks ettirilgan. Qubo O‘rta Osiyoda muhim o‘rin tutgan asosiy iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo‘lgan.*

Kalit so‘z va iboralar:*Quva (Qubo) shahri, tarixiy meros, yozma manbalar: xitoy yilnomalari, arab muarrixlari, arxeologik tadqiqotlar, ark, shahriston, rabod.*

Аннотация: *В наше время всесторонне анализируются и тщательно изучаются творческие труды, история и прошлое наших городов, жизнь наших прадедов, внесших достойный вклад в историческую сокровищницу наследия наших предков. В данной статье отражены письменные и археологические исследования городища Кува (Кубо). Кува был одним из главных экономических и культурных центров Средней Азии.*

Ключевые слова и фразы: *город Кува (Кубо), историческое наследие, письменные источники: китайские хроники, арабские историки, археологические исследования, арк, шахристан, рабад.*

Annotation: *In our time, creative works, the history and past of our cities, the life of our great-grandfathers, who made a worthy contribution to‘the historical treasury of the heritage of our ancestors, are comprehensively analyzed and carefully studied. This article reflects the written and archaeological research of the settlement Kuva (Kubo). Kuva was one of the main economic and cultural centers of Central Asia.*

Key words and phrases: *city of Kuva (Kubo), historical heritage, written sources: Chinese chronicles, Arab historians, archaeological research, ark, shakhristan, rabad.*

Hozirgi davrda xalqimiz eng rivojlangan mamlakatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek Ulug‘vor maqsadlar bilan yashamoqda. Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi. Keyingi o‘ttiz ikki yil mobaynida mamalakatimiz ijtimoiy, madaniy-siyosiy hayotida juda katta burilishlar, tarixiy o‘zgarishlar yuzaga keldi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash, tarixiy urf-odatlar, an’analar va marosimlarni hayotimizga qaytarish, ma’naviyat va ma’rifatni chuqur ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarga juda katta e’tibor berib, bu borada muhim qarorlar qabul qilmoqda. Bularning barchasi o‘z-o‘zidan ravshanki, tariximizni yaratish, unga jiddiy munosabatda bo‘lish, minglab, hattoki millionlab yillik tariximizga nazar tashlash, sharq olamida, umuman dunyoda o‘ziga xos va mos o‘lmas tarixga ega bo‘lgan Turonzamin o‘tmishini kelajak

avlodga ilmiy nuqtai-nazardan asoslangan holda taqdim etishdek ham savobli, ham xayrli ishlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev «Hamma o‘z tarixini Ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak»***[1]*** deganida aslo kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalar ko‘lamini belgilab bergan edi.

Hozirgi kunda avlod-ajdodlarimizning merosi tarixiy hazinasiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan yaratuvchilik ishlari, shaharlarimiz tarixi va o‘tmishi, Ulug‘ bobokalonlarimizning hayoti chuqur tahlil qilinib, mukammal o‘rganilmoqda.

Nafaqat vodiyda, balki O‘rta Osiyo‘tarixida ham muhim rol o‘ynagan iqtisodiy va madaniy markazlardan biri – bu hozirgi Quva shahri bilan chambarchas bog‘langan ko‘hna shahar xarobasi hisoblanadi.

Quva (yozma manbalarda Qubo) tarixini o‘rganish doimo arxeologlar e’tiborida bo‘lgan, chunki uning sirlarini ochishda arxeologik qazishmalar va topilmalar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Uni arxeologik o‘rganishda B.A.Latinin, V.D.Jukov, A.N.Bernshtam, A.R.Muxammadjonov, V.A.Bulatova, I.Ahrorov, Y.A.Zadneprovskiy, keyinchalik B.H.Matboboyev, G.P.Ivanov, M.H.Isomiddinovlarning xizmatlari kattadir.

Quva tarixini o‘rganish 100 yildan ortiq yo‘lni bosib o‘tdi va uni uch bosqichga ajratish mumkin.I bosqich o‘tgan asrdan to uning 60-yillari boshlarigacha davom etadi.

II bosqich 1951-1952 yillardan to 1980-1990 yillarigacha vaqtni qamrab oladi.

III bosqich 1990 yillardan boshlanadi va u hozirgacha davom etmoqda ***[7:44-47]***.

To‘plangan materiallar asosida bu yerda muzey tashkil etildi. Qazishma natijalari ingliz va o‘zbek tillarida nashr etilgan kitobda va arxeologlarning turli jurnallarda e’lon etilgan maqola xabarlarida aks etgan.

Quvada olib borilgan ko‘p yillik qazishmalar salmoqli natijalarga olib kelgan bo‘lsa-da hali arxeologlar oldida yechilishi kerak bo‘lgan murakkab vazifalar turibdi. Albatta, ular orasida eng muhimi Quvaning ilk davri tarixidir. Ya’ni, shaharni paydo bo‘lishi va bu davr bilan bog‘liq mudofaa inshootlarini kovlab o‘rganish zarur.

Tariximizning boshqa jabhalari singari, uzoq tarix bo‘lib qolgan, o‘tmishning beayov ziddiyatlari tomonidan vayronaga aylangan Quva shahri tarixi haqida arxeologik yodgorliklar bilan birga juda ham kam saqlangan yozma ma’lumotlargagina egamiz.

Farg‘ona vodiysining qadimgi shaharlaridan biri bo‘lgan Quva yozma manbalarda “Qubo” va “Qubod” singari ikki xil nom bilan tilga olinadi. Shaharni Qubo nomi bilan atalganligi haqidagi dastlabki ma’lumotlar IX–X asrlardan boshlab, arab manbaalarida uchraydi. Jumladan, Tabariy, Istaxriy, Abulqosim ibn Havqal, Muhammad al-Muqaddasiyning asarlarida shu nom bilan tilga olinadi.

Quva arablar kelishi arafasida katta shahar bo‘lib, janubiy Farg‘onani iqtisodiy, savdo, hunarmanchilik va madaniy markazi edi. Qolaversa, nima uchun arablar Farg‘ona shaharlari ichida aynan Quboni qo‘lga kiritish uchun uni uzoq qamal qildilar degan savolga ham qay bir ma’noda javob oydinlasha boshlaganday bo‘ladi. Chunki vodiydagi arab istilosi munosabati bilan boshqa shaharlar tilga olinmay, faqat Quva keltiriladi ***[5:269].***

VIII asrning birinchi choragida Farg‘ona shaharlari janggohga aylanib, dushman (arablar) istilosining barcha mashaqqatlarini boshidan kechirgan. X asrning ikkinchi yarmi va X asrning birinchi choragida yashab o‘tgan arab sayyohi va geograf olimi Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forsiy al-Istaxriy Qubo‘to‘g‘risida shunday yozadi: “Qubo kattaligi jihatidan Axsikentga tengdir. Viloyatning eng xushmanazara joyidir. Bu yerda ko‘handiz, shahriston va rabod bor. Ko‘handiz xaroba holida. Jome’ masjidi ko‘handizda joylashgan. Bozor, amir saroyi, va zindon rabodda joylashgan. Rabod devor bilan o‘ralgan bo‘lib, u yerda bog‘lar va oqar suvlar serobdir”.

Akademik V.V. Bartold Qubo arkining X asrdayoq vayron holida bo‘lganligini quyidagicha izohlagan edi: “Bu Farg‘ona da birdan bir hodisa bo‘lsa kerak. Bu hol Buxoro va Samarqandda bo‘lgani kabi Quboda ham qal’ani bu vaqtlar arab askari tarafidan ishg‘ol qilinganligini ko‘rsatmoqda”. Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Qubo shahrida arablar bilan qattiq janglar tarixda bo‘lib o‘tgan va u “Safed Bulon qissasi”da ham o‘z ifodasini topgan ***[2]***.

Lekin bu guliston o‘lkaning iqtisodi keyinchalik yana tiklanib, IX asrdan to mo‘g‘ullar istilosigacha Qubo o‘zining hunarmandchiligi, savdosi bilan mashhur bo‘lib keldi ***[10]***.

XI asrdan so‘ng XV asrga qadar Quva to‘g‘risida yozma manbalarda ma’lumotlar uchramaydi. Chunki mo‘g‘ullar istilosi Quboga juda ham og‘ir zarba bo‘ldi. Shahar olov ichida qoldi. Kimsasiz shahriston xarobalari uzoq vaqtlargacha qonli fojialardan darak berib turibdi. O‘shanda sug‘orish shohobchalari ham ishdan chiqqan bo‘lsa kerak. Keyingi asrlarda ham kuyib kul bo‘lgan bu joylarga hayot qaytmadi. Faqatgina XV asrga kelib, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” nomli asarida qubolik mashhur shoir Rukniddin Quboviy to‘g‘risida ***[3:74-75]***, shuningdek Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” Quva shahar emas balki, qishloq sifatida 1494-1503 yillarda Farg‘ona da yuz bergan siyosiy voqealar jarayonida tilga olinadi ***[8:42-43]***.

XIX asr boshlaridan boshlab tarixiy va badiiy asarlarda Qubo qishlog‘i Qubo bilan bir vaqtning o‘zida Qubod nomi bilan ham yuritila boshlangan. Gulxaniy o‘zining “Zarbulmasal” asarida: “Roviylar andog‘ rivoyat qilurlarkim, ilgarigi ahli ayyomi nofarjomda Farg‘ona iqliminda Kayqubod otliq podshohdin qolg‘on bir eski shahriston bor edi”, deya ta’rif berib o‘tadi. Mulla Olim Maxdum Hoji o‘zining “Tarixi Turkiston” asarida Quvani Qubodiyon nomi bilan tilga oladi ***[6:19]***.

1812-yil Qo‘qon xonligiga tashrif buyurgan hindistonlik sayyoh Mir Izatulloh ham Qubo qishlog‘ini Qayqubod nomi bilan ataydi ***[11:158]***.

XIX asrning ikinchi yarmida Qo‘qon adabiy ilmiy muhitidan yetishib chiqqan iste’dodli olim Mahmud Hakim Yayfoniyning(1850-1930) “Xullas ut-tavorix” asarida ham Quva Qubod nomi bilan tilga olinadi: “Zamoni avvalda Farg‘ona muzofotiga Sulton Mahmudxonni zamonida Abusaidxon podshohi adolatshior erdi. Abusaidxondin besh adad o‘g‘ul qoldi va bul mulkini hukumati alarga ta’luq topdi. Alarni poytaxtlari viloyati Qubod erdi. Alhol mashhurda Quvodir va bul Qubod aval vaqtda bir shahri azim va viloyati base’ erdi. Alholda bir qishloqdur” ***[2]***.

Quvaning Qubod nomi bilan atalganligini Ishoqxon Junaydulloxo‘ja o‘g‘li o‘zining “Tarixi Farg‘ona ” asarida quyidagicha izohlaydi: “… Farg‘ona da bo‘lmish Qubo shahrining avali binosi No‘shiravon otasi Qubod bino qilgan deb avvalda yozilib o‘tti. Qubodni o‘z ismiga Qubod qo‘yulub, holo dolni tarxim qilib, Qubo yozarlar. Avomunnoslar bo‘lsalar og‘izda Quva derlar. Quvani hech ma’nosi yo‘q”***[4:278]***.

Mahalliy aholi orasida Kayqubod to‘g‘risidagi afsonalar va qissalarning keng tarqalganligi bo‘lishi mahalliy aholi orasida qadimgi Quva shahristonini Qayquvot tepa nomi bilan mashhur bo‘lishiga olib kelgan ***[2]***.

Xitoy yilnomalari ma’lumotiga ko‘ra, VII asrda vodiyda ikkita poytaxt bo‘lgan: shimoliy tomonda Koson Turk hoqonligi hukmdorlarining qarorgohi va janubda – Xuminda mahalliy hukmdorlar vakili turgan ***[9:319].*** Xumin qayerda joylashgani noaniq bo‘lsa-da, ammo VIII asr boshlaridagi Quvaning siyosiy va iqtisodiy salohiyatini hisobga olib, arab manbalaridagi Qubo va Xitoy yilnomalaridagi Xumin bir shahar, ya’ni Quva degan xulosaga kelingan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qubo eng avvalo Janubiy Farg‘ona ning poytaxti vazifasini o‘tagan shahardir. Hech bir karvon, yo‘lovchi yoki oddiy yo‘lovchi yo‘qki, u yerda to‘xtab o‘tmagan va dam olmagan bo‘lsa. Uning nomi o‘sha davr kundalik hayotida qayta-qayta tilga olinaverib odamlarning qon-qoniga singib ketgan. Arab sayyohlarining ba’zilari Qubo Farg‘ona dagi ikkinchi muhim shahar deb atasalar, yana ba’zilari Farg‘ona da undanda go‘zal, undanda haybatli

va ulkan, boy shahar yo‘q, deb munozara qiladilar. Bu sayyohlarning har biri o‘zicha haq. Chunki mana bir necha yillardan buyon ushbu shahristonda olib borilayotgan arxeologik qazishma ishlari haqiqatan ham Quboni qachonlardir buyuk shahar bo‘lganligidan dalolat berib turibdi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev: mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Xalq so‘zi gazetasi. https://xs.uz/uzkr/post/.

2. Abdulahatov N., Rahmonov A., Ahmedov M. Buvayda ziyoratgohlari. “Bibi Ubayda yoxud Safed bulon qissasi” asosida. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2013.

3. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni. – T., 1981.

4. Ibrat. Farg‘ona tarixi. –T.: “Kamalak”, 1991.

5. Matboboyev B.X. Qadimgi Farg‘ona ning ilk o‘rta asrlar davri madaniyati (V–VIII asrlar arxeologik manbalarining tarixiy tahlili asosida). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand, 2009.

6. Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. Qarshi.: Nasaf, 1992.

7. Xoshimov X., Aloxunnov A. Quva shahar xarobasini arxeologik o‘rganish tarixidan. FDU ilmiy xabarlari. №2, 2014.

8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev va Eyji Mano (Yaponiya) nashrlari asosida qayta nashrga tayyorlovchi: Saidbek Hasanov. – T.: Sharq, 2002.

9. Бичурин Н.Я (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Том 2. Москва-Ленинград, 1950.

10. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

11. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

12. Булатова В.А. Древняя Кува. – Ташкент: Фан, 1972.

13. Путешествие Мир Иззет Уллы в Кокандское ханство(1812) // История Узбекистана в источниках. – Т.: Фан, 1988.

FARG‘ONA , MARG‘ILON, QO‘QON BOZORLARINING O‘RGANILISH MANBALARI (1991-2022 yillar)

Shaxodat Yusubjon qizi Oxunjonova

FarDU Tarix fakulteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi o‘qituvchisi, t.f.f.d (PhD)

Odiljon Tolibovich Inomov

FarDU Tarix fakulteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg‘ona , Marg‘ilon, Qo‘qon bozorlarining faoliyati bilan bog‘liq manbalar tadqiqining bayoni berilgan bo‘lib, ular guruhlarga bo‘lingan holda o‘rganilgan, bir guruh manbalar boshqa guruh manbaalari bilan taqqoslangan. Muallif tomonidan ushbu bozorlar faoliyati bilan bog‘liq muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar v iboralar: *bozor, savdo, patta to‘lovi, arxiv xujjatlari, og‘zaki tarix ma’lumotlari, bozorlar pasporti.*

Аннотация: *В данной стате рассматриваются различные источники, связанные с рынками Ферганы, Маргилана, Кокана. В стате сравниваются эти материалы друг с другом, разделяя их на группы. Автор дает выводы по устранению проблем и недостатков этих рынков.*

Ключевые слова и фразы: *базар, торговля, квитанция, архив документов, устная история информатсии, паспорта рынка.*

Annoatation: *This article explores various sources relate the Fergana, Margilan, Kokan markets. The paper compares these materials with each other by dividing them into groups. The author gives conclusions to eliminate the problems and shortcomings of these markets.*

Key words and phrases: *market, trade, receipt, archive documents, oral history informations, market passports.*

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda innovatsion rivojlanishining strategik yo‘nalishiga tobora ko‘proq e’tibor berilmoqda, unga ko‘ra mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatidan faqat samarali va

tizimli foydalanishgina uning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashi mumkin. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini jadallashtirish uzoq muddatli istiqbolda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu yo’nalish bilan chambarchas bog’liq ravishda bozorlar insonlarning moddiy ehtiyojini qondirishda kundalik turmushining ajralmas qismidir. Bozorlar faoliyatini yoritishda, bu borada tarixiy nuqtai nazardan yondashib ilmiy xulosalar berish ahamiyatlidir. Xususan, yirik savdo markazi sifatida Farg‘ona , Marg‘ilon, Qo‘qon shaharlarini o’rganish ahamiyatlidir. Tadqiq etilgan manbalarni olti guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarni kiritish mumkin. Jumladan, O‘zbekistonda 1991-2018 yillarda qabul qilingan farmon, qonun va qonun osti hujjatlari tashkil qiladi. O‘zbekistonda 1991-2018 yillarda qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlarini mazmun mohiyatidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qonun va Qarorlari O‘zbekistonda bozorlar faoliyati rivojining huquqiy asoslarini ko‘rsatib bergan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari bozorlar faoliyatini tashkil etishni va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida, ulgurji va birja savdosini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida va shu kabi bir qancha farmonlar qabul qilingan ***[1]***.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tadbirkorlik to‘g‘risida qonuni, respublikada savdoni erkinlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, savdo va xizmat ko‘rsatish ob’ektlarining ular joylashgan er maydonlari bilan birgalikda hamda er maydonlarini meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun xususiy mulk sifatida sotish tartibi to‘g‘risida, bozorlarda sifatsiz oziq-ovqat tovarlari sotilishini bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida, vino-aroq mahsulotlarini ulgurji va chakana sotishni tartibga solish to‘g‘risida, ulgurji savdo

faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomini tasdiqlash to‘g‘risida, istemol tovarlari ulgurji savdosi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, bozorlar faoliyatini takomillashtirish va maxsulotlar sotish uchun zarur shart sharoitlar yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi kabi qarorlari qabul qilingan ***[2]***.

Shuningdek O‘zbekiston bozorolariga chegaralar orqali olib kiriladigan import mahsulotlarning kelishini, chet el bozorlariga olib chiqiladigan barcha turdagi mahsulotlarni tartibga solish, maqsadida ham bir qancha qaror va Farmonlar qabul qilingan. Bular sirasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining eksport import operatsiyalarini tartibga solish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi kabi qarorlaridir ***[3]***.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining barter asosidagi eksport import operatsiyalarini qisqartirish chora tadbirlar to‘g‘risida, eksport import operatsiyalarini tartibga keltirish borasida qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish, O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va himoya qilish chora tadbirlari to‘g‘risida, import bojlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida, importni tariflar bilan boshqarish chora tadbirlari to‘g‘risida, tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada chuqurlashtirish va takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida eksportga mahsulotlarni chiqarishni erkinlashtirishning qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida, eksport import operatsiyalarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida, importni tariflar bilan boshqarish chora tadbirlar to‘g‘risida, tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi hududiga jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni olib kelinishini tartibga solish to‘g‘risida, import bojxona bojlarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida, bozorlar faoliyatini takomillashtirish va mahsulotlar sotish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida, boj tarifi orqali tartibga solishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari

to‘g‘risidagi qarorlari kiradi ***[4]***.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlarning ijrosini taminlash yuzasidan aynan viloyat hududida joylashgan bozorlar faoliyatini nazorat qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Farg‘ona viloyat hokimining tovarlarning ayrim turlari savdosini tartibga solish chora tadbirlari to‘g‘risida, avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash bo‘yicha pulli xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar faoliyatini tartibga solish chora tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlari shular jumlasidandir ***[5]***.

Ikkinchi guruhni arxiv hujjatlari tashkil etib ***[6]***, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Farg’ona viloyati arxiv fondlarida, “Bozorlar uyushmasi”ning joriy arxiv fondlarida saqlanayotgan hujjatlarni kiritishimiz mumkin. Bu ma’lumotlardan bozorlarning boshqaruvi faoliyati, ulardagi muammo va kamchiliklar, shuningdek ichki va tashqi savdoni qanday tartibda solib turilishi haqida ma’lumotlar olishimiz mumkin. Bozorlar faoliyati, bozorlar moddiy texnika bazasi, patta to‘lovi, ijara haqi va turlari, avtoturargohlar masalasi, rastalar boshqaruvi, sanitariya nazorati, transport vositalari haqida malumot olishimiz mumkin. Mavzuni tadqiq etish jarayonida arxiv materiallari qiyosiy tahlil natijalar asosida nazariy va amaliy xulosalarga kelindi.

Uchinchi guruh manbalariga 1991-2022 yillarda chop etilgan statistik ma’lumotlar va hujjatlar to‘plamlarni kiritgan holda, bu hujjatlarda O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘yicha savdoning yillar kesimidagi statistik tahlili, tashqi savdo aylanmasi, Farg’ona viloyatida amalga oshirilgan chakana savdo‘tovar aylanmasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud. 1991-2022 yillarda chop etilgan statistik ma’lumotlar va hujjatlar to‘plamlaridan eksport-import jarayonlari haqida, chakana savdo‘tovar aylanmasi va uning tarkibi haqida ma’lumotlar mavjud.

To‘rtinchi guruh manbalariga 1991-2022 yillarda matbuot va internet materiallari kiritgan holda, bu ma’lumotlardan O‘zbekiston xududidagi, xususan Farg‘ona , Marg‘ilon, Qo‘qon bozorlar faoliyati bilan bog‘liq holda aholi hayotida ro‘y bergan o‘zgarishlar, qulayliklar shu bilan birgalikda muammolar ham batafsil

yoritilib borilganligini ko‘rishimiz mumkin. 1991-2022 yillarda nashr etilgan matbuot va internet materiallari kiradi. Bir qancha gazeta va jurnallar sahifalarida Farg‘ona , Marg‘ilon, Qo‘qon bozorlar faoliyatini yorituvchi maqolalar chop etilgan bo‘lib ***[7]***, shulardan sahifalarida Farg‘ona , Marg‘ilon, Qo‘qon joylashgan bozorlarning nazorati haqida, “Xalq so‘zi” ***[8]*** sanitariya holatlarini, “Ishonch” ***[9]*** gazetasida korrupsiya holatlari, “O‘zbekiston ovozi”, savdo madaniyati, dehqon bozorlaridagi olib sotarlar tanqidi, “Marifat” ***[10]*** gazetasida esa bozor va bozor odobi, bozordagi bolalarningi talim tarbiyasi muammolari, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” ***[11]***, “Savdogar” ***[12]***, “Biznes daily”, “Istemolchi”, “Postda”, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot qo‘mitasining oylik ijtimoiy iqtisodiy nashri “Hayot va iqtisod”, “Iqtisodiy xisobot” sahifalarida bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida aholi turmushidagi o‘zgarishlar yoritilgan, “Sharq prestij” ***[13]*** haftanomasi, “Soliq to‘lovchining jurnali”, “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi”, “O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi”, “Fan va turmush”, “Soliqlar va bojxona xabarlari”, “Uzbekistan contact”, “Iqtisodiyot va talim”, “Menejment va marketing” sahifalarida turmushimiz ko‘zgusi bo‘lgan bozorlarning qaynoq hayoti yoritilib borilganligi, shu kabi ma’lumotlar mavzuni yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Beshinchi guruh manbalariga esa og‘zaki tarix usullaridan foydalanilgan holda respondentlar bilan suhbat natijalarini kiritish mumkin. Ushbu suhbatlarda savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarning tajribalari va faoliyati haqidagi ma’lumotlar yozib olingan. Og‘zaki tarix usullaridan foydalanilgan holda respondentlar bilan suhbat natijalarini kiritish mumkin. Savdo faoliyati bilan shug‘ullanib kelgan respondenlarning bergan malumotlari savdodagi qiyinchiliklarga qaramay bu faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarning ko‘pligining sababi, qanday mahsulot turlari bilan ko‘proq savdo qilishlari va uning sababi, savdo faoliyatini amalga oshirishda har qanday duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va hodisalar yoritilgan. Ba’zi respondentlar oilaviy ko‘rinishda savdo qilish qulayligini ta’kidlasalar ***[14]***, ayrimlari oila a’zolarini

aralashtirmaslikni ma’qul ko‘rishgan ***[15]***. Buning sabablarini esa turlicha izohlashgan. Savdoda aralash mahsulotlar bilan savdo qilishdan ko‘ra ayrim mahsulotlar savdosiga ihtisoslashuvni maqul ko‘ruvchilar ham ko‘pchilikni tashkil qilgan.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin-ki, bozorlar aholi hayotining ajralmas qismi bo‘lib, jamiyat rivojlangani sari bozorlar ham uzviy bog‘langan holda taraqqiy etib borgan. Xususan, Farg‘ona , Marg‘ilon, Qo‘qon bozorlari asriy an’analarni o‘zida saqlagan holda savdo-sotiq jarayonlarida o‘z o‘rnini yo’qotmay kelayotgan bozorlar sirasiga kiritishimiz mumkin. Shuningdek barcha manbaa guruhlarini taqqoslanganida bir birini to‘ldiruvchi xarakterga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, arxiv xujjatlarida bozorlar faoliyatidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etilishi chora tadbirlarini ko‘rsak, davriy matbuot sahifalarida ham o‘sha muammolar ko‘tarilgan tanqidiy maqolalarni kuzatish mumkin.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozorlar faoliyatini tashkil etishni va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari – Toshkent.: Adolat, 1995. – B.82. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991. № 4. 60-modda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ulgurji va birja savdosini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari 2000-2001. – Toshkent.: Adolat, 2002.).

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublikada savdoni erkinlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Savdo va xizmat ko‘rsatish ob’ektlarining ular joylashgan er maydonlari bilan birgalikda hamda er maydonlarini meros qilib qoldirish sharti bilan umrbod egalik qilish uchun xususiy mulk sifatida sotish

tartibi to‘g‘risida”gi 1995 yil 11 apreldagi 126-son Qarori // O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to‘plami. 1995. № 4. 15-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bozorlarda sifatsiz oziq-ovqat tovarlari sotilishini bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 378-sonli Qarori // O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to‘plami. 1998. № 9. 32-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Vino-aroq mahsulotlarini ulgurji va chakana sotishni tartibga solish to‘g‘risida”gi 452-sonli Qarori // O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to‘plami. 2001. - № 22-24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2005 yil 5 noyabr 242-sonli qarori // “O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami”, 2005. № 43-44. 331-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Iste’mol tovarlari ulgurji savdosi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 52 sonli Qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2006. № 12-13. 106-modda. Bozorlar faoliyatini takomillashtirish va maxsulotlar sotish uchun zarur shart sharoitlar yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22-iyun qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni // Xalq so‘zi. 2018 yil 31 oktyabr. № 225 (7183).

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 343-sonli “Eksport import operatsiyalarini tartibga keltirish borasida qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori. Toshkent, 1995 yil 25-avgust. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 485-sonli “Tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish, O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va himoya qilish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori. Toshkent 1991 yil 24-oktyabr. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 389-sonli “Import bojlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent. 1995 yil 7 oktyabr. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 287-sonli “Tashqi iqtisodiy faoliyatni

yanada chuqurlashtirish va takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori. Toshkent, 1995 yil 25-iyul. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Importni tariflar bilan boshqarish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi 80-sonli Qarori. 1998 yil 24 fevral. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 219-sonli “Eksportga mahsulotlarni chiqarishni erkinlashtirishning qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent, 1996 yil 18-iyun. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport-import operatsiyalarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-26-sonli Qarori. 2005 yil 11 mart. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Eksport import operatsiyalarini tartibga solish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-183-sonli Qarori. 2005 yil 19 sentyabr. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Importni tariflar bilan boshqarish chora tadbirlar to‘g‘risida” gi 80-sonli Qarori. Toshkent, 1998 yil 24-fevral. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 137-sonli Qarori. 1998 yil 31 mart. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 66-sonli Qarori. 2001 yil 2 fevral. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi hududiga jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni olib kelinishini tartibga solish to‘g‘risida”gi 154-sonli Qarori. 2002 yil 6 may. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Import bojxona bojlarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 189-sonli Qarori. 2002 yil 31 may. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Boj tarifi orqali tartibga solishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi 4-sonli Qarori. 2004 yil 7 yanvar.

5. Farg‘ona viloyat davlat arxivi (FVDA):

FVDA. 1220-fond, 1-Ro‘yxat, 6-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 2-Ro‘yxat, 72-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 2-Ro‘yxat, 168-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 1-Ro‘yxat, 5-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 2-Ro‘yxat, 75-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 1-Ro‘yxat, 60-yig‘ma jild.

FVDA. 4141-fond, 2-Ro‘yxat, 164-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 2-Ro‘yxat, 66-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 1-Ro‘yxat, 115-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 1-Ro‘yxat, 62-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 2-Ro‘yxat, 153-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 2-Ro‘yxat, 155-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 2-Ro‘yxat, 59-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 2-Ro‘yxat, 161-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 4-Ro‘yxat, 76-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 3-Ro‘yxat, 10-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 4-Ro‘yxat, 81-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 1-Ro‘yxat, 116-yig‘ma jild.

FVDA. 1220-fond, 2-Ro‘yxat, 63-yig‘ma jild.

6. “Farg‘ona viloyati bozorlar uyushmasi”ning joriy arxivi fondi.

7. Ishonch // Xaridor nega xafa? yoxud olibsotarlik ishbilarmonlikmi. 1997 yil 20 mart. № 33. 4-bet).

8. Karim Bahriev. El tafakkuridagi bozor. Xalq hikmatlarida mulk masalalari // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 1995 yil 13 yanvar, № 2 (3289) 2-bet).

9. Bozor va bozorchi odobi // Ma’rifat. 1996 yil 3 fevral. № 9 (6706). 4-bet).

10. Xalq so‘zi // Bozor. Nega xaridorga beryapti ozor? 1996 yil 28 dekabr. № 263-264. 6-bet.

11. Шарқ Пресстиж // Сифатсиз маҳсулотга йо‘л йо‘q. 1998 йил. № 6 (58). 3-бет. (Sharq Presstij // Sifatsiz mahsulotga yo‘l yo‘q. 1998 yil. № 6 (58). 3-bet.).

12. Og‘zaki tarix ma’lumotlari.

13. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

14. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

15. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

16. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

17. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

18. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

19. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

20. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA

FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

21. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

22. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

23. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

24. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

25. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

26. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

27. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

28. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

29. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

30. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

31. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

32. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

33. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

34. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

35. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

36. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

37. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

38. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

39. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

40. Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

41. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

FARG‘ONA VODIYSIDAGI ZAMONAVIY MILLATLARARO MUNOSABATLARGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLAR

Raxmonali Begalievich Bekmirzayev

Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysidagi millatlararo munosabatlarga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ko‘rib chiqiladi va ularning mintaqaviy xavfsizlikdagi roli baholanadi.*

Kalit so‘z va iboralar : *Farg‘ona vodiysi, millatlararo munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, yer resurslarining cheklanganligi, suv resurslariga talabning ortishi, iqtisodiy o‘sish suratlaridagi farqlar.*

Annotation: *This article examines socio-economic factors affecting inter-ethnic relations in the Fergana Valley and evaluates their role in regional security.*

Key words and phrases: *Ferghana Valley, inter-ethnic relations, socio-economic factors, limited land resources, increased demand for water resources, differences in the picture of economic growth.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются социально-экономические факторы, влияющие на межэтнические отношения в Ферганской долине, и оценивается их роль в региональной безопасности.*

Ключевые слова и фразы: *Ферганская долина, межэтнические отношения, социально-экономические факторы, ограниченность земельных ресурсов, повышенный спрос на водные ресурсы, различия в картине экономического роста.*

Oxirgi yillarda xorijlik tadqiqotchilarning Farg‘ona vodiysiga qiziqishlari ortib bormoqda va bu hududni Markaziy Osiyoning “porox solingan bochkasi” deb izohlashmoqda. Farg‘ona vodiysi nafaqat o‘zining geografik o‘rni va tabiiy xususiyatlari, balki o‘ziga xos madaniyat va aholining etnik tarkibi mavjudligi bilan ham O‘rta Osiyoning o‘ziga xos hududi hisoblanadi. Vodiy hududi shimolda, shimoli-sharqda va janubda tog' tizmalari bilan o'ralgan. Bunday tabiiy izolyatsiya

ko‘p jihatdan mintaqada alohida xo‘jalik faoliyatining, xususan, vodiydan o‘tgan savdo karvonlarining, alohida ijtimoiy muhitning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Binobarin, tabiiy to'siqlar tufayli vodiy qo‘shni hududlarga nisbatan nisbatan tinch joy bo'lib, turmush darajasi boshqa hududlarga qaraganda birmuncha yuqori bo‘lgan, bularning barchasi migratsiya jarayonlarining hal qiluvchi sababi bo‘lgan.

Qulay tabiiy sharoitlar Farg‘ona vodiysida aholi zichligi Markaziy Osiyo mintaqasining boshqa hududlariga nisbatan yuqori bo'lishiga olib keldi (1 kv.km ga 360 kishi). Farg‘ona vodiysida aholi zichligi Qirg'izistonga nisbatan 12 barobar, Qozog'istonga qaraganda 56 barobar ko‘p **[1]**.

Farg‘ona vodiysi hududi uchta respublika o‘rtasida milliy hududiy chegaralanishlar oqibatida taqsimlangan: markaziy viloyatlar O‘zbekistonga tegishli va aynan shu yerda respublika aholisining uchdan bir qismi yashaydi, qolgan ikki “chegara” yo‘nalishi bo‘yicha mos ravishda tojiklar (shuningdek, Farg‘ona vodiysida aholining uchdan bir qismi) va qirg‘izlar (mamlakat aholisining qariyb yarmi). Bundan tashqari, aholining demografik o'sish sur'ati juda yuqori bo‘lib, yillik 2 foizdan dan ortiq **[2]**. BMT tahlilchilariga ko‘ra, 21- asr oxiriga kelib Markaziy Osiyoda “demografik sakrash” kutilmoqda.

Shunday qilib, demografik vaziyat Farg‘ona vodiysining cheklangan resurslari va boshqa muammolari sharoitida vaziyatni og‘irlashtirib yuborishi mumkin deb muhokama qilinmoqda, bu esa Tojikiston, O‘zbekiston va Qirg'izistonda ziddiyatlar salohiyatini oshiradi va bu hududdan tashqariga ham chiqishi mumkin. Aholi zichligi, o‘z navbatida, resurslarning yetishmasligiga, ekin maydonlari, yaylovlar va suv resurslarining cheklanishiga olib keladi: chunki aholining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi bilan shug'ullanadi. Shu nuqtai nazardan, mabjud rasmiy davlatlar o‘rtasidagi suv resurslari bilan bog‘liq masalalar dolzarb ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz.

Aholi zichligi ham ishsizlikka sababi bo'lishi mumkin, bu mehnat migratsiyasi natijasida mintaqada nizolar darajasining oshishi kabi hodisalarni keltirib chiqaradi. Farg‘ona vodiysida kambag'allik chegarasida yashovchi

aholining ulushi 40 foizga etadi**[3]**. Buni aholining mintaqadagi xorijiy mehnat migratsiyasiga chiqib ketishining yuqori sur’ati ham tasdiqlaydi.

Farg‘ona vodiysidagi demografik vaziyatning yana bir xavfli oqibati aholining asosiy qismini 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishi, albatta, keskin qarama-qarshiliklarning sabablaridan biri hisoblanadi. “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” asarida Semyuel Xantington, “yoshlar norozilik, beqarorlik, islohot va inqilob timsoli”, deb bejiz ta’kidlamaganligini tushunib yetish qiyin emas. Migratsiya va ishsizlik sharq jamiyati uchun ilgari xos bo‘lmagan muammolarning – ajralishlar sonining ko‘payishi, to‘liq bo‘lmagan oilalar, migratsiya oqimida jinslar bo‘yicha nomutanosiblik paydo bo‘lishining sabablariga aylanadi **[4]**

Farg‘ona vodiysining yana bir muammosi ko‘chish bilan bog‘liq ekspansiya (ползучая экспансия) kabi hodisaning paydo bo'lishi edi. Bu hodisa mintaqadagi etnik vaziyatning o‘zgarishini aks ettiradi, masalan, etnik tojiklar va Tojikiston Respublikasi fuqarolari qirg'iz qishloqlariga ko‘chib o‘tganda, ya'ni boshqa davlat aholisi yashaydigan hududlar paydo bo'lib, mahalliy aholidan etnik kelib chiqishi bilan farqlanadi.

Shuningdek, ijtimoiy tuzum muammolari hududda yashovchi xalqlarning turmush tarzidagi farqlarni o‘z ichiga olishi kerak. Farg‘ona vodiysi aholisining etnik tarkibi juda xilma-xildir. Albatta, har bir xalqning o‘z madaniyati, tili bor. Masalan, tojiklar eroniyzabon aholi bo‘lib, shuning uchun turkiyzabon xalqlar sifatida o‘zbek va qirg‘izlardan farq qiladi. Shu bilan birga, qirg‘izlar va o‘zbeklarning turmush tarzida ham farq bor, ular turli darajada islomlashgan, biri o‘troq, ikkinchisi ko’shmanchi hayot tarziga moslashgan xarakterga egadir.

Farg‘ona vodiysidagi nizolarning keskinlashuviga diniy omilning ta’sirini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. So‘nggi 20-30 yil ichida sovet davridagi ateistik kayfiyatdan keyin aholining islomlashuvining yangi to‘lqini yuz berdi. Aholi o‘rtasida islomiy an’analar va islom davlatini barpo etish g‘oyalari paydo bo‘lmoqda**[5]**. Bu 80-yillarda tasvirlangan ikkinchi avlodning

indigenizatsiyalashtirish deb ataladigan ko'rinishlaridan biridir. XX asrda ingliz sotsiologi Ronald Dor Yaponiyada xuddi shunday hodisani o‘rganib chiqqan. S.Hantington “XX asrning saksoninchi va to‘qsoninchi yillarida g‘arbdan tashqari dunyoda indigenizatsiya masalasi kun tartibida bo‘lganini” qayd etadi.

Ikkinchi avlodning indigenizatsiyalashishi (bu holda, bu ko‘p yillik sovetlashtirishga javobtariqasida) o‘z madaniyatiga qaytishda, masalan, dunyoviy hayot tarzida tashqaridan kiritilgan ma'lum bir madaniy ko‘rinish sifatida namoyon bo‘lganlarning o'rniga diniy-milliy qiyofaga yo‘naltirish, ilgari unutilgan an'analarga qaytish demakdir. Bu ko‘pincha jamiyat ichida ham, dunyoviy turmush tarzini va o‘z qadriyatlarini joriy etgan tashqi sub'ektlar bilan munosabatlarda ziddiyatlarga olib keladi.

Avval aytib o‘tganimizdek, Farg‘ona vodiysi aholisining asosiy qismi dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Viloyat aholisining haddan tashqari ko‘pligi tufayli esa yer resurslarining keskin tanqisligi kuzatilmoqda. SSSR parchalanishi bilan mintaqaning ko‘p qismida mashhur bo‘lgan sanoat ishlab chiqarish darajasi keskin pasayib ketdi. Iqtisodiy sohadagi qarama-qarshiliklar yashirin iqtisodiyot va korruptsiya kabi jiddiy muammolar bilan ham bog‘liqdir. Masalan, Qora-Suv (Qirg'iziston) shahridagi bozor qadimdan Buyuk Ipak yo‘lining savdo yo‘lida qulay iqtisodiy mavqega ega bo'lib, hozirda mintaqadagi eng yirik savdo bazasi hisoblanadi. Bu shahar orqali muhim yo‘l arteriyalari o‘tadi: Bishkek — O‘sh — Urumchi avtomobil yo‘li va Jalolobod — Andijon temir yo‘li. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, oylik bozor aylanmasi 200 million dollardan ortiq, norasmiy ma'lumotlarga ko'ra (soya bozor aylanmasi) esa ikki barobar ko‘pdir.**[**6**]** Tojikistonda so‘nggi yillarda sanoati rivojlangan “Shimol” va agrar “Janub” o‘rtasida ichki iqtisodiy “ziddiyat” yuzaga kelgan. Sovet hokimiyati yillarida vodiyda yaratilgan barcha sanoat korxonalari asosan O‘zbekiston hududida joylashtirilgan. Bu bir tomondan, vodiyning hukmron doiralaridagi o‘zgarishlar va hokimiyatlarning etnik-mintaqaviy elitalar o‘rtasida qayta taqsimlanishi bilan

bog‘liq bo‘lgan siyosiy –iqtisodiy boshqaruv bilan bog‘liq muammolarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Yuqorida aytilganlarning barchasidan Farg‘ona vodiysida iqtisodiy izolyatsiya qilish tendentsiyasi emas, balki ushbu hududda erkin iqtisodiy zona tashkil etish bo‘yicha takliflar mintaqadagi barcha davlatlarning istiqboli uchun foydali ekanligini haqida xulosa chiqarish mumkin **[7].**

Turkiston jadidlari islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni, taraqqiyot va rivojlanishga faqat tinchlik yo‘li bilan, parlament orqali erishishni mo‘ljallagan edilar. 1917-yildagi voqealar jarayoni, jadidchilik harakatining yirik nazariyotchisi Abdurauf Fitrat o‘sha paytda yozganidek, «Rusiyada bosh ko‘targan yangi bir balo – bolshevik balosi» kuchlar nisbatini butunlay o‘zgartirib yubordi. O‘zbek xalqining boshqa bir fidoyi farzandi Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan o‘rtaga tashlangan «Haq olinur, berilmas!» shiori butun millatning jangovar chaqirig‘iga aylandi. Fevral inqilobi Turkiston o‘lkasi musulmon aholisini siyosiy jihatdan uyg‘otishda, demokratik o‘zgarishlarga boshchilik qilmoqchi bo‘lgan yangi kuchlarning siyosat maydoniga chiqishida muhim ahamiyat kasb etdi. Jadidlar vujudga kelayotgan milliy demokratik kuchlarning o‘zagi bo‘lishdi. Ular mintaqa tub xalqlarining taraqqiyot va mustaqillik to‘g‘risidagi o‘z g‘oyalarini

Fevral inqilobi g‘oyalari bilan bog‘lab, o‘zlari e’lon qilgan tamoyillarni amalga oshirishga faol kirishdi. 1917-yil fevral oyida Rossiya imperiyasi markazida yuz bergan davlat to‘ntarishi oqibatida 15-mart kuni Nikolay II taxtdan voz kechadi ***[1:366].*** Hokimiyat boshqaruviga Muvaqqat hukumat keldi. Shu tariqa, mazkur davlatda imperiya hukmronligiga chek qo‘yildi. Ushbu keskin siyosiy o‘zgarish qaram o‘lkalar hayotiga ham ta’sir o‘tkazishi tabiiy edi. Turkiston bo‘ylab har bir shahar, uyezd, volost va qishloqda eski ma’muriyat idoralari Muvaqqat hukumat tomonidan tugatilib, o‘rniga jamoat tashkilotlari ijroiya qo‘mitalari, ya’ni jamoat xavfsizligi deb nomlangan qo‘mitalar tashkil topa boshladi ***[2:18-19].***

1916-yil 13-15-dekabrda tor doirada yopiq kengash bo‘lib o‘tadi. Ushbu muhokamada turkistonliklar ishtirok etmagan. Muhokamada 1916 yil 25-iyunda imzolangan mardikorlikka safarbarlik haqidagi farmoni Rossiya Imperiyasining asosiy qonunlariga zid holda qabul qilinganini ko‘rsatib o‘tadilar. Bunday qonunbuzarlik haqida deputat Jafarov ta’kidlagan quyidagi fikrlar mustabid hukumatining Turkistonga nisbatan munosabatini ko‘rsatuvchi ma’lumot sifatida alohida ahamiyatga ega: “Men shuni qayd etmoqchimanki, qirg‘iz, sart, turkmenlarga kelganda, qonun hamisha e’tiborga olinmaydi. Hamma narsaga hokimiyat kuchi bilan erishiladi, buning uchun ma’murlar, mirshablardan iborat katta kuch mavjud**”** ***[2:11-12].***

1917-yil oktabrda davlat to‘ntarishi yo‘li bilan hokimiyatga kelgan Vladimir Lenin va bolsheviklar keyingi bir necha yil davomida keng tarqalgan xalq muxolifatiga qarshi o‘z hukmronligini saqlab qolish uchun kurashdilar. Ular muvaqqat demokratik hukumatni ag‘darib tashladilar va xalqning siyosatda ishtirok etishining har qanday shakliga tabiatan dushman edilar. Inqilobiy maqsad yo‘lida ular haqiqiy yoki taxmin qilingan siyosiy dushmanlarni bostirishning shafqatsiz usullarini qo‘lladilar ***[1:365].***

Rossiya imperiyasi urushdan chiqqanidan keyin jadidlar parlamentar monarxiya uchun kurashgan bo‘lsalar, fevral voqealaridan keyin ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdilar. Jumladan, mahalliy aholi

huquqlarini kengaytirish, o‘lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o‘tkazish, Davlat Dumasida o‘lka aholisi sonidan kelib chiqib o‘rin ajratish, milliy matbuot erkinligini ta’minlash kabilar. Ayni vaqtda, milliy-siyosiy partiyalar va tashkilotlar, masalan, «Sho‘royi islomiya», «Ittifoq» kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining barcha qatlam vakillarini o‘z ortidan ergashtira oldilar. Turkistonda jadidlar faoliyati mahalliy aholining ma’rifatiga, ularda milliy o‘zlikni anglashning kuchayishiga, ozodlik uchun kurashlarning ko‘tarilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Jadidchilik harakati o‘lkada imperiya hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi turuvchi asosiy ma’naviy kuch sifatida namoyon bo‘ldi. Yangi tashkil etilgan Kommunistik partiya diktaturasining o‘zagini tashkil etgan kichik, elita bolshevik inqilobchilar guruhi dekretlar bilan boshqarildi, terror bilan amalga oshirildi.

Qattiq markazlashtirish an’anasi, qarorlar qabul qilish eng yuqori partiya darajasida to‘plangan, Iosif Stalin davrida yangi o'lchovlarga erishdi. Ushbu arxiv hujjatlarining ko‘pchiligidan ko'rinib turibdiki, pastdan oz narsa kiritilgan. Partiya elitasi davlatning maqsadlari va ularga erishish yo‘llarini xalqdan deyarli to‘liq ajratilgan holda aniqladi. Ular muqaddas ijtimoiy vazifani ilgari surayotgan davlat manfaatlariga shaxs manfaatlarini qurbon qilish kerak, deb hisoblardi. Stalinning "yuqoridan inqilob" sotsializmni majburiy kollektivlashtirish va sanoatlashtirish, odamlarning ulkan azob-uqubatlari va hayotini yo‘qotishga olib kelgan dasturlari orqali qurishga intildi.

1917-yilning mart oyida tashkil topgan «Sho‘royi islomiya» tashkilotiga Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarlik qildi. Undan 1917-yilning iyun oyida «Sho‘royi ulamo» va 1917-yilning iyul oyida «Turk adami markaziyat firqasi» («Turkiston federalistlar partiyasi») ajralib chiqqan edi. Mazkur harakatlar Turkiston manfaatlarini himoya qilishni o‘z maqsadi deb bilgan tarqoq milliy siyosiy kuchlarni jipslashtirish uchun qilingan ilk urinishlardan biri edi. «Sho‘royi islomiya» tashabbusi bilan Toshkentda 1917-yil 16-23-aprel kunlari Butunturkiston musulmonlarining birinchi o‘lka qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Unda butun

Turkistondan 150 ga yaqin delegat to‘plandi. 20 ga yaqin masalani ko‘rib chiqqan qurultoy o‘lkada mustamlakachilikni tugatish va musodara qilingan yerlarni mahalliy aholiga qaytarish bo‘yicha qaror qabul qilgan. Mazkur yig‘ilishda Turkistonda musulmonlar Markaziy Sho‘rosini ta’sis etishga ham kelishilgan. Bu qaror keyinchalik Milliy markaz shaklida amalga oshirildi ***[2:17-18].***

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakat (1916-1943) – O‘rta Osiyo xalqlarining bolsheviklar hukmronligi va bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan kurashi (1918-1943). Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatlar – O‘rta Osiyodagi milliy ozodlik harakati tarixida alohida bosqich bo‘lib, kurash ko‘lami va shiddati uning murakkab va ziddiyatli ekanligi bilan ajralib turadi. Turkiy xalqlarning milliy ozodlik harakatiga sabab iqtisodiy inqirozlar va xalqqa qarshi qonunlar edi.

Bu harakat o‘z jug‘rofiy doirasiga ko‘ra, 3 hududga bo‘linadi: Turkiston ASSR, Buxoro Respublikasi va Xorazm Respublikasi hududlari. U keyinchalik O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston SSRda ham davom etdi. Qurolli kurash o‘z rivojlanish jarayoniga ko‘ra, 2 davrni bosib o‘tdi: 1918-24 va 1925-1935-yillar.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatlarning 1davri, dastlabki qurolli guruxlarning tashkil topishi Kichik Ergash va Katta Ergashning nomlari bilan uzviy bog‘liqdir. Turkiston muxtoriyati hukumati qo‘shiniga boshchilik qilgan Kichik Ergash. 1918-yil 19— 21-fevralda Qo‘qon shahrida bo‘lgan urush natijasida mag‘lubiyatga uchrab, Qo‘qon uyezdidagi Bachqir qishlog‘iga chekindi.

26-fevralda Bachqirga qizil gvardiyachilar va arman dashnoqlarining 5 ta otryadi hujum qildi.

27-fevralda bo‘lgan janglarning birida Kichik Ergash halok bo‘lgach, Katta Ergash Farg‘ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi kurash boshladi. Tez orada harakat butun Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyati hududlariga tarqaldi.

Turkistonda sovet rejimiga qarshi qurolli harakatlarning bosh sababi bolsheviklarning o‘lkada yuritgan mustamlakachilik va shovinistik siyosati bo‘ldi.

Bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan dastlabki sotsialistik tadbirlar (korxonalarning davlat ixtiyoriga o‘tkazilishi, xususiy mulkning tugatilishi, oziq-ovqat taqsimoti va g‘alla monopoliyasi, islom dinining cheklanishi va ateizm targ‘iboti, masjid, madrasa, xususiy maktab va qozixonalarning bekitilishi, vaqf yerlarning tortib olinishi, majburiy mehnatning joriy qilinishi, bozorlarning yopilishi va boshqalar) hamda qizil armiya jangchilarining talonchilik va bosqinchilik siyosati harakatga alohida keskinlik va ko‘lam bag‘ishladi. Bu hodisalar kurashning tobora kengayishi va rivojlanishiga olib keldi.

Qurolli kurash o‘zining harakatlantiruvchi kuchlari (dehqonlar, chorakorlar, hunarmandlar, kosiblar va mardikorlar, to‘q badavlat oilalarning vakillari - savdogarlar, boylar hamda ulamolar) va tashkiliy tuzilishi jihatidan ham aholining barcha guruxlari va ijtimoiy qatlamlarini o‘ziga qamrab olgan harakat hisoblanadi.

Kurashchilarning milliy tarkibi, asosan, tub joylik aholi - o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qirg‘izlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qisman uyg‘urlardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, ruslar va Validiy tomonidan yuborilgan ayrim boshqird va tatar harbiylari, Turkiya va Afg‘onistondan kelgan oz miqdordagi zobitlar ham bor edi. Madaminbek qo‘shinlari bilan Jalolobodda turgan K.Monstrovning krest’yanlar armiyasi o‘rtasida sovet rejimi va qizil armiyaga qarshi birgalikda kurashish uchun o‘zaro bitim tuzilgan (1919.02.09.).

Qizil askarlar tomonidan bosqinchilik va talonchiliklarning kuchayishi ularga qarshi harakatni yanada kuchaytirdi va kurashchilar safiga muntazam ravishda askarlar (yigitlar) qo‘shilib turdi va yangidan yangi guruhlar tashkil topdi.

Validiyning Turkistonga kelishi va kurash maydoniga chiqishi “Turkiston milliy birligi” tashkilotining qaror topishi (1921.02.08) bilan janglar butun mintaqada avj olib ketdi. Boshqa yashirin milliy tashkilotlar (“Milliy ittihod”, “Milliy istiqlol”) ham tuzilib, ular harakatni faol qo‘llab-quvvatlashdi.

Turkiston jamiyatida o‘sha paytda yetakchi mavqega ega bo‘lgan ulamolar ham harakat mafkurasini tayyorlashda muayyan darajada xizmat qildilar. Ammo

harakat ayrim mutaassib ruhoniylarning amallari oqibatida ko‘pgina hollarda faqat islom g‘oyalariga singib ketdi va shu bilan cheklanib qoldi ***[3:280].***

1918-yil o‘rtalarida Farg‘ona vodiysida Qizil Armiya bo'linmalariga qarshi kurash otryadlariga 100 ga yaqin kurbachi boshchilik qildi. Lekin Sovet hukumatining rasmiy hujjatlarida soxtalashtirilgan, aslida esa milliy miqyosda

- ozodlik harakati uni noto‘g‘ri "bosmachi" deb atashgan harakat va uning a'zolari

"Bosmachilar" degan edi K.Otaboyev ***[2:29].***

Xorazm vohasida bolsheviklar, qizil armiya kuchlariga qarshi qurolli kurash 1918-yil o‘rtalarida boshlanib ketgan edi. Tajovuzkor kuchlar Petro-Aleksandrovsk (hozirgi To‘rtko‘l)ni Xiva xonligiga qarshi hujum bazasiga aylantira boshladilar. Chorjo‘ydan Amudaryo orqali harbiy kuchlar keltirildi. Xorazmning o‘ng qirg‘oq hududi XIX asrning 70-yillarida podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinib, harbiy istehkomga aylantirilgan edi. Qizil qo‘shinlarning Xorazm va Buxoro mamlakatlari hududlariga tajovuzkorlik bilan bostirib kirishlari davomida qilgan talonchiliklari, zo‘rliklari, qon to‘kishlari ommaviy noroziliklarni keltirib chiqargan asosiy sabablardan bo‘ldi. Bu beboshliklar keyingi davrlarda ham davom etdi. Tajovuzkor. qo‘shinlarga buyruq bergan, qo‘mondonlik qilgan, respublikalar hududlarida qizil askarlar garnizonlarini joylashtirib, ularga tayanib ish yuritgan bolsheviklar, harbiylar xalq boyliklari, mol-mulkini tortib olish, odamlarni qatag‘on qilish, inqilobiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish, milliy qadriyatlarni oyoqosti qilishga boshchilik qildilar. Bu qizil armiyaga qarshi harakatning kengayib, ommaviy tus olishiga olib keldi. Harakatda yerli aholining deyarli barcha qatlamlari, birinchi navbatda dehqonlar qatnashdilar. Bu hol harakat boshliqlari, ularga kelib qo‘shilganlarning turli tabaqalarga mansub bo‘lgani, noroziliklar, qahr-g‘azab, murosasiz janglarga shaylanganlar doiralari ko’lamining nechog’lik keng, o‘tkir, shiddatli bo‘lganidan dalolat beradi.

Buxoro respublikasida tajovuzkorlarga qarshi qurolli kurash. Qizil armiyaga qarshi kurash olib borgan guruhlar, shahar va tumanlarda ko‘tarilgan

qo‘zg‘olonlar Buxoro respublikasining barcha - g‘arbiy, markaziy, sharqiy qismlarida boshlanib, ommaviy tus oldi. 1920-yil avgust oyining oxirgi kunida poytaxt Buxorodan ketgan amir Olimxon Sharqiy Buxoroga kelib, katta kuchlar to‘pladi, ularning soni 12 ming, keyinroq 25 ming kishiga etdi, qizil qo‘shinlarga qarshi janglar olib borildi.

Ibrohimbek (1889-1932), Davlatmandbek va boshqalar kurashga boshchilik qildilar. Jiddiy zarbalarga javoban qizil armiya qo‘mondonligi yangi-yangi qismlarni, ko‘plab qurol-aslahalarni etkazib kelib, ishga soldi ***[4:260].***

1921-yil boshida mag’lubiyatga uchragan amir Olimxon Afg’onistonga o‘tib ketdi. Shu yil oktabrida Turkiyaning sobiq harbiy vaziri Anvar Posho (1881- 1922) Buxoro shahriga kelib, biroz muddatdan so‘ng mamlakatning sharqiy qismiga jo‘naydi va sovetlarga qarshi kuchlarga qo‘shiladi. Anvar Poshoning harakatlari bilan Sharqiy Buxoroda birlashgan lashkar bunyod etildi va g‘arbcha qo‘mondonlik uslubi joriy qilindi. Anvar Posho 1922-yil yozida bo‘lgan janglardan birida Baljuvon tepaliklarida shahid bo‘ldi.

Mamlakatning markaziy va g‘arbiy viloyatlarida ham kurash shiddatli tus oldi. 1920-yil kuzida Boysun, Denov, Sherobod, Sariosiyoda qurolli guruhlar tuzilib, janglar boshlab yubordilar. Dekabrda Qarshi, Shahrisabz, Yakkabog‘, Kitob, Chiroqchida qo‘zg‘olonlar boshlandi, yangi hokimiyat, qizil askarlar garnizonlariga jiddiy talafotlar etkazildi. Bu joylarga ham qo‘shimcha qizil askar qismlari yuborildi ***[4:255].***

Qisqa muddat davomida Mulla Abdulqahhor (1884-1924) boshchiligidagi poytaxt Buxoro tumanlarida lashkar to‘plandi va jangovar harakatlar olib borildi. Shuningdek, Mulla Abdulqahhor rahbarligida Buxoro, Karmana va Nurotadagi o‘nlab guruhlar faoliyat ko‘rsatdi. Ularning katta armiyasi 1922-yil mart oyining boshida poytaxt Buxoro shahriga yurish qildi. Ular qizil askarlar bilan shahar atrofida bo‘lgan ikki kunlik shiddatli janglardan so‘ng Buxoro shahrining katta bir qismini egalladilar va bir necha soat mobaynida o‘z qo‘llarida tutib turdilar. So‘ngra shahar atrofidagi Bahouddin Naqshband ziyoratgohini egalladilar. Ammo

zudlik bilan etib kelgan ko‘p sonli qizil askarlar (ular orasida Budyonniyning otliq qo‘shini ham bor edi) bilan bo‘lgan jangda ular Buxoroi Sharif va Bahouddin ziyoratgohidan katta qurbonlar berib chekinishga majbur bo‘ldilar.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. Q, Rajabov ,B. Qandoq ,I.Shoymardonov, O.Normatov, Jahon tarixining muhim sanalari.https://www.ziyouz.com/kutubxona/category/22-tarixiy-kitoblar?download=5351:q-rajabov-b-qandoq-i-shoymardonov-o-normatov-jahon-tarixining-muhim-sanalari

2. D.Ziyayeva, Turkiston milliy ozodlik harakatlari. https://www.ziyouz.com/kutubxona/category/22-tarixiy-kitoblar?download=2668:dono-ziyoyeva-turkiston-milliy-ozodlik-harakati

3. R.H.Murtazayeva. “O‘zbekiston tarixi”. T., “O’AJBNT”, 2003, 380-bet.

4. Р.Шамсутдинов, Ш.Каримов. “Ватан тарихи”. 1-қисм. Т., “Шарқ”, 2010, 322-бет.

5. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

6. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

ЎЗБЕКИСТОН АССРДА XX АСРНИНГ 20 ЙИЛЛАРИДА САВОДСИЗЛИКНИ ТУГАТИШ БОРАСИДАГИ КАТТА ЁШДАГИЛАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ КАДРЛАР ВА МОДДИЙ ТАЪМИНОТ МАСАЛАЛАРИ

Аҳмедов Раҳмонжон Расулович

Қўқон ДПИ мустақил тадқиқотчи

Аннотатсия: *мазкур мақола Туркистон АССРда XX асрнинг 20- йиллари бошларида саводсизликни тугатиш ва ахолини ялпи 8 ёшдан 40 ёшгача саводхон қилиш*

бўйича катта ёшдаги кишиларни ўқитишда кадрлар масаласи ва моддий техник базаси борасидаги изланишлар натижалари киритилган.

Калит сўз ва иборалар: *саводсизликни тугатувчилар, маданий юриш, маданий инқилоб, совет одами, Туркистон АССР маориф ХКС.*

Аннотация: *в данную статью включены результаты исследования кадрового вопроса и материально-технической базы в сфере образования взрослых от 8 до 40 лет в Туркестанской АССР в начале 20-х годов 20 века.*

Ключевые слова и фразы: *ликвидаторы неграмотности, культурный марш, культурная революция, советский человек, образовательная ИКС Туркестанской АССР.*

Annotation: *this article includes the results of a study of the personnel issue and the material and technical base in the field of adult education from 8 to 40 years old in the Turkestan ASSR in the early 20s of the 20th century.*

Key words and phrases: *liquidators of illiteracy, cultural march, cultural revolution, Soviet people, educational IKS of the Turkestan ASSR.*

Совет мамлакатида 1920-йилларнинг иккинчи ярмида эълон қилинган саноатлаштириш жараёнида саводсиз ва чаласавод аҳолини ўқитиш тизими олдига ҳам улкан вазифалар қўйилган, бироқ бу вазифаларни бажариш имкониятлари анча чекланган эди. Яъни, бутун мамлакатда катта ёшдаги аҳоли ўртасидаги саводсизликни асосий вазифалари ёш авлодни тарбиялаш бўлган умумтаълим мактаблари ўқитувчилари ёрдамида бажариш имконсиз эди. Шунинг учун ҳам бу вазифани амалга ошириш бўйича таълим дастурига кенг омманинг шижоатига асосланган янги шакл ва усуллар жорий этилди.

Катта ёшдагилар таълимини ташкил этиш ва ўқитиш усулларини жорий этишда даставвал анъанавий таълим тизими ва усуллари (миллий мактаблар, жадид мактаблари)дан маълум даражада фойдаланилган бўлса-да, кейинчалик большевиклар мавкуравий ёндашуви нуқтаи назардан миллий маданият, таълим усулларидан воз кечила бошлади. Бу жараён катта ёшлилар таълим тизимида анъанавий тажрибага эга бўлган ўқитувчилар, жадид намояндалари ва умуман, миллий зиёлилардан фойдаланишдан чекинишда ҳам намоён бўлди. Чунки, миллий зиёлиларнинг қарашлари, таълим усуллари совет давлати ва коммунистик мафкура манфаатларига мос келмас эди.Зеро совет хокимияти туркистонда ахолини саводли килиш билан ьир каторда янги совет маданиятини ва янгича совет одамини шакллантиришни мақсад

қилган бу совет маданияти туб ерли ахолининг миллий маданиятига айрича холда бўлиши зарур еди. Шу боисдан ҳам, совет давлатида, жумладан Ўзбекистонда катта ёшдаги аҳолини саводли қилиш тизими XX асрнинг 20-йиллариданоқ ўқитувчи кадрлар борасида катта муаммоларга дуч келди.

1920 йилларда саводсиз ва чаласаводларни ўқитиш асосан умумтаълим мактабларида фаолият олиб бораётган ўқитувчилардан ўриндошлик асосида фойдаланиш орқали амалга оширилди. Лекин, бу йилларда кенг авж олдирилган умумий таълим тизими шароитида мавжуд ўқитувчилар ҳам умумтаълим мактабларида, ҳам саводсизликни тугатиш мактабларида фаолият олиб бориши учун етарли эмас эди.

Саводсизликни тугатиш тизимига саводсизликни тугатувчилар деб аталган, саводли, зиёли кишилар (айрим ҳолларда педагогик маълумотга эга бўлган) ҳам муайян иш ҳақи эвазига сафарбар этилган. Лекин бундай кишилар саводсизларни ўқитишда таълим беришнинг аниқ режа ва дастурларига эмас, ўзларининг билим ва тажрибаларига асосланиб иш кўрганлар. Шу сабабли ҳам уларнинг фаолиятида саводсиз кишиларни саводли қилишнинг аниқ муддати ҳам бўлмаган.

Саводсизликни тугатиш бўйича большевиклар томонидан қўйилган вазифаларни фақат ўриндош ўқитувчилар ва саводсизликни тугатувчилар ҳисобидан бажариш имконсиз эди. Шу сабабли, минимал ҳаражатлар эвазига катта сондаги аҳолини саводли қилишга қаратилган, “маданий юриш” (культпоход) доирасида кўнгилли фаолият олиб борувчи маданий армиячилар саводсизликни тугатиш кампаниясига кенг сафарбар қилинган.Бу ишлар яхши самара бермасдан курсларни тугатгон ўқувчилар тез орада ўқиш ва ёзишни эсдан чиқариб чала савод бўлиб қолганлар. Айни пайтда, катта ёшдаги аҳолини саводли қилиш учун фаолият кўрсатаётган саводсизликни тугатиш курслари ва мактаблари учун ўқитувчилар тайёрлайдиган қисқа муддатли курслар ташкил этиш тажрибаси Туркистон АССРда ҳам кенг йўлга қўйилди.

Туркистон АССРда умумтаълим мактаблари, айниқса, саводсизликни тугатиш мактаблари учун ўқитувчилар тақчиллигини эътиборга олган ҳолда, республика ҳукумати ўқитувчилар моддий таъминотига ҳам алоҳида эътибор қаратган. Совет ҳукуматининг совет ўқитувчилари моддий аҳволини яхшилаш борасидаги дастлабки чора-тадбирларидан бири РСФСР Халқ Комиссарлари Советининг 1918 йил январь ойида уларнинг иш ҳақларига бир марталик қўшимча белгилаш тўғрисидаги декрети бўлди. 1918 йил 22 июнда эса РСФСР ХКСнинг “Ўқитувчилар меҳнатига ҳақ тўлаш меъёри тўғрисида” декретига биноан бошланғич ва ўрта мактаблар ўқитувчилари учун меҳнат стажига кўра қўшимчаси бўлган қатъий иш ҳақи ставкаси жорий этилди. ТАССР Маориф Халқ Комиссарлигининг 1918 йил 5 октябрдаги буйруғи билан ўқитувчилар меҳнатига ҳақ тўлаш меъёрлари 1918 йил 1 сентябридан эътиборан жорий этилди. Шуни таъкидлаш керакки, Туркистон Республикасида ўқитувчиларга тўланадиган иш ҳақи миқдори Россия Федерациясидаги мактаб ўқитувчиларига нисбатан юқори бўлган.

Туркистон АССРда 1918 йил 28 октябрдан 1919 йил 6 февралгача халқ таълими эҳтиёжлари учун қуйидаги миқдорда маблағ ажратилган: Тошкент шаҳрига – 6 миллион сўм, Тошкент уездига – 400 минг сўм, Мирзачўл уездига – 200 минг сўм, Авлиёота уездига – 1 миллион 450 минг сўм, Туркистон уездига – 170 минг сўм, Самарқанд уездига – 900 минг сўм, Черняевский ва Казалинск уездига – 910 минг сўм, Наманган уездига – 170 минг сўм, Каттақўрғон уездига – 100 минг сўм, Янги Бухоро уездига – 100 минг сўм, Хўжанд уездига – 50 минг сўм, Жиззах уездига – 50 минг сўм, Ўратепа уездига – 50 минг сўм, Петроалександровск уездига – 30 минг сўм, Чоржўй уездига – 50 минг сўм, Скобелев уездига – 100 минг сўм, Ўш уездига – 25 минг сўм, “Санто” ҳунармандчилик саноатига – 10 минг сўм, Очарчиликка қарши кураш Марказий комитети раисига – 2 миллион сўм, Тошкент шаҳридаги Халқ таълими тасарруфидаги муассасалар таъминоти учун – 2 миллион 917 минг 741 сўм, нашриётга – 164 минг 935 сўм.

1920 йил ўрталарида Туркистон АССРда саводсизликни тугатиш мактаблари учун европалик ва тубжой миллат вакилларидан ўқитувчилар тайёрлайдиган 19 та ёзги қисқа муддатли курслар фаолият кўрсатар эди. Улардан 4 таси Самарқандда, 4 таси Верныйда, 7 таси Тошкентда, 2 таси Чимкентда, 1 таси Андижонда, 1 таси Мирзачўл уездининг Никольское қишлоғида ташкил этилган, бу курсларда жами1587 нафар (1344 нафари эркаклар, 243 нафари аёллар) тингловчи бўлган.

Эътиборли жиҳати шундаки, Туркистонда саводсизликни тугатиш кампанияси эълон қилинган илк даврларданоқ хотин-қизлардан ўқитувчилар тайёрлайдиган курслар ташкил этишга ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Масалан, Самарқанд уезд Халқ таълими бўлими коллегиясининг 1919 йил 24 апрелдаги йиғилиш қарорига кўра, ТАССР Маориф Халқ комиссарлигининг рухсатига биноан маҳаллий аёллардан ўқитувчилар тайёрлаш учун Самарқанд шаҳрида 20 кишилик, Ургутда 20 кишилик педагогик курслар ташкил этилган. Педагогик курслар 1919 йилнинг 1 майидан фаолият кўрсатиши ва курснинг давомийлиги 6 ой бўлиши кўрсатилган.

1922-1924 йилларда Туркистон Республикасида саводсизликни тугатиш мактаблари ўқитувчиларига 12 та разряд бўйича иш ҳақи тўланган. Мактабларда кўп ҳолларда ўқитувчилар билан бир қаторда хариталар, глобус ва доскалар етишмаган.

Саводсизликни тугатиш мактабларида хизмат кўрсатувчи персонал савод ўргатувчи ўқитувчининг ўзи бўлиб, у айни пайтда мактаб мудири ҳам саналган ва бунинг учун унга қўшимча ҳақ тўланган. Ўқитувчининг асосий вазифаси – хафталик 14 соатлик дарс машғулоти учун техник ходимлар тариф сеткасининг 12 разряди бўйича 45 сўм миқдорида ҳақ тўланиши белгиланган. Бундан ташқари, мактаб мудирлиги учун 15 сўм қўшима ҳақ тўланган ва ўқитувчининг ойлик умумий маоши 60 сўмни ташкил этган.

Ўқитиш ҳаражатларига ўқитувчининг иш ҳақидан ташқари, ўқитувчи учун 2 та ўқув қўлланма (2х50 тийин=1 сўм), Россия Европа қисмининг

географик харитаси (2 сўм), “Акжол”, “Туркестан”, “Туркестанская Правда” газеталари (1 ойлик обунаси 1,5 сўм), ўқувчилар учун алифбе-қўлланма (30х50 тийин=15 сўм), ўқувчилар учун дафтар ва қалам (30х17 тийин=5 сўм 10 тийин), синф доскаси (12 сўм) каби жиҳозларга 36 сўм 60 тийин маблағ керак бўлган. Бу битта синфдан иборат бўлган 1 та мактабнинг ўқув ҳаражатлари бўлиб, ўқувчилар учун дафтар ва қаламни ойда 2 тадан ҳисобланиши кўзда тутилган. Бу ҳаражатлар умумий ҳолда Туркистон АССРдаги мавжуд барча саводсизликни тугатиш мактаблари учун ягона меъёр сифатида қабул қилинган. Бу ҳаражатлардан ташқари, саводсизликни тугатиш мактаблари кечки пайтда фаолият кўрсатиши эътиборга олиниб, синфларни ёритишга керак бўладиган керосин сарфи битта мактаб учун 5 ой муддатга 2 сўм 40 тийин миқдорида белгиланган.

1924-1925 ўқув йилида тожик ва қирғиз тилларида 10 бетлик алифбеларни 5 минг нусхадан, ўзбек, қозоқ, туркман тилларида 3 варақлик алифбеларни 3 минг нусхадан нашр этишни режалаштирган, ушбу нашр ҳаражатлари 5004 сўм 55 тийин бўлган.

Тошкент шаҳар саводсизликни тугатиш бўйича фавқулодда комиссиясининг 1923 йил июнь ойи бўйича берган ҳисоботига кўра, 1 июль ҳолатида шаҳар бўйича 26 та саводсизликни тугатиш мактаби фаолият кўрсатиб, улар жами 800 кишини қамраб олган. Саводсизликни тугатиш мактабларининг фақат 3 таси маҳаллий бюджет маблағига ишлаган, қолган 26 та мактаб касаба иттифоқи ва бошқа ташкилотлар маблағига фаолият кўрсатган. Саводсизликни тугатиш мактабларида ўқиётганларнинг 259 нафари (26%) туб ерли аҳоли вакиллари, 541 нафари (74%) европалик аҳоли вакиллари бўлган. Курсларда таълим олаётганларнинг 238 нафари (22%) аёллар, 562 нафари эркаклар (78%) бўлган. Ижтимоий таркибига кўра, таълим олаётганларнинг барчаси ишчилар бўлган.

1923-1924 ўқув йилида ТАССР Маориф халқ комиссарлиги ҳузуридаги саводсизикни тугатиш бўйича фавқулодда комиссия ихтиёрига август-

сентябрь ойлари учун республикадиги саводсизликни тугатиш тадбирларига Молия халқ комиссарлиги томонидан 10 минг 649 сўм маблағ ажратилган. Бу пулнинг 7 минг 649 сўми август ойида олинган ва у вилоятлардаги саводсизликни тугатиш курслари таъминотига қуйидаги кўринишда сарфланган: саводсизликни тугатиш курслари эҳтиёжлари учун Олма-ота шаҳрига – 800 сўм, Самарқанд шаҳрига – 800 сўм, Полторацк шаҳрига – 800 сўм, Тошкент шаҳрига – 800 сўм, Қўқон шаҳрига – 800 сўм, Тўрткўл шаҳрига – 200 сўм, Тошкент станциясидаги саводсизликни тугатиш курсига жиҳозлар харид қилишга – 250 сўм, қорақирғизлар учун саводсизликни тугатиш курсларини ташкил этишга – 1500 сўм, қирғиз тилида хрестоматия нашр этиш учун давлат нашриётига – 1000 сўм, жойларга жўнатиш учун дафтарлар сотиб олишга – 300 сўм, Самарқанд ва Қўқон шаҳридаги европаликлар курси учун “Наша школа” дарслигини харид қилиб юборишга – 299 сўм.

Туркистоннинг шаҳар ва қишлоқларида ташкил этилган саводсизликни тугатиш курсларига савод ўргатадиган ўқитувчилар етишмаганлиги боис, уларга университет ва техникумларда таҳсил олаётган, саводсизларга савод ўргатиш малакасига эга бўлган талабалар ҳам кенг жалб этилган. Улар кўпроқ туб жой аҳоли вакиллари учун очилган курсларга жалб этилган. Улар бир кунда 3 соатдан машғулот ўтказганлар ва уларга хафтада беш кунлик иш фаолиятлари учун ҳар бир соатга 2 сўм 50 тийиндан жами 37 сўм 50 тийиндан ҳақ тўланган.

1924 йил ўрталарида Туркистон АССР Саводсизликни тугатиш бўйича Фавқулодда комиссияси томонидан давлат режа комитети билан келишилган ҳолда республикада саводсизликни тугатиш бўйича 5 йиллик режа ишлаб чиқилган бўлиб, бу режага кўра 1924-1925 ўқув йилида 450 та янги саводсизликни тугатиш мактаблари ташкил этилиши лозим эди. Режада саводсизликни тугатиш мақсадларига давлат ва маҳаллий бюджетлардан ажратиладиган маблағлар миқдори ҳам келтирилган бўлиб, 110 минг сўм давлат бюджетидан, 189 654 сўм маҳаллий бюджетдан ажратилиши

кўрсатилган. Ушбу маблағлар ҳисобидан 1924-1925 ўқув йилида ташкил этиладиган 450 та саводсизликни тугатиш мактаблари республика областлари бўйлаб қуйидаги миқдорда ташкил бўлиши кўзда тутилган:

1. Сирдарё областида – 100 та
2. Туркман областида – 60 та
3. Самарқанд областида – 80 та
4. Амударё областида – 30 та
5. Фарғона областида – 100 та
6. Еттисув областида – 80 та.

Ташкил этиладиган ушбу мактабларнинг ҳар бирига 1 тадан ўқитувчи штати (айни пайтда у мактаб мудири ҳам саналади) ташкил этилиши кўзда тутилиб, уларга 12 разряд бўйича 45 сўм маош ва мудирлик учун 25 фоиз миқдорида устама белгиланиб, жами 60 сўм маош берилиши тасдиқланган.

1924-1925 ўқув йилида маҳаллий бюджетлар ҳисобидан фаолият олиб борадиган саводсизликни тугатиш мактаблари тармоғи қуйидагича эди:

1. Самарқанд областида: Самарқанд шаҳрида – 30 та, Самарқанд уездида – 42 та, Каттақўрғон уездида – 16 та, Жиззах уездида – 16 та, Хўжанд уездида – 20 та, Ўратепа уездида – 11 та.
2. Еттисув областида – 150 та.
3. Фарғона областида: Қўқон шаҳрида – 23 та, Андижон шаҳрида – 23 та, Наманган уездида – 28 та, Марғилон уездида – 20 та, Ўш уездида – 15 та.
4. Туркман областида – 100 та.
5. Сирдарё областида: Туркман уездида – 14 та, Чимкент уездида – 24 та, Тошкент уездида – 21 та, Тошкент Эски шаҳарида – 25 та, Оқмачит уездида – 16 та, Казалинск уездида – 20 та, Авлиёота уездида – 27 та, Мирзачўл уездида – 8 та, Тошкент янги шаҳар қисмида – 20 та бўлган.

Туркистон АССРда саводсизликни тугатиш бўйича мавжуд мактабларда малакали ўқитувчи кадрларнинг етарли эмаслиги, мавжуд мактабларда ишлаётган ўқитувчиларнинг аниқ дастурга эга

эмаслиги,саводсизликни тугатишда ишлаётган ўқитувчиларнинг доимий ишчи эмас ўриндош холатда ишлаганлиги, Туркистонда юз бераётган очарчилик миллий озодлик курашлари ва бошқа омиллар таъсирида саводсизлик сифати ва самараси паст холатда қолаверган бундан ташқари бу жараёнга дастлабки вақтларда ахолининг барча қатламлари жалб қилинмаганлини кўришимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар

1. Культурное строительство в Туркестанской АССР (1917-1924 гг.) Сборник документов. Том 1.

2. Культурное строительство в Туркестанской АССР в период установления Советской власти и гражданской войны (1917-1920 гг.) Сост. А.Г. Багрянцев, Р.С. Ерзина, А.М.

3. Казанцева и др. – Ташкент: Узбекистан, 1973. – С. 214.

4. Ўз МА, Р.34-фонд, 1-рўйхат, 347-иш, 8-варақ.

5. Ўз МА, Р.34-фонд, 1-рўйхат, 472-иш, 73-варақ.

6. Культурное строительство в Туркестанской АССР (1917-1924 гг.) Сборник документов. Том 1. – С. 218.

7. Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК (1925-1986). В 4 томах. Том 1. 1925-1937 гг. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – С. 232.

СОВЕТ ДАВРИДА СОЦИАЛИСТИК МУСОБАҚАЛАРНИНГ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ(ФАРҒОНА ВОДИЙСИ МИСОЛИДА, 1953-1956 й.)

Қувончбек Азаматович Пулатов

Фарғона давлат университети ўқитувчи.

Аннотация: *Мақолада Совет ҳокимиятининг тарғибот ва ташвиқот соҳасида социалистик мусобақаларининг иқтисодий соҳани эксплуатация қилиш жараёни ёритилиб берилган.*

Калит сузлар ва иборалар: *социалистик мусобақа, тарғибот ва ташвиқот, эксплуатация, партия ташкилоти.*

Аннотация: *В статье описывается процесс эксплуатации экономической сферы социалистическими соревнованиями в сфере пропаганды и агитации советской власти.*

Ключевые слова и фразы: *социалистическое соревнование, пропаганда и агитации, эксплуатация, партийная организация.*

Annotation: *The article describes the process of exploitation of the economic sphere by socialist competitions in the field of propaganda and propaganda of the Soviet authorities.*

Key words and phrases: *socialist competition, propaganda and agitation, exploitation, party organization.*

1953-1956 йилларда иқтисодий соҳасидаги тарғибот айрим вақтларда “социалистик мусобақа” номи остида ўтказилган. Бу “социалистик мусобақа”нинг асосий мақсади турли ишлаб чиқариш жойларида кўпроқ маҳсулот ишлаб чиқаришга ундашдан иборат бўлган. Масалан, ўша даврда нашр этилган “Қизил Ўзбекистон” газетасида бу жараён ҳақида қуйидача таърий берилади: “Шу кунларда республика пахта далаларида ҳаёт қайнамоқда. Колхозчилар бу йил пахтадан мўл ҳосил етиштириш учун социалистик мусобақани қизитиб, фидокорона меҳнат қилмоқдалар. Бу буюк курашда партия ташкилотлари пахта далаларида фидокорона меҳнат қилаётган колхозчи меҳнаткашлар орасида оммавий-сиёсий ва тушунтириш ишларини кучайтириб, улар ўртасида сиёсий ва меҳнат кўтаринкилигини кун сайин ошираётирлар”. Одатда ушбу “социалистик мусобақа” партия ташкилоти бошчилигида ўтказилган. Масалан, Андижон область Ленин районидаги “Коммунизм” колхози бошланғич партия ташкилоти пахтадан мўл ҳосил етиштириш учун бошланган социалистик мусобақага яқиндан бошчилик қилган. Хусусан, мазкур партия ташкилоти аъзоси ҳисобланган 68 нафар коммунист бевосита колхоз ишлаб чиқаришига қатнашиб, 19 киши звено бошлиғи ва 26 киши кетмончи бўлиб ишлаган. Натижада колхоз партия ташкилоти ва коммунистларнинг ташаббуси билан ушбу ҳудудда “100 центнерчилик ҳаракати” кенг қулоч ёйган. Яъни қишлоқ хўжалигидан 100 центнердан ҳосил олиш колхозчилар орасига тарғиботи сифатида ёйилган. Масалан, К. Турсунов бошлиқ звено а’золари 11 гектар пахта майдонининг

ҳар гектаридан 100 центнердан ҳосил етиштириш учун астойдил ҳаракат қилган.

“Социалистик мусобақа” нафақат қишлоқ хўжалик ходимлари орасида ўтказилган, балки саноат соҳасида бу усулдан кенг фойдаланилган. Масалан, 1950 йилларда Наманган область Учқўрғон районидаги пахта тозалаш заводининг ишчилари ва инженер-техник ходимлари СССР пахтачилик саноати корхоналари ўртасида бошланган социалистик мусобақада олдингилар қаторида борган. Бу ҳолат шундан иборат бўлганки, коммунистлар йиллик планни муддатидан илгари бажариш учун мусобақа бошлаган ва бунда ушбу райондаги пахтачилик саноат корхоналари яхши кўрсаткичларга эришган. Бош механик, коммунист Черицков бошлиқ механика ишхонасининг коллективи смена топшириғини 160— 170процент қилиб бажарган.

Қишлоқ хўжалиги ходимларини далалардан мўл ҳосил олишга ундаган иккинчи атама “социалистик мажбурият” бўлган. Айнан мана шу жумла орқали колхозчиларни қишлоқ хўжалигида тарғибот мақсадида кенг фойдаланган. Масалан, 1953 йилда Қашқадарё область Чироқчи районидаги «Коммува» колхозининг экономикасида пахтачилик, ғаллачилик ва чорвачилик салмоқли ўрин тутган. Колхоз пахтакорлари ҳар йил ерни кенгайтириб, ҳосилга-ҳосил қўшган. Колхоз ўзининг энг яхши навли ғалласи билан ном чиқариб, қўшни колхозларни уруғ билан таъминлаб келган. Шунингидек, колхознинг кенг яйловларида чорвачилик тараққий этдирилиб, ундан юқори маҳсулот олинган. Колхоз партия ташкилоти колхоз хўжалигини ривожлантиришда етакчи куч ва ташкилотчи бўлган. Партия ташкилоти колхоз аъзоларининг меҳнат соҳасидаги ғайрат ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаган ҳамда уларни қишлоқ хўжалик экинларидан, айниқса пахтадан мўл ҳосил етиштиришта руҳлантирган.

Жумладан, колхоз партия ташкилоти Ўзбекистон пахтакорлари IX қурултойи қатнашчилари томонидан ўрнатилган социалистик мажбуриятни

тўла бажариш учун курашга коммунистларнинг актив иштирокини таъминлаб, уларни ишлаб чиқариш участкаларига бириктирган. Улар пахтакорлар ўртасида мўл ҳосил учун социалистик мусобақани кучайтиришда ҳамда пропаганда ишларини йўлга қўйишда партия ташкилотининг фаолиятига яқиндан ёрдам берган. Коммунистлардан 7 киши бригада ва звеноларга бошчилик қилган ҳамда бирнеча коммунист бевосита дала ишларида актив иштирок этган.

Шунгидек, партия ташкилоти пахтакорлар ўртасида пропаганда ишларини кучайтириш ҳамда газеталар ўқиб беришп учун 20 агитатор ажратган. Ушбу агитаторлар оммабоп темаларда суҳбатлар ўтказган ва докладлар қилган. Бундан ташқари, социалистик мажбуриятни қишлоқ хўжалик ходимларига эслатиб туриш учун деворий газета ва «Жанговар варақа»лар системали чиқариб турилган ҳамда кунлик ишнинг якуни кўргазма тахтасига ёзилиб борилган. Тушки дам олиш вақтида колхозчилар коллектив бўлиб радио эшитган ҳамда газета ва журналлар ўқиган. Натижада колхозда мавжуд бўлган 10 та дала шийпони колхозчиларнинг пропаганда ишларни кучайтирадиганмарказга айлантирилган. Жумладан, 1953 йилда ушбу дала шийпонларида колхозчилар орасида район партия комитетининг сиёсий докладчилари «Социалистик мусобақанинг роли», «Совет давлати пахтакорларга нима берди?”, «Партия XIX с’езди ва коммуннзм қуриш вазифалари», «Янги беш йилликда қишлоқ хўжалигини ривожлантириш вазифалари» деган темаларда 13 марта лекция ўқиб берган.

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларидан мўл ҳосил олишга ундовчи бошқа воситалар ҳам тарғиботга жалб қилинган. Шундай тарғибот қуролларидан бири И.В.Сталиннинг «СССРда социализмнинг иқтисодий проблемалари» номли асарини колхозчилар орасида тарғиб қилиш бўлган. Жумладан, Н. Қодиров деган шахс Андижон область Баликчи районидаги Усмон Юсупов номли колхоз аъзолари партия XIX съезди қарорлари ва И.В.Сталиннинг «СССРда социализмнинг иқтисодий проблемалари» номли асаридан бениҳоя

илҳомланиб, ғўза парваришини ҳар томонлама ривожлантирганлигини қайд этади. У фикрида давом этиб, коммунист Н. Қурбонов бошлиқ бригада дала ишларини айниқса яхши ташкил этганлиги, ғўза қатор ораларини ишлашни социалистик мусобақа асосида олиб борганлиги ҳамда 49 гектар ерни учинчи парваришдан чиқарганилиги натижасида бу бригаданинг ғўзаси ёппасига гуллаб, кўсаклаш олдида турганлиги қайд этилади. Бошқа томондан, мазкур тарғибот орқали аҳоли вакилларини кўпроқ ишлашга даъват этилган. Масалан, ушбу колхозда мазкур тарғиботдан сўнг Т. Умарова ва З. Меҳмонова каби колхоз ишчилари бир йилда 450 меҳнат куни ишлаш мажбуриятини олган ҳамда кундалик нормани 1,5 — 2 ҳисса юқори бажарган. Мазкур социалистик мусобақа ғолиблари ҳар куни иш тугагандан сўнг колхозчилар орасида ўқиб эшиттирилган.

Совет даврида иқтисодиётнинг муҳим тармоғи бўлган қишлоқ хўжалигида ютуқларга эришишда колхозчилар орасида газеталар ўқиш ва маърузалар қилиш иқтисодиётни ривожлантирадиган ҳолат сифатида қаралган. Масалан, Андижон область Москва районидан В. Юнусов деган шахс, ўша районнинг Ленин номли колхозида оммавий-сиёсий ишларнинг ҳаммаси дала шийпонларида олиб борилганлигини таъкидлайди. Унга кўра, пропагандист ва агитаторлар колхозчиларнинг дам олиш пайтларида газета ҳабарларини ўқиб эшитдириш билангина кифояланмай, балки турли оммабоп темаларда лекция ўқиб берганлар ҳамда суҳбатлар ўтказганлар. Бундан ташқари, агитаторлар ташаббуси билан дала шийпонларида ўқишхона ташкил қилиниб, улар газета ва журналлар ҳамда партня XIX съезди материаллари босилган брошюралар билан таъмин этилган. Совет даврида бу каби жараёнлар меҳнаткшларнинг ҳордиқ чиқариш учун амалга оширилган ишлар сифатида баҳоланган. Бироқ бу каби жараёнлар далалардаги иш жараёнларида ҳам амалга оширилганлигини кўришимиз мумкин.

Бундай пропаганда усули нафақат дала шийпонларида балки дала майдонларининг ўзларида ҳам амалга оширилган. Хусусан, Фарғона область

Каганович район Нурсуқ қишлоқ советидаги Сталин номли колхозда оммавий-сиёсий ишлар ғўза парвариши бораётган кунларда амалга оширилиб, агитаторлар пахтакорлар орасида ғўза парваришига оид кундалик газета хабарларини ўқиб эшитдирган ва улар онгига чуқур сингдирган. Бундан ташқари, агитаторлар колхозчиларнинг дам олиш вақтларида илғор пахтакорларнинг иш тажрибалари тўғрисида суҳбатлар уюштирган. Ушбу суҳбатлар коммунистик партия XIX съезди материаллари ҳамда СССР Олий Совети IV сессиясининг қарорлари юзасидан бўлиб ўтган.

Ўша давр даврий матбуотида дала шийпонларида қишлоқ хўжалигига оид тарғиботлар етарли даражада олиб борилмаганлигига етарли шароитлар йўқлиги сабаб қилиб кўрсатилади. Масалан, Хоразм область Шовот районидаги бир неча колхозларда колхозчилар орасида пропаганда ва агитация ишларига етарли аҳамият берилмаган. Хусусан, Қиёт қишлоқ советидаги Шверник номли колхоз ҳамда Кураклар қишлоқ советидаги Ленин номли колхозда дала шийпонларининг аҳволи талаб даражасида бўлмаган. Бундан ташқари, дала шийпонларида меҳнаткашларни юқори меҳнат зафарларига чақирадигаи шиорлар мавжуд бўмаган. Бундай ҳолат Қорақалпоғистон АССРда ҳам мавжуд бўлган. Масалан, Қипчоқ районининг айрим колхозларида мавжуд дала шийпонлари ўз ҳолига ташлаб қўйилган. Натижада дала шийпонларида пропаганда ишлари олиб борилмаган. Шунингдек, илғорлар иш тажрибасини оммалаштируви «Жанговар варақа”лар чиқарилмаган ҳамда фотовитриналар ва «кўргазма тахтаси» ташкил этилмаган. Бу соҳада, айниқса Чайкўл қишлоқ советидаги Ленин номли колхозда ҳеч нарса қилинмаган. Совет ҳокимияти колхоз ғўза парваришида районда энг охириг қаторда бўлганлиги ҳамда мазкур ҳудудларда оммавий агитация ишларининг ёмон аҳволга тушиб қолганлиги колхозда ғўза парваришига ҳам салбий таъсир қилганлиги қайд этади.

Коммунистик партия ва совет ҳукумати қишлоқ хўжалигини ривожлантириш, халқ истеъмол қиладиган моллар ишлаб чиқаришни

кенгайтириш ва совет савдосини яхшилаш соҳасида тадбирлар белгилаб берган. Мазкур даврда газета бу вазифани бажариш учун омма билан алоқани ҳар томонлама кенгайтириши ва камчиликларни юз-хотирсиз танқид қилиши керак эди. Газета редакциялари одатда бу жараён газетанинг обрўйини оширишга, унинг саҳифаларида атрофлича ўрганилган ва пишиқ мақолаларнинг ёритилишига имконият туғдиради деб ҳисоблаган. Шу сабабли, редакцияга келадиган хатларга жиддий эътибор бериш, уларда кўтарилган масалаларга эътибор билан қараш, уларни диққат билан ўқиб чиқиб, газета саҳифасида ёритишигина эмас, балки уларнинг ижроси учун кураш – ҳар бир газета ходимининг бурчи сифатида қабул қилинган.

Бу жараён тўғрисида “Қизил Ўзбекистон” газетаси қуйидагиларни ёзган: “СССР Минстирлар Совети ва КПСС Марказий комитетининг “Ўзбекистон ССРда 1954-1958 йилларда пахтачиликни янада ривожлантириш тўғрисида”ги қарори муносабати билан республика матбуоти олдига жуда масъулиятли ва шарафли вазифалар қўйилди. Республикамизда пахтачиликни ва бошқа қишлоқ хўжалик экинлари ҳосилини кўтаришда область, район газеталари ижодий ташаббус кўрсатишлари, МТС механизаторлари, новатор пахтакорлар, илғор колхоз, районларниг бой тажрибаларини оммалаштиришлари, уни тинмай пропаганда қилишлари керак. Маълумки, ҳар бир колхозда ва ҳар бир МТСда фойдаланилмай ётган резервлар жуда кўп. Газеталарнинг энг муҳим вазифаси - ана шу резервларни топиб бериш ва улардан рационал фойдаланишда партия ташкилотларига яқиндан ёрдам беришдан иборатдир. Бу вазифани кенг активга суяниб иш қилганидагина муваффақитли ҳал этиши мумкин.”

Хулоса қилиб айтганда, 1953-1956 йилларда ЎзССРда иқтисодий кўрсаткичларни оширишга қаратилган тарғибот кучайди. Бу асосан қишлоқ хўжалигининг муҳим бўлаги бўлган пахта етиштириш билан боғлиқ эди. Мазкур соҳадаги пропаганда ишлари асосан матбуот, радио, маъруза ҳамда

колхозларда турли деворий газеталар орқали амалга оширилган. Бундан ташқари, коммунистик партия пленумларда иқтисодиёт соҳасида кўтарилган масалаларни тарғибот ва ташвиқот қилиш учун турли танловлар ташкил этилган. Бу танловлар асосан район газеталари саҳифаларида эълон қилиб борилган.

Фойдаланилган манбалар ва адабиётлар

1. Далада оммавий агитацияни кучайтирайлик. // Қизил Ўзбекистон. 1954 й

2.Ф. Рошкович . Коммунистлар мусобақа илғорлари. // Қизил Ўзбекистон 1954 й.

3. Р.Муродов. Партия ташкилоти социалистик мажбуриятни бажариш учун курашда. // Қизил Ўзбекистон. 1953. №160.

4. Актив – газетанинг таянчи. // Қизил Ўзбекистон. 1954. №79

5. U.Urmonov. Role of livestock and livestock products in domestic and foreign trade of the ferghana valley (late XIX - beginning OF XX century) "The history of the fergana valley in new researches" Published by Research Support Center. -2021 MAY, 2021-yil. https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1261/

6. Urmonov Ulug‘bek Adxamjonovich. The role of livestock and products in domestic and foreign trade of turkestan in the late xix and early xx centuries. Electronic Journal Of Actual Problems Of Modern Science, Education And Training. -January, 2022-I. Issn 2181-9750, 2022-Yil. Electronic Journal Of Actual Problems Of Modern Science, Education And Training.

7. Bekmirzaev, R. B. (2021). Factors affecting nation-building relationships in Fergana Valley. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 122-125.

8. Boltaboyev, M. (2020). HISTORY OF RELIGIOUS CONFESSIONAL POLITICS IN THE SOVIET PERIOD. Theoretical & Applied Science, (6), 668-671.

9. Salmonov, A., & Boltaboev, M. (2021, August). THE CONSEQUENCES OF THE SOVIET GOVERNMENT'S VIOLENT POLICY TOWARDS NON-

MUSLIMS IN UZBEKISTAN: https://doi. org/10.47100/conferences. v1i1. 1251. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.05).

10. Salmonov, A., & Boltaboev, M. (2021, June). THE CONSEQUENCES OF THE SOVIET GOVERNMENT'S VIOLENT POLICY TOWARDS NON-MUSLIMS IN UZBEKISTAN. In Конференции.

11. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

12. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

13. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

14. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

15. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

16. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

17. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA

FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

18. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

19. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

20. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

21. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

22. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

23. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

24. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

25. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

26. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

27. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

28. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

29. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

30. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

31. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

32. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

33. Жураев, Х. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ РУС АҲОЛИСИНИ ФАРҒОНА ВОДИЙСИГА КЎЧИРИШ ЖАРАЁНИ ВА УНДАГИ МУАММОЛАР. Research Focus, 1(2), 136-143.

34. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

35. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

36. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

37. Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

38. Akbarov, R. X. (2021). The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS).-Madrid, 2(6), 121-125.

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VILOYATIDA SAVDO MUNOSABATLARI TARIXIDAN (Paxta savdo misolida)

A.Sharafiddinov

Farg‘ona davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya: *Maqolada keng qamrovli manbalar asosida XIX asr – XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatida savdo munosabatlariga ayniqsa, paxta savdosiga e’tibor qaratilgan va taxlil qilingan.*

Kalit so‘z va iboralar:*firma, boj, proteksionizm, komissioner, bank, sudxor, tijorat, aravakash, aksionerlik jamiyati, shirkat.*

Аннотация: *На основе обширных источников в статье рассмотрены и проанализированы торговые отношения в Ферганской области в XIX - начале XX вв., в особенности торговля хлопком.*

Ключевые слова и фразы: *фирма, пошлина, протекционизм, комиссионер, банк, ростовщик, торговля, аравакаш, акционерное общество, общество.*

Annotation: *Based on extensive sources, the article focused on and analyzed trade relations in the Fergana region in the XIX - early XX centuries, especially the cotton trade.*

Key words and phrases: *firm, duty, protectionism, commission agent, bank, usurer, commerce, aravakash, joint-stock company, company.*

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiyaning mustamlakachi ma’muriyati xamda Rossiya burjuaziyasi O‘rta Osiyoda o‘z paxta bazasini barpo etish bo‘yicha qator chora tadbirlarni amalga oshirdi. Masalan, birlamchi paxta firmalari, so‘ng, tajriba stansiyalari tashkil qilindi. Savdo-sanoat doiralariga mansub bo‘lgan paxta maydonlari tashkil qilindi. Savdo-sanoat doiralariga mansub bo‘lgan paxta maydonlari vujudga keldi., paxtachilikka oid qurultoylar o‘tkazildi. Paxta yetishtirishning ayrim agrotexnik usullari tadbiq qilina boshlandi. Ayniqsa, Amerika paxta navlarini keng joriy qilishga katta e’tibor berildi, chunki maxalliy

paxta navlari o‘zining xosildorligi kamligi va sifati past bo‘lganligi sababli to‘qimachilik sanoati talablariga javob bermasdi. Shu bilan birga Amerika navi ekilgan yer maydonlari imtiyozli soliqqa tortilardi. Mazkur yerlar bug’doy, beda, juxori ekinlari bilan bir xil soliqqa tortilar edi. Vaxolangki, bir botmon paxta ekilgan yerdan olinadigan yalpi daromad boshqa qishloq xo‘jaligi sohalariga qaraganda 4-5 barobar yuqori edi. Bunday chora tadbirlar Amerika paxta navlari ekinzorlariningkeng yoyilisha olib kelar edi. Bunga ko‘p jixatdan chor xukumatining proteksionistik siyosati yordam berardi. 1978 yildan boshlab import qilinayotgan xar bir pud paxtaga tilla xisobida 40 tiyindan boj to‘lovi kiritiladi, asr oxiriga borib bir paxtadan olinadigan boj 2 rubl 10 tiyinga yetdi. Natijada Turkistondan Rossiyaga olib kiriladigan paxta uchun keng yo‘l ochildi.

Chor xukumati va savdo-sanoat doiralari paxtachilikni rivojlantirib, o‘lkada to‘qimachilik korxonalarini barpo qilish maqsadini qo‘yishmasdi. Ular ko‘proq paxta xom ashyosini olib chiqishga xarakat qilishar edi. Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘rta Osiyoda yetishtirilgan 85 % paxta xom ashyosi Rossiyaning sanoatlashgan xududlariga olib ketilardi. Xatto ayrim Moskva to‘qimachilik korxonalarida o‘zbek paxtasining ulushi jami ishlatilgan xom ashyoning 70 % ni tashkil qilgan.

Paxtachilikning rivojlanishi, paxtaga dastlabki ishlov beruvchi sanoatning vujudga kelishi butun o‘lkada bo‘lgani singari Farg‘ona vodiysida maxalliy savdoda paxta savdosining ahamiyatini oshirib yubordi. Ta’kidlash kerakki, Farg‘ona vodiysida paxta sotib olishning, asosan uch turi qo‘llanilgan:

Birinchidan, chigitdan tozlangan paxta sotib olish. bu yo‘l bilan o‘zlarini ip yigirish fabrikalariga ega bo‘lgan yirik firmalar yoki ana shunday yirik firmalarga xizmat qiluvchi shaxslar shug’ullanganlar;

Ikkinchidan tozalangan (chigitdan ajratilgan) paxtani zavodlarda qayta ishlash uchun sotib olish; bu yo‘l bilan o‘z paxta tozalash zavodlariga ega bo‘lgan firmalar va o‘zlariga moddiy jixatdan durust xisoblangan shaxslar shug’ullanganlar. Lekin bunday shaxslar o‘zlari tomonidan tozalangan paxtani

mustaqil ravshda xalqaro bozorga jo‘natmasdi, balki paxtani tozalangan xolda birinchi gurux paxta sotib oluvchilarga qaytadan sotganlar;

Nixoyat, uchichidan, keng miqyosdagi, katta paxta sotib ouvchilar bo‘lib, ular qisman o‘z mablag‘lariga va ko‘p xollarda davlatmand kishilarning yoli firmalarning mablag‘lariga paxta sotib olganlar. Bu ko‘p sonli komissionerlar birinchi va ikkinchi gurux paxta sotib oluvchilardan keyin savdo qilib, ular asosan, joylarda mayda er egalaridan firmalarning buyurtmasi asosida paxta sotib olganlar. ***[5]***.

Demak, ayrim paxta tozalash zavodlari paxtani xarid qiluvchi maxsus savdo muassasalariga xam aylanib qolgan edi. Shunday qelib, zavod egalari ayni bir vaqtning o‘zida paxta xarid qilish bilan xam shug’ullanganlar.

Paxta daromadining katta qismi asosan rossiyalik kaptalistlar, qisman maxalliy boylar qo‘lida to‘plangan. Paxtachilikning rivojlantirilishi orqali o‘lkaga katta mablag‘ olib kelindi. Ammo u asosan chor xukumati, banklar, firmava sudxorlarning cho‘ntagini to’ldirdi xolos. Natijada kambag’allar xonavayron bo‘ldi, o‘rtaxol dexqonlar esa boyimadi.

Qo‘qon birja jamiyatining ma’lumotiga ko‘ra Farg‘ona vodiysida 1913 yilda Rus-Osiyo, Sibir, Volga-Kama, Moskva, Azov-Don va boshqa banklar katta daromad olishgan. Bulardan tashqari, Lyudovik Rebenok, Donilov, Konovalov, Albert Gyuner, Emil Sindel, A.Yasnin, Bardigin, Korstnikova, Golushin, Tver, Katta Yaroslavl, Treugolnik, Shyullessellerberg, singari manufaktura firmalari paxtazorlani o‘z qo‘llarida ushlab turganlar ***[3: 132]***.

Paxtani sotib olish, odatda avgust va sentyabr oyida boshlanardi. Bu vaqtda tijoratchilar va firmalar xizmatchilari sotib olingan paxtani qabul qilish uchun turli joylarga jo‘nab ketadi, Ana shu davrdan boshlab “paxta mavsumi” boshlanardi. ***[1: 140]***.

Paxtani sotib olish bilan yirik firmalar va zavod egalari xamda katta bo‘lmagan o‘z kapitaliga ega bo‘lgan aloxida shaxslar xam shug’ullanganlar. Bu

aloxida shaxslar sotib olingan paxtani tozalangan xolatda yirik firmalarga qaytadan sotganlar.

Bu ish bilan asosan chistachilar (tozalovchilar) shug'ullanganlar. Chistachilar paxta tozalash zavodlarida paxtani chang va boshqa narsalardan tozalovchi kishilar xisoblangan.

Vaqt o‘tishi bilan paxta savdosi bilan o‘z mablag‘iga ega va savdo bilan shug‘ullanishga qobilyati bor shaxsalar shug‘ullana boshladilar.

Paxtani yirik tadbirkorlar va firmalar tomonidan ikki xil tarzda sotib olingan: xom xolatda (chigitdan ajratilmagan) va tozalangan (chigitdan ajratilgan) xolatda. Xom xolatda sotib olishda xar bir firmaning o‘z “komissionerlari” bo‘lib, firma shu komissionerlarga dexqonlarga tarqatish uchun kafilligini olib berardi.

Firmadan katta miqdordagi pulni olgan komissioner, pulning bir qismini dexqonlarga qarz berish uchun o‘ziga qarashli aravakashlarga bergan ***[1: 141]***.

Odatda paxtakorlardan paxtani sotib olish quyidagicha tartibda olib borilgan: aravakash misssionerdan pul va paxtani qoplash uchun qoplarni olib, o‘z aravalarida qishloqlarga jo‘nab ketadilar. Qishloqlarga borib, dalalardan yig‘ib olingan paxtani dexqonlardan o‘zi bilan olib borilgan tarozi orqali tortib ola boshlaydi. Bu tarozini to‘g‘ri yoki to‘g‘ri emasligi shubxali bo‘lib, unda 12-13 puddan ortiq og‘irlikdagi paxtani tortib olib bo‘lmaydi. Shuning uchun tarozi pallasi sanalgan. Ko‘p xollarda tarozi pallasi sanalganda aravakash foydasiga xisobdan “adashib” ketilgan ***[1: 143]***.

Paxtakorlarning ko‘pchiligida ot arava bo‘lmaganligi tufayli paxta qabul qiluvchi joylarga o‘z maxsulotlarini olib bormas edilar. Shuning uchun aravakashlar bundan foydalanib, uzoq va yo‘llari yomon bo‘lgan qishloqlarga borishib, paxtani arzon narxda olib, qimmatiga sotganlar. Banklarda qarzga beriladigan pullar bir necha shaxslar, xususan, firmalar, chistachilar, aravakashlar orqali o‘tib, ular ko‘radigan foyda 100 foizgacha va undan ortiq ko‘paygan ***[3: 134]***.

Ta’kidlash joyizki, chistachi, aravakash va paxtani xarid qiluvchi boshqa kishilar dexqonlarning savodsizligi va soddaligidan foydalanib, paxta sifatini pasaytirgan va ularni xisobidan adashtirganlar.

Paxtakor dexonlar kuzda paxta xosilini qarz bergan firmaga yoki boshqa sudxo’rlarga belgilangan narxda topshirishni o‘z zimmalariga olganlar. Aks xolda ularga katta jarima solingan.

Paxta dexqonlarning mashaqqatli mehnat va azob uqubatlari bilan yetishtirilgan, lekin uning xuzurini boshqalar ko‘rardi. Yuqorida ta’kidlanganidek, paxta xosili turli firmalar tomonidan xarid qilinib, Rossiyadagi to‘qimachilik korxonalarga jo‘natilardi.

XIX asrning 80-yillarida “I.K.Pznanskiy” ip-gazalama aksionerlik jamiyati o‘z faoliyatini boshlab, katta xajmda paxta savdosi bilan shug’ullangan. Masalan, u 1880 – 1887 yillarda 1120000 pud paxtani sotib olgan edi. 1909 -1910 – yillarga kelib bu jamiyatning paxta bo‘yicha savdo aylanmasi o‘z davri uchun salmoqli - 11,5 mln so’mga yetdi.

1888-yildan boshlab “Br.Shlosberg” savdo uyi yirik paxta savdosini amalga oshirgan. Uning Samarqand, Qo‘qon va Buxoroda idoralari ishlab turgan. Savdo uyi Andijon, Namangan, Qo‘qon, Samarqand, Asaka, Kattaqo‘rg‘on, Quva va o‘lkaning boshqa joylarida minglab pud paxtani xarid qilgan ***[4: 32]***.

XIX asrning 90-yillariga kelib, Farg‘ona viloyatida “Eron va O‘rta Osiyo savdo-sanoati”, L.Knop, Alekseev, Poznanskiy (Lodz), Shlozberg (Lodz), Yaraslavl manufakturasi, Panfiy, Arens va Komp, Salev, Shvetsov, Shmidt va Komp, Meyerkart, Rabenok va Ryabushinskiy firmalari paxta bilan savdo qilganlar ***[4: 133]***.

Shuni ta’kidlash istardikki, Potelyaxov, Vadyayev, Simaxov, Davidov, singari firma egalari xamda Mirkomil Mo’minboyev va boshqa qator maxalliy boylar paxtani xarid qilishda faol qatnashganlar. Ammo ular Rossiya firmalariga qaram bo‘lganliklari tufayli o‘z faoliyatlarini keng ko‘lamda rivojlantira olmadi. Shu bois paxtani xarid qilish asosan Rossiya banklari va firmalari qo‘lida

to‘plangan edi. O‘lkada tashkil etilgan davlat banklarini xususiy ishbilarmon va banklarning 50 ta bo‘limlari paxtani yetishtirishga vaxarid qilishga mablag‘larni sarflab, katta daromad olganlar. Paxtani sotib olishda banklar xal qiluvchi o‘rinni egalladilar, chunki ulr o‘rta xisobda Tovar tannarxining 80-90 foizini oldindan berganlar.

Ko‘rinib turibdiki, firmalar, banklar xamda Rossiyaning boshqa sanoat va savdo vakillari paxta savdosini tamomila o‘z qo‘llariga olgandilar. Ular doirasining kengligini vodiyda paxta savdosi bilan shug’ullangan, faoliyat ko‘rsatgan firm ava banklar nomlarini keltirishning o‘zi isbotlab beradi. Bu yerda “Rusko-aziatskiy”, “Sibirskiy targoviy”, Voljsko-Kamskiy kommercheskiy”, “Moskovskiy kommercheskiy” “Russkiy dlya vneshney targovli”, “Moskovskiy kupecheskiy”, Azovvsko Donskoy kommercheskiy”, singari sakkizta bank paxta xarid qilish, bilan shug’ullangan. Bulardan tashqari turli manufaktura firmalari ham ish yuritganlar. Masalan, “Tovarishestvo manufaktur Lyudovik Rebenok”, Danilevskaya manufaktura”, “M.B.Konovalov I S-N”, Al’bert Gyubner”, “Emil Sindel”, “V.E. I A.Yasyuninskix”, “N.M.Bordigina N.K”, “A.Karetnikovoy S-M”, “M-ri”, “Tovarishestvo Bolshoy Kneshemskoy m-ri”, “Tovarishestvo Yaraslavskoy bol’shoy m-ri, “Tovarishestvo Proxorovskoy Trexgorniy mri”, Tovarishestvo Rossiysko-Amerikanskoy manufakturi”, “Treugolnik”, “Fabrikant”, “N.O.Prus I K°”, “Torgoviy dom”, “Pinxas I Ribakov”, ‘Bratya Kraft, “A.V.Shvetsov i sinovya”, “Tovarshestvo dlya torgovli i promishlennoye v Persii I Sredney Azii”, “Andelskoye promishlennoye torgovoye tovarishestvo”, “Iskandar”, “Tukestanskoye torgovo-promishlennoye” toavrishestvo K.I.Slovyev I K”, “Aksernoe obshestvo Xlopok” kabi jami qirqdan ortiq firmalar shular jumlasdiandir ***[2: 125]***.

Xulosa qilib aytish mumkinki, paxtachilikning rivojlantirilishi mustamlakachilik nuqtayi nazardan amalga oshirildi. Paxta savdosidan olinadigan daromadlar podsho xukumati va rus savdo-sanoat doiralari tomonidan o‘zlashtirildi. Dexqonlar mexnatiga yarasha xaq to‘lanmas, aksincha, qarzdorlik

kishanlari bilan bog‘lab qo‘yildi, Oqibatda, yerdan va molmulkdan ayrilgan dexqonlarning soni tobora ko‘payib boraverar edi. Qashshoqlik vujudga keldi, xalqning turmushi yomonlashdi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. Ежегодник Фкрганской областию Т.Выпуск 1903 года. -г. Нофый Маргелан, 1903 -с.224.
2. Mustabid tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shoxidligi va saboqlari. – T.: Sharq, 2000. -B.431.
3. O‘zbekiston mustamlaka va Zulm iskanjasida. T.: Sharq, 2006 - B.251.
4. Ziyoyev X.Z. O‘zbekiston paxta yakka xokimligi uchun kurash va uning oqibatlari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). -T., 1995. B.182.
5. Sank-Peterburg MDA, 573-fond, 25-Ro‘yxat, 1322-ish, 451 -varaq.
6. Mirzayev A., Mamanazarova M. Koloniyal davr sud notarial idoralari fondlari paxtachilik tarixi bo‘yicha muxim manba. // “Farg‘ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda ” mavzusidagi III Respublika ilmiy anjumani materiallari -Farg‘ona , 2014
7. Yusupov A.A. Turkistonda maxalliy sarmoyadorlikning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixidan (Vodyayevlar shirkati misolida). // “Farg‘ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy -amaliy anjumani materiallari Namangan 2018.

TURKISTON VAKILLARINING ROSSIYA DAVLAT DUMASIDAGI ISHTIROKI

Akbarov Ravshan Xalimovich
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Rossiyada Davlat dumasining tashkil etilishi, Turkiston o‘lkasidan saylangan vakillar, ularning Dumadagi ishtiroki, Musulmon fraksiyasi, mahalliy aholi vakillarining o‘lka muammolari: yer nasalasi, lalmi yerlar, ko‘chirish siyosati va hokazolarni Duma minbaridan ko‘tarishlari va ularning natijalari haqida fikr yuritiladi. Maqolada muammoga oid davriy matbuot va arxiv hujjatlaridan o‘rinli foydalanildi va tarixshunoslikka masalaga oid yangi ma’lumotlar taqdim etildi.*

Kalit so‘z va iboralar:*Davlat dumasi, saylov, fraksiya, deputat, Duma komissiyasi, kichik komissiyalar, deputatlar so‘rovnomasi, agrar masala.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается учреждение Государственной думы в России, представители, избранные от Туркестанской области, их участие в Думе, мусульманская фракция, представители местного населения, поднимаются проблемы страны: землевладение, сухая земля, переселенческая политика и др. обсуждаются их результаты. В статье надлежащим образом использованы периодические издания и архивные документы, связанные с проблемой, представлены новые сведения по этому вопросу в историографию.*

Ключевые слова и фразы: *Государственная Дума, выборы, фракция, депутат, думская комиссия, подкомиссии, опрос депутатов, аграрный вопрос.*

Annotation: *In this article, the establishment of the State Duma in Russia, the representatives elected from the Turkestan region, their participation in the Duma, the Muslim faction, representatives of the local population, raising the problems of the country: land tenure, dry land, resettlement policy, etc. their results are discussed. The article made appropriate use of periodical press and archival documents related to‘the problem and presented new information on the issue to historiography.*

Key words and phrases: *State Duma, election, faction, deputy, Duma commission, sub-commissions, poll of deputies, agrarian issue*

Birinchi chaqiriq Davlat dumasiga Turkiston o‘lkasidan vakillar saylanmagan, chunki Dumaga saylov haqidagi Nizomda Turkistonda alohida qoidalar ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan. Bunga sabab, parlamentda milliy o‘lkalar vakillari sonining ko‘p bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik edi. Hukumatning bu boradagi pozitsiyasi sababli o‘lkada mahalliy aholi va yevropalik aholi uchun alohida saylov okruglari tashkil etish ko‘zda tutilgan. Shu bilan birgalikda, saylovchilar sonida ham nomutanosibliklar bo‘lgan. Rossiya guberniyalarida bitta deputat uchun odatda 250 ming saylovchi belgilangan bo‘lsa, Farg‘ona viloyatida mahalliy aholi uchun 786 ming saylovchi bir deputat saylashi ko‘zda tutilgan ***[25: 25]***.

Turkistondagi saylov tartibi 1905-yil 6-avgustdagi saylov qonuni asosida ishlab chiqilishi ta’kidlangan ***[21: 60]***. O‘lka aholisi uchun Dumaga saylov qoidalari 1906-yil 23-aprelda tasdiqlandi ***[23: 31-33]***. Bu haqidagi xabar Toshkentga 1906-yil 2-may kuni yetib keladi va ertasi kuni “Туркестанские ведомости” gazetasida e’lon qilindi ***[8: 525]***. 1905-yil 11-dekabrdagi Rossiya Davlat dumasiga saylov to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra, Rossiyaning Yevropa

qismidagi guberniyalarida 1 nafar deputat uchun 250 ming, chekka guberniyalari uchun esa 350 ming saylovchi belgilangan ***[3: 89]***. Turkistonda esa Davlat dumasiga saylovchilar soni hududiy qilib belgilandi. Qoidalarga ko‘ra, Turkiston o‘lkasidan Dumaga 13 nafar (mahalliy aholidan 6, yevropalik aholidan 7 nafar) deputat saylanishi belgilandi ***[23: 31]***. Turkiston o‘lkasida saylovlarga tayyorgarlik ishlari boshlansa-da, 1906-yil 9-iyul kuni Davlat dumasini tarqatish haqida podsho manifesti e’lon qilinishi bilan saylov kampaniyasi to‘xtatiladi ***[6: 55].***

Ikkinchi chaqiriq Rossiya Davlat dumasiga saylovlar imperiya bo‘yicha 1907-yil yanvar – fevral oylariga belgilangan ***[7: 40]***. Turkiston viloyatlaridagi saylovlar 27-fevralga ***[14: 179]***, Yettisuv viloyatida esa 1907-yil 3-aprelga belgilangan ***[8: 529]***. O‘lkada saylovning turli muddatlarda o‘tkazilishi saylovchilar Ro‘yxatining shakllantirilishi bilan bog‘liq edi.

Shunday qilib, 1907-yil fevral oyi oxirida Turkiston o‘lkasi viloyatlarida Davlat dumasiga saylov o‘tkazildi. Saylov natijasida Kaspiyorti viloyatidan podsho armiyasi podpolkovnigi Maxtumqulixon, Samarqand viloyatidan Toshpo‘lat Abduxalilov, Yettisuv viloyatidan Muhammadjon Tinishpayev (kadet), Sirdaryo viloyatidan yirik chorvador Tleuli Olloberganov, Farg‘ona viloyatidan savdogar Solijon Muhammadjonov saylanadi. Yevropalik aholidan viloyatlar bo‘yicha quyidagi deputatlar saylanadi: Sirdaryo viloyatidan N.L.Kolendzyan, Yettisuv viloyatidan M.A.Gavrilov, Yettisuv kazak bo‘linmalaridan Ya.I.Yegoshkin ***[8: 535-536]***, Samarqand viloyatidan K.M.Aframovich, Kaspiyorti viloyatidan I.Y.Mironov ***[14: 177]***, Farg‘ona viloyatidan esa A.P.Drukar ***[13]*** (1-jadvalga qarang).

Turkiston o‘lkasidan II Davlat dumasiga saylangan deputatlarning fraksiyaga mansubligi (1-jadval**) *[2: 30-31; 20-21; 16: 61]***:

№	Deputatlar	Qaysi fraksiyaga mansubligi
	Mahalliy aholi vakillari	
1	Abdurauf Qoriyev	Musulmonlar fraksiyasi
2	Tleuli Olloberganov	Musulmonlar fraksiyasi
3	Toshpo‘lat Abduxalilov	Musulmonlar fraksiyasi
4	Solijon Muhammadjonov	Musulmonlar fraksiyasi

5	Maxtumquli Nurberdixonov	Musulmonlar fraksiyasi
6	Muhammadjon Tinishpayev	Kadetlar fraksiyasi
O‘lkada yashovchi yevropalik aholi vakillari		
7	V.Nalivkin	Sotsial-demokratlar fraksiyasi
8	K.M.Aframovich	Sotsial-demokratlar fraksiyasi
9	I.Ye.Mironov	Sotsial-demokratlar fraksiyasi
10	M.Gavrilov	Mehnatkashlar (Trudoviklar)
11	I.L.Kolendzyan	Mehnatkashlar (Trudoviklar)
12	A.P.Drukar	Sotsial-inqilobchilar,
13	L.I.Yegoshkin	Kazaklar guruhi

Davlat dumasiga o‘lkada o‘tkazilgan saylovlar ilk tajriba bo‘lganligi sababli, bu borada ba’zi kamchiliklar ko‘zga tashlandi. Masalan, saylovchilar Ro‘yxatini tuzish, targ‘ibot ishlari va vakillar saylashda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar aholi sonining mutanosibligini ta’minlamaslik, fuqarolar kiritgan takliflarni e’tiborga olmaslik, parlamentchilik tajribasining yo‘qligi tufayli munosib nomzodlarni tanlay bilmaslik kabi kamchiliklar, shular jumlasidandir.

Davlat dumasi birinchi va ikkinchi chaqirig‘ida ham musulmon deputatlar kadetlar partiyasi bilan hamkorlik qilganlar. Buning sababi kadetlarning fuqarolar uchun umumiy, to‘g‘ri, teng va yashirin saylov huquqini joriy qilish; cherkov yerlari va xususiy yerlarni davlat hisobiga musodara qilish orqali yersiz va kam yerli dehqonlarga yerlarni bo‘lib berish ***[4: 450]***; bir palatali parlament tizimi, hukumatning parlament tomonidan saylanishi; umumiy, bepul va majburiy boshlang‘ich ta’lim; sudning quyi bo‘g‘inida saylov tizimini joriy etish tarafdori ekanliklarida edi ***[9: 89]***. Bu talablar musulmon deputatlarning talablariga to‘la mos edi. Ammo kadetlarning musulmon vakillar ovozlaridan foydalanganliklari, va’dalarini bajarmaganliklari ***[10: 128]***, ularning dasturi islom dini qoidalari bilan uyg‘un bo‘lmaganligi ***[17: 31]*** musulmon vakillarning alohida, mustaqil fraksiya sifatida shakllanishiga olib kelgan.

Boshqa vakillar qatori turkistonlik vakillarning ayrimlari Davlat dumasida tashkil etilgan turli komissiyalarga jalb qilingan. Turkistondan saylangan vakillar, asosan, muvaqqat komissiyalarga saylanganlar. Masalan, V.Nalivkin – Harbiy dala sudlari haqidagi qonun loyihasi muhokamasi komissiyasi, Mahalliy va o‘z-o‘zini

boshqarish komissiyasi, So‘rovnomalar komissiyasiga ***[2: 37-42]*** Byudjet komissiyasiga ***[12: 987]***, I.L.Kolendzyan – Xalq ta’limi komissiyasiga ***[12: 90]***, K.M.Aframovich – Davlat dumasiga keluvchilarni qabul qilish komissiyasiga, agrar komissiyaga, T.Abduxalilov, M.Tinishpayev – agrar komissiyaga saylangan ***[1: 39]***.

7-aprel kungi yig‘ilishda Musulmon fraksiyasidan 15, alohida musulmonlar guruhidan 3, Butunrossiya Musulmonlar ittifoqi Markaziy qo‘mitasidan 5, jami 23 nafar deputatdan iborat komissiya saylanadi ***[17: 41-43]***. Komissiya o‘z navbatida uchta kichik: diniy, iqtisodiy va huquqiy komissiyalarga bo‘lingan. Diniy komissiyaga K.Tevkelev, iqtisodiy komissiyaga F.Xon-Xoyskiy, huquq komissiyasiga A.To‘pchiboshev rais etib saylangan. Komissiya 13-apreldan ish boshlab, uning vazifasi musulmonlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va xalq ta’limi masalalarida qonun loyihalarini tayyorlash, musulmonlar uchun cheklovlarni bekor qilish va turli so‘rovnomalarni amalga oshirish ***[15: 29]*** bo‘lib, turkistonlik vakillardan A.Qoriyev (diniy va huquqiy komissiya) va S.Muhammadjonov (huquqiy komissiya)lar tarkibga kiritilgan ***[27]***. Iqtisodiy masala bo‘yicha fraksiya ichidagi komissiyaga turkistonlik vakil saylanmagan.

Agrar masala XX asr boshida Rossiya imperiyasining hal qilinishi lozim bo‘lgan eng asosiy masalalaridan biri bo‘lib, birinchi Dumaning tarqatib yuborilishiga sabab bo‘lgan edi. Bu Dumaning ikkinchi chaqiriq mart – may oylarida ham deputatlar orasidagi keskin munozaralarga sabab bo‘lgan. Musulmon fraksiyasining bu boradagi pozitsiyasi esa F.Xon – Xoyskiy tarafidan 1907-yil 2-aprel kungi Duma II sessiyasi 20-majlisida e’lon qilindi. Unga ko‘ra, Kavkazorti va Turkistondagi ko‘chirish siyosati o‘sha yerdagi mahalliy va rus tilidan boshqa tillarda so‘zlashuvchi aholini ruslashtirish uchun amalga oshirilmoqda. Kelajakda musodara qilinadigan yerlar davlat fondiga emas, balki viloyat yer fondiga jamlanib, dehqonlarning ehtiyojiga qarab tarqatilishi kerak. Musulmonlarning chorvachilik hududlarida sug‘oriladigan yerlarni ko‘paytirmaslik kerak, chunki

bunday siyosat asriy an’analarni buzib, chorvadorlarni hayot manbaidan mahrum qilishga olib keladi ***[12. 1499-1504]***.

1907-yil 3-may kuni Dumada ilk bor bevosita Turkistondagi lalmi va o‘zlashtirilmagan yerlardan soliq olishni tartibga solish haqidagi qonun loyihasi muhokama qilinadi. Musulmon fraksiyasining ushbu loyihaga munosabati quyidagicha bo‘lgan: yerga xususiy mulkchilikning har qanday ko‘rinishi bekor qilinishi, yerlar butun millatning mulki ekanligi, yerdan foydalanishda barcha fuqarolarning tengligi, barcha yerlar davlat tomonidan musodara qilinib, dehqonlar ehtiyojiga ko‘ra tarqatilishi, yerni sotish, garovga qo‘yish, hadya qilish mumkin emasligi, yer resurslarini foydalanishni tartibga soluvchi komissiya a’zolari to‘g‘ri, umumiy, teng va yashirin saylov asosida tashkil etilishini nazarda tutgan edi ***[4. 673-680]***.

11-may kuni I.L.Kolendzyan Turkistonda lalmi va o‘zlashtirilmagan yerlardan soliq olishni tartibga solish haqidagi qonun loyihasi yuzasidan ma’ruza qiladi ***[1. 90]***. Bu masalada Dumadagi asosiy muhokama 22-may kuni o‘tkaziladi. Shu kuni samarqandlik deputat T.Abduxalilov Musulmon fraksiyasi nomidan ma’ruza qiladi. Unga ko‘ra, Turkistondagi lalmi yerlar 1-razryadlisidan 90 kopeekdan 1 rublgacha, 2-razryadli yerlardan 60 – 80 kopeekkacha, uchinchi razryadli yerlardan 40 – 70 kopeekkacha soliq olinishi to‘g‘ri emas. Mahalliy sharoitda lalmi yerlar uch qismga bo‘linib, uning bir qismiga ekin ekiladi, qolgani esa shudgorlab qo‘yiladi. Bunday tizim yer holatini saqlash uchun amalga oshiriladi. Soliq tizimiga ko‘ra esa Turkistondagi bunday turdagi yerlar uch barobar ko‘p soliq to‘layotganligi aniq bo‘ladi. Bunga 25 foiz zemstvo (mahalliy) solig‘ini ham qo‘shadigan bo‘lsak, bunday turdagi yerlarning 1 desyatinasiga 3 rubl 75 kopeek, 2 razryadli yerlar bir desyatinasiga 3 rubl, 3-razryadlisiga 2 rubl 70 kopeek soliq to‘lanayotganligi aniq bo‘ladi. Buning ustiga dehqonchilik hosilidan keladigan foydadan olinadigan 50 foiz soliq yanada og‘irlik qiladi. Bundan tashqari, o‘lkamizda tabiiy sharoitning qiyinligi, garmsel va ko‘pincha chigirtkalar ofati, ba’zan bo‘ladigan qurg‘oqchilik esa dehqonlar ahvolini yanada

og‘irlashtiradi. Shularni hisobga oladigan bo‘lsak, Turkistondagi lalmi yerlardan olinadigan soliq tartibini 1-razryadli yerlarning har desyatinasidan 50 kopeek, 2-razryadli yerlardan 40 kopeek, 3-razryadli yerlardan esa 25 kopeek bo‘lishini taklif qiladi. Shu bilan birga, T.Abduxalilov Samarqandda rus-tuzem maktabini ochishni ham taklif qiladi ***[1. 1037-1038]***.

Ma’ruzachi agrar masaladan tashqari, ayni vaqtda Turkiston o‘lkasidagi savdo va manufakturaning katta qismini o‘z yo‘lida to‘plab olayotgan mahalliy yahudiylarning huquqlarini cheklash haqidagi 75 punktdan iborat bo‘lgan talabnomani Dumaga topshirishga harakat qilgan ***[19: 40]***. Rus hukumati Turkiston o‘lkasini mustamlakaga aylantirishda mahalliy yahudiylarni joylardagi o‘zining tayanchi sifatida ko‘rgan. Tez orada mahalliy yahudiylar shu darajada mavqelari ko‘tarildiki, paxta bilan savdo qilish 100 foiz, manufaktura mahsulotlari bilan savdo qilishning katta qismi ularning qo‘lida to‘planadi. Bu esa mahalliy yahudiylarni rus kapitalining asosiy raqobatchisiga aylantirdi. XX asr boshlariga kelib esa rus hukumati mahalliy yahudiylarning huquqlarini cheklay boshladi ***[5: 7-8].*** Aftidan T.Abduxalilovning ushbu talabnomani tayyorlashi va Dumaga topshirishga harakat qilishiga hukumatning mahalliy yahudiylarga qarshi yuritgan siyosati turtki bo‘lgan bo‘lishi kerak.

26-may kungi 48-majlisda “Turkistondagi lalmi va o‘zlashtirilmagan yerlar haqida”gi Qonun loyihasi yana bir bor muhokama qilinadi. Qonun loyihasi muhokamasida Sirdaryo viloyatidan saylangan Kolendzyan so‘zga chiqadi. U Turkiston aholisi bugunga qadar ma’muriy sharoitlardan chetda ushlab kelinganligi, ko‘chirish siyosati qoniqarli tarzda tashkillanmaganligi, mahalliy aholi tomonidan to‘lanayotgan soliqning ortiqcha qismini bekor qilish haqidagi aniq me’yorlarini ishlab chiqilmaganligi, o‘lkadagi harbiy boshqaruv tizimini zudlik bilan bekor qilish zarurligi, agar boshqaruv tizimi mahalliy xalq qo‘liga berilganida soliqqa tortiladigan yerlar hajmi tezroq aniqlanib, Turkistonga ko‘chirilgan aholini joylashtirish ishlari ham tezroq hal bo‘lgan bo‘lardi, deb ta’kidladi ***[1: 1251-1252]***.

1907-yil 29-maydagi kechki 51-majlisda Turkistondagi lalmi va o‘zlashtirilmagan yerlardan olinadigan davlat yer soliq tizimini 1907-yil uchun cho‘zish masalasi hal qilinadi va 1907-yil uchun o‘lkaning Samarqand, Yettisuv, Sirdaryo, Farg‘ona viloyatlaridan olinadigan soliq miqdorlari kamaytirildi ***[1. 1478]***.

T.Abduxalilovning taklifi va talabi bilan 1907-yil uchun Turkistondagi lalmi yerlardan olinadigan soliq miqdori quyidagicha miqdorda belgilangan: (2-jadvalga qarang)

2-jadval ***[1 : 1041]***

Turkistonda lalmi yerlardan olinadigan soliq miqdori

№	Viloyatlar	1907-yil lalmi yerlar uchun belgilangan soliq miqdori (... desyatina hisobida)
1	Samarqand	25.500 rubl
2	Yettisuv	9.000 rubl
3	Sirdaryo	61.500 rubl
4	Farg‘ona	53.000 rubl

Dumada “Turkistondagi lalmi va o‘zlashtirilmagan yerlar haqida”gi Qonun loyihasi qabul qilinmagan bo‘lsa-da, ushbu yerlardan olinadigan soliq miqdori qisman pasaytirildi, chunki 1907-yilgacha o‘lkadagi bunday yerlardan olinadigan soliq miqdori 155 000 rublni tashkil etgan edi ***[1: 1030]***.

O‘lka vakillarining asosli takliflari Duma tomonidan qabul qilinmagan. Bunga sabab birinchidan, Duma tez orada tarqatilganligi, ikkinchidan, hukumat o‘lkadagi lalmi yerlar haqida aniq ma’lumotlarga ega emasligi edi. 26-may kuni qonun loyihasi ikkinchi marta muhokama qilinib, 29-may kuni muharririyatga beriladi ***[1: 1060]***. Loyiha 1907-yil 3-iyun kuni Duma komissiyasiga topshirilgan bo‘lsa ham qabul qilinmagan ***[4: 673-680]***.

Davlat dumasida turkistonlik mahalliy deputatlardan T.Abduxalilovgina duma minbaridan o‘lka muammosi haqida chiqish qilgan. Bu borada o‘lkadan saylangan yevropalik vakillar huquqiy va milliy masalalarda faol bo‘lganlar.

Masalan, V.Nalivkin Turkistondan saylangan vakillar orasidan Duma minbaridan ilk chiqish qilgan. U 1907-yil 30-mart kungi 19-majlisda sotsial-demokratik fraksiya nomidan Adliya vaziri ta’kidlaganidek, rus sud tizimi adolat mezoni emas, balki 1905–1906-yillarda jazolash quroli bo‘lganligini ta’kidlagan ***[12: 1754, 1463]***.

Turkistonlik deputat I.E.Mironov 17-aprelda rais va deputatlar munosabati haqida, 1-iyun kuni esa Adliya vazirligining muhim ishlar bo‘yicha sud tergovi haqida chiqishlar qiladi ***[2: 106]***. Samarqandlik deputat K.M.Aframovich 3-aprel kungi Dumaning 21-majlisida Kavkazdagi ish tashlashlar haqida gapirgan bo‘lsa, 6-aprel kuni ushbu ish tashlashlarga nisbatan bo‘lgan hukumat nuqtai nazarini tanqid qilgan ***[12: 1570; 1694-1698]***.

Davlat dumasiga saylangan turkistonlik vakillar faoliyati haqida quyidagi fikrlarni aytish mumkin. Farg‘ona viloyatidan saylangan vakil S.Muhammadjonov – savdogar, rus va fransuz tillarini yaxshi bilsa-da ***[6: 79]***, lekin siyosatdan yiroq odam edi ***[24: 38]***. Buni uning Dumada muhokama qilingan masalalar bo‘yicha qo‘ygan imzosi orqali ko‘rish mumkin. Masalan, u Dumada davlat siyosati darajasida bo‘lmagan masalalar bo‘yicha 1907-yil aprel oyidagi talabnomalarga imzo chekkan ***[7: 71-72]***. Lekin davlat siyosati darajasida bo‘lgan agrar va maorif bo‘yicha musulmon vakillari tomonidan 1907-yil may oyidagi talabnomalariga imzo chekmagan ***[7: 86]***. Keltirilgan faktlardan S.Muhammadjonovning deputatlik faoliyati bo‘yicha quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: 1) U 1907-yil may oyida Duma majlislarida ishtirok etmagan bo‘lishi mumkin; 2) Hukumatga muxolif bo‘lgan kuchlar bilan birga bo‘lishni istamagan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Ammo u musulmon deputatlarga majlis tashkil qilish uchun xonadon ajratib berganligini hisobga oladigan bo‘lsak, ikkinchi taxmin haqiqatga yaqinroqdir.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Turkistondan saylangan deputatlarning aksariyati rus tilida fikrini erkin bildira olmas edi ***[28]***. Masalan, Toshkent shahridan saylangan deputat A.Qoriev rus tilida fikrini erkin bildira olmas edi ***[14: 180]***. Maxtumqulixon esa bu tilni mutlaqo bilmas edi. Shuning uchun Peterburgga

borganida, tarjimon yollagan ***[11]***. T.Allaberganov rus tilida o‘z fikrini erkin bayon eta olsa-da ***[20: 150]***, siyosatdan yiroq bo‘lgan. O‘lkadan saylangan rus vakillarga keladigan bo‘lsak, ularning Duma minbaridan qilgan chiqishlaridan hukumatga muxolif partiyalardan ekanligi haqidagi xulosani chiqarish mumkin.

1907-yildan boshlab rus tilida bo‘lmagan arizalar Dumada qabul qilinmaydigan bo‘ldi. Bu albatta, mahalliy aholi orasida norozilik uyg‘onishiga sabab bo‘lgan. Masalan, M.Behbudiy ushbu masala yuzasidan e’lon qilgan maqolasida, parlamentda o‘lkadan vakillarimiz qatnashmasligining oqibati yaxshi emasligi, vakillikning qayta tiklanishi uchun oktabr (1907) oyida o‘lkaning yirik shaharlaridan bir nafardan vakil saylab, poytaxtga yuborilishi va ular Imperatordan vakillikni qayta tiklash haqida iltimos qilish kerakligini ta’kidlaydi. Maqolada “Musulmon ittifoqi”ning poytaxtda sho‘basi ochilganligi, ushbu organda Turkistondan vakil bo‘lishi kerakligi ta’kidlanadi. Vakil, albatta, zamonaviy siyosat ilmidan boxabar bo‘lishi kerakligi aytiladi ***[28]***. Behbudiy bu bilan qonunchilikning naqadar muhim ekanligi, agar Dumada Turkistondan vakil bo‘lmasa, qabul qilinayotgan qonunlarning o‘lka manfaati uchun foydali bo‘lmasligi, qonun qabul qilinganidan keyin esa, unga bo‘ysinish zarurligini ko‘ra bilgan. Shuning uchun M.Behbudiy qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, Dumada ishtirok etish zarurligini uqtirishga harakat qilgan.

1907-yil 3-iyun qonuniga ko‘ra, nafaqat mahalliy aholi, balki o‘lkada yashovchi rusiyzabon aholi ham Davlat dumasiga vakil saylash huquqidan mahrum qilindi. Toshkent dumasi bu masalani ko‘tarishga harakat qilsa-da, ijobiy natija bo‘lmagan. 1909-yil 5-dekabrda Toshkent shahar boshlig‘i Bosh vazir bilan uchrashib, hech bo‘lmasa ruslardan bir vakil saylanishini iltimos qiladi. P.A.Stolipin bu iltimosga dastlabki chaqiriqlarda chekka o‘lkalardan saylangan deputatlarda vatanparvarlik ruhi ko‘rinmaganligi, bu masalani Dumaning 5-chaqirig‘ida ko‘rib chiqish mo‘ljallanganligini aytadi ***[22: 5]***.

Shu tariqa, Rossiya imperiyasidagi ba’zi chekka milliy hududlar qatorida Turkiston o‘lka aholisi ham saylov huquqidan mahrum etildi. Aslida 1907-yil 3-

iyun qonunini qabul qilishdan maqsad Davlat dumasini ruslashtirish va hukumat tarafdorlari bilan qamrab olishdan iborat edi ***[18: 179]***.

Mavzuga oid materiallar tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘lkadan saylangan mahalliy vakillarga nisbatan yevropalik aholi vakillari nisbatan faol bo‘lgan. Ularning Duma minbaridan qilgan chiqishlari barchasi hukumat siyosatiga nisbatan tanqidiy ruhda bo‘lgan. Mahalliy aholidan saylangan deputatlar faoliyati esa ancha passiv edi. Hatto fraksiyaning ichki komissiya ishida ham turkistomlik deputatlar ishtiroki ham faol bo‘lmagan. Buning sabablari, birinchidan, mahalliy aholi vakillarining aksariyati rus tilida erkin so‘zlasha olmasalar, ikkinchidan, parlamentchilik tajribasi yetarli bo‘lmaganligi bois deputatlikka munosib nomzodlarning saylanmaganligi, uchinchidan mahalliy aholi orasida siyosiy elita vakillarining yetarli darajada shakllanmaganligi, edi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Государственная Дума. Указатель к Стенографическим отчетом, второй созыв, 1907 год: заседания 1-53 (20 февраля – 2 июня 1907 года). – Санкт-Петербург, 1907. – 322 с.

2. Государственная Дума. Указатель к стенографическим отчетам. Второй созыв 1907 год.Сессия II. – С. – Петербург, 1907. – 2230 с.

3. Дарчиева С.В. Государственная дума Российской империи и вопросы экономического, политического и культурного развития Северного Кавказа (1906 – 1917 гг.). – Владикавказ, 2015. – 260 с.

4. Законотворчество думский фракций. 1906 – 1907 гг. Документы и материалы. Фонд изучения наследия П.А.Столыпина, ред.коллегия И.И.Демидов, В.В.Шелохаев. – Москва: РОССПЭН, 2006. – 756 с.

5. Кантор Л.М. Туземные евреи в Узбекистане. – Самарканд: Ташкент, 1929. – С. 7-8.

6. Котюкова Т.В. Туркестанское направление думской политики России (1905-1917 гг.). – Москва, 2008. – 201 с.

7. Мусульманские депутаты Государственной думы России. Сборник документов и материалов. – Уфа: Китап, 1998. – 378 с. // Составитель Л.А.Ямаева.

8. Пясковский А.В. Революция 1905 – 1907 гг. в Туркестане. – Ташкент, 1958. – 576 с.

9. Российский парламентаризм: исторический опыт и современные тенденции развития // Всероссийская научно – практическая конференция к 100-летию Государственной думы России. – Казань. 2006. – 279 с.

10. Сметанин А.В. Институт фракции в Государственной думе российской империи (1906-1917 гг.). Дисс. канд. ист. наук. – Пермь. 2006. – 268 с.

11. Соегов М. В 1907 году последнего туркменского хана избрали депутатом Государственной Думы России // Jazyk a kultúra číslo 17-18/2014.

12. Стенографические отчеты: Т.1./ Гос. Дума. Второй созыв. 1907 г. Сессия вторая. – Санкт-Петербург, 1907. – 1158 с.

13. Туркестанские ведомости. 1907. 6 марта.

14. Туркестанский сборник. Т. 417. – С. 179.

15. Туркестанский сборник. Т. 421. – С. 29.

16. Туркестанский сборник . Т. 422. – С. 61.

17. Туркестанский сборник. Т. 423. – С. 31.

18. Туркестанский сборник. Т. 433. – С. 179.

19. Туркестанский сборник. Т. 447. – С. 40.

20. Удербаева С.К. Деятельность и полномочия казахского чиновничества Туркестанского генерал-губернаторства // Известия Национальной Академии наук Республики Казахстан. 2016. №4. – С. 150.

21. ЎзМА. И-1 фонд. 17-рўйхат. 530-йиғма жилд. 60-варақ.

22. ЎзМА. И-1 фонд. 12-рўйхат. 1906-йиғма жилд. 5-варақ.

23. ЎзМА И-1 фонд. 17-рўйхат. 531-йиғма жилд. 31-33-варақлар.

24. ЎзМА. И-1фонд. 27-ўйхат. 651-йиғма жилд. 38-варақ.

25. Циунчук Р.А. Государственная дума Российской империи: этноконфессиональное и региональное измерения. Автореф. канд.ист.наук. – Казань, 2004. – 47 с.

26. تورکیستان ولایتی گزتی. 1907. 17 май.;

27. تورکیستان ولایتی گزتی. دولت دومه سی حقده. 1907. 9 مای.

28. محمود حواجه بیحبودی. دوما و بز // طوجار. 1907. 9 آکتبر.

29. Akbarov R.H. The formation of a parliament in Turkestan: attempts and consequences // European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS). – Madrid. Vol. 2 No. 6, June 2021. – P. 121-125.

30. Akbarov R.H. Participation of Turkestan Representatives in the State Duma of Russia // Journal of Ethics and Diversity in International Communication (JEDIC) (ISSN 2792-4017 (online), Published under Volume: 2 Issue: 5 in May-2022 – P. 39-47.

31. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

32. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

33. Musayev, A. B. (2020). Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 16-21.

34. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

35. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН

ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

36. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

37. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

38. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

39. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

40. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

41. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

42. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

43. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

44. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

45. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

46. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

47. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

48. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

49. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

50. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

51. Усмонов, А., & Мўйдинов, Д. (2022). Фарғона Водийси Аҳолисининг Ижтимоий-Моддий Аҳволи. Gospodarka i Innowacje., 24, 760-764.

52. Усмонов, А., Мўйдинов, Д., & Юсупов, Ж. (2022). 1946-1991 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ТИЗИМИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 332-339.

53. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

54. Nazirov, M. (2021). The occupation of the city of kokand by the russian empire and the establishment of a colonial government system in the city of kokand. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 367-372.

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ДАСТЛАБКИ ЙИЛЛАРИДА ВАҚФ МУЛКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИГА ДОИР АЙРИМ ҚАРАШЛАР

М.Болтабоев

ФарДУ таянч докторанти

Аннотация: *Ушбу мақолада совет ҳукуматининг Ўзбекистондаги мадрасаларга бўлган муносабати тарихи ёритиб берилган. Шунингдек, мақолада вақф мулклари, мактаблар, масжидлар, диний муассасаларга оид бир қанча маълумотлар берилган.*

Калит сўз ва иборалар: *мадраса, мударрис, маориф, эски усул мактаблари, вақф ерлари, болалар боғчаси, болалар уйи, боғлар, мактаблар, маданий таълим муассасалари, Маориф халқ комиссарлиги, масжид.*

Аннотация: *В данной статье описывается история отношения советского правительства к медресе в Узбекистане. В статье также содержится некоторая информация о собственности вакуфов, школах, мечетях и религиозных учреждениях.*

Ключевые слова и фразы: *медресе, мударрис, образование, старая школа, дарственная земля, детский сад, приют, парки, школы, культурно-просветительские учреждения, Наркомпрос, мечеть.*

Annotation: *This article describes the history of the Soviet government's attitude towards madrassas in Uzbekistan. The article also provides some information about waqf properties, schools, mosques, and religious institutions.*

Key words and phrases: *madrasa, mudarris, education, old school, endowment land, kindergarten, orphanage, parks, schools, cultural educational institutions, People's Commissariat of Education, mosque.*

Совет ҳокимияти дастлабки йилларида республика халқ таълими органлари эски усул мактабларини ислоҳ қилиш ва уларни совет мактабларининг дастурига ўтказишга интилдилар. Совет органларининг эски усул мактабларига ана шундай муносабатда бўлганликлари натижасида мадраса ва мактаблар сони ҳам улардаги ўқувчилар сони ҳам кескин камайди. Тошкент Эски шаҳар халқ маорифи бўлими мудири Тиллахонов Туркреспубликаси халқ маорифи бўлимлари мудирларининг 1920 йил 29 майда бўлган I съездида бундай деган эди: “ 20 га яқин эски усул мактаблари мавжуд. Уларнинг ҳар биридаги ўқувчилар 5, 7, 10, 15 тага етмайди.Улар

аста-секин тугаб бораяпти. Мазкур мактабларга биз текканимиз, ёпиб қўйганимиз йўқ ва уларни қўллаб-қувватлаганимиз ҳам йўқ. Мадрасаларда 75 та ўқувчи бор, бундан ортиқ эмас” ***[1:19]***.

Туркистон Марказий Ижроия Комитети томонидан 1920 йил 17 ноябрда тасдиқланган “ Туркистон Республикасида ердан фойдаланиш ва ер тузилиши ҳақида”ги Низомда ўлкадаги барча ерлар умумий давлат, халқ мулки ҳисобланиб “Барча вақф ерларни, болалар боғчаси, болалар уйи, боғлар, мактаблар, маданий таълим муассасаларини Маориф халқ комиссарлигига берилиши кўзда тутилган эди”, ***[2:38]*** - дея таъкидланган эди. Бундан кўриш мумкинки, барча ерлар, шунингдек, мадраса, мактабларнинг барча вақф ерлари халқ мулки сифатида ўзгартирилиши ва тортиб олиниши кўзда тутилган эди. Бу эса мусулмон аҳолиси орасида катта норозиликни келтириб чиқарди.

Юқоридаги мулоҳазалардан шуни кўриш мумкинки, Миллатлар халқ комиссарлиги ва унинг аъзолари ўз фаолиятларининг дастлабки кунлариданоқ вақф мулкларини давлат мулкларига айлантиришга ҳаракат қилдилар. Комиссариат раҳбарларининг фикрича, совет ҳокимиятининг қонунлари билан, жумладан ер ҳақидаги декрет билан ишлаб чиқариш воситасига – ерга бўлган хусусий мулкчилик тугатилди. Ана шу сабабдан ҳам вақф ерлари давлат мулкига айлантирилиши керак эди. Бундай сиёсат эса Туркистоннинг ўзига хос урф-одат, анъана ва маҳаллий шароитига тўғри келмас эди. Айнан шу шароит орадан бир йил ўтмай, совет ҳукуматини вақф сиёсатига ўзгартириш киритишга мажбур қилди.

Маълумки, совет ҳокимиятининг дастлабки йилларида “ҳарбий коммунизм” сиёсати амалга оширилди. Бу ҳарбийлашган сиёсат халқ учун зарур бўлган иқтисодий масалани ҳал қилишни, очлик азобини тортаётган халқни озиқ-овқат билан таъминлашга қаратилиши лозим эди. Айнан шу сиёсат большевикларнинг сиёсий ҳокимиятни сақлаб қолишга кўмаклашди. “Ҳарбий коммунизм” сиёсати асосида ўтказилган озиқ-овқат

разверсткасининг жорий қилиниши эса маҳаллий аҳолини, айниқса, қишлоқ меҳнаткашларининг озиқ-овқат соҳасидаги аҳволини ёмонлаштириб юборди. “Ҳарбий коммунизм” сиёсати ўз навбатида хусусий мулкчиликни йўқ қилишга, барча соҳаларда ижтимоий-давлат мулкчилигини авж олдиришга ҳам қаратилган эди. Ўз навбатида, бу сиёсат диний мактабларни вақф мулкларини тортиб олишга ва уларни давлат ихтиёрига ўтказишга кўмаклашди.

1921 йилнинг март ойида РКП (б) нинг X съездида янги иқтисодий сиёсатнинг вазифалари белгилаб берилди. Ҳукуматнинг бу сиёсати озиқ-овқат разверсткасини озиқ-овқат солиғи билан алмаштиришга, савдо-сотиқни эркинлаштириш, хусусий тадбиркорликка йўл очиб беришдан иборат бўлган. Янги иқтисодий сиёсат даврида вақфлар маблағи миқдори қулай шароит туфайли кўпайиб борди. Бироқ, совет ҳукумати бу маблағлардан ўз манфаатлари йўлида фойдаланиш учун қулай шароит қидира бошлаган. 20-йилларнинг иккинчи ярмидан НЭП ўз моҳиятини йўқотди, эркин савдо ва хусусий тадбиркорлик чеклаб қўйилди. Бу жараён мактаблар фаолиятига ҳам ўз таъсирини ўтказди ***[3:179]***.

Туркистон АССР Советларининг X съезди (1921 йил август) ер сиёсати ҳақидаги қароридан вақф масаласи ҳам ўрин олган эди. Унда вақф мулкининг икки шакли белгилаб берилган:

1) Масжид, мозорларга қарашли диний аҳамиятга молик вақф мулклари;

2) Мадраса, мактаб ва бошқа муассасаларга қарашли маданий-маърифий аҳамиятли вақфлар.

Съезд диний мақсадлардаги вақф ерларни умумдавлат фондига олишдан воз кечишга қарор қилади. Маданий–маърифий мақсадлардаги вақфларни маҳаллий аҳоли талаб қилган тақдирдагина социалистик мулкка айлантириш мумкинлиги қарорда акс эттирилади.

1920 йилнинг июнь ойида Туркистон Республикасидаги Халқ Маорифи

бўлими мудирларининг съездида ҳам эски мактаб, мадраса ва қорихоналар масаласи муҳокама қилинди. Бу борадаги муаммолар тўғрисида Туркистон Республикаси Маориф халқ комиссарлиги турк секциясининг аъзоси, академик бўлими бошлиғи Мунаввар Қори Абдурашидхонов маъруза қилди. У мактаб, мадрасаларнинг пайдо бўлиши уларнинг фаолияти, мақсади, вазифалари, ҳамда ҳукуматнинг халқ маорифи тизимига нисбатан олиб борган сиёсати тўғрисида батафсил маълумот беради ***[4:6]***.

Мусулмон мактаблари фаолиятига XX асрнинг 20 йилларида В.И.Ленин томонидан ишлаб чиқилган “маданий инқилоб” деб номланган сиёсат ҳам салбий таъсир кўрсатди. Бу сиёсат ўз навбатида Туркистон халқларига “янги маданиятни” сингдириш ва халқнинг қадимий маданиятидан унинг асл моҳияти бўлган миллийликни чиқариб ташлашга қаратилган эди. “Маданий инқилоб” сиёсати заминида ўша даврда пайдо бўлган маданиятдаги “пролеткульт” (пролетар маданияти) йўналиши ётар эди. “Пролеткульт”чилар асосан европалик аҳоли вакилларидан иборат бўлиб, улар маҳаллий аҳолининг миллий урф-одат ва қадриятларини тан олмаганлар. Кўриниб турибдики, улар ўз фаолиятлари давомида диний мактабларга ҳам қарши турган.

Совет ҳукумати ўз ҳукмронлигининг дастлабки йилларида қуролли қаршилик ҳаракати - туфайли вақф масалалари билан шуғуллана олмади. Бу вақтда шу хусусдаги тегишли қонун ҳужжатлари ҳам ишлаб чиқилмаган эди. Советлар томонидан олиб борилган “ҳарбий коммунизм”, “янги иқтисодий сиёсат”, шунингдек, “маданий инқилоб” сиёсатлари натижасида кўплаб мадраса, мактабларнинг иқтисодий асоси бўлган вақф мулклари ҳукумат томонидан тортиб олинди. Бундай сиёсат натижасида эса маҳаллий аҳоли ичида норозилик кучайиб, қуролли қаршилик ҳаракати янада авж олди. 20-йиллар бошида вақф мулкларининг мусодара қилиниши, мактаб, мадрасаларнинг мажбуран ёпиб қўйилиши ўз навбатида маҳаллий аҳолининг советлар истибдодига қарши қаратилган қуролли қаршилик ҳаракатига

уларнинг хайрихоҳлик билдиришига олиб келган эди. Шу боис ҳам совеҳукумати Ўрта Осиёда авж олиб бораётган қуролли қаршилик ҳаракатининг кучайиши сабабларини ўрганишга, исломга, мусулмон руҳонийларига муносабатларда партиянинг бирмунча ён беришдан иборат вақтинчалик тактик сиёсатини қўллашга ҳаракат қилди. 1922 йил 12 майда Туркистон КП МК ва Тошкент Эски шаҳар комитети билан ҳамкорликдаги “Босмачилик билан курашиш ва РКПнинг Туркистондаги навбатдаги вазифалари” масаласи юзасидан V Пленум бўлиб ўтди. Пленумда Туркистон КП МК раиси А.Раҳимбоев ҳам қатнашди. Унда мавжуд сиёсий вазият ҳақидаги масалалар муҳокама қилинди. Пленум ислом динига маълум эркинлик бериш, қози ва бийлик судларини тиклаш, вақф мулкларини мактаб, масжид ва мадрасаларга қайтариб бериш, совет қонунчилигини шариатга мослаштириш ҳақида қарор қабул қилди.

Қарорда совет ҳукуматининг Шарқда ислом , шариат анъаналари билан ҳеч қандай жанг қилмаслиги тўғрисида ҳам фикр юритилган. Бу масалалар юзасидан чора-тадбирлар ишлаб чиқиш Адлия халқ комиссари Дўстмуҳамедовга топширилди. Туркистон МИК маълум вақт ичида халқ судлари ва бийлар фаолиятини ҳамда вақфларни бошқаришни, шариат масалаларини туб аҳолига мослаштириши керак эди.

РКП (б) Марказий Комитетининг 1922 йил 18 майдаги “Туркистон – Бухоро ишлари тўғрисида”ги қарори чиқди. Унда “Тинч меҳнатга қайтишни истаган барча босмачиларга авф эълон қилиш, вақф ерларини уларнинг собиқ эгаларига қайтаришни ва маҳаллий судларни тиклаш” масаласига алоҳида эътибор қаратилди. Ушбу қарор асосида РКП (б) МКнинг Ўрта Осиё бюроси Г.К.Оржоникидзе ҳамда Ш.Элиаваларнинг бевосита иштирокида Туркистон, Бухоро ва Хоразмдаги совет ва партия раҳбар органлари вақф ерларини аввалги эгаларига қайтариб бериш, шунингдек, вақфларни масжид, мадраса ва эски мактаблар ихтиёрига қайтариб бериш, қозилик судларини тиклаш бўйича амалга оширилиши лозим бўлган масалалар бўйича ҳам келишиб

олинди.

Туркистон Республикаси Советлари МИК 1922 йил 20 июнда “Туркреспублика мадраса ва масжидларига вақфларни қайтариш ҳақида” ги 75-сонли декретни чиқарди. Декретга биноан вақф мулклари мадрасаларга қайтариб берилгандан сўнг, ушбу мулклардан фойдаланиш натижасида тушадиган маблағлар мадраса ва масжидларни, мактабларни сақлаш уларнинг биноларини таъмирлаш, мадраса ва мактаблардаги тарбиячиларга ҳақ тўлаш каби мақсадлар учун ишлатиладиган бўлди.

Россия империяси даврида Туркистоннинг барча генерал-губернаторлари диний мактабларни назоратда ушлаб туриш, маълум тарзда руслаштириш сиёсатини олиб борганлар. Мустамлака маъмуриятининг ҳар қандай чеклаш ва тазйиқларига қарамай, диний мактаблар ўз фаолиятини давом эттириб, уларнинг сони йилдан-йилга ортиб борди. Урф-одат, анъаналарга мувофиқ, маҳаллий аҳоли ўз фарзандларини асосан диний мактабларда ўқитар эди.

Шу боис Туркистонда октябрь тўнтаришига қадар мактаб ва мадрасалар деярли эркин тарзда фаолият олиб борди. 1917 йил октябридаги давлат тўнтаришидан сўнг, совет ҳукумати томонидан уларнинг фаолияти чеклаб қўйила бошланди. Мактаб ва мадрасалар устидан бир пайтнинг ўзида бир неча комиссарликлар назорат олиб борди. Хусусан, Миллатлар халқ комиссарлиги, Маориф халқ комиссарлиги ўз фаолиятларининг дастлабки кунлариданоқ мактаб ва мадрасалар ҳуқуқларини чеклашга ҳамда вақф мулкларини тортиб олиб, давлат ихтиёрига ўтказишга ҳаракат қилдилар. 1918 йил бошида РСФСР ХКС томонидан “Черковни давлатдан ва мактабни черковдан ажратиш ҳақида”ги декретнинг чиқарилиши диний мактабларнинг фаолиятига салбий таъсир кўрсатди. Декрет эълон қилингандан сўнг мактаб, мадрасалар сони ва улардаги ўқувчилар сони ҳам камайиб борди.

Совет ҳукуматининг зўравонлик ва тазйиқ сиёсатига қарамай, эски мактаб ва мадрасалар совет ҳокимиятининг дастлабки йилларида ҳам халқ

орасида ўз мавқеини сақлаб қолди. Большевиклар томонидан мадраса, мактаблар вақф мулкларининг ғайриқонуний тарзда талон-тарож қилиниши ҳамда уларни давлат ихтиёрига ўтказилиши маҳаллий аҳолининг кўплаб жиддий норозилигига сабаб бўлди. Ана шунинг оқибатида мусулмон руҳонийлари ва кўплаб зиёлилар XX асрнинг 20-йилларига келиб, мустамлакачилик тузумига қарши қаратилган ҳамда ўлкада авж олиб бораётган қуролли қаршилик ҳаракатига қўшилиб кетди. Совет ҳукумати норозилик ҳаракати авж олганлигидан ташвишга тушиб , маҳаллий аҳоли талабларини ҳисобга олишга мажбур бўлди. Ҳукумат мадраса, мактаблар вақф мулкларини аввалги эгаларига қайтариш масаласини кўриб чиқиб, бир қанча қарорлар қабул қилди. Жумладан, “Туркреспублика мадраса ва масжидларига вақфларни қайтариш ҳақида” ги декрет маҳаллий аҳоли ҳаётида ижобий аҳамиятга эга бўлди. Декрет асосида мадрасаларнинг қайтадан ташкил этилиши бошланди, улардаги ўқув дастурларига ўзгартиришлар киритилди. Мактаблар ҳам бир қадар эркин фаолият олиб бориш имкониятига эга бўлдилар. Диний ўқув муассасаларига совет органларининг доимий равишда аралашишларига барҳам берилди. Мактаб ва мадрасаларнинг сони аста-секинлик билан ортиб борди. Уларда таҳсил олувчи талабаларнинг сони ҳам орта бошлади.

Хулоса қилиб айтганда, бу ҳол совет ҳукумати ва коммунистик партиянинг бутун советлар мамлакатида юзага келган ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маънавий соҳадаги оғир инқирозий ҳолатларни ҳисобга олиши, жумладан, Туркистон ўлкасидаги маълум шарт-шароитларни эътиборга олишга мажбур бўлганлигининг тугал ҳосиласи эди.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. ЎзР МДА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 1002-иш, 19-варақ.
2. ЎзР МДА, Р.17-фонд, 1-рўйхат, 43-иш, 38-варақ.
3. Ўзбекистоннинг янги тарихи.Иккинчи китоб ... -Б. 179.

4. Алимов И.А. Эски мактаб ислоҳоти ташаббускори // Халқ таълими.Тошкент, 1993. №10-12. -Б. 6

5. Salmonov, A., & Boltaboev, M. (2021, August). THE CONSEQUENCES OF THE SOVIET GOVERNMENT'S VIOLENT POLICY TOWARDS NON-MUSLIMS IN UZBEKISTAN: https://doi. org/10.47100/conferences. v1i1. 1251. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.05).

6. Salmonov, A., & Boltaboev, M. (2021, June). THE CONSEQUENCES OF THE SOVIET GOVERNMENT'S VIOLENT POLICY TOWARDS NON-MUSLIMS IN UZBEKISTAN. In Конференции.

7. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

8. Boltaboyev, M. (2020). HISTORY OF RELIGIOUS CONFESSIONAL POLITICS IN THE SOVIET PERIOD. Theoretical & Applied Science, (6), 668-671.

9. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

10. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

11. Болтабоев, М. (2023). СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДРАСАЛАРГА БЎЛГАН МУНОСАБАТИ ТАРИХИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 115-119.

12. Bekmirzaev, R. B. (2022). Socio-Economic Causes Of Ethnic Conflicts In The Ferghana Valley. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(06), 135-138.

13. Bekmirzaev, R. B. (2022). Historical And Political Problems Of The Ferghana Valley. Asian Journal Of Multidimensional Research, 11(6), 104-106.

14. Жўраев, Х. П., Бекмирзаев, Р. Б., & Юсупов, Ж. (2022). ЧОР РОССИЯСИНИНГ ТУРКИСТОНГА АҲОЛИНИ КЎЧИРИШ СИЁСАТИДА ЕР БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАРНИНГ ҲАЛ ЭТИЛИШИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 54-59.

15. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

16. Begalievich, B. R. (2022). Inter-ethnic conflicts in the south of the Kyrgyz Republic. Eurasian Research Bulletin, 14, 51-56.

17. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

18. Бекмирзаев, Р. (2022). Yangi O ‘zbekistonda millatlararo‘totuvlik va dinlararo bag ‘rikenglikni mustahkamlashning huquqiy asoslarini yaratilishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 585-593.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI AMALGA OSHIRISHDA MILLIY INSTITUTLARINING XALQARO HAMKORLIK BORASIDAGI FAOLIYATI

Maxmudov O‘ktamjon Muxsinjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti magistranti
maxmudovoktamon0@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklarini ta’minlashdagi milliy institutlarning yaratilishi, faoliyati va huquqiy asoslari hamda bu institutlarning Birlashgan Millatlar Tashkilotining bu sohaga qamrab olingan idora va tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarining o’rnatilishi haqida umumiy ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar va iboralar*: Inson huquqlari, Ombudsman, Biznes Ombudsman, Bolalar Ombudsmani, Inson huquqlari Milliy markazi, Milliy preventiv mexanizm, Inson huquqlari uyi, BMT, Universal davriy hisobot, Inson Huquqlari Kengashi.*

Аннотация*: В данной статье приведены общие сведения о создании, деятельности и правовой базе национальных учреждений по защите прав и свобод человека в Республике Узбекистан, а также об установлении отношений сотрудничества этих учреждений с учреждениями и организациями системы ООН. задействованы в этой сфере.*

Ключевые слова и фразы*: права человека, омбудсмен, бизнес-омбудсмен, детский омбудсмен, Национальный центр по правам человека, Национальный превентивный механизм, Дом прав человека, ООН, Универсальный периодический доклад, Совет по правам человека.*

Annotation*: This article provides general information about the creation, activity and legal basis of national institutions for the protection of human rights and freedoms in the Republic of Uzbekistan, as well as the establishment of cooperation relations of these institutions with the United Nations agencies and organizations involved in this field.*

Key words and phrases: *Human Rights, Ombudsman, Business Ombudsman, Children's Ombudsman, National Center for Human Rights, National Preventive Mechanism, Human Rights House, UN, Universal Periodic Report, Human Rights Council*

Hozirgi paytda dunyo bo‘yicha turli davlatlarda turlicha siyosatdagi ustuvor yo‘nalishlar bor. Inson huquqlari va ularning ta’minlanishi va kafolatlari umumjahon diqqat markazidagi asosiy masalalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston Respublikasida ham inson huquqlari davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mustaqillikka erishiboq O‘zbekiston jahon hamjamiyatiga umume’tirof etilgan huquqiy normalarni tan olishi va amal qilishini bildirdi. Bu normalarning asosiy qismi esa xalqaro nufuzli tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)da mujassamlashgan. Shu bois 1992-yil 2-martda bu nufuzli tashkilotga a’zolikka qabul qilingach u bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirib boruvchi milliy tashkilot va sistema yaratilishi zarur edi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi bo‘lib inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar tizimini tashkil etdi. Parlament Ombudsmani, Bolalar Ombudsmani, Biznes-Ombudsmani va Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazni bu tizimga kiritishimiz mumkin ***[1:9].*** Ularning xalqaro tashkilotlar ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik munosabatlarida o’rni juda katta. Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi BMT bilan hamkorlikni va o‘zaro munosabatlarni tobora chuqurlashtirish tashabbuskori bo‘lish bilan birga, bu xalqaro tashkilotning inson huquqlari va erkinliklari himoya qilishni ta’minlaydigan qudratli tashkilotga aylanishining tarafdori bo’lib qolmoqda ***[2:178].***

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 23-fevralda birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida Oliy Majlisning inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) lavozimi ta‘sis etildi va Sayyora Rashidova ushbu lavozimga saylandi hamda 2015-yilgacha ushbu lavozimda faoliyat olib bordi. 2015 – 2021-yillarda Ulug‘bek Muhammadiyev, so‘ngra 2021-yildan esa Feruza Eshmatova ishlab kelmoqda. **Ombudsman** (shvedcha *ombudsman* — biron kishi manfaatlarining vakili) — turli xil ma’muriy organlar, ba’zi mamlakatlarda esa — shuningdek, xususiy shaxslar va birlashmalarning inson huquqlariga rioya etishini nazorat qilish uchun maxsus saylab (tayinlab) qo‘yiladigan mansabdor shaxs ***[3:66].***

Inson huquqlari bo‘yicha vakilning maqomi va faoliyat doirasi 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman)” to‘g‘risidagi Qonun bilan belgilab berildi. U 20 moddadan iborat etib belgilandi. 2004-yil 27-avgustda ushbu Qonunga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilib yangi tahrirda 22 moddadan iborat etib chop etildi. Shuningdek, 2021-yil 10-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6312-son farmoni imzolandi. Unga ko‘ra moddiy texnik bazasi kuchaytirilishi, Qoraqalpog‘iston Respulikasida viloyatlar va va Toshkent shahrida mintaqaviy ombudsman vakillari lavozimlari joriy etildi va 14 ta shtat ajratildi. Saylanish yoshi 25 yoshdan 30 yoshga oshirildi. Ushbu qonun hujjatlari bilan Vakil faoliyati yo‘nalishlari va vakolatlari belgilab berildi.

Bu lavozimga saylangan shaxs o‘z faoliyatida huquqni himoya qiluvchi organlar bilan aloqada ishlaydi, shaxslar va davlat, shaxslar va hokimiyat orasida munosabatlarni yaxshilashga ko‘maklashadi. Bu mansabdor shaxsga O‘zbekiston Respublikasi davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari to‘g‘risidagi amaldagi qonun hujjatlariga rioya

etilishining samaradorligi ustidan parlament nazoratini ta’minlash vakolatlari berilgan. Vakil o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, boshqa qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek, xalqaro huquqning umume’tirof etgan prinsiplari va normalariga asoslanadi. Vakil o‘z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo‘lmagan tarzda amalga oshiradi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi ***[4:5].*** O‘z faoliyatini olib borish paytida vakilning daxlsizligi ta‘minlanadi va u tergov ishlari sohasida katta vakolatlarga ega. Vakil 5 yil muddatga Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senat tomonidan saylanadi.

Vakil BMT doirasida Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Komissari bosh boshqarmasi, UNICEF, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar: YXHT ning demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi, Xalqaro qamoqxonalar islohoti tashkiloti (PRI), AQSHning xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID), Konrad Adenauer nomidagi jamg’arma, Mintaqaviy muloqot tashkiloti, Milliy huquqni himoya qilish muassaslarining mintaqaviy alyansi kabilar bilan hamkorlik qiladi, uchrashuvlar va xalqaro seminarlar uyushtiradi.

2019-yilda ilg‘or xalqaro tajribalarga asoslanib, ombudsman huzurida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarining oldini olish bo‘yicha Milliy preventiv mexanizm yo‘lga qo‘yildi va tegishli qonun hujjatlari bilan mustahkamlandi. Unga muvofiq Vakil qamoqda saqlash joylariga muntazam kirib turish orqali qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llashning oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rishi belgilab berildi ***[5].***

Ayniqsa so‘nggi yillarda o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlari ko‘payib bormoqda. Masalan, Prezidentimizning 2019-yil 22-apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha

vakili (ombudsman) o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi joriy etilishi natijasida mamlakatimizda bola huquqlari bo‘yicha himoyasining tashkiliy va institutsional asoslari yanada mustahkamlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-maydagi “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘mmshimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida Bola huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman)ning faoliyati yo‘nalishlari belgilandi. U ham Inson huquqlari bo‘yicha vakil bilan bir xil huquq va vakolatlarga ega. Faoliyati davomida u qonuniylik, adolatparvarlik, demokratizm, insonparvarlik, ochkoralik, har bir inson uchun ochiqlik tamoyillariga asoslanib ish yuritadi ***[6].***

Bolalar ombudsmani lavozimi 2019-yilda joriy etilgan bo‘lsada, aslini olganda 1992-yilda BMTga a’zo bo‘lgach, uning “Bola huquqlari to‘g‘risida” Konvensiyasini O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinib ushbu tashkilot bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan paytdayoq bu sohadagi majburiyatlarni bajarishga kirishilgan edi. Bolalar ombudsmani lavozimi joriy etilishi esa bu sohadagi ishlarni yangi bosqichga kirganligidan dalolatdir.

Bundan tashqari “Biznes ombudsmani” tushunchasi ham bo‘lib bu lavozim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili institutini ta’sis etish to‘g‘risida”gi farmoniga asosan tashkil etilgan. Unda vakilning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari belgilangan. Shu yilning 29-avgust kuni esa huddi shu nomda 29 moddadan iborat O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ham qabul qilindi ***[7]***. Biznes ombudsmanning asosiy vazifasi tadbirkorlar va biznes sohasi vakillarining Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib huquq va erkinliklarini ta’minlanishini nazorat qilish bilan birga to‘g‘ri faoliyat olib borishiga ko‘maklashish va monitoring qilib borish, xorijiy mamlakatlarning tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini bog‘lash va rivojlantirishdir. Vakil Prezident tomonidan 30-yoshdan kichik bo‘lmagan, 5 yil

O‘zbekiston Respublikasida muqim yashagan va tadbirkorlik sohasida tajribaga ega oliy ma’lumotli shaxslardan tayinlanadi. U Prezidentga hisobot topshiradi.

Inson huquqlarini ta’minlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktyabrdagi farmoniga muvofiq Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil etilgan. Bu sohadagi keng ko‘lamli ishlar aynan shu markaz orqali olib boriladi. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyati samaradorligini oshirish va inson huquqlari sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarishning samarali tizimini yaratish maqsadida 2018-yil 10-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi bu sohadagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish bo‘yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini, milliy ma’ruzalar tayyorlanishini, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirishni ta’minlovchi davlat organi hisoblanadi. Markaz o'z vakolatlarini barcha davlat organlari va tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-avgustdagi 663-son “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzurida inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilish sohasida kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil qilish to‘g‘risidagi” qarori bu sohadagi ishlarni yanada jadallashtirishga, kadrlarni malakasini oshirish orqali aholini o‘z huquq va erkinliklarini tanitish, huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-noyabrdagi 932-son “Demokratlashtirish va inson huquqlari” jurnali tahririyatining faoliyatini qo’llab quvvatlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan inson huquqlari sohasidagi amaliy ishlarni yoritib borilishiga imkoniyat yaratib berdi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-

martdagi 180-son “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatining moddiy texnika ta’minotini yanada yaxshilash to‘g‘risida”gi qarori kabi qonun hujjatlari bu markaz faoliyat yuritishining huquqiy asoslari bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu qaror bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazida Inson huquqlari bo‘yicha axborot-kutubxona markazi – “Inson huquqlari uyi” tashkil etildi. Markazga:

– inson huquqlari sohasida ilmiy-huquqiy bazani tizimlashtirish, o‘quv, ilmiy-uslubiy va ommabop nashrlar hamda xalqaro shartnomalarning davlat tilidagi to‘plamlari doimiy chop etilishini ta’minlash;

– inson huquqlarini ta’minlashga oid islohotlarning xronologiyasini yuritish, fuqarolar va ilmiy tadqiqotchilarga inson huquqlari bo‘yicha tizimlashgan ilmiy-huquqiy manbalardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratish vazifalari yuklatildi.

Bu boradagi ishlarda xalqaro nufuzli tashkilot BMT bilan hamkorlik esa bu huquqlaring yaratilish va ta’minlanish darajasini yanada oshishiga xizmat qilib kelmoqda. Masalan, O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklariga doir BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to’g’risida xalqaro Pakt (1966-yil 19-dekabr), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro Pakt (1966-yil 19-dekabr) kabi xalqaro hujjatlar tan olindi va ularga sadoqat bilan amal qilinmoqda. O‘zbekiston BMT kotibiyatining inson huquqlari va erkinliklariga doir 21 ta deklaratsiya, pakt va konvensiyalarga qo’shildi ***[8].***

Hozirda O‘zbekiston Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazi bir qator nufuzli xalqaro hamkorlar, jumladan BMT doirasida quyidagi idora va tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi ***[9].***

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturi (UNDP) – 1993-yildan,

2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Komissarligi idorasi (OHCHR) – 1996-yildan;

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg’armasi (YUNISEF) – 1994-yildan;

4. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) – 1992-yildan;

5. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM) – 2018-yildan;

6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik Fondi (UNFPA) – 1993-yildan;

7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy idorasi (UNODC) – 1993-yildan;

8. BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha byurosi (UNESCO) – 1993-yildan;

9. Universal davriy tahlil;

10. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mita – 1995-yildan;

11. Inson huquqlari bo‘yicha kengash – 2021-yildan;

12. Irqiy kamsitishni tugatish qo‘mita – 1995-yildan;

13. Inson huquqlari qo‘mitasi – 2020-yildan;

14. Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mita – 1992-yildan;

15. Qiynoqlarga qarshi qo‘mita – 1995-yildan;

16. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Qochoqlar masalalari bo‘yicha Oliy Komissarining (QMOK) Markaziy Osiyodagi vakolatxonasi (UNHCR) kabi tashkilot va idoralar bilan hamkorlik aloqalari olib bormoqda.

Shuningdek, ushbu markazning xalqaro majburiyatlarini amalga oshirish doirasida BMT ning ustav organlari : universal davriy hisobot, BMTning inson huquqlari bo‘yicha kengashning maxsus protseduralari ham faoliyat yuritadi. Universal davriy hisobot (UDX) BMTga a’zo barcha davlatlarda inson huquqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rib chiqishning yagona mexanizmi hisoblanadi.

UDX Inson Huquqlari Kengashi tarkibiga kiradi va har bir mamlakat uchun inson huquqlari bilan bog‘liq vaziyatni yaxshilash bo‘yicha ko’rilgan choralar-tadbirlar to’g’risida ma’lumot berish, shuningdek ushbu sohadagi majburiyatlarini bajarish imkoniyatini beradi. UDX Kengashning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan inson huquqlari bilan bog'liq vaziyatni tahlil qilish paytida barcha davlatlarga teng yondashuvni kafolatlashga intiladi. Ushbu mexanizm barcha mamlakatlarda inson huquqlari bilan bog'liq vaziyatni yaxshilash va dunyoning istalgan nuqtasida jinoyatlarga qarshi kurashishning yakuniy maqsadiga erishish uchun mo’ljallangan ***[10].***

Milliy markazning BMT bilan shartnomaviy organlariga quyidagilar kiradi: Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mita, Inson huquqlari bo‘yicha qo‘mita, Irqiy kamsitishni tugatish qo’mita, Bola huquqlari bo‘yicha qo’mita, Qiynoqlarga qarshi qo‘mita, Ayollarga nisbatan kamsitishni tugatish, Nogironlar huquqi bo‘yicha qo‘mita. Milliy markaz bugungi kunda ushbu tashkilot va organlar bilan muntazam ravishda aloqada bu sohadagi faoliyatini olib bormoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, BMT dunyo bo‘yicha turli rivojlanish darajasidagi, turli millatli, dinli va tuzumli davlatlarni qamrab oladi va ularda umume’tirof etilgan inson huquqlari bo‘yicha normalarni davlatlarda joriy etilishi va amalga oshishi yuzasidan yordam berib kelmoqda. Shunday ekan yuqoridagi hamkor tashkilotlar nomidan ma’lumki O‘zbekiston Respublikasi ham hozirgi kunda inson huquqlarini ta’minlash sohasida jahon standartlari darajasida ish olib borish yo‘lidan dadil bormoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Saidov A.X. O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar tashkiloti: Inson qadr-qimmati yo‘lidagi 30 yillik hamkorlik. “Yangi O‘zbekiston va inson huquqlari” turkum risolalar. Toshkent, 2022

2. Egamberdiyeva T, Salmonov A, Siddiqov I. BMT va mustaqil O‘zbekiston: hamkorlik asoslari, yo‘nalishlari va istiqbollari (o‘quv uslubiy qo‘llanma). Farg‘ona, 2014.

3. O‘zbekistonning eng yangi tarixi, o‘quv uslubiy majmua. Farg‘ona, 2021.

4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, “O” harfi.

5. https://lex.uz/docs/5625269

6. https://insonhuquqlari.uz

7. https://ombudsman.uz

8. https://biznesvakil.uz

9. https://uzbekistan.un.org

10. https://xs.uz

11.

1920-1930 YILLARDAGI AHOLI IJTIMOIY HAYOTINING O‘RGANILISHI (FARG‘ONA VILOYAT DAVLAT ARXIVIDAGI HUJJATLAR MISOLIDA)

Nizomiddinov Odiljon Baxodirovich

Farg‘ona davlat universiteti doktoranti

nursux.111@mail ru.

Annotatsiya*: Maqolada Farg‘ona viloyat Davlat arxividagi hujjatlar misolida 1920-1930 yillardagi aholi ijtimoiy hayotining o‘rganilishi tarixiy jihatdan tadqiq etilgan.*

Kalit so‘z va iboralar: *ijtimoiy hayot, arxiv, hokimiyat, aholi ijtimoiy hayoti*

Аннотация: *В статье исторически исследуется изучение общественной жизни населения в 1920-1930-е годы на основе документов Государственного архива Ферганской области.*

Ключевые слова и фразы: *общественная жизнь, архив, власть, социальная жизнь населения.*

Annotation: *In the mentioned article, the social life of the population in the 1920s and 1930s in terms of its historical aspects is investigated based on the examples of documents in the State Archives of Fergana Province.*

Key words and phrases: *social life, archive, government, population's social life.*

Ishchilar sinfining yuqori mavqei hayotning barcha jabhalarida, shu jumladan, ijtimoiy sohada ham ularga ustunlikni ta’minladi. Bu davrda aholining tura-joy muammosi keskin hisoblangan. Ish joylari, oziq-ovqat mahsulotlari va keng iste’mol mollari yetarli bo‘lmagan og‘ir sharoitlarda davlat miqyosida muammolarni hal etish yo‘lida keng chora-tadbirlar qabul qilindi va bunda, birinchi navbatda, fabrika-zavod ishchilarining manfaatlari hisobga olindi. Farg‘ona viloyati ishchilar faoliyatini, turmush-tarzini yaxshilash borasidagi hujjatlar viloyat davlat arxivida yetarli ma’lumotlar mavjud. Masalan, viloyatda sovet hokimiyati dastlabki yillaridayoq ishchilar sinfi turmush-tarzini yaxshilash komissiyasi tuzilgan. Ushbu komissiyaning 1921-yil 7-apreldagi yig‘ilishida quyidagi vazifalarni bajarish haqida qaror qabul qilinadi:

1) Ishchilar turmush tarzini yaxshilash komissiyasi uezd bo‘limlarini tashkil etish;

2) Ishchilarni xonadonlar (kvartira) bilan ta’minlash va turar-joy masalasini yaxshilash;

3) Ishchilarni isitish bilan bog‘liq muammolarini hal qilish;

4) Ishchilarni oyoq kiyimlari va issiq kiyimlar bilan ta’minlash ***[1].***

Ishchilar sinfi turmush-tarzini yaxshilash masalasi doimiy ravishda hukumat nazoratida turganligini quyidagi yana bir misol orqali ko‘rishimiz mumkin: Ishchilar turmush tarzini yaxshilash Farg‘ona viloyat viloyat komissiyasining 1921-yil 28-sentyabrda joriy yilning noyabrь oyiga qadar uy joy masalasini bo‘yicha belgilangan vazifani yakunlash kerakligi ta’kidlangan. Shunga ko‘ra, ishchilar turmush tarzini yaxshilash bo‘yicha viloyat komissiyasi davlat muassasalarida band bo‘lgan xodimlarni uy-joy masalasini yaxshilashga qaror qiladi ***[2].***

Sovet hokimiyati yirik, shuningdek, ko‘pincha o‘rta va, hattoki, mayda mulkdorlarning mulkini ham ommaviy tarzda majburiy usulda hisobga olish, ularni majburiy soliqqa tortish, ular zimmasiga turli noqonuniy majburiyatlar yuklash, kerak bo‘lsa davlat ixtiyoriga olish (rekvizitsiya) va musodara qilish ishlarini

boshlab yubordi va davom ettirdi. Bu haqida viloyat arxividan quyidagi hujjatni misol sifatida qo‘rsatishimiz mumkin:

1924-yil 24-dekabrda Farg‘ona viloyat Ijroya qo‘mitasining quyidagi mazmunda Majburiy farmoni e’lon qilinadi:

Farg‘ona viloyatida mavjud bo‘lgan xususiy paxta tazalash korxonalarni hisobga olish maqsadida Farg‘ona viloyat Ijroya qo‘mitasi buyuradi:

1. Xususiy paxta tozalash korxonolari egalariga farmon e’lon qilingan kundan bir hafta ichida ishlab chiqqan matolarini Viloyat ijroiya qo‘mitasi qoshidagi sanoat inspektori tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazishlari shart.

2. Kelgusida har oyning birinchi kunida Sanoat inspektoriga qayta ishlangan paxta, sarflangan ish soati, ishchi xizmatchilar, korxonadagi bir oy davomida bo‘lib o‘tgan barcha o‘zgarishlar haqida hisobot berishlari shart deb belgilansin.

3. Ushbu korxonalar rahbarlari zimmasiga korxona yon atrofidagi yo‘llarni tartibga solish va taьmirlash majburiyati yuklatilsin.

4. Yuqoridagi farmon ijrosini bajarmagan shaxslar 300 rubl miqdorida jarimaga tortiladi ***[3].***

Ishchilar sinfining yakka hukmronligi o‘rnatilgan davlat bir vaqtning o‘zidagina chiqarilgan hujjat va harakatlar asosida yuqoridagi qatlamlarni yo‘q qila olmagan, chunki ular tovar-pul munosabatlarida juda faolliklari sababli katta xo‘jalik kuchiga ega bo‘lganlar. lekin sovet hokmiyati o‘z tasarrufidagi barcha kuchlar va vositalar yordamida ushbu tabaqalar faoliyatini chegaralashga uringan. Xususiy mulkchilikka aloqador holatlarni chegaralash va insonlarni siqib chiqarishning asosiy vositalaridan biri, bu ularning iqtisodiy kuchiga zarba berishga qaratilgan davlat soliq siyosati edi. Yuqoridagi fikrimizni isbotlovchi bir arxiv hujjatidan namuna keltiramiz.

Farg‘ona okrug (tuman) Sovetlari Ijroiya qo‘mitasi prezidiumi 43-sonli 1930-yil 29-martdagi majburiy qarori

1. Buvayda tumani Sariqqo‘rg‘on va Qirg‘iz qishloq fuqarolar yig‘ini hududida sholi ekish taqiqlansin.

2. Tuman hududlarining ushbu ekin tasodifiy bo‘lgan va asosiy qishloq-xo‘jalik ekinlari orasida kam qiymatli bo‘lgan qishloqlarida sholi ekishga mahalliy hokimiyat organlarining ruxsatisiz yo‘l qo‘ymaslik.

3. Shaharlarning keyingi qismidagi yo‘laklarga undan 3 kilometrlik chiziqdan sholi ekish taqiqlansin.

Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish yer, okrug suv xo‘jaligi va ma’muriy organlar, shuningdek, tuman ijroiya qo‘mitalari va qishloq kengashlari zimmasiga yuklansin ***[4].*** Ushbu hujjat orqali biz 20-yillardayoq sovet hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligi ustidan ham hukmronlik o‘rnatish siyosati boshlanganligini, jamoalashtirish siyosatiga faol ravishda kirishganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shahar mayda burjuaziyasi safida eng ko‘p sonli ijtimoiy qatlam, bu hunarmand va kosiblar bo‘lgan. 1926-yilda respublika shaharlarida o‘z yordamchilari bilan birgalikda 68,5 ming nafar shunday kishilar istiqomat qilgan. Ularning 1923-yil bilan solishtirganda 1,5 martaga ko‘paygan va mehnatga yaroqli shahar aholisi safida ularning ulushi 13 foizdan 18 foizga oshgan. Umuman olganda, 1926-yilgi Butunittifoq aholisini ro‘yxatga olish natijalariga ko‘ra, butun O‘zbekistonda mehnatga yaroqli shahar va qishloq aholisi arkibida kosibchilik va hunarmandchilik ishlari bilan 100,3 ming kishi band bo‘lgan ***[5].***

Kosib va hunarmandlar mehnatining o‘sha zamondagi ahamiyatini tan olgan holda ishchilar sinfi yakka hukmronligi o‘rnatilgan davlat ularni sanoatdagi foydali qo‘shimchalar sifatida rivojlantirishni xayoliga keltirmagan. Davlat imkon boricha tezroq sanoat mahsulotlari umumiy ko‘lamida kosibchilik va hunarmandchilik mahsulotlari hajmini kamaytirishni maqsad qilgan. Uning ishlab chiqqan siyosati kosib mehnatini ishchilar sinfi mehnati bilan siqib chiqarishga yo‘naltirilgan va bu jarayon kooperativlar orqali amalga oshirilgan.

Bizga ma’lumki, sovet hukumatining noto‘g‘ri milliy siyosati tufayli o‘lkada sovet hukumatiga qarshi qurolli harakati boshlangan. Sovet hukumati bu harakatni “bosmachilik” deb atadi va unga qarshi ayovsiz kurash boshlagan. Lekin dastlabki

davrda bunga umvaffaqiyatga erisha olmagan bo‘lsa, Madaminbek vafoti va Shermuhammadbekning chet elga ketishi, hukumatning 1920-yillarda o‘tkazgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlari natijasida milliy istiqlolchilar harakati safida bo‘linish boshlanib, ba’zi bir qo‘rboshilar va harakat a’zolari taslim bo‘la boshladilar. Sovet hukumati taslim bo‘lgan qurolli harakat a’zolariga nisbatan ba’zan qat’iy, ba’zan esa avf siyosatini yuritgan. Viloyat arxiv fondlarida bu haqida ma’lumotlar mavjud. Masalan, Farg‘ona viloyat Ijroiy qo‘mitasi prezidumining 1924-yil 21-yanvar Majlisi 9-Bayonnomasida Taslim bo‘lgan bosmachilarga moddiy yordam berish to‘g‘risida quyidagicha qaror qabul qilingan.

Aholi ijtimoiy holati haqidagi arxiv hujjatlarini o‘rganish natijasida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: hukumat birinchi navbatda jamiyatda ishchilar mavqeini oshirishga harakat qilgan. Jamiyatga oziq-ovqatni yetkazib beruvchi qatlam dehqonlar ommasiga e’tibor chetda qoldirilgan. Hukumat ma’muriy markazlarga alohida e’tibor qaratgan. Shaharlarni obodonlashtirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, qishloqlar nazardan chetda qoldirilgan.

Shuningdek, mazkur davrning o‘ta murakkab va ziddiyatlarga to’la ijtimoiy hayotini tushuntirish tarixchidan voqe’likni xolis yoritishda keng ko’lamli manbalarni qiyosiy tahlil etishini taqozo etadi. Bu o’rinda arxivda saqlanayotgan materiallar juda muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Ularda Turkistonda kechgan jarayonlarga mahalliy aholining munosabati, ularning maqsad va intilishlari, xalqning iqtisodiy ahvoli, siyosiy madaniyati darajasi hamda jamiyatda mavjud bo’lgan ijtimoiy ziddiyatlar boricha aks ettirilgani bilan yanada ahamiyatlidir***[6].***

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. ФВДА. 121-фонд. 5-рўйхат. 2-йиғма жилд. 2-варақ.
2. ФВДА. 121-фонд. 5-рўйхат. 2-йиғма жилд. 19-варақ.
3. ФВДА. 121-фонд. 2-рўйхат. 28-йиғма жилд. 429-варақ.
4. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 15 йиғма жилд. 31-варақ.
5. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Биринчи китоб. – Б. 530.

6. Nizomiddinov, O. (2021). The Importance Of The Documents Of The Regional State Archive In The Research Of The History Of The Autonomy Of Turkestan. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *3*(11), 53-57.

7. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

8. Usmonov B. FARG‘ONA vodiysi TARIXINING RUS IMPIERASIDA VA SOVET DAVRINI TARIXINING XIV ASR TARIXINING O‘RGANISHI //Xalqaro amaliy fan va texnika axborotnomasi. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 886-891.

9. Musaev, A. (2021, June). THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS. In Конференции.

10. Усмонов, Б. А., & Аҳмаджонов, М. Т. (2022). АМИР ТЕМУРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШ СИЁСАТИГА ҚАРШИ КУРАШДА ЖАЛОЙИР ҚАБИЛАСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 114-118.

11. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ХАЛҚАРО МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ МУҲОФАЗАСИ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАРГА ДОИР. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 987-990.

12. Шамсиева, М., & Азимов, А. (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАДБИРКОР АЁЛЛАРИ “АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ ХАЛҚАРО ГЛОБАЛ ИНДЕКСИ” НИНГ АЪЗОСИ. PEDAGOG, 1(2), 412-415.

13. Boltaboyev, M. (2021). Aggravation of the soviet government's attitude towards clergy and religious institutions in the turkestan autonomous

soviet socialist republic. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 59-65.

14. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

15. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

16. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og ‘oning ta’sir o ‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

17. Абдуносирова, О. (2022). Шоҳрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

18. Abdunosirova O.B. ON THE SPONSORSHIP ACTIVITIES OF THE TEMURIAN PRINCE. Asian Journal of Multidimensional Research 1(11), 2022.

19. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

20. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

21. қизи Охунжонова, Ш. Ю., & Иномов, О. Т. (2022). БОЗОР ВА САВДО МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРНИНГ ЎРНИ. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 44-48.

22. Yuldoshev, S. V. (2021). Pedagogical Analysis And Methodology Of Children's Games. The American Journal Of Social Science And Education Innovations, 3(11), 36-40.

23. Valievich, Y. S. (2020). Children’s Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

24. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

25. Болтабоев, М. (2022). Религиозные реформы, проведенные при соляном режиме. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 455-461.

26. Расулов, А. (2022). Ўзбекистоннинг мустақиллик даври тарихи манбалари тизимида оммавий ахборот воситаларининг ўрни. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 633-640.

27. Комилов, А., & Болтабоев, М. (2022). ЎЗБЕКИСТОН–УМУМИЙ УЙИМИЗ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(3), 141-148.

“TARIXI KOSHG‘AR” ASARIDA FARG‘ONA VODIYSINING ASHTARXONIYLAR DAVRI TARIXINING AKS ETISHI

Musayev Azizbek Baxridinovich

Farg‘ona davlat universiteti doktoranti
shaxbo1990.ab@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysida sodir bo‘lgan ayrim siyosiy jarayonlar “Tarixi Koshg‘ar” asari asosida tahlil etilgan va manbaning ilmiy qiymati ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘z va iboralar: *Farg‘ona, Yorkent xonligi, Xoqon darvozasi, qirg‘izlar, Koshg‘ar, Abdullaxon, Ahmadxon II.*

Аннотация: *В данной статье на основе произведения «Тарихи Кашгар» проанализированы некоторые политические процессы, происходившие в Ферганской долине, и определена научная ценность источника.*

Ключевые слова и фразы: *Фергана, Яркендское ханство, Хаканские ворота, киргизы, Кашгар, Абдуллахан, Ахмадхан II.*

Annotation: *Based on the work "Tarihi Kashgar", this article analyzes some of the political processes that took place in the Ferghana Valley and determines the scientific value of the source.*

Key words and phrases: *Ferghana, Yarkand Khanate, Kagan Gates, Kirghiz, Kashgar, Abdullakhan, Ahmadkhan II.*

Farg‘ona vodiysi geografik joylashuvi jihatidan O‘rta Osiyoda alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston hududlarini o‘zaro bog‘lab turgan bu hududning o‘tmishi turli sinovlarni boshidan kechirgan. Vodiyning o‘rta asrlar tarixi asosan Movarounnahrning bir bo‘lagi sifatida markaz (Buxoro, Samarqand) muarrixlari tomonidan yoritilgan. Bunday manbalar qatoriga temuriylar davrida yozilgan “Zafarnoma”, “Musaxxir al-bilod”, “Abdullanoma” va hokazo. Hududning XVII asr tarixi bo‘yicha “Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor”, “Imomqulixonnoma”, “Silsilat as-salotin” kabi manbalarni alohida keltirish mumkin. Yuqoridagi manbalarda asosan Farg‘ona vodiysining XVII asrning 50-yillarigacha bo‘lgan ba’zi ma’lumotlar mavjud. Afsuski, mintaqaning keying yarim asrlik tarixi hali-hanuz mavhumlik ichida qolmoqda. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Qo‘qon xonligining tashkil topishi haqidagi fikrlarda aniqlik hozircha mavjud emas. Sababi, Buxoro xonligidagi saroy tarixchilarning asarlarida vodiy haqida batafsil biron ma’lumot uchramasa, qo‘qonlik muarrixlarning asarlarida esa asosan “Oltin beshik” rivoyatini keltirish bilan cheklanishgan. Bu esa XVII asrning II yarimyilligida Farg‘ona vodiysida qanday siyosiy jarayonlar kechganligi haqida ma’lumot olishni qiyinlashtiradi. Lekin shunday bo‘lsa-da, Yorkent xonligida yozilgan Shoh Mahmud Churasning “Tarix”, muallifi noma’lum bo‘lgan “Tarixi Koshg‘ar” asarlarida Farg‘ona vodiysining XVII asrga oid ba’zi ma’lumotlar qayd etib o‘tilgan.

“Tarixi Koshg‘ar” asari Yorkent xonligining hijriy 1106-yil (1695) gacha bo‘lgan siyosiy tarixini o‘zida aks ettirgan qimmatli manba hisoblanadi. Muallifi noma’lum bo‘lgan ushbu manba haqida dastlab sharqshunos olim V.V. Bartold ma’lumot beradi ***[1: 7]***. 1902-yil Toshkentda u ushbu manbani qo‘lga kiritgan. Manbada keltirilgan voqealardan kelib chiqib uni ikki qismga bo‘lish mumkin. Birinchi qismi Nux payg‘ambar va uning avlodidan toki 1514-yilgacha voqealarni o‘z ichiga olsa, ikkinchi qismi esa 1514-yildan 1695-yilgacha Mo‘g‘ulistonda kechgan voqealarni qamrab oladi. Bundan ko‘rinadiki, manbaning ikkinchi qism alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Manba “toza va sodda turk tili” da yozilgan.

Manba jami 73 sarlavhadan iborat. Bugungi kunda “Tarixi Koshg‘ar” asari Sankt-Pterburg shahridagi Rossiya Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida B 2472, C 576, C 577 raqamlari bilan saqlanadi. Ularning ichida C 576 raqamdagi qo‘lyozma nusxasi to‘liq va yaxshi holatda saqlanib qolgan. Mashhur sharqshunos olim O.F.Akimushkin mana shu raqamdagi qo‘lyozma nusxasining faksimilini 2001-yil nashr ettiradi. Mana shu nashrni bizgacha yetib kelishida marhuma ustozimiz tarix fanlari falsafa doktori Gulchehra Sultonovadan minnatdormiz.

Bevosita manbaning ahamiyatiga to‘xtalsak, asarning XVI asrning 40-yillargacha bo‘lgan qismi asosan Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” dan foydalanib yozilganligi bilinadi. “Tarixi Rashidiy” muallifi Yorkent xonligida tarix maktabining paydo bo‘lishiga katta hissa qo‘shgan muarrix hisoblanishi va aynan XVI asrda yashaganligini hisobga olsak, bu tabiiy hol ekanligi oydinlashadi. Yorkent xonligining asoschisi Sulton Saidxon hisoblanib, uning davlati “Saidiya davlati” deb ham ataladi. 1533-yil Sulton Saidxon vafotidan so‘ng davlatni birin-ketin Abdurashidxon (1533-1559), Abdulkarimxon (1559-1591), Muhammadxon (1591-1609), Shujoaddin Ahmadxon (1609-1618) kabi xonlar boshqarishdi. Manbada ular haqida yetarlicha ma’lumotlar keltirilgan. XVII asrdagi siyosiy jarayonlarda dastlab Farg‘ona vodiysi Sulton Ahmadxon II (1612-1638) hukmronligida tilga olinadi. Sulton Axmadxon manbada asosan Fuladxon nomi bilan tilga olinadi. U taxtni raqibi Abdullaxonga boy bergach, 1636-yil Nadr Muhammadxon huzuriga, ya’ni Balxga keladi ***[3: 193]***. Imomqulixon va Nadr Muhammadxon Fuladxon orqali Yorkent xonligidagi vaziyatni o‘z foydaliga xal qilmoqchi bo‘lishdi. Shu maqsadda unga qo‘shin berib taxtini qaytarib olishga yordam berishdi. Ammo Andijonda boshlangan qo‘zg‘olon uning yo‘lini to‘sdi. Bu yerda kechgan jangda Fuladxon vafot etdi. “Tarixi Koshg‘ar” da voqealar quyidagicha bayon qilingan. “….Imomqulixon peshi omad xub qildilar. Nazarbiy naymanni laqabi Nazarbi barutini Fuladxong‘a qo‘shti. Yetmish ming cherik bila Fuladxon bila Nazarbiy Andijon keldilar. Andijon shul mahalda Imomqulixon nuri marqadag‘a osiy bo‘lub edi. Fuladxon Andijonni fatx qilmay nachuk Koshg‘arg‘a

o‘toli dedi. Nazar baruti ayti Ey xonim andijonliqning vazi avzoi xong‘a ma’lum ond shartga turmaydur ***[1: 116]***. Shoh Mahmud Churasning “Tarix” asarida ham voqealar deyarli shu tartibda bayon qilingan ***[4: 194]***. Ikki manbadagi voqealardan kelib chiqsak, mualliflar bizningcha, Buxoro qo‘shinlarining sonini biroz bo‘rttirishgan bo‘lishi mumkin. Davr, makon va sababdan kelib chiqsak, yetmish ming qo‘shinni avval Andijon so‘ngra Yorkentga yuborilishi qiyin masala edi. Adabiyotlarda ham voqea yuqoridagi ikki manba asosida keltirilgan ***[3: 194, 2: 109, 5: 189]***.Fuladxonni vafotidan so‘ng Yorkent xonligini boshqarayotgan Abdullaxon mamlakatdagi ichki ziddiyatlarni bartaraf etishga harakat qildi va bunga ma’lum ma’noda erishdi. Qalmoq va qirg‘izlar kechgan kurashlarda kichik muvaffaqiyatlarga erishdi. Badaxshon va Bulur yurishidan so‘ng Andijonga qo‘shin tortishga qaror qildi. Dastlab O‘shni qo‘lga kiritib, so‘ng Andijonga bostirib kirdi. Bu ajdodi Sulton Saidxondan so‘ng Mo‘g‘uliston xonlarining vodiyga ilk yurishi edi. “Naql andog‘ yetibdurkim xonning davlati barkamol bo‘ldi. Bilodi Andijon mayl bo‘ldi. Lashkari qiyomat asar bila Andijon borib, qal’ai Andijonni ixot qilib tushtilar. Mirzo Shoxid churas laqabi Jolba, Oqsuv hokimi edi. Darvozayi Xokonda Guldubani olib xong‘a chodir tikdilar. Shaxbozbek hokimi Koshg‘ar amir ul umaro Yulbarsxon edi yugurib darvozani oldi. Qalai Andijong‘a talon qildilar. Abdullaxonning shuhrati olamg‘a mashxur bo‘ldi” ***[1: 110]***. Shu o‘rinda Shoh Mahmud Churas o‘zining asarida bunga qo‘shimcha qilib ba’zi voqeani batafsilroq yoritadi. Unga ko‘ra Andijonning Xoqon darvozasi yonida Gultuba deb atalgan adirlik bo‘lib uni Mirzo Shoxid va mirzo Fozillar egallashadi. Mirzo Shaxbozbek esa Mirza darvozasini egallaydi. Yorkent qo‘shinlari Xoqon va Mirza darvozalari orqali shaharga bostirib kirishadi va uni uch kun talashadi. So‘ng O‘sh orqali Koshg‘arga qaytishadi ***[4: 202-203]***. Ammo oradan bir o‘tib Abdullaxon ikkinchi marta Andijonga yurish qilishiga to‘g‘ri keldi. Ammo bu safar Andijon xalqi mo‘g‘ullarga qattiq qarshilik ko‘rsatishdi. Natijada Abdullaxon shaharni egallay olmadi. “Bir yildin keyin, – deb yozadi muarrix, – Andijong‘a yana otlandilar. Yana Andijonni maxosara qildilar.

Avval olg‘anda Andijong‘a bisyor jafolar qilib edilar. Andijon xalqi jang qilib shaharga kelturmadi. Ololmay yondilar” ***[1: 110]***. Churas qo‘shimcha qilib andijonliklar dastlab Abdullaxon bilan sulh tuzish uchun Murod devonbegi, Qora Suyunch otaliq, Jumtak otaliq kabilarni keltiradi. Vaqtdan yutish uchun qilingan bu muzokara natijasida andijonliklar qal’aga yashirinishga ulgurgan. Natijada mo‘g‘ullarning hujumi foyda keltirmaydi ***[5: 203-204]***. Mana shu ikki yurish mo‘g‘ullarning vodiyga so‘nggi yurishi bo‘lib qoldi. Manbada Abdullaxonning uchinchi marotaba Andijonga yurish qilishi bo‘yicha kichik ma’lumot berib o‘tilgan. Unda xon o‘g‘li Nuriddin bilan birgalikda 1667-yil Farg‘onaga otlanishadi, ammo Nuriddinning to‘satdan vafot etishi bilan bu yurish oxiriga yetmay qoladi. “…Xon Yorkand keldilar. Andijong‘a cherik otlandilar. Ikki xon bo lashkari abnuh Koshg‘ar bordilar. Nuriddinxon istiqbol qildi. Imomat shur yurdilar. Nuriddinxon kub kishi qatl qildi yosh javonamarg ketti. Sorig‘ Yozi degan mavzeda mast olami foyindin manzil jovidonig‘a mayl qildi. O‘ttuz bir yil umr kurdi. O‘n sakkiz yil Oqsuvg‘a xon bo‘ldi. Bir yil Koshg‘arg‘a xon bo‘ldi” ***[1: 103]***.

Shunday qilib “Tarixi Koshg‘ar” asari nafaqat Yorkent xonligi, balki, unga qo‘shni bo‘lgan Farg‘ona vodiysi bo‘yicha ham qimmatli ma’lumotlar beradi. Ayniqsa, Abdullaxonning yurishlari paytida vodiyning siyosiy ahvoli haqida ayrim mulohazalrni keltirib chiqaradi:

Birinchidan, Abdullaxonning vodiyga dastlabki harbiy yurishidan maqsad mo‘g‘ullarning odatiy talonchilik yurishi bo‘lmay, balki uni o‘zining davlati tarkibiga qo‘shib olish bo‘lgan. Bu orqali vodiyda ajdodi Sulton Saidxon amalga oshira olmagan ishni oxiriga yetkazishni maqsad qilganligi oydinlashadi;

Ikkinchidan, bu paytda vodiy Buxoro xonligi tarkibida bo‘lsa-da, Abdulazizxon amalda hududni mo‘g‘ullardan himoya qilmadi. Bu esa Buxoro xonini vodiydagi mo‘g‘ullar hujumidan ko‘ra ko‘proq Xorazm xoni Abulg‘ozixon va ukasi Subhonqulixon bilan ovora bo‘lib qolganligini anglatadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Тарих-и Кашгар. Факсимиле рукописи: издание текста, введение и указатели О.Ф. Акимушкина. – СПб.: «Петербургское востоковедение», 2001. – 296 с. (Памятники культуры Востока: Санкт-Петербургская научная серия. VIII)

2. Караев О.К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. Образование кыргызского народа. – Бишкек: Кыргызстан, 1995. – 160 с.

3. Çelik, Muhammed Bilal. *Yarkend hanlığı'nın siyasi tarihi*. IQ Kültür Sanat Yayıncılık, 2013.

4. Шах-Махмуд ибн Мирза Фазил Чурас. Хроника / Критический текст, перевод, комментарии, исследование и указатели О. Ф. Акимушкина. – 2-е изд. – СПб.:Петербургское лингвистическое общество, 2010.

5. Burton Audrey The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History 1550–1702. New York: St. Martin–s Press. 1997. – 664 p.

6. Musayev, Azizbek Bahriddinovich. "Political processes in the Fergana valley at the turn of the XVI-XVII centuries." *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)* 9.11 (2020): 16-21.

7. Musaev, Azizbek. "THE FERGHANA VALLEY IN THE FIRST HALF OF THE 17TH CENTURY AS VIEWED BY RESEARCH HISTORIANS." *Конференции*. 2021.

8. Мусаев А. Ферганская долина в период Надрмухаммедхана //Актуальные проблемы истории Узбекистана. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-310.

9. Nishonov, A. A. (2022). analysis of sources in the 16th century history of the fergana valley. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(1), 79-83.

10. Valievich, Y. S. (2020). Children's Games As An Important Factor In The Upbringing Of A Harmonious Generation. European Journal Of Research And Reflection In Educational Sciences Vol, 8(9).

11. Бегимкулова, Л., & Якубжонов, С. (2022). Xalil Sultonning boshqaruv davrida xorijliklarning o ‘z yurtlari tomon ko ‘chishlari. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 194-202.

12. Бегимкулова, Л. (2022). Xalil Sultonning davlatchilik faoliyatiga xotini Shodmulk Og‘oning ta’sir o‘tkazishi. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 202-210.

13. Абдуносирова, О. (2022). Шохрух Мирзонинг илмий ва ижодий қарашлари. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 172-179.

14. Bekmirzaev, R. B. (2022). INTER-ETHNIC RELATIONS AND SOCIAL PROBLEMS IN FERGHANA VALLEY. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 3(11), 34-40.

15. Bekmirzaev, R. B. (2022). Interpretation of inter-ethnic relations in the Ferghana Valley from political aspects. The Peerian Journal, 12, 31-34.

16. Usmonov, B. A. (2022). FERGANA ULUS FOUNDED BY AMIR TEMUR. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

17. Алимова, Н. (2022). РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ҲУКМРОНЛИГИ ЙИЛЛАРИДА ИПАК МАҲСУЛОТЛАРИ САВДОСИ ВА МУАММОЛАРИГА ДОИР ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 37-43.

18. Alimova, N. (2019). Possibilities for individualizing teaching foreign languages in a non-language university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.

19. Usmonov B. ABOUT THE DATE OF THE FIRST AND SECOND MONGOLIAN WALKS OF AMIR TIMUR //Конференции. – 2021.

20. Usmonov, B. "Ferghana in 70 years of XV century." Scientific journal of the Fergana State University 2.1 (2019): 39-42.

21. Usmonov, B. "Horticulture in Fergana in the Temurid’s period." Scientific Journal Of The Fergana State University 2.4 (2019): 73-75.

22. Usmonov, Bahriddin Ahmedovich. "A Study of Political Processes in the Fergana Valley In 1371-1376." Design Engineering (2021): 6174-6187.

23. Israilov N. R. The first period of amir temur's activity in the interpretation of bartelemi d'erbelo de molenville //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 219-224.

24. Israilov N. A HISTORY OF THE FERGHANA VALLEY WITHIN THE REIGN OF AMIR TEMUR, AS INTERPRETED BY JOSEPH DE GUIGNES //Конференции. – 2021.

AVRANGZEB OLAMGIR

Qayumova F.I.
FarDU, O‘zbekiston tarixi kafedrasi o‘qituvchisi
fqayumova1983@gmail.com

Rahimjonov Fayozbek Mirkomil o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti talabasi
fayozbekrahimov802@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Temuriylar shajarasiga mansub Boburiylar xonadonining yuksak salohiyatli vakillaridan biri bo‘lgan Avrangzeb Olamgir hamda uning Hind zaminida olib borgan siyosiy faoliyati, istilochilik yurishlarini horijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi har tomonlama tadqiq qilinadi.*

Kalit so‘z va iboralar: *Maratha, Ahmadnagar, Bajipur, Sambhaji, Shivaji, Dekan, Boburiylar, peshvo, rajputlar.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается Аурангзеб Аламгир, один из высокопотенциальных представителей рода Бабур, принадлежащих к роду Тимуридов, а также его политическая деятельность на индийской земле, и изучение его завоевательных походов зарубежными исследователями. всесторонне исследованы.*

Ключевые слова и фразы: *Маратхи, Ахмаднагар, Баджипур, Самбхаджи, Шиваджи, Декан, Бабуриды, пешва, раджпуты.*

Annotation: *In this article, Aurangzeb Alamgir, one of the high-potential representatives of the Babur family, belonging to the family of the Timurids, as well as his political activity in the Indian land, and the study of his conquest campaigns by foreign researchers, are comprehensively researched.*

Key words and phrases: *Maratha, Ahmadnagar, Bajipur, Sambhaji, Shivaji, Deccan, Baburids, Peshwa, Rajputs.*

Temuriylar sulolasining yorqin vakillaridan biri bo‘lmish Boburiylar Hindiston o‘lkasida ushbu hududni Buyuk Britaniya tomonidan zabt etilguniga qadar idora qilganliklari hammamizga yaxshi ma’lum. Boburiylar Hindistonni zabt

etgandan keyingi uch yuz yillik tarixiy davr doim ham bir tekkisda kechmadi, XVII asrning oxiridan boshlab mintaqada turli mahalliy kuchlarning vujudga kelishi kuzatila boshladi. Ulardan eng mashxurlari Bajipur qirolligi, Ahmadnagar va Maratha imperiyasi bo‘lib, ular o‘z mustaqilligi uchun Boburiy hukmdorlar keng miqiyosdagi harbiy to‘qnashuvlarni boshdan kechirdilar. Bu kuchlar orasida eng kattasi Maratha imperiyasi bo‘lib uning asoschisi Puna shahri hokimining o‘g‘li Shivaji Dekan platosida o‘z hokimyatini o‘rnatishga erishdi. Maratha imperiyasining hududi dastlab Tapti daryosidan Godivargacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olib, keyinchalik kengayib bordi ***[1: 22]***. Maratha hukmdorlari dastlab Boburiylar imperiyasining vassal sifatida faoliyat yurutganlar, ularning faoliyatini Boburiy hukmdorlar tomonidan tayinlangan “Peshvo” mansabidagi shaxs nazorat qilgan. Maratha hukmdorlari dastlab mintaqadagi siyosiy hokimyatlarini mustaxkamlab, Boburiylarga qarshi turish hamda ularning hokimyatin ag‘darish uchun harakat boshladilar, bu yo‘lda hattoki Ahmadnagar, Bajipur kabi boshqa rajputlar bilan ittifoq tuzishga erishdilar ***[2:11-28]***. Bu davrda Hindiston taxtini Shoh Jahonning o‘g‘li Avrangzeb Olamgir (1658-1707) egallab turar edi. Tarixiy adabiyotlarda Avrangzeb Olamgir hindlar uchun og‘ir soliqlar joriy etganligi, boshqaruv ishlaridan mahalliy aholi vakillarini chetlashtirgani, hind zodagonlarrining mol-mulkini musodara qilganliklari uchun, unga qarshi mintaqa vakillarining nozoriligi kuchaygani haqida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Avrangzeb Olamgirning olib borgan siyosatini qoralaydiganlar, uni namunali hukmdor bo‘lmaganiga ishora qilganga o‘xshash ma’lumotlar ham yetarli. Haqiqatdan ham Avrangzeb olib borgan siyosat oqibatida Hindiston mahalliy vakillari norozi bo‘lib amaldagi hukmdorga qarshi siyosat olib borganlarmi?

Menimcha esa boshqacharoq, mahalliy kuchlar, xususan Marathalar ham Hindistonni hindlar boshqarishi lozim deb bilganlar. Marathaning bo‘lajak qiroli Shivaji hindlarni o‘zini-o‘zi boshqarishga chaqirgan hamda u "Hindavi Svarajya" nomi bilan ulug‘lana boshlagan. Marathalar, Boburiy hukmdorlarini Hindistondan haydab chiqarishga qaror qilishdi, chunki ular o‘z mamlakatlarini mahalliy aholi

vakillari tomonidan boshqarilishini xohlashardi ***[3:25]***. Shivaji o‘z istelochilik yurishlari orqali katta maydonlarni qo‘l ostiga to‘plagan edi ***[4:71]***. Shivaji mayda mahalliy hukmdorlar, jumladan, Boburiylar bilan muammolarni hal qilish uchun qurolli kuchlarni to‘plagan. Biroq, u Marathalarning yangi yerlarini boshqarish uchun rasmiy unvonga ega emas edi. Demak, subkontinentda hind davlatini barpo etish va kengaytirish maqsadida Shivaji o‘zini 1674 - yil 6 - iyunda Maratha qirolligining hukmdori deb e‘lon qildi ***[6:121]***. Shivajining toj kiyish marosimi shunday bo‘lib o‘tdiki, u barcha hind bo‘lmagan hukmdorlarga xabar yubordi. Xabar baland va aniq edi - bu hindularning o‘z vatanlarini nazorat qilish vaqti kelganini anglatuvchi xababr edi. 50 000 dan ortiq mehmonlarni o‘z ichiga olgan katta toj kiyish marosimini o‘tkazish orqali Shivaji o‘zini katta sahnada siyosiy kuch ekanligini e‘lon qildi, bu esa Boburiylarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ogohlantirish signalini bo‘ldi ***[6:27]***. Ushbu jarayonlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, bu shunchaki Avrangzeb Olamgir olib brogan siyosatidan norozilik harakati emas balki, milliy davlat qurish uchun urinishlar edi.

Rasmiy ravishda qirolga aylangan hamda Raigadni poytaxt qilib qo‘ygan Shivaji 1674-yil oktabrda Xandeshga bostirib kirdi so‘ngra u ikki yil ichida Ponda, Karvar, Kolxapur va Atani kabi o‘ziga yaqin hududlarni bosib oladi. 1677-yilda Shivaji Golkonda sultonligini zabt etib, Avrangzebga qarshi bitim tuzishga erishdi. Xuddi shu yili Shivaji Karnatakaga bostirib kirdi hamda Gingee va Vellore qal‘alarini egallash uchun janubga qarab yurdi ***[7:56]***. Shunday qilib katta hududlarni egallagan Maratha imperiyasi tashkil topdi. Endi Maratha Avrangzeb uchun real kuch edi. Ammo 1678-yilda Shivaji og‘ir kasallanib vafot etdi. Undan keyin hokimyatga kelgan o‘g‘li Sambhaji otasining siyosatini davom ettirdi. 1680-yillar davomida Maysor, Madura va Golkon kabi hududlarga bostirib kirdi. Samhaji aqlli uzoqni ko‘zlab ish qiladigan shaxs edi, bu hududlarga qilgan yurishlari Marathaning og‘ir artileriya bilan jang qilish imkoniyati past ekanligini ochib berdi. Bu orada Avrangzeb o‘z kuchlarini to‘laligicha Marathaga qaratdi. Sambhaji mahalliy rajputlarni o‘z tomonida jang qilishga ko‘ndirgan, ingilizlar

bilan artileriya va o‘q-dori masalasida bir qancha sulhlarni tuzib katta kuchni qo‘lida jamlashiga qaramay ko‘p xatolarga yo‘l qo‘ydi bu esa o‘z navbatida Avrangzeb Olamgirning zukko siyosati, mohirona diplomatiyasi hamda yuksak aql-zakovatining hosilasi edi.

Avrangzebning maqsadlari oddiy edi – bu maqsadlar Bijapurni zabt etish va Maratha kuchini yo‘q qilishdan iborat edi. Boburiylarning Maxarashtraga nisbatan strategiyasi nozik emas, shunchaki puxta edi. Bu Maxarashtra qal‘alariga doimiy yurishlarni amalga oshirish orqali bosim o‘tkazish, Maratha kuchlarini qulay hududga tortib o‘sha yerda ularni tor-mor qilish va Maxarashtraning qal’alarini vayron qilishdan iborat edi. Maratha hokimyati esa Boburiylarning harbiy ta‘minotini to‘xtatish, shimoldan Avrangzeb qo‘l ostidagi hududlarga bostirib kirish hamda ittifoqchilar - Bijapur, Golkonda, portugal va inglizlar bilan shartnomalar tuzish orqali Boburiylarning tezkor g‘alabalarini to‘xtatishni reja qildilar. Voqealar rivoji tez siljishdi, Avrangzeb 1682 - yilda Xandesh va shimoliy Maxarashtra, keyinchalik 1683 - yilda Konkan kabu hududlarni egalladi. Umuman olganda, mug‘allar asta-sekin Sambxaji kuchlarini yirik qal‘alarga itarib yubordilar, ba‘zi istehkomlarni egallab oldilar va ko‘proq qishloq xo‘jaligi yerlarini nazorat qildilar ***[8:134]***. Avrangzeb qo‘llarida katta harbiy kuchni to‘plagan kuchli Maratha deshmuxlarni Boburiylar xizmatiga olib kirishga harakat qilishdi ***[8:170]***. Diplomatik vaziyatlar ham tez o‘zgardi bu esa o‘z o‘rnida Avrangzebning diplomatik g‘alabasi edi. Avrangzeb dastlab Marathalarga qarshi Bijapur bilan ittifoq tuzishga harakat qildi, keyin u Bijapur ichidagi bir siyosiy guruhni boshqasiga qarshi qo‘llab-quvvatlab zaiflantirishga urundi. Sambhaji Bijapur va Golkonda bilan ittifoq tuzishga harakat qildi. Sambhajining bu urunishlari 1686-87 yillarda Bijapur va Golkonda Boburiylar qo‘liga o‘tishi bilan tugadi. To‘satdan maydonda faqat ikkita o‘yinchi qolib ketdi – Mo‘g‘ullar va Marathalar.

Harbiy harakatlar chog‘ida Maratha qo‘shinlarining bosh qomondoni Hambirrao Mohite vafot etadi, Sambhaji siyosiy vaziyat tizginini vaziri Kalash

qo‘liga topshirib eng katta xatoga yo‘l qo‘yadi. Kalash Sambhajini vaziyatni mutloqo qo‘l ostida ekanligiga ishontirib, bir oz dam olishga chaqiradi. Doimiy ishratga ruju qo‘ygan Sambhaji esa bunga darrov rozi bo‘ladi, dam olish maskani sifatida Konkan viloyatining qalin o‘rmonlar ichida joylashgan Samgameshvar sardesailarining qarorgohini tanlashdi. Bu orada Samhajining jimligini sezgan Avrangzeb sarkarda Shayx Nizom va uning o‘g‘li Iqlosxonni Kalash va Sambhajining ustiga yubordi. Maratha ayg‘oqchilari Boburiylarning qo‘shini Konkanga yaqinlashib qolgani haqidagi ma’lumotni Samhajiga yetkazishdi, ammo afyun ta’sirida bo‘lgan Kalashga qattiq ishongan Samhaji bu gaplarga e’tibor qilmaydi. Hukmdorlariga ogohlantirish kor qilmaganini anglagan boshqa Maratha sarkardalari uni tashlab Riagdaga chekindilar bu voqeadan so‘ng ,Sambhaji, Kalash, Ghorpade va boshqa Maharatha harbiy sarkardalari ham qo‘lga olindi ***[9:65]***. Sambhaji va boshqalar Avrangzebning Aklujadagi qarorgohiga olib kelindi, besh kundan keyin esa Avrangzeb ularni qatl uchun Talpurga yubordi ***[10:44]***. Talpur shahri Sambhajining otasi Shivaji toj kiygan hudud bo‘lib, “Marathalarning hokimyati Talpurda boshlanib, Talpurda tugatildi”. Sambhajining oyoq qo‘li kesilib ko‘chadagi itlarga tashlandi tanasi esa Talpur bozorlarida sudralib sazoyi qilindi. Shu bilan Marathaning Hindistondagi amaldagi hokimyatiga hotima yasaldi ***[11:22]***.

Ba’zi tarixiy adabiyotlarda Avrangzeb hokimyati hindlarga nisbatan agressiv bo‘lganligi baralla aytiladi, ammo yuqoridagi vaziyatlarga nazar solsak buning mutloqo aksini ko‘rishimiz mumkin. Avrangzebning hindlarga nisbatan olib brogan siyosati mahalliy hukmdorlarning Boburiylar imperiyasini tugatish uchun qilgan harakatlari oqibatida kelib chiqqan bo‘lishi mumkin, chunki Shivjining milliy davlat qurish siyosati G.S. Sardesining 1935-yilda Mumbayda nashr qilingan “Maratha Peshvalarining kundaligidagi chizgilar” kitobida ochiqchasiga ilgari suriladi. Demakki olib borilgan siyosiy hamda boshqa bir qator islohotlar tabiiy ravishda hindlarning olib borgan qarshilik harakatlariga javob tarzida amalga oshirilgan desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Demoqchimanki tarixiy sharoit hamda

vaziyat qattiq siyosat vat emir intizomni talab qilgan. Umumiy xulosa qilishni esa yana bir bor ilm ahliga havola qilamiz.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. S.M. Alam, "The historic Deccan: a geographical appraisal," in V. K. Bawa (ed.) Aspects of Deccan History: Report of a Seminar. - Hyderabad, 1975 – P. 360.

2. B.R. Kamble (editor), Studies in Shivaji and His Times. – Kolhapur, 1982 – P. 452.

3. A.R. Kulkarni, "Towards a history of Indapur", in D. W. Attwood, M. Israel, and N. K. Wagle, City, Countryside and Society in Maharashtra. – Toronto.: Centre for South Asian Studies, 1988 – P. 654.

4. S.N. Sen, Administrative System of the Marathas. – Calcutta, 1976. – P. 386.

5. G.S. Sardesai (ed.), Selections from the Peshwa Daftar. - Bombay, 1935. – P. 295.

6. A. Khan, "Origin and development of gunpowder technology in India: A.D. 1250-1500," – Indian, 2015. – P. 350.

7. Sarkar, House of Shivaji,. The actual letter from Jai Singh to Aurangzeb is translated in Jadunath Sarkar and Raghubir Singh, Shivaji's Visit to Aurangzih at Agra, Indian History Congress Research Series, - Calcutta, 1963. – P. 540.

8. Andre Wink, Land and Sovereignty in India: Agrarian Society and Politics under the Eighteenth-century Maratha Svarajya. - Cambridge, 1986. – P. 680.

9. Brij Kishore, Tarabai and her Times, - Bombay, 1963. – P. 520.

10. Satish Chandra, Parties and Politics at the Mughal Court, 1707-1740, - Delhi, 1978. – P. 489.

11. V.G. Dighe, Peshwa Bajirao I and the Maratha Expansion. – Bombay, 1944. – P. 220.

MUNDARIJA

B.Sh.Shermuhammadov. *Kirish so‘zi* **3**

I SHO‘BA

Temuriylar davrining manbashunoslik va tarixshunoslik talqini

R.A.Arslonzoda. *Amir Temur yevropalik zamondoshlar nigohida: Sohibqiron tarixiga oid Yevropa tillaridagi manbalar* **5**

Ш.С.Ғаффоров. *Ўзбек давлатчилигининг ривожланишида «Темур тузуклари» нинг ўрни* **12**

F.Rahmonberdiyev. *Temuriylar davri tarixini o‘rganishda akademik Bo‘riboy Ahmedovning o‘rni* **20**

И.М.Бурхонов. *Асомиддин Ўринбоев илмий меросининг темуршунос олимлар томонидан ўрганилиши* **28**

А.Боротов. *Собиқ иттифоқ ва Ўзбекистонда ҳусусий мулк: ривожланиш иерархияси ва истиқболлари хусусида айрим мулоҳазалар (“Темур тузуклари” билан қиёсий таҳлил асосида)* **41**

О.Б.Абдуносирова. *Муъиниддин Исфизорийнинг “Равзат ал-жаннот” асари ва унинг темурийлар даври маданий ҳаётини ўрганишдаги ўрни* .. **51**

U.Mirzaliyev. *Amir Temur arab muarrixlari talqinida (Ibn Tag‘riberdi asarlariga sharh)* **56**

D.Anvarov. *Husayn Mirjafariyning “Eronning temuriylar va turkman davridagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar tarixi” kitobida Amir Temurning Hindistonga yurishi sababining yoritilishi* **68**

М.Б.Турдалиев. *Амир Темурнинг Арманистонга юришларининг тарихий манбаларда ёритилиши* **74**

N.R.Israilov. *Fransiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o‘rganilish bosqichlari (XV-XVI asrlar)* **79**

II SHO‘BA

Temuriylar Renessansi va uning jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni

А.А.Шарипов. *Темурийлар даврида китобхонлик маданияти тарихидан* **99**

S.A.Mahmudova. *Amir Temur va temuriylar davrida yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni* **115**

А.Шарафиддинов. *Мирзо Улуғбек Иккинчи Ренессанс даврининг буюк сиймоси* **122**

T.I.Maxmudov. *Temuriylar davri madrasalarining o‘quv jarayoni xususida* **129**

Z.Sh.Madraximov. *Shahrisabz tarixiy markazi – YUNESKO e’tirofida* **138**

N.F.Qosimjonova. *Temuriylar davri bayramlari* **146**

Т.А.Эгамбердиева, С.В.Йўлдошев. *Темурий даврида ҳарбий маҳорат ва халқ ўйинлари* **157**

Sh.Fayzullayeva. *Temuriy malikalarning ijtimoiy va madaniy hayotda tutgan o‘rni* **167**

I.Yoqubova. *Amir Temur va islom ma’naviyati* **177**

Sh.X.Abdullayev, I.A.Mamadaliyev. *Amir Temurning biz bilgan va bilmagan qirralari*..... **184**

A.A.Aloxunov, I.Y.Bozorov. *Mirzo Ulug‘bek ilmiy merosiga bir nazar*.... **189**

Sh.N.Kurbonova. *Amir Temurning keksalarni e’zozlashdagi qarashlari*.... **199**

Sh.S.Azamatov. *Amir Temurning ilm-fanga bo‘lgan e’tibori*..... **202**

Н.М.Лукашова. *Развитие образования и науки в эпоху Амира Темура и темуридов* **216**

L.S.Burxonov, M.B.Abdujabborova. *Amir Temur – adolat timsoli* **226**

Z.G‘.Otaboyeva, F.T.Mo‘minova. *Biz havas qilsa arziydigan ulug‘ sarkarda* **233**

M.X.Xolov. *Temuriylar davlatining Xitoy bilan 1417-1419-yillarda elchilik va diplomatik aloqalari Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” asarida* **238**

J.B.Amirkulov. *Amir Temur davrida Samarqand zaminida bunyod etilgan maqbaralar* **246**

M.F.Rasulov. *Amir Temur va temuriylar davri madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, saqlash hamda ulardan foydalanish masalalari* **254**

III SHO‘BA
Temuriylar davrida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayot

L.Sh.Elimov. *Amir Temurning Usmonli turklar bilan munosabati va uning yevropa uchun ahamiyati* **264**

M.U.Ro‘zimatov. *Amir Temurning Min imperiyasi nisbatan diplomatik munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari* **271**

Y.T.Sindarova. *Amir Temur davlat boshqaruv tizimida dargoh va devon (vazirlik)larning faoliyati* **281**

М.К.Мамбетназаров. *Роль Сахибкирана Амира Темура в мировой истории* **287**

А.Т.Мирзаев. *Амир Темур салтанатида давлат бошқаруви ва солиқ сиёсати* **294**

Y.Asatov. *Shohrux mirzo o‘ziga kimni valiahd qilmoqchi edi yohud Muhammad Jo‘qiy hayotiga ba’zi chizgilar* **301**

Ш.Ф.Каримова. *XV асрнинг 70-80 йилларида Сароймулкхонимнинг саройдаги мавқейи хусусида* **316**

М.Ю.Умарова. *Гавҳаршодбегим туғилган оила ва унинг Амир Темур давридаги ҳаёти* **323**

Б.А.Усмонов. А.Каримов. *1360-1361 йилларда Фарғона водийсининг ғарбий қисмида юз берган сиёсий жараёнлар* **333**

М.Т.Аҳмаджонов. *Мирзо Искандарнинг Шарқий Туркистон юришини ёзма манбаларда ёритилиши ҳақида* **343**

Б.Дадабоев. *Мовароуннаҳрда темурийлар сулоласининг инқирози* **350**

О.Қ.Мавлонова. *Амир Темур ва темурийлар даври манбалари Фарғона водийси шаҳарлари ҳақида* **359**

Д.Т.Маъмуров. *Амир Қазағонбек фаолияти тарихчи олим Ғулом Каримов талқинида* **366**

Б.А.Усмонов, Х.Сатторов. *Ҳофизи Абру асарларида Фарғона водийсининг темурийлар даври тарихини ёритилиши* **373**

Б.А.Усмонов, Г.Ш.Турсунова. *Мирзо Умаршайхнинг мирзо Султон Абу Саъид давридаги фаолияти ҳақида баъзи бир мулоҳазалар* **380**

Б.А.Усмонов, М.К.Олимжонов. *Амир Темурнинг 1389-1390 йиллардаги Мўғулистон юришлари* **387**

Z.A.Ahmadjonova. *Amir Temur tomonidan Hirot shahri zabt etilishining tarixiy manbalarda yoritilishi* **393**

IV SHO‘BA
UMUMIY TARIX MASALALARI

J.P.Mamaradjabov. *Ustrushonaning tarixiy-geografik o‘rni* **402**

А.Р.Маматалиев. *Фарғона водийси моддий маданиятида кийимлар масаласининг ўрганилиши (тарихшунослик таҳлили)* **407**

I.I.Nasiridinov. *Научное и культурное наследие Узбекистана – основа Третьего Ренессанса* ***417***

M.X.Xasanova. *Tarix fanini o‘qitishda tarixiy-badiiy adabiyotlardan foydalanishning mazmuni va mohiyati* ***424***

O.A.Radjabov. *Railways of Uzbekistan in a new era* ***433***

N.A.Akbarova. *Mustaqillik yillarida Farg‘ona viloyati musiqa maktablari faoliyati: yutuqlar va muammolar* ***442***

А.Ж.Мустафаева. *Ҳәзирги қарақалпақ тилинде аналитикалық фейиллердиң басқа тил бирликлеринен өзгешелиги* ***448***

А.Н.Ахматова, А.К.Илебаев, Р.Б.Бекмирзаев. *Зеб ун-ниса очарование и трагедия* ***455***

М.Х.Шамсиева. *Хотин-қизларнинг жамият тараққиётида тутган ўрни: ўтмишга назар* ***465***

I.F.Jaxongirov. *Surxondaryo hududidagi dastlabki odam manzilgohlari* ... ***476***

M.Q.Boboyev, D.A.G‘aniyeva. *Shayboniylar va ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davriga oid ish yuritish hujjatlari va epistolyar manbalar* ***484***

S.B.Khakimova. *History of the Kokand khanate in the work “Tarihi Alikuli amirlashkar”* ***493***

N.Ashurova. *Farg‘ona viloyati sog‘liqni saqlash tizimi: o‘tmishi va buguni* ***501***

Ш.Т.Аббосова. *Жамият барқарорлиги тараққиётнинг ғоявий асоси* ***516***

I.A.Kupaysinov. *Namanganga birinchi yo‘lovchi va yuk poyezdining kelishi va uning hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta’siri* ***528***

M.M.Qodirov. *Qo‘qon shahrida joylashgan oliy ta’lim muassasalarining shahar madaniy hayotidagi o‘rni va ahamiyati* ***535***

A.A.Aloxunov, J.K.Nazirov. *Quva (Qubo)ning yozma va arxeologik tadqiqotlarda yoritilishi haqida ayrim mulohazalar* ***541***

Sh.Y.Oxunjonova, O.T.Inomov. *Farg‘ona, Marg‘ilon, Qo‘qon bozorlarining o‘rganilish manbalari (1991-2022 yillar)* **548**

R.B.Bekmirzayev. *Farg‘ona vodiysidagi zamonaviy millatlararo munosabatlarga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar* **560**

А.Н.Ахматова, А.К.Илебаев, Р.Б.Бекмирзаев. *«Кудатгу билиг» об играх и забавах в общественной жизни* **566**

О.Р.Рахманова. *Армия аббасидского халифата в Самарраский период, как основа военной мощи государства* **577**

M.Sh.Abdukamolova. *Mustaqillik yillarida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatga munosabat* **586**

Р.Р.Аҳмедов. *Ўзбекистон АССРда XX асрнинг 20 йилларида саводсизликни тугатиш борасидаги катта ёшдагилар таълим тизимининг кадрлар ва моддий таъминот масалалари* **593**

А.П.Қувончбек. *Совет даврида социалистик мусобақаларнинг ташкил этиш масалалари(Фарғона водийси мисолида, 1953-1956 й.)* **601**

A.Sharafiddinov. *XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Farg‘ona viloyatida savdo munosabatlari tarixidan (paxta savdo misolida)* **612**

R.X.Akbarov. *Turkiston vakillarining Rossiya davlat dumasidagi ishtiroki* **618**

М.Болтабоев. *Совет ҳокимиятининг дастлабки йилларида вақф мулкларининг фаолиятига доир айрим қарашлар* **633**

O‘.M.Maxmudov. *O‘zbekiston respublikasida inson huquq va erkinliklarini amalga oshirishda milliy institutlarining xalqaro hamkorlik borasidagi faoliyati* **641**

O.B.Nizomiddinov. *1920-1930 yillardagi aholi ijtimoiy hayotining o‘rganilishi (Farg‘ona viloyat davlat arxividagi hujjatlar misolida)* **650**

A.B.Musayev. *“Tarixi Koshg‘ar” asarida Farg‘ona vodiysining ashtarxoniylar davri tarixining aks etishi* **657**

F.I.Qayumova, F.M.Rahimjonov. *Avrangzeb Olamgir*..... **664**

“Amir Temur jahon tarixida” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Farg‘ona, 2023. – 675 b.

AMIR TEMUR JAHON TARIXIDA

II RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI